

JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

FYODOR DOSTOYEVSKIY

XO'RLANGANLAR VA HAQORATLANGANLAR



JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

**FYODOR
DOSTOEVSKIY**

**XO‘RLANGANLAR
VA
HAQORATLANGANLAR**
(roman)

**«Ilm-zoyo-zakovat»
TOSHKENT – 2019**

UO'K: 821.161.1-31

KBK: 84(Rus)

D-74

Fyodor DOSTOYEVSKIY. «Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar» / roman / ruschadan **Habiba ZIYOXONOVA** tarjiması/ «Jahon adabiyoti durdonalari» turkumi – T.: «Ilm-zoyo-zakovat», 2019. – 432 b.

Nashrga tayyorlovchi, iqtibos va izohlarni kirituvchi:

Ergashboy MATYOQUBOV

AZIZ KITOBXONLAR!

Qo'lingizdagi ushbu kitob rus adibi Fyodor DOSTOYEVSKIY qalamiga mansub "Униженные и оскорбленные" romanining Habiba Ziyoxonova tomonidan "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar" nomi ostida tarjima qilingan ko'rinishidir.

Shuni bilingki, badiiy asarni tarjima qilish (ayniqsa, turkiy tillarga mansub bo'lmagan tildan tarjima qilish) shu asarni qaytadan yozish bilan teng qiyinchilikka ega. Shu tildagi iboralarini so'zlarni, jummalarni yoki maqol-matallarni maromiga yetkazib tarjima qilish juda mushkul ish hisoblanadi. Chunki bunda tarjimondan bevosita eng kamida ikkita xorijiy tilni mukammal bilish, shuningdek, o'sha til egalari – xalqning turmush-tarzi, etnografiyasini, madaniyatini va tarixini mukammal bilish talab etiladi. Shuning uchun Habiba Ziyoxonova ham doimo xalqimizning, ayniqsa, o'quvchi yoshlarimizning tahsin-u tashakkuriga sazovor bo'lgan. Biz ham shular qatorida tarjimon – Habiba Ziyoxonovadan ushbu xizmatlari uchun behad xursandmiz!

O'zbek kitobxonlariga taqdim etilayotgan bu roman ulug' rus yozuvchisi F. M. Dostoevskiyning eng yirik asarlaridan biri. Adib rus podsholarining poytaxti bo'lgan Peterburg shahrining eng qashshoq, baxtsiz fuqarolari hayotini tasvirlaydi, ularning oliyjanobligini, zolim knyaz Valkovskiy kabi katta yer egalarining berahm, ochko'zligini chuqur badiiy vositalar bilan ko'rsatadi.

To'g'ri asar tili birmuncha qiyinroq, tushinilishi esa oson emas. Lekin adibning ham mahorati aynan shunda ko'rinadi: asarni oxirigacha o'qisangizgina, adibning nima demoqchi ekanligini tushunasiz. Chunki oldingi sahifalarda sizni nima kutayotganligini ayta olmaysiz, har bir sahifada, albatta, kutilmagan, holatga duch kelasiz...

Ushbu kitob ilk bor o'zbek tilida 1966-yilda chop etilgan. Bu davrdagi nashrida ayrim so'z va jumalarning ma'nosi izohlanmagan yoki ruscha so'zlar, yoki baynalmilal jumlar orqali berilgan edi. Bu holat bilan biz tarjimonlarni yoki o'sha davr nashriyoti xodimlarini kamsitish fikridan yiroqmiz. Faqat hozirgi davr kitobxonlarining talab va iltimoslariga asosan asar tarjimasiga qo'shimcha iqtiboslar kiritildi va asar hozirgi o'zbek adabiy tili qoidalari asosida qayta tahrirlandi.

UO'K: 821.161.1-31

KBK: 84(Rus)

ISBN: 978-9943-5770-8-4

© Fyodor Dostoyevskiy.

© «Ilm-ziyo-zakovat», 2019 yil.

BIRINCHI QISM

I BOB

Bultur yigirma ikkinchi mart kuni kechqurun men g'alati bir hodisaga duch keldim. O'sha kuni men kechgacha shahar kezib, o'zimga kvartira qidirdim. Turgan uyim juda zax edi, yomon yo'tal menda o'sha vaqtlardayoq boshlangan edi. Kuz-dayoq ko'chish niyatim bor edi, ana-mana deb bahorgacha cho'zildi. Kechgacha tentirab birorta tuzukroq uy topolmadim. Men ijarachilardan kvartira olib turishni xohlamas edim: birinchidan, alohida; ikkinchidan, bittagina xona bo'lsa ham kattaroq, mumkin qadar arzonroq bo'lsa bas. Nazarimda, tor uy fikr yuritishga ham torlik qiladigandek tuyuladi. Men esa yozmoqchi bo'lgan qissalarimni birma-bir xayolimdan o'tkazganimda hamisha uyning u boshidan bu boshiga yurib turishni sevar edim. Shuni aytib o'tish kerakki, men uchun asarni yozishdan ko'ra, qanday yozish, uning qanaqa chiqishi haqida o'ylash yoqimliroq edi. Biroq bu erinchoqlikdan emasdi. Nega unaga ekan-a?

Shu kuni ertalab tobim qochib turgan edi, kechgacha borib juda mazam qochdi, etim uvusha boshledi. Uning ustiga, kuni

SAHIFALAR
VA SELE
ABROR REZURS MARKA
№ 54633

bo'yi sandiraqlab yurib charchadim. Kech kirib, qosh qoraygan paytda men Voznesenokiy ko'chasidan o'tib borardim. Men Peterburgning mart quyoshini, ayniqsa, oqshomlari havo ochiq, ayoz bo'lgan kunlari, kunbotar paytini sevaman, shafaq ajoyib go'zallashadi. Ko'chalar birdan nurga g'arq, barcha binolar birdan yarqirab ketgandek bo'ladi. Bir lahzada kulrang, sariq va to'q yashil rang binolarning chiroyi ochilib ketadi, go'yo shu dam ko'ngling ham ravshan tortgandek, vujuding jimillab ketadi yoki seni birov tirsagi bilan asta turtib o'tgandek bo'ladi. Yangi boqish, yangi fikrlar... Ajabo, quyoshning birgina shu'lasini inson qalbida naqadar ajoyib taassurot uyg'otadi!

Biroq quyosh nuri so'ndi; sovuq kuchayib, burunni achita boshladi; qorong'i quyuglashdi, magazin va do'konlarda gaz chiroqlar yoqildi. Millerning qandolat do'koni oldiga kelganimda birdan taqqa to'xtadim-u, xuddi shu topda g'alati bir hodisa yuz berishini ko'nglim sezgandek, ko'chaning narigi betiga qaray boshladim, shu payt ko'chaning narigi betida chol bilan uning itini ko'rdim. Yaxshi esimda borki, o'sha payt yuragim allaqanday yoqimsiz bir hodisa yuz berishini sezgandek uvushib ketdi, biroq nima uchun shunday bo'lganini o'zim ham bilmadim.

Men mistik¹ emasman, oldindan sezish, rom ochish kabi narsalarga ishonmayman, shunga qaramay, hayotimda bir necha bor shunday izoh qilib bo'lmaydigan g'alati hodisalar yuz bergan, balki, bunday hollar boshqalarda ham sodir bo'lgandir. Mana, misol uchun mana shu cholni olaylik. Nega o'shanda men cholni ko'rishim bilan shu oqshom mening hayotimda g'alati bir hodisa yuz berishini ko'nglim sezib qoldi. Shunisi borki, men o'sha topda betob edim. Bunday hollarda sezgilar ham odatda aldovchan bo'ladi.

Chol bukchayganicha xuddi yog'och oyoqda yurgandek zaif oyoqlari bilan bitta-bitta qadam tashlab, hassasi bilan yo'lakcha toshlarini asta-asta urib, qandolat do'koniga yakinlashaverdi. Men umrimda bunday g'alati beo'xshov gavgani ko'rgan emas-

¹ **Mistika** (yunoncha: mystikos – yashirin, sirli) – g'ayritabiiy olamga, ilohlar va ilohiy kuchlarga, insonning ilohiyat olami bilan aloqa qila olishiga ishonishdan iborat diniy e'tiqod. **Mistitsizm** – mistikaga, tasavvufga asoslangan idealistik diniy dunyoqarash; mistikaga moyillik.

man. Bundan ilgari ham, Miller do'konida u bilan uchrashib qolgan paytlarimda ham unga rahmim kelib yuragim ezildi. Novcha bo'yi, egilgan yelkasi, sakson yoshli kishining murdasimon basharasi, choschokidan so'kilib ketgan eski paltosi, faqat gardana-dagi oq ham emas, oq sariq bir tutam sochi qolgan taqir boshini bekitib turgan yigirma yillik g'ijim-g'ijim dumaloq shlyapasi uning burab yurgizib yuborilgandek harakat qilishi, bularning hammasi uni daf'atan ko'rgan har qanaqa kishini ham hayratga solardi, haqiqatan ham, bu oshini oshab, yoshini yashab bo'lgan kimsasiz, g'arib ko'rinishida o'z nazoratchilaridan qochib ketgan jinniga o'xshagan chol kishi ko'ziga g'alati ko'rinardi. Uning haddan ziyod oriqligi meni yana ham ajablantirar, badanida et degan narsa yo'q. Terisi borib ustixoniga yopishgandi. Atrofi ko'm-ko'k ko'karib ketgan, katta katta, lekin nursiz ko'zlari to'g'riga qarab tikilganicha turaverardi. Men shunga aminmanki, u atrofiga hech qachon qaramasdi ham, hech narsani ko'rmasdi ham. Sizga qarab turgandek bo'lsa ham, xuddi ro'parasida hech narsa yo'qdek ustingizga bostirib kelaverardi. Men buni bir necha bor sezganman. U Miller do'koniga yaqindan beri keladigan bo'ldi, uning qayerdan kelganini ham hech kim bilmasdi, tag'in doim itini ergashtirib yurardi. Qandolat do'koni shina-vandalaridan birortasi hech vaqt u bilan so'zlashmas, o'zi ham hech kimga gap qotmas edi.

«Millernikiga kelib nima qilarkan?» – deb o'ylardim men ko'chaning u betida turib undan ko'z uzolmay.

Betobligimdanmi, charchaganimdanmi, xullas, o'zimdan-o'zim tutaqib ketdim. – Biror narsani o'ylarmikin shu odam? – dedim o'zimga, – umuman miyasi ishlarmikin? Uning afti basharasi shu qadar jonsizki, unda biror ifoda ko'rinmaydi. Anavi o'limtik itni qayerdan oldi ekan? Xuddi kindigi birdek undan ajralmaydi ham! Tag'in xuddi o'ziga o'xshaydi-ya, tavba!»

Bu jonivor it ham egasiga o'xshash saksonlarga borgan bo'lsa kerak. Ha, shubhasiz, shunday. Birinchidan, ko'rinishida u shu qadar qariki, boshqa itlar hech qachon bunday bo'lmaydi. Ikkinchidan, uni birinchi ko'rishimdayoq negadir bu it boshqa itlarga o'xshagan oddiy it emas, degan fikr darrov ko'nglimga

keldi. U qandaydir g'ayritabiiy, qandaydir bir ajoyib, sehrli bir it bo'lishi kerak, balki, u it qiyofasiga kirib olgan allaqanaqa azozil-u¹, uning taqdiri allaqanday sirli, noma'lum yo'llar bilan egasining taqdiriga bog'langan. Unga qarab tursangiz, siz ham darrov u bechora yigirma yildan buyon ovqat yemagandir degan fikrga kelardingiz. U shu qadar qiltiriq ediki, qovurg'alari sanalib qolgandi. To'g'rirog'i, u egasining xuddi o'zginasi edi. Ustidagi juni deyarli batamom tushib ketgan, hamisha puti orasiga suqilib yuradigan tayoqdek dumida ham bir tuki qolmagan. Shalpang-quloq kallasi osilib yurardi. Men umrimda bunchalik yoqimsiz itni ko'rgan emasman. Egasi oldinda, iti ketida daydib yurishganda itning tumshug'i xuddi yopishtirib qo'ygandek cholning etagiga tegib turadi. Ularning ko'rinishi: «Qarib qoldik, e Xudo, qartayib qoldik!» – degandek.

Esimda bor: o'shanda bir kun chol ham, it ham yozuvchi Gofmanning Govarni² rasmlari bilan bezalgan kitobi sahifasidan o'rmalab chiqib olib, afishadek yorug' dunyoda sang'ib yurgan bo'lsa kerak, degan fikr kelgan edi miyamga. Men ko'chani kesib o'tib chol orqasidan qandolat do'koniga kirdim.

Qandolat do'konida chol hammaga tanilib qolgan edi. Miller ham keyingi vaqtlarda do'kon peshtaxtasi orqasida turib pashshaxo'rda mehmonni ko'rishi bilan beixtiyor aftini burishtirib qo'yardi. Qizig'i shuki, bu g'alati mehmon hech qachon, hech narsa so'ramasdi. U har gal to'ppa-to'g'ri pechkaning oldidagi burchakka borib, shu yerdagi kursiga o'tirardi. Agarda uning pechka yonidagi joyi band bo'lsa, joyni egallagan odam ro'parasida hang-mang bo'lib birpas so'rrayib turardi-da, keyin xunob bo'lib, boshqa burchakka borib deraza tagidan joy olardi. U yerdan bitta kursini surib sekin o'tirar, shlyapasini yechib yerga qo'yardi-da, uning yoniga hassasini qo'yib, kursining suyanchig'iga suyanganicha uch-to'rt soat qimir etmay o'tirar edi. U qo'liga biror gazetani ham olmas, churq etmay ko'zini baqraytirganicha bir nuqtaga tikilib o'girar edi, boqishi shu qadar jonsiz,

¹ Azozil – shayton, iblis.

² Gofman Ernst Teodor Amadey (1776–1822) – nemis romantizm adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri.

shu qadar ifodasiz ediki, atrofidagi hech narsani ko'rmasdi ham, eshitmasdi ham deb o'ylash mumkin edi.

Uning iti bo'lsa bir joyda ikki-uch aylanib, cholning oyoqlari ostiga cho'zilar, tumshug'ini uning etigi orasiga tiqqanicha bir-ikki martaba chuqur nafas olib, polga uzala tushib yotar, u ham butun oqshom davomi o'lib qolgandek qimir etmas edi. Go'yo bu ikki maxluq kuni bilan biror yerda o'lib yotadilar-u, kun botishi bilan Miller do'koniga yetib olish va u yerda allaqanday sirli, hech kimga ma'lum bo'lmagan bir vazifani ado etish uchungina birdan tirilib qolardilar. Chol uch-to'rt soatcha o'tirgandan keyin, nihoyat, o'rmdan turardi, shlyapasini olib allaqaysi go'rdagi uyiga ravona bo'lardi, it ham dumini qisib boshini osiltirganicha, avvalgidek beixtiyor qadam tashlab egasi orqasidan jo'nardi. Bora-bora qandolat do'koniga kelib turadigan mijozlar choldan o'zlarini chetga tortadigan, undan hazar qiladigandek yoniga o'tirmaydigan bo'lib qolishdi. Lekin chol hech nimani sezmas edi.

Qandolat do'koniga keluvchilarning ko'pchiligi nemislar. Bu yerga Voznesenskiy ko'chasidagi turli korxona egalari: chilangarlar, novvoylar, bo'yoqchilar, bosh kiyim ustalari, sarrojlar¹, xullas, nemislar tushunchasiga muvofiq eski urf-odatlarga amal qiladigan odamlar shu yerga yirilar edi. Millerning o'zi ham eski rasmlarga rioya qilardi. Ko'pincha u tanish mehmonlar oldiga kelib, ular bilan hamsuhbat bo'lar, uncha-muncha punsh² ham ichib turardi. Uning itlari, mayda bolalari ham ba'zan mijozlar oldiga chiqib turishar, mijozlar ham Millerning bolalarini, itlarini erkalab qo'yishardi. Ularning hammasi bir-biri bilan tanish va bir-birlarini hurmatlashar edi. Mehmonlar nemis gazetalarini zo'r ishtiyoq bilan o'qishga kirishganlarida, uyning ichkarisidan qo'shiq yangrar, buni mezbanning xuddi oq sichqonga o'xshagan malla sochli katta qizi buzuq fortepyano³ chalib aytar

¹ Sarroj – ot asboblari yasovchi hunarmandlar.

² Punsh (*nemischa*: Punsch; *inglizcha*: punch) – shakar, suv va meva sharbatini qorishmasidan qaynatib tayyorlanadigan spirtli ichimliklarning umumiy nomi.

³ Forte-piano (*italyancha*: forte – kuchli va piano – kuchsiz, sekin) – royal va pianinodoshlarning umumiy nomi.



edi. Vals¹ hammaga manzur bo'lardi. Men Millernikiga har oyning boshida bo'lib turadigan rus jurnallarini o'qish uchun borardim.

Men qandolat do'koniga kirganimda chol deraza tagida o'tirar, iti har galgidek uning oyog'i ostida cho'zilib yotar edi. Men ham indamay burchakka borib o'tirdim va o'zimga-o'zim: «Nega bu yerga kirdim, bu yerda hech qanaqa qiladigan ishim yo'q edi-ku, tobim qochib turgan bo'lsa, uning o'rniga tezroq uyga bormaymanmi, issiqqina choy ichib yotmaymanmi! Nahotki ataylab shu cholni ko'rish uchun kirdim-a!» – deb savol berdim. O'zimga alam qilib ketdi. «U bilan nima ishim bor-a, tavba, – deb o'yladim, haligina ko'chada ko'rganda ta'bim xira bo'lib ketganini eslab. – Mana bu so'xtasi sovuq nemislar bilan nima ishim bor? Nega buncha ruhiy tushkunlik? Nega buncha arzimagani narsalardan tashvishlanaverish?» Keyingi vaqtlarda menda gap yoqmaslik, bekorga tashvishlanish kabi holatlar ro'y ber-yapti-ku, ular menga yashashga va hayotni ravshan ko'rishga xalaqit bermoqda, bu holat hatto mening yozgan asarlarimda ham balqib turadigan bo'ldi. Mening keyingi qissamni o'qib chiqqan bir tanqidchi ham buni yaqqol ko'rgan va jahli chiqib yuzimga aytgan edi. O'zimdan-o'zim xunob bo'lib, noliganim bilan, baribir, chiqib ketmadim, lekin borgan sari mazam qochaverdi, va nihoyat, issiqqina uydan ketishni o'zim istamay qoldim. Men Frankfurt gazetasini qo'limga olib ikki satr o'qishim bilan uyqu bosdi. Nemislar menga xalaqit berishmasdi. Ular o'qishar, chekishar va ahyon-ahyonda bir-birlariga past ovoz bilan Frankfurt yangiliklaridan, yana mashhur nemis askiyachisi Safirning² allaqanday payrovini aytishar, shundan keyin yana milliy iftixor tuyg'ulari jo'sh urib o'qishga kirishib ketishardi.

Yarim soatgina ko'zim ilinibdi, shekilli, badanim uvushib uyg'onib ketdim. Albatta, uyga jo'nashim juda zarur edi. Biroq shu payt xonada ro'y bergan bir g'alati voqea yana meni to'x-

¹ Vals (*fransuzcha*: valse – dumalatmoq, aylantirmoq) – 1) odatda juft-juft bo'lib, uch taktda bir aylanib, ohista davra olib o'ynaladigan ravon va vazmin raqs va shu raqs musiqasi; 2) uch chorakli musiqa asari.

² Safir Morits Gotlib (1795-1858) — Vengriyada tug'ilgan, asli yahudiy millatiga mansub hajviyotchi shoir.

tatdi. Men hali aytib o'tgan edim; chol stulda o'tirib olib, bir narsaga tikilganicha, uch-to'rt soat ko'zini o'sha yerdan uzmay baqrayib o'tiraverardi. Ba'zan menga ham chol shunday tikilib qolardi. Bunday vaqtlarda yoqimsiz tuyg'udan badanim jimillab ketib, tezda joyimni o'zgartirar edim. Hozir cholning ko'zi kichkina, dum-dumaloq, ohorli yoqalari tippa-tik, ozoda kiyin-gan, sholg'omdek qizil yuzli nemisga tikilib qoldi. Bu Rigadan kelgan mehmon – Adam Ivanich Shults nomli savdogar ekan. Keyin bilishimcha, Millerning yaqin og'aynisi bo'lgan bu odam hali cholni ham va bu yerga keluvchilarning ko'pini tanimas ekan. U «Dorfbarbier¹» gazetasini zo'r ishtiyoq bilan o'qib, punsh ichib o'tirganida birdan boshini ko'tarib, cholga ko'zi tushdi. Chol unga baqrayganicha o'tiraverdi. Bu hol nemisni hayron qoldirdi. Adam Ivanich umuman hamma «oliyjanob» nemislar kabi nihoyatda jizzaki va nozik tabiatli odam edi. Chol-ning bezbetlik bilan unga tikilib turishi g'ashini keltirdi, haqorat-dek tuyuldi. Tutib kelayotgan jahldan o'zini bosdi, bir nima deb to'ng'illadi-yu, beodob mehmondan ko'zini olib qochib, inda-may gazeta bilan yuzini berkitadi. Biroq sabr qilolmay bir daqi-qadan so'ng yana shubha bilan gazeta tepasidan mo'raladi: o'sha tikilish, o'sha bema'ni ko'zlar! Adam Ivanich bu gal ham inda-madi. Lekin bu hol oliyjanob xaloyiq oldida o'z nomusini himo-ya qilish, o'zini go'zal Riga shahrining namoyandasi deb hisoblaganidan, ehtimol, uning obro'sini to'kmaslikni o'z burchi deb bildi. Toqatsizlik bilan gazetani stolga tashladi, gazeta qistirilgan tayoqcha stolga tegib taraqqlab ketdi, punshdan va nafsoniyatdan basharasi sholg'omdek qizarib, yallig'lagan ko'zchalari bilan u ham o'z navbatida xira cholga tikildi. Nemis ham, uning raqibi ham: «Kimni kim qochirarkan», – deb ko'z urushitirish o'ynagandek, bir-birlariga qadalib tikilib qolishdi. Tayoqchanning taraqqlab ketishi, Adam Ivanichning urishqoq xo'rozdek g'o'dayib turishi o'tirganlarning diqqatini jalb etdi.

Hamma shu zahoti o'z mashg'ulotini yig'ishtirib qo'yib, indamay qiziqib ikki raqibni tomosha qilib turishdi. Odamning

¹ **Dorfbarbier** (*nemischa*; qishloqi sartarosh) – XIX asr o'rtalarida Germaniyaning Leypsig shahrida nashr etilgan gazeta.

kulgisini qistatadigan holat yuz bergan edi. Biroq qizarib ketgan Adam Ivanich ko'zchalarining bu harkatlari quvvati zoe ketdi. Chol esa parvoyi falak, joni bo'g'zidan chiqib ketay deyayotgan janobi Shultsga tik qarab turaverdi, u atrofdagilarning nazar-e'tiborini o'ziga jalb qilganidan mutlaqo bexabar, go'yo uning fikri xayoli yerda emas, oyda parvoz etayotgandek edi. Nihoyat, Adam Ivanichning sabr kosasi to'ldi va u nemischalab, keskin va chinqiriq tovush bilan.

– Nega muncha menga tikilib qaraysiz?! – deb do'q qildi.

Biroq uning raqibi gapga tushunmagandek, va hattoki, savolni eshitmagandek indamay o'tiraverdi. Adam Ivanich ruschalab gapirishga qaror qildi.

– Men sizdan so'rayapman, nega muncha baqrayib menga tikilasiz? – dedi tutaqib. – Saroyga ma'lum odamman, siz saroyga noma'lum! – qo'shib qo'ydi u kursidan irg'ib turib.

Ammo chol qimir ham etmadi. Nemislar orasida g'azabli tovushlar eshitildi. Shovqin-suronni eshitib Millerning o'zi ham chiqdi. Bo'layotgan hodisadan xabardor bo'lgach, cholni garang deb o'ylab, uning qulog'i tagiga engashdi.

– Shults janoblari u kishiga qattiq tikilmas-ligingizni yaxshilikcha so'rayaptilar, – deb qichqirdi, bu dardisar odamni sinchiklab ko'zdan kechirarkan.

Chol yarq etib Millerga qaradi, birdan shu paytgacha harakatsiz ko'ringan yuzida allaqanday tashvishli ifoda, allaqanday hayajon alomatlari ko'rindi. U hovliqib qoldi, inqillab shlyapasini olish uchun engashdi, hassasi bilan shlyapasini apil-tapil yerdan oldi-yu, o'rnidan turdi, g'ariblardek iljayib uydan chiqishga tayyorlandi. Yanglishib birovning joyiga o'tirib qolgan faqir-bechorani haydaganlarida shunday iljayadi. Bechora mun-killagan cholning mo'minlik, itoatkorlik bilan shoshib-pishib chiqib ketishga tayyorlanishida, kishining yurak-bag'rini ezib yuboradigan shu qadar ayanch bir ado bor ediki, Adam Ivanichdan tortib hamma o'z fikridan qaytdi. Chol birovning ko'nglini og'ritish u yoqda tursin, har daqiqa o'zining hamma yerdan gadoydek haydalinini tushunib turganligi aniq ko'rinib turardi.

Miller oqko'ngil va rahmdil odam edi.

– Yo‘q, yo‘q, – dedi u cholga dalda berib yelkasiga qoqib qo‘yarkan, – o‘tiraversinlar! Aber¹! Janobi Shults unga hadeb tikilib qaramasligingizni so‘rayaptilar. U kishi saroyga ma‘lum odam.

Bechora chol bu gal ham tushunmadi, u avvalgidan ham battarroq shoshilib qoldi, shlyapasidan tushib ketgan eski, yirtiq ko‘k ro‘molchasini olish uchun engashdi. Yerda qimir etmay yotgan itini chaqira boshladi. Iti tumshug‘ini ikki oyog‘i orasiga olib qattiq uxlayotgandek ko‘rinardi.

– Azorka, Azorka! – yamlab gapirdi u keksalarga xos tit-roq ovoz bilan. – Azorka!

Azorka qimirlamadi.

– Azorka, Azorka! – takrorladi chol tashvish bilan, keyin hassasi bilan turtib ko‘rdi, it hamon qimirlamay yotar edi.

Cholning hassasi qo‘lidan tushib ketdi. U engashdi-da, cho‘qqayib o‘tirib ikki qo‘li bilan Azorkaning tumshug‘ini ko‘tardi. Bechora Azorka! U o‘lgan edi. U o‘z egasining oyoqlari ostida jimgina jon beribdi, bechora yo qarilikdan, yoki ochlikdan o‘lgandir. Chol bir daqiqa Azorkaning o‘lganligiga ishonmagan-dek hang-mang bo‘lib turdi, keyin astagina o‘zining vafodor yo‘ldoshi va do‘stiga yaqinlashdi-yu, uning tumshug‘iga rangsiz yuzini bosdi. Bir daqiqa jimjitlik hukm surdi. Hammamizning ko‘nglimiz buzildi... Nihoyat, g‘arib-bechora o‘midan turdi. Uning rangi oppoq oqargan, dag‘-dag‘ titrar edi.

– Terisiga somon tiqib tulup yasasa bo‘ladi, – dedi rahmdil Miller yana rus tilini buzib gapirib, nima bilan bo‘lsa ham, cholning ko‘nglini olishga urinib. – Yaxshi tulup yasash mumkin: Fedor Karlovich Kriger ajoyib usta. Fedor Karlovich Kriger tulup yasashga juda ham usta-da, – takrorladi Miller, yerdan hassani olib cholga berarkan.

– Ha, men yaxshi tulup yasay olaman, – dedi kamtarlik bilan Krigerning o‘zi oldinga o‘tib. Bu uzun bo‘yli, ozg‘in, jingalak sariq sochli, qirra burni ustiga ko‘zoynak taqib olgan saxovatli nemis edi.

¹ Aber (*nemischa*) – lekin.

– Fedor Karlovich Kriger juda ham iste’dodli odam, har qanaqa tulupni ham qotirib tashlaydi, – dedi Miller miyasiga kelgan fikridan tobora zavqlanib.

– Ha, men tulup yasashga nihoyatda ustaman, – dedi yana keyin tantiligi tutib ketib Kriger, – men tekinga kuchugingizning terisiga somon tiqib qotirib beraman! – dedi.

– Yo‘q, pulini sizga men to‘layman! – baqirdi ovozinig boricha boyagidan battarroq qizarib ketgan Adam Ivanich Shults o‘z navbatida mardlik ko‘rsatib. U soddadillik bilan o‘zini barcha falokatning sababchisi deb hisoblardi.

Chol hamma gaplarni eshitardi-yu, hech narsaga tushunmay, boyagidek qaltirab turardi.

– Shoshmang! Bir qadah yaxshi konyak ichib oling! – dedi Miller sirli mehmonning ketishga chog‘lanayotganini ko‘rib.

Konyak keltirdilar. Chol qadahni beixtiyor oldi, lekin qo‘llari titrar edi, labiga olib bormasdan turib konyakning yarmi to‘kilib ketdi, bir qultum ham ichmasdan qaytarib patnisga qo‘ydi. Keyin yuzida g‘alati, beo‘xshov bir iljayish bilan Azorkani shu joyda qoldirib, yakkam-dukkam qadam tashlaganicha qandolat do‘konidan chiqib ketdi. Hamma anqayganicha qolaverdi, keyin atrofdan xitoblar eshitildi:

– Shvernot! Vas-fyur-eyne-geschixte!¹ – deyishardi nemislar bir-biriga ko‘zlarini chaqchaytirib.

Men chol orqasidan yugurdim. Qandolat do‘konidan bir necha qadam narida, o‘ngga burilganda ikki tomoni katta-katta binolar bilan o‘ralgan tor va qorong‘i ko‘cha bor. Ko‘nglimga chol, albatta, shu yoqqa burilgan bo‘lishi kerak degan fikr keldi. Bu yerda o‘ng tomonga ikkinchi bino qurilmoqda, atrofi havoza bilan o‘rab tashlangan. Qurilishning himoya devori tor ko‘chaning qoq o‘rtasiga chiqadi; bu yerga o‘tkinchilar uchun taxta to‘shama qilingandi. Devor bilan bino o‘rtasidagi qorong‘i burchakka yetganimda cholni ko‘rdim. U yog‘och yo‘lakchanning chetida ikki tirsagini tizzasiga tiragan holda qo‘llari bilan boshini changallab o‘tirar edi. Men yoniga o‘tirdim.

¹ Shvernot! Vas-fyur-eyne-geschixte (*nemischa*; Das ist Ärger Was für eine Geschichte!)
– Voy falokat-e! Bu qanaqa gap-a!

– Menga qarang, – dedim men gapni nimadan boshlashimni ham bilmay, – Azorka uchun kuymang. Yuring, men sizni uyingizga olib borib qo‘yaman. Tinchlaning. Hozir izvoshchi¹ olib kelaman. Qayerda turasiz?

Chol javob bermadi. Men nima qilishimni bilmay qoldim. O‘tkinchilar ko‘rinmasdi. Birdan u mening qo‘limga yopishdi.

– Nafasim qisyapti! – dedi u xirillab, zo‘rg‘a eshitiladigan ovoz bilan. – Nafasim qisyapti!

– Yuring, uyingizga boramiz! – dedim men o‘rnimdan turib, uni zo‘rlab turg‘izdim. – Issiqqina choy ichasiz, o‘rningizga yotasiz... Men hozir izvosh olib kelaman. Doktor chaqiraman... Bitta tanish doktorim bor...

Men yana nimalar deganim esimda yo‘q. U o‘rnidan qo‘zg‘alishga urindi, ozgina ko‘tarilgandan keyin o‘zini yerga tashladi va yana xirillab bo‘g‘iq tovush bilan g‘o‘diray boshladi. Men unga yaqinroq engashib gapini eshitdim.

– Vasilevskiy orolida, – xirilladi chol, – oltinchi liniya... oltinchi liniyada...

U jimib qoldi.

– Siz Vasilevskiyda turasizmi? Lekin siz u yoq tomonga yurmadingiz; u o‘ngda emas, chap tomonda, men hozir sizni eltib qo‘yaman...

Chol qimirlamadi. Men uning qo‘lini ushlagan edim, qo‘li o‘liknikidek shalop etib tushib ketdi. Men uning yuziga qaradim, ushlab ko‘rdim: chol qazo qilgan edi. Nazarimda, bu narsalar tushimda sodir bo‘layotgandek edi.

Mana bu sarguzasht menga ancha tashvish orttirdi, bu asnoda bezgagim² o‘zidan-o‘zi tarqalib ketdi. Cholning uyini qidirib topdik. Biroq u Vasilevskiy orolida emas, o‘zi vafot etgan yerdan ikki qadam narida, Klugen degan odamning hovlisida turar ekan. Chol beshinchi qavatda, xuddi tomning tagidagi kichkina bir dahliz va deraza o‘rniga uchta tuynuk ochilgan katta va shifti past ayrim xonada istiqomat qilar edi. U benihoya qashshoqlikda yasharkan. Uyning bor jihozi bitta stol, ikkita stul va

¹ Izvosh (*ruscha*: извозчик — kirakash arava haydovchi) – rezina g‘ildirakli, usti ochilib-yopiladigan yengil ot arava; foytun. Izvoshchi – izvosh haydovchi yoki uning egasi.

² Bezgak – vaqti-vaqti bilan isitma chiqarib, qaltiratadigan yuqumli kasallik.

poxollari chiqib yotgan toshdan battar qattiq eski chirigan divandan iborat edi, u ham bo'lsa, uy egasiniki ekan. Pechkaga esa, chamasi, ko'p vaqtlardan beri o't ham yoqilmagan, sham-pam ham topilmadi. Men endi, o'zimcha, chol Millernikiga faqat sham yorug'ida o'tirish, isinish uchungina borar ekan degan xulosaga keldim. Stol ustida bitta bo'sh sopol krujka¹, bir burda qattiq non yotar edi. Pul degan narsadan darak topilmadi, hatto uni dafn qilish uchun kiygizishga bitta ich ko'yilagi ham yo'q ekan; kimdir o'z ko'yilagini bera qoldi. Ma'lumki, bu ahvolda yoppa-yolg'iz o'zi tura olmasdi, ahyon-ahyonda bo'lsa ham, kimdir kelib, holidan xabar olib turishi kerak edi. Stoldan uning pasporti chiqdi. Marhum chet ellik, lekin rus fuqaroligiga o'tgan, yetmish sakkiz yoshli, mashinist² Ieremiya Smit degan odam edi. Stol ustida ikkita kitob: biri qisqacha geografiya, ikkinchisi varaqlariga qalam bilan chizib tashlangan, tirnoq bilan belgi qo'yilgan rus tarjimasidagi Injil³ kitobi edi. Bu kitoblarni o'zim oldim. Bu yerda turuvchilardan, uy xo'jasidan so'rab-surishtirishdi, lekin hech kim chol haqida hech narsa bilmas edi. Bu yerda istiqomat qiladiganlar anchagina, masterovoylar⁴ va uyni ijaraga qo'yib, ijaraga o'tirganlarga ovqat pishirib, xizmatini qiladigan nemis ayollari edi. Zodagonlardan bo'lgan uy boshqaruvchisi ham chol haqida hech qanaqa ma'lumot berolmadi, uning gapidan faqat shu ma'lum bo'ldiki, xona uchun marhum oyiga olti so'm to'lab, to'rt oydan beri turar ekan, ammo keyingi ikki oyga bir tiyin ham to'lamaganligi uchun uni uydin quvishga to'g'ri kelgan ekan. – Unikiga kimdir kelarmidi? – deb so'radilar. Lekin hech kim bu haqda qoniqarli javob berolmadi. Qo'ra Nuh⁵ kema-

¹ **Krujka** (nemischa: Kruse < yunoncha: krossus – ko'za(cha)) – metall, chinni yoki plastmassadan yasalgan, stakan shaklidagi dastali idish.

² **Mashinist** – 1) lokomotivni boshqarib, poyezd haydovchi kishi; 2) kran va shu kabi mashinalarni boshqaruvchi shaxs.

³ **Injil** (arabcha) – Alloh taoloning Iso alayhissalomga Jabroil farishta orqali og'zaki tarzda nozil qilgan kitobi. Nasroniylarning muqaddas kitobi.

⁴ **Masterovoy** – Chor Rossiyasi davrida rus hunarmand ishchisi.

⁵ **Nuh alayhissalom** – Qur'onda nomi zikr qilingan payg'ambarlardan biri. Qur'onga ko'ra, Olloh Nuhn o'z qavmiga payg'ambar qilib yuborgan. Nuh 950 yil yashagan (Ankabut surasi, 14-oyat). Nuhga Olloh kema yasashni va barcha jonivorlardan bir juftidan olib kemaga joylashtirishni buyurgan. Keyin Olloh osmondan juda ko'p yomg'ir yog'dirdi, yerning hamma tomonidan ham suv chiqartirdi. Osmon suvi bilan yer suvi



sidek bo'lsa, unga kirib chiqqanlarning hammasini esda olib qolib bo'ladimi? Shu qo'rada besh yillardan beri ishlab kelayotgan qorovul, balki, biror ma'lumot berishi mumkin edi, lekin u ham bundan ikki hafta burun o'z o'rniga yoshgina jiyanini qo'yib, o'z yurtiga ketibdi, jiyan bo'lsa hali ijaraga turuvchilardan yarmini ham shaxsan tanimas ekan. Bu so'rab-surishtirishlar nima natija berdi, bilmayman. Cholni bir amallab ko'mdik. Men endi shu kunlarda, xuddi o'z tashvishim yetmagandek Vasilevskiy orolidagi Oltinchi liniyaga bordim. Shu yerga kelganimdagina men o'zimdan o'zim kuldim. Oltinchi liniyada bir qator oddiy uylardan boshqa nima ko'ra olardim. «Bo'lmasa nima uchun chol o'la turib Oltinchi liniya va Vasilevskiy oroli haqida gapirdi? Yoki alahladimikin?» – deb o'yladim men.

Men Smitning bo'shab qolgan uyini ko'zdan kechirdim, ko'zimga issiq ko'rindi. Ijaraga oldim. Bu pastakkina, shiftiga boshimni urib olayotgandek bo'lsam ham, o'zi kattagina xona edi. Shunday bo'lsa ham, men tezda o'rganib qoldim. Oyiga olti so'mdan! Bundan ortig'ini topish ham qiyin edi. Alohidaligi, ayniqsa, meni qiziqtirar edi. Faqat endi malay izlash tashvishi qoldi, xolos, chunki bu yerda malaysiz turish mumkin emasdi. Qorovul birinchi vaqtlarda, hech bo'lmasa, kuniga bir marta kirib turishga va'da berdi, biror zarur ish chiqib qolsa, bajara-digan bo'ldi. «Ehtimol, – deb o'yladim, – balki, cholni yo'qlab biror odam kelib ham qolar!» Ammo chol o'lganiga mana besh kun bo'ldi, haligacha hech kimdan darak yo'q.

qo'shilib ulkan to'fon paydo bo'ldi. To'fonda barcha kofirlar halok bo'ldi, faqat kemadagilar sog' qoldilar. Suv pasaygandan keyin kema Judiy tog'i ustida to'xtadi. Kema tog' tepasiga kelib to'xtab, yer to'fon suvini yutib bitirgach, Alloh Nuhni kemadan yerga tushishga buyurdi. Nuh va unga imon keltirgan kishilar kemadan tushishdi. Bu zamin Musil degan yurt edi. Qur'onda Nuh qissasini bayon qiluvchi «Nuh» surasi mavjud.

II BOB

O'sha paytlar, bundan bir yil ilgari, jurnallarga hammualiflik qilib yurar edim, maqolalar yozardim va biror yaxshi yirik asar yozishimga ishonchim zo'r edi. Men o'sha kezlarda katta roman ustida ishlamoqda edim, biroq oqibati shu bo'ldiki, kasalxonaga tushib qoldim, balki, ko'p o'tmay vafot ham etarman. Modomiki, shunday bo'lgandan keyin yozib o'tirishning nima hojati ham bor edi-ya?

Hayotimning mana bu oxirgi og'ir yillari hadeb beixtiyor yodimga tushaveradi. Endi hammasini yozib chiqmoqchiman. Yaxshiki, shu mashg'ulotim bor, yo'qsa yuragim tars yorilib ketar edi. Mana shu o'tgan taassurotlar ba'zan meni shu qadar hayajonlantiradiki, bag'rim alam va iztirob bilan to'ladi. Qog'ozga tushirilsa, bu taassurotlar kishiga orom beradigan, silliq yozilgan asar tabiatini kasb etadi, dahshatli tushlarga unchalik o'xshamaydi, menga shunday tuyuladi, qalam tebratishning o'zi eng ajoyib ish: u kishiga orom beradi, tinchitadi, menda avvalgi yozuvchilik ilhomlarini qo'zg'atadi, xotiralarim va alamli orzularimni ishga va mashg'ulotga aylantiradi... Ha, yaxshi o'ylab topdim. Shu bilan birga feldsherga¹ ham meros bo'lib qoladi; hech bo'lmasa, mening qo'lyozmalarim qishki romlarni² qo'y-ganda tirqishlariga yopishtirishga yarar-ku.

Biroq men nima sababdandir hikoyani o'rtasidan boshlab yuboribman, modomiki, hammasi yoziladigan bo'lgandan keyin boshidan boshlab yoza qolay-da. Mayli, boshidan boshlaymiz. Shuni aytib qo'yayki, mening tarjimai holim uncha uzun emas.

Men asli bu yerlik emasman, bu yerdan uzoq bir yerda, N. gubernasida³ tug'ilganman. Bilishimcha, ota-onalarim yaxshi odamlar bo'lishgan, lekin meni juda ham kichkinaligimda yetim

¹ **Feldsher** (nemischa: Feldsherer – jarroh; harbiy qism sartaroshi) – o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot xodimi, shifokor yordamchisi.

² **Rom** (inglizcha: rum) -- shakarqamishning achitilgan shirasi yoki qiyomidan haydash yo'li bilan tayyorlanadigan kuchli spirtli ichimlik..

³ **Guberna, gubernya** – Chor Rossiyasida, shuningdek, 1929-1930-yillargacha Sobiq Ittifoqda asosiy ma'muriy-hududiy birlik.

qoldirib ketishgan, men yeri uncha katta bo'lmagan pomeshchik¹ Nikolay Sergeich Ixmenev oilasida o'sdim, u meni shafqat yuzasidan o'z tarbiyasiga olgan. Ularning bitta-yu bitta, mendan uch yosh kichkina Natasha ismli qizlari bo'lgan, xolos. Biz Natasha bilan aka-singildek o'sdik. O, mening aziz bolalik chog'larim! Yigirma besh yoshga kirganda seni sog'inish, senga achi-nish, dunyodan o'ta turib faqat senigina zavq bilan, minnatdorlik bilan eslash na qadar telbalik! O'shanda osmonda quyosh shu qadar yorqin ediki, Peterburg quyoshiga o'xshamas, bizning jajji qalblarimiz shu qadar sho'x va quvnoq tepardi. O'shanda atrof hozirgidek o'lik toshlar uyumi emas, dalalar, o'rmonlar bilan qoplangandi. O, naqadar ajoyib va go'zal edi. Vasilevskoedagi bog', o'sha paytlar Nikolay Sergeich bog'da ish boshqaruvchi bo'lib ishlardi. Shu bog'ga biz Natasha bilan o'ynagani bordik. Bog'ning orqa tomonida esa katta o'rmon bo'lardi, biz o'sha yerda ikki martaba adashib qolgandik... Ajoyib bebaho davrlar! Endigina g'uncha yozib kelayotgan hayot sirli, jozibador, u bilan tanishishning o'zi naqadar laziz edi... O'shanda go'yoki har bir buta, har bir daraxt orqasida biz uchun sirli va noma'lum maxluqlar yashardi, nazarimizda, afsonaviy olam haqiqiy olam bilan qo'shilib ketgandek edi; ba'zan chuqur vodiylarda oqshom tumanlari quyuglashib jar yoqasidagi katta qoya bag'rida o'sgan buta shoxlariga oppoq sochlari bilan ilashganda biz Natasha bilan qirg'oqda qo'l ushlab turib, qo'rquv aralash qiziqish bilan jar tagiga qarar edik va soy tagidagi tuman ichidan kimdir bizning oldimizga chiqishini yoki bir sado eshutilishini, shunda enagamiz aytib beradigan ertaklarning chinakam, qonuniy haqiqatga aylanishini kutib turardik. Keyin bir kun, oradan ancha vaqt o'tgandan keyin Natashaga, qanday qilib bizga «Bolalar uchun o'qish» kitobi olib berganlarini, biz shu zahoti bog'ga chiqib, hovuz oldidagi qari sershox zarang² daraxti ostida turadigan, biz yaxshi ko'radigan yashil skameykaga borib o'tirganimizni va «Alfons va Dalinda³» degan sehrli qissani o'qiy boshlaganimizni esiga

¹ Pomeshchik (ruscha: поместьё – «xizmatlari uchun berilgan yer») – katta yer egasi.

² Zarang (tojikcha) – tanasi o'ta darajada qattiq bo'lgan daraxtning bir turi.

³ «Alfons va Dalinda» yoki «Tabiat va san'atning mu'jizalari» – 1769-1779-yillarda Rossiyada nashr etilgan «Novikov» jurnalida 11-12 sonlarida chop etilgan ertak.



57633

soldim. Mana hozir ham men o'sha qissa yodimga kelsa, yuragim ajabtovur urib ketadi. Yaqindagina, bundan bir yil ilgari o'sha qissadagi: «Qissamning bosh qahramoni Alfons Portugaliyada tug'ilgan; uning otasi Don-Ramir va hokazo» degan dastlabki ikki satrni eslata turib yig'lab yuboray dedim. Chamamda, mening bu qilig'im ahmoqona ko'rindi, shekilli, o'shanda Natasha g'alati qilib, mening zavqlanishimdan kulib qo'ndi. Lekin shu zahoti o'z xatosini anglab (yaxshi esimda bor), ko'nglimni olish uchun o'zi ham o'tganlarni eslay boshladi. Bora-bora o'zi ham qattiq ta'sirlanib ketdi. Ajoyib oqshom edi; biz hamma o'tganlarni birma-bir eslab chiqdik, meni gubernator shahridagi pansionga¹ yuborganlarigacha esladik – yo rabbiy, qanday yig'lagan edi o'shanda Natasha! – Oxirgi ayriliq kuni – mening Vasilevskoedan butunlay ketgan kunimni – hamma-hammasini esladik. Men o'shanda pansionni tugatib dorilfununga tayyorlanish uchun Peterburgga jo'nayotgan edim. Men o'n yettida, u o'n beshga qadam qo'ygan payt edi. O'shanda Natasha: «Sen shunday beo'xshov, shunday naynov edingki, senga qarasa, kishiking kulgisi qistar edi», – deydi. Xayrlashish vaqti kelganda men uni bir chekkaga chaqirib allaqanaqa muhim bir gap aytmoqchi bo'ldim. Biroq birdan tilim lol bo'lib, og'zimga hech gap kelmay qoldi. «O'shanda hayajonlanib turgan eding», – dedi Natasha. Albatta, gapimiz qovushmagan bo'lsa kerak. Men nima deyshimni o'zim ham bilmas edim, ehtimol, u o'sha payt gapimga tushunmasdi ham. Faqat men xo'rligim kelib yig'lab yubordim. Shu bo'yi hech narsa demay ketib qoldim. Biz oradan ancha mahal o'tgandan keyin Peterburgda ko'rishdik, bundan ikki yilcha burun. Keksa Ixmenev o'shanda o'zining sud ishlari bilan bu yerga kelgan, men esa endigina yozuvchi deb nom olgan edim.

¹ **Pansion** – turuvchilarni haq badaliga oziq-ovqat va kiyim-bosh bilan taminlaydigan kichik mehmonxona (asarda shu ma'noda).

III BOB

Nikolay Sergeich Ixmenev ko'p vaqtlardan beri kambag'allashib qolgan asilzodalardan edi. Lekin ota-onasidan bir yuz ellik dehqon bilan serunum yer qolgan. yigirma yoshga to'lganda u gusar¹ polkiga² xizmatga kirishga qaror qildi. Ishlari joyida edi, lekin xizmat davrining oltinchi yili bir mash'um kechaning o'zida bor davlatini qimorga boy berib qo'ydi. U tong otguncha uxlamadi. Ertasiga kechqurun yana qarta o'ynaydigan stol yoniga keldi. Otidan boshqa hech narsasi qolmagan edi, o'shani qimorga tikdi, omadi keldi. U ust-ustiga uch marta yutdi, yarim soat ichida o'z qishloqlaridan biri – oxirgi tekshirish bo'yicha ellik jonga ega bo'lgan Ixmenevka nomli qishloqchasini yutib oldi. U bir janjal chiqardi-yu, ertasigayoq iste'fo berdi. Yuz jonli yer-suv shunday qilib qo'ldan ketdi. Oradan ikki oy o'tgach, u poruchik³ unvoni bilan xizmatdan bo'shatildi va o'z qishloqchasiga jo'nab ketdi. Keyin umrining oxirigacha qimorda yutqazganini og'ziga olmadi, yumshoqko'ngilli bo'lishiga qaramay, biror kishi jur'at qilib shu narsalarni eslatsa, urishib qolishi turgan gap edi. Qishloqda u xo'jalik ishlariga qunt bilan kirishdi va o'ttiz besh yoshga kirganda, kambag'al dvoryan⁴ qizi, sepi bo'lmasa ham, lekin gubernada oliy tabaqali pansionda – muhojira ayol Mon-Reveshda ta'lim olgan Anna Andreevna Shumilovaga uylandi. Garchi bu ma'lumot nimadan iborat ekanini hech kim hech qachon bilolmasa hamki, Anna Andreevna butun umr bo'yi o'sha muhojirdan ta'lim olganidan faxrlanib yurar edi. Nikolay Sergeich ishbilarmon chiqdi, qo'shni yer egalari undan xo'jalik

¹ **Gusar** (*vengercha*: huszar) – Chor Rossiyasida va ayrim Yevropa mamlakatlarida: yengil qurollangan otliq askar.

² **Polk** (*ruscha*: bir gala, to'p (qiz); olomon; qo'shin) – odatda, diviziya yoki brigada tarkibiga kiradigan va bir necha batalon va rotadan tashkil topgan harbiy qism.

³ **Poruchik** (*polyakcha*) – harbiy unvon. Hozirgi vaqtda katta leytenant unvoniga to'g'ri keladi.

⁴ **Dvoryanlar** – G'arbiy Yevropada feodalizm va kapitalizm davrlarida xizmat ko'rsatib, martaba orttirgan pomeschik va mulkdorlar, ularning aslzodlaridan hamda podshohga xizmat ko'rsatib, martaba orttirgan amaldorlardan iborat hukmron, imtiyozli tabaqa; oqsuyaklar, zodagonlar.

ishlarini o'rganishdi. Oradan bir necha yil o'tdi. Birdan qo'shni qishloq – to'qqiz yuz jonga ega bo'lgan Vasilevskoe qishlog'iga katta yer egasi pomeshchik Petr Aleksandrovich Valkovskiy Peterburgdan kelib qoldi. Uning kelishi tevarak-atrofdagi katta taassurot qoldirdi. Knyaz, uncha yosh bo'lmasa ham, hali qirchillama yigit edi. Hazilakam mansab egasi emas, yuqorilar bilan aloqador, o'zi chiroyli, badavlat va buning ustiga u so'qqabosh edi. Bu esa, ayniqsa, barcha uezd¹ qiz-juvonlarini qiziqtirar edi. Knyaz gubernatorga uzoq qarindosh ham edi, u kelgan paytda, gubernada markazida ko'rsatilgan ajoyib iltifot va qabul marosimi, gubernadagi barcha ayollar «uning mulozamatdan devona bo'lganlari» va hokazo va hokazolar haqida duv-duv gapirilardi. Xullas kalom, u gubernalarga kamdan kam keladigan, kelganda ham juda zo'r taassurot qoldiradigan Peterburgdagi oliy tabaqaning asilzoda vakillaridan biri edi. Ammo-lekin knyaz ishi tushmaydigan va biroz bo'lsa ham, o'zidan past hisoblangan odamlarga iltifotli emasdi. U o'z mulki atrofidagi qo'ni-qo'shnilar bilan tanishishni o'ziga munosib ko'rmadi va shu tufayli tezda o'ziga ancha dushman orttirib oldi. Shuning uchun ham uning to'satdan Nikolay Sergeich huzuriga bormoqchi bo'lgani hammani benihoya hayratga soldi. To'g'ri, Nikolay Sergeich uning eng yaqin qo'shnilaridan biri edi. Knyaz, Ixmenevlar oilasida zo'r taassurot qoldirdi. U ikkisini ham o'ziga maftun etdi, ayniqsa, Anna Andreevna knyazni o'tqazgani joy topolmas edi. Biroz vaqt o'tgandan keyin u tortinmay har kuni keladigan, ularni ham taklif etadigan bo'ldi. Knyaz askiya qilar, latifalar aytar, shaloq fortepyanoni chalar, ashulalar aytar, Ixmenevlar esa, qanday qilib shunday aziz, muloyim odamni hamma qo'shnilar bir og'izdan takabbur, dimog'dor, quruq, xudbin deb atashlariga hayron qolishar edi. Ehtimol, haqiqatan ham, Nikolay Sergeich sodda, to'g'ri so'z, ko'nglida kiri yo'q, oliyjanob odam bo'lganidan knyazga yoqsa, yoqib qolgandir. Tez kunda bu iltifotning tagi ochildi. Knyaz Vasilevskoega o'z ish boshqaruvchisini ishdan haydash uchun kelgan ekan, uning ish boshqaruvchisi bo'lgan

¹ Uezd (*ruscha*: ездъ – yo'l; ko'cha; yurish) – Chor Rossiyasida va sobiq Ittifoqda 1929-yilgacha gubernada tarkibidagi ma'muriy-hududiy bo'linma.

nemis soqol-mo'yloviga oq oralagan, ko'zoynakli, qirraburun, agronom¹ edi, shu fazilatlarga qaramay, sharm-hayosiz, qo'li egri, yana shularning ustiga bir necha dehqonni qora qon qaqshatgan, fosiq, jizzaki odam edi. Nihoyat, jinoyati ustida qo'lga tushirilgan Ivan Karlovich xafa bo'lib nemislarning pokizaligi haqida ko'p gapirdi, lekin shunga qaramay, rasvoyi olam qilib ishdan haydaldi. Knyazga ish boshqaruvchi kerak edi. U Nikolay Sergeichni ko'z tagiga olib qo'ydi. Uning ishbilarmon va nihoyatda halolligiga hech qanaqa shak-shubhasi yo'q edi. Chamasi, knyaz Nikolay Sergeichning o'zi kelib ish boshqaruvchi bo'lishini iltimos qilishni xohlardi, biroq bunday bo'lmadi, kunlardan bir kun ertalab knyaz o'zi kelib, xokisorlik bilan shu lavozimni do'stona taklif qildi. Ixmenev oldin rad etdi. Biroq kattagina maosh Anna Andreevnani juda qiziqtirdi, knyazning haddan tashqari lutfkorligi barcha shak-shubhalarni yo'q qilib yubordi. Knyaz murodiga yetdi. Nafsilamr, knyaz odam tanlashga juda ham usta edi. O'zining Ixmenev bilan qisqa muddatli tanishligida u kim bilan muomala qilayotganini yaxshi bilib oldi va Ixmenevni o'ziga faqat samimiy do'stlik yo'li bilan jalb etish zarurligini, uning ko'ngliga yo'l topish kerakligi, quruq pul bilan ish bitmasligini tushundi. Axir, unga shunday bir ish boshqaruvchi kerak ediki, undan doimo ko'ngli to'q bo'lsin, ko'r-ko'rona ishonsin, hech qachon Vasilevskoega kelishga ham hojat qolmasin. U o'z rejasida adashmadi. Knyaz Ixmenevni shu qadar o'ziga maftun etgan ediki, Ixmenev chin dilidan uning do'stligiga ishondi. Nikolay Sergeich bizning Rusning ziynati bo'lgan ajoyib oqko'ngil, sodda – romantik odamlardan biri ediki, bunday odamlar biror kishini sevib qolsa, undan (Xudo bilsin, negadir) jonini ham ayamaydi. Ba'zan kulgili darajada o'sha odamga berilib ketadi. Ixmenev shu toifadagi ajoyib inson edi.

Ko'p yillar o'tdi. Knyazning yeri gullab-yashnab ketaverdi. Vasilevskoe qishlog'ining egasi va uning ish boshqaruvchisi o'rtasida hech qanaqa ko'ngilsizlik ro'y bermadi, ikki o'rtadagi aloqa ish yuzasidan yozilgan quruqqina maktublar bi-

¹ Agronom (agro.. + *yunoncha*: nomos – qonun; odat) – qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, uning qonun-qoidolari haqidagi fan; qishloq xo'jalik va dehqonchilikka doir nazariy va amaliy bilimlar mutaxassisi.

lan chegaralanar edi. Knyaz Nikolay Sergeichning buyruqlariga hech aralashmasdi, unga ba'zan shunday maslahatlar berardiki, Ixmenev bu maslahatlarning amaliy jihatdan juda foydali va qulayligiga qoyil qolar edi. Uning isrofgarchilikni sevmasligi, hatto davlat to'plashning ko'zini bilishi ko'rinib turar edi.

Knyaz Vasilevskoega kelganiga besh yil o'tgandan keyin, Nikolay Sergeichga shu gubernaning o'zida yana boshqa bir to'rt yuz jonli serunum yer-mulk sotib olish uchun vakolatnoma yubordi. Nikolay Sergeich shodligidan terisiga sig'mas edi, knyazning dovrug'i, uning muvaffaqiyatlari haqidagi mish-mishlar, uning darajasi ko'tarilayotganini eshitganda xuddi gap o'z tug'ishgan ukasi haqida ketayotgandek qalbi sevinchga to'lar edi. Ayniqsa, knyaz yana bir ishda o'zining g'oyat zo'r ishonchini bildirganda uning xursandchiligi oshib ketdi. Bu mana bundoq bo'lgan edi... Lekin men shu yerga kelganda knyaz Valkovskiyning hayotidagi ba'zi bir tafsilotlarni eslatib o'tishni zarur deb hisoblayman. Axir, qisman u mana shu hikoyamning bosh qahramonlaridan biri-ku.

IV BOB

Men ilgari ham uning so'qqabosh ekanligini aytib o'tgan edim. U ancha yosh mahalida puliga uchib uylangan edi. Moskvada bor-yo'g'ini sovurgan ota-onasidan unga deyarli hech narsa qolmadi. Vasilevskoe qayta-qayta garovga qo'yilgan, qarz boshdan oshib ketgan edi. O'sha vaqtlarda chor-nochor Moskva-da allaqanday idorada ishlashga majbur bo'lib yurgan yigirma ikki yoshli knyazning yonida bir chaqasi ham qolmagan edi, u «asilzoda ajdodlarning qashshoq avlodi» sifatida hayotga qadam qo'ydi. U qandaydir ijarador savdogarning ancha qarib qolgan qiziga uylanib, jon saqlab qoldi. Sep masalasida qizning otasi knyazni chuv tushirdi. Lekin xotinning puli, har qalay, ota meros yer-mulkni qaytadan sotib olish va oyoqqa turib olishga imkon berdi. Savdogarning knyazga tekkan qizi arang yozishni bilar, na

gapda bor, na husnda, bittagina yaxshi xususiyati oqko'ngilliligi va yuvoshligi edi. Knyaz yuvoshligidan toza foydalandi. Uylan-ganidan bir yil o'tgach, u o'g'il tug'ib bergan xotinini Moskvada – savdogar otasining qo'lida qoldirdi-da N. gubernasiga ketib, xizmatga kirdi, peterburglik bir asilzoda qarindoshi yordami bi-lan kattagina mansab egasi bo'lib oldi. Uning qalbi baland mar-tabaga erishish, imtiyozli bo'lish istagi bilan to'la edi, shu sabab-dan u xotini bilan Peterburgda ham, Moskvada ham turolmas-ligini nazarda tutib, yaxshi umid bilan faoliyatni kichik shahar-dan boshlashga qaror qildi. Aytishlariga qaraganda, u xotini bilan tura boshlagan dastlabki yillardayoq qo'pol muomalasi bilan xotiniga toza azob bergan ekan. Bu mish-mish gaplar hamisha Nikolay Sergeichning jig'iga tegar, u jon-jahdi bilan knyazning yonini olar, knyazning bunaqangi noma'qul ishlarni qilishga ko'ngli bo'lmasligini ta'kidlar edi. Biroq oradan yetti yil o'tgach, knyagina vafot etdi. Knyaz vaqtini qo'ldan boy bermay Peter-burgga ko'chib keldi. Peterburgda u tez kunda ko'zga ko'rinib qoldi. Hali yosh, chiroyli, badavlat, juda ajoyib fazilatlariga boy bo'lgan, doim hozirjavob, didli, nihoyatda xushchaqchaq bu yigit baxt va himoya izlab emas, anchagina mustaqil odam sifatida Peterburg oqsuyaklari doirasida paydo bo'ldi. Unda, haqiqatan ham, allaqanday joziba, allaqanday dilbarlik, allaqanday zo'r kuch bor derdilar. U ayollarga juda ham yoqar edi, bu tufayli aristokrat¹ go'zallardan biri bilan bo'lgan yaqin aloqasi uning shuhratini oshirgan edi. U tabiatan haddan ziyod rejali va hatto qurumsoq bo'lishiga qaramasdan, pulni po'choqcha ko'rmay sarf qilar, kerak odam bilan qimor o'ynaganda yutqazib qo'yaverar, katta pul yutqazgan taqdirda ham pinagi buzilmasdi. Biroq Peter-burgga u aysh-ishrat surish uchun emas, balki iqbol yo'liga tu-shib olib yuksak martabaga erishish uchun u erish keldi. Bu maq-sadga erisha oldi ham. Basharti u faqat yordam so'rab kelgan taqdirda, nazar-pisand qilmaydigan baobro' qarindoshi graf²

¹ **Aristokrat** (*yunoncha*: aristokratia – yaxshilar hukmronligi) – 1) iqtisodiy hukmron sinf, zodagonlarning siyosiy hokimiyati, hukmronligi; 2) quldorlik va undan keyingi ilk davlatlarda eng imtiyozli tabaqa (**bu yerda shu ma'noda**).

² **Graf** (*nemischa*) – G'arbiy Yevropada va chor Rossiyasida oliy tabaqali dvoryanlarning knyazdan quyi, barondan yuqori unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs.

Nainskiy uning kiborlar doirasida qozongan yutuqlaridan hayratga kelib, unga alohida e'tibor bilan qarashni o'ziga ep ko'rdi va hattoki uning yetti yashar o'g'lini o'z tarbiyasiga olishga iltifot qildi. Knyazning Vasilevskoega borgan va Ixmenevlar bilan tanishgan vaqti shu paytlarga to'g'ri keladi. Nihoyat, graf yordami bilan u muhim elchixonalardan birida katta lavozimga o'tdi-yu, chet elga jo'nab ketdi. U haqda keyin g'alati mish-mishlar tarqaldi; chet elda qanaqadir ko'ngilsiz voqea yuz bergan deb aytishardi, lekin bu xunuk voqeaning nimadan iborat ekanini hech kim bilmasdi. Shu orada to'rt yuz jon egasi bo'lgan qishloqni sotib oldi, men bu haqda boya gapirib o'tgandim. U chet eldan ancha yil o'tgandan keyin katta unvon bilan qaytdi va tezda Peterburgda katta amalga mindi. Ixmenevkada shunday gap tarqaldi: go'yo u ikkinchi marta uylanarmish va qandaydir dongdor, badavlat, zo'r oila bilan qarindosh bo'larmish. «Osilsang, baland dorga osil!» – deb qo'yardi Nikolay Sergeich zavq bilan qo'llarini ishqalab. O'sha mahalda men Peterburgda dorilfununda edim, o'shanda esimda bor: Ixmenev ataylab menga xat yozgan va knyazning uylanishi haqidagi gaplar rost, yolg'onligini surishtirib bilishimni so'ragan edi. U knyazga menga ham homiylik qilishni so'rab xat yozdi. Lekin knyaz uning maktubini javobsiz qoldirdi. Men faqat shuni bilardimki, uning avval graf qo'lida, keyin litseyda tarbiya olgan o'g'li o'n to'qqiz yoshga kirganda kursni tamomladi. Men Ixmenevlarga shu to'g'rida yozdim. Yana knyaz o'g'lini qanchalik yaxshi ko'rishini, uni erkatoy qilib o'stirayotganini, hoziroq uning istiqboli haqida o'ylayotganlarini yozdim. Men bularning hammasini dorilfunundagi yosh knyazni taniydigan talaba o'rtoqlardan eshitgandim. Xuddi mana shu vaqtlarda kunlardan bir kun ertalab Nikolay Sergeich knyazdan uni nihoyatda hayratga solib qo'ygan maktub oldi...

Men yuqorida eslatib o'tgan edim: shu chog'gacha knyazning Nikolay Sergeich bilan aloqasi bir-ikki og'iz quruq, ish yuzasidan yozilgan maktublar bilan chegaralanar edi. Knyaz unga o'zining oilaviy ishlari haqida to'la-to'kis ma'lumot berib, ochiqdan ochiq va do'stona xat yozgan: u o'z o'g'lidan noligan, o'g'li o'zining yaramas xulqi bilan xafa qilayotganini yozgan

edi. Lekin (chamasi, o'g'lini oqlashga urinib), yosh bola sho'xligiga unchalik jiddiy tus ham berib bo'lmaydi-ku-ya, deb yozgan, lekin shunga qaramay, o'g'lining adabini berib qo'yishni, uning bir qancha vaqtga qishloqqa, Ixmenev nazoratiga yuborib jazolamoqchi bo'lganini bayon qilgan edi. Knyaz «oliyjanob, muhtaram Nikolay Sergeich va, ayniqsa, Anna Andreevnaning himmatlariga ishonishini, ikkalalaridan uning yengiltak o'g'lini o'z oilalariga qabul qilib, esini kirgizib qo'yishlarini, unga mehribonlik ko'rsatish, iloji bo'lsa, eng muhimi, uning yengil tabiat xulq-atvorini o'zgartirib» inson hayotida zarur bo'lgan najotbaxsh axloq qoidalarini unga tushuntirishlarini iltimos qilgan edi. Shubhasiz, keksa Ixmenev quvonch bilan ishga kirishdi. Yosh knyaz ham yetib keldi; uni o'z jonajon o'g'illaridek qabul qildilar. Ko'p o'tmay uni Nikolay Sergeich o'z Natashasi kabi qattiq sevib qoldi, hatto keyin ham katta knyaz bilan Ixmenevlar orasiga adovat tushib uzil-kesil ajralib ketganlaridan keyin ham chol o'z Alyoshasini shodlik bilan eslar edi. To'g'risini aytganda, Alyosha ham yoqimtoy yigit edi; o'zi juda go'zal, nimjongina, asabiy, shu bilan birga xushchaqchaq va sodda, dili pok, eng nozik tuyg'ularga boy, mehr-muhabbatli, rostgo'y, minnatdor qalb egasi Alyosha, Ixmenevlar uyining arzandasi bo'ldi. O'n to'qqizga kirganiga qaramay, u hali yosh bolaning o'zginasi edi. Odamlarning gapiga qaraganda, o'g'lini qattiq sevgan knyaz nega uni qishloqqa jo'natib yuborganligi aqlga sig'mas edi. «Yosh knyaz Peterburgda ancha bevosh, yengil hayot kechirgan, xizmatga kirishni istamagan, shu bilan otasini xafa qilgan», – deydilar. Nikolay Sergeich Alyoshadan so'rab-surishtirmadi, chunki knyaz Petr Aleksandrovich o'g'lining nima uchun badarg'a qilayotganining sabablari haqida og'iz ochmagan edi. Lekin Alyoshaning allaqanaqa kechirib bo'lmaydigan gunoh qilib qo'yganligi, bir ayol bilan aloqa bog'laganligi, allaqanaqa duel, qartadan juda katta pul yutqazganligi, hattoki birovning pulini sarf etib qo'yganligi haqida ham mish-mishlar tarqalgan edi. Yana go'yo-ki knyaz o'g'lini aybi bo'lgani uchun emas, o'z manfaatini ko'zlab jo'natishga uringan degan xabarlar ham bor edi. Nikolay Sergeich bu keyingi mish-mishlardan nafratlanib, uni inkor qilar

edi. Axir, Alyosha o'z otasini butun bolalik va o'smirlik davrlarida ko'rmaganiga qaramay, shu qadar sevar ediki, uni hurmat va ehtirom bilan tilga olar, uning chizgan chizig'idan chiqmasligi ko'rinib turar edi. Alyosha ham ba'zan allaqanaqa grafinya¹ haqida gapirib, unga otasi ham, o'zi ham aylanishib qolganini, lekin Alyosha otasidan ustun chiqqanligi, otasi esa qattiq g'azablanganligini aytar edi. U hamma vaqt bu voqeani zavq bilan bolalarcha, soddalik, quvnoq kulgi bilan hikoya qilar, lekin Nikolay Sergeich darrov uni to'xtatib qo'yar edi. Alyosha otasining uylanmoqchi bo'lib yurganini ham tasdiqlar edi.

Alyosha quvg'inlikda bir yilcha yashadi, otasiga vaqti-vaqtida hurmat bilan oqilona maktublar yozib turdi. Nihoyat, Vasilevskoega o'zi shunday o'rganib qoldiki, otasi yozni o'tkazish uchun qishloqqa kelganda (bu haqda u Ixmenevlarni oldin xabardor qilgan edi), uning o'zi otasidan Vasilevskoeda mumkin qadar uzoqroq qolishga ruxsat etishini, qishloq hayoti unga juda monand ekanini so'rab yolvora boshladi. Alyoshaning barcha qaror va orzu-havaslari uning nihoyatda asabi zaif, ta'sirchanligidan, qizg'in qalbligidan, ba'zan bema'ni yengiltaklikdan, har qanaqa tashqi taassurotlarga bo'ysunish qobiliyatining nihoyatda o'tkirligidan va benihoya irodasizligidan kelib chiqar edi. Biroq knyaz o'g'lining iltimosini g'alati shubha bilan tingladi... Umuman Nikolay Sergeich o'zining sobiq «do'stini» taniyolmay qoldi. Knyaz Petr Aleksandrovich nihoyat o'zgarib ketgan edi. U hech narsadan hech narsa yo'q birdan Nikolay Sergeichga tirg'aladigan bo'lib qoldi, yer-mulk bo'yicha hisob qog'ozlarni tekshirib turib allaqanday yaramas bir xasislik, qurumsoqlik va badgumonlik ko'rsatdi, bular barchasi oqko'ngil Ixmenevni qattiq ranjitdi. U anchagacha o'zining yanglishayotganiga ishonishga urinib yurdi. Bu gal hamma ishlar knyazning Vasilevskoega bundan o'n to'rt yil burun kelganining aksi edi. Knyaz atrofdagi hamma qo'shnilar bilan, shubhasiz, eng e'tiborlilari bilan tanihib oldi; Nikolay Sergeichnikiga esa biror marta qadam qo'y-madi va u bilan o'ziga tobe bo'lgan odamdek muomala qildi.

¹ **Grafinya** (*nemischa*) – ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi grafliklarda qirol nomidan hokimiyatni boshqargan mansabdor shaxsning xotini yoki bevasi.

Birdan anglashilmagan bir hodisa yuz berdi; hech sababsiz knyaz bilan Nikolay Sergeich o'rtasida qattiq janjal boshlandi, ikki tomondan ham achchiq-tirsiq so'zlar aytili. Ixmenev jahl bilan Vasilevskoedan ketib qoldi, lekin ish bu bilan tugamadi. Butun tevarak-atrofda biridan biri xunuk g'iybat gaplar tarqaldi. Go'yo-ki Nikolay Sergeich yosh knyazning xulq-atvoriga tushunib olib, uning hamma kamchiliklaridan foydalanmoqchi bo'lganmish, go'yoki uning qizi Natasha (o'shanda o'n yettiga to'lgan edi) o'ziga yigirma yashar yigitni oshiq qilib olgan emish-u, uning ota va onasi o'zlarini bilmaganga solishsa ham, bu ishq-muhabbatga yo'l qo'yib berishgan emish, quv va «axloqsiz» Natasha navqiron yosh yigitni, nihoyat, o'ziga isitib olibdi. Uning harakati bilan Alyosha bir yil mobaynida mo'tabar qo'shni pomeschchiklar uylarida bo'ylari yetib o'tirgan juda ko'p haqiqiy asilzoda qizlardan birortasini ko'rmagan emish. Tag'in shunday gaplar ham tarqaldiki, go'yo oshiq-ma'shuqlar allaqachon, Vasilevskoedan o'n besh chaqirim naridagi Grigorevo qishlog'iga borib, Natashaning ota-onasidan yashirincha nikoh o'qittirmoqchi bo'lishgan emish, lekin ota-onalari hamma gapning ipidan ignasi-gacha xabardor emish va qizlariga qabih maslahatlar berib yo'lga solishganmish. Qisqasini aytganda, uezddagi g'iybatchi er-ayollarining bu hodisa haqida bichib-to'qiganlarini bir kitobga sig'dirib bo'lmaydi. Ammo hammadan ham hayron qoladigan yeri shuki, knyaz shu gaplarning hammasiga chippa-chindan ishondi va ataylab yolg'iz shu gap uchun, qishloqdan Peterburgga yuborilgan allaqanaqa bir imzosiz maktub tufayli Vasilevskoega keldi. Shubhasiz, Nikolay Sergeichni uncha-muncha bilgan odam, unga to'nkalgan mana bu g'iybatlarning birortasiga ham ishonmasdi, shunga qaramay, hamma hovliqib og'iz ko'pirtirardi, hamma nadomat qilardi, hamma bosh chayqar va qoralar edi. Izzat-nafsi kuchli Ixmenev esa tuhmatchilar oldida qizini oqlab o'tirishni o'ziga ep ko'rmadi, Anna Andreevnasiga ham qo'ni-qo'shnilar bilan aytishib o'tirishni qat'iy man qildi. Malomatga qolgan Natasha esa, hatto oradan bir yil o'tgandan keyin ham, uning sha'niga to'qilgan bo'hton va g'iybatlarning birortasidan ham xabardor emasdi.

Undan hamma bo'layotgan gaplarni yashirishardi, u esa o'n ikki yashar boladek sho'x va beg'ubor edi.

O'sha kundan boshlab janjal avj olaverdi. Xizmatga hozir odamlar mudramadi. Chaqimchilar, guvohlar topildi, va nihoyat, knyazni, uzoq yillar Vasilevskoeda boshqaruvchi bo'lgan Nikolay Sergeich unchalik halol ishlamagan deb ishontirishdi. Bu ham yetmagandek, uch yil bundan ilgari Nikolay Sergeich chakalakni sotganda o'z foydasiga kumush pul bilan o'n ikki ming so'mni yashirib olib qolgan, buni sud oldida eng yaqqol dalillar bilan isbotlash mumkin, vaholanki, chakalakni sotish uchun uning knyazdan hech qanaqa qonuniy ishonch vakolatnomasi bo'lmagan, shunchaki o'zining shaxsiy manfaatini ko'zlab sotgan, anchadan keyin chakalakni sotish zarur ekaniga knyazni ishontirgan-u, chakalak uchun olgan pulini ancha kamaytirib ko'rsatgan, degan uydirmalar ham to'qildi. Shubhasiz, bular hammasi quruq tuhmat ekani keyin ma'lum bo'ldi, lekin knyaz hamma gapga ishondi va guvohlar oldida Nikolay Sergeichni o'g'ri deb atadi. Ixmenev chidab turolmadi, u ham shunga yara-sha haqorat bilan javob qaytardi, juda qabih bir mojaro yuz berdi. Darhol sudlashisha boshlashdi. Ba'zi bir qog'ozlar bo'lmagani, hammadan muhimi himoyachisi va bunaqangi ishlarda tajribasi bo'lmaganligi uchun Nikolay Sergeichning so'zi hech qayerda o'tmadi. Uning yeri xatlab qo'yildi. Fig'oni falakka chiqqan chol, nihoyat, hamma narsadan voz kechib, o'z ishi bilan shaxsan o'zi shug'ullanish uchun Peterburgga ko'chib ketdi, gubernada esa o'z o'rniga bitta tajribali vakil qoldirdi. Ko'p o'tmay knyaz Ixmenevni noo'rin haqorat qilganini tushuna boshladi, lekin har ikki tomon ham bir-birini shunday tahqirlagan ediki, yarashish-ning hech iloji qolmadi, g'azablangan knyaz ishni o'z foydasiga hal bo'lishi uchun qo'lidan kelganicha urindi, ya'ni aslini aytgan-da, o'zining sobiq ish boshqaruvchisining oxirgi burda nonini tortib olish payiga tushdi.

V BOB

Shunday qilib Ixmenevlar Peterburgga ko'chib kelishdi. Bu uzoq hijrondan so'ng Natasha bilan uchrashuvimni tasvirlab o'tirmayman. Mana shu to'rt yil ichida men uni hech qachon esimdan chiqarmadim. Biroq men uni eslaganimda qalbimda ro'y bergan tuyg'ularni tom ma'nosi bilan tushunolmasdim, biroq biz u bilan qaytadan ko'rishganimizda taqdirning o'zi uni men uchun yaratganligini fahmlab qoldim. Eng avval, dastlabki kunlari, nazarimda, u shu yillar davomida go'yoki uncha yetilmagandek, hech qanaqa o'zgarish yo'qdek – o'sha vaqtlar qanday bo'lsa, shundayligicha qolgandek tuyuldi. Biroq keyin, kunlar o'tgan sayin men unda shu chog'gacha menga notanish bo'lgan qandaydir yangi, go'yoki mendan ataylab yashirib yurilgan yangi xislatlar borligini payqadim, go'yoki qiz mendan bekiniyb yurgandek edi. Bu jumboqni topishning o'zi naqadar lazzatli edi! Chol Peterburgga ko'chib kelganining dastlabki kunlari serzarda, g'azabnok edi, chunki ishlari yurishmasdi. Jig'ibiyroni chiqib turli qog'ozlar bilan ovorayi-sarson bo'lib, biz bilan ishi ham bo'lmasdi. Anna Andreevna esa es-hushidan ajralgan kishidek avval hech narsaga tushunmay yurdi. Peterburg uning yuragiga qo'rquv solardi. Oh-voh qilar, avvalgi Ixmenevkadagi hayotlarini qo'rsar, Natashaning bo'yi yetib turibdi, u hech kimning esiga ham kelmaydi deb yig'lardi va mendan boshqa sirdosh birorta odam bo'lmagani uchun men bilan ochiqdan ochiq hasratlashar edi.

Mana shu vaqtlarda, ular ko'chib kelmasdan sal ilgariyoq o'zimning birinchi romanimni tugatgan edim. Mening adabiyot sohasiga kirib kelishim ana shu romandan boshlandi. Men u sohada tajribasiz bo'lganim uchun uni qayerga olib borishni bilmas edim. Ixmenevlarnikida men u haqda og'iz ochmadim: shundoq ham ular meni bekorchiligim, ya'ni hech yerda xizmat qilmasligimni va o'zimga ish qidirmaganligimni bilib, men bilan urishib qolayozishdi. Chol menga otalarcha g'amxo'rlik qilib qattiq koyib berdi, achchiq-achchiq gaplar aytdi. Men esa nima ish bilan shug'ullanayotganimni aytishga ham uyalardim. Axir,

qanday qilib ishlagim kelmaydi, romanlar yozishni xohlayman deb aytib bo'ladi. Shu chog'gacha menga ish bermayaptilar, ish qidirib holdan toydim deb ularni aldab kelgan edim. Meni tekshirishga cholning vaqti ham yo'q edi. Esimda bor: bir kun Natasha bizning gaplarimizni eshitgandan keyin meni imlab bir chekkaga olib bordi-da, ko'z yosh to'kib turib o'z taqdirim haqida o'ylashimni yolvorib so'radi, so'roq qildi, nima ish qilib yurganimni bilishga urindi va ochig'ini aytganimdan keyin, yalqov va daydi bo'lib o'zimni xarob qilmasligimga qasam ichirdi. Rost, zotan men o'zimning nima bilan shug'ullanishimga iqror bo'lmasam hamki, lekin, esimda bor, mening asarim, birinchi romanim haqida uning bir og'iz dalda beruvchi so'zini butun keyingi tanqidchilar, muxlislardan eshitgan maqtovlarga alishmasdim. Mana, nihoyat, romanim ham bosilib chiqdi. Bosilib chiqmasdan burunoq romanim haqida adabiyot muxlislari orasida shov-shuv ko'tarildi. Bu qo'lyozmani o'qib yosh boladek quvondi. Yo'q! Men biror marta baxtiyor bo'lgan bo'lsam, u mast etuvchi yutuqlarimning dastlabki daqiqalarida emas, hali qo'lyozmani hech kimga ko'rsatmagan va o'qib bermagan vaqtlarimda baxtiyor bo'lgan edim: o'sha uzoq kechalarda shavqli umid-orzular og'ushida, mehnatning zavqini surgan paytlarimda, go'yo o'zim yaratgan siymolar rostdan ham yashayotgan qarindoshlarimdek qadrdon bo'lib ketgan, ularga o'rganib qolgan paytlarda baxtiyor bo'lganman, men ularni sevardim, ularning sevinch va qayg'ulariga sherik bo'lardim va ba'zan hatto o'zimning soddagina qahramonim taqdiri ustida achchiq-achchiq yoshlar to'kib yig'lab ham olardim. Chol-u kampir dastlab qattiq taajjublanib, so'nggidan shu qadar shodlanishdiki, bu sevinchlarni til bilan ifodalash qiyin. Masalan, Anna Andreevna dong'i ketgan yangi yozuvchi, o'sha o'zimizning haligi Vanyamiz ekaniga asti ishonishni xohlamas, hadeb bosh chayqar edi. Chol anchagacha bo'sh kelmadi, mening asarim haqida mishmish gaplarni eshitib qo'rqib ham ketdi, ma'lum ishim bo'lmagani, yozuvchilarning pala-partish hayot kechirishlari haqida gapira boshladi. Lekin to'xtovsiz eshitilayotgan yangi xabarlar, jurnallardagi e'lonlar, qolaversa, chol ixlos qo'yib yurgan ba'zi shaxslardan mening haqimda

eshitgan ikki og'iz yoqimli so'zlar uning fikrini o'zgartirdi. Qo'limga birdan pul tushganini ko'rganda va adabiy asarga qanchalik haq to'lashini bilgandan keyin uning oxirgi shubhalari ham tarqaldi. Shubha tezdan shavq-zavqli ishonch bilan almashingandan keyin Nikolay Sergeich baxtimdan yosh bolalardek quvonib ketib mening istiqbolim haqida birdan shirin xayollar surib, puch umidlarga berilib ketardi. Har kuni men uchun yangidan yangi rejalar tuzardi, bu rejalarda nimalarni ko'rmasdingiz! U meni shu chog'gacha misli ko'rilmagan alohida bir chtirom bilan izzat qila boshladi. Lekin, esimda bor, shunga qaramay ba'zan uni birdan shubha o'rab olar, ajoyib zavq bilan gapirib turib, birdan hafsalasi pir bo'lib qolar edi.

– «Adib, shoir! Qiziq tuyuladi kishiga... Shoirlarning bi-rortasi odam bo'lib, martabaga erishgani bormi? Bu xalq bar-chasi qog'ozning zavoli, inobatsiz odamlar!» – deb qo'yardi.

Mening sezishimcha, shu kabi gumonlar, barcha qaltis savollar ko'pincha uning xayoliga shom paytida kelar edi (shunday aniq saqlangan xotiramda o'sha bebaho damlar). Bizning cholimiz doimo shom paytida jizzaki, ta'sirchan va badgumon bo'lib olardi. Biz Natasha bilan buni bilardik va eldan burun kula boshlardik. Esimda bor, shunday paytlarda men Sumarokovning¹ general bo'lgani, Derjavinga² tamaki quti bilan chervon³ yubor-ganlari haqidagi latifalarni, imperator xonimning o'zi Lomonosov⁴ huzuriga borganini, Pushkin⁵, Gogol⁶ haqidagi gap-larni aytib, uning ruhini ko'tarar edim.

– Bilaman, uka, hammasini bilaman, – e'tiroz qilardi chol, ehtimol, umrida birinchi marta shu voqealarni eshitayotgan bo'l-

¹ **Sergey Pavlovich Sumarokov** (1793-1875) – Chor Rossiya armiyasining general-ad'yutant va artilleriya generali. Ruslarning Polsha zulmiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon – Sharqiy urush qatnashchisi.

² **Gavrill Romanovich Derjavin** (1743-1816) — rus shoiri. Chor Rossiyasi imperiyasining davlat parlamentining senatori.

³ **Chervon** – 10 so'mlik qog'oz yoki tanga pul.

⁴ **Mixail Vasilevich Lomonosov** (1711-1765) – rus tabiatshunos olimi, rus adabiy tilining asoschisi, shoir, rassom, tarixchi, kimyogar.

⁵ **Aleksandr Sergeyevich Pushkin** (1799-1837) – rus yozuvchisi, yangi rus adabiyotining asoschisi.

⁶ **Nikolay Vasilevich Gogol** (1809-1852) – rus yozuvchisi. Rus adabiyotida tanqidiy realizmga asos solgan.

sa ham, – menga qara, Vanya, bilasanmi, nimaga xursandman, ana shu to‘qimalaring she‘r bilan yozilmaganiga xursandman. She‘r degan narsa-chi, uka, bo‘lmag‘ur gap, men bilan so‘z talashma, «qari bilganini pari bilmas», menga, qariyaga ishonaver, men senga yaxshilik istayman, she‘r behuda narsa, vaqtni o‘g‘irleydi. She‘rni gimnazistlar¹ yozsin. She‘r siz yoshlarni jinnixonaga olib boradi... Pushkin buyuk odam, buni hech kim inkor qila olmaydi. Biroq nima bo‘lmasin she‘r she‘r-da! Havoyi narsa! Lekin o‘zim Pushkinni uncha ko‘p o‘qigan emasman... Nasr boshqa gap! Bunda yozuvchi hatto ta‘lim ham bera oladi. Masalan, vatanga muhabbat va saxovat haqida gapirish mumkin. Lekin, uka, fikrimni uncha tushuntira olmayman. Ammo sen meni tushunasan. Shu gaplarni yaxshi ko‘rganimdan aytamanda. Qani-qani, o‘qi-chi! – deb tamomlardi yuziga bir qadar jiddiy tus berib. Biz choydan so‘ng to‘garak stol atrofida joylashib o‘tirib olib, men kitobimni olib kelib o‘qiy boshlaganimdan keyin: – «Qani, o‘qi-chi, nimalarni bichib-to‘qibsang, juda ko‘p gapirishyapti sening haqingda! Ko‘ramiz, ko‘ramiz!» – deb qo‘shib qo‘yardi.

Men kitobni ochib o‘qishga tayyorlandim. Shu kuni kechqurun mening romanim endigina bosilib chiqdi, men bir nusxasini topib, o‘z asarimni o‘qish uchun Ixmenevlarnikiga yugurdim.

Ilgariroq, hali qo‘lyozma mahalida ularga o‘qib bermaganim o‘zimga alam qilardi, tutaqib ketardim. Nima qilay, qo‘lyozma nashriyotda edi-da. Natasha ko‘z yoshi ham qilib oldi. Hatto meni koyidi, birovlar romanimni undan oldin o‘qishgani-dan kuyib-pishdi... Mana, nihoyat, biz stol atrofida o‘tiribmiz. Chol yuziga haddan tashqari jiddiy tus berdi va tanqid qiladigan kishilardek aftini tirishtirdi. U qattiq tanqidiy nazar bilan qaramoqchi, «bunga o‘zi ishonch hosil qilmoqchi» edi, kampir ham zo‘r tantana bilan eshitishga tayyorlandi, hatto yangi chepchik²

¹ **Gimnaziya** (yunoncha: gymnasion – qadimgi Gretsiyada ta‘limni gimnastika bilan qo‘shib olib boruvchi o‘quv-tarbiya muassasasi) – O‘zbekistonda va ayrim xorijiy mamlakatlarda: bir qator fanlarni, odatda, gumanitar fanlarni chuqur o‘rgatishga ixtisoslashgan o‘rta umumta‘lim o‘quv maskani. **Gimnazist** – gimnaziya tinglovchisi.

² **Chepchik** – ayollarning issiq bosh kiyimi.

kiyishga ham holi bor edi. Men uning bebaho Natashasiga til bilan ifodalab bo'lmaz muhabbat ko'zi bilan qarashimni, Natasha bilan gaplashganimda nafasim qisilib, ko'z o'ngim qorayishini, Natasha ham endi menga ilgarigilarga qaraganda ochiqroq yuz bilan boqishini anchadan beri sezib yuradi. Ha! Nihoyat, o'sha kun keldi, oltin umidlar, to'liq baxt daqiqalari, hammasi birdan keldi! Kampir uning choli ham endi meni juda maqtaydigan, menga ham, qiziga ham g'alati qilib qaraydigan bo'lganini sezdi... Sezdi-yu, qo'rqib ketdi: axir, nima demang, men graf ham emasman, knyaz ham, badavlat shahzoda ham emasman, hech bo'lmasa, huquqshunoslardan chiqqan, ko'kragi to'la orden va chiroyli «Kollejskiy sovetnik»¹ ham emasman! Anna Andreevna osmondagi oyni olsam derdi.

«Muncha maqtashadi shu odamni, – deb o'ylardi u mening haqimda, – negaligini bilmasam... Yozuvchi, shoir emish... Yozuvchi o'zi kim bo'libdi?»

VI BOB

Men romanimni bir o'tirishda o'qib berdim. Biz choydan keyinoq boshlab kechasi soat ikkigacha o'tirdik. Chol oldin xo'mrayib o'tirdi. U qandaydir aqliga sig'maydigan, hatto o'zi ham tushunib yetmaydigan oliy bir narsani kutgan edi, uning o'rniga birdan shu qadar oddiy, hammaga ma'lum, xuddi mana hozir atrofda bo'lib turadigan hodisalar tasvirlangan. Hech bo'lmasa, roman qahramoni ajoyib odam bo'lsa yoki tarixdan olingan Roslavlev yoki Yuriy Miloslavskiy kabi ajoyib odam bo'lsa ham, koshkiydi; uning o'rniga allaqanday g'arib, xokisor, hatto vitsmundirining² tugmalari uzilib ketgan kaltafahm bir chinovnik³ tasvirlangan, buning ustiga shu qadar oddiy, shu qadar sodda yozilganki, Xudo haqqi, xuddi o'zimiz gaplashib o'tirgandek... Tavba? Kampir savol nazari bilan Nikolay Ser-

¹ **Kollejskiy sovetnik** – davlat boshqaruvi kengashida fuqarolik ishlarining kotibi.

² **Mundir** (*fransuzcha*; aslaha-anjom kiyingan, go'zal; kiyim,) – harbiy yoki rasmiy ustki kiyim.

³ **Chinovnik** (*ruscha*) – amaldor, mansabdor shaxs.

geichga qarab-qarab qo'ydi, hatto bir narsadan xafa bo'lgandek o'shshayib o'tirdi. Yuzidan: «Shu bema'no narsa kitob qilib bosilib, tag'in uni eshitib, yana unga pul to'lanadi-ya, tavba!...» – degan ifodani o'qish mumkin edi. Natasha jon qulog'i bilan tinglar, mendan ko'z uzmay diqqat bilan eshitar, har bir so'zni qanday o'qiyotganimni bilish uchun sinchiklab lablarimga tikilar va o'zi ham latofatli dudoqchalarini qimirlatib qo'yar edi. Keyin nima bo'ldi deng? Yarmiga yetmasdanoq hamma tinglovchilarining ko'zlaridan yosh oqa boshladi. Anna Andreevna astoydil yig'lar, ich-ichidan qahramonimga achinar, uni qiyin ahvoldan qutqarish uchun zarracha bo'lsa ham, yordam berishni istar edi. Men buni uning oh-vohlaridan angladim. Chol buyuklik haqidagi fikrlarini miyasidan chiqarib yubordi: «Qarg'aga yetaman deb chumchuqning buti yirilgan ekan». Bu shunchaki bir hikoya. Ammo yurakka borib tegadi, atrofingda bo'layotgan hodisalarni tushunib, fahmiga yetib olasan, eng g'arib, ojiz insonning ham inson va senga birodar ekanligini bilib olasan», – derdi u. Natasha tinglar, ko'z yoshlari oqar, o'tirganlarning ko'zini shamg'alat qilib stol tagidan qo'limni mahkam qisib qo'yardi. O'qish tamom bo'ldi. U o'rnidan turdi; yonoqlari lovullab yonardi, kipriklarida durdona yosh tomchilari ko'rinardi, birdan qo'limni ushlab o'pib oldi-yu, yugurganicha uydan chiqib ketdi. Otasi bilan onasi birbirlariga qarab qo'yishdi.

– Ha! Zavq-shavqini qarang, – deb qo'ydi chol, qizining qilg'idan xijolat tortganday, – hechqisi yo'q, lekin bu yaxshi, yaxshi, oliyjanob jo'shqinlik! Oqko'ngil qiz... – dedi u astagina Natashani va shu bilan birga negadir meni ham oqlamoqchi bo'lgandek yer tagidan xotiniga qarab.

Ammo Anna Andreevna romanimni o'qib berayotganimda ancha-muncha hayajonlanib, ko'ngli buzilib o'tirgan bo'lsa ham, endi: «Albatta, Iskandar Zulqarnayn¹ qahramonlikka qahramon-ku, lekin bu dostoni Saddi Iskandar emas» degisi kelgandek ko'rinardi.

¹ Aleksandr Makedonskiy (miloddan avvalgi 356 - miloddan avvalgi 323) - Sharq mamlakatlari Iskandar Maqduniy, Iskandar, Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo'lgan makedoniyalik sarkarda va davlat arbobi. Qadimgi dunyo tarixidagi eng katta saltanatning asoschisi. Uning davlati Dunay daryosidan Hind daryosigacha bo'lgan.

Natasha tezda qaytib kirdi. U xursand va baxtiyor edi, yonimdan o'ta turib sekingina chimchilab ham qo'ydi. Chol yana mening qissamga «jiddiy» baho bermoqchi bo'ldi. Lekin xursandligini yashira olmay:

– Ammo, inim, Vanya, yaxshi, juda yaxshi! Qoyil qilding! Men bunchalik bo'lishini kutmagan ham edim. Unchalik aytadigan yuksak narsa emas, ko'rinib turibdi... Ana, menda «Moskvaning ozod etilishi»¹ yotibdi, Moskvaning o'zginasida yozganlar. Ukajon, uni o'qisang, birinchi satrlardan boshlaboq odam burgut bo'lib osmonga parvoz qiladi. Ammo-lekin bilasanmi, Vanya, seniki soddaroq, tushunarliroq. Mana shu tushunarli bo'lgani uchun ham yoqadi-da! Qanaqadir ko'ngilga yaqin. Xuddi kishi o'z boshidan shularni kechirgandek bo'lib turibdi. Axir, shunchalik balandparvozlilikning nima hojati bor? O'zim ham tushunmasdim. Sening o'rningda bo'lsam, uslubini sal to'g'rildim. Maqtashga maqtadim-ku, biroq nima demang, ko'tarinkilik yo'q-da... Ha, endi, baribir, vaqt o'tdi. Bosilib chiqqan. Balki, ikkinchi nashrida iloji bormikin? Hali ikkinchi marta nashr etilishi ham, ehtimol-ku, a? O'shanda yana pul to'laydilar... Hm!

– Rostdan ham shuncha pul oldingizmi-a, Ivan Petrovich?
– so'radi Anna Andreevna, – sizga qarab turib ishongim ham kelmaydi. – Xudoyo tavba, qanaqa narsalarga pul to'laydigan bo'lishgan!

– Bilasanmi, Vanya? – davom etardi chol tobora qizishib, – biror idorada xizmat qilishning yo'li boshqa-yu, lekin buning ham kelajagi porloq! Oliy tabaqali shaxslar ham o'qishadi. Mana, o'zing aytgandek, Gogol qanchadan qancha yordam olib turadi, chet elga yuborilgan. Seni ham yuborishsa-ya? Yoki hali crtami? Hali yana biror narsa yozish kerakmi? Yozaver, unday bo'lsa, uka, tezroq yoz! Yutuqni qo'ldan boy berma, yozaver. Qarab o'tirib bo'ladimi!

Shu qadar ishonch bilan, shu qadar samimiy gapirar ediki, uni to'xtatib hovridan tushirishga jur'at etolmasdi kishi.

¹ «Moskvaning ozod etilishi» – XIX asrda Rossiyaning bir qancha nashrlarida chop etilgan asar. Bu asarning to'liq nomi «Knyaz Pojarskiy va nijegorodlik fuqaro Minin yoki 1612-yilda Moskvaning ozod etilishi»



– Yoki misol uchun tamaki qutisi beradilar. Nima bo‘libdi? Xudo haqqi, berganning yuziga qarama, deydilar. Rag‘batlantirmoqchi bo‘ladilar. Xudo biladi, balki, saroyga ham manzur bo‘larsan, – qo‘shib qo‘ydi u past ovoz bilan chap ko‘zini ma‘noli qisib qo‘yib, – yoki yo‘qmy? Yoki hali saroyga yetishga vaqt ertami-a?

– Saroyni hali unga kim qo‘yibdi! – dedi Anna Andreevna ranjigandek.

– Hali birpas turib meni general ham qilib qo‘yasiz, – dedim men astoydil kulib.

Chol ham kulib yubordi. O‘ juda mamnun edi.

– Janobi oliylari, ovqatlanishni istamaydilarmi? – dedi shu payt bizga stol ustiga kechki ovqat keltirayotgan o‘ynoqi Natasha.

U xaxolab kuldi, otasi oldiga yugurib keldi-da, issiq qo‘lchalari bilan uni mahkam quchoqladi:

– Mehribonginam, otaginam.

Cholning ko‘ngli buzilib ketdi.

– Ha, bo‘ldi. Yaxshi, juda yaxshi! O‘zimcha, shunchaki valdirayotibman-da. Generalmi, general emasmi, yuringlar, ovqatlanaylik. Aynalay ziyrak qizimdan! – qo‘shib qo‘ydi u Natashasining loladek qizarib ketgan yonoqlariga asta-asta urib qo‘yib. Qulay payt kelganda uni shunday erkalatib qo‘yadigan odati bor edi, – mana ko‘ryapsanmi, Vanya, yaxshi ko‘rganimdan gapiraman. Hay, mayli, general bo‘lmasa ham (general bo‘lishga hali eh-e!), har holda, ma‘lum va mashhur odam – adib!

– Bu vaqtda-chi, dada, yozuvchi deydilar.

– Adib demaydilarmi? Bilmas ekanman. Ha, xo‘p, faraz qilaylik, yozuvchi; men shuni aytmoqchimanki, roman yozganning bilan, albatta, kamerger¹ qilmaydilar, buni o‘ylashning ham hojati yo‘q, lekin yuzaga chiqish mumkin, hech bo‘lmasa, attashe² bo‘lib olish mumkin. Chet elga yuborishlari, chunonchi, salomatlikni tuzatish yoki ilm-u fandan malakani oshirish uchun Italiyaga yuborishlari ham mumkin, puldan yordam qiladilar.

¹ Kamerger – saroy ahillariga beriladigan faxriy unvon.

² Attashe (*fransuzcha*: *attache* – qo‘shib qo‘yilgan, biriktirilgan) – 1) kichik diplomatik martaba, unvon; 2) biror soha, masalan, harbiy soha vakili bo‘lgan diplomatik xodim.

Shuni ham aytish kerakki, sen ham o'z tomoningdan oliyjanoblik ko'rsatishing kerak; kiroyi pul olganingdan keyin birovning yordamidan foydalanib emas, balki bajonidil, sof vijdon bilan o'zing ishlashing kerak...

– O'shanda dimog'ing shishib ketmasin, Ivan Petrovich, – deb qo'shib qo'ydi Anna Andreevna kulib.

– Unga tezroq yulduz bersalar bo'lardi, – dedi Natasha, – siz nuqul attashe, attashe deysiz.

U mening qo'limni yana chimchilab qo'ydi.

– Bu qizi tushmagur hadeb meni kalaka qilaveradi, – qichqirdi chol, zavq bilan yuzlari gul-gul yonib, ko'zlari yulduzlardek chaqnayotgan Natashaga tikilib, – men, bolalarim, rostdan ham juda hovriqib, havolanib ketdim, aravani quruq olib qoch-yapman, shekilli. Nima qilay, fe'lim shunaqa... Lekin bilasanmi, Vanya, o'zing juda ham sodda yigitsan-da...

– Voy, tavba, dadajon, u qanday bo'lishi kerak edi?

– Yo'q, men unday demoqchimasman! Har holda, shuni aytmoqchimanki, Vanya, yuzing... ya'ni, masalan, vajohatingdan shoirga o'xshamaysan... Men senga aytsam, shoirlar rangsiz, sochlari uzun-uzun, ko'zlari ham allaqanaqa o'tkir bo'ladi deydi-lar... Men senga aytsam, Gyote¹ yoki o'shalarga o'xshash... Men buni «Abbad dona»da² o'qiganman. Nima bo'libdi? Yana yanglish gapirdimmi? Ana u qizaloqni qaranglar, muncha mendan kuladi-a? Do'stlarim, men olim emasman, bilganimcha aytaman, xolos. Endi yuzi deganim bilan, shu yuzini aytmoqchi emasman, albatta. Lekin, menga qolsa, sening chiroying yoqadi. Umuman chin, halol bo'l, Vanya, vijdonli bo'l. Eng muhimi – shu. Halol yasha, oshib ketma! Senga keng yo'l ochiq. O'z ishingga sodiq bo'l, mana shuni, xuddi mana shuni aytmoqchiman.

Ajoyib vaqtlar edi! Hamma bo'sh soatlarimni, oqshom-larimni ularnikida o'tkazar edim. Men adabiyot olamidagi yangi-liklar haqida, nima uchundir cholni birdan g'oyat qiziqтира bosh-

¹ Yoxann Volfgang Gyote (1749-1832) – nemis yozuvchisi va mutafakkiri. «Gets fon Berlixingen», «Prometey», «Ifigeniya Tavridda», «Egmont», «Torkvato Tasso» kabi dramalar, «Yosh Verterning iztiroblari», «Vilxelm Maysterning o'qish yillari», «Vilxelm Maysterning darbadarlik yillari» kabi romanlar, «She'riyat va haqiqat» avtobiografik kitobi, «Mag'ribu mashriq devoni», «Faust» targediyasining muallifi.

² «Abbad dona» – rus adibi N. A. Polevogoning 1834-yilda yozilgan romantik qissasi.

lagan adabiyotchilar haqida xabarlar keltirardim. Hatto u hech tushunmasa hamki, B.ning tanqidiy maqolalarini o'qiy boshladi, bu tanqidchi to'g'risida men unga juda ko'p gapirar edim. Chol uni osmonlarga ko'tarib maqtar va «Severniy truten»da yozadigan uning dushmanlaridan qattiq shikoyatlanardi. Kampir men bilan Natashaga ko'z-quloq bo'lib turardi, lekin, baribir, ehtiyotni qo'ldan berdi! Oramizdan bir gap o'tdi, va nihoyat, Natasha-ning bosh egib turib dudoqchalarini yarim ochganicha shivirlab «ha» deganini eshitdim. Buni chol-kampirlar ham bilishdi; chamlab o'ylab ko'rishdi, Anna Andreevna anchagacha bosh chayqab yurdi. Unga bu hol g'alati va vahimali tuyulardi. U menga ishonmasdi.

– Ivan Petrovich, ishingiz o'ngidan kelsa xo'b-xo'b, – derdi u, – agarda yurishmay qolsa-chi yoki yana biror hol yuz berib qolsa-chi, unda nima bo'ladi! Biror joyda ishlasangiz ham go'rgaydi.

– Vanya, bilasanmi, nima demoqchiman, – dedi chol o'ylab-o'ylab, – ochig'ini aytsam, men payqab yurardim, rostini aytsam, Natasha va sen uchun xursand bo'ldim. Ha, buning aybi yo'q! Bilasanmi, Vanya, ikkalang ham yoshsan, Anna Andreevnaning gapida jon bor. Shoshilmaylik. Faraz etaylik, sen iste'dodli, juda ham iste'dodlisan... Lekin dastavval sening haqingda dovrug' ko'targanlaridek kuchli yozuvchi emassan, albatta, shunchaki, iste'dodli bir yozuvchisan. (Tag'in men seni haqingda bugun «Truten»da yozilgan tanqidni o'qidim, toza po'stagingni qoqishibdi, ha, mayli, u gazeta bo'lib qayoqqa borardi!) Xo'sh! Iste'dod deymiz-u, biroq bu gavrovga qo'yilgan pul emas-ku, axir. Ikkalangiz ham kambag'alsizlar. Hech bo'lmasa, bir yarim yil, bir yil kutib turaylik: ishing yurishib ketsa, oyoqqa turib olsang, Natasha seniki; ishing o'ngidan kelmasa, u yog'ini o'zing o'ylab ko'r!.. O'zing insofli odamsan, o'ylab ko'r!..

Shu qarorga keldik. Bir yildan keyin esa mana bunday hodisa yuz berdi: ha, roppa-rosa bir yildan keyin! Sentyabr oyi, havo ochiq kunlarning birida, kechga yaqin tobim qochib, jonimni hovuchlaganimcha chol-kampirlarnikiga kirib bordim,

bordim-u, ko'nglim ozishiga sal qolib o'zimni stolga tashladim. Buni ko'rib ularning o'takasi yorilib ketay dedi. O'shanda boshimning aylanishi, yuragim siqilishi ularnikiga kirishdan oldin o'n marta kelib, o'n marta eshikdan qaytganimdan emas, omadim yurishmay, dovrug'im ham chiqmaganligi, pulim yo'qligidan ham emas, buning sababi men allaqanday «attashe» emasligim, sog'lig'imni tuzatish uchun Italiyaga yuborilmaganim ham emasdi. Buning sababi shuki, bir yil ichida o'n yillik qartayish mumkin. Mening Natasham ham shu bir yil ichida o'n yilligini ko'rdi. Natasha bilan uzoqlashdik. Mana, esimda bor, o'shanda men chol oldida, shundog' ham g'ijimlanib ketgan shlyapam chetlarini qo'llarim bilan ezg'ilab, negadir, Natasha qachon chiqarkin deb poylab o'tirar edim. Ustimdagi kostyumim xarob, o'zimga yaxshi o'tirishmasdi, rangim bir holatda, ozib-to'zib, sarg'ayib ketganman, shu bilan barobar, shoirga aslo o'xshamayman, ko'zlarimda ham bechora oqko'ngil Nikolay Sergeich bir vaqtlar ko'rishni istagan ulug'lik yo'q... Kampir esa, nazarimda, menga ochiqdan ochiq achinib tikilar va ichida:

«Shu odam Natashaga kuyov bo'lishga oz qoldi-ya, yo rabbiy, rahm qil, o'zing asra!» – deb o'ylagandek tuyulardi.

– Ha, Ivan Petrovich, choy ichmaysizmi? (Samovar stol ustida qaynab turardi.) Ahvolingiz qalay, bolam? Tobingiz yo'qqa o'xshaydimi? – dedi u achingan ovoz bilan. O'sha ovoz hali hali qulog'imdan ketmaydi.

Xuddi kechagidek ko'z o'ngimda turibdi: kampir gapir-yapti-yu, ko'zlarida boshqa bir tashvish ko'rinadi, bu tashvishdan uning choli ham gangib qolgan va shu tobda o'z xayoli bilan band bo'lib, piyolasidagi choyni sovib qolganidan ham be-xabar. Men shu kunlarda ularning knyaz Valkovskiy bilan janjali ularning foydasiga hal bo'lmagani tashvishga solib qo'yganini, Nikolay Sergeichning boshini yostiqa yetkazgan ko'ngilsiz voqealar yuz berganini bilar edim. Bu ko'ngilsiz mojaroning bosh «qahramoni» bo'lgan yosh knyaz besh oy bundan muqaddam bir bahona bilan Ixmenevlarnikiga kelib ketgan ekan. Alyoshasini jonidan ham aziz ko'rgan, o'z farzandidek sevgan, har kun, har soat uni tilidan qo'ymagan chol uni quvonch bilan qarshi

olgan. Anna Andreevna esa Vasilevskoedagi voqealarni eslab ko'z yosh qilgan. Shundan keyin Alyosha otasiga bildirmay ularnikiga tez-tez keladigan bo'lib qolibdi. Halol, beg'araz, ko'ngli ochiq Nikolay Sergeich ehtiyot bo'lish to'g'risidagi gaplarni nafrat bilan rad qilgan. O'zining oliyjanob mag'rurligi bilan, o'g'li yana Ixmenevlar oilasiga kelib yurganini bilib qolsa, knyaz nima der ekan deb o'ylamabdi va uning ahmoqona shubhalaridan o'zicha nafratlanib yuribdi. Biroq chol yangi haqoratlarni ko'tara olishga qudrati yetish, yetmasligini bilmas edi. Yosh knyaz ularnikiga deyarli har kuni keladigan bo'ldi. Chol-u kampir, kelganda quvonishardi, u butun oqshom, yarim kechagacha o'tirar edi. Shubhasiz, nihoyat, otasi hamma gapdan xabardor bo'lgan; ig'vo gaplar tarqala boshlagan. Knyaz Nikolay Sergeichga ilgari-gi gaplarni yozib yomon haqorat qilgan, o'g'liga esa Ixmenev-larnikiga borishni qat'iyan man qilgan. Bu voqea ularnikiga kelishimdan ikki hafta ilgari sodir bo'lgan edi. Chol qattiq xafa bo'lgan. Bu qanday gap! Uning begunoh pokiza Natashasi sha'niga yana shu iflos tuhmat toshlarini otishyapti! Qizining nomini uni ranjitgan o'sha odam haqorat bilan tiliga olyapti... Bu haqoratlarga indamay ketaveradimi, axir! Dastlabki kunlari u alamiga chidolmay yotib oldi. Men bundan xabardor edim. Garchi men mana shu keyingi uch haftadan beri o'z dardim, o'z g'amim bilan bo'lib, uyimdan qimirlamagan bo'lsam ham, bo'la-yotgan voqealar ipidan-ignasigacha menga yetib turdi. Biroq men bilardim, yana... Yo'q! U vaqtlarda yuragim sezib turar, ammo ishongim kelmasdi, bu voqealardan tashqari ularni qattiq azobga solgan yana boshqa shum voqealar yuz berganini bilar-dim va zo'r tashvish bilan ulardan xavotir olardim. Ha, men azoblanardim; shu xabarlarining tagiga yetishdan qo'rqardim. ishonishga ham qo'rqardim, tishni tishga qo'yib shu shum hodi-saning kechroq ro'y berishini istardim. Shularga qaramay, men xuddi ustidan chiqdim. Shu oqshom oyog'im tortaverdi.

– Ha, Vanya? – so'rab qoldi chol birdan, hushi o'ziga kelgandek, – tobing qochib qoldimi? Nega anchadan beri dara-ging yo'q? Ayb o'zimda; seni ko'rib kelish niyatim bor edi, lekin hali u, hali bu deb... – u yana xayol surib qoldi.

– Tobim yo‘q edi, – javob berdim men.

– Hm! Tobing yo‘q! – takrorladi u besh daqiqadan keyin, – tobing qochmay nima bo‘lardi! Aytgan edim-ku senga, o‘zingni ehtiyot qil deb, quloq solmading! Hm! yo‘q, inim, Vanya, yozuv-chizuv bilan hech kimning qorni ham to‘ygan emas, to‘ymaydi ham. Shundoq!

Ha, cholning tabiati xira edi. Agar uning qalbida o‘z yarasi bo‘lmasa, u menga bunday gapni aytmas edi. Men uning yuziga tikilib qaradim. Rangi sarg‘ayib ketibdi, ko‘zlarida allaqanday hayrat alomati, o‘zi ham hal etishga qurbi yetmaydigan savol alomati bor edi. Uning harakatlarida qandaydir keskinlik va odatdan tashqari serzardalik bor edi. Xotini unga tashvish bilan qarab-qarab qo‘yib bosh chayqar edi. Chol nimagadir chalg‘iganda, kampir uni ko‘rsatib menga sekingina imlab qo‘ydi.

– Natalya Nikolaevnaning sog‘lig‘i qalay? Uydami? – so‘radim men tashvishli Anna Andreevnadan.

– Uyda, bolam uyda. – Javob berdi u go‘yo mening savolim ortiqchadek. – Hozir o‘zi sizni ko‘rgani chiqadi. Osonmi? Uch haftadan beri ko‘rishmadinglar! Ha... u juda g‘alati bo‘lib qolgan, hech tushunib bo‘lmaydi, sog‘mi, kasalmi, Xudo asrasin!

U eriga qo‘rqa-pisa qarab qo‘ydi.

– Nima bo‘libdi? Hech naarsa bo‘lgani yo‘q! – deb javob qildi Nikolay Sergeich istar-istamas shartta-shartta gapirib, – soppa-sog‘, norasida qizing voyaga yetib kelyapti, vassalom. Bu qiz bolalarning injiqliklariga kim tushunadi deysan?

– Injiqlik emish-a!– dedi Anna Andreyevna ko‘ngli og‘rigandek.

Chol jim bo‘lib qoldi. Keyin barmog‘i bilan stolni chala boshladi. «Yo Rabbiy, nahotki, o‘rtalaridan bir gap o‘tgan bo‘lsa-ya!» – deb o‘yladim men qo‘rquv ichida.

– Xo‘sh, sizlarda ahvol qalay? – dedi u yana, – B. hali ham tanqidlar yozyaptimi?

– Ha, yozyapti,– javob berdim.

– Eh Vanya, Vanya!– dedi u gapga xotima bergandek

qo'lini siltab,– tanqid nima qilib yuribdi bu yerda!
Eshik ochilib, Natasha kirib keldi.

VII BOB

U qo'lida shlyapasini ushlaganicha uyga kirib, uni fortepyano ustiga qo'ydi-da, keyin mening oldimga kelib indamasdan qo'lini cho'zdi. Uning lablari bilinar-bilinmas qimirlardi, go'yo u menga biror gap aytmoqchi, meni qutlamoqchiday bo'ldi-yu, lekin hech narsa demadi.

Ko'rishmaganimizga uch hafta bo'ldi: men unga taajjub va qo'rquv bilan tikilardim. Uch hafta ichida u shu qadar o'zgar-ganki, men chakkalari ich-ichiga kirib ketgan rangsiz yuzini, qovjirab ketgan lablar, qora uzun kipriklar ostida allaqanday ja-sorat bilan cho'g'dek yonib turgan ko'zlarga tikilar ekanman, yuragim orqamga tortib ketardi.

Yo rabbiy, naqadar go'zal edi u! Men uchun hech qachon, ilgari ham, keyin ham o'sha mash'um kundagidek ko'rgan emas-man. O'sha Natashami shu? Bundan bir yilgina muqaddam men-dan ko'zlarini uzmay, romanimni o'qigan paytlarimda menga ergashib dudoqchalarini qimirlatib o'tirgan, shu qadar shod, xandon tashlab kulgan, o'sha oqshom kechki ovqat mahalida ota-si bilan, men bilan hazillashib o'ynashgan qiz shu emasmi? O'sha, anavi xonada boshginasini ekkan holda yonoqlari cho'g'dek yonib turib menga astagina «ha» degan Natasha shu emasmi?

Cherkov qo'ng'irog'ining kechki ibodatga chaqiruvchi ovozi eshitildi. Natasha cho'chib tushdi, kampir cho'qindi.

– Kechki ibodatga bormoqchiyding, Natasha, ana bong ur-di, – dedi kampir, – bora qol, Natashaginam, bora qol, bolajonim, ibodat qil. Xudo yor bo'lsin! Aylanib ham kelarsan. Qamalib o'tirib nima? Qara, rangi-ro'ying bir holatda – ko'z tekkanga o'xshaydi.

– Men... balki... balki bugun bormasam, – dedi Natasha

cho'zib, juda sekin shivirlagandek. – Men... mazam yo'q,– qo'shib qo'ydi u, o'zi doka ro'moldek oqarib ketdi.

– Bora qolganing yaxshiydi Natasha, axir o'zing bormoqchiyding-ku, shlyapangni ham olib chiqibsan. Ibodat qil, Natashaginam. Xudodan sog'liq tila, – deb yolvordi Anna Andreyevna qiziga tortinibgina qarab, go'yo undan qo'rqqandek.

– Ha, borib kel, qizim, bahona bilan aylanib ham kelasan,– dedi chol ham tashvish bilan qizning yuziga tikilib,– onang to'g'ri aytyapti. Mana, Vanya seni kuzatib boradi.

Nazarimda, Natashaning lablarida ayanchli tabassum ko'ringandek bo'ldi. U fortepyanno oldiga keldi, shlyapasini olib kiydi, qo'llari qaltirar edi. U go'yo qilayotgan ishini o'zi tushunmagandek harakatlari shuursiz edi. Otasi ham, onasi ham unga zehn solib turishardi.

– Yaxshi qolinglar!– dedi u eshilar-eshitilmas.

– Ey, farishtaginam, nega: «Yaxshi qolinglar»? – deysan, uzoq yo'lga ketayotganing yo'q-ku! Shamollab kelasan, ranging bir holatda-ya. Ha, esim qursin (doim esimdan chiqib qolaveradi), tumoringni tikib, ichiga duo solib qo'ydim, farishtaginam, Kiyevdan kelgan ana u ayol bultur o'rgatib ketgan edi; yaxshi duo, bugun tikib qo'ygan edim. Taqib ol, Natashajon. Zora, Xudoning o'zi senga shifo bersa, bitta-yu bitta qizimizsan-a!

Shundan keyin kampir stol g'aladonidan Natashaning bo'yniga taqadigan xochni oldi; ana shuning bog'ichiga haligina tikilgan tumorcha osilgan edi.

– Taqib yur!– qo'shib qo'ydi u qiziga xoch taqib uni cho'qintirarkan. – Bir vaqtlar men seni har kecha uyquga yotishingdan oldin shuningdek cho'qintirar edim, duolar o'qirdim, sen esa menga ergashib takrorlarding. Endi sen boshqacha bo'lib qolding, tangrim senga osoyishtalik ato qilyapti. Oh, Natasha, Natasha! Endi mening duolarim senga kor qilmay qoldi! – shuni deb kampir yig'lab yubordi.

Natasha indamasdan uning qo'lini o'pdi va eshik tomon bir qadam tashladi, biroq tezgina orqasiga qaytdi-yu, otasi oldiga keldi. U og'ir nafas olar edi.

– Otajonim, siz ham qizingizni duo qiling, – dedi nafasi

bo'g'ilib uning oldiga tiz cho'karkan.

Biz hammamiz uning kutilmagan bu tantanali harakatidan hayron bo'lib turar edik. Otasi o'zini yo'qotib, bir necha daqiqa unga qarab turdi.

– Natashajonim, bolaginam, erka qizim, senga nima bo'ldi! – qichqirib yubordi u nihoyat va ko'zlaridan yosh tirqirab chiqib ketdi. – Nima qayg'ung bor? Nega kecha-kunduz yig'laysan? Hammasini ko'rib turibman; kechalari uxlamayman, o'rnimdan turib, eshiging oldiga borib hammasini eshitaman!.. Ayt, menga, Natashaginam, chol otangdan hech narsani yashirma. Balki, biz...

U gapini tugata olmadi, Natashani turg'izib mahkam bag'riga bosdi. Natasha titrab-qaqshab otasining ko'kragiga o'zini tashladi, yelkasiga boshini qo'ydi.

– Hech gap emas, o'zim shunchaki... Tobim yo'q... – takrorladi u ich-ichidan kelayotgan ko'z yoshlaridan nafasi tiqilib.

– Xudoyim o'z panohida asrasin seni, duolarim ijobat bo'lsin, jon bolam, mehribon qizim! – dedi otasi, – Xudoyimning o'zi joningga orom berib, g'amdand ozod qilsin. Xudoga yolvor, qizim, men betavfiqning duolari ijobat bo'lsin!

– Mening, mening ham duolarim ijobat bo'lsin! – qo'shib qo'ydi kampir yum-yum yig'lab.

– Yaxshi qolinglar! – shivirladi Natasha.

VIII BOB

U eshik oldida to'xtadi, yana bir marta ularga qaradi, yana bir nima demoqchi bo'ldi-yu, lekin aytolmay yugurganicha uydan chiqib ketdi. Orqasidan men ham chiqib ketdim, «bir balo bo'lgan» degan fikr dilimdan o'tdi.

U indamay boshini quyi solganicha, menga qaramasdan tez-tez yurib borardi. Biroq ko'chani kesib qirg'oqqa chiqqanimizda u birdan to'xtadi-da, qo'llarimga yopishdi.

– Nafasim qisyapti! – shivirladi. – Yuragim siqilib ket-

yapti...

– Qayt, Natasha! – dedim men qo‘rqib ketib.

– Nahotki ko‘rmayapsan, Vanya, men uyimni butunlay tashlab chiqib ketyapman. Ulardan ketdim, endi hech qaytib kelmayman! – dedi u ifodalab bo‘lmaydigan hasrat bilan menga boqarkan.

Yuragim «shuv» etib ketdi. Ularnikiga kelayotganimda bir narsa sezganday edim, bular barchasi, ehtimol, bundan ancha ilgariroq uncha yaqqol bo‘lmasa ham, menga ayon bo‘lgandi. Biroq endi uning so‘zlari ko‘ksimga pichoqdek sanchildi.

Biz qirg‘oq yoqalab g‘amgin borardik. Tilimga so‘z kelmas, turli fikrlar miyanga kelar, o‘ylab o‘yimga yetolmasdim, boshim gangib qolgan edi. Yomon, juda yaramas ish bo‘layotgandi, nazarimda.

– Nima, meni ayblayapsanmi, Vanya? – dedi u nihoyat.

– Yo‘q, biroq... ketayotganingga sira ishonmayman; bunday bo‘lishi asti mumkin emas!.. – javob berdim men nima deyayotganimni ham bilmay.

– Yo‘q, Vanya, bo‘lganicha bo‘ldi. Men ularni tashlab ketdim, ularning holi nima kechadi, bilmayman... O‘zim nima bo‘lishimni ham bilmayman!

– Sen... unikigami, Natasha?

– Ha, – dedi u.

– Axir, bu mumkin bo‘lmagan gap-ku! – baqirdim bo‘g‘ilib. – Bilasanmi, nima ish qilyapsan? Bechoraginam, Natashaginam! Aqlsizlik-ku bu! Axir, sen ularni beajal o‘ldirasan, o‘zingni ham xarob qilasan! Shuni bilasanmi, Natasha?

– Bilaman, biroq nachora? Ixtiyor menda emas, – dedi u. Uning so‘zida shu qadar umidsizlik ohangi bor ediki, go‘yo u o‘lim jazosiga hukm etilgandek edi.

– Qayt, hali ham bo‘lsa qayt, – deb yolvordim unga, o‘zim qanchalik yalinib-yolvorsam, nasihatlarimning shunchalik befoyda, ayniqsa, shu daqiqada shunchalik behuda ekanini sezarim. – Otangni ne holga solishingni tushunasanmi, Natasha? O‘ylab ko‘rdingmi? Axir, uning otasi otangning dushmani-ku; axir, knyaz otangni haqorat qildi, pul o‘g‘irlagan deb tuhmat

qildi; axir, uni o'g'ri deb atadi-ku. Axir, ular sudlashib yurishibdi. Bu ham gapmi! Bu hali holva, xabaring bormi sening, Natasha... (ey Xudo, axir, o'zing hammasini bilasan-ku!), bilasanmi, Alyosha qishlog'ingizda mehmon bo'lib yurgan kezlari seni unga qo'shgan deb knyaz ota-onangdan shubhalangan-a? O'ylab ko'r, otang o'shanda bu quruq tuhmatdan qancha azob tortgan. Unga bir qara, shu ikki yil ichida uning sochlari oqarib ketdi. Eng muhimi bu voqealarning hammasidan o'zing boxabarsan, Natasha! Ey Xudoyim! Hali seni abadiy yo'qotish ular uchun naqadar og'ir musibat ekanini aytayotganim yo'q, axir, sen ularning ko'z qorachig'i, qarigan chog'larida yondirgan shamchirog'isan. Sendan o'zga ularning kimi bor? Men bu haqda gap ochishni ham istamasdim, o'zing bilishing kerak, otang seni nohaq tuhmatga qolgan, o'sha kalondimog'lar ranjitgan deb hisoblaydi! Endi esa bu mojaro Alyoshani uylaringga qo'yganlaring uchun boshqatdan alangalanib, eski adovatlar kuchayib ketdi. Knyaz otangni yana haqorat qildi. Mana bu yangi xo'rlikdan cholning qahr-u g'azabi qo'zigan paytda birdan mana bu hol yuz bersa, hamma-hamma yuklangan ayblar to'g'ri chiqqan bo'ladi! Kimki bu gaplardan xabardor bo'lsa, endi knyazni oqlaydi, aybni senga va otangga to'nkaydi. Xo'sh, endi otangning holi nima kechadi? Bunga u bardosh berolmay o'ladi! Uyat, nomus, tag'in kim tufayli? Uning yakka-yu yagona qizi, bebaho farzandi tufayli! Onang-chi? Onang otangdan ham ilgariroq tamom bo'ladi! Natasha, Natasha! Nima qilyapsan, axir? Qayt, esingni yig'ib ol!

U indamasdi, nihoyat, mendan go'yo gina qilgandek qaradi. Uning bu boqishida shunchalik chuqur alam, shunchalik qattiq iztirob bor ediki, men, mening nasihatlarimsiz ham uning jarohatlangan qalbi endi chil-chil bo'layotganini tushundim. Men, bu jarohat uning uchun naqadar og'ir ekanini, buning ustiga men befoyda, vaqti o'tgan gaplarim bilan uni qanchalik egovlayotganimni tushundim. Hammasini-hammasini tushunardim-u, lekin o'zimni tiyolmay hamon gapimda davom etardim:

– Axir, o'zing hozirgina Anna Andreevnaga, balki: «Uydan chiqmay qo'ya qolay... Ibodatga bormasammikin»... – de-

ding. Bundan chiqdi, qolishni istaganding, o'shanda hali qat'iy bir qarorga kelmaganmiding?

U javob o'rniga g'amgin iljayib qo'ydi. Nega men unga bu savolni berdim! Axir, men uzil-kesil qarorga kelganini tushunishim kerak-ku! Biroq men o'zimni tutib ololmay qoldim.

– Nahotki sen uni shu qadar qattiq sevib qolgansan? – dedim baqirib, hayajon bilan unga tikilarkanman, nima deya-yotganimni o'zim ham tushunmay.

– Nima ham derdim senga, Vanya? Ko'rib turibsan! U kelishni buyurdi, men uni shu yerda kutyapman, – dedi u haligi achchiq kulgi bilan.

– Axir, menga qara, gapimga quloq sol, – deb gap boshladim men yana unga yalinib, «chiqmagan jondan umid» deganlaridek, – hammasini hali tuzatsa bo'ladi, boshqacha, boshqa bir yo'l bilan hal etsa bo'ladi! Uydan ketish shart emas. Nima qilishni men senga o'rgataman, Natashajon! Hammasini, hammasini, uchrashtirishniyam o'z ustimga olaman... Faqat uyingdan ketma!.. Xatlaringgacha olib borib turaman. Nima bo'libdi, xat olib borish qiyinmi? Har holda, hozirgidan yaxshiroq-ku. Hammasi qo'limdan keladi, ikkalangizning ham xizmatigingizga tayyorman, mana ko'rasiz, qo'limdan keladi... Sen ham o'zingni nobud qilmaysan, Natasha. Aks holda sen o'zingni tamom xarob etyapsan. Xo'p degin, Natasha, hamma ishlar joyida, soz bo'ladi. Bir-biringizni istaganingizcha sevasiz... Otalaringiz yarashgandan keyin (shubhasiz, ular yarashib ketishadi) – o'shanda...

– Bo'ldi, Vanya, to'xtat, – so'zimni bo'ldi u qo'limni qisib, ko'z yoshlari orasidan tabassum qilib. – Juda ko'ngilchansan, Vanya! Oqko'ngil, to'g'ri odamsan! O'z haqingda bir og'iz gapirmaysan, men senga vafosizlik qildim, sen esa hammasini kechirding, faqat mening baxtimni o'ylaysan. Bir-birimizga maktub tashimoqchisan...

U yig'lab yubordi.

– Axir, meni qanchalik sevganingni bilaman-ku, Vanya, hozir ham sevasan va shu vaqtgacha menga ta'na qilmading, bir og'iz achchiq so'z aytmadings. Men-chi, men... Ey Xudoyim, sening oldingda qanchalik gunohkorman. Esingdami, Vanya, sen

bilan o'tkazgan vaqtlar esingdami? Eh, qani endi, men uni hech qachon bilmagan va uchratmagan bo'lsam!.. Sen bilan birga yashagan bo'lardim, Vanya, sen bilangina, mening mehribonim!.. Yo'q, men senga arzimayman! Ko'rdingmi, men qanaqaman, shunday bir daqiqada, o'lganning ustiga chiqib tepgandek, o'tgan baxtiyor kunlarimizni eslayotibman! Mana, sen uch haftadan beri kelmading, qasamyod etib aytamanki, shu kunlar ichida, Vanya menga la'nat o'qib, mendan nafratlanyapti, degan fikr biror marta xayolimga ham kelmadi. Nega ketib qolganingni bilardim: bizga xalaqit berishni, oramizda chaqirtikan bo'lishni istamasding, senga osonmidi bizni birga ko'rish? Men esa seni kutdim, Vanya, shunday kutdimki, asti qo'yaver. Menga qara, Vanya, agar men Alyoshaga oshiqi beqaror bo'lsam seni, ehtimol, do'st sifatida undan ko'proq sevaman. Bilamanki, men sensiz yashay olmayman, sen menga keraksan! Sening qalbing, sening oltin qalbing menga kerak... Eh, Vanyajon, naqadar achchiq, naqadar og'ir daqiqalar yakinlashyapti!

U yum-yum yig'lardi. Ha, unga nihoyatda og'ir edi.

– Seni shunday ko'rgim keldiki, Vanya, – davom etdi u ko'z yoshlarini yutib. – Ozib-to'zib ketibsən, betobsən, ranging bir holatda, rostdan ham tobging qochdimi, Vanya? Hol so'rash ham esimga kelmay, nuqul o'z dardimni gapiraman. Xo'sh, muxbirlar bilan aloqang qanday? Yangi romaning nima bo'ldi, siljiy deyaptimi?

– Eh Natasha, hozir roman esga keladimi? Nima bo'lardi mening ishim – bir nav, bo'lsa bo'lar; bo'lmasa, g'ovlab ketar. Menga qara, Natasha, sening kelishingni u talab qildimi?

– Yo'q, u emas, ko'proq men. U ham aytdi-yu, lekin ko'proq o'zim... Ko'ryapsanmi azizim, men o'zim hammasini senga gapirib beraman; uni badavlat va zoti baland qarindosh-urug'lari tagli-tugli, zotli bir qizga unashtiryapti. Uning otasi, albatta, o'sha qizga uylanishini xohlaydi, bilasan-ku otasi o'lgudek ayyor odam, mana shunday joyni qo'ldan boy berarmidi u, shuning uchun hamma choralarni ishga solyapti. Tanish-bilish... Pul... Qiz juda sohibjamol, o'qigan, xushfe'l, barno emish. Alyoshaning ham unga ko'ngli bor. Buning ustiga otasi o'zi uylanish

uchun uni tezroq bo'ynidan soqit qilmoqchi, shunga ko'ra, knyaz nima bo'lsa ham o'g'li bilan mening oramizni buzishga ahd qilgan. U mendan, mening Alyoshaga ta'sirimdan qo'rqadi...

– Hali knyaz, – so'zini bo'ldim taajjublanib, – sizlarning ishq-muhabbatingizdan xabardormi? U faqat shubha qilardi, shunda ham ishonchi komil emasdi.

– Biladi, hammasini biladi.

– Axir, unga kim aytibdi?

– Alyoshaning o'zi yaqinda gapirib beribdi. Otasiga gapirib berganini o'zi menga aytdi.

– Ey Xudo! O'zi nima bo'lyapti, axir! Shunday bir paytda o'zi gapirib bergani nimasi?..

– Uni qoralama, Vanya, – so'zimni bo'ldi Natasha, – uni masxara qilma! Boshqalar singari uni ham qoralab bo'lmaydi. Adolat bilan aytganda u sen va menga o'xshash emas. U hali bola, uni boshqacha tarbiya qilganlar. U qilayotgan ishiga tushunarmidi? U shunday odamki, agar bir daqiqa ilgari ont ichib turib bir ishni qilishga ahd qilgan bo'lsa, birinchi taassurot va birovning gapi bilan aynib qolaveradi. U nihoyatda laqma. Mana u sening oldingda qasam ichadi-yu, shu kunning o'zida astoydil boshqaga samimiy ko'ngil bera oladi; tag'in o'zi kelib o'z og'zi bilan shuni gapirib beradi. Nojo'ya ishdan ham toymaydi. Lekin ana shu nojo'ya turmushi uchun uni ayblab bo'lmaydi, aksincha, unga achinish kerak. U o'zini fido qilish qobiliyatiga ham ega, qurbon qilganda qandoq! Bu ham faqatgina yangi bir taassurotgacha; shunda u yana hamma narsani unutib yuboradi. Doimo uning yonida bo'lmasam, meni ham unutadi. Mana u qanaqa odam!

– Ey Natasha, balki, bu gaplar hammasi noto'g'ridir, shunchaki mish-mish bo'lsa kerak. Shu yosh bolaga uylanishni kim qo'yibdi!

– Senga, otasining allaqanday rejalari bor, dedim-ku!

– Bo'lmasa, qaylig'ining chiroyliligini va unga shaydiligini qayoqdan bilding?

– Axir, uning o'zi menga gapirib berdi-ku.

– Nima, nima? O'zi boshqa birovni seva olishini aytib,

tag'in o'zi sendan endi shunday fidokorlik talab qildimi?

– Yo'q, Vanya! Sen uni bilmaysan. Sen uni yaxshi tanimaysan. Uni yaqindan tanigandan keyingina orqasidan gapirish kerak, dunyoda uning qalbidek rostgo'y va pok qalb yo'q! Xo'sh? Yolg'on gapirgani yaxshimidi? Qizga ko'ngil qo'ygani rost, agar men u bilan bir hafta ko'rishmay qoldimmi, bo'ldi, u meni esidan chiqaradi-yu, boshqani sevadi qoladi. Keyin meni qayta ko'rsa, yana oyoqlarimga bosh uradi. Yo'q! O'sha mendan hech narsani yashirmaganini bilganim yaxshi, yo'qsa men shubha qilaverib o'lib bo'lardim. Ha, Vanya! Men shu qarorga keldim; agar men doimo, hamisha yonida bo'lmasam, bir daqiqa yonidan siljisam, mendan ko'ngli soviydi, meni unutadi, tashlab ketadi. Ha, u shunaqa: har qanaqa boshqa qiz uni o'ziga og'dirib ola biladi. Unda men nima qilaman? Bu men uchun o'limdan og'ir. O'lish nima degan so'z! Hozir ham ajal kelsa, roziman. Ammo usiz hayot kechirish men uchun o'limdan ham, dunyodagi barcha azoblardan ham og'ir. O, Vanya, Vanya! Axir, bir sabab borki, mana uni deb ota-onamdan kechdim. Menga pand-nasihat qilma, hammasi hal bo'lgan! U har soat, har daqiqa mening yonimda bo'lishi kerak; men qayta olmayman, bilaman, men o'zimni ham, boshqalarni ham xarob etdim... Eh, Vanya! – qichqirib yubordi u birdan va a'zoyi badanini qaltiroq bosdi, – rostdan ham mendan ko'ngli sovigan bo'lsa-ya! Hozir uning haqida gapirgan gaping to'g'ri bo'lib chiqsa-ya (men hech narsa deganim yo'q edi), u meni aldab yurgan bo'lsa-ya, o'zini rostgo'y, samimiy ko'rsatib, aslida yaramas, maqtanchoq odam bo'lib chiqsa-ya! Mana men hozir sening oldingda uni himoya qilyapman, u esa, ehtimol, shu topda boshqa bilandir, o'zicha kulayotgandir... Men-chi... Men hammani tashlab ko'chalarda uni qidirib yuribman... Eh, Vanya!

Uning ko'ksidan otilib chiqqan bu noladan mening yurakbag'rim ezilib ketdi. Natashaning ixtiyori tamoman qo'lidan ketganini tushundim. Faqat avjiga chiqqan ko'r-ko'rona rashkkina uni mana shu tentaklarcha qarorga olib kelgan. Biroq mening qalbmida ham rashk o'ti alangalanib bormoqda edi, men o'zimni tutolmadim; yaramas bir tuyg'u egallab oldi meni.

– Natasha, – dedim men, – men faqat bir narsaga tushunolmayman: sen qanday qilib hozir o‘zing shu gaplarni gapirib turib tag‘in uni seva olasan? Uni hurmat qilmaysan, hatto uning sevgisiga ham ishonmaysan, shunga qaramay, o‘zing yana unikiga ketyapsan, uni deb hammani kuydirib adoyi tamom qilasan? Bu qanaqasi, axir? U seni umrbod qiynaydi, sen ham joniga azob berasan. Uni haddan tashqari sevasan, Natasha, haddan tashqari. Men bunaqangi muhabbatga tushunmayman:

– Ha, oshiqi beqarorman, – javob berdi u bir yeri qattiq og‘riyotgandek oqarib ketib, – men seni hech qachon shunchalik sevgan emasman, Vanya. Axir, devona bo‘layotganimni, bunaqangi sevish yaxshi emasligini o‘zim ham bilaman. Juda yaxshi ko‘raman uni... Menga qara, Vanya, axir, men boshdayoq, eng laziz daqiqalarimizni kechirayotganimizdayoq u menga azob-uqubatdan o‘zga hech narsa ko‘rsatmasligini sezib turardim. Uning bergan azobi menga baxt bo‘lib tuyulsa, nima qilay? Undan rohat ko‘raman deb ketyapmanmi? U bilan hol-ahvolim nima kechishini, qanchalik azob chekishimni oldindan bilmaydi deb o‘ylaysanmi, axir, u seni sevaman deb qasam ichdi, va’dalar berdi, men esa uning va’dalaridan birortasiga ham ishonmayman, ularni ikki pulga ham olmayman, aldashini, aldamay tura olmasligini bilib tursam hamki, ishonmaganman. Men o‘zim unga seni band qilib olishni xohlamayman deb aytganman. Unga shu yaxshi: tushovni hech kim ham yaxshi ko‘rmaydi, hammadan burun o‘zim. Har holda, men jon-jon deb o‘z ixtiyorim bilan unga qul bo‘lishni istayman, har qanaqa jabr-sitamlarga bardosh beraman. Faqat u men bilan birga bo‘lsa, men uning diydoriga to‘ysam! Mayli, u boshqa birovni sevsin, faqat mening oldimda, men uning qoshida bo‘lsam bas!.. Axir, bu qanday razillik, Vanya?.. – so‘radi birdan menga allaqanday o‘tli nigoh tashlab. Bir zum, nazarimda, u xuddi alahlayotgandek bo‘ldi. – Axir, buni istash qanday razillik? Nima qilay? Razillik deb o‘zim aytyapman, basharti u meni tashlab ketsa, men uning orqasidan jahannamga ham boraman, quvlasa ham, haydasa ham boraman. Sen esa meni hozir qayt deb qistayapsan, bundan nima chiqardi? Bugun qaytsam, ertaga tag‘in ketaman, buyurdimi – ketaman, itni chaqir-

gandek bitta hushtak chalsa, orqasidan chopib ketaman... Azob emish! Men hech qanaqa azobdan qo'rqmayman! Men uning dastidan jaf o'chikayotganimni bilaman... Oh, Vanya, aytsam, ado bo'lmaydi!

«Otasi-chi, onasi-chi? – deb o'yladim men, – ularni bata-mom esidan chiqarib qo'ygan ko'rinardi».

– Senga uylanmas ekan-da, Natasha?

– Va'da qildi, hammasini va'da qildi. Axir, u ertagayoq shahardan chekkaroq yerda yashirin nikoh o'qittirish uchun meni bu yerga chaqirdi-da. Ey, o'zi nima qilayotganini bilmaydi ham. Balki, u nikoh qanaqa qilib o'qilishini ham bilmasa kerak. Qanaqa er bo'ladi! Kulgisi keladi kishining. Uylansa, bebaxt bo'ladi, minnat qilaveradi... Men esa hech qachon, biror so'z bilan minnat qilishni istaymayman. Jonimni berishga ham tayyorman. U hech narsa qilmasa ham, mayli. Modomiki, uylanib bebaxt bo'lsa, nega uni baxtsiz qilishim kerak?

– Yo'q, bu qanaqadir bir girdob, Natasha, – dedim men. – Xo'sh, endi sen to'g'ri uning oldiga bormoqchimisani?

– Yo'q, u bu yerga kelishga va'da bergan... Meni olib ketish uchun kelishib qo'yganmiz.

U zoriqib uzoqlarga qaradi, lekin hech kim ko'rinmasdi.

– Haligacha undan darak yo'q! Sen undan oldin kelibsan! – dedim men tutaqib. Natasha zarb yegandek gandraklab, yuzi alamdand tirishib ketdi.

– Ehtimol, butunlay kelmas, – dedi u achchiq kulgi bilan. – Bundan ikki kun ilgari u menga xat yozib, agar kelishga so'z bermasam, beixtiyor o'z qaroridan – nikoh o'qitishdan voz kechishga majburligini, otasi uni qaylig'inikiga olib ketishini bayon etgan edi. Oddiy so'zlar bilan shunday tabiiy yozganki, go'yo hech gap yo'qdek... Rostdan ham unikiga ketgan bo'lsa-ya, Vanya?

Men indamadim. U mening qo'limni qattiq qisdi, ko'zlari chaqnab ketdi.

– Qaylig'inikida u, – dedi Natasha eshitilar, eshitilmas. – Mening bu yerga kelmasligimga ishonib, oldindand, tanbehlab qo'ygan edi-ya, o'zing kelmading, ayb o'zingdand deyish uchun

shunday yozgan. Men uning ko'ngliga tegdim. Shuning uchun o'zini olib qochyapti... Yo rabbiy! Devona bo'ldim men! Axir, uning o'zi oxirgi ko'rishganimizda «Ko'nglimga urding», – dedi-ku... Nimaga kutyapman!

– Ana u! – baqirib yubordim men birdan Alyoshaning qirg'oq yoqalab kelayotganini ko'rib.

Natasha irg'ib tushdi, chinqirib yubordi. Yaqinlashib kelayotgan Alyoshaga tikilib turib birdan mening qo'limni qo'yib yubordi-da, unga qarab yugurdi. U ham qadamini tezlatdi, bir daqiqa o'tar-o'tmas Natasha uning quchog'iga otildi. Ko'chada bizdan boshqa hech kim yo'q edi. Ular o'pishardi, kulishardi, Natasha, go'yo uzoq judolikdan so'ng ko'rishgandek ham kulib, ham yig'lardi. Natashaning rangsiz yonoqlariga qizil yugurdi. U es-hushini yo'qotgandek edi... Alyosha meni ko'rib qoldi-yu darrov oldimga keldi.

IX BOB

Garchi men uni shu daqiqagacha ko'p martaba ko'rgan bo'lsam ham, unga suqlanib tikildim, go'yo uning boqishi ko'nglim muammolarini hal etib beradigandek, ko'zlariga boqardim, qanday qilib, nima bilan shu tirmizak Natashani o'ziga shunday maftun eta olgan, oliy burchini ham unuttirib, Natashada u uchun shu vaqtgacha muqaddas bo'lgan hamma narsani telbalarcha qurbon etish darajasiga olib kelgan muhabbatni tug'dira olgan? Knyaz meni ikki qo'limdan ushlab qattiq qisdi, muloyim va tiniq ko'zlarining nigohi qalbimni mumdek eritdi.

Men dushmanim deb bilganligim tufayli, uning haqidagi xulosalarimning xato bo'lishi mumkinligini sezdim. Darhaqiqat, men uni yomon ko'rardim, afsuski, uni taniydiganlar orasida, ehtimol, faqat mengina uni hech qachon yaxshi ko'rolmasam kerak. Uning ko'p xislatlari, hatto xushbichim qomati ham menga mutlaqo yoqmasdi. Buning sababi, balki, uning allaqanday haddan ziyod zeboligi bo'lsa kerak. Bora-bora bu to'g'rida ham yanglish xulosaga kelganimni tushundim. U baland bo'yli,

qaddi-qomati kelishgan, nozik, yuzi uzunchoqroq, hamisha rang-par, malla sochli yigit edi. Uning katta-katta muloyim va o'ychan moviy ko'zlarida ba'zan sofdillik va bolalarga xos sho'xlik uchquni porlab ketardi. Qalingina, kichkina yoqut lablari bejirim, deyarli hamma vaqt allaqanday jiddiy burishib turardi, lablarida birdan mavj uradigan, sodda, sof va kutilmagan tabassum shunchalik jozibador ediki, siz ham qanday ruhiy holatda bo'lmang, unga ergashib, xuddi uning tabassumiga javoban tabassum etish zaruriyatini his etardingiz. U o'ziga unchalik oro bermas, lekin nafasat bilan kiyinardi, tabiati nozik bo'lgani uchun bu unga osonlik bilan muyassar bo'lar edi.

To'g'ri, unda ham bir qancha yomon qiliqlar, yaxshi deb hisoblangan yaramas odatlar, chunonchi, yengiltaklik, manmanlik, muloyim surbetlik xislatlari bor edi. Biroq u shu qadar ajoyib oqko'ngil ediki, o'zining shu xislatlarga ega ekanligiga iqror bo'lib, o'zi pushaymon yerdi va ulardan kulardi. Nazarimda, bu bola hech qachon, hattoki hazillashib ham yolg'on gapira olmasa kerak, basharti yolg'on gapirsa ham, uning yaramasligiga shubha ham qilmasa kerak. Hattoki undagi xudbinlikning o'zi ham qandaydir jozibador, chunki u ichidan pishgan pismiq bo'lmay, rostgo'y edi. U sir saqlay olmasdi. O'zi bo'shgina, oqko'ngil, yuraksiz, iroda degan narsadan qatra ham yo'q. Uni xafa qilish, aldash, xuddi yosh bolani xafa qilish, aldash bilan barobar gunoh va bunday qilishga kishining ko'zi qiymas edi. U yoshiga nisbatan ancha g'o'r, oqni qoradan ajratolmasdi, u hatto qirqqa kirganda ham hayotning nimaligini tushunmasa kerak. Bu taxlitdagi odamlar odatda umrining oxirigacha ham shundayligicha qolaveradilar. Nazarimda, uni yaxshi ko'rmaydigan odam bo'lmasa kerak. U har kimga yosh boladek erkanib suykalib ketaveradi. Natasha to'g'ri aytgan ekan. U biror kishining so'ziga laqillab yaramas ish qilib qo'yishi ham mumkin, biroq qilingan ishi yaramasligini sezib qolsa, pushaymon yeyaverib o'lib bo'ladi. Natasha uning sohibasi, malikasi bo'lishini, o'zi uchun uning jon fido qilishini yurakdan sezardi. Natasha benihoya sevishini, sevgan kimsasini jondan ortiq sevgani uchun uni qiynab lazzatlanishini sezardi, balki, shuning uchun ham birinchi bo'lib o'zini

shu yigit quchog'iga otgandir. Biroq Alyoshaning ko'zlarida ham sevgi porlar, Natashaga mahliyo bo'lib tikilardi. Natasha shodlik bilan menga qarab qo'ydi. Shu topda u hamma narsani: ota-onasini ham, xayrlashishni ham, shubhalarini ham unutib yubordi. U baxt quchog'ida mast edi.

– Vanya! – dedi u, – men uning oldida aybdorman, men arzimayman unga! Men endi kelmassan ham deb o'ylagandim, Alyosha. Yomon o'ylarga borgandim, meni kechir, Vanya! Gunohimni yuvib yuboraman! – qo'shib qo'ydi u nihoyasiz bir mehr bilan unga tikilib. Alyosha tabassum qildi, Natashaning qo'lidan o'pdi va uning qo'lini qo'yib yubormay menga qarab gapirdi:

– Meni ham ayblamang. Qachonlardan beri men sizni tug'ishgan akamdek quchoqlashni istardim; u sizning haqingizda juda ko'p gapirgan! Biz siz bilan shuncha vaqtdan beri endi tanishdik, negadir do'stlasholmadik. Do'st tutinamiz... Bizni kechiring, – dedi u past ovoz bilan, salgina qizarib. Bu so'zlarni shunday ajoyib tabassum bilan aytdiki, men ham uning iltifotiga butun qalbim bilan javob qaytarishdan o'zimni tiyolmadim.

– Ha, ha, Alyosha, – deb gapga aralashdi Natasha, – u bizning akamiz, u bizni allaqachon kechirgan, biz ham usiz baxtiyor bo'lolmaymiz. Men senga ilgari ham aytgan edim... Eh, qanchalik shafqatsizmiz, Alyosha! Biroq endi uchalamiz yashaymiz... Vanya! – deb gapida davom etdi u va lablari titrab ketdi, – mana endi sen ularnikiga – uyga qaytib borasan. Shunchalik ajoyib qalbli odamsanki, sening kechirganingni ko'rib, ular ham gunohimdan o'tmasalar hamki, biroq ko'ngillari yumshashi, ehtimol... Meni himoya qil, azizim, qutqar meni. Ularga bor gapni o'zing tushunganingdek qilib gapir. Bilasanmi, Vanya, agar shu bugun yonimda bo'lmasang, balki, men bu ishga jur'at etolmasdim ham! Sen mening panohimsan, seni ko'riboq ko'ksimda umid uyg'ondi, negaki sen ularga tushuntirib, hech bo'lmaganda, ular uchun eng mudhish bo'lgan dastlabki zarbani yumshata olasan. Ey Xudo! Ey tangrim!.. Ularga gapimni ayt, Vanya, bilan endi meni afv etib bo'lmaydi: ular kechirgani bilan Xudo kechirmaydi. Ammo, nachoraki, ular meni «oq» qilgan taqdirda ham men ularning haqiga duo o'qiyman va umr bo'yi ibodat

qilaman. Fikr-xayolim ularda! Eh, nega hammamiz birga baxtli emasmiz! Nega, nega!.. Rabbiiy! Nima gunoh qildim men! – qichqirib yubordi u birdan xuddi hushiga kelgan kishidek va dahshatdan a'zoyi badanini titroq bosib yuzini qo'llari bilan bekitib oldi. Alyosha uni quchoqladi-da, indamay bag'riga qattiq bosdi. Oraga sukunat cho'kdi.

– Siz ham ko'ra bila turib shu ishga undagansiz-a! – dedim men ta'na bilan Alyoshaga qarab.

– Meni ayblamang! – takrorladi u, – ishoning, bu baxtsizlik, garchi nihoyatda zo'r bo'lsa-da, bir daqiqagagina cho'ziladi, xolos. Men bunga batamom aminman. Faqat mana shu daqiqani o'tkazish uchun matonat kerak, xolos. Natasha ham menga shuni aytgandi. Bilasizki, bularning hammasiga sabab o'sha oilaviy manmanlik, anavi hech keragi bo'lmagan janjallar, tag'in qandaydir mojarolar!.. Biroq... (men bu haqda juda ko'p o'ylaganman, ishoning) bular hammasi bir yoqliq bo'ladi. Biz hammamiz tag'in topishib ketamiz, shunda baxtli, saodatli bo'lamiz, bizni ko'rib qariyalarimiz ham yarashib ketishadi. Kim biladi, balki, xuddi bizning nikohimiz ularning yarashib ketishiga sabab bo'lar. Menimcha, bundan boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Siz nima deb o'ylaysiz?

– Nikoh deysiz. Qachon nikoh o'qittirmoqchisiz? – deb Natashaga qarab qo'ydim.

– Erta yoki indinga, uzog'i bilan, albatta, indinga. Mana ko'ryapsizmi, men o'zim hali yaxshi bilmayman, rostini aytsam, hali uncha tayyorligim ham yo'q. Natasha, balki, hali bugun kelmas deb o'ylagandim. Buning ustiga otam meni, albatta, bugun qayliqnikiga olib bormoqchi edi (meni unashtiryapti, Natasha sizga aytganmidi, lekin men xohlamayman). Shunday qilib, men hammasini hisobga ololganim yo'q. Biroq, har qalay, indinga o'qittirsak kerak. O'zimcha, shunday deb o'ylayapman, negaki, axir, boshqa iloji ham yo'q-da. Ertagayoq biz Pskov yo'liga ravona bo'lamiz. Mana shu yaqin qishloqda o'rtog'im bor, litseyda birga o'qiganmiz, juda yaxshi odam, balki, uni siz bilan tanishtirarman. O'sha qishloqda pop¹ ham bor, lekin aniq bilmay-

¹ Pop (yunoncha) – pravoslav cherkovida ruhoniyniing rasmiy nomlaridan biri.

man: bormi, yo'qmi. Avvalroq aniqlash kerak edi, lekin ulgurmadim. Bunday qaraganda bular hammasi mayda gaplar. Eng muhimi hal bo'lsa bo'ldi. Axir, shu yon atrofdagi biror qishloqdan pop chaqirsak bo'laveradi-ku, a, siz qanday deb o'ylaysiz? Axir, o'sha yerda ham qo'shni qishloq bor-ku! Faqat, afsuski, men shu chog'gacha bir parcha qog'oz yozib yuborishga ulgurmadim, ogohlantirish zarur edi. Xudo bilsin, o'rtog'im ham uyidami, yo'qmi... Biroq bular ham arzimagan gaplar! Jasorat bo'lsa bas, qolgani o'z-o'zidan hal bo'lib ketaveradi, to'g'ri emasmi? Hozircha ertaga yoki, juda nari borsa, indingacha u menikida turib turadi. Men ijaraga kvartira oldim, u yerdan qaytib kelganimizdan keyin ham shu yerda turamiz. Men endi otamnikiga bormayman. To'g'rimi? Siz kelib turasiz, juda yaxshi o'r-nashdim. Uyimizga litseyda birga o'qigan o'rtoqlarim kelib turishadi, ziyofat berib turaman...

Men esim og'ib, yuragim siqilib unga tikilardim. Natasha esa ko'zi bilan uni aybsitma, muruvvat qil, degandek bo'lardi. Natasha uning gaplarini allaqanday g'amgin jilmayish, shu bilan birga xuddi shu ma'sum bolani gapirtirib qo'yib, uning telbateskari shirin gaplariga quloq solgandek mahliyo bo'lib tinglar edi.

Men unga ta'naomuz qaradim. Diqqatim oshib hech narsa yuragimga sig'may ketdi.

— Otangiz-chi? — so'radim men. — U kechiradi deb ishonasizmi?

— Shak-shubhasiz! Nima ham qila olardi? Nari borsa, u meni «oq» qiladi, turgan gap. Otam shunaqa odam, meni qattiq ushlaydi. Balki, hali biror kishiga ustimdan shikoyat ham qilar, har qalay, otam o'z hukmini ishlatmay qo'ymaydi. Lekin bular hammasi po'pisa... U meni jonidan ortiq sevadi, jahldan tushib, gunohimdan o'tadi. Shunda hammalari yarashib ketishadi, hammamiz baxtiyor bo'lamiz. Natashaning otasi ham.

— Agarda kechirmasa-chi? Bu to'g'rida o'ylab ko'rdingizmi?

— Hech shubhasiz, kechiradi, lekin darrov emas. Xo'sh, nima bo'libdi? Men unga mening ham o'z fe'l-atvorim borligini

ko'rsatib qo'yaman. U hadeb meni lapashangsan, yengiltaksan deb urishaveradi. Mana, endi u yengiltak, yengiltakmasligimni ko'rib qo'ysin. Axir, oilali bo'lish hazilakam gap emas, o'shanda meni yosh bola demaydilar... Ya'ni boshqalar qanday bo'lsa, men ham shunday bo'laman demoqchiman... O'z mehnatim bilan kun ko'raman. Natasha, bizga o'xshab birovning qo'liga qaram bo'lgandan o'z kunimizni o'zimiz ko'rganimiz yaxshi deydi. Bilsangiz edi, Natasha menga qancha yaxshi nasihatlar qiladi. Mening bunday gaplarga hech qachon aqlim yetmasdi ham. Meni bunday tarbiya qilgan emaslar. Rost, yengiltakligimni, hech narsaga uquvim yo'qligini o'zim ham bilaman, ammo bilasizmi, uch kun bundan ilgari miyamga ajoyib bir fikr keldi. Garchi hozir vaqti bo'lmasa hamki, gapirib beraman, axir, Natasha ham eshitishi kerak-ku, siz esa bizga maslahat berasiz. Gap shundoq: men qissalar yozmoqchiman va xuddi sizga o'xshab jurnallarga sotmoqchiman. Siz meni muxbirlar bilan tanishtirasiz. To'g'rimi? Men sizga ishonib kecha tuni bilan bitta roman o'ylab chiqdim. Shunchaki, o'zimni bir sinash uchun. Bilasizmi, tuppa-tuzuk narsa chiqishi mumkin ekan. Syujetini Skribning¹ bir komediyasidan oldim... Mayli, keyin gapirib beraman. Eng kerakligi unga pul to'laydilar. Sizga to'lashadi-ku, a?

Men o'zimni kulgidan to'xtata olmadim.

– Kulasiz-da, – dedi u ham iljayib, – yo'q, menga qarang, qo'shib qo'ydi nihoyatda soddalik bilan, – sizga shunaqa ko'rinaman, to'g'risi, judayam idrokliman. Mana o'zingiz ko'rasiz. Bir urinib ko'ray-chi, biror narsa chiqib qolar... Lekin bir tomondan siz haqlisiz ham. Axir, men haqiqiy hayotni bilmayman, buni menga Natasha ham aytadi, hamma ham gapiradi, mendan qanaqa yozuvchi chiqardi, a? Kuling, a, kuling. Ishga o'rgating buning o'rniga! Axir, bu hammasi Natasha uchun, siz esa uni yaxshi ko'rasiz, sizga to'g'risini aytsam, men uning tirmog'iga ham arziyayman: men buni sezaman, menga juda og'ir, nega meni shunchalik sevib qolganiga hayronman. Nazarimda, men unga jonimni ham berishga tayyorman! Rostini aytsam, men shu damgacha hech narsadan qo'rqmagan edim, endi qo'rqyapman, a! Qanday

¹ Ogyusten Ejen Skrib (1791 – 21) – fransuz dramaturgi.

ishni boshlab qo'ydim, a! Ey tangrim! Nahotki, odam o'z burchiga sodiq bo'lgan bir paytda, o'sha burchini ado etish uchun aksiga o'zida kuch va matonat topmaydi!? Hech bo'lmasa, siz bizga yordam qiling, do'stimizsiz-ku! Bizga do'st bo'lgan bitta siz qoldingiz. Men bitta o'zim nimaning fahmiga yetaman! Kechiring sizga shunchalik suyanayotibman, men sizni eng oliy-janob odam deb hisoblayman, mendan, o'lsangiz, o'ligingiz ortiq. Lekin xotirjam bo'ling, men tuzalaman va hurmatingizga sazovor bo'laman.

Shuni deb u yana qo'limni qisib qo'ydi. Uning chiroyli ko'zlari mehr bilan porladi. U menga chindan ham ixlos qilar, do'st bo'lishimga astoydil ishonardi.

– Natasha tuzalishimga yordam beradi, – davom etdi u. – Tag'in biz haqimizda yaramas fikrlarga kelib yurmang, bizni o'ylab uncha xafa ham bo'lmang. Har holda, umidlarim zo'r, iqtisodiy tomondan ham ta'minlanamiz. Men, masalan, romandan hech narsa chiqmasa (rostini aytsam, o'zim ham roman yozish behuda gapligini fahmlab qoldim. Endi shunchaki, sizning fikringizni olish uchun gapirdim qo'ydim-da), – romandan hech narsa chiqmasa, musiqadan dars bera olaman-ku. Musiqa bilishimni bilmidingiz? Keyin bunday mehnat bilan yashashga orqilmayman. Bu masalada men yangicha fikrdaman. Undan tashqari, menda juda ko'p qimmatbaho mayda-chuyda narsalar, hojatxona buyumlari bor. Ularning menga nima keragi bor? Men shularni sotaman. Bilasizmi, u bizga qancha vaqtga yetadi? Juda zo'r kelsa, ishga kiraman. Otam ham xursand bo'ladi. Chunki u meni hamma vaqt ishlagin, deb qo'ymaydi. Men kasalman deb bahona qilaman. (Ha, aytgandek qandaydir idoraga yozilib qo'yganman.) Otam, uylanish menga foyda berganini, quyilib qolganimni, chindan ham xizmat qilayotganimni ko'rsa, sevinib ketib gunohimdan o'tadi...

– Aleksey Petrovich, endi otangiz bilan Natashaning otasi o'rtasida qanday hangamalar yuz berishini o'ylab ko'rdingizmi? Bugun kechqurun ularning uyida nimalar bo'lishini o'ylaysizmi? – dedim men ularni ayamay, bu so'zlarimdan a'zoyi badani muzlab ketgan Natashani ko'rsatib.

– Rost, rost, siz haqlisiz, juda xunuk ish, – dedi Alyosha, – o‘ylaverib ich etimni yedim... Ammo nachora? Lekin siz to‘g‘ri aytyapsiz. Hech bo‘lmasa, uning ota-onasi kechirishsaydi bizni! Bilsangiz edi men ularni qanchalik sevishimni! Axir, ular menga o‘z ota-onam bilan barobar-a, mana endi men ko‘rnamakdan ke-
layotgan ish!.. Ey Xudo, shu janjallar, adovatlar bo‘lmasa, nima bo‘lardi! Aytsam, balki, ishonmassiz, biz uchun bu voqea qanchalik ko‘ngilsiz! Nega, axir, urishaverisharkan! Bir-birimizni shunchalik sevishimizga qaramay, urishamiz! Yarashib qo‘ya qolishsa-ku, olam guliston! Men ularning o‘rnida bo‘lsam, shunday qilardim. So‘zlaringiz meni dahshatga solyapti. Natasha, biz nimalar qilyapmiz-a! Men avval ham senga aytgan edim... O‘zing meni qo‘yarda qo‘ymayapsan... Menga qarang, Ivan Petrovich, balki, hamma ishlar joyida bo‘lib ketar, a, siz qanday o‘ylaysiz! Axir, bir kunmas bir kun ular yarashadilar-ku! Biz ularni yarashtiramiz. Bu muqarrar shunday bo‘lishi kerak. Ular bizning muhabbatimizga qarshi turolmaydilar... Mayli, ular bizni «oq» qilsinlar, lekin, baribir, biz ularni sevamiz. Ular chidab turolmaydilar. Aytsam, ishonmaysiz: ba‘zan otam juda rahmdil bo‘lib ketadi. Ko‘rinishida shunday badqovoq bo‘lgani bilan, ko‘p masalalarda u juda aqlli odam. U bugun men bilan juda muloyim gaplashdi, bir ko‘rsangiz edi. Meni gapga ko‘ndirmoqchi bo‘ldi. Men esa shu bugunning o‘zidayoq unga qarshi chiqyapman, endi o‘zim xafaman. Hamma gap mana shu yaramas bid‘atlar tufayli! Jinni bo‘lib ketasan! Ey Xudo, u Natashani bir ko‘rsaydi, yarim soatgina u bilan suhbatlashsaydi, o‘ziyoq bizga ruxsat berib yuborar edi. – Shunday deb u Natashaga mehr-muhabbat bilan qarab qo‘ydi.

– Men, o‘zimcha, ming martadan shirin xayollarga berilaman, – deb yana valdirab ketdi Alyosha, – otam Natashani bir ko‘rsa bas, sevib qoladi. U hammani hayron qoldiradi. Axir, ular hech qaysisi umrida bunday qizni ko‘rishmagan. Otamning nazarida, u oddiygina, fitnachi bir qiz bo‘lib ko‘rinadi. Mening vazifam – uni isnoddan qutqarish, shuni qilaman ham! Ey Natashaginam, mana ko‘rsan, seni hamma yaxshi ko‘rib qoladi. Seni sevmay bo‘ladimi? – qo‘shib qo‘ydi zavq bilan. – Men sening bir

tola sochingga arzimasam ham, sen meni sev, azizim! Men... Men esa... o'zing bilasan-ku meni! Bizning baxtimiz uchun ko'p narsa kerakmi? Yo'q, men ishonaman, ishonchim komilki, bu oqshom hammamizga baxt, tinchlik va totuvlik keltiradi! Ilohim, aytganim kelsin! Shundaymi, Natasha? Senga nima bo'ldi? Yo rabbiy, senga nima bo'ldi. Natasha?

Natasha murdadek oqarib ketgan edi. Alyosha tinmay vaysayotganda, Natasha unga tikilib qolgan edi; uning ko'zlari tobora xiralashib nursizlanib borar, yuzi esa borgan sari oqara-verdi. Nazarimda, u hozir hech narsani eshitmas, es-hushidan ayrilgandek edi. Alyoshaning baland ovozi uni uyqudan uyg'ot-gandek bo'ldi, u hushiga kelib, atrofga qaradi va birdan o'zini menga tashladi. Alyoshadan yashirgandek titroq qo'llari bilan shoshilganicha cho'ntagidan maktub chiqarib menga uzatdi. Bu oldindan yozib qo'yilgan chol-u kampirga yozilgan maktub edi. Maktubni uzata turib, u menga tikilib boqdi. Umidsizlikni ifodalovchi bu boqishni hech qachon unutolmayman. Vujudimni vahima bosdi. U o'z qilmishining mudhish ekanligini endigina tushunib olganini ko'rdim. U menga nimadir aytmoqchi bo'ldi, nimadir dedi-yu, birdan hushidan ketdi; men uni ushlab qoldim. Alyosha qo'rqqanidan bo'zdek oqarib ketdi. U Natashaning chakkalarini ishqar, qo'llaridan, lablaridan o'par edi. Bir-ikki daqiqadan so'ng u o'ziga keldi. Nariroqda Alyosha tushib kelgan kareta¹ turar edi. Karetani chaqirdi. Natasha unga chiqa turib qattiq hayajon va sarosima bilan qo'limni ushlab oldi, qaynoq ko'z yoshi bag'rimni kuydirdi. Kareta qo'zg'aldi. Men anchagacha qoqqan qoziqdek turgan yerimda qotib qoldim. Shu daqiqada mening butun baxtim, hayotim barbod bo'ldi. Men buni qalbimda alam bilan sezdim. Asta-asta yurib kelgan yo'linga, chol-u kampir oldiga jo'nadim. Ularnikiga qanday kirishimni, shum xabarni qanday qilib ularga aytishimni bilmasdim... Fikrlarim chuvalar, oyoqlarim chalkashardi.

Mana, qora baxtimning bor-yo'q tarixi shu. Mening muhabbatim shu bilan tugab, zavol topdi. Endi bo'linib qolgan hikoyani davom ettiraman.

¹ Kareta (*polyakcha*) – usti va yonlari yopiq to'rt g'ildirakli yengil arava.

Smit vafotidan besh kun o'tgandan keyin men uning uyiga ko'chib keldim. Shu kuni yuragim g'ash tortib yurdi. Havo bulut, kun sovuq edi, yomg'ir bilan aralash ho'l qor yog'ib turar edi. Faqat kechga borib bir daqiqagina quyosh ko'rindi, qandaydir bir nur qiziqsinganday adashib uyimga mo'ralab qo'ydi. Men bu yerga ko'chib kelganimdan pushaymon qila boshladim. Xona o'zi kattagina bo'lsa-da, shifti pastakkina, hamma yoqni is bosib ketgan, namiqqan va unda-munda jihoz bo'lishiga qaramay, ko'ngilsiz, bo'm-bo'sh edi. O'sha zamon men bu uyda salomatligimni endi batamom yo'qotishimga aqlim yetdi. Xuddi shunday bo'ldi.

Shu kuni men ertalab qog'ozlarimni titib, ularni tartibga solish bilan ovora bo'ldim. Portfelim bo'lmaganligi uchun men ularni yostiq jildida olib kelgan edim, hammasi g'ijimlanib aralash-quralash bo'lib ketibdi. Keyin yozishga o'tirdim. Men o'sha katta romanimni yozayotgan edim, lekin yana qo'lim ishga bormadi, xayolim bo'lindi.

Men peroni¹ tashlab, deraza yoniga kelib o'tirdim. Qorong'i tushmoqda. Qorong'ilik bilan birga xafaligim ham oshib bormoqda edi. Har xil og'ir fikrlar xayolimni chulg'ab olgan edi. «Peterburgda xarob bo'laman, shekilli, bahor yaqinlashib kelmoqda. Mana bu katakdan Xudoning yorug' dunyosiga chiqsang-u, dala va o'rmonlarning yoqimli islarini miriqib-miriqib hidlasang, tanlaring yayrab, ko'ngil orom topardi... Qachonlar edi ko'rganim ularni!..» – deb o'ylardim. Esimda bor: yana mening xayolimga shunday bir fikr kelgandi o'shanda: ajoyib bir mu'jiza yuz bersa-yu, keyingi yillardagi ko'rgan, kechirganlarimning barchasi unutilsa, hammasi esdan chiqib ketsa, yangi kuch, iroda bilan hammasini boshdan boshlasang. Men o'shanda shu orzularga yetishimga ishonardim. «Hech bo'lmasa, jinnixonaga borsammikin, – degan qarorga keldim, – achib ketgan miyam shoyad tuzalsa!» Axir, hayotga tashnalik va unga ishonch bor-ku!.. Biroq, esimda bor, bu fikrlardan kulib yubordim. «Jinnixonadan chiqqandan keyin nima qilaman, nahotki yana roman

¹ Pero (*ruscha*; pat, qanot) – siyoh, tush bilan yozish uchun ruchka uchiga o'rnatib ishlatiladigan yozuv-chizuv asbobi.



yo'zishga o'tiraman?...»

Orzular, g'amlar bilan vaqtni kech qildim. Tun kirdi. Shu oqshom biz Natasha bilan ko'rishishga va'dalashgan edik. U meni kechagina xat orqali borishimni yalinib so'ragan edi. Men o'rnimdan irg'ib turdim-u, otlana boshladim. Buningsiz o'zim ham shu uydan biror yoqqa, yomg'ir bo'lsa ham, shilta loy bo'lsa ham, chiqib ketmoqchi bo'lib turgandim.

Qorong'i tushishi bilan mening xonam ham tobora kengayib borayotgandek tuyulardi. Nazarimda, endi har kecha uyni har burchagida Smit turgandek: u bir chekkada o'tirib, indamasdan xuddi qandolat do'konida Adam Ivanichga tikilgandek menga tikiladi, uning oyog'i ostida Azorka yotadi. Xuddi shu daqiqada shunday hodisa yuz berdiki, men taajjubda qoldim.

Ochiqchasiga aytib qo'ya qolay: asablarimning buzilishidanmi, yangi uydagi taassurotlardanmi, yoki yaqindagina boshimga tushgan g'amdandmi, nima uchundir qorong'i tushishi bilan asta-sekin g'alati ruhiy holatga tusha boshladim. Hozir kasal mahalimda ham kechalari tez-tez shu ahvol yuz berardi. Men buni sirli vahima deb atayman. Bu g'oyat og'ir, kishining yuragini oladigan vahimaki, buni til bilan ifodalash ham qiyin. Bu shafqatsiz sirli dahshat vujudingni o'rab, aql-idrokingdan mahrum qilib, aqlning barcha dalillarini masxara qilgandek haqiqatga aylanadi-yu, oldimga kelib, hech yo'qotib bo'lmaydigan darajada aniq bo'lib, qoshimda turib oladi. Bu vahima odatda fahmidrok dalillariga qaramay tobora kuchayaveradi. Nihoyat, aql shu daqiqada ham ravshan bo'lishiga qaramay, hislarga qarshi turish qobiliyatidan butunlay mahrum bo'ladi. Mana shu ikkilanishning o'zi, yurakni hovuchlab kutishning o'zi dahshatni yana kuchaytiradi. Menimcha, o'likdan qo'rqadigan odamlarda qisman mana shunday hissiyot bo'lsa kerak. Dahshatning noaniqligi menga beshbattar azob beradi.

Esimda bor: men eshikka orqamni o'girib stoldan shlyapamni olayotgan edim, shu daqiqa xayolimga: «Hozir orqamga qayrilib qarashim bilan, albatta, Smitni ko'raman», -- degan fikr keldi: u eng avval eshikni sekingina ochadi, ostonadan turib uyni ko'zdan kechiradi, keyin astagina boshini egib kiradi, mening

ro'paramga keladi-yu, xira ko'zlari bilan mening ko'zlarimga tikilib turib, uzoq kuladi, bu tishsiz odam ovoz chiqarmay shunday kuladiki, butun jussasi silkinib ketadi. Bu sharpa to'satdan mening tasavvurimda haddan tashqari aniq va ravshan tusga kira boshladi. Shu bilan birga birdan menda shunga hech inkor qilib bo'lmaydigan ishonch paydo bo'ldi. Bu hodisa sodir bo'ldi ham, lekin eshikka orqa o'girib turganim uchun ko'rolmay turibman, xuddi mana shu daqiqaning o'zida, ehtimol, eshik ochilayotgandir. Men shartta o'girildim. Ie, eshik bir daqiqa bundan ilgari tasavvur qilganimdek, haqiqatan ham, astagina ochildi. Men: «Voy!» – deb yubordim. Eshik go'yo o'zidan-o'zi ochilgandek... Anchagacha hech kim ko'rinmadi; birdan ostonada allaqanday, g'alati bir maxluq ko'rindi, kimningdir ko'zlari menga qorong'i-da qattiq tikilib boqar edi.

Oyoq-qo'lim bo'shashib ketdi. Qattiq dahshat ichida men ostonada yosh bir qiz bolani ko'rsam bo'ladimi – Xudo haqqi, agar shu bemahalda mana bu kutilmagan notanish qiz bola emas, Smitning o'zi ostonada turgan bo'lsa, uncha qo'rqmagan bo'lardim.

Men hali aytgan edim, u xuddi kirishga qo'rqqandek eshikni asta-sekin ochib kirdi. Kirgandan keyin u ostonada eshushi og'ib qolgandek ajablanib menga uzoq qarab turdi; nihoyat, sekin-asta oldinga ikki qadam tashladi-yu, hech narsa demasdan oldimga kelib to'xtadi. Men unga yaqinroq kelib qaradim. Bu o'n ikki yoki o'n uch yoshlardagi past bo'ylikkina, ozg'in, xuddi hozirgina og'ir kasaldan turgandek rangsiz qiz edi. Katta qora ko'zlari chaqnardi. Chap qo'li bilan u kechki izg'irindan sovqotgan ko'kragini bekitib turgan eski yirtiq ro'molini ushlab turar edi. Uning ustidagi kiyimini azbaroyi juldurligidan janda deb atasa bo'lardi, qalin qora sochlari taralmagan, pahmoq edi. Biz bir-birimizga bir-ikki daqiqa tikilganimizcha turdik.

– Bobom qani? – so'radi u nihoyat, ko'kragi yoki tomog'i og'riyotgandek eshitilar-eshtilmas bo'g'iq ovoz bilan.

Bu savolni eshitishim bilan menda qo'rquvdan asar qolmadi. U qiz Smitni so'rayotgan edi. Kutilmaganda uning daragi chiqib qoldi.

– U sening bobong bo‘ladimi? O‘lib qoldi-ku, – dedim men birdan o‘ylamay-netmay, keyin og‘zimdan shu gap chiqib ketganiga o‘zim pushaymon yedim. Bir daqiqacha u avvalgi qiyofada turdi, keyin shunday qattiq titray boshladiki, go‘yo xavfli bir asab kasali – tutqanog‘i tutib qoladigandek tuyulib ketdi. Yiqilib ketmasligi uchun uni ushlamoqchi bo‘ldim. Bir necha daqiqadan so‘ng u o‘ziga kela boshladi, lekin o‘z hayajonini mendan yashirish uchun bor kuchini to‘plashga harakat qilayotganini aniq ko‘rdim.

– Kechir, kechir meni, qizginam! Kechir, bolajonim! – dedim men. – Bexosdan aytib yubordim, balki, hali u emasdir. Bechoraginam... Kimni qidirypsan? Bu yerda turgan chohnimi?

– Ha, – shivirladi u, zo‘rg‘a, tashvish bilan menga termilib turib.

– Uning familiyasi Smitmidi?

– H...ha!

– O‘sha... Ha, o‘ldi... Lekin xafa bo‘lma, jonginam,

– Nega kelmay yurganding? Hozir qayoqdan kelding? Uni kecha ko‘mdik. To‘satdan o‘lib qoldi. Xo‘sh, sen uning nevarasimisan?

Qiz mening shoshib-pishib berayotgan betartib savollarimga javob bermadi. Indamasdan orqasiga o‘girildi-yu, astagina uydan chiqib ketdi. Men shunday gangib qolgan edimki, uni ortiq ushlab turmadim, boshqa hech narsa so‘ramadim ham. U ostona yana to‘xtadi va menga yarim o‘girilganicha:

– Azorka ham o‘ldimi? – deb so‘radi.

– Ha, Azorka ham o‘ldi, – javob berdim. Uning savoli juda g‘alati tuyulib ketdi. Go‘yo Azorka, shubhasiz, chol bilan birga o‘lishi (kerakligiga uning ham ishonchi komildek edi. Javobni eshitgandan keyin qiz eshikni astagina bekitib uydan chiqib ketdi.

Bir daqiqacha sarosimada turdim-da, qizning orqasidan yugurdim. Nega, axir, qo‘yib yubordim. U shunday sekin chiqib ketdiki, men hatto zina tepasidagi narigi eshikning qanday ochilganini ham eshitmadim. Hali zinapoyadan tushib ulgurmagandir, deb yo‘lakda to‘xtab quloq soldim. Biroq hamma yoq jimjit,

oyoq tovushi ham eshitilmasdi. Faqat qayerdandir pastki qavatda eshik taraqlab yopildi va yana hammayoq jimjit bo'lib qoldi.

Shoshilib pastga tushdim. Men turadigan beshinchi qavatdan to'rtinchi qavatgacha aylanma zina, to'rtinchi qavatdan pastga to'g'ri zina bilan tushilardi. Bu odatda kichik xonalik katta binolarda bo'ladigan iflos, qop-qora va hamma vaqt qorong'i zinalardan biri edi. Shu topda bu yer zim-ziyo qorong'i edi. To'rtinchi qavatga timirskilab tushganimdan keyin to'xtadim, negadir menga shu yerda kimdir bordek, kimdir yashirinib turgandek tuyuldi. Men qo'lim bilan timirskilana boshladim. Qiz shu yerda edi, burchakda, devorga o'girilib olib piqillab yig'lardi.

– Menga qara, nimadan qo'rquyapsan! – dedim. – Seni cho'chitib yubordim-a? Ayb menda. Bobong jon bera turib sening to'g'ringda gapirdi. Bu uning oxirgi so'zlari edi. Menda kitoblari ham qolgan, seniki bo'lsa kerak. Isming nima? Qayerda turasan? U Oltinchi liniyada degan edi...

Gapimni tugata olmadim, u xuddi turadigan yerini bilganimdan qo'rqib ketgandek birdan chinqirib yubordi, o'zining oriq, qoq suyak qo'lchasi bilan meni itarib, zinadan g'izillab tushib ketdi. Men orqasidan chopdim. Pastdan uning oyoq tovushi eshitilib turardi, birdan jim bo'lib qoldi... Men ko'chaga chiqqanimda u hech yerda yo'q edi. Men to Voznesenskiy ko'chasigacha chopib bordim, nihoyat qidirishim befoyda ekanini tushundim: u qayoqqadir g'oyib bo'lgan edi. «Men hali zinapoyadan tushayotganimda u biror yerda yashirinib qolgan bo'lsa kerak», – deb o'yladim.

XI BOB

Ko'chaning iflos yo'lakchasiga qadam qo'yishim bilan birdan chuqur xayolga botib, boshini quyi solganicha tez-tez ketayotgan o'tkinchiga duch kelib qoldim. Bu Ixmenev ekan. Uni tanib haddan tashqari taajjublandim. Bu oqshom men uchun favqulodda uchrashuvlar oqshomi bo'ldi. Men cholning uch-to'rt kundan beri qattiq betob bo'lib yotganini bilar edim. Shuning uchun uni mana shunday namgarchilikda ko'chada uchratganimga hayron bo'ldim, Undan tashqari u umuman kechki paytlarda hech ko'chaga chiqmas, ayniqsa, Natasha ketgan shu yarim yildan beri. uydan chiqmaydigan bo'lib qolgan edi. U o'z dardini aytib ko'nglini bo'shatadigan do'stini nihoyat uchratgan kishidek meni ko'rishi bilan haddan tashqari suyunib ketdi, qo'limni mahkam qisib, qayerga ketayotganimni ham surishtirmay o'zi bilan birga olib ketdi. U bir narsadan hayajonlangan, shoshib turgandek, harakatlari keskin edi. «Qayerga bordiykin?» – deb o'ylardim, o'zimcha. So'rab o'tirish ortiqcha edi, chunki u juda ham jizzaki bo'lib qolgan, ba'zan eng oddiy savol yoki oddiy gap ham unga ta'naga o'xshab tuyulardi.

Men ko'z qirim bilan qaradim; rangi sarg'aygan, shu keyingi kunlarda juda ozib ketibdi, soqoliga bir haftadan beri ustara tegmaganga o'xshaydi. Oppoq oqargan uzun sochlari g'ijimlangan shlyapasi tagidan tartibsiz holda chiqib yotar, eskirib qolgan paltosining yoqasiga tushib turardi. Men ilgari ham bir-ikki bor sezgandim: ba'zan u esini yo'qotgandek ko'rinardi: masalan, uyda odam borligi ham esidan chiqib, o'zi bilan o'zi gaplashar, qo'llari bilan harakat qilar. Bunday holda unga qarash juda og'ir edi.

– Xo'sh, nima gaplar, Vanya? – gap boshladi u. – Qayoqqa ketayotgan eding? Men bir ish uchun ko'chaga chiqdim. Sog'liq qalay?

– O'zingiz qalaysiz? Yaqindagina tobingiz yo'q edi, yurishingizni qarang.

Chol gapimni eshitmagandek menga javob bermadi.

– Anna Andreevnaning sog‘lig‘i qalay?

– Sog‘-salomat... Biroz tobi qochib yurgandi. U bechora ham g‘amga botgan. Nega kelmaydi deb seni eslagandi. Hozir biznikiga ketayotgan bo‘lsang kerak, a, Vanya? Yoki boshqa yoqqami? Balki, senga xalaqit berdimmi yoinki ishdan qoldirdimmi, a? – so‘radi u birdan allaqanday ishonchsizlik va shubha bilan qarab turib. Badgumon chol shu qadar ziyrak va jizzaki bo‘lib qolganki, agar men sizlarnikiga ketayotganim yo‘q edi, desam, baloga qolaman, u, albatta, xafa bo‘lib, xayr-ma‘zurni nasiya qilib jo‘nab qoladi. Men Natashanikiga kechga qolishimni yoki butunlay borolmay qolishimni bilib turib, rostdan ham Anna Andreevnani ko‘rib kelgani ketayotgan edim, deb javob berishga shoshildim.

– Juda soz, – dedi chol mening javobimdan to‘liq qanoat qosil qilib, – bu yaxshi ish... – keyin birdan jimib qoldi. Nimanidir aytolmayotgandek xayol surib ketdi.

– Juda soz! – dedi beixtiyor, besh daqiqadan keyin go‘yo uyqudan uyg‘ongan kishidek. – Hm. Bilasanmi, Vanya, seni hamma vaqt o‘z o‘g‘limizdek ko‘rar edik. Xudo bizga o‘g‘il bermadi... Seni yubordi, men doim shunday o‘ylardim. Kampirim ham. Ha! Sen ham eng yaxshi o‘g‘il qatorida bizni hamma vaqt sevib, hurmat qilib kelding. Buning uchun Xudo o‘zi seni qo‘llasin, Vanya, biz chol-kampir haqingga duo qilamiz, yaxshi ko‘ramiz seni, Vanya!

Uning ovozi titrab ketdi. Bir lahza sukut qilib turdi.

– Ey... ha, xo‘sh? Tobing qochganmidi? Nega anchadan beri kelmading?

Men unga Smit voqeasini ipidan-ignasigacha gapirib berdim. Smit ishi bilan ovora bo‘lib ketganim uchun uzr so‘radim, bulardan tashqari tobim qochinqiraganini va shu ikir-chikirlar bilan ovora bo‘lib ularnikiga, Vasilevskiyga (ular o‘shanda Vasilevskiyda turishardi) borolmaganimni, orasi ancha uzoqligini aytdim. Shu oralarda Natashanikiga borib turdim deb og‘zimdan chiqib ketay debdi. Lekin vaqtida tilimni tishlab qoldim.

Smit voqeasi cholni juda qiziqtirdi. U gapimni diqqat bilan tingladi. Mening yangi kvartiramning zaxligini, avvalgi-

sidan battarroq bo'lsa ham, oyiga olti so'm to'lashimni eshitib fig'oni chiqib ketdi. Umuman, u salga tutaqib ketadigan, betoqat bo'lib qolgan edi. Bunday mahallarda faqat Anna Andreevna u bilan muomala qila olar edi. Ba'zan u ham ojizlik qilardi.

– Hm, sening adabiyoting, Vanya, cherdakka¹ olib chiqib qo'ydi, u seni endi go'ristongacha olib boradi! – deb baqirdi g'azab bilan. – Aytib edim-ku senga, karomat qilgan edim!.. Nima, B. hali ham tanqidlar zozyaptimi?

– U sil² kasalidan vafot etdi, men sizga aytgan edim, shekilli.

– Vafot etibdi-da, hm... Shunday bo'lishi ham kerak edi. Nima, xotiniga, bolalariga biror narsa qoldiribdimi? Xotini bor degan eding, shekilli?.. Xudoyo tavba, shunaqa odamlar nima uchun uylanishar ekan!

– Yo'q, hech narsa qoldirmabdi, – javob berdim men.

– Bo'lgan gap shu-da! – Bu gapni u shu qadar tajanglik bilan gapirdiki, go'yo bu ish unga taalluqlidek, go'yo vafot etgan. B. uning bir tug'ishgan jigaridek. – Hech narsa-ya! Hech balo qoldirmagan degin! Bilasanmi, Vanya, men shunday bo'lishini avvaldan sezgandim, esingda bormi, huv bir kuni uni hadeb maqtayverganingda ko'nglimga shu gap kelgan edi. Hech narsa qoldirmagan deb aytish oson! Hm... shuhrat qozongan. Faraz qilaylik, o'lmas nom qoldirgandir. Biroq shuhrat bilan qorin to'ymaydi, uka! Men esa, jigarim, sening ham nima bo'lishingni bilib qo'rganman, ko'zingga qarab maqtadim seni, Vanya, lekin o'zim nima bo'lishini oldindan bilib turgandim. «B.» o'ldi degina? O'lmay nima bo'lardi! Maishat ham joyida va... turadigan joyimiz ham soz, qara!

U shoshib-pishib, barmog'ini bigiz qilib menga, qorong'ida miltillab yonayotgan fonuslar g'ira-shira yoritib turgan tumanli ko'chalarni, chirkin uylarni, ho'l bo'lib ketgandan yaltirayotgan yo'lakcha plitalarini, qovog'i soliq va ivib ketgan g'amgin yo'lovchilarni, xuddi qora siyoh to'kilgandek tim qora Peterburg osmonining qubباسi ostidagi bu manzaralarni ko'rsatardi.

¹ Cherdak – ustki tom bilan ostki tom yoki shipning oralig'i.

² Sil (*arabcha*) – turli a'zolar, asosan, o'pkada o'ziga xos yallig'lanish bilan kechadigan surunkali yuqumli kasallik; tuberkulyoz.

Biz maydonga chiqib qoldik; ro'paramizda, zulmat ichida pastidan gaz bilan yoritilgan haykal qad ko'tarib turardi, nariroqda siyohrang osmondan g'ira-shira ajralib turgan Isaakiy jomesi-ning bahaybat qorasi gavdalandi.

– Sen aytgan eding-a, Vanya, u juda yaxshi, insofli, oliyjanob, ziyrak, ko'ngli yumshoq odam deb. Oliyjanob, insofli odamlarning ahvoli shu-da! Yetimchalarni tarqatishdan boshqaga yaramaydi. Hm... o'lib qutulganiga xursand bo'lgandir deb o'ylayman!.. Eh! Bir yoqlarga, mayli, Sibirgami boshingni olib ketsang kishi. Ha, qizgina? – so'radi u to'satdan, yo'lakchada tilanchilik qilib turgan yosh bolani ko'rib.

Bu yetti-sakkiz yashar kichkinagina, ozg'in qiz edi, ustidagi kiyimi irkit, juldur; kichkinagina oyoqlarida yirtiq botinka. U sovuqdan qaltirayotgan badanini allaqachon o'ziga kichkina kelib qolgan juldur xalat bilan o'rashga urinardi. Oriq, za'farondek sarg'aygan yuzi biz tomonga o'girildi; u tortinib indamay qarab turar va bir narsa bermasmikin, degandek qo'rqa-pisa bizga titroq qo'lchasini uzatardi. Uni ko'rib chol shu qadar titrab ketdi va unga tomon shu qadar tez burildiki, qiz cho'chib tushdi, seskanib orqaga tislandi.

– Nima, nima kerak senga, qizgina! – deb qichqirib yubordi u. – Nima? Tilanyapsanmi, a? Mana, mana senga... Ol, ola qol!

U qattiq hayajonlanib, titragan barmoqlari bilan cho'ntagidan ikkitami-uchtami kumush tanga chiqardi. Biroq o'ziga kam ko'rindi, shekilli, cho'ntagidan karmonini chiqarib, unda bor pulini, bir so'mlik qog'ozni olib, kichkina gadoycha qo'lga berdi.

– Xudo o'z panohida saqlasin seni, qizginam, bolaginam! Farishtalar o'zi yor bo'lsin senga!

U titroq qo'li bilan bechora qizni bir-ikki cho'qintirdi, biroq mening unga qarab turganimni ko'rib qolib qovog'ini soldi va tez-tez odim tashlab yo'lida davom etdi.

– Ko'ryapsanmi, Vanya, – deb gap boshladi u, uzoq davom etgan og'ir sukutdan so'ng, – mana bu yosh begunoh bolalarning la'nati ota-onalari tufayli sovuq ko'chalarda sargardon

bo'lib yurishini ko'rishga asti yuragim yo'q... Eng bebaxt onagina o'z bolasini mana shu ko'yga soladi!.. Anavi burchakda yana yetimchalar o'tirgan bo'lishi kerak, bu hammasidan kattarog'i, kampirning o'zi kasal... Hm! Knyaz bolasi shu holga tusharmidi... Dunyoda hammayam knyazvachcha bo'lavermaydi-da, Vanya...

U bir narsa deyishga iymangandek bir daqiqa jim bo'lib qoldi.

– Bilasanmi, Vanya, Anna Andreevnaga va'da bergan edim, – deb boshladi u gapidan adashib, duduqlanib. – Men unga va'da qilgan edim... To'g'rirog'i, biz Anna Andreevna bilan birorta yetim bola boqishga maslahatlashgan edik... Shu birorta kichkinaroq bola bechorani qo'limizda tarbiyalasak, degan edik. Tushunasanmi? Yolg'iz chol-kampir zerikib qolyapmiz. Hm... Lekin bilasanmi, Anna Andreevna ko'nmayapti. U bilan o'zing bir gaplashib ko'rsang, meni aytmasang-u, o'z nomingdan aytib uni ko'ndirsang, tushunyapsanmi? Men anchadan beri sendan uni unatishingni so'ramoqchi bo'lib yurgandim. O'zim hadeb qistab so'rashga bo'ynim yor bermaydi. Ha, endi shunchaki bir gap-da! Men qizga zormanmi? Keragi ham yo'q. Shunchaki ermak uchun-da... Uydan bola tovushi chiqib tursa bas-da. Lekin ochig'ini aytsam, men buni faqat kampirning ko'ngli uchun qilmoqchiman; hadeb bitta men bilan bo'lgandan ko'ra o'ziga ovunchoq topgani yaxshi-ku, axir. Kel-qo'y, hammasi behuda gaplar! Bilasanmi, Vanya, bu ahvolda biz hali-veri yetolmaymiz, kela qol, izvosh olib qo'ya qolaylik, yo'l uzoq, Anna Andreevna kutib qoldi.

Biz Anna Andreevna oldiga kelganimizda soat yetti yarim bo'lgan edi.

XII BOB

Chol-u kampir juda totuv yashardi. Uzoq yillar birga turib bir-birlariga o'rganib, qadrdon bo'lib ketishgandi. Biroq Nikolay Sergeich hozir emas, avvallari, eng baxtli kezlarida ham Anna Andreevnaga uncha ro'yxush beravermasdi, hattoki ba'zan odamlar oldida allaqanday sovuq muomala qilardi. Bir xil nozikta¹ va hassos¹ odamlarda ba'zan allaqanday qaysarlik, o'z mehr-muhabbatini izhor etishdan o'zini tiyish kabi odat bo'ladiki, ular hatto birov oldida emas, jonidan aziz ko'rgan odami bilan tanho qolgan taqdirda ham, uni erkalatmaydilar, yolg'iz qolganlarida o'zlarini qattiqroq tutadilar-da, hislari qancha uzoq tiyilsa, shuncha zo'r harorat va jo'shqinlik bilan barq uradi. Keksa Ixmenev ham o'zining Anna Andreevnasi bilan, hatto yoshligida ham shunday edi. Zotan Anna Andreevna sodda va erini sevishdan boshqa hech narsani bilmaydigan ayol bo'lsa ham, Ixmenev uni hurmatlar, cheksiz muhabbat bilan sevardi, lekin Anna Andreevna o'z navbatida azbaroyi soddaligidan eriga o'z hislarini ba'zan haddan tashqari ochiq izhor etib qo'ysa, g'ashi kelardi. Biroq Natasha ketib qolgandan so'ng ular bir-biriga qattiq suyanib qolishdi, dunyoda g'arib bo'lib qolganliklarini sezib, ba'zi-ba'zida Nikolay Sergeich qovog'ini solib olsa hamki, ular hatto ikki soat ko'rishmasa, yuraklari g'amdan tars yorilib ketay derdi. Natasha haqida ikkalasi gapirmaslikka ahd qilgandek, go'yo Natasha dunyoga kelmagandek u to'g'rida og'iz ochishmasdi. Anna Andreevna ichida qanchalik kuygani bilan, erining oldida qizidan gap ochishga jur'at etolmasdi. Kampir esa dilida Natashani allaqachon kechirgan. Men har kelishimda uning ko'z qorachig'i, bolajonidan biror xabar olib keladigan bo'ldim, bu odat tusiga kirib qolgan edi.

Kampir bechora qizi haqida anchagacha biror xabar eshitmasa, kasal bo'lib qolardi, u men keltirgan yangiliklarning ipidan-ignasigacha qiziqar, orziqib surishtirar, mening so'zlarimdan ko'ngli taskin topardi, hatto Natashaning bir kun tobi qochib

¹ **Hassos** (arabcha; hissiyotga beriluvchi; sezuvchan, sezgir) – narsa-hodisaning mohiyatini tez, to'g'ri va to'la his etuvchi, biror sohalarda o'tkir bilimli va sezgir.

qolganini eshitib o'takasi yorilay dedi, o'zi uning oldiga bormoqchi ham bo'ldi. Lekin noilojlikdan shunday qilmoqchi bo'lgan edi. Boshda u, hatto mening oldimda ham qizi bilan diydor ko'rishish orzusini izhor etishga yuzi chidamas va deyarli har gal hamma gapni surishtirib-bilib olgandan keyin, menga sir boy bermay, qizimning hol-ahvolini surishtirganim bilan u juda gunohkor, kechirib bo'lmaydi, deb qo'yardi. Biroq bular hammasi soxta sipolik edi. Ba'zan Anna Andreevna qizini sog'inib yurakbag'ri ezilib ketar, yig'lardi, mening oldimda eng shirin so'zlar bilan Natashaning nomini tilga olar, Nikolay Sergeichdan qattiq ginaxonlik qilardi. Uning oldida esa nihoyatda ehtiyotlik bilan odamlarning mag'rurligidan, qahri qattiqligidan, odamning gunohidan o'tishni bilmasligimizdan: «Dilozordan Xudo bezor», – deganlaridek, Xudo ham qahri qattiqlarni kechira olmasligidan gapirib, piching qila boshlardi, lekin uning oldida shundan ortiq so'z anglolmasdi. Bunday vaqtlarda chol darhol to'nini teskari kiyib, tumtayganicha mum tishlagandek jimib qolardi yoki birdan g'ayritabiiy ravishda shang'illab gapni boshqa yoqqa burar, yoinki ikkimizni xoli qo'yib, o'z xonasiga kirib ketar, bu bilan u Anna Andreevnaga mening oldimda ko'z yoshini to'kib, hasratini aytib olishga imkon tug'dirar edi. Ularnikiga kelganimda u men bilan salom-alik qilib, Anna Andreevnaga Natasha haqidagi oxirgi xabarlarini yetkazishimga vaqt qoldirish uchun o'z xonasiga kirib ketardi. Bu gal ham xuddi shunday qildi.

– Ivib ketdim, – dedi u ostonaga qadam qo'yar-qo'ymas, – o'z xonamga kira qolay. Sen, Vanya, shu yerda o'tira tur. Kvartira masalasida ancha mashmasha o'tibdi. Qani, sen unga gapirib tur. Men hozir qaytib chiqaman.

O'zi ataylab bizni yolg'iz qo'yayotganidan o'zi nomus qilgandek bizning aftimizga ham qaramay, ketishga shoshildi. Bunday vaqtlarda, ayniqsa, bizning oldimizga qaytib chiqqandan keyin hamisha tumtayib olardi, men bilan ham, Anna Andreevna bilan ham qo'rs muomala qilari va hatto ko'ngilchanlik qilib bo'sh kelganligi uchun o'zidan xafa bo'lgandek tirnoq ostidan kir qidiraverardi.

– Mana, qanaqa odam bu, – dedi keyingi vaqtlarda sipo-

ligini tashlab, mendan sir saqlamaydigan bo'lib qolgan kampir, – u hamma vaqt men bilan shunday gaplashadi, axir, biladiki, uning hamma quvligi bizning tinog'imizning yuzida. Mening oldimda shunaqa qilg'ini qilmasa, kimning ko'ngli qolar ekan! Men unga begonamanmi, tavba? Qizi bilan ham shunday. Axir, kechira qolsa bo'ladi-ku, balki, Xudo biladi, kechirishni istaydi ham. Kechalari yig'lab chiqadi, o'zim eshitganman! O'zi sir boy bermaydi. Uni kibr-havo o'rab olgan... Qani, bo'tam, Ivan Petrovich, tezroq gapirib bera qol: u qayoqqa ketayotgan ekan?

– Nikolay Sergeichmi? Bilmadim, men sizdan so'ramoqchi edim.

– U uydan chiqib ketganda kapalagim uchib ketdi, axir, tobi yo'q edi, mana shu havoda, qorong'i tushayotganda ko'chaga chiqqanidan biror zarur ishi bor, shekilli, deb o'ylabman, mana shu o'zingizga ma'lum bo'lgan ishdan zarurroq qanaqa ish bo'lishi ham mumkin? Shunday deb o'ylashga o'ylayman-u, lekin so'rashga yurak qayda! Men undan biror narsa so'rashga yuragim bezillaydi. Xudo-ey! Undan ham, qizimdan ham xavotir olib o'layozdim. «Ha, endi bu qizining oldiga ketdi-ku, – deb o'yladim. – Kechirishga qaror qildimikan-a?» Axir, u hammasini biladi, u to'g'ridagi hamma gapdan xabari bor, o'zimcha, bilsa kerak deb taxmin qilaman. Lekin bu xabarlarini unga kim yetkazishiga aqlim yetmaydi. Ayniqsa, u kecha va bugun ezilib ketdi. Hoy, nega indamaysiz? Gapirsangiz-chi, u yerda yana nima gaplar bor? Sizni farishtani kutgandek kutib, ko'zlarim teshildi. Nima gap, anavi yaramas Natashani tashlab ketarmishmi?

Men o'zim bilgan narsalarimni shu zahotiyoq Anna Andreevnaga gapirib berdim. Men endi hech narsani yashirmay u bilan ochiqdan ochiq gaplashaverdim. Haqiqatan, Natasha bilan Alyoshaning orasi buzilgani, bu avvalgi janjallardan jiddiyroq ekanini aytdim. Natasha kecha menga xat yozib, bugun kechqurun soat to'qqizda kelishimni yolvorib so'raganini va shuning uchun ham bu yerga kelish xayolimda ham yo'qligini, bu yerga meni Nikolay Sergevich olib kelganini gapirib berdim. Umuman, ularning ahvoli tangligini, ikki hafta burun safardan qaytgan Alyoshaning otasi, bunga jon-jahdi bilan qarshi ekanligini, Al-

yoshaning qattiq qo'lga olganligini va hammadan muhimi Alyoshaning o'z qaylig'iga ko'ngli borligi va hatto mish-mishlarga qaraganda unga oshiq bo'lib qolganligini to'kmay-sochmay gapirdim. Yana shu gapni qo'shib qo'ydim: sezishimcha, xat qattiq hayajon ichida yozilgan, Natasha hamma gap shu kecha hal bo'ladi deb yozgan, nima hal bo'ladi – noma'lum. Shunisi qiziqki, kechagi sanani qo'ygan, kelishga bugun buyurgan, soatni ham belgilagan. To'qqizda. Shuning uchun ham men nima bo'lsa ham, darhol borishim kerak.

– Bor, bor, bo'tam, albatta, bor, – dedi shoshilib qolgan kampir, – mana hozir u chiqadi, choy ichib olgin-da... Hoy, nega samovarni olib kelmaysan-a? Hoy, Matryona! Samovar nima bo'ldi! Qiz emas bir balo, bu Matryona tushmagur. Xo'p, shunday qilib choy ichib olganingdan keyin birorta bahona topkin-u, keta qol. Ertaga, albatta, mening oldimga kelib hammasini gapirib ber; ertaroq kel. Ey tangrim! Biror falokat chiqib qolmaganmikan? Bu g'amlar kamlik qilayotgandimi? Axir, Nikolay Sergeich hammasidan xabardor bo'lsa kerak, yuragim sezib turibdi: u bilgan. Men esa mana bu Matryonadan ko'p gaplarni eshit-yapman, u esa Agashka orqali eshitadi. Agashka knyaz uyida turadigan Mariya Vasilevnaning tutingan qizi bo'ladi... Ha, o'zing ham bilasan-ku. Bugun Nikolayim juda xafa edi. Men u deb ko'rdim, bu deb ko'rdim, bo'lmadi, jerkib tashladi, keyin o'zining rahmi keldi, shekilli: «Pul oz», – deb bahona qildi. Pul uchun shuncha baqirarmidi! Ovqatdan keyin uxlamog'chi bo'lib kirib ketdi. Men eshikning teshigidan mo'ralasam (eshikda kichkina teshik bor, borligini u bilmaydi ham), u bechoraginam ikonalar oldida cho'kka tushib olib ibodat qilyapti. Ko'rdim-u, oyoq-qo'lim bo'shashib ketdi. Choy ham ichmadi, uxlamadi ham, shapkasini oldi-yu, chiqib ketdi. Soat to'rtidan oshgan edi. So'rashga ham botinolmadim, baqirib beradi-da, baribir. Tez-tez baqiradigan bo'lib qoldi, ko'proq Matryonadan alamini oladi, ba'zan mendan ham. Bir baqirsa, oyoq-qo'lim bo'shashib, yuragim chiqib ketay dedi. Bilaman, axir, shunchaki po'pisa qilayotganini bilaman-u, shunda ham qo'rqib ketaman. U ketgandan keyin Xudo unga insof bersin deb bir soat ibodat qildim. Uning



xati qani, ko'rsat-chi!

Men ko'rsatdim. Anna Andreevnaning bitta-yu bitta orzusi borligini bilaman. Alyoshani goho yaramas, goho qahri qattiq ahmoq bola deb koyigani bilan, axir, bir kun Natashaga uylanadi va Alyoshaning otasi knyaz Petr Aleksandrovich nihoyat o'g'liga ruxsat beradi deb umid qilardi. U hatto menga og'zidan gullab qo'ygan edi, lekin boshqa vaqtlarda aytganlaridan pushaymon yeb, so'zidan tonib turib olardi. Garchi chol unda shu umid borligini sezgan bo'lsa ham va bir necha bor uni ta'na qilgan bo'lsa hamki, o'la qolsa, Nikolay Sergeich oldida o'z orzusi haqida churq etib og'iz ocholmasdi. Menimcha, Nikolay Sergeich agar shu nikohning bo'lishiga ko'zi yetsa, Natashani tamoman «oq» qilib yuborar va umrbod yuragidan chiqarib tashlardi.

Biz hammamiz o'shanda shunday deb o'ylar edik. U o'z qizini zor-intizorlik bilan kutardi. Lekin yolg'iz qizinigina, o'z Alyoshasini dilidan sidirib tashlagan, tavba qilgan qizini kutar edi. Gunohidan o'tishning birdan bir sharti shu edi, buni ochiq aytmasa hamki, uning avzoyidan bu qarorning qat'iy va shakshubhasiz ekanini anglash mumkin edi.

– Laqma u, laqma bola, laqma va qahri qattiq, men doimo shunday derdim, – deb gap boshladi yana Anna Andreevna. – Uni tarbiya ham qilolmaganlar, havoyi bo'lib ketgan; shunday sevgi evaziga u Natashani tashlab ketmoqchi-ya, ey tangrim! Qizg namning ahvoli, u bechoraginamning ahvoli nima bo'ladi! O'sha yangi topganining nimasi yaxshi ekan, Xudoyo tavba!

– Men eshitdim, Anna Andreevna, – e'tiroz bildirdim men, – qayliq ajoyib, jozibador qiz emish, Natalya Nikolaevna o'zi ham u to'g'rida shunday deydi...

– Ishonma! – so'zimni bo'ldi, kampir, – jozibador bo'lib qayoqqa borardi? Faqat qog'ozning zavoli bo'lgan sizdaqalarga hammasi jozibador bo'laveradi, faqat yubkasi bo'lsa bas. Basharti Natasha uni maqtayotgan bo'lsa, faqat oliyjanobligidan maqtagan. Natasha uni qo'lga olishni bilmaydi, hamma gunohini kechiraveradi, tag'in o'zi azoblanadi. Necha martabalab u Natashaga xiyonat qildi! Bag'ritosh, yaramas! Men esa, Ivan Petrovich, borgan sari vahimaga tushyapman. Hammani kibr-havo

o'rab olgan. Hech bo'lmasa, cholim insofga kelsaydi, kechira qolsaydi, mening jonginamni qaytarib olib kela qolsaydi. Bag'rimga bosib, diydoriga to'yib, xumordan chiqardim. Ozib qolganmi?

– Ha, ozib ketgan, Anna Andreevna.

– Bo'taginam! O'z tashvishim boshimdan oshib yotibdi, Ivan Petrovich! Shu bugun tun-u kun yig'ladim... asti qo'yaver! Keyin aytib beraman! Necha martadan unga uzoqdan aylantirib kelib kechirish kerakligini gapirishga xezlandim-u, to'ppa-to'g'ri aftiga aytishga yuragim dov bermadi, gapni uzoqdan boshlashga bir harakat qildim. O'zim esa, «astoydil jahli chiqib ketib, uni tamom «oq» qilib yuborsa-ya!», – deb yuragim dukullab turadi. Hali uning og'zidan «oq» qildim degan so'zni eshitganim yo'q... Mana shuning uchun «oq» qilib yuborishdan juda qo'rqaman. Unda nima bo'ladi-a? Otasi «oq» qilgan odamni Xudo ham qahriga oladi! Shu ahvolda yashayman, kun sayin vahima ichida yashayman. Sen ham Ivan Petrovich, uyalmaysanmi? Bizning qo'limizda o'sding, hammamizdan mehribonlik ko'rding, tag'in sen ham o'shani jozibador deysan-a? Mana Mariya Vasilevnaning gapi jo'yaliroq. (Men o'lgur uni bir kun cholim o'z ishi bilan uydan chiqib ketganda qahva ichishga chaqirdim.) U menga ipidan-ignasigacha gapirib berdi. Knyaz o'lgur – Alyoshaning otasi, grafinya bilan xufiya o'ynash ekan! Grafinya anchadan beri knyaz o'ziga uylanmagani uchun ta'na qilar ekan, u bo'lsa ana-mana deb kelar ekan. Grafinyaning o'zi eri hayot mahalida sha'niga isnod tekkizgan ekan. Eri o'lishi bilan u chet elga ketib hamma italyanlar, faranglar bilan bordi-keldi qilibdi, allaqanaqa baronlar¹ bilan donlashar ekan, knyaz Petr Aleksandrovichni ham o'sha yerda qo'lga ilintirgan ekan. Uning avvalgi savdogar erining qizi (bunga o'gay qiz bo'ladi) shu o'rta-da balog'atga yetib qoladi, grafinya – o'gay ona esa bor-yo'g'ini sovurgan, Katerina Fedorovna kundan kun bo'yi yetavergan va savdogar otasi u uchun garovda qoldirgan ikki million so'm tu-

¹ **Baron** (*fransuzcha*: baron yoki *lotincha*: baronis – anqov, lapashang; yollanma askar) – G'arbiy Yevropada o'rta asrlarda qirolning bevosita vassali va qirol kengashi a'zosi. Keyinchalik G'arbiy Yevropa zodagonlari, dvoryanlarining grafdan bir pog'ona past unvoni va shunday unvon olgan kishi.

g'avergan. Endi uning puli uch million bo'lgan deyishadi, knyaz esa uning isini bilib qolgan, qani endi, shu qizga Alyoshani uylanira qolsa! (u anoyi emasmi, shunday boylikni qo'ldan chiqarsa), esingdami, ularning qarindoshi graf saroy ahllaridan, asilzoda odam-da, u ham rozi bo'libdi; uch million hazil gapmi, yaxshi, o'sha grafinya bilan gaplashib ko'ring deb maslahat beradi. Knyaz o'z istagini izhor etadi. U esa o'laman sattor bermayman deb turib oladi: o'zi shunday bebosh, janjalchi xotin emishki! Grafinyani endi chet elda emas, bu yerning o'zida ham hamma qabul qilavermas emish deydilar. «Yo'q, knyaz, – debdi grafinya, – sen Alyoshaga qizimni so'raganingdan ko'ra o'zing menga uylan». O'gay qizposhsha esa o'z o'gay onasining chizgan chizig'idan chiqmas ekan, shunday itoatli emishki, o'gay onasiga sajda qilishga ham tayyor emish. Shu qadar yuvosh, farishtadek qiz deydilar! Knyazning baloga ham aqli yetadi, u grafinyaga: – Sen tashvish qilma, – debdi. – Yer-mulkingni sovurib bo'lding, qarzlaring boshingdan oshib yotibdi. Sening qizing Alyoshaga tegsa, ikkalasi xil tushadi. Seniki sodda, mening Alyosham laqma. Eng avval biz ularni qo'lga olamiz va birgalikda vasiylik qilamiz; shunda sening qo'lingga ham pul tushadi. Menga kuyovga chiqib nima qilasan, deydi. Juda ham quv odam-da! Mason¹!. Bu gap yarim yil bundan ilgari bo'lgan, grafinya rozi bo'lmay yurgan ekan, endi Varshavaga borib kelishibdi-yu, o'sha yerda hal etishibdi. Mana mening eshitganlarim. Bularning hammasini ipidan-ignasigacha Mariya Vasilevna gapirib berdi, u aniq-taniq odamdan eshitgan. Mana gap shunda: pul millionlar... Gap uning jozibadorligidamas!

Anna Andreevnaning gaplari meni hayratga soldi. Bu gaplarning hammasini yaqinda Alyoshaning o'z og'zidan eshitgan edim. U gapirib turib, «Men pul uchun uylanmayman», – deb chiranar edi. Biroq Katerina Fedorovna uni o'ziga maftun etib qo'yibdi. Alyoshaning gaplariga qaraganda uning otasi, ehtimol, uylanar ham, lekin vaqtdan ilgari grafinyaning jig'iga tegmaslik uchun hozircha bu mish-mishlarni inkor qilmoqda ekan. Men

¹ **Masonlik** - XVIII asrda paydo bo'lgan diniy-siyosiy harakat bo'lib, o'z oldiga axloqni mukammallashtirishni maqsad qilib qo'ygan edi.

avval ham aytib o'tgan edim: Alyosha o'z otasini juda yaxshi ko'radi, uning soyasiga salom beradi, u bilan maqtanadi va unga xuddi Xudoga ishongandek ishonadi.

– Anavi jozibadoring ham graflar zotidan emas ekan-ku! – davom etdi Anna Andreevna, yosh knyazning qaylig'ini maqtananimdan benihoya jahli chiqib, – undan ko'ra, unga Natasha munosib edi. U savdogarning qizi, Natasha esa qadimiy dvoryan oiladan, oliy tabaqali qiz. Kecha cholim (sizga aytish esimdan chiqibdi), sandig'ini ochdi, bilasizmi: tunuka bilan qoplangan sandiq – butun oqshom ro'paramda o'tirib eski yorliqlarimizni tekshirib chiqdi. Shunday sipo bo'lib o'tirdiki, unga qarashga ham qo'rqib indamay paypoq to'qiyverdim. Qarasaki, men indamayman, jahli chiqib ketdi-da, o'zi meni chaqirib oldi va butun oqshom menga bizning ajdodlarimiz kimlar ekanini aytib berdi. Mana, ko'rdingmi, bundan chiqdi biz Ixmenevlar hali Ivan Vasilevich Grozniy¹ davridayoq dvoryan ekanmiz, mening avlodim Shumilovlar esa Aleksey Mixaylovich davrida ma'lum ekan. Hujjatlarimiz ham bor, Karamzin² tarixida ham eslatib o'tilgan. Mana, bo'tam, bu tomondan biz ham boshqalardan qolishmas ekanmiz. Cholim menga hadeb shu gapni gapiravergandan uning ko'nglidagi gapni bilib oldim. Chamasi, Natashani kamsitganlari unga ham alam qilar ekan. Ular bizdan davlatmandlar, shu vajdan kekkayadilar. Mayli, o'sha bezori Petr Aleksandrovich boylik deb jonini jabborga bersin. Uning qahri qattiq, xasisligi hammaga ma'lum, Varshavadan xufyona iezuitlar³ tariqatiga kirib olgan emish-a, qurib ketkur! To'g'rimi shu?

– Bo'lmagan gap, – dedim men, zo'r berib shu xabarning

¹ Ivan IV (Grozniy) (1530-1584) – «Butun Rusning ulug' knyazi» Ruslarning birinchi podshosi. Mustabid hokim sifatida xalq uni «Grozniy» («Dahshatli») laqabi bilan atagan.

² Nikolay Mixaylovich Karamzin (1766-1826) – rus yozuvchisi, publitsist, tarixchi. Rus adabiyotida sentimentalizm oqimi asoschisi. «Rossiya davlati tarixi» (1-12-jild) yilnomasida Rossiyaning 17-asrgacha bo'lgan tarixini bayon etgan.

³ Iezuitlar (lotincha: «Societas Jesu» — «Iso jamiyati») — katoliklar monaxlik ordeni a'zolari. Bu jamiyatni 1534-yilda mayda ispan dvoryani Ignatiy Loyola Parijda tuzgan va 1540 yilda papa Pavel III tomonidan tasdiqlangan. U o'z oldiga katolitsizmni himoya qilish va yoyish, papalik hokimiyatini mustahkamlash vazifasini qo'ydi, konturreformatsiyaning asosiy quroli bo'lib qoldi. Iezuitlar faqat Yevropa davlatlarida emas, Hindiston, Yaponiya, Xitoy, Filippinda ham tarqaldi. 1610-1768-yillarda Paragvayda «Iezuit davlati» mavjud bo'lgan.

tarqatilayotganiga beixtiyor qiziqib, ammo Nikolay Sergeichning yorliqlarini titishi qiziq. Ilgari u o'z shajarasi bilan hech qachon maqtangan emas.

– Hamma yaramas odamlarning qahri qattiq bo'ladi! – davom etdi Anna Andreevna. – Ayt-chi, mening jonginam kuyib yig'lab o'tirganmikin? Ey, sen uning oldiga tezroq borishing kerak-a! Matryona! Hoy Matryona! Qiz emas, bu bir balo! Uni haqorat qilishmadimi? Ayta qolsang-chi, Vanya.

Nima ham derdim men? Kampir yig'lab yubordi. Men undan: «Hali gapirib bermoqchi bo'lgan anavi xunuk voqea nimaydi?» – deb so'radim.

– Ey, bo'tam, bitta dardim yetmagandek ustiga ustak bo'ldi! Esingda bormi: erkam, yo yo'qmi, menda bitta oltin medalon bor edi, shunchaki yodgorlik uchun qilingan, uning ichida Natashajonimning bolaligidagi surati turar edi, sakkiz yoshlarda edi o'shanda mening farishtaginam. Hali o'shanda Nikolay Sergeich bilan bir o'tkinchi rassomga buyurib soldirgan edik. Esingdan chiqib ketgan, shekilli, bo'tam! Yaxshi rassom edi – qizimning shaklini malaksiymo qilib olgan edi, o'shanda uning sochlari malla, jingalak-jingalak, ustida doka ko'ylak bor edi, shundog' badanlari ko'rinib turardi, rasm shunday yaxshi chiqqan ediki, odam qarab to'ymasdi. O'shanda rassomdan qanot ham yasab qo'yishni iltimos qilsam, rozi bo'lmagan edi. Mana shunaqa qilib, bo'tam, men ana o'sha falokatlardan keyin medalchani qutidan oldim-u, ipga taqib ko'kragimga osib oldim, shundog' xochi yonida taqib yuraverdim. O'zim tag'in cholim ko'rib qolmasin deb qo'rqib yuraman, axir, o'sha kunlari u Natashaning hamma buyumlarini uydan chiqarib tashlashga yoki uni eslamaslik uchun barini yoqib tashlashga buyurgan edi-da. Men esa, hech bo'lmasa, suratiga qarab yuray deyman-da, ba'zan unga qarab yig'lab-yig'lab alamdand chiqaman, ba'zan o'zim tanho qolgan paytlarimda xuddi o'zini o'payotgandek to'yib-to'yib o'paman, shirin-shirin so'zlar bilan erkalayman, har kecha cho'qintiraman, yolg'iz o'zim bo'lsam, u bilan gaplashaman, har narsalar so'rayman. Go'yo u javob berayotibdi deb tasavvur qilaman, yana so'rayman. Ey jonginam Vanya, gapirishning o'zi ham og'ir! Mana

shunday qilib, hech bo'lmasa, medalonning borligini bilmaganiga, sezmagani xursandman. Kecha ertalab shundog' qarasam, medalon yo'q-da! Ipinig o'zi osilib yotibdi, chamasi, ipi qiyilib ketib, tushirib qo'yibman, shekilli. Kapalagim uchib ketdi. Rosa qidirdim, yo'q! Yerda ham yo'q, ko'kda ham.

Qayoqqa ketdiyin? O'rinda tushirdim, shekilli, deb o'yladim; hammasini titdim, yo'q! Agar uzilib bir yerga tushib qolgan bo'lsa, biror kishi topib olgan bo'lishi kerak-ku. U bilan Matryonadan boshqa kim topardi? Matryonadan shubha qilishim xayolimga ham kelmaydi. U menga butun jon-dili bilan sodiq... (Hoy, Matryona, samovaring qachon qaynaydi?) O'zimcha, u topib olsa, nima bo'ladi deb o'ylayman. Xafa bo'lib o'tirib toza yig'ladim, ko'z yoshlarimni to'xtata olmadim. Nikolay Sergeich esa menga borgan sari yumshoq muomala qiladi, nima uchun yig'layotganimni bilgandek menga qarab u ham xafa bo'ladi, menga achinadi. U qaydan bilarkin? Rostdan ham medalonni topib olib oynadan tashlab yuborgan bo'lsa-ya, deb o'ylayman. Axir, u shu ishni qilishga qodir-ku. Tashlashga tashlagan-u, endi o'zi xafa bo'lyapti – tashlaganiga achinyapti deyman. Men dera-zalar, deraza darchasining tagini ham Matryona bilan birga qidirdim. Hech narsa topolmadik. Nom-nishoni yo'q. Tun bo'yi yig'lab chiqdim. Birinchi marta men Natashaning suratini kechasi cho'qintirmadim. Oh, yaxshilik alomati emas. Bu Ivan Petrovich bir falokat boshlab keladi; ertasiga ham ko'z yoshim qurimadi. Ko'nglimni bo'shatar ekanmanmi, deb sizni intizor bo'lib kutdim, bo'taginam...

Kampir yum-yum yig'ladi.

– Voy, esim qursin, sizga aytish esimdan chiqib qolibdi!
– dedi u birdan esiga tushib qolganidan sevinib, – yetim qiz to'g'risida undan siz hech narsa eshitdingizmi?

– Eshitdim, Anna Andreevna, ikkalangiz bitta yetim qizni asrashga qaror qilib, o'zaro kelishgan emishsizlar. Shu to'g'rimi?

– Xayolimga ham kelgani yo'q! Boshimga uramanmi uni. U og'ir qismatimiz va baxtsizligimizni esimizga solib turadi. Natashadan boshqa hech kim kerakmas. Qizim bitta edi, bittaligicha qolaveradi. Bu o'zi nima gap-a, bo'tam, nega u yetim qiz

asramoqchi bo'lib qolibdi? Sen nima deb o'ylaysan, Ivan Petrovich? Hadeb ko'z yoshim kelavergani uchun ko'nglimni olmoqchimi yoki jigargo'shini butunlay esidan chiqarib, boshqa bolaga mehr qo'yish uchunmi? U kela turib mening haqimda sizga nima dedi? Sizga u qanday ko'rindi, xafami, tajangmi? Jim! Kelyapti! Keyin gapirib berarsiz, bo'tam, keyin!.. Ertaga kelish esingdan chiqmasin...

XIII BOB

Chol kirdi. U bir narsadan uyalayotgandek, maroq bilan bizni ko'zdan kechirdi, qovog'ini soldi. Keyin stol oldiga keldi.

– Samovarga nima bo'ldi, nima, shu vaqtgacha olib kelmadilarmi?

– Olib kelyapti, dadasi, olib kelyapti, mana olib keldi, – dedi Anna Andreevna pitillab.

Matryona ham xuddi Nikolay Sergeichning chiqishini kutib turgandek, uni ko'rishi bilan samovarni olib kirdi. Matryona keksayib qolgan, qadrdon va sodiq oqsoch edi. Biroq dunyodagi hamma oqsochlardan ham eng vaysaqisi, o'zboshimcha va qaysar edi. U Nikolay Sergeichdan qo'rqar, uning oldida churq etib og'iz ocholmasdi. Ammo Anna Andreevnadan hissasini chiqarar, undan hech ibo chiqmas, qo'rslik qilar, zotan Anna Andreevna bilan Natashani joni-dilidan astoydil sevgani bilan, baribir, har qadamda bekasidan o'zini yuqori tutishga urinar va buni yashirmasdi ham. Matryonani men Ixmenevka qishlog'ida ko'rgan edim.

– Hm... Ivib ketganing o'zi tabiatingni xira qiladi, buning ustiga senga choy qaynatib qo'yishni ham istamaydilar, – vaysardi chol g'o'dranib.

Anna Andreevna uni ko'rsatib menga imlab qo'ydi. Uning bunaqangi sirli imo-ishoralarga tob-toqati yo'q edi, garchi hozir bizga qaramaslikka harakat qilayotgan bo'lsa ham, hozir

Anna Andreevnaning menga imlab qo'yganini sezib turgani uning aftidan ko'rinib turardi.

– Ish bilan yurgandim, Vanya, – dedi u to'satdan. – Ishlar-ning pachavasi chiqib ketdi. Senga aytmagandimmi? Ayb mening ustimga tushib qolyapti. Dalillar yo'q emish, kerakli qog'ozlar yo'q emish, bundan chiqdi ma'lumotnomalar ham noto'g'ri ekan-da!.. Ham...

U o'zining knyaz bilan bo'layotgan janjali haqida gapirayotgan edi. Bu ish hamon sudralib kelmoqda, lekin Nikolay Sergeich uchun oqibati xunuk bo'lmoqda edi. Men nima javob berishimni bilmay indamay o'tirdim. U menga shubha bilan qarab qo'ydi.

– Ha, nima bo'libdi! – davom etdi xuddi bizning jim o'tirishimizga jahli chiqqandek, – qancha tez hal bo'lsa, shuncha yaxshi. Garchi to'lashga majbur qilib hukm chiqarsalar ham, meni muttahamga chiqarolmaydilar. Menda vijdon bor, mayli, hukm qilaversinlar. Har qalay, ish tugadi. Ishni bartaraf qilishadi, xarob qilishadi. Hammasini tashlayman-u, Sibirga ketaman.

– Ey Xudo, qaysi go'rga? Nega endi shuncha uzoq yerga ketish kerak, – dedi sabri chidamay Anna Andreevna.

– Bu yeringni nimasi yaqin? – so'radi chol jerkib go'yo e'tiroz bildirilgani uchun sevinib ketgandek.

– Bu yer ming qilsa ham, odamlarga yaqin... – g'o'ldirladi Anna Andreevna va menga g'amgin qarab qo'ydi.

– Qanaqa odamlarga?! – baqirdi u g'azab bilan ko'zlarini goh menga, goh unga chaqchaytirib, – qanaqa odamlarga? Talonchilarga, tuhmatchilargami, sotqinlargami? Bunaqalar hamma joyda serob, tashvish qilmay qo'ya qol, Sibirda ham topiladi. Men bilan borishni xohlamasang, qolaver; men zo'rlamayman.

– Hoy Nikolay Sergeich, sensiz men kim bilan qolardim! – chinqirib yubordi bechora Anna Andreevna. – Sendan boshqa bu yorug' dunyoda hech kimim yo'q, hech kim...

U birdan duduqlanib jim bo'lib qoldi, qo'rqib ketib menga qaradi, bu ko'zlarda: «Nima qilay, yordam ber!» – degan ma'no bor edi. Cholning fe'li juda aynigan, u har narsaga tirq'ilar, unga hozir so'z qaytarib bo'lmasdi.

– Qo‘ying-e, Anna Andreevna, – dedim men, – Sibir siz o‘ylagancha yomon joy emas. Agar ishning pachavasi chiqib, Ixmenevkani sotishga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, Nikolay Sergeichning niyati juda ham yaxshi. Sibirda yaxshigina joy topib o‘rnashish mumkin.

– Gapga tushunadigan odamning sadag‘asi ketay, mana sen tushunding, Vanya, o‘zim ham shunday deb o‘ylagandim. Hamma narsaning bahridan o‘taman-u, ketaman-qolaman.

– Ey, hali sendan kelgan gap shumi? – chiyilladi Anna Andreevna kaftlarini bir-biriga urib, – sen ham, Vanya, o‘sha tomondamisan? Ammo-lekin sendan buni kutmagandim, Ivan Petryuvich, kutmagandim... Qo‘limizdan kelgancha sizga mehribonlik qilgandik, siz esa...

– Ho-ho-ho! Yo‘qsa nimani kutganding? O‘ylab ko‘r o‘zing: bu yerda qolsak, nima bilan tirikchilik qilamiz! Pullar tamom, oxirgi chaqalar ketyapti! Yoki Petr Aleksandrovich oldiga borib, afv so‘rashni buyurmoqchimisan?

Knyazning nomini eshitib bechora kampir shunday qo‘rqib ketdiki, azbaroyi qattiq qaltiraganidan qo‘lidagi choy qoshig‘i tarelkaga urilib jiringlab ketdi.

– Rost-da, – dedi Ixmenev zaharxanda qilib, o‘z-o‘zidan qizishib, – rostdan ham afv so‘ragani bora qolamiz-a, Vanya! Sibirda balo bormi? Yaxshisi, ertaga yaxshilab kiyinaman, sochlarimni silliq qilib tarayman, Anna Andreevna yangi manishka¹ tayyorlasin, (shunday odamning oldiga boshqacha borib bo‘larmidi!) olifalik bekami-ko‘st bo‘lishi uchun yangi qo‘lqop sotib olay-da, janobi oliy huzuriga boray: taqsiri olam, pushti panohim! Gunohimdan o‘t, rahm-shafqat qil, bir burda non xayr qil, xotinim, yosh bolalarimni rahmini ye!.. – deya qolay. Shundaymi, Anna Andreevna? Shuni xohlaysanmi?

– Voy sho‘rim!.. Hech narsa kerakmas menga. Shunchaki ahmoqlik qilib og‘zimdan chiqib ketibdi, ranjitgan bo‘lsam kechir, lekin menga baqirma! – derdi sho‘rlik kampir qo‘rqqanidan tobora qattiqroq qaltirab.

Imonim komilki, bechora xotinning qo‘rqib, ko‘z yoshi

¹ Manishka – ko‘ylakning faqat frak ostidan kiyiladigan ko‘krak qismi.

qilayotganini ko'rib shu topda yurak-bag'ri qon bo'lyapti, o'zi xotinidan beshbattar ezilyapti, lekin o'zini tutolmay qoldi. Ba'zan nihoyatda mehribon, ammo ko'ngli bo'sh kishilar o'zlarining muruvvatli bo'lishlariga qaramay, boshga tushgan g'amkulfatdan qattiq iztirobga kelib, qanday bo'lsa ham buning zahri- ni birovga, hech gunohi bo'lmagan, aksariyat o'ziga eng yaqin kishiga sohib, uni bekordan bekorga xafa qilishadi. Masalan, ayollar ba'zan hech narsadan hech narsa yo'q, o'zlarini bebaxt va xo'rlangan odam deb hisoblashga ehtiyoj sezadilar. Shunga o'xshagan asablari mustahkam, xotinlar kabi zaif bo'lmagan ko'p erkaklar ham shu jihatdan ayollarga o'xshab ketishadi. Chol bechora janjalga bahona qidirar, lekin o'zining shu kabi ehtiyojidan o'zi qiynalar edi.

Esimda bor: o'shanda bir fikr mening xayolimdan o'tdi: darhaqiqat, u Anna Andreevna taxmin qilganicha biror ish qilib kelmaganmikin? Xudoning o'zi unga insof berib, Natashaning oldiga bormoqchi bo'lgan-u, yo'lda bu fikrdan aynigan yoki biror tasodif ro'y berib, u o'z niyatidan qaytgan yoki biror sabab niyatini amalga oshirishga xalal bergan. Shunday bo'lishi, ehtimol, mana endi u fig'oni chiqib, qiynalib uyiga qaytib keldi va haligina ko'nglidan o'tgan istak va tuyg'usidan o'zi uyalib, o'zining ko'ngli bo'shlik qilganining alimini, o'zicha, shu istak va tuyg'u vujudini qamrab olgan kishilardan olmoqchi. Ehtimol, u qizining gunohidan o'tganda bechora Anna Andreevnasining qanday quvonib ketishini ko'z oldiga keltirgandir va orzusi ro'yobga chiqmagach, albatta, buning alimini yana shu bechora Anna Andreevnadan olayotgandir.

Biroq xotinining g'amgin chehrasi, dahshatdan titrab turganini ko'rib uning rahmi keldi. U o'zining g'azabidan uyaldi, shekilli, bir daqiqa o'zini bosdi. Hammamiz jim turardik, men esa unga qaramaslikka urindim. Biroq bu hol uzoqqa bormadi. Qanday bo'lmasin, jerikib, la'nat o'qib, ko'nglini bo'shatib olishi shart edi.

— Ko'ryapsanmi, Vanya, — dedi u birdan, — afsuski, gapirmoqchi emasdim, biroq shunday bir payt keldiki, rostgo'y odamlardek ochiqchasiga ilmoqsiz gaplashib olish kerak... Tu-

shunasan-a, Vanya? kelganing uchun xursandman, shuning uchun sening oldingda, boshqalar ham eshitsin, deb baralla gapirmoqchiman; nihoyat, mana bu mashmashalar, mana bu ko'z yoshlar, oh-faryodlar, nolishlar hammasi-hammasi jonimga tegdi. Qalbindan yulib tashlangan narsa, har qancha alam va iztirob bilan olib tashlangan bo'lsa hamki, hech qachon qaytib o'rniga tushmaydi. Shunday! Aytganim aytgan. Men yarim yil ilgari bo'lgan hodisa haqida gapirayotibman, tushunyapsanmi, Vanya? Gapirganda ham sen mening gaplarimda hech qanaqa xato topmasliging uchun ochig'ini, to'ppa-to'g'risini aytyapman, – qo'shib qo'ydi u, qizarib ketgan ko'zlari bilan menga qarab, aftidan, xotining qo'rquvdan ola-kula bo'lib ketgan ko'zlariga qarashdan qochib, – takror aytaman, bular behuda gap. Men istamayman!.. Meni ahmoq, tuban odam, shunday past, shunday zaif tuyg'uga ega bo'lishga qobiliyatli deb hisoblashlari mening jonimni halqumimga keltiryapti, g'amdan miyasi aljib qolyapti, deb o'ylaydilar... Bo'lmagan gap! Men hammasini boshimdan soqit qildim, men eski tuyg'ularni unutib yubordim! Men uchun xotira degan narsa yo'q. Ha! Gap shu!..

U o'rnidan irg'ib turib stolni shunday mushtladiki, piyolalar jaranglab ketdi.

– Nikolay Sergeich! Nahotki, Anna Andreevnaga achinmasangiz! Qarang, u bechorani nima ahvolga solyapsiz, – dedim men o'zimni tutolmay va unga jahl bilan tikilib. Biroq men o'tga moy sepganday bo'ldim.

– Achinmayman! – baqirdi u titrab va rangi o'chib, – achinmayman, chunki menga ham achinmaydilar! Achinmayman, chunki o'z uyimda men falokatzadaga qarshi har qanaqa jazoga sazovor bo'lgan la'nati buzuq qiz tufayli fitna uyushtirmoqdalar.

– Dadasi, Nikolay Sergeich, qarg'ama! Nima qilsang, qil; lekin qizimni «oq» qilma! – qichqirdi Anna Andreevna.

– «Oq» qilaman! – baqirdi chol avvalgidan battarroq qichqirib, – chunki xo'rlangan va haqoratlangan men bo'lsam-u, yana o'sha la'natiga borib, undan uzr so'rashimni talab etadilar! Ha, shunday, gap shunday! Bu bilan meni kecha-kunduz, mening

o'z uyimda ko'z yoshlari, oh-u voh va ahmoqona imo-ishoralar bilan qiynaydilar! Mening ko'nglimni yumshatmoqchi bo'ladi-lar... Mana bunga qara, Vanya, – qo'shib qo'ydi u, shoshib-pishib titroq qo'llari bilan yon cho'ntagidan qog'ozlarni chiqarar ekan, – mana bu hujjatdan ko'chirilgan nusxa. Bu hujjatga qaraganda men endi o'g'ri, firibgar bo'lib chiqibman, o'z valiyne'matimni talabman!.. O'sha qiz uchun men badnom, sharmandayi sharmi-sor bo'ldim! Mana, mana, o'zing qara, Vanya!..

U kamzulinig yon cho'ntagidan ketma-ket xilma-xil qog'ozlarni olib stol ustiga tashlay boshladi. U toqatsizlik bilan ular ichidan menga ko'rsatmoqchi bo'lgan qog'ozni qidirar, lekin aksiga olib kerakli qog'oz topilmasdi. U cho'ntagidagi qo'lga ilingan hamma narsani olib betoqatlik bilan uloqtiraverdi va bexosdan bir narsa stolga jaranglab tushdi.

Anna Andreevna chinqirib yubordi. Bu yo'qolgan medalon edi...

Men ko'zlarimga ishonmay qoldim. Cholning yuziga qon yugurib qip-qizarib ketdi, cho'chib tushdi. Anna Andreevna qo'l qovushtirganicha yalinganday unga mo'ltillab tikilib turardi. Uning chehrasi sevinch va umid bilan porlardi. Bizning oldimiz-da cholning xijolati, qizarib ketgan yuzi... Anna Andreevna xato qilmagan, medalonning qanday yo'qolganini endi tushungan edi.

Anna Andreevna u medalonni topib olganini bildi, ehtimol, u quvonchidan yuraklari o'ynab, hovriqqanicha begona ko'zlardan medalonni bekitgan, hech kim yo'q yerda o'zi yolg'iz bolajonining diydoriga to'yish uchun unga cheksiz muhabbat bilan termilgan, ehtimol, u ham bechora ona kabi, bekinib olib o'zining bebaho Natashasi bilan g'oyibona gaplashgan, o'ziga savollar berib ularga o'zi javob qilgan kechalari esa alam-iztirob bilan ko'ksidan otilib chiqqan faryodlarini bosib uni erkalatgan, jonajon qizining suratini o'pgan, odamlar ko'zida ko'rishni ham istamay «oq» qilgan qizini qarg'ish o'rniga undan afv so'rab, unga umr tilagandir.

– Jonginam, xayriyat, uni haliyam joningdek ko'rarkan-san-da, – qichqirdi Anna Andreevna, bundan bir daqiqa muqad-

dam uning Natashasini qarg'agan bag'ritosh ota oldida o'zini tutolmay.

Kampirning nidosi uning qahrini oshirdi, birdan uning ko'zlarida g'azab o'ti chaqnadi. U medalonni qo'lga olib kuchi-ning boricha yerga otib urdi va jon-jahdi bilan tepkilay boshladi.

– Umrbod «oq» qildim! – deb xirilladi u nafasi tiqilib. – Umrbod «oq» qildim! Umrbod!

– Yo rabbiy! – baqirdi kampir, – uni-ya, uni-ya! Mening Natashamni-ya! Uning yuzlarini oyog'i bilan tepkilaydi-ya! Oyoqlari bilan-a!... Zolim! Qahri qattiq, bag'ritosh, kalon-dimog'!

Aqldan ozgan chol xotinining dod-faryodini eshitib qil-gan ishidan dahshatga keldi va o'zini bosdi. Birdan u poldan me-dalonni ko'tardi-yu, tashqariga yugurdi, lekin ikki qadam tash-lamasdan yiqilib, cho'kkalab qoldi, oldidagi divanga qo'llarini tirab madori ketgan holda boshini quyi soldi.

U yosh boladek, ayollardek ho'ngrab-ho'ngrab yig'ladi, ich-ichidan kelayotgan faryod uning ko'ksini yorib yuborgudek edi. Basavlat chol bir zumda yosh go'dakdek bo'lib qoldi. Endi u la'nat ham yog'dirmas, hech qaysimizdan uyalmay bundan bir daqiqa ilgari oyoqlari ostiga olib tepkilayotgan suratni jon-jahdi bilan to'xtatmay o'pard. Uning qiziga bo'lgan butun muhabbati, qalbida shunchalar uzoq saqlangan muhabbati, go'yo endi hech to'xtatib bo'lmaydigan suv toshqinidek otilib chiqmoqda va uning borlig'ini parchalamoqda edi.

– Kechir, kechir uni! – deb yolvorardi yig'lab Anna Andreevna, engashib erini quchoqlaganicha. – Qaytar uni ota-ona bag'riga, mahshar kuni parvardigorning o'zi ham insof va muruvvating uchun seni yarlaqaydi!..

– Yo'q, yo'q! Hech qachon! – baqirdi u xirillab, nafasi tiqilib. – Hech qachon! Hech qachon!

XIV BOB

Men Natashanikiga ancha kech, soat o'nlarda keldim. U vaqtda Natasha, Semyonovsk ko'prigiga yaqin «Fontanka» ko'chasida, savdogar Kolotushkinning «dang'illama» iflos hovlisida, to'rtinchi qavatda turar edi. Natasha uydan ketgan dastlabki kunlari ular Alyosha bilan «Liteynaya» ko'chasida uchinchi qavatda, kichikroq bo'lsa ham, juda chiroyli va har jihatdan qulay bo'lgan shinamgina bir kvartirada turardilar. Biroq ko'p o'tmay yosh knyazning hamyoni bo'shab qoldi. Musiqa muallimi ham bo'lolmadi, ammo qarzga pul olaverdi, boshdan oyoq qarzga botdi. Pulni u uyni jihozlash, Natashaga sovg'alar olish uchun sarf etar edi, lekin Natasha uning behuda pul sarflashiga tish-tirnog'i bilan qarshi turar, uni urishar va hatto ba'zan yig'lab olar edi. Ba'zan haftalab sovg'a uchun nima olishini, Natashaning qanchalik xursand bo'lishini ko'z oldiga keltirib, bunday kunni o'zi uchun katta bayram hisoblaydigan hassos va ziyrak Alyosha o'zining orzu-umidlarini menga zavq bilan gapirib berardi. Natashaning ko'z yoshi va koyishlaridan shu qadar ta'bi buzilardiki, kishining unga yuragi achib ketar edi. Natijada shu sovg'alar tufayli oralarida achchiq-tiziq ta'nalar, urishlar chiqar edi. Undan tashqari, Alyoshaning Natashadan yashirib qilayotgan sarflari ham bo'lar edi. Chunonchi, u o'rtoqlariga taassub qilib Natashasiga xiyonat qilar, har xil Jozefinya va Minalarnikiga borib yurar edi, ammo shunga qaramay, Natashani qattiq sevar, jon-jahdi bilan sevar edi. U ko'pincha xafa bo'lib, parishon holda menikiga kelar, Natashaning tirnog'iga ham arzimastligi, o'zining qo'pol va zahar ekanligini, uning muhabbatiga sazovor emasligini, uning qadriga yetmasligini gapirib hasrat qilardi. Bir jihatdan uning gapi to'g'ri: ularning orasida farq katta edi. U Natasha oldida o'zini yosh boladek sezar, Natasha ham uni har doim yosh bola hisoblar edi. Jozefinya bilan tanishib qolganidan ming pushaymon yeb yig'lab gapirardi-da, tag'in o'zi bu gaplarni Natashaga aytmasligimni so'rab yolvorardi. Menga yuragidagi sirlarini ochib solganidan keyin, qo'rqa-pisa, men bilan Natashanikiga jo'nardi (albatta, men bilan borishi shart edi, negaki mana

bu xiyonatlardan keyin uning ko'ziga qarashdan qo'rqishini, yolg'iz mengina unga madad bera olishimni ta'kidlardi), biroq Natasha unga ko'zi tushishi bilan nima gapligini darrov sezib qolardi. Natasha o'lgudek rashkchi edi, lekin qanday qilib Alyoshaning beboshligini hamma vaqt kechira olishiga aslo aqlim yetmasdi. Odatda, bunday bo'lar edi: Alyosha uyga men bilan birga kirib, qo'rqa-pisa u bilan gaplashadi, tortinibgina muloyimlik bilan uning ko'zlariga tikiladi. Natasha uning aybli ekanini shu zahotiyoq sezib oladi, lekin hech qachon sir boy bermaydi, bu haqda gap ochmaydi, o'smoqchilab ham so'ramaydi, aksincha, shu zahoti xushmuomala, muloyim, xushchaqchaq bo'lib oladi, lekin bular hammasi allaqanday bir o'yin yoki ataylab qilingan quvlik emas. Yo'q, mana bu oliyjanob ayol uchun kechirish va afv etishning o'zi unga bitmas-tuganmas zavq baxsh etar, Alyoshani afv etishning o'zida u allaqanday bir nazokat va latofat bor deb bilar edi. Shuni aytish kerakki, o'shanda gap faqat Jozefinyalar ustida borar edi. Uning yuvosh va beozorligini ko'rib Alyosha ortiq chidab turolmas va hech kim so'ramasa hamki, o'z ta'biricha yurakni bo'shatib «qadimgidek bo'lish» uchun tavba-tazarru qila boshlardi. Afv etilgandan keyin u quvonchga to'lar, ba'zan shodlikdan ko'ngli buzilib yig'lab yuborar, uni quchoqlab o'pa boshlar edi. Shundan keyin juda ham ochilib ketib, yosh bolalardek ochiq ko'ngillik bilan Jozefinya bilan bo'lgan ishlarni ipidan ignasigacha gapirib berar, kular, qotib-qotib kular, Natashani ko'klarga ko'tarib maqtar edi. Oqshomni xursandchilik va xushchaqchaqlik bilan o'tkazar edilar. Uning puli sob bo'lganda buyumlarini sota boshladi. Natashaning qistovi bilan Fontankadan kichkinagina, arzon kvartira topdilar. Buyumlarini hamon sotishardi, Natasha hatto ust ko'ylaklarini pullab, o'ziga ish qidira boshladi; Alyosha bundan xabar topib, jig'ibiyroni chiqdi. U o'ziga o'zi la'nat o'qir, o'z-o'zimdand nafratlanaman deb qichqirar, ammo ishni tuzatish uchun harakat qilmasdi. Hozirgi paytda eng so'nggi mablag' ham tugagan edi; oxirgi umidlari ish edi, ammo ishga juda ham oz haq to'lanardi.

Boshdayoq hali ular birga turishgan paytlarida Alyosha shu tufayli otasi bilan qattiq urishib qoldi, Knyazning u vaqtda

Alyoshani grafinyaning o'gay qiziga – Katerina Fedorovna Fili-monovaga uylantirish haqidagi niyati hali faqat rejagina edi, xolos. Bu rejani amalga oshirish uchun u jon-jahdi bilan urinardi; u Alyoshani bo'lajak qayliqnika sudragani sudragan, qizga yoqishga harakat qil, deb qistar, po'pisa ham qilar, dalillar keltirib uni gapga ko'ndirmoqchi bo'lardi, lekin grafinya tufayli ish chatqilashdi. Shundan keyin knyaz ham Alyoshaning Natasha bilan bo'lgan aloqasiga befarq qaray boshladi, arqonni uzun tashlab qo'ydi, Alyoshaning yengil tabiat, havoyiligini bilgani uchun buning muhabbati ham uzoqqa cho'zilmas deb o'yladi, uning Natashaga uylanishi mumkinligi esa oxirgi vaqtgacha knyazning xayoliga ham kelmadi. Oshiq-ma'shuqlar esa otalari bilan rasmiy ravishda yarashib olguncha, umuman sharoitning o'zgarishigacha ishni orqaga surib keldilar. Biroq, chamamda, Natasha bu haqda churq etib og'iz ochishni istamas. Alyosha, otasining shu bo'lgan ishlardan uncha-muncha xursand ham ekani, bu voqealar tufayli Ixmenevning tahqirlanishi uning ko'nglidagi muddao ekanini menga yashirincha gapirib qo'ydi. Xo'ja ko'rsinga u o'g'liga o'z noroziligini izhor etaverdi, chunonchi, o'g'liga berib turadigan ozgina mablag'ni kamaytirdi. (O'g'liga nisbatan juda hasis edi.) Shu mablag'dan ham mahrum etaman deb qo'rqitardi, biroq ko'p o'tmay Polshaga grafinya orqasidan jo'nab ketdi. Grafinyaning u yerda ishlari bor edi, knyaz esa hamon yoshlarni unashtirib qo'yish dardida yurar edi. Alyosha uylanish uchun hali ancha yosh bo'lsa ham, lekin qayliq juda badavlat edi. Bunday qayliqni qo'ldan chiqarib bo'lmasdi. Nihoyat, knyaz murod-maqsadiga yetdi. Unashtirish masalasi ijobiy hal bo'libdi, degan xabarlar bizga ham yetib keldi. Mana shu voqealar tasvir etilayotgan vaqtda knyaz Peterburgga qaytib kelgan edi. U o'g'lini xushmuomala bilan qarshi oldi. Lekin Natashaga haligacha vafodor bo'lib kelayotgani unga yoqmadi. U shubhalana va qo'rqa boshladi. Natashadan ajralishni jiddiy va qat'iy suratda o'g'lidan talab qildi, lekin tez orada yaxshi bir yo'l topdi: Alyoshani grafinyanikiga olib bordi. Grafinyaning o'gay qizi hali juda yosh, kamdan kam uchraydigan pok qalbga ega bo'lgan xushchaqchaq, aqli, muloyim, go'zal qiz edi. Knyazning mo'ljalicha, shu yarim

yil o'z samarasini ko'rsatishi kerak edi. Natasha endi uning o'g'li uchun o'zining dastlabki jozibadorligini yo'qotgan, endi u o'zining bo'lajak qaylig'iga bundan yarim yil ilgarigi ko'z bilan qaramasligi aniq edi. Qisman u o'ylaganidek bo'ldi. Alyosha rostdan ham grafinyaning qiziga aylanishib qoldi. Shuni aytib o'tish kerakki, otasi o'g'liga nisbatan birdan shirin so'z bo'lib qoldi (biroq hali ham pul bermasdi), Alyosha, bu shirin muomalalar asosida shak-shubhasiz qat'iy bir qaror yashiringanini sezdi. Undan battar yuragi siqildi, lekin bu yurak Katerina Fedorovnani ko'rib turmasa, battar siqilardi. Mana, besh kundan beri u Natashaqa qorasini ko'rsatmasdi. Men Ixmenevlarnikidan chiqib Natashaning oldiga ketar ekanman, turli-tuman fikrlar xayolimni chulg'ab oldi. «Menga nima derkin?» – deb o'yladim tashvish bilan. Uzoqdan turiboq uning derazasidagi chiroqqa ko'zim tushdi. Allaqachon, agar Natashaning menda zarur ishi bo'lsa, shamni deraza oldiga qo'yishi kerak, deb kelishib qo'ygan edik. Men o'tib keta turib (menga har oqshom uning derazasi tagidan o'tishga to'g'ri kelardi), derazada sham ko'rsam, demak, meni ko'rish juda ham zarurligi ma'lum bo'lardi, bundan meni kutayotganini, men unga kerak ekanimni bilardim. Keyingi vaqtlarda u juda tez-tez shamni deraza oldiga qo'yadigan bo'lib qolgan edi...

XV BOB

Kelganimda Natasha yolg'iz edi. U qo'llarini ko'ksiga qo'yganicha chuqur xayolga botib, uyning u boshidan bu boshiga asta-asta yurib turardi. Stol ustida o'ti o'chib qolgan samovar allaqachondan beri meni kutayotgan edi. U indamay jilmayganicha menga qo'lini cho'zdi. Yuzi oqargan, unda alam va iztirob ifodasi bor edi. Tabassumi mungli, nozik va sabr-qanoatli edi. Uning moviy, porloq ko'zlari go'yo ilgarigidan kattaroq, sochlari yana ham qalinga o'xshab ko'rinardi, buning sababi uning ozib ketganligi va betobligi bo'lsa kerak.

– Endi kelmaysan, shekilli, deb o'ylagan edim, – dedi u qo'lini bera turib, – yana tobing qochib qoldimikin, deb Mavrani

yubormoqchi ham bo'lib turgan edim.

– Yo'q, sog'man. Men ushlanib qolgan edim. Hozir aytib beraman. Xo'sh, o'zing qalaysan, Natasha! Nima bo'ldi senga?

– Hech narsa bo'lgani yo'q, – javob berdi u taajjublanganday. – Nima bo'libdi?

– O'zing yozibsan-ku... Kecha kelishimni so'rab yozibsan, tag'in odatingga xilof qilib kelish vaqtimni ham tayinlabsan.

– Ha, aytgandek!.. Men kecha uni kutgandim.

– Nima, u hali ham kelgani yo'qmi?

– Yo'q. Mabodo kelmay qolsa, sen bilan gaplashib olishga to'g'ri kelar deb o'ylagandim, – dedi u biroz jim turgandan keyin.

– Bugun-chi? Bugun kechqurun uni kutdingmi?

– Yo'q. Kutganim yo'q: bu oqshom u unikida.

– Endi u hech qachon kelmaydi deb o'ylayapsanmi, Natasha?

– Kelishga keladi, – javob berdi u g'alati bir jiddiylik bilan menga tikilib.

Mening savol ustiga savol berishim unga yoqmasdi. Biz hamon u yoqdan bu yoqqa yurar, indamasdik.

– Seni kutaverib ko'zlarim to'rt bo'ldi, Vanya, – boshladi u yana jilmayib, – bilasanmi nima qildim? Shu yerda u yoqdan bu yoqqa yurib yodaki she'rlar o'qidim. Esingda bormi:

*«Qo'ng'iroqcha, qishki yo'llar:
Qayin stolimda qaynar samovar...»,*

biz tag'in birga o'qirdik:

*Qor bo'roni tindi va yorishdi yo'l.
Tun boqar millionlab xira ko'z bilan...*

Undan keyin:

*Nogoh eshitilar jarangli qo'shiq,
Qo'ng'iroq sasiga bo'lib ohangdosh.*

*«Bir kun kelar yor, ketar ayriliq
Qo'yar tin olgali ko'ksim uzra bosh.
Na soz bu hayotim! Endi tongotar,
Darchamga sochganda mayin shu'lasin,
Qayin stolimda qaynar samovar,
Pechkada alanga lovullab yonar,
Nurida yotog'im tovlanar rangin...»*

– Naqadar ajoyib! Alam va hasrat to'la she'rlar, Vanya, naqadar xayoliy, zavqbxash manzara, faqat chizilgan, nima xohlasang, shuni tikaverasan. Ikki xil tuyg'u: avvalgi va oxirgi his tarannum etilgan. Samovar, chit parda, barchasi shu qadar qadr-don... Bizning uezd shaharchamizdagi meshchan¹ xonadonlaridagidek, men ana shu uyni xuddi ko'rib turgandekman; yap-yangi, yog'och uy va hali ustiga taxta qoplanmagan... Mana, boshqa bir manzara:

*«Yana eshitilar jarangli bir un,
Qo'ng'iroq sasiga yangrar ohangdosh.
Qayda ekan yorim, u kelib bir kun,
Erkalanib qo'yar siynam uzra bosh.*

*Shu, axir, hayotmi? – Qorong'i kulbam,
Tor g'amli bir xona, zax qiynar yomon,
Darcham orqasida o'sar bir olcha,
Muzlagan darchamdan ko'rinmas u ham,*

*Balki, qurib qolgan u allaqachon.
Kamalak rangiga men bo'lib asir,
Betob kezaman-u, hech qayga bormam.
Meni kim tergaydi! – Yorim yo'q, axir,
Faqat kampir vaysar...»*

– «Betob kezaman...» so'zi shu yerga qanchalik o'rinli

¹ Meshchan -- chor Rossiyasida: shahar mayda burjuaziyasiga mansub mayda savdogar, hunarmand.

tushgan! «Meni kim tergaydi», – bu baytda qancha nazokat, qancha noz-istig‘no bor, xotirotlar va qancha iztirob bor, o‘zing sababchi bo‘lgan azoblardan yana o‘zing zavqlanasan... Ey tangrim, naqadar soz! Axir, bular barchasi shu qadar hayotiy!

Natasha go‘yo tomog‘ini bo‘g‘ib kelayotgan narsani to‘xtatish uchun jim bo‘lib qoldi.

– Azizim, Vanya! – dedi u bir lahzadan so‘ng va yana birdan aytmqchi bo‘lgan so‘zini unutib qo‘ygandek, yoki be-xosdan o‘zini qamrab olgan hislarga berilib, o‘ylamasdan og‘zidan chiqib ketgandek yana jimib qoldi.

Biz hamon uyning u boshidan bu boshiga yurishda davom etardik. Ikona oldida sham chiroq yonib turardi. Natasha keyingi vaqtlarda kundan kun xudojo‘y bo‘lib bormoqda edi. Bu haqda og‘iz ochgudek bo‘lsang, yoqtirmasdi.

– Nima, ertaga bayrammi? – so‘radim men, – shamchiroq yoqib qo‘yibsan.

– Yo‘q, bayram emas... Hay, o‘tirsang-chi Vanya, char-chagandirsan. Choy ichasanmi? Hali choy ham ichmagandirsan?

– Mayli, o‘tiraylik, Natasha. Choy ichganman.

– Hozir qayerdan kelding?

– Ularnikidan. – Biz uning tug‘ilgan uyini hamisha shunday deb atardik.

– Ularnikidan? Qanday ulgurding? O‘zing kirdingmi? Yoki chaqirdilarmi?

U menga usti-ustiga savol berardi. Hayajondan uning yuzi battar oqarardi. Men unga chol bilan uchrashib qolganimni, onasi bilan gaplashganimni, medalon voqeasini to‘kmay-sochmay, batafsil gapirib berdim. Men undan hech qachon hech narsani yashirmasdim. U jon qulog‘i bilan tinglar, bitta gapni ham tushirib qoldirmaslikka tirishardi. Ko‘zlarida yosh miltilladi. Medalon voqeasi uni qattiq hayajonlantirdi.

– Shoshma, shoshma, Vanya, – derdi u so‘zimni tez-tez bo‘lib, – batafsil gapir, hammasini, hammasini bitta qo‘ymay gapir, to‘la gapirmayapsan, Vanya!..

Men hikoyamni ikki-uch martaba takrorlar, uning behisob savollariga javob berar edim.

– Sen rostdan ham dadam mening oldinga kelayotgan edi, deb o‘ylaysanmi?

– Bilmayman, Natasha, nima deb o‘ylashga ham hayronman. U sening haqingda qayg‘uradi, seni sog‘inadi, bu turgan gap, lekin oldinga kelayotganmidi, bunisini... bunisini...

– Medalonni o‘pdi deysanmi? – so‘zimni bo‘ldi, – o‘pganda nima dedi?

– Og‘ziga kelganni aytaverdi, seni eng shirin so‘zlar bilan erkaladi, seni chaqirdi...

– Chaqirdi?

– Ha.

Natasha tovushsiz yig‘lay boshladi.

– Bechoralar! – dedi u. – Hamma gapdan xabardor bo‘lsa, ajab emas, – qo‘shib qo‘ydi bir lahza sukutdan so‘ng. – U Alyoshaning otasi haqida ham ko‘p narsa biladi.

– Natasha, – dedim men tortinibgina, – yur ketamiz ularnikiga...

– Qachon? – so‘radi u rangi o‘chib va kreslodan sal ko‘tarilib. U: «Hozir yur», – deydi deb o‘ylagan edi. – Yo‘q, Vanya, – dedi u ikki qo‘lini yelkamga qo‘yganicha g‘amg‘in jilmayib, – yo‘q, azizim, bu gapni sen menga hamma vaqt gapirib kelding, ammo... yaxshisi, bu haqda og‘iz ochma.

– Nahotki bu janjalning poyoni bo‘lmasa! – deb yubordim men hasrat bilan. – Nahotki sen shu qadar kalondimog‘sanki, birinchi qadamni tashlashga or qilasan? Sen borishing kerak. Sen birinchi qadamni qo‘yishing kerak. Ehtimol, otang seni kechirish uchun faqat shuni kutib turgandir... U, axir, ota, sen tomondan xo‘rlangan ota! Uning izzati-nafsiga tegma, achchig‘lanishi qonuniy va tabiiy! Sen shunday qilishing kerak. Harakat qilib ko‘r, u seni hech shartsiz kechiradi.

– Shartsiz! Buning asti iloji yo‘q, meni bekorga ta’na qilma, Vanya. Bu haqda tun-u kun o‘ylayman. Men ularni tashlab ketganimdan beri bir kun yo‘qki, bu haqda bosh qotirmasam, o‘zing bilan ham bir necha bor shu to‘g‘rida gaplashdik-ku! O‘zing ham bilasanki, buning aslo iloji yo‘q!

– Urinib ko‘r!

– Yo‘q, do‘stim, iloji yo‘q. Basharti harakat qilsam, ko‘zi-ga battar yomon ko‘rinaman. Bo‘lar ish bo‘ldi, g‘isht qolipdan ko‘chdi. Bilasanmi, nimani qaytarib bo‘lmaydi? Ular bilan birgalikda o‘tkazgan baxtiyor bolalik chog‘larni qaytarib bo‘lmaydi. Otam kechirgan taqdirda ham, endi u meni taniy olmaydi. U qizchasini, norasida bolasini sevardi. U mening bolalarga xos soddaligimdan zavqlanardi. U meni erkalardi, xuddi yetti yashar mahalimda uning tizzasida o‘tirib olib qo‘shiq aytgan vaqtlaridagidek sochlarimni silardi. Tug‘ilgan kunimdan boshlab to shu oxirgi kungacha u har oqshom kanda qilmay karovatim oldiga kelar, xayrli tun tilab meni cho‘qintirardi. Mana shu falokat boshlanmasdan bir oy ilgari u menga bildirmay isirg‘a sotib olib keldi (men esa buni bilardim). Sovg‘a uchun mening qanchalik quvonishimni tasavvur qilib, u bolalarcha shodlanardi, lekin isirg‘a olingani anchadan beri oshkor bo‘lib qolganini mening o‘zimdani eshitib, hammadan, ayniqsa, mendan qattiq ranjidi. Ketishimdan uch kun ilgari u mening xafaligimni sezib qoldi. Sezdi-yu, o‘zi ham qattiq qayg‘urdi, bilasanmi o‘shanda u nima qildi? Xafaligimni yozish uchun u teatrga chipta olmoqchi bo‘ldi!.. Xudo haqqi, shu bilan u mening dardimga davo topmoqchi bo‘ldi! Takror aytaman senga, u meni qiz bola deb bilardi va sevardi, bir kunmas bir kun men ham xotin bo‘lishim kerakligini u tasavvur ham qilolmasdi, istamasdi ham. Bu uning xayoliga ham kelgan emas. Endi men basharti uyga qaytgudek bo‘lsam, u meni taniy olmaydi ham. Kechirgan taqdirda ham endi u kimga duch keladi? Men endi u bilgan Natasha emasman, endi men norasida bolajoni emasman. Ko‘p narsani boshimdan kechirdim. Basharti ko‘nglini olsam ham, u o‘tib ketgan baxtni eslab xo‘rsinadi, u sevib erkalagan bolalik chog‘larimga aslo o‘xshamaganimni ko‘rib kuyadi, o‘tmish esa hamisha shirin tuyuladi! Ko‘p narsalar alam bilan xotiraga olinadi. O, o‘tgan kunlar naqadar yaxshi edi, Vanya! – qichqirdi u o‘zidan o‘zi qizishib ketib va qalbidan otilib chiqqan shu alamli nido bilan o‘z so‘zini bo‘lib.

– Hamma aytayotgan gaplaring to‘g‘ri, Natasha, – derdim men. – Demak, u seni endi yangidan tanib, yangidan sevishi

kerak. Eng muhimi – shu. Ha, nima bo‘libdi? U seni qaytadan seva oladi. Nahotki, u seni qaytadan tanib, tushunishdan ojiz bo‘lsa? U-ya? shunday qalb egasi-ya!

– Eh, Vanya, shunchalik noinsof bo‘lma, kim bo‘libmanki, meni shuncha tushunish qiyin bo‘lsa? Men uni aytmoqchimasdim. Billsang, Vanya, ota muhabbati ham rashkli bo‘ladi. Bu ishlar hammasi usiz boshlanib, Alyosha bilan topishganimizdan u bexabar qolgan. U bilgan ham emas, sezgan ham emas va sevgimizning mash‘um oqibati, mening uydan qochishimni, hammasini mening pismiqligimdan deb biladi. Men boshda uning oldiga bormadim, keyin uni sevgimning dastlabki davrlarida qalbimning har bir talpinishidan boxabar qilmadim, aksincha, hammasini ichimga soldim, undan bekitdim. Shuning uchun ham Vanya, u ichdan qattiq ranjidi, sevgimning bebaxt oqibatidan, ularni tark etib o‘ynashni deb ketganimdan ham haqoratliroq tuyuldi. Faraz qilaylikki, u meni hozir ham, ota sifatida mehr-muhabbat bilan qarshi oladi, biroq adovat urug‘i qoladi-ku. Oradan ikki-uch kun o‘tgach, diqqatbozlik, zarda, ta’nalar boshlanadi. Shu bilan birga u meni indamay-netmay kechirib qo‘ya qolmaydi. Mayli, men unga to‘g‘risini, chin qalbimdan uni tahqir qilganim, uning oldida og‘ir gunohkor ekanimni tushunishimni aytay. Basharti u Alyoshaga erishish baxtim qanday qimmatga tushganini, ne-ne azoblar chekkanimni tushunishni xohlamasligi menga qanchalik azob bermasin, o‘zimni bosib hammasiga chidayman, biroq bu ham unga kamlik qiladi. U mendan juda katta qurbon talab etadi: qilmishlarimga la‘nat o‘qib, Alyoshani qarg‘ab, unga bo‘lgan sevgimdan pushaymon yeyishimni talab qiladi. U asti mumkin bo‘lmagan narsani – o‘tmishni qaytarib, umrimizning keyingi yarim yilini o‘chirib tashlashimni xohlab qoladi. Biroq men hech kimni qarg‘ay olmayman, qilmishimdan pushaymon ham yemayman... Bo‘lar ish bo‘ldi, peshonada borini ko‘rdim... yo‘q, Vanya, endi iloji yo‘q. Hali vaqti emas.

– Qachon keladi o‘sha vaqt?

– Bilmayman... Istiqboldagi baxtimiz uchun qaytadan azob tortish kerak. Qandaydir yangi alamlar evaziga keladi endi u baxt. Alam-iztirob hammasini yuvib yuboradi... Eh, Vanya,

Vanya, hayot kishiga naqadar ozor beradi.

Men indamasdan xayol surib unga tikildim.

– Nega muncha menga tikilasan, Alyosha... Voy, o‘lay, Vanya? – dedi u adashib, adashgani uchun o‘zi kulib.

– Men endi tabassumingga qarayapman, Natasha. Bu tabassumni qayerdan olding? Avvallari bunaqa tabassum qilmas eding-ku?

– Tabassum qilsam, nima bo‘libdi?

– Tabassumingda bolalarcha ma’sumlik bor... Biroq tabassum qilgan chog‘ingda yuraging qattiq sanchiganga o‘xshaydi. Mana, ozib qolibsan, Natasha, sochlaring esa qalinlashibdi... Bu qaysi ko‘ylaging? Uydaligingda tiktirganmiding?

– Qanchalik sevasan meni, Vanya? – dedi u menga mehribonlik bilan qarab. – Xo‘sh, o‘zing-chi? Endi o‘zing nima qilyapsan? Ishlaring qalay?

– O‘zgarish yo‘q, hali ham roman ustida ishlayapman, qiyin, ishim o‘ngidan kelmayapti. Ilhom yetmaydi. Nari-beri yozib tashlay qolsam ham bo‘lardi, balki, qiziqarliroq chiqarmidi, ammo yaxshi g‘oyani buzishga ko‘zim qiymaydi. Bu eng yaxshi g‘oyalardan biri. Jurnalga o‘z muddatida topshirishim zarur. Men hatto romanni yig‘ishtirib qo‘yib, osonroq, kishini xafa qilmaydigan latif bir qissa o‘ylab topsammikin deb yuribman. O‘qib hamma quvonsin, shodlansin!...

– Bechora zahmatkash yigit, Smit qalay?

– O‘ldi Smit.

– Oldingga kelmadimi? Vanya, rost aytyapman, sen betobsan, asablaring qaqshab qolgan. Xayol suraverishing oqibati bu. Ijaraga kvartira olganingni gapirib berganingda men buni sezgandim. Nima, topgan uying zaxmi? Yomonga o‘xshaydi-a?

– Ha, yana bugun kechqurun bir voqea yuz berdi... Ha, mayli, keyin gapirib beraman.

U esa endi mening gapimni eshitmay, chuqur xayolga cho‘mib o‘tirardi.

– Ajabo, qanday qilib o‘shanda ularnikidan ketib qolganimga o‘zim ham hayronman. Butun vujudim yonardi o‘shanda, dedi u, nihoyat, mendan javob talab qilmaydigan bir boqish

bilan.

Shu daqiqa men unga bir gap aytsam ham, qulog'iga kirmasdi.

– Vanya, – dedi u eshitilar eshitilmas, – men seni bir ish bilan chaqirgan edim.

– Xo'sh?

– Men undan ajralyapman.

– Ajraldingmi yoki ajralishmoqchimisani?

– Bunday turmushga barham berish kerak. Yuragimda yig'ilib qolgan, shu chog'gacha sendan yashirib kelgan hamma sirlarni, hammasini izhor etish uchun seni chaqirdim. – U hamma vaqt o'zining yashirin sirlarini gapirishdan oldin shunday gap boshlar, lekin oqibatda bu sirlarni ilgariyoq uning o'z og'zidan eshitganim ma'lum bo'lardi.

– Ey, qo'ysang-chi, Natasha, bu gapni o'zingdan ming martalab eshitganman! Shubhasiz, sizlarning birga turib ketishlaring mumkin emas; aloqangiz g'alati; oralaringizda yer bilan osmoncha farq bor. Biroq... Qurbing yetarmikin?

– Vanya, avvalgilari faqat niyat edi, xolos. Endi qat'iy qarorga keldim. Men uni borlig'im bilan sevaman, lekin shunday bo'lib chiqyaptiki, men unga birinchi dushman ekanman; men uning istiqbolini xarob qilyapman. Uni ozod qilish kerak. U menga uylana olmaydi, otasiga qarshi borishga ojizlik qiladi. Men ham uni bog'lab o'tirmoqchi emasman. Shuning uchun ham hatto unga unashtirmoqchi bo'lgan qizni sevib qolgandan ham xursandman. Mendan ajralish ham unga oson bo'ladi. Men shunday qilishga majburman! Bu menga ham qarz, ham farz. Modomiki, men uni sevar ekanman, men unga jonimni fido qilishim kerak, bitmas muhabbatimni shu yo'l bilan isbot etishim kerak, bu mening burchim! Yoki noto'g'rimi?

– Biroq sen uni ko'ndira olmaysan.

– Men ko'ndirmoqchi ham emasman. Basharti u hozir kelib kirsa ham, men u bilan boyagi-boyagi munosabatda bo'lamen. Ammo men shunday chora izlab topishim kerakki, u osongina, vijdon azobisiz meni tashlab ketsin. Mana shu meni azoblayapti, Vanya, ko'mak ber. Biror maslahat berolmaysanmi?

– Bunday chora bor, – dedim men, – undan butunlay sovib boshqa birovni sevishing kerak. Biroq bu chora bo‘la olarmikin. Axir, sen uning fe‘lini bilasan-ku? Mana u oldingga besh kundan beri kelmayapti. Mayli, faraz qilaylik, u sendan butunlay voz kechgan, ammo sen bir og‘iz undan voz kechganingni yozib yuborsang, darhol huzuringga yugurib keladi.

– Nega uni yomon ko‘rasan, Vanya?

– Men?

– Ha sen, sen? Sen uning dushmanisan, ichingdan ham, sirtingdan ham unga dushmansan! Achitmasdach gapirolmaysan. Ming martadan sezdim: uni yerga urib qoralashdan rohat olasan, yomonotliqqa chiqarasan, men to‘g‘risini aytyapman.

– Shuni menga ming marta aytding. Kel, shu gapni yig‘ishtirib qo‘yaylik, Natasha.

– Boshqa kvartiraga ko‘chib o‘tsam degan edim, – dedi yana u biroz jimlikdan so‘ng. – Ke, qo‘y, Vanya, diqqat bo‘lma.

– Boshqa kvartiraga kela olmaydimi? Topadi. Men xafa bo‘layotganim yo‘q.

– Sevgi kuchli narsa. Yangi muhabbat uni ushlab qolishi mumkin. Meni oldimga kelsa ham, bir necha daqiqagina kirib ketishi mumkin. Nima deb o‘ylaysan-a?

– Bilmayman, Natasha, uning o‘zini ham, qilgan ishini ham tushunib bo‘lmaydi, u o‘sha qizga uylanishni xohlaydi, seni ham sevadi. Qizig‘i shundaki, u hammasini bir vaqtda qila oladi.

– Men uni sevishini aniq bilganimda edi, bir qarorga kelgan ham bo‘lardim... Vanya! Mendan hech narsani yashirma yoki menga aytishni istamagan bir gaping bormi-a?

U menga tashvish aralash sinchkov nazar tashladi.

– Hech narsa bilmayman, do‘stim, Xudo haqqi, sen bilan hamma vaqt ochiq gaplashaman. Lekin bilasanmi, men yana nima deb o‘ylayman, balki, u grafinyaning o‘gay qizini biz o‘ylagancha qattiq sevib qolmagandir. Shunchaki ishqiboz bo‘lib yurgan bo‘lishi mumkin...

– Shunday deb o‘ylaysanmi-a, Vanya? Ey tangrim, anig‘ini bilsam edim! Uni shu daqiqa bir ko‘rishni, yuziga bir qarashni istardim, yuzidan hammasini bilib olardim. Undan ha-

mon darak yo‘q!

– Hali sen uni kutyapsanmi, Natasha?

– Yo‘q, bilaman, unikida, bilib kelish uchun odam yubordim. O‘sha qizni bir ko‘rsam edim... Menga qara, Vanya, aljira-yapman, lekin uni bir ko‘rishning iloji yo‘qmikan-a? Biror yerda u bilan uchrashib bo‘lmasmikin-a? Sen nima deb o‘ylaysan?

U toqatsizlik bilan javobimni kutardi.

– Ko‘rish mumkin. Biroq ko‘rishning o‘zi kifoya qilar-mikin?

– Bitta ko‘rishning o‘zi kifoya qilardi, u yog‘ini o‘zim bilib olardim. Vanya, men shunday tentak bo‘lib qoldim, o‘zim yoppa-yolg‘iz, yurganim yurgan, xayoldan boshim chiqmaydi. Xayol o‘lgur xuddi quyundek bostirib kelaveradi, shunchalik og‘irki! O‘ylab-o‘ylab shuni topdim, Vanya, sen o‘sha qiz bilan tanishsang bo‘lmasmikin-a? Axir, grafinya (o‘zing gapirib bergan eding) romaningni maqtagan ekan-ku; axir, sen ba‘zan knyaz R.ning ziyofatlariga ham borib yurasan, u o‘sha yerda bo‘ladi. Shunday qilginki, seni u bilan tanishtirsinlar. Yoki Alyoshaning o‘zi tanishtirsa ham bo‘ladi. Mana shunda sen menga u to‘g‘rida batafsil gapirib berarding.

– Natasha, do‘stim, bu haqda keyin gaplashamiz. Menga shuni ayt, nahotki rostdan, bu judolikka qurbim yetadi deb o‘ylaysan-a? O‘zingcha, bir qarab ko‘r, ko‘ngling tinchmi hozir?

– Ye-ta-di! – javob berdi u eshitar eshitilmas. – Hammasi u uchun! Men hayotimni unga bag‘ishlaganman! Biroq bilasanmi, Vanya, men shunisiga chidolmaymanki, Alyosha unikida, meni esdan chiqarib uning oldida. Bir vaqtlar bu yerda qanday o‘tirsan, o‘shanaqa o‘ynab-kulib o‘tirgandir. Uning ko‘zlariga tik qarab o‘tirgandir. U hamma vaqt shunday qaraydi, lekin men bu yerda... Sen bilan birga o‘tirganim xayoliga ham kelmaydi...

U gapini tamom qila olmadi, hasrat bilan menga tikildi.

– Bu qanday gap, Natasha? Hozirgina, hozirgina o‘zing...

– Mayli, ajraladigan bo‘lsak, hammamiz barobar ajralaylik, – so‘zimni bo‘ldi u ko‘zlarini chaqnatib. – Men o‘zim unga oq fотиha beraman. Biroq avval u tashlab ketsa, menga juda og‘ir bo‘lsa kerak, Vanya? Ey Vanya, bu qanday azob? O‘zimga o‘zim

tushunmayman. Aqlan shunday, lekin amalda boshqacha. Endi ahvolim nima kechadi?

– Bo‘ldi, bas qil, Natasha, tinchlan!..

– Mana, besh kun bo‘ldi, shundan beri har soat, har daqiqa... Uxlasam, tushimda faqat uni ko‘raman. Vanya, yur o‘sha yoqqa, meni kuzatib bor!

– Qo‘y, Natasha.

– Yo‘q, boramiz! Men shuning uchun seni kutayotgan edim, Vanya! Uch kundan beri shuni o‘ylayman. Shuning uchun senga xat yozgan edim-da... Sen meni boshlab borishing kerak; so‘zimni qaytarma, Vanya... Seni kutdim, uch kun... U yerda bugun ziyofat... U o‘sha yerda... Yur, boramiz!

U xuddi alahlayotganga o‘xshar edi. Yo‘lakdan ovoz eshitildi, Mavra kim bilandir aytishayotgandek edi.

– Shoshma, Natasha, kim u? – so‘radim men, – quloq sol!

U ishonqiramay jilmayib quloq soldi-yu, birdan rangi o‘chib ketdi.

– Ey Xudoyim! Kim u? – dedi u eshitilar eshitilmas.

U meni ushlab qolmoqchi bo‘ldi, lekin men yo‘lakka, Mavra oldiga chiqdim. Xuddi kutganimday bo‘ldi! Rostdan ham u Alyosha edi. Alyosha Mavradan nimalarnidir surishtirardi. Mavra boshda uni kirgizmagan edi.

– Qayoqdan kelding? – dedi Mavra undan baland kelib, – nima? Qayoqlarda sanqib yurgan eding? Ha, mayli, kira qol! Menga suykalmay qo‘ya qol! Kir-chi, qani, ko‘ramiz, qanaqa qilib javob berarkansan?

– Men hech kimdan qo‘rqmayman! Kiraman, dedim, kiraman, – derdi Alyosha biroz xijolat chekib.

– Kir, kira qol, xiraxandon!

– Kiraveraman! A, siz ham shu yerdamisiz? – dedi u meni ko‘rib, – juda soz, juda soz! Mana men ham keldim, nima qilsam ekan endi...

– Nima qilardingiz, kiravering, – javob berdim men, – nimadan qo‘rqasiz?

– Azbaroyi Xudo, hech narsadan qo‘rqmayman, chunki men aybdor emasman, tepamda Xudo! Meni aybdor deb o‘yla-

yapsizmi? Mana ko'rasiz, hozir o'zimni oqlayman. Natasha, mumkinmi? – qichqirdi u allaqanday yasama jasorat bilan, berk eshik oldida to'xtab.

Hech kim javob bermadi.

– O'zi nima gap? – so'radi u tashvish bilan.

– Hech gap yo'q, u hozir shu yerda edi, – dedim men, – biror hodisa yuz bermagan bo'lsa...

Alyosha astagina eshikni ochdi, tortinibgina atrofga ko'z yugurtirdi. Uyda hech zog' yo'q edi.

Birdan u Natashani burchakda, shkaf bilan deraza o'rtasida turganini ko'rib qoldi. Natasha go'yo undan yashiringanday, murdaday qotib turardi. Esimga tushsa, hali ham kulgim qistaydi; Alyosha sekin va ohista yurib uning oldiga bordi.

– Nima bo'ldi senga, Natasha, salom! – Bu so'zlarni u qo'rqa-pisa, tikilib turib arang gapirdi.

– Hech nima... Hech gap yo'q, – xuddi o'zi bir ayb qilib qo'ygandek qattiq xijolat chekib javob berdi Natasha. – Choy... Choy ichasanmi?

– Menga qara, Natasha... – derdi Alyosha esankirab, – balki, meni rostdan ham aybdor deb o'ylayotgandirsan... Lekin menda ayb yo'q; tariqcha ayb yo'q! Mana ko'rasan, hozir hammasini gapirib beraman.

– Yo'q... nima keragi bor? – shivirladi Natasha, – yo'q, keragi yo'q, kel, qo'lingni ber, boyagi-boyagidek, hech narsa o'tmagandek... – u burchakdan chiqdi, yonoqlariga qizil yugurdi.

U Alyoshaga qarashdan qo'rqqandek yerga boqib turardi.

– Yo rabbiy! – deb yubordi Alyosha quvonib, – agar rostdan ham gunohkor bo'lsam, uning betiga tik qaray olarmidim? Uni qarang! – derdi u menga murojaat qilib, – u esa doim meni aybdor deb hisoblaydi, hamma menga qarshi, hamma! Besh kundan beri kelolmadim. Men qayliqnika emishman, nima bo'libdi? Qarang, meni kechiryapti o'zi: «Qo'lingni ber, vassalom!» – deyapti. Natashaginam, jonginam, farishtam! Xudo haqqi, tariqcha ham menda ayb yo'q! Aksincha! Aksincha!

– Ammo... lekin sen u yerda eding-ku... Sen hozir ham u yoqqa chaqirilgansan... Qanday qilib bu yerga kelding?.. Soat ne-

cha?

– O‘n yarim! Men u yerda edim... Lekin o‘zimni kasalga solib jo‘nab qoldim, mana shu besh kun davomida birinchi marta bo‘sh bo‘lishim, bir bahona qilib zo‘rg‘a qutuldim-u, oldingga chopdim, Natasha. Ya‘ni, masalan, avval ham kelsam bo‘lardiyu, ataylab kelmadim! Nega deysanmi? Hozir o‘zing bilib olasan, aytib beraman, senga aytish uchun ham keldim, lekin Xudo ursin, bu gal sening oldingda gunohkor emasman, zig‘irdek ham aybim yo‘q, qilcha ham!

Natasha boshini ko‘tarib unga qaradi... Ammo Alyosha-ning porlagan ko‘zlarida shu qadar rostgo‘ylik alomati, yuzida shu qadar shodlik, shunchalik poklik, xushchaqchaqlik ifodasi bor ediki, unga ishonmaslikning aslo iloji yo‘q edi. Men ular hozir qiyqirishib bir-birlarining quchog‘iga otilishadi deb o‘yladim, chunki avvallari ham mana shunday yarash-yarash paytida shu hol yuz bergan edi. Biroq Natasha baxtining yuki ostida qolgandek boshini ko‘ksiga egdi va birdan... asta-asta yig‘lay boshladi. Endi Alyosha o‘zini tutib turolmadi. O‘zini uning oyoqlari ostiga tashladi. Alyosha aql-hushini yo‘qotib uning qo‘llarini, oyoqlarini o‘pard. Men Natashaga kresloni surib qo‘ydim. U o‘tirdi. Uning oyoq-qo‘li bo‘shashib ketgan edi.

IKKINCHI QISM

I BOB

Oradan bir daqiqa o'tar o'tmas hammamiz jinnilardek kula boshladik.

– Ey, qo'ysalaring-chi, men gapirib beray, – qichqirardi Alyosha o'zining jarangdor tovushi bilan bizning ovoqimizni bosib. – Hamma o'sha avvalgidek gap deb o'ylaydi... Arzimagan gapni topib keldi deyishyapti... Axir, aytyapman-ku, juda ham qiziq ishlar bor deb. Hoy, jim bo'lasizlarmi, yo'qmi, axir?

Uning juda ham gapirgisi kelib turardi. Aftiga qarasangiz, juda muhim bir yangilik bor deb o'ylash mumkin edi. Shunday yangi gapdan xabardor bo'lganidan g'ururlanib, soddadillik bilan hikoya boshlashga tayyorlanishidan Natashaning kulgisi qistadi. Natashaga ergashib men ham beixtiyor kulib yubordim. U bizdan qancha jahli chiqsa, biz shunchalik ko'p kulardik. Alyoshaning jig'ibiyroni chiqishi, yosh bolalardek xunob bo'lishi bizni, nihoyat, shu darajaga olib keldiki, biz Gogolning michmanidek¹, birov barmog'ini ko'rsatsa, ichagimiz uzilib ketgudek qotib-qotib kuldik. Mavra oshxonadan chiqib ostonada turar, Natasha Alyoshaning burnini yerga ishqalash o'rniga, xushchaqchaqlashib o'tirganimizdan jahli chiqib, bizga xo'mrayib qarardi.

¹ Gogolning michmani – Gogolning uylanish komediyasidagi hajviy qahramon leytenant Jevakin.

Chunki u ana shu besh kundan beri: «Ha, senimi, qarab tur!» – deb yanib yurar, bunga qaramay hamma xursand edi.

Nihoyat, Natasha bizning kulgimiz Alyoshani xafa qila-yotganini sezib to'xtadi.

– Nimani gapirmoqchisan? – deb so'radi.

Mavra esa Alyoshadan tap tortmay, uning gapini bo'lib:

– Samovar qo'yib yuboraymi, a? – deb so'radi.

– Boraver, Mavra, bor, – javob berdi Alyosha, tezroq ket degandek, unga qo'l siltab, – nima bo'lganini, nima bo'layotgani va endi nima bo'lishini gapirib beraman, chunki hammasini bilaman. Ko'rib turibman, do'stlarim, shu besh kun ichida qayerda bo'lganimni bilmoqchisizlar, xuddi shuni gapirmoqchiman, siz esa nuqul xalaqit berasiz. Avvalo, Natasha, men seni hamma vaqt aldab keldim, mana shu kunlarda ham, allaqachondan beri ham, gapning eng muhimi ham shunda.

– Aldab kelganding.

– Ha, aldab kelayotgandim, bir oydan beri, o'sha otam kelmasdan ilgaridanoq alday boshlagandim, ana endi yurakni ochib soladigan payt keldi. Bundan bir oy ilgari, otam hali safardan qaytmay turib, birdan men undan uzundan uzoq maktub oldim. Ammo-lekin ikkalangizdan ham buni sir tutdim. Xatda u gapning po'skallasini aytibdi-qo'yibdi. Bilsangiz, xat shunchalik jiddiy yozilganki, men o'qib, hatto qo'rqib ham ketdim; chunonchi, meni unashtirish masalasi hal bo'lganmish, menga tegadigan qiz qaddi kamolga yetgan, men uning tirnog'iga ham arzimasmishman, lekin, nima bo'lsa ham, men unga uylanishim shart emish. Shunga binoan men behuda gaplar va hokazo va hokazolarni miyamdan chiqarib tashlab tayyor bo'lib turishim kerakmish, qanaqa behuda gaplar haqida gap ketyapti, ma'lum. Mana shu xat o'lgurni men sizlardan yashirgan edim.

– Hech ham yashirganing yo'q! – so'zini bo'ldi Natasha, – shu bilan maqtanmoqchimiding! Bizga darhol aytib bergansan. Esimda bor, o'shanda sen birdan shunday mo'min-qobil, shunday mehribon bo'lib qolding, xuddi bir ayb qilib qo'ygan boladek yonimdan bir qadam ham jilmay qolding, keyin birin-sirin maktubning mazmunini aytib berding.

– Bo‘lmagan gap, ehtimol, eng muhim yerini aytmagan-dirman. Ehtimol, o‘zlaring gapning tagiga yetib olgandirsizlar, bu sizning ishingiz, men aytgan emasman. Men yashirib yurdim-u, lekin o‘zim toza qiynaldim.

– Mening ham esimda bor, Alyosha, o‘shanda siz har daqiqa men bilan maslahatlashardingiz, batafsil bo‘lmasa hamki, taxminan gapirib bergansiz, – dedim men Natashaga qarab qo‘yib.

– Hammasini aytgansan! Maqtanchoqlik qilma ko‘p! – deb suhbatga qo‘shildi Natasha. – Sen nimani yashira olarding? Sendan yolg‘on gap chiqarmidi. Hatto Mavra ham hammasini bilib olgan. Bilasanmi, Mavra?

– Bilganda qandoq! – dedi Mavra eshikdan boshini tiqib, – hammasini o‘sha kunlardayoq gapirib bergansan. Quvlikni senga kim qo‘yibdi!

– Ey, qanaqa odamsizlar, axir, tavba! Sen esa Natasha, jahling chiqqandan gapiryapsan! Sen-chi, Mavra, sen ham yanglishyapsan. Esimdan chiqqani yo‘q, o‘shanda xuddi jinniga o‘xshab qolgandim, esingdami Mavra?

– Nega esimdan chiqarkan. Sen hozir ham xuddi jinniga o‘xshaysan.

– Yo‘q, yo‘q, uni gapirayotganim yo‘q.

– Esingdami, o‘shanda yonimizda hech pulimiz qolmagan, sen mening kumush papirosdonimni garovga qo‘ygani ketding, lekin shuni aytib qo‘yayki, Mavra sen juda ham haddingdan oshib ketyapsan. Buni senga Natasha o‘rgatgan. Mayli, bo‘lsa bordir, boshidan kirib oyog‘idan chiqib sizlarga gapirib bergandirman (endi esimga tushyapti). Biroq maktubning qanday uslubda yozilganini bilmadinglar. Axir, maktubning uslubi – uning eng muhim tomoni. Mana shuni aytmoqchiman-da.

– Bo‘lmasa, uslubi qanaqa ekan? – so‘radi Natasha.

– Menga qara Natasha, hazilga aylantirib so‘rayapsan. Hazillashmay tur birpas! Xudo haqqi, bu juda ham muhim. Maktub shunday yozilganki, uni o‘qib tarvuzim qo‘ltig‘imdan tushdi. Otam hech qachon men bilan shu tarzda gaplashgan emas. Lissabon yiqilsa, yiqiladiki, otamning niyati yuzaga chiqmay qolmay-

di, mana, gapning po'skallasi!

– Qani, qani, gapir-chi bo'lmasa, nega mendan yashirish kerak edi?

– Ey Xudo-ey! Seni qo'rqitib yubormay, dedim-da!

O'zim bu ishni to'g'rilab yuborishimga ishonдим. Shunday qilib, o'sha maktubdan keyin, otam safardan qaytishi bilan mening kul-fatlarim boshlandi. Men unga ochiqdan ochiq qat'iy javob berishga tayyorlandim-u, lekin qulay payt kelmadi. U mendan hech narsani surishtirmadi ham. Shunaqangi tulkiki u! Aksincha, u o'zini shunday tutardiki, go'yo hamma gaplar allaqachon hal bo'lgan, oramizda hech qanaqa munozara-yu tushunmovchiliklar bo'lishi mumkin emas, eshityapsizmi, bo'lishi ham mumkin emas! O'zbilarmonligini qarang! Menga shunchalik muloyim, shunchalik mehribon bo'lib qoldiki, hayron bo'ldim. Bilsangiz edi, Ivan Petrovich, u qanday dono odam! U ko'p o'qigan, ko'pni ko'rgan, siz unga bir qarashingizdayoq u dilingizdagini biladi-qo'yadi. Mana shu uchun ham unga iezuit deb laqab qo'ygan bo'lsalar kerak. Natasha uni maqtaganimni yomon ko'radi. Sen achchig'lanma, Natasha. Xo'sh deganingizda, yana... Ha, aytgandek! U menga avval pul bermasdi, endi esa kecha pul berdi, Natasha! Farishtam, qashshoqligimiz bitdi endi! Mana, qara! Meni jazolash uchun bermay yurgan pullarini, hammasini, mana shu yarim yil ichidagi hammasini kecha qo'shib berdi, qara, qancha, hali sanaganim ham yo'q. Mavra, qara qancha pulimiz bor! Endi qoshiq, zaponkalarni¹ garovga qo'yib yurmaysiz.

U cho'ntagidan bir yarim ming so'mcha keladigan pachka yangi pul chiqarib stol ustiga qo'ydi. Mavra pullarga suqlanib qarab, Alyoshani maqtab qo'ydi. Natasha uni hadeb shoshiltirardi.

– Shunday qilib, endi nima qilsam ekan, deb o'yladim, – deb davom etdi Alyosha, – qanday qilib unga qarshi turishim mumkin? Ya'ni, masalan, Xudo haqqi, ishoninglar, u menga nisbatan bunaqangi shirin so'z bo'lmay zahrini sohib yurganda, o'zim bilardim nima qilishimni. Yuziga tik qarab: «Bas endi,

¹ **Zaponka** (ruscha: запонка – metall to'g'nog'ich) – erkaklar, shuningdek, ayollar ko'ylagining yengiga yoki bo'yinbog'iga taqiladigan bezakli to'g'nag'ich.

men yosh bola emasman, odam bo'ldim, vassalom», – derdim. Xudo haqqi, aytganimning ustidan chiqardim ham. Endi esa nima ham deya olaman? Lekin meni ayblamanglar, ko'rib turibman Natasha, ensang qotyapti. Nega ikkalangiz bir-biringizga qaray-siz? Balki, uni tuzoqqa ilintirishyapti, unda qittak iroda degan narsa yo'q, deb o'ylayotgandirsizlar. Irodadan ham bor, siz o'y-lagandan ham ortiq irodam bor! Buning isboti shuki, men o'zim-ning ahvolimga qaramay, o'zimga o'zim: bu mening burchim, men otamga hammasini ochiq aytishim kerak, dedim, gapirdim ham, yuragimdagi hamma gapni gapirdim. Otam quloq solib o'tirdi.

– Nimani gapirding, ayta qolsang-chi, – dedi Natasha tashvish bilan.

– Menga hech qanaqa boshqa qayliq kerakmasligini, o'zimning qaylig'im borligini – u sen ekaningni aytdim. Ya'ni, masalan, hali shu chog'gacha to'g'risini aytolganim yo'q, oldini olib uning etini o'ldirib qo'ydim, ertan aytaman, shunga qaror qildim. Oldin men unga davlat uchun uylanish uyat, nomus, oliy-janoblik emasligini, o'zimizni allaqanaqa oqsuyaklar deb hisob-lashimiz ahmoqlik ekanini aytdim (men u bilan xuddi og'a-inilar-dek ochiq gaplashaveraman). Keyin, shu zahotiyoq men tries-etat va tries-etat c'est l'essen tiel¹ va men hamma qatori odamman, ulardan mening qilcha oshiq joyim yo'qligidan faxrlanaman de-dim... Gapirganda ham ajoyib jo'shqinlik va qiziqqonlik bilan gapirdim. O'zim ham jasoratimdan hayron qoldim. Nihoyat, men uning nuqtai nazaridan... Biz knyaz bo'lib qayoqqa borardik, deb tik aytdim. Ajdodlarimiz knyaz bo'lib o'tgani bilan bizda qanday knyazlik xislati bor? Avvalo, bizda davlat yo'q. Bu eng muhimi. Hozir eng katta knyaz – Rotshild. Ikkinchidan, chinakam katta oliy tabaqalar ichida biz allaqachon tilga olinmay qo'yganmiz. Oxirgisi amakim Semyon Valkovskiy edi, u ham esa faqat Moskvaning o'zidagina ma'lum bo'lib, mol-mulkini sovurgan, agar otam o'zi pul – davlat to'plamaganda, uning nevaralari o'z-lari yer haydab kun ko'rishlari ham hech gap emas edi. Shunday

¹ Tries-etat va tries-etat c'est l'essen tiel (*fransuzcha*) – uchinchi tabaqadanman, uchinchisi eng muhimi.

knyazlar ham bor. Binobarin, biz kekkayib ketmasak ham bo'la-
di. Xullas, hammasini, yuragimda yig'ilib qolgan hamma gaplar-
ni ochiqchasiga gapirib tashladim, hatto uncha-muncha oshirib
ham gapirdim.

Otam esa gaplarimga bir og'iz e'tiroz bildirmadi, nega
knyaz Nainskiylar uyiga bormay qo'yganimdan o'pkaladi. Un-
dan keyin mening tutingan opam knyagina K.ning pinjiga kirish
kerakligini, agar knyagina meni yaxshi qabul qilsa, hamma yer-
da qabul qilinishim, istiqbolim yaxshi bo'lishini gapirib toza
ezmalandi! Buning tagida gap bor. Natasha! Go'yo men sen bilan
yaqinlashganimdan keyin hammadan voz kechib ketibman, bu
sening ta'siring emish. Ammo hali shu chog'gacha sening ha-
qingda ochiq gapirgani yo'q. Chog'imda, gap ochishni xohla-
maydi. Ikkimiz ham quvlik qilamiz, kutamiz, bir-birimizni ilin-
tirishga urinamiz, lekin ishon, Natasha, bizning ko'chada ham
bayram bo'lib qolar.

– Ha, xo'p! Gap nima bilan tugadi? Qanday qarorga keldi
otang? Eng muhimi – shu. Biram ezmasanki, Alyosha...

– Kim biladi deysan, nima qilmoqchiligini hech tushunib
bo'lmaydi, meni bekor ezma deyapsan, axir, bo'lgan gapni
gapiraman-da. U hech qanaqa qarorga kelmadi, faqat mening
mulohazalarimdan kulib o'tirdi, kulishidan xuddi menga achina-
yotgandek ko'rindi. Tushunaman, bu bilan meni yerga uryapti,
lekin men uyalmayman. «Fikrlaringga qo'shilaman, – deydi u, –
lekin qani yur, graf Nainskiynikiga ketdik. Lekin ehtiyot bo'l, u
yerda bunaqa gaplarni gapirma. Men tushunaman, lekin ular tu-
shunishmaydi bu gaplarga» Nazarimda, uning o'zini ular uncha
xush ko'rishmaydi. Nimadandir ko'ngillari qolgan. Umuman
nima uchundir oliy tabaqalar otamni yaxshi ko'rishmaydi!
Avvallari graf meni dabdaba bilan o'zini katta olib qabul qilardi,
hattoki u men uning uyida o'sganligimni ham esidan chiqarib
qo'ygan, shekilli, sekin-sekin esiga tushira boshladi, Xudo haqqi,
rost! U shunchaki mening nonko'rlikimdan achchiqlansa kerak,
lekin men hech qanaqa nonko'rlik qilganim yo'q, rostini aytsam,
ularnikida odam zerikib ketadi, shuning uchun bormay qo'ya
qolgandim. U otamni ham ensasi qotib qabul qildi, shunchalik

sovuq qabul qildiki, shundan keyin otam u yerga qanday qilib boradi, aqlim yetmaydi. Bular hammasi mening qonimni qaynatib yubordi. Bechora otam uning oldida ta'zim qilishga majbur, bular hammasi men uchun, lekin menga hech narsaning keragi yo'q. Keyin men qonim buzilganini otamga aytmoqchi bo'ldim, lekin tag'in o'zimni ushladim. Nima hojati ham bor! Bu bilan men otamning e'tiqodini o'zgartirolmayman, faqat uning dilini siyoh qilaman, xolos. Busiz ham u bechoraga qiyin. Shunday bo'lgandan keyin endi quvlik ishlatish kerak, ayyorlik bilan hammasini qo'lga olish kerak, graf meni hurmat qilishga majbur bo'ladi, deb o'yladim. Xo'sh, nima bo'ldi deng? Shu zahotiyoq murodimga yetdim, bir kunning o'zida hammasi o'zgardi! Graf Nainskiy endi meni o'tqazishga joy topmaydi. Hammasiga o'zim, bitta o'zim, o'zimning hiyla-nayrangim orqali erishdim, otamning og'zi ochilib qoldi!..

– Menga qara, Alyosha, yaxshisi, ish haqida gapir! – dedi Natasha toqatsizlanib, – bizning ishlarimiz haqida biror narsa aytasan deb o'ylasam, sen hadeb grafnikida hunar ko'rsatganingni gapirging keladi. Grafig bilan nima ishim bor!

– Qanaqa ish! Eshityapsizmi, Ivan Petrovich, qanaqa ish! Eng keragi shu yerda-da. Mana o'zing ko'rasan, oxirda hammasi anglashiladi. Faqat meni gapirgani qo'yinglar... Nihoyat (nega ochig'ini aytavermas ekanman!), gap shuki, Natasha, siz ham eshiting, Ivan Petrovich, ehtimol, men ba'zan rostdan ham kalta-fahmlik qilarman, aytaylikki (axir, ba'zan shunday ham bo'lganku), hatto ahmoq bo'lganman. Biroq bu yerda men shunday quvlik ko'rsatdim... hatto aql ishlatdimki, mening hamma vaqt laqmalik qilavermasligimga o'zingiz ham xursand bo'lasiz.

– Qo'y shu gapingni Alyosha! Azizim!..

Alyoshani beaql desalar Natashaning joni chiqib ketardi. Men ba'zan Alyoshaning birorta noma'qulchiligini yuziga aytib izza qilsam, Natasha, so'z bilan aytmasa hamki, arazlab qolardi, bu ko'nglini qattiq og'ritardi. U Alyoshaning aqli qisqaligiga ichidan iqrar bo'lgani uchun ham, uning yerga urishlariga hech ham chidolmasdi. Lekin o'z fikrini u hech qachon betiga aytolmas, uning izzat-nafsini haqorat qilishdan qo'rqardi. Alyosha esa

bu masalada juda ziyrak edi va hamisha uning ko'nglidagini bilib olardi. Natasha buni sezib qolar va qattiq ezilardi, shu lahza xushomad qilib, uni erkaldirdi. Mana shuning uchun uning hozir aytgan so'zlaridan Natashaning ko'ngli og'rigan edi...

– Bo'ldi Alyosha, sen faqat biroz yengiltaksan, xolos, unaqa emassan, – qo'shib qo'ydi u, – nega muncha o'zingni yerga urasan?

– Yaxshi, xo'p, endi men gapimni tugatay, axir. Grafning qabulidan keyin otam mendan xafa bo'ldi. Shoshmay tur, dedim, o'zimcha. Biz o'shanda knyaginyanikiga ketayotgan edik, men, knyaginya azbaroyi qarib ketganidan miyasi achib qolgan, ustiga ustak qulog'i kar va kuchuk bolani o'lgudek yaxshi ko'rarkan, deb eshitgandim. Bir to'da iti bor, ulardan jonini ham ayamas-mish. Shunga qaramay u oliy tabaqalar ichida katta obro'ga ega, hatto le superbe¹ graf Nainskiyning o'zi uning oldida antichambre² qiladi. Mana, shunday qilib, men yo'l-yo'dakay hamma qiladigan ishlarimning rejasini tuzib bordim, bilasizmi, nimaga asoslanib? Gap shundaki, nima uchundir meni, Xudo haqqi, hamma itlar yaxshi ko'radi! Men buni sezganman yoki mening bir joyimda magnit³ bormi, yoki o'zim hamma hayvonlarni yaxshi ko'rganim uchunmi, bilmayman, har qalay, itlar meni juda yaxshi ko'rishadi! Ha, magnitizm haqida hali men senga aytib berganim yo'q, Natasha. Biz yaqinda arvohlarni chaqirdik, men bitta arvoh chaqiruvchinikida bo'ldim, juda qiziq-a, Ivan Petrovich, juda hayron qolarlik. Men Yuliy Sezarni⁴ chaqirdim.

– Ey tavba! Yuliy Sezarning nima keragi bor senga? – dedi Natasha qotib-qotib kulib, – shu kam edi endi!

– Nega, axir... xuddi men... Nega endi haqqim yo'q ekan Yuliy Sezarni chaqirishga? Uning bir joyi kamayib qolarmidi? Kulishini qaranglar!

– Ha, mayli, hech nima bo'lmaydi, unga, albatta... Ey aziz do'stim-ey, xo'sh, Yuliy Sesar senga nima dedi?

¹ Le superbe (fransuzcha) – takabbur.

² Antichambre (fransuzcha) – laganbardorlik.

³ Magnt – ohanrabo. Bu yerda ko'chma ma'noda: o'ziga tortuvchi xislat.

⁴ Gay Yuliy Sesar (miloddan avvalgi 102 yoki 100-44) – Rim diktatori (49-, 48-46-, 45-44 yildan umrbod), sarkarda, yozuvchi «Galliya urushi haqida xotiralar» va «Grajdanlar urushi haqida xotiralar» asarlari muallifi; kalendarni isloh qilgan (Yuliy kalendari).

– Hech narsa degani ham yo‘q. Faqat men qalam ushlab turdim, qalam o‘zi qog‘oz ustidan yurib yozdi. Buni Yuliy Sezar yozyapti deyishadi. Men bunga ishonmayman.

– Nima yozdi bo‘lmasa?

– Ha, Gogoldagidek «obmokni¹» qabilida bir so‘z yozdi... Bo‘ldi, muncha kulasan!

– Knyagina haqida gapir endi!

– Ha, aytgandek-a, hadeb gapimni bo‘laverasizlar. Shunday qilib biz knyaginaning bordik, men ishni Mimi bilan o‘ynashdan boshladim. «Mimi» bu kuchukning oti, o‘zi qari, irkit, uning ustiga qaysar va qopag‘on it. Knyagina shu itni juda ham yaxshi ko‘radi, jonidek ko‘radi, ikkalasining yoshi ham teng bo‘lsa kerak. Men Mimiga konfet yedira boshladim va oradan o‘n daqiqa o‘tar-o‘tmas it qo‘l berishni o‘rgandi, shuni ular bir umr o‘rgatisha olmagan ekan. Knyagina shodligidan terisiga sig‘may ketdi, xursandligidan yig‘lab yuboray dedi: «Mimi! Mimi! Mimi qo‘lini beryapti!» Kimdir kelgandi, unga ham, «Mimi qo‘lini beryapti! Mana tutingan o‘g‘lim o‘rgatdi!» – dedi. Graf Nainskiy kirdi, unga ham «Mimi qo‘lini beryapti!» – dedi. Men uning ko‘zlariga oydek ko‘rinib ketdim. Juda ham oqko‘ngil kampir, odamning rahmi keladi. Men yana yutuqni qo‘ldan bermaslik uchun tag‘in bir xushomadgo‘ylik qildim. Uning tamaki qutisi ustiga rasmi solingan, bu bundan oltmish yil ilgari, hali u kelin vaqtidagi surati. Shu qutini yerga tushirib yubordi. Men uni yerdan dast ko‘tardim-u, xuddi bilmagandek: *Quelle charmante pienlure*²! Bu mislsiz bir go‘zallik, deb yubordim. U tamom erib ketdi, men bilan u yoq-bu yoqdan gaplashib, qayerda o‘qiganimni, kimlarnikiga borib turganimni surishtirib, sochlarimni maqtay ketdi. Men ham qiziq bir mojaroni gapirib toza kuldirdim. U bunaqa narsalarni yaxshi ko‘radi. Faqat barmog‘i bilan po‘pisa qilib qo‘ydi. Lekin o‘zi toza kuldi. Ketishga ruxsat berayotganda o‘pib, cho‘qintirib, u zerikmasligi uchun har kuni kelib turishimni buyurdi. Graf qo‘limni mahkam qisdi, ko‘zlari suzilib ketyapti; otam esa eng muloyim, eng sofdil, haddan

¹ «Obmokni» – Gogolning «Janjal» dramasi-dagi pomeschik Burdakovning xolasi o‘limidan oldin «Yevdokiya» so‘zi o‘rniga «Obmokni» so‘zini yozgan.

² *Quelle charmante pienlure (fransuzcha)* – naqadar ajoyib siymo.

tashqari oliyjanob odam bo'lishiga qaramay xoh ishonig, xoh ishonmang, ikkalamiz uyga kirib kelganimizda quvonchidan yig'lay-yig'lay deydi, meni quchoqladi, ochilib ketib allaqanday mansablar, aloqalar, pullar, nikohlarning sirlari haqida toza javradi, men ko'pini tushunmadim ham. Ana shundan keyin pul berdi. Bu kecha bo'lgan edi. Men ertaga yana knyaginyanikiga boraman, lekin otam, har holda, juda ajoyib, oliyjanob odam, zotan u meni sendan uzoqlashtirayotgan bo'lsa ham, Natasha, siz u haqda yomon narsa o'ylamanglar. Negaki u hozir mast-alast, chunki u Katyaning millionlariga qiziqadi, senda esa u yo'q; bitta men uchun u shuni deb o'lib turibdi, faqat bilmaganligi tufayli, senga nisbatan noinsoflik qilyapti, xolos. Kim o'z o'g'liga baxt tilamaydi? Axir, baxt millionlarda deb hisoblashga o'rganib qolganligi uchun u aybli emas-ku... Ular hammasi bir go'r. Axir, unga faqat shu nuqtai nazardan qarash kerak-da, shunday qaralganda u haqli bo'lib chiqadi-qo'yadi. Men ataylab, Natasha, shularni senga tushuntirish uchun huzuringga shoshildim, chunki bilaman, sen unga nisbatan yomon fikrdasan, lekin bu haqda seni ham ayblab bo'lmaydi. Men seni ayblamayman.

– Bo'lgan gap shumi, sen knyaginya huzurida o'z mansabingni ta'min etib keldingmi? Butun nayranging shundan iboratmi? – so'radi Natasha.

– Nega? Nima deyapsan o'zing? Bu faqat xamir uchidan patir... Men knyaginya haqida shuning uchun gapiryapmanki, u orqali otamni qo'lga olaman, tushunasanmi? Asosiy voqealar hali boshlangani ham yo'q.

– Gapir bo'lmasa.

– Bugun men bilan yana juda ham g'alati hodisa yuz berdiki, shu chog'gacha o'zimga kelolmayman, – davom etdi Alyosha. – Shuni qayd qilib o'tish kerakki, zotan otam bilan grafinya o'rtasida bizni unashtirish masalasi o'zaro hal etilgani bilan hali shu paytgacha rasmiy ravishda hech bir ish qilingani yo'q. Binobarin, biz hoziroq ajralib ketaversak ham hech qanaqa janjal bo'lmaydi. Yolg'iz graf Nainskiygina biladi, biroq u, har qalay, bizga ham qarindosh, ham homiy hisoblanadi-ku. Undan tashqari, garchi mana shu ikki hafta ichida Katya bilan juda inoqlashib

ketgan bo'lsam ham, to mana shu oqshomga qadar u bilan bo'ladigan ishlar, ya'ni, masalan, nikoh haqida... Xullas, muhabbat haqida bir og'iz gapirishganimiz yo'q. Bundan tashqari yana eng avval knyaginya K.ning roziligini olish taqozo qilinadi, nima demang, biznikilar knyaginyadan har tomonlama homiylik va katta umidlar kutmoqdalar. U nima desa, oliy tabaqa ham shuni deydi, tanish-bilishi ko'p. Meni esa muqarrar oliy tabaqa orasiga olib kirishmoqchi, odam qilishmoqchi. Ammo, asosan, bu ularning hammasi Katyaning o'gay onasi knyaginyaning qistovi bilan bo'lyapti. Gap shundaki knyaginya K. uning chet elda qilgan noma'qulchiliklari uchun qabul qilmasligi ham mumkin. Knyaginya qabul qilmadi degan so'z, hech kim qabul qilmaydi degan so'z; shunday qilib bizning Katya bilan unashtirilishimiz unga juda qo'l keladi. Mana shuning uchun ham avvallari unashtirishga qarshi turgan grafinya bugun knyaginya K. huzuridagi yutuqlarimdan judacha xursand bo'ldi, lekin bu ham gapning muhim tomoni emas, muhimi bu yoqda: Katerina Fedorovnani men bulturidan beri bilardim, biroq men unda hali yosh, ancha g'o'ra edim, shuning uchun ham men uni yaxshi bilolgan emasdim...

– Ha, endi, u vaqtda sen meni qattiqroq sevarding, – so'zini bo'ldi Natasha, – shuning uchun ham yaxshi qaramagansan, endi esa...

– Tek tur, Natasha, – qizishib gapirdi Alyosha. – Sen qattiq yanglishyapsan, bu bilan meni haqorat qilyapsan!.. Senga e'tirozim yo'q, lekin birpas jim o'tirib eshitgin, o'zing ko'rasan... Eh, Katyani, bilsayding, qani endi sen uning pok, nozik qalbini, qo'ydek yuvoshligini bilsayding! Lekin aminmanki bir kunmas bir kun bilib olasan, faqat gapimni oxirigacha eshit! Bundan ikki hafta ilgari, ularning kelishi munosabati bilan otam meni Katerinanikiga olib bordi, shunda men unga zehn solib qaray boshladim, sezsam u ham menga zehn solyapti. Bu esa mening diqqatimni jalb etdi. Men ham ko'nglimdagi niyatimni – hov anovi, meni gangitib qo'ygan otamning maktubidan keyingi niyatim, ya'ni qizni yaxshilab bilib olish niyatida ekanimni gapirmasam ham bo'ladi. Hech narsa demayman ham, uni maqtab ham o'tirmayman, faqat bitta gap aytaman: u o'z atrofida gilar orasidan

yaqqol ajralib turadi. U tabiatan shunday zo'r va haqqoniy qalb egasiki, ana shu pokligi va haqqoniyligi bilan ham zo'r bir kim-saki, endi o'n yettiga kirganiga qaramay, men uning oldida shunchaki bir yosh bola, go'yo uning ukasidek bo'lib qoldim. Men yana shuni sezdim: go'yo uning qanaqadir yashirin bir qayg'usi bordek g'amgin ko'rindi. Hamda uyda uning ovozi eshitmay-siz, go'yo bir narsadan yurak oldirgandek... U nimadandir o'ylab yurgandek ko'rindi. Nazarimda, otamdan qo'rqadi. O'gay onasini yomon ko'radi. Men buni fahmladim: grafinya qandaydir bir maqsadda: «Qizim meni jonidan ham ortiq ko'radi», – deb gap tarqatgan, bu g'irt yolg'on. Katya faqat unga bo'ysunadi, xuddi ikkalasi bir-biri bilan til biriktirgandek sir boy berishmaydi; to'rt kun ilgari, barcha mushohadalarimdan so'ng o'z niyatimga yetishga qaror qildim va shu bugun kechqurun yetdim. Niyatim shu ediki, men Katyaga hamma gapni gapirib, hammasiga iqror bo'lish, uni o'z tomonimizga ag'darib olib, so'ng birdan hammasiga xotima berish edi...

– Nima? Nimani gapirib? Nimaga iqror bo'lmoqchi eding? – so'radi Natasha toqatsizlik bilan.

– Hammasini, nimaiki bo'lsa, hammasini, – javob berdi Alyosha. – Shu fikrni ko'nglinga solgan Xudoga ming qatla shukur; quloq soling, quloq solinglar, axir! To'rt kun ilgari men shunday qarorga keldim: uch-to'rt kun sizlarga ko'rinmay o'zim, yolg'iz o'zim hamma ishni bitirmoqchi bo'ldim. Sizlar bilan birga bo'lsam ham, ikkilanib yurgan, sizlarning so'zingizga kirib hech qachon bir qarorga kelolmagan bo'lardim. Yoppa-yolg'iz, o'zimni o'zim shu holga solib qo'ydimki, har soat, har daqiqa:

«Tamom qilish kerak, tamom qilishim shart!» – deb takrorlayverdim; bor kuchimni to'plab turib tamom qildim ham! Oldingizga qat'iy bir qaror bilan kelishga ahd qilgan edim, shu qaror bilan keldim.

– Nima deyapsan? Nima bo'ldi? Tezroq gapirsang-chi!

– Shunday bo'ldi! Men uning huzuriga dadil, sof vijdon va jasorat bilan bordim, ammo bundan oldin meni esankiratib qo'ygan bir hodisa yuz berdi, buni bir boshdan gapirib berishim kerak. Biz u yerga jo'nashimizdan sal oldin otam qandaydir bir

maktub oldi. Shu payt men uning kabinetiga kirmoqchi bo'lib turgan edim, uni ko'rib eshik oldida to'xtadim. U meni ko'rmasdi. U maktubdan shu qadar taajjublangan ediki, o'zicha nimalar-nidir gapirar, bir nima deb xitob qilar: o'zini yo'qotib uyning u yog'idan bu yog'iga yurardi, nihoyat, qo'lida xatni ushlab turib qattiq xaxolab kulib yubordi. Kirishga yuragim dov bermadi. Shuning uchun birpas kutib turib, keyin kirdim. Otam nimagadir shunday xursand, shunday xursand ediki, asti qo'ying, men bilan g'alati gaplashdi; keyin birdan gapdan to'xtadi-yu, vaqt hali ancha erta bo'lishiga qaramay, menga o'tlanishga buyurdi. Bugun ularnikida hech kim yo'q edi, faqat biz o'zimiz edik. Sen esa Natasha, bekorga ularnikida ziyofat deb o'ylayapsan, senga noto'g'ri axborot berishibdi...

– Ey, hadeb chalg'ib ketaverma, Alyosha. Shunday qilib Katyaga hammasini qanday qilib gapirib berding?

– Ishning o'ngidan kelishini qarangki, biz ikkalamiz rosa ikki soat yolg'iz qoldik. Men ochiqdan ochiq unga; garchi bizni unashtirmoqchi bo'lganlari bilan, uylanishning sira iloji yo'q; husn tavajjuhimi sizda, sizgina meni qutqara olasiz, dedim va voqeani ochib gapirdim. Bilasanmi, Natasha, u ikkimizning boshimizdan o'tgan voqealardan mutlaqo bexabar ekan! Uning ko'ngli buzilib ketganini ko'rsang edi: avval qo'rqib oppoq oqarib ketdi. Men o'rtamizdagi hamma voqealarni, sen meni deb uyingdan ketib qolganing, yolg'iz yashaganimiz, endi qanchalik g'urbat chekayotganimizni, hammadan qo'rqib hayot kechirishimiz, endi uning ko'magiga muhtoj bo'lib, yordam kutishimizni (men sening nomingdan gapirdim, Natasha) birma-bir gapirdim. Keyin uning o'zi o'gay onasiga, ochiqdan ochiq: «Men tegmayman», – deb turib olsa, shundagina bizni barcha mashaqqatlardan ozod qilgan bo'lishini, shu bilan bizni qutqarishini, biz uchun bundan boshqa najot yo'qligini aytdim. U shu qadar qiziqish va xayrixohlik bilan tingladiki, asti qo'yaverasiz. Shu daqiqa uning ko'zlarini ko'rsang! Uning ko'zlari qalb oynasidek musaffo, osmon kabi moviy. Undan shubhalanmaganimizdan minnatdor bo'ldi va qo'lidan kelgancha bizga yordam berishga va'da berdi. Keyin sening to'g'ringda surishtira boshladi, sen bilan tanishish-

ni xohlaganini, seni o'z jigari kabi sevib qolgani, sen ham uni singil qatorida sevishing kerakligini aytib qo'yishimni so'radi. Keyin besh kundan beri seni ko'rmaganimni eshitib, shu zahotiyoq ketishimni talab qila boshladi...

Natashaning ko'ngli buzildi...

– Shuncha gaplar turib allaqanaqa kar knyaginyanikida ko'rsatgan botirliklaringni gapirib o'tiribsan-a! Voy Alyosha-ey! – dedi Natasha Alyoshadan o'pkalab. – Xo'sh, gapir-chi, Katyaning o'zi qalay? Seni xursandchilik bilan jo'natdimi?

– Ha, qo'lidan shunchalik oliyjanob ish kelganidan shod edi, ammo o'zi ko'z yoshini to'xtata olmadi. Chunki, axir, o'zi ham meni sevadi-da, Natasha! U endi-endi meni sevib kelayotganini, odamlarga aralasha olmaganini, men unga yoqib qolganimga ancha bo'lganiga iqrar bo'ldi; makkorlik, yolg'onchilik hukm surgan bir muhitda men unga samimiy va vijdonli odam ko'rinibman. Shuning uchun ham u meni boshqalardan yuqori qo'yibdi. U o'midan turdi-da: «Mayli, Xudoga topshirdim sizni, Aleksey Petrovich, men esa...», – dedi-yu u yog'ini aytolmay yig'lab yubordi va chiqib ketdi. Biz shunday qarorga keldik: u ertagayoq o'gay onasiga, menga tegmasligini aytadi, men ham ertadan qoldirmay otamga shu gapni dadil aytishim kerak. U ilgariroq aytmaganim uchun gina qildi. «Vijdonli odam hech narsadan qo'rqmasligi kerak!» – dedi. U shu qadar oliyjanob qizki! Otamni ham yaxshi ko'rmaydi. «U juda quv, pul uchun mukkasidan ketgan odam», – deydi. Men otamni himoya qildim. Lekin u ishonmadi. Basharti ertaga otam bilan gaplashib hech ish chiqarolmasam (Katya hech narsa chiqarolmaydi deb o'ylasa kerak), u holda knyaginya K.dan yordam so'rashimga rozi bo'ldi. Shunda hech kim qarshilik qilolmaydi, dedi. Biz u bilan aka-uka tutindik. O, uning hayotini bilsayding, Natasha, u ham bebaxt, o'gay ona qo'lida nima yorug'lik ko'radi deysan, o'zi yashayotgan muhitiga nafrat bilan qaraydi. U mendan hadiksiraydi, shekilli, bu gaplarni ochiq aytmaydi, ammo ba'zi gaplardan fahmlab olsa bo'ladi. Jonginam, Natasha! U seni bir ko'rsa, biram havasi kelar edi. Ajoyib rahmdil qiz! U bilan o'tirsa, kishi yengil tortadi. Siz bir-biringiz bilan tug'ishgan egachi-singil bo'lish uchun

yaratilgansiz. Siz bir-biringizni sevishlaring kerak. Men shularni o'yladim. Ikkingizni bir-biringizga qo'shib qo'ysam-u, o'zim zavq bilan tomosha qilsam. Men uni maqtasam, ko'nglingga og'ir kelmasin. U to'g'rida gapirishga ruxsat ber. Sen bilan uning haqida, u bilan sening haqingda gaplashgim keladi. Bilasan-ku, seni dunyoda hammadan ortiq sevaman, undan ortiq sevaman... Bor-u yo'g'im sen!..

Natasha churq etmay, unga mehribonlik bilan mung'ayib tikilib o'tirar, Alyoshaning so'zlari uni erkalagandek, shu bilan birga ranjitayotgandek ko'rinardi.

– Men Katyaga bundan ikki hafta ilgari baho berib qo'yganman, – davom etdi Alyosha. – Men, axir, ularnikiga har kun kechqurun borib yurdim-da. Uyga qayta turib hadeb ikkalangiz haqingizda o'ylardim, ikkingizni bir-biringiz bilan solishtirardim...

– Qaysi birimiz yaxshiroq ekanmiz? – so'radi Natasha jilmayib.

– Ba'zan sen, ba'zan u. Lekin doimo undan ortiqsan. Men u bilan gaplashganimda o'zimni tobora yaxshi, aqlli, oliyjanob bo'lib ketganday sezaman. Biroq, ertaga, ertaga hamma ish hal bo'ladi!

– Unga achinmaysanmi? U, axir, seni sevadi-ku, o'zim sezdim deyapsan-ku?

– Achinaman, Natasha! Shuning uchun ham biz uchalamiz bir-birimizni sevishimiz kerak, ana unda...

– Unda, xayr deb ketaversang ham bo'ladi! – dedi Natasha, xuddi o'zi bilan o'zi so'zlashayotgandek. Alyosha taajjiblanib unga qaradi.

Biroq bizning suhbatimiz hech kutilmagan bir holda birdan buzildi. Oshxonaga (u yer ham dahliz edi) xuddi birov kirgandek yengilgina sharpa eshitildi. Bir daqiqadan keyin Mavra eshikni ochdi-yu, Alyoshani imlab chaqirdi. Biz hammamiz unga o'girilib qaradik.

– Seni so'rayaptilar, bu yoqqa chiq, – dedi u sirli ohangda.

– Bemahalda meni kim so'rashi mumkin? – dedi Alyosha ajablanib bizga qarab, – chiqay-chi.

Oshxonada knyazning livreya¹ kiygan lakeyi² turar edi. Knyaz uyiga qayta turib karetasini Natasha uyi oldiga to'xtatibdi va Alyoshaning shu yerdaligini bilish uchun lakeyini yuboribdi. Lakey shuni aytdi-yu, chiqib ketdi.

– Tavba! Hech qachon bundog' bo'lmagan edi, – dedi Alyosha xijolat chekib, – o'zi nima gap?

Natasha tashvish bilan unga qaradi. Birdan tag'in Mavra eshikni ochdi. Shosha-pisha:

– Knyazning o'zi kelyapti! – deb shivirladi-yu, yana g'oyib bo'ldi.

Natashaning rangi o'chib ketib, o'rnidan turdi. Ko'zlari birdan chaqnab ketdi va stolga sal-pal suyanib kutilmagan mehmon kiradigan eshikka qarab qoldi.

– Natasha qo'rqma, men sen bilan! Seni xafa qilishga yo'l qo'yib bo'libman! – dedi xijolat chekkani bilan o'zini yo'qotib qo'ymagan Alyosha.

Eshik ochilib, ostonada knyaz Valkovskiyning o'zi paydo bo'ldi.

II BOB

U bizga diqqat bilan ko'z yugurtirdi. Bu qarashdan u bu yerga do'st bo'lib keldimi, dushman bo'lib keldimi, aniqlab bo'lmasdi. Biroq men uning tashqi qiyofasini mufassal tasvirlamoqchiman. Bu oqshom uning qiyofasi meni juda ham hayratda qoldirdi.

Men uni avval ham ko'rgan edim. Bu qirq beshdan oshmagan, yuzi xushbichim va nihoyatda chiroyli bir odam edi, yuzining ifodasi sharoitga qarab o'zgarib turardi; o'zgarganda ham juda keskin o'zgarar, go'yoki qandaydir bir prujinasini be-xosdan bosib yuborganlaridek ko'z ochib yumguncha eng yoqimli ifoda birdan o'zgarib, qayg'u yoki norozilik ifodasi paydo bo'lardi. Chiroyli, xushbichim, yuzi qorachadan kelgan, tishlari

¹ Livreya – aravakash, darvozabon va shu kabilarning zarrin uqali formasi, kiyimi.

² Lakey – malay, xizmatkor.

butun, yupqa lablari kelishgan. To'g'ri, biroz uzunroq burni, bitta ham ajin tushmagan keng peshanasi, katta-katta qo'yko'zlari birga qo'shilib uni chiroyli ko'rsatar, lekin shunga qaramay, bu chiroy sovuq, kishida yoqimli taassurot qoldirnasdi. Yuzidagi ifoda go'yoki o'ziniki emasdek, hamisha soxta, yasama, birov-dan o'rganib olingandek ko'rinardiki, bu kishining nafratini qo'zg'atardi va sizda yuzining asli ifodasini hech qachon ko'rib bo'lmaydi, degan ishonch uyg'otardi. Zehn solib qaragan sayin bu doimiy niqob ostida qandaydir yovuzlik, quvlik va o'taketgan xudbinlik yashirinib yotganga o'xshab ko'rinadi. Ayniqsa, ajoyib chiroyli tiniq qo'yko'zlari diqqatingizni jalb etardi. Faqat ko'zlarigina uning ixtiyoriga bo'ysunmaydigandek edi. Balki, u odamlarga mehr-muhabbat bilan qarashni istardi, biroq qarashida iliq bir ifoda bilan birga qandaydir bir xunuklik va sovuqlik asari ham bor edi... U ancha novchadan kelgan, qomati kelishgan, qotmaroq va o'z yoshiga nisbatan ancha yosh ko'rinardi. To'q sariq, mayin sochlariga hali bitta ham oq tushmagan. Quloqlari, qo'llari, oyoqlari nihoyatda kelishgan. Xullas, bu nasliy bir go'-zallik edi. U did bilan nafis va nihoyatda ozoda kiyingan, biroq yoshiga nisbatan kiyinishi bachkanaroq ko'rinsa ham, shunga qaramay o'ziga juda yarashgan edi. U Alyoshaning katta akasi-dek ko'rinardi. Har qalay, uni shu kap-katta yigitning otasi deb bo'lmasdi.

U to'g'ri Natashaning oldiga bordi va unga tik qarab:

– Mening bemahal ogohlantirmasdan kelishim, sizga juda g'alati, odatga xilofdek ko'rinar, biroq umidvormanki, bu keli-shimning noo'rin ekanligiga o'zim iqrorigimga ishonarsiz. Men ham kim bilan suhbatdosh bo'lganimni bilaman. Sizning ziyrak va oliyjanob ekaningizga imonim komil. Menga o'n daqiqagina vaqtingizni hadya eting, ishonamanki, shunda o'zingiz ham ga-pimga tushunasiz va meni oqlaysiz.

Bu gaplarni u odob bilan, ayni vaqtda shiddat bilan, alla-qanday qat'iylik bilan aytdi.

– O'tiring, – dedi Natasha, hali dastlabki xijolat va hadik-sirashdan tamoman qutula olmay.

U yengilgina ta'zim qilib o'tirdi.

– Avvalo, unga bir og‘iz gap aytishga ruxsat eting, – boshladi u o‘g‘lini ko‘rsatib. – Alyosha, sen meni ham kutmay, hech kim bilan xayrlashmay chiqib ketishing bilan Katerina Fedorovna hushidan ketayozganini grafinyaga aytdilar: darhol grafinya Katya oldiga kirmoqchi bo‘lib turgandi, oldimizga Katyaning o‘zi chiqib qoldi. U xafa va qattiq hayajonda edi. U bizga ochiqdan ochiq senga xotin bo‘la olmasligini aytdi. U yana monastirga¹ jo‘namoqchiligini, sen undan yordam so‘raganing va Natalya Nikolaevnani sevganingni izhor etganingni gapirdi... Katerina Fedorovnaning shu vaqtdagi g‘ayritabiiy e‘tirofi, har qalay, uning sen bilan bo‘lgan g‘alati suhbatning oqibatidir. U o‘zini tamom yo‘qotib qo‘ygan edi. Mening qanchalik hayratda qolib, qo‘rqib ketganimni tasavvur etarsan. Hozir o‘tib keta turib derazangizda chiroq ko‘rdim, – davom etdi u Natashaga murojaat qilib, – shunda xayolimni anchadan beri band qilib yurgan bir fikr shu qadar meni qamrab oldiki, bu istakni qaytarishdan o‘zimni ojiz sezdim va huzuringizga kirdim. Nega? Buni hozir ayta-man, biroq iltimos shuki, mening so‘zim dag‘alroq tuyulsa, ajablanmang. Bular shunchalik kutilmagan voqealarki...

– Ishonamanki, gaplaringizni ma‘nisini chaqib... To‘g‘ri xulosa chiqara olarman, – dedi Natasha tutilib.

Knyaz unga tikilib qaradi, go‘yo u bir-ikki daqiqa ichida uni batamom bilib olishga shoshilgandek ko‘rinardi.

– Fahm-u farosatingiz zo‘rligiga imonim komil, – davom etdi u, – modomiki, shu chog‘ oldingizga kirishga jur‘at etdimmi, demak, kim bilan muomala qilayotganimni bilaman. Bir vaqtlar sizga nisbatan g‘oyat noinsoflik qilganim va oldingizda gunohkor bo‘lganimga qaramay, men sizni ko‘pdan beri bilaman. Quloq soling: otangiz bilan oramizdagi eski adovatlardan xabar-dorsiz. O‘zimni oqlamayman: ehtimolki, men otangiz oldida o‘zim o‘ylab yurgandan ham ko‘ra ko‘proq aybdordirman. Basharti shunday bo‘lsa, unda meni aldaganlar. O‘zim badgu-mon odamman, bunga iqrorman ham. Men yaxshilikdan oldin,

¹ **Monastir** (yunoncha: monasterion - chekka, olamlardan uzoqdagi joy) – 1) tarki dunyo qilgan xristianlar – monaxlarning muayyan qoida va me‘yorlar, belgili nizomga amal qilib yashovchi diniy jamoasi; 2) shunday jamoaga qarashli cherkov, turar-joy, yer-mulk va boshqalar (bu yerda shu ma‘noda).

yomonlik kutib, shubhalanaverishga mayli bor odamman. Bu qattiq ko'ngilli odamlarga xos yaramas odat. Biroq o'zimdagi kamchiliklarni bekita olmayman. Men hamma ig'vo gaplarga ishonдим, shuning uchun ham siz ota-onangizdan voz kechib ketganingizni eshitib Alyoshadan qattiq xavotir oldim. Biroq men sizni ham bilmasdim, asta-sekin surishtirib-surishtirib, kim ekaningizni bilganimdan keyin ko'nglim joyiga tushdi. Kuzatdim, o'rgandim, nihoyat, shubhalarim asossiz ekaniga qanoat hosil qildim. Oilangiz bilan bo'lgan janjalingizni ham, otangiz mening o'g'limga tegishingizga tish-tirnog'i bilan qarshi ekanini ham bilaman. Biroq Alyoshaga so'zingizni o'tkaza olishingiz, unga ta'siringiz zo'rligidan foydalanib, uni o'zingizga uylanishga majbur etmaganingizning o'zi, sizning naqadar oliyjanob inson ekaningizni ko'rsatadi. Ochiq aytib qo'ya qolay: o'shanda men o'g'lim bilan turmush qurishingizga bor kuchim bilan qarshilik qilishga urindim. Bilaman, men juda ham ochib gapiryapman, chunki hozirgi sharoit shuni taqozo qiladi. Gapimni oxirigacha eshitsangiz, o'zingiz ham fikrimga qo'shilasiz. Siz uyingizni tark etib ketganingizdan keyin ko'p vaqt o'tmay men ham Peterburgdan ketdim, biroq keta turib men Alyoshadan juda xotirjam edim. Men sizning oliyjanob g'ururingizga ishonardim. Tushundimki, siz oilaviy adovatlarimiz tugamasdan turib nikoh o'qilishini, Alyosha bilan mening munosabatimni buzishni istamasdingiz, chunki Alyosha sizga uylangan taqdirda men uni hech qachon afv etolmasligimni bilardingiz, knyazvachchadan kuyov izlab topibdi, shundan foydalanib uning oilasiga kirib olmoqchi bo'libdi, degan ta'nalarni eshitishni istamasdingiz. Aksincha, bizni nazar-pisand qilmay, o'zim kelib o'g'lim uchun qo'lingizni so'rashimni kutgandirsiz. Biroq men sizga yuzimni teskari o'girib qattiq turib oldim. Men o'zimni oqlab ham o'tirmayman, sabablarini sizdan yashirmayman ham. Chunonchi: siz asilzoda oqsuyaklardan ham emassiz, badavlat ham emassiz, davlatim bo'lgan bilan bizga hali ko'p kerak. Bizning zotimiz so'nib bormoqda. Bizga obro' va pul kerak. Grafinya Zinaida Fedorovnaning o'gay qizi tanish-bilishlari oz bo'lgani bilan juda badavlat. Ozgina kechiksak, uning xaridorlari ko'payib biz quruq

qolar edik. Bunday fursatni qo'ldan bermaslik kerak edi. Shuning uchun Alyoshaning hali yoshligiga qaramay men uni unashtirishga qaror qilgan edim. Ko'rdingizmi, men sizdan hech narsani yashirmayapman. Siz o'z manfaatini ko'zlab va maishiy xurofotlarga berilib, o'z o'g'lini yaramas yo'llarga boshlab, o'zi shunga iqror bo'lgan otaga nafrat bilan qarashingiz mumkin, chunki o'zi oldida shu qadar gunohkor bo'lgan odam uchun har bir narsadan voz kechgan oliyjanob qizni tashlash razillikdir. Bu yerda ham o'zimni oqlamayman. O'g'limni grafinya Zinaida Fedorovna-ning o'gay qiziga uylantirish kerakligining ikkinchi sababi shuki, u qiz, nihoyat, darajada hurmat va muhabbatga sazovordir. U ko'hlik, yaxshi tarbiya olgan, yaxshi xulqli, hali ancha yosh bo'lishiga qaramay, juda ham dono bir qizdir. Alyosha esa bo'sh xarakterli, yengil tabiat, mulohazasiz, yigirma ikki yoshga kirishiga qaramay hali juda ham xom, lekin uning bitta yaxshi tomoni shuki, u juda oqko'ngil, lekin boshqa kamchiliklari bo'lgan kishiga bu fazilat hatto xavflidir. Men allaqachondan beri sezib yuribman, mening bunga ta'sirim yo'qolib bormoqda: jo'shqinlik, yigitlik havaslari baland, ba'zi bir zaruriy burchlardan ham ustun kelmoqda. Men, balki, uni juda qattiq sevarman, lekin shunga iqrormanki, bitta mening rahbarligim unga kamlik qilmoqda. U, albatta, birovning muttasil, sharofatli ta'siri ostida bo'lishi kerak. U itoatli, ojiz, sevuvchan, birovga amr berishdan ko'ra sevish va bo'ysunishni afzal ko'radi. U bir umr bo'yi shu ko'yi qolaveradi. Men Katerina Fedorovnada, o'g'limga olib bermoqchi bo'lgan qizda bo'lishini xohlagan eng yuksak fazilat-larni ko'rib naqadar quvonganimni ko'z oldingizga keltirsangiz kerak. Biroq men vaqt o'tgandan keyin xursand bo'lib yuribman. U endi yemirilmas kuchli bir ta'sirot – sizning ta'siringiz ostiga tushib qoldi. Men bundan bir oy ilgari Peterburgdan qaytgach, unga zehn solib yurdim va unda yaxshi tomonga burilish borligini taajjub bilan sezdim. Yengiltakligi, bolaligi hali ham qolmagan, biroq unda bir qancha yaxshi fazilatlar paydo bo'libdi. U endi faqat o'yinchoqlar bilangina emas, yuksaklik, oliyjanoblik, sofdillik bilan ham qiziqqa boshlabdi. Uning g'oyasida sabot yo'q va ba'zan bema'ni, ammo niyati xolis, qalbi yaxshi, bu esa

hamma narsaga poydevordir. Mana shu oliyjanob fazilatlari, shubhasiz, sizning ta'siringiz samarasidir. Siz uni qaytadan tarbiyaladingiz. O'shandayoq uning baxt-saodati uchun hammadan ham siz ko'proq unga mos tushardingiz degan bir fikr xayolimdan o'tgan ham edi. Biroq men bu fikrni miyamdan chiqarib yubordim, bunday fikr yuritishni istamadim. Qanday bo'lsa ham, men uni sizdan sovitishim kerak edi; men shunga urindim, murodimga yetdim deb o'yladim. Bundan bir soat muqaddam ham zafar men tomonda deb o'ylagan edim. Biroq grafinya uyida sodir bo'lgan hodisa hamma mo'ljallarimizni ostin-ustun qilib tashladi. Alyoshadagi ajoyib jiddiylik, sizga bo'lgan mehr-muhabbatining qat'iyligi, shu mehrning sobitligi, jonliligi meni tong qoldirdi. Takror aytaman: siz uni boshqatdan tarbiyalabsiz. Uning o'zgarishi, men o'ylagandan ko'ra ham tez sur'at bilan olg'a ketayotganini birdan ko'rib qoldim. Bugun u mening oldimda, men undan hech qachon kutmagan fahm-farosat, shu bilan birga ta'bining haddan tashqari nozikligini va vafodorligini ko'rsatdi. Nihoyatda mushkul ko'ringan bir ahvoldan chiqish uchun u eng to'g'ri yo'lni topdi. U inson qalbining eng oliyjanob qobiliyatini, ya'ni afv eta olish va yovuzlikka oliyjanoblik bilan javob berish qobiliyatini uyg'otdi. U o'zi tomonidan ranjitilgan bir inson hukmi ostiga kirdi, undan yordam va iltifot kutdi. U endi o'zini sevib qolgan ayolga uning raqibasi borligini aytib, shu bilan birga, o'z raqibasiga nisbatan uning qalbida xayrixohlik tug'dirdi, o'zi uchun afv so'rab, beg'araz aka-uka tutinish to'g'risida va'dasini olib, ayollik g'ururini qo'zg'ata oldi. Kishini haqorat etmay, ko'nglini og'ritmay o'z maqsadini bunday izhor eta bilish ba'zan eng epchil donolarning ham qo'lidan kelavermaydi, bu xislat faqat ko'ngli toza, to'g'ri yo'lni topib olgan insonlardagina bo'ladi. Men shunga aminmanki, Natalya Nikolaevna, u bugun sizning maslahatingizsiz shu ishning uddasidan chiqdi. Balki, bularni hozirgina uning o'zidan eshitib turgandirsiz, yanglishmadimmi?

– Yanglishmadingiz, – takrorladi, yuzlari lovullab, ko'zlari allaqanaqa ilhom nuri bilan chaqnayotgan Natasha. Knyazning xatti-harakati o'z ta'sirini ko'rsata boshlagan edi. – Men

Alyoshani besh kundan beri ko'rganim yo'q, – qo'shib qo'ydi u. Hammasini o'zi o'ylab topib, o'zi qilibdi.

– Shubhasiz, shundoq, – dedi knyaz. – Biroq shunga qaramay, uning mana bu kutilmagan ziyrakligi, mana bu qat'iyligi, o'z burchini tushunishi, nihoyat, mana bu oliyjanob mato-nati, hammasi sizning ta'siringiz natijasidir. Bularning hamma-sini men hozir uyga keta turib tushunib oldim. O'ylab-o'ylab birdan o'zim qat'iy bir qarorga kelishga jazm qildim. Grafinya bilan quda bo'lish rejalarim batamom barbod bo'ldi, endi singan nonni butun qilib bo'lmaydi, bo'lishi, ehtimol, bo'lgan taqdirda ham bundan so'ng Alyoshaga u yerga borish mumkin emas. Na choraki, yolg'iz sizgina o'g'limni baxtli qila olishingizga, sizgina uning chin rahbari, siz endi uning istiqboliga yo'l ochganingizga o'zim qat'iy ishongan bo'lsam! Men sizdan hech narsani yashir-madim va yashirmayman ham. To'g'ri, men pul-davlatni, asilzo-da bo'lishni va hatto amaldorlikni jonimdan ham yaxshi ko'ra-man, shulardan ko'pi bid'at ekanini ham tushunib turaman, biroq shu bid'atlarni yaxshi ko'raman va ulardan yuz o'girishni ista-mayman. Biroq shunday paytlar ham keladiki, bunda boshqa mu-lohazalarga ham yo'l qo'yish kerak, besh qo'l barobar emas. Undan tashqari, men o'g'limni qattiq sevaman. Xullas, men shundoq xulosaga keldimki, Alyosha sizdan ajralmasligi kerak, aks holda u xarob bo'ladi. Ochig'ini aytaymi? Bir oy bo'ldi, shu qarorga kelganman, lekin bu qarorga uzil-kesil kelganligimni shu bugun angladim. Bu fikrlarni aytish uchun yarim kechada sizni bezovta qilmasdan huzuringizga ertaga kelsam ham bo'lar edi, lekin mening bu shoshqaloqligim, ehtimol, meni shu ishga qan-chalik qizg'in, chin yurakdan kirishayotganimni sizga ko'rsatar. Men yosh bola emasman; bu yoshimda men o'ylamasdan bir ish qilolmayman ham. Men bu yerga kirganimda hamma narsa hal etilgan va obdan o'ylab chiqilgan edi. Ammo mening samimiy-ligimga sizni batamom ishontirish uchun ancha kutishga to'g'ri keladi, shekilli. Endi gapdan ishga o'tish kerak. Nima uchun bu yerga kelganimni bayon etaymi? Sizning oldingizda o'z burchimni ado etish uchun keldim. Sizga cheksiz hurmatimni izhor etib, o'g'limni baxtiyor etmog'ingizni, unga rafiqa bo'lish-

ga rozilik bermog'ingizni so'rayman. Ammo meni, nihoyat, bolalarining gunohidan o'tib, rahm-shafqat yuzasidangina ularning baxti-saodatiga yo'l ochgani kelgan zolim otalardan hisoblamang. Yo'q, yo'q! Agar shundoq deb o'ylasangiz, meni haqorat qilgan bo'lasiz. O'g'lim uchun shunchalik fidokorlik qilganningizga asoslanib rozilik berishingizga oldindan ishonib qolgan deb o'ylamang meni, yo'q, bunday emas! Men o'zim birinchi bo'lib ovozimni baralla qo'yib aytamanki, u sizning tirnog'ingizga ham arzimaydi. (U oqko'ngil, yuvosh) Va buni o'zi ham tasdiqlay oladi. Biroq bu ham oz. Meni bemahalda shu mulohazagina bu yerga boshlab kelgani yo'q... Meni bu yerga... (u tavoze va dabdaba bilan o'rnidan qo'zg'alib o'tirdi), men bu yerga sizga do'st bo'lish uchun keldim! Bu baxtga sazovor bo'lishga hech qanaqa haqqim yo'q, aksincha! Biroq shu baxtga sazovor bo'lishga ijozat bering! Ishonishga ruxsat bering!

Knyaz Natasha ro'parasida takalluf bilan bosh egib uning javobini kutardi. U hamma gapni gapirib bo'lguncha men unga zehn solib qarab o'tirdim. U buni sezib qoldi.

U o'zining sovuq nutqiga munozara va tortishuv ohangini berishga tirishar, ba'zan pala-partish gapirardi. Hatto ba'zan gapining ohangi, uni shu bemahalda bizning oldimizga kelib, ayniqsa, ikki oradagi munosabat shunday nozik bo'lgan mahalda aytgan jo'shqin so'zlariga mos kelmas edi. Uning ba'zi bir iboralarini yasama, gapni cho'zgani cho'zgan, u o'z hislarini yashirish uchun o'zini go'llikka solib, qiziqchilik qilmoqchiday bo'lardi. Bularning hammasini men keyin fahmladim. U oxirgi so'zini shu qadar baland ruh bilan, shu qadar berilib, Natashaga nisbatan shu qadar hurmat bilan gapirdiki, hammamiz ham erib ketdik. Hatto uning kipriklarida yosh ham paydo bo'lgandek bo'ldi. Natasha-ning oliyjanob qalbi tamom erigan edi. Natasha unga ergashib o'rnidan turdi va indamasdan, chuqur hayajon ichida unga qo'lini cho'zdi. Knyaz nazokat va muhabbat bilan uning qo'lini o'pdi. Alyosha esa terisiga sig'mas edi.

— Senga aytmaganmidim, Natasha! — dedi u qichqirib. — Menga ishonmagan eding! Dunyoda eng oliyjanob odam desam sen ishonmagan eding! Ko'rdingmi, o'z ko'zing bilan ko'rding-

mi!..

U otasi bag'riga o'zini otib, uni mahkam quchoqlab oldi. Otasi ham uni ko'ksiga bosdi. Lekin o'zining hislarini oshkor qilishdan uyalgandek ko'ngilni eritadigan gaplarni tezroq qisqartishga shoshildi.

– Bo'ldi, bas, – dedi u shlyapasini olib, – men ketdim, men sizlardan o'n daqiqagagina ijozat so'ragan edim, bir soatga cho'zilib ketdi, – qo'shib qo'ydi u jilmayib. – Biroq men ketyapman-u, lekin siz bilan qaytadan uchrashishni sabrsizlik bilan kutaman. Sizni bot-bot ziyorat etishga ruxsat etasizmi?

– Ha, ha! Tez-tez kelib turing! Men ham sizni tezroq... sevishni istayman... – qo'shib qo'ydi u dovdirab.

– Naqadar rostgo'y, naqadar pokizasiz! – dedi knyaz uning so'zlaridan kulib. – Siz hatto oddiy nazokat uchun ham quvlik qilishni istamaysiz. Ammo sizning samimiyligingiz ana u hamma nazokatlardan ming marta ortiq. Shunday! Men shunga iqrormanki, sizning muhabbatingizga sazovor bo'lish uchun ham uzoq, juda uzoq vaqt kerak!

– Bas, meni ko'p maqtamang... yetar! – shivirladi xijolat tortib Natasha. O, naqadar go'zal edi shu damda Natasha!

– Mayli, bo'lmasa! – dedi knyaz, – yana bir-ikki og'iz gap bor. Qarang men bechorani! Axir, ertaga huzuringizga kelolmayman, ertaga ham, indinga ham. Bugun kechqurun men zarur bir maktub oldimki (bir ishda to'xtovsiz meni ishtirokim talab etiladi), bormaslikning hech iloji yo'q. Men ertaga ertalab Peterburgdan jo'nab ketaman. Lekin iltimos qilaman, ko'nglingizga, erta-indin vaqti bo'lmagani uchun shu bemahalda kelibdi-da, degan gap kelmasin. Balki, shu gap sizning xayolingizga ham kelmayotgandir. Biroq bu ham mening badgumonligimning bir alomati! Nima uchun miyamga siz shunday xayolga borasiz degan fikr keldi? Ha, mening bu vasvasaligim hayotimda juda ko'p xalaqit berdi, balki, sizning oilangiz bilan arazlashib qolishimiz ham faqat mana shu mening nojo'ya fe'li-atvorim tufaylidir!.. Bugun seshanba. Chorshanba, payshanba va juma kunlari men Peterburgda bo'lmayman. Shanba kuni, shak-shubhasiz, qaytaman va shu kuniyoq siznikiga kelaman. Ayting-chi, o'sha

kuni butun oqshomni sizlar bilan o'tkazsam bo'ladimi?

– Albatta, albatta! – dedi Natasha shoshilib, – shanba kuni kechqurun sizni kutaman! Sabrsizlik bilan kutaman.

– O, naqadar baxtli odamman! Ko'rishgan sari bir-birimizni sinayveramiz! Mayli... Ketdim! Lekin sizning qo'lingizni qismasdan ketolmayman, – dedi u birdan menga yuzlanib. – Kechiring! Biz hammamiz shundoq telva-teskari gaplashyapmizki... Men siz bilan bir necha bor uchrashishga musharraf bo'lganman, hatto bizni tanishtirganlar ham. Siz bilan boshqatdan tanishish men uchun qanchalik sharaf ekanini izhor etmay bu yerdan ketolmayman.

– Rost, siz bilan uchrashganmiz, – javob berdim men uning qo'lini olib, – lekin, uzr, siz bilan tanishganimiz yodimda yo'q.

– O'tgan yili knyaz R.nikida.

– Kechirasiz, unutibman. Ammo bu galgisini esimdan chiqarmayman. Bu oqshom, ayniqsa, unutilmaydigan oqshom bo'ldi.

– Ha, haqlisiz, men uchun ham shundoq. Siz Natalya Nikolaevnaning va o'g'limning chinakam, samimiy do'sti ekaningizni men allaqachonlardan beri bilaman. Uch do'st ichida to'rtinchisi bo'lishimga ishonaman, shundoq emasmi? – qo'shib qo'ydi u Natashaga murojaat qilib.

– Ha, u bizning eng yaqin do'stimiz, biz hammamiz birga bo'lishimiz kerak! – javob berdi Natasha chuqur hayajon bilan. Bechoraginam! Knyaz menga iltifot qilishni unutmaganini ko'rib shodligidan ko'zlari chaqnab ketdi. Meni qanchalik yaxshi ko'rardi u.

– Sizning iste'dodingizga qoyil qolganlarning juda ko'pi ni uchratganman, – davom etdi knyaz, – sizga qattiq ixlosmand bo'lgan ikkita ayolni ham bilaman. Siz bilan shaxsan tanishish ular uchun katta baxt bo'ladi. Ular, mening eng yaxshi do'stim grafinya va uning o'gay qizi Katerina Fedorovna Filimonovalar. Sizni shu xonimlar bilan tanishtirish sharafiga noil bo'lishimga ishonishga ijozat bering.

– Tanishlarim ko'p bo'lmasa-da, g'oyat xursandman.

– Ammo menga manzilingizni berasiz! Qayerda turasiz? Xursand bo'lardim...

– Men o'z uyimda qabul qilmayman, knyaz, ayniqsa, hozirgi paytlarda.

– Men alohida hurmatga sazovor bo'lganlar qatorida bo'lmasam ham, ammo...

– Marhamat, marhamat, agar siz shuni talab etsangiz, men juda mamnun bo'laman. Men M. ko'cha, Klugen hovlisida turaman.

– Klugennikida! – deb yubordi u xuddi bir narsadan ajablangandek. – Qanday qilib! Ko'pdan beri u yerda turasizmi?

– Yo'q, yaqindan beri, – javob berdim men ixtiyorsiz unga tikilib, – qirq to'rtinchi nomerda turaman.

– Qirq to'rtinchi? Yolg'iz turasizmi?

– Yolg'iz o'zim.

– Hm! Men shu hovlini... Bilaman, chamamda. Tag'in, yaxshi... Men, albatta, boraman, albatta! Siz bilan gaplashadigan ko'p gaplarim bor, sizdan ko'p narsa kutaman. Siz meni ko'p narsadan mamnun qila olasiz. Ko'rdingizmi, men to'g'ridan to'g'ri iltimosdan boshlayapman. Xo'p, xayr! Yana bir qo'lingizni bering!

U meni va Alyoshaning qo'lini qisdi, Natashaning qo'lini yana bir marta o'pdi. Alyoshaga «yur» ham demay chiqib ketdi.

Bu hodisa hech kutilmagan vaqtda qo'qqisdan sodir bo'lgan edi. Uchalamiz ham hang-mang bo'lib qoldik.

Hammamiz ham bir zumda hamma narsa o'zgarib ketib, allaqanday yangi, misli ko'rilmagan bir voqea sodir bo'lishini sezardik. Alyosha indamasdan Natasha yoniga o'tirdi va asta-asta uning qo'lini o'pa boshladi. Nima der ekan degandek har zamonda uning aftiga qarab qo'yar edi.

– Alyosham, jonginam, ertagayoq Katerina Fedorovna oldiga bor, – dedi u nihoyat.

– O'zim ham shunday deb o'ylayapman, – javob berdi u, – albatta, boraman.

– Balki, seni ko'rish unga qiyin bo'larmikin... Nima qilsak ekan-a?

– Bilmadim, azizim. Shu haqda men ham o'ylayotgan edim. Ko'raman-da... O'shanda hal qilaman. Ha, endi Natasha, hamma ishlarimiz boshqacha bo'lib ketdi-ku, – dedi sabri chidamay Alyosha.

Natasha tabassum qildi. Alyoshaga uzoq va nozli tikildi.

– Uning sipoligini ham ko'rdingmi? Sening uying faqiro-naligini ko'rsa ham indamadi.

– Nima deyishi kerak edi?

– Endi-da, boshqa kvartiraga ko'chib o'tish yoki shunga o'xshash bir gap, – qo'shib qo'ydi Alyosha qizarib-bo'zarib.

– Qo'ysang-chi, Alyosha, nega unday desin!

– Shuni aytyapman-da, sipo deb. Seni qanday maqtadi-ya! Aytgan edimmi senga... aytgan edim! Yo'q, rostdan ham u hammasini tushunib, sezib turadi! Mening to'g'rimda esa xuddi yosh bola to'g'risida gapirgandek gapirdi; hammalari meni bola deb hisoblaydi! Nima ham qilardim, rostdan ham o'zim shundoqman-da.

– Sen yosh bola bo'lganing bilan hammadan ko'ra ziyrak-roqsan. Oqko'ngilsan, Alyosha!

– U esa, oqko'ngilliligi o'ziga zarar, deydi. Bu nima degani? Tushunmayman. Bilasanmi, Natasha, men darhol uning oldi-ga borsammikin-a? Ertalab azonda oldingga yetib kelaman.

– Bor, bora qol, jonim. Buni to'g'ri o'ylabsan. Albatta, uning ko'ziga ko'rin, xo'pmi? Ertaga mumkin qadar tezroq kel. Endi mendan besh kunlab qochib yurmaysanmi? – qo'shib qo'ydi Natasha makr va noz bilan unga boqib. Hammamiz ham alla-qanday sokin va kuchli shodlik quchog'ida edik.

– Men bilan ketasizmi, Vanya? – qichqirdi Alyosha uydan chiqa turib.

– Yo'q, u qoladi; biz sen bilan hali gaplashamiz, Vanya. Alyosha, ertaga azonda kel.

– Azonda kelaman! Xayr, Mavra!

Mavra qattiq hayajonda edi, u knyazning hamma gaplarini eshitibdi, eshik orqasidan quloq solib eshitib olibdi, lekin ko'p gapiga tushunmabdi. U so'roqlab bilib olishni istardi, lekin o'zini mag'rur tutib qarab turardi. Ko'p o'zgarishlar ro'y berganini u

ham payqagan edi.

Biz o'zimiz qoldik. Natasha mening qo'limni ushladi-yu, aytishga so'z axtarayotgandek anchagacha jim o'tirdi.

– Horidim! – dedi u nihoyat past ovoz bilan, – menga qara, sen crtaga biznikilarga bormoqchisan-a?

– Shubhasiz.

– Oyimga aytgin-u, unga aytmay qo'ya qol.

– Hali ham men u bilan sening haqingda hech narsa gaplashmayman.

– Ha, tuzuk, u, aytnasang ham, bilib oladi. Sen zehn solchi, u nima der ekan? Qanday qabul qilarkan? Ey Xudo, Vanya! Nahotki u rostdan ham shu nikoh uchun meni «oq» qilsa? Yo'q, bu mumkin emas!

– Hammasini knyazning o'zi to'g'rilashi kerak, – dedim men shoshilib. – U, albatta, otang bilan yarashishi kerak, o'shanda hammasi joyiga tushadi.

– Yo tangrim! Koshkiydi! Koshkiydi! – deb nido qildi Natasha yolvorganday.

– Xotirjam bo'l, Natasha, hamma ish o'nglanib ketadi. Shunaqa bo'ladiganga o'xshaydi.

U menga tikilib qaradi.

– Vanya! Knyaz haqida sen nima deb o'ylaysan?

– Agar u chin ko'ngildan gapirgan bo'lsa, u holda u juda oliyjanob odam.

– Chin ko'ngildan aytgan bo'lsa dedingmi? Buni nima deb tushunsa bo'ladi? Axir, chin ko'ngildan aytnasligi ham mumkinmi?

– Menga ham shundoq tuyulyapti, – deb javob berdim men. «Demak, ko'ngliga bir gap kelibdi-da, – deb o'yladim men, o'zimcha. – Tavba!»

– Sen unga shunday tikilib o'tirdingki... shunday tikildingki...

– Ha, g'alatiroq odamga o'xshaydi. Menga shundan ko'rindi.

– Menga ham. U hamma gapni g'alati qilib gapirdiki, charchadim, azizim, charchadim. Bilasanmi, Vanya? Bor, sen

ham uyingga bor. Ertaga, iloji bo'lsa, ularnikidan bu yerga vaqtliroq kel. Qani, ayt-chi, hali, men sizni tezroq sevishni istayman deganim unga qattiq tegmadimikan!

– Yo'q... nega qattiq tegsin?

– Tag'in... xunuk chiqmadimi? Bu so'zdan, hozircha men sizni yaxshi ko'rmayman, degan ma'no chiqadi-da, a?

– Aksincha, bu gap juda ham chiroyli chiqdi, soddadillik bilan aytili. O'sha daqiqa sen shu qadar go'zal eding, Natasha! Asilzodaligi bilan shuni tushunmasa, befarosat ekan.

– Vanya, sen undan xafaga o'xshaysan-a? Qara, qanchalik o'zim tentak, badgumon va maqtanchiqman-a! Kulma, axir, men sendan hech narsa yashirolmayman. Eh, Vanya, o'zimning do'stinginam! Agar men yana baxtsiz bo'lsam, boshimga bir kulfat tushsa, yana kunimga o'zing yaraysan, sengina yonimda bo'lasan, azizim! Nima bilan men sening hamma yaxshiliklaringni qaytaraman, Vanya! Mendan hech qachon xafa bo'lma, Vanya!..

Uyga kelgach, men shu zahoti yechinib yotdim. Uyim yerto'ladek zax va qorong'i edi. Juda alomat fikr va tuyg'ular chulg'ab oldi meni, uzoq vaqt uxlay olmadim.

Ammo shu daqiqaning o'zida boshqa bir zot, o'zining par to'shaklarida uyquga keta turib o'zicha toza kulgandir, basharti biz, nazarida, kulishga arzigan bo'lsak, balki, bizni kulishga ham loyiq topmagandir!

III BOB

Ertasiga ertalab soat o'nlarda Vasilevskiy oroliga borish uchun uydan shoshib chiqdim, men u yerda Ixmenevlarnikiga kirib, u yerdan darhol Natashanikiga jo'nashim kerak edi. Eshikda kechagi mehmonimga, Smitning nevarasiga duch kelib qoldim. U biznikiga kirib kelayotgan ekan. O'zim bilmayman, lekin uning kelishidan juda quvonib ketganim esimda bor. Kecha unga tuzukroq razm solishga ulgurmagan edim. Bugun kunduzi men uni yaxshiroq ko'rib oldim. Faqat sirtqi qiyofasigagina qarab gapirganda bu kabi juda ajoyib va g'aroyib qizchani uchratish

qiyin edi, albatta. O'zi ushoqqina, allaqanday, ruslarnikiga o'xshamagan qop-qora shahlo ko'zlari bilan, qalin tim qora jingalak sochlari bilan va sirli, so'zsiz tikilib boqishi bilan u ko'chada o'tib ketayotgan har qanaqa kishining ham diqqatini o'ziga jalb etar edi. Ayniqsa, uning qarashi ajoyib: ko'zlarida aql-idrok nuri porlaydi, shu bilan bir qatorda qandaydir ishonchsizlik va hatto gumonsirash ifodasi bor. Uning eskirgan, kir bo'lib ketgan kiyimlari yorug'da kechagidan battar juldur-juldur ko'rinar edi. Mening nazarimda, u vujudini asta-sekin va shafqatsiz yemirib boruvchi qandaydir uzun og'riq kasalga muhtalo bo'lsa kerak. Uning rangsiz, qoracha oriqli yuzi za'farondek edi. Ammo haddan tashqari kambag'alligiga, kasalmandligiga qaramay, u kelishgangina qiz edi. Uning qoshlari qalamdek ingichka va chiroyli, ayniqsa, biroz qiya keng peshonasi chiroyli, sal-sal qizil rangsiz lablari ham chiroyli edi.

– E, yana keldingmi? – deb yubordim, – o'zim ham kelarsan deb o'ylagandim, qani kir!

U xuddi kechagidek atrofga ishonchsizlik bilan alanglaganicha ostonadan astagina hatlab uyga kirdi. U boshqa birov kelib joylashishi bilan bobosi turgan uyda qanday o'zgarish yuz berganini payqamoqchi bo'lgandek diqqat bilan uyni ko'zdan kechirdi. «Bobosi qanaqa bo'lsa, nabirasi ham xuddi shunaqa-ya, tavba», – deb o'yladim, o'zimcha. – Jinni emasmikan-a?» U hamon indamasdi, men gapirishini kutib turardim.

– Kitoblaringma keldim, – dedi u sekingina ko'zlarini yerga tikib.

– Ha, aytgandek! Sening kitoblaring-a; mana ola qol! Men ularni ataylab sen uchun saqlab qo'yganman.

U menga ishonchsizlik bilan qaradi, lablarini qiyshaytirib kulmoqchi edi-yu, biroq kulgi asari yo'qolib, ko'zlarida boyagi serzarda va sirli ifoda paydo bo'ldi.

– Bobom sizga mening to'g'rimda gapirganmidi? – so'radi boshimdan oyog'imgacha kinoyaomuz tikilib.

– Yo'q, sening to'g'ringda hech narsa degan emas, lekin u...

– Yo'qsa mening kelishimni qayoqdan bilgan edingiz?

Sizga kim aytdi? – U shoshilinch bilan so‘radi, mening so‘zimni bo‘lib.

– Chunki bobong juda keksayib qolgan ojiz odam edi, menimcha, u shu ahvolda, birov qaramasa, yashay olmasdi. Mana shuning uchun men uning oldiga biror kishi kelib tursa kerak deb o‘ylardim. Mana kitoblaring. Ma, ol, sen shularni o‘qirmiding?

– Yo‘q.

– Yo‘qsa ularning senga nima keragi bor?

– Men bobomning oldiga kelib turgan mahallarimda u meni o‘qitar edi.

– Keyin kelmay qo‘yganmiding?

– Keyin kelmay qo‘ygandim... Kasal bo‘lib qoldim, – qo‘shib qo‘ydi o‘zini oqlamoqchi bo‘lgandek.

– Kiming bor? Ota-onang bormi?

U birdan qoshlarini chimirib oldi, qo‘rquv aralash menga qaradi. Keyin boshini quyi solganicha orqasiga burildi-da, xuddi kechagidagidek gapimga javob ham bermay sekingina uydan chiqib keta boshladi. Men taajjublanganimcha orqasidan qarab qoldim. Keyin u ostonada to‘xtadi.

– U nimadan o‘ldi? – so‘radi u keskin ohangda menga yarim o‘girilib. Kecha ham xuddi mana shunday chiqib keta turib orqasini o‘girganicha shu zaylda Azorkani so‘ragan edi.

Men oldiga bordim, ko‘rganimni naridan beri hikoya qila boshladim. U orqasini o‘girgan holda boshini quyi solib, indamay quloq soldi. Men yana chol o‘la turib Oltinchi liniya haqida gapirganini aytdim. «Men, bunga yaqin odamlardan biror kishi o‘sha yerda yashasa kerak deb xulosa chiqardim, bir kunmas bir kun uni yo‘qlab kelib qolar-ku, deb kutdim. Mana, u oxirgi daqiqalarda seni tilga oldimi, demak, seni yaxshi ko‘rarkan», – dedim.

– Yo‘q, – shivirladi u g‘ayriixtiyoriy ravishda, – u meni yaxshi ko‘rmasdi.

U qattiq hayajonlangan edi. Men gapirib turib uning yuziga engashib qaradim. U hayajonlaganini menga bildirib qo‘yishdan uyalgandek o‘zini tutib olishga urinayotganini sezdim. U borgan sari oqarar, quyi labini tishlar edi. Hammadan ham yura-

gining tepishi meni hayratlantirdi. Uning yuragi shu qadar qattiq dukullab ura boshladiki, xuddi qizil qon tomirlari shishgan odamnikidek ikki qadam narida turgan odamga ham bermalol eshitilar edi. Men uni kechagiga o'xshab o'pkasi to'lib yig'lab yuborar, deb turgan edim, lekin u o'zini bosib oldi.

– U devor qayerda?

– Qanaqa devor?

– Bobom tagida o'lgan devor?

– Ko'chaga chiqqanimizdan keyin men u yerni ko'rsatib qo'yaman. Menga qara, qizgina, sening isming nima?

– Kerakmas...

– Nima, kerakmas?

– Kerakmas, hech narsa kerak emas... Otimni bilishingiz ham kerakmas! – U entikib-entikib javob berdi, ketmoqchi bo'lib turgandi, men uni to'xtatdim.

– To'xta, g'alati qiz ekansan-ku! Axir, men senga yaxshilik qilmoqchiman; kecha anovi burchakda turib yig'laganing esimga tushsa, yuragim ezilib ketadi. Buning ustiga bobong mening qo'limda jon berdi. Ehtimol, bobong Oltinchi liniyani gapirganda seni eslagandir, bu, seni menga topshirib ketdi degan so'z. U mening tushlarimga kiradi... Mana kitoblaringni ham saqlab qo'ydim. Sen esa yovvoyidek mendan qo'rqasan. Nazarimda, juda ham kambag'alga o'xshaysan, yetimcha bo'lsang kerak, balki, birovlarining eshigida yurgandirsan, shunday emasmi?

Men qizishib gapirdim, unga nega shunchalik rahmdillik qilayotganimni o'zim ham bilmasdim. Mening hislarimda unga achinishdan ham boshqa yana allaqanday his bor edi. Bilmayman, umuman sharoitning sirliligimi, Smitning menda qoldirgan taassurotlarimi, qalbmida yuz berayotgan sirli holatmi, ishqilib, ifodalab bo'lmaydigan qandaydir bir kuch meni unga tortar edi. Mening so'zlarim uning ko'nglini ko'tardi, shekilli, menga g'azab bilan emas, mayinlik bilan uzoq tikildi, keyin yana o'ylan-qirab yerga qarab oldi.

– Yelena, – shivirladi u, kutilmaganda juda ham past ovoz bilan.

– Sening isming Yelenami?

– Ha...

– Xo'sh, endi mening oldimga kelib turasanmi?

– Mumkinmas... bilmayman... kelaman, – shivirladi u bir qarorga kela olmagandek. Shu daqiqa qayerdadir devor soati zang ura boshladi. U cho'chib tushdi va so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydigan qayg'u-hasrat-la menga qarab:

– Soat necha bo'ldiykin? – dedi.

– O'n yarim bo'lsa kerak.

– Ey Xudo! – deb yubordi va birdan chopganicha chiqib ketdi. Men uni yo'lakda to'xtatdim.

– Seni shunday qo'yib yubormayman, – dedim, – nimadan qo'rqupsan? Kechga qoldingmi?

– Ha, men bildirmasdan ketganman! Qo'yib yuboring! U meni uradi! – deb baqirdi, chamasi, og'zidan chiqib ketganini o'zi ham bilmay qoldi, shekilli; u qo'limdan chiqib ketishga urinardi.

– Shoshma, yulqinaverma, sen Vasilevskiy tomonga borasan-ku, men ham o'sha tomonga, O'n uchinchi liniyaga borishim kerak. Men ham kechikib qoldim, izvoshda bormoqchiman. Men bilan ketasanmi? Men olib borib qo'yaman. Piyoda yurgandan ko'ra tezroq yetib borasan.

– Yo'q. Men turgan joyga borib bo'lmaydi, asti borib bo'lmaydi! – deb baqirdi u battarroq qo'rqib. Negadir u turgan joyga mening borishim mumkinligini o'ylab qattiq qo'rqib ketdi.

– Men senikiga emas, o'z ishim bilan O'n uchinchi liniyaga bormoqchiman! Orqangdan bormayman, izvoshda tezroq yetib boramiz. Ketdik!

Biz tez-tez yurib pastga tushdik. Men xarob bir ot qo'shilgan, birinchi uchragan izvoshni oldim. Modomiki, Yelena men bilan o'tirishga rozi bo'ldimi, demak, rostdan ham u juda shoshilayotgan ekan. Men undan bir og'iz gap so'rashga jur'at etolmas edim, bu juda shubhali edi. «Uyda kimdan shuncha qo'rqupsan?» – deb so'raganimda u qo'llarini silkitib izvoshdan sakrab tushishiga sal qoldi. «Shunchalik sir saqlaydi-ya!» – deb o'yladim, o'zimcha. Izvoshda o'tirish unga juda o'ng'aysiz edi. Har silkinganda u yiqilib ketmaslik uchun o'zining irkit, kichkina,

yorilib ketgan chap qo'li bilan mening paltomga yopishib olardi. Ikkinchi qo'li bilan u kitoblarini mahkam bag'riga bosib o'tirar, kitoblari unga naqadar aziz ekani ko'rinib turar edi. O'mashib o'tirmoqchi bo'lgan edi, birdan oyog'i ochilib ketdi; uning oyog'ida paypog'i yo'qligi, yalang oyog'iga yirtiq-yamoq choriq kiyib olgani meni hayron qoldirdi. Men unga savol bermaslikka qaror qilgandim, lekin buni ko'rganimdan kyoyin o'zimni to'xtatolmadim.

– Nahotki paypog'ing ham yo'q-a? – so'radim men. – Mana shu rutubatli, sovuq havoda paypoqsiz yurib bo'ladimi?

– Yo'q, – dedi u shartta.

– E Xudoyim, sen birovning eshigida yurasan! Axir, ko'chaga chiqishing kerak ekan, o'shalardan so'rab ola qolmaysanmi?

– So'ragim kelmadi.

– Kasal bo'lib, o'lib qolsang, nima bo'ladi?

– Mayli, o'lsam.

Chamamda, javob berishni istamasdi, savol bersam, achchig'lanar edi.

– Mana shu yerda u vafot etdi, – dedim men chol o'lgan uy devorini ko'rsatib.

U diqqat bilan tikilib qaradi va birdan menga o'girildi-yu, yalinib-yolvordi:

– Xudo haqqi, orqamdan bormang, men o'zim kelaman, kelaman, albatta! Ilojini topgan zahoti kelaman.

– Xo'p, xo'p, aytdim-ku senga, bormayman deb, lekin nimadan shuncha qo'rqasan! Rostdan ham baxtsiz qiz bo'lsang kerak. Senga qarasam, yuragim ezilib ketadi...

– Men hech kimdan qo'rqmayman, – dedi u g'alati bir asabiylik bilan.

Lekin hali o'zing: «U meni uradi!» – deganding-ku!

– Ursa, uraversin! – javob berdi ko'zlarini chaqnatib, – uraversin! Uraversin! – deb takrorladi iztirob bilan. Uning yuqorigi labi allaqanday nafrat bilan ko'tarilib titrardi.

Nihoyat, biz Vasilvskiyga yetib keldik. U Oltinchi liniya boshida izvoshchini to'xtatdi va jonsaraklik bilan u yoq-bu yoqqa

alanglaganicha izvoshdan sakrab tushdi.

– Tezroq jo‘nang, men o‘zim kelaman, kelaman!.. – takrorladi u qattiq bezovtalanib, orqasidan bormasligimni o‘tinib. – Tezroq jo‘nay qolsangiz-chi, bo‘ling tezroq!

Men ketdim. Lekin qirg‘oq yoqalab bir necha qadam yurganimdan keyin izvoshchiga javob berib yubordim-da, orqamga, Oltinchi liniyaga qaytib ko‘chaning narigi betiga o‘tib oldim. Men qizchani ko‘rdim; u atrofga olazarak bo‘lib, tez-tez qadam tashlab ketayotgan bo‘lsa ham, hali uzoqqa ketolmagan edi. Hatto, men orqasidan kelayotgan, kelmayotganligimni yaxshilab bilish uchun u bir zum to‘xtab ham oldi; men ro‘paramdagi darvozaga kirib bekinib turdim, u meni payqamadi. U yo‘lida davom etdi, men esa ko‘chaning bu betida hamon orqasidan borar edim.

Menda haddan tashqari kuchli qiziqish uyg‘ongan edi. Garchi men uning orqasidan uyiga kirmaslikka qaror qilgan bo‘lsam ham, lekin har ehtimolga qarshi uning kirgan hovlisini bilib qo‘ymoqchi edim. Men endi qandolat do‘konida Azorka o‘lgan paytdagi cholning menda qoldirgan taassurotiga o‘xshash og‘ir va tushunib bo‘lmaydigan bir taassurot ostida edim.

IV BOB

Biz uzoq yurdik, «Maliy» ko‘chasigacha bordik. U ildam yurib ketar edi; axiyri borib kichkina do‘konchaga kirib ketdi. Men uning chiqishini kutib, to‘xtab turdim. «Axir, do‘konda yashamasa kerak-ku», – deb o‘yladim, o‘zimcha.

Rostdan ham u bir daqiqadan so‘ng qaytib chiqdi, endi qo‘lida kitobi yo‘q edi. Kitoblar o‘rniga uning qo‘lida allaqanday quloqli sopol tovoq bor edi. Ozgina yurgandan keyin u ko‘rim-sizgina hovli darvozasiga kirdi. Bu uncha katta bo‘lmasa ham, pishiq g‘ishtdan solingan, sariq bo‘yoqqa bo‘yalgan ikki qavatli eski bino edi. Birinchi qavatning derazalaridan birida (hammasi bo‘lib uchta deraza bor edi) kichkina tobut chiqib turar, bu do‘konni kichkina tobutsozning viveskasi edi, yuqori Qavatning derazalari juda ham kichik – to‘rt burchak, xira, ko‘kimtir, darz ket-

gan oynalardan qalin pushti rang surp pardalar ko‘rinib turar edi. Men ko‘chani kesib o‘tdim, binoga yaqinlashdim va darvoza tepasida temir taxtaga yozilgan: «Meshchanka Bubnovaning hovlisi» deb yozilgan lavhani o‘qidim.

Biroq men yozuvni endi o‘qib ulgurgan edim hamki, birdan Bubnova hovlisidan shang‘illagan xotin tovushi va orqasidan qarg‘ish eshitildi. Men eshikdan mo‘raladim; yog‘och pillapoyada meshchankalarga mos kiyim-bosh kiygan, yelkasiga moshrang ro‘mol tashlagan semiz xotin turar edi. Uning yuzi badburush, sholg‘omdek qip-qizil, moy bosgan ko‘zlari qip-qizil, tushki ovqat mahali bo‘lmasa ham, basharasidan kayfi taroqligi ko‘rinib turardi. U oldida sopol tovoq bilan qotib turgan bechora Yelenaga qarab baqirardi. Uning orqasida sochlari hurpaygan, yuziga upa-elik chaplagan bir ayol mo‘ralab turar edi. Birpasdan keyin pastki qavatdan yerto‘laga tushadigan zinaning eshigi ochildi va pillapoyada faqirona kiyingan istarasi issiqqina, o‘rta yoshli ayol paydo bo‘ldi. Nazarimda, shovqin-suronni eshitib chiqdi, shekilli. Qiya ochilgan eshikdan pastki qavatda turuvchi boshqa hamsoyalar, munkillagan chol va bir qiz mo‘raladi. Uzun bo‘yli, baquvvat bir erkak, hovli qorovuli bo‘lsa kerak, hovli o‘rtasida qo‘lida supurgisi bilan janjalni beparvogina tomosha qilardi.

– Qoraginang o‘chgur, og‘zi burningdan qon kelgur, itvachcha! – deb chiyillardi xotin entika-entika, dunyoda bor qarg‘ishlarni uzluksiz qatorlashtirib! – Mening g‘amxo‘rligimga qilgan yaxshiligingmi bu, chuvrindi! Bodringga yuborsam, zimziyo bo‘lib ketding! O‘zim shundoq deb o‘ylagan edim-a, yuborayotganimda! Yuragim sezib turgandi! Kecha kechqurun-ku shu qilig‘i uchun sochlaridan burdalab urgan edim, bugun tag‘in qochib ketibdi! Qayoqqa borasan san buzuq o‘lgur, qayoqqa-a! Kimnikiga borasan san, serraymay o‘lgur, zahar, kimnikiga! Gapir deyapman, chuvrindi! Gapir deyapman, bo‘lmasa hozir bo‘g‘ib o‘ldirib qo‘ya qolaman!

Bu quturgan xotin, bechora qiz ustiga tashlangan vaqtda pastki qavatdan qarab turgan ayolni ko‘rib qoldi-yu, birdan to‘xtadi va avvalgidan ham battarroq chiyillab, bu qizning qilgan

yaramas ishini qarang, degandek qo'llarini paxsa qilib, unga murojaat etdi:

– Onasi qurg'ur harom o'ldi! O'zlaring bilasizlarki, yaxshi odamlar, bu qurib ketkur dunyoda boshpanasiz bitta o'zi qoldi. Siz bechoralar o'z kunlaringizni zo'rg'a o'tkazasizlar, hech bo'lmasa, savob bo'lar-ku deb yetimchani ola qolay dedim. Oldim. Oqibati nima deb o'ylaysizlar? Mana, ikki oydan beri boqib yotibman, bu o'lgur ikki oy ichida qonimni so'rdi, ustixonimni kemirdi. Zuluk, ajdaho! Bezbet! Iblis! Ursang ham, otib ursang ham, g'iq etmaydi juvonmarg, miq etmaydi. Meni yuragim tars yorilib ketay dedi. U esa indamagani indamagan! Hoy, sen o'zingni kim deb o'ylaysan, yuvindixo'r... Men bo'lmasam, ko'chada ochingdan o'larding, qadrimni bilmasang, harom o'lasan, san yovuz, qora ilon. Harom o'larding mensiz!

– Sizga nima bo'ldi, Anna Trifonovna, buncha o'zingizni koyitasiz? U sizga tag'in nima qildi? – so'radi hurmat bilan haligi ayol, quturgan xotinga qarab.

– Nima gunoh qildi deysanmi, yaxshi xotin? Mening yo'rig'imni buzsa, jon-ponim chiqib ketadi! Yomon bo'lsa ham, mening aytganimni qil! Mana men kimman! U meni bugun narigi dunyoga yuborishiga sal qoldi. Do'konga bodringga yuborsam, uch soatdan keyin qaytsa-ya! Yuborayotganimda yuragim sezib turgandi; jigar-bag'rim xun bo'ldi, qayerda eding? Qayerga boring? Yoki o'zingga g'amxo'r topdingmi? Uning boshini silagan men emasmidim-a! Axir, men uni juldurvoqi onasi qarzga olgan o'n to'rt so'lkovoydan kechib yubordim, o'z hisobimga ko'mdim, mana bu itvachchani tarbiyamga oldim, axir, o'zing xabardorsan-ku, aylanay! Shulardan keyin men unga gapirishga haqqim bormi, yo'qmi? Uning o'zi shularni bilishi kerak, uning o'rniga aytganimning teskarisini qiladi! Men unga baxt tilagandim. Men bu razilni yaxshi kiyintirmoqchi edim, «Gostiniy dvor»dan botinka olib berdim. Qo'g'irchoqdek yasatdim, oqibati nima bo'ldi denglar, yaxshilar! Ikki kunda hamma kiyimni yirtib tashladi, burda-burda qilib yirtib tashladi-da, endi xarob bo'lib yuribdi! Sandiraqlab yurgani yurgan! O'zi ataylab yirtidi, Xudo haqqi, o'z ko'zim bilan ko'rdim. Shundoq chirik-chirik bo'lib

yurarmishlar, harir kiyim kiymasmishlar! Shunda qahrimga chidamay shundoq savaladimki, oxirda tabib chaqirishga to'g'ri keldi, men unga pul to'ladim. Xudo olsin seni, bitliqi, o'lganing yaxshi! Uning adabini berish uchun pol yuvishga buyurdim, nima deb o'ylaysizlar, yuvyapti, yuvyapti. Manjalaqi yuvyapti! Jonimni chiqaryapti! Ha, qani endi qochib ko'rsin-chi, deb o'yladim! O'ylab ulgurganim ham yo'q edi, kecha tag'in qochib ketdi. O'zlaring eshitdinglar, yaxshilar, kecha men uni rosa savaladim, qo'llarim qavarib ketdi, yalang oyoq ketmas-ku deb paypog'-u boshmoqlarigacha yechib oldim, bugun bu xazon bo'lgur tag'in o'sha yoqqa yo'qoldi! Qayerda eding? Gapir! Kimga shikoyat qilding gazanda, kimga meni chaqding? Gapir lo'livachcha, kelingindi, gapir!

Uning g'azabidan jazavasi tutib ketib, yana dahshatdan esini yo'qotib qo'ygan qizga tashlandi, sochlarini changallab yerga otib urdi. Bodring solingan sopol tovoq uchib borib chilchil bo'ldi, bu esa mast xotinning yana qahrini oshirdi. U qizning yuziga, boshiga tushirardi, ammo Yelena shuncha kaltak yeganda ham churq etmasdi, na bir og'iz gap, na bir qichqirish, na bir dod degan ovoz og'zidan chiqardi. Men azbaroyi g'azablanganimdan o'zimni yo'qotib qo'yib hovliga, mast xotin oldiga otilib chiqdim.

– Nima qilyapsiz? Bechora yetimchani muncha xo'rlaysiz? – baqirdim, ayolning qo'lidan ushlab.

– Bu nimasi? Kim bo'lasan san o'zing? – shang'illadi u Yelenani qo'yib yuborib, biqinini ushlaganicha, – xo'sh, mening uyimda nima ishingiz bor?

– Shunchalik ham shafqatsiz bo'ladimi odam! – deb baqirib yubordim. – Bechora bolani shunchalik qiynashga nima haqingiz bor? U sizning bolangiz emas, siz uni asrab olganingizni eshitdim, bechora yetimcha...

– Xudoyo tavba! – dodlay boshladi alvasti, – sen qayoqdan kelding? U bilan keldingmi? Hozir men seni pristavga¹ olib boraman, Andron Timofeichning o'zi meni hurmatlaydi! Ha,

¹ *Pristav* (ruscha: приставить – qarab, nazorat qilib turish uchun qo'ymoq, tayinlamoq) – Chor Rossiyasida kichikroq hududdagi mahalliy politsiya boshlig'i.

senikiga borib yurarkan-da! Kimsan o'zing? Birovning uyida to'polon qilishga nima haqing bor? Voy-dod!

U ustimga musht ko'tarib yugurib keldi. Biroq shu daqiqa birdan odamzodning ovozigga o'xshamagan chinqiriq eshitildi. Men qaradim, Yelena birdan dahshatli, g'ayritabiiy bir qichqiriq bilan yerga yiqildi va shaytonlay boshladi. Yuzlari o'z qiyofasini yo'qotdi, uning tutqanog'i tutib qolgan edi. Pastdan pahmoq sochli qiz va ayol yugurib chiqishdi. Ko'tarib olib shoshilganlaricha yuqoriga olib chiqib ketishdi.

– Ey, o'lib ketsang ham, koshkiydi, ablah! – chiyilladi uning orqasidan xotin. – Bir oyda uchinchi marta tutqanoq tutishi... Yo'qol bu yerdan dallol! – dedi u va yana menga yopishib ketdi. – Hoy qorovul, nima qilib qarab turibsan? Nima uchun oylik olasan?

– Ket, ket dedim senga, nima, tanobingni tortib qo'yaylikmi, – do'ng'illadi erinchoqlik bilan qorovul, shunchaki xo'ja ko'rsin uchun. – Birovning ishiga aralashib nima qilasan, yo'lingga ketavermaysanmi?

Ilojim yo'q edi, men qilgan ishimning hech qanday foyda bermaganiga qanoat hosil qilib darvozadan chiqdim. Ammo g'azabim qaynab turgan edi. Men darvoza ro'parasidagi yo'lakchaga o'tib eshikka qarab turdim. Men chiqishim bilan xotin shu zahotiyoq tomga yugurdi, qorovul ham o'z ishini tugatib qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Bir daqiqadan so'ng Yelenani tomga olib chiqishga yordamlashgan ayol shoshilib zinapoyadan tushdi.

U to'xtab menga qiziqib qaradi. Uning yuzidagi rahmdillik ifodasi menga dalda berdi. Men yana hovliga kirib, to'ppatto'g'ri uning oldiga bordim.

– Bir gap so'rashga ruxsat bering, – deb gap boshladim men, – bu qiz o'zi kim bo'ladi? Anovi yaramas xotin nega unga ozor beryapti? Siz meni shunchaki tomoshabin deb o'ylamang. Bu qizni men oldin ham uchratganman, bir sababga ko'ra uning kimligini bilishga qiziqaman.

– Modomiki, qiziqqan ekansiz, uni o'zingizga olib qo'ya qolmaysizmi yoki bu yerda xor-zor bo'lib yotgandan ko'ra unga

biror joy topib bermaysizmi? – dedi istar-istamas u ayol, ketishga shaylanib.

– Siz menga o'rgatmasangiz, nima qila olardim? Aytyapman-ku, men hech narsa bilmayman, deb. Bu ayol shu uyning egasi bo'lsa kerak-a?

– Ha, o'sha.

– Yo'qsa qiz uning qo'liga qanday qilib kelib qolgan? Uning bu yerda onasi o'lganmi?

– Ishqilib, kelib qolgan-da... Bizning ishimiz emas. – U yana ketmoqchi bo'ldi.

– Iltifot qiling, aytyapman-ku bu meni nihoyatda qiziqtiradi deb. Balki, biror yordam qilish qo'limdan kelar. Kim o'zi bu qizcha? Uning onasi kim edi, siz bilasizmi?

– Chet eldan kelgan, kelgindi edi, shekilli. Bizda, pastda turardi, sil edi, shu kasal bilan o'lib ketdi.

– Agar yerto'lada, bir burchakda yashagan bo'lsa, juda ham qashshoq ekan-da?

– Qashshoq, juda ham qashshoq edi! Yurak-bag'ri qon bo'lib oqdi. Biz o'zimiz zo'rg'a kunimizni ko'ramiz, shunga qaramay, bizdan ham besh oy ichida olti so'm qarzdor bo'ldi. Biz ko'mdik, erim tobut ham qilib berdi.

– Bubnova men ko'mganman deyapti-ku?

– Qayoqda!

– Familiyasi nima edi?

– Ey, tilim ham kelmaydi, uka, g'alati nemischa nom.

– Smitmidi?

– Yo'q, boshqacharoq edi. Anna Trifonovna yetimchani o'zi oldi-qo'ydi, tarbiya qilaman deydi. Ammo yaxshi bo'lmadi.

– Biror maqsad bilan olgan bo'lsa kerakda-a?

– Yaramas ishlari bor uni, – javob berdi ayol o'ylanqirab aytaymi, yo'qmi, degandek ikkilanib. – Bizning nima ishimiz bor, biz begona odamlarmiz...

– Tilingni tiysang, undan ham yaxshiroq bo'lardi! – eshitildi orqamizdan erkak ovozi. Bu yoshi qaytib qolgan, xalat

ustidan kaftan¹ kiygan, ko'rinishda masterovoyga o'xshagan odam, chamamda, hamsuhbatimning eri edi.

– Inim, siz bilan uning gaplashadigan gapi yo'q; bizning ishimiz emas... – g'udurladi u menga ko'z qirini tashlab. – Sen esa yo'qol! Yaxshi boring, janob, biz tobutsozlarmiz. Agar ish bilan kelgan bo'lsangiz, bajonidil... Shundan boshqa siz bilan gaplashadigan gapimiz yo'q.

Men bu hovlidan xayolim buzilgan holda chuqur hayajon bilan chiqdim. Qo'limdan hech narsa kelmaydi, lekin ishni shu ahvolda qoldirsam, azob chekishimni sezardim. Tobutsoz xotining ba'zi bir gaplari, ayniqsa, ko'nglimga g'alayon solmoqda edi. Ko'nglim sezyapti: bu yerda qandaydir yomon bir sir bor!

Men boshimni quyi solganimcha xayol surib ketayotgan edim, kimdir birdan familiyamni aytib chaqirib qoldi. Qarasam, ozodagina bo'lsa-da, allanima balo shinel² va yog' bosgan shapka kiygan mast kishi gandaraklab turibdi. Afti juda tanish edi, diqqat bilan qaradim. U menga imlab kinoya aralash iljaydi.

– Tanimayapsanmi?



– Ey, Masloboevsan-ku, – deb yubordim men, – guberniya gimnaziyasida birga o'qigan maktabdoshimni birdan tanib qolib, – uchrashganimizni qara-ya!

– Ha, ajoyib uchrashuv. Olti yildan beri ko'rishmadik. Uchrashishga uchrashdik-ku-ya, ammo siz janoblari nazarga ilmadilar-da. Axir, siz generalsiz, ya'ni adabiyot sohasida!.. – deb zaharxanda kulib qo'ydi u.

– Bo'lmag'ur gaplarni qo'ysang-chi, – so'zini bo'ldim men. – Birinchidan, generallar, garchi adabiyot sohasidagi general bo'lsa ham, ko'rinishda menga o'xshamaydi. Ikkinchidan, rostdan ham bir-ikki bor seni ko'chada uchratganim esimda

¹ **Kaftan** (ruscha) – XVI-XVII asrlarda G'arbiy Yevropada keng tarqalgan kiyim. Bizdagi chopon kiyimiga to'g'ri keladi.

² **Shinel** (ruscha < fransuzcha: chenille – erkaklarning tonggi kiyimi, kostyumi) maxsus matodan tikiladigan, maxsus bichimdagi palto.

bor, lekin, nazarimda, o'zing meni ko'rmaslikka solding, bas, shunday ekan, men bilan ko'rishishni ham istamagan kishi oldiga xira bo'lib borarmidim? Bilasanmi, hozir miyamga qanday fikr keldi? Agar kayfing taroq bo'lmasa, hozir ham meni chaqirmagan bo'lar eding.

– Rostmi? Ha, mayli, kel, so'rashaylik, salomatmisan? Juda, juda xursandman, og'ayni seni ko'rganim uchun.

– Rostini ayt! Men bu qiyofam bilan senga isnod keltirmaymanmi? Ha, mayli, buni surishtirib o'tirmay qo'ya qolay, gap bunda emas, jigarim, Vanya, qanaqa ajoyib bola eding, hamma vaqt yodimda turasan! Huv anovi men uchun seni kaltaklaganlari esingda bormi? Miq etmadning, sirimni ochmadning, men esa minnatdorchilik o'rniga bir hafta seni kalaka qilib yurdim. Xudoning mo'min bandasisan! Salom, jigarim, salom! (Biz o'pishdik.) Axir, necha yillardan beri ko'rgilimni ko'rib yuribman. Tong otadi, kun botadi, ammo o'tganlarni unutmadim. Hech yoddan ketmaydi! Sen-chi, sen? Sen nima qilib yuribsan?

– Nima qilardim, men ham bir nav qilib kun kechir-yapman.

U ichkilik tufayli ko'ngli bo'shab ketgan odamning qarashi bilan menga uzoq tikildi. Ammo busiz ham u juda yumshoqko'ngil odam edi.

– Yo'q, Vanya, sen boshqa, men boshqa, – dedi u, nihoyat, mungli ohangda. – Axir, o'qidim, o'qidim, Vanya, o'qidim! – Menga qara Vanya, bir otamlashib gaplashaylik! Shoshilayotganing yo'qmi?

– Shoshilyapman, senga aytib qo'ya qolay, bir narsani ko'rib ko'nglim juda buzildi. Yaxshisi, ayt-chi, qayerda turasan?

– Aytaman. Lekin bundan tuzukroq gap bor. Nimaligini aytaymi?

– Xo'sh?

– Gap bundoq! Ko'ryapsanmi? – U menga biz turgan yerdan o'n qadamcha naridagi viveskani ko'rsatdi, – ko'rdingmi: qandolat do'koni restoran, ya'ni, masalan, oddiy qilib aytganda, restoratsiya¹. Ammo juda maza joy. Shuni aytib qo'yayki, yaxshi

¹ Restoratsiya – restoran.

dam oladigan joy, arog'ini asti qo'yaver! Kievdan keltirilgan! Bu yerda juda ko'p ichganman, bilaman, menga bu yerda yomonini berishga hech kim botinolmaydi. Filipp Filippichni biladilar. Axir, kaminangiz Filipp Filippich-da. Nima? Aftingni tirishtir-yapsanmi? To'xta, men gapimni tamom qilay, hozir o'n birdan chorak o'tdi, hozir qaradim, xo'sh, rosa o'n birdan o'ttiz besh daqiqa o'tganda senga javob beraman. Shu vaqt ichida tomoqni qo'llab olamiz. Eski oshna uchun yigirma daqiqalik vaqtingni ayamassan-a, bo'ldimi?

– Rostdan ham yigirma daqiqa bo'lsa, mayli; negaki azizim, rostdan ham zarur ish bor...

– Bo'lsa bo'libdi-da. Shoshma, yana bir gap bor: rangiro'ying uncha yaxshi emas, xuddi hozir seni birov xafa qilgandek ko'rinadi. To'g'rimi?

– To'g'ri.

– Ha, o'zim ham bilib turibman, jigarim, endi men odamning aftini ko'rib ko'nglidagini bilib oladigan bo'lib qolganman. Bu ham bir mashg'ulot-da! Xo'p, mayli, bir otamlashaylik. yigirma daqiqa ichida, birinchidan, mo'ysafididan keyin berezovkadan¹ otib olamiz, keyin hadeguncha pomeranets² solingani, so'ng yana bir ko'ngilga kelgan narsa jig'ildondan suvdek o'taveradi. Xullas, ichadigan bo'lib qoldim, uka! Bayram kunlari, tushki ibodatdan oldin ichishga nima yetsin! Sen ichmasang ham mayli. O'zing keraksan. Ichib olsang, yana ham yaxshi, ochilib dilkashlik qilasan. Yur! Bir-ikki og'iz vaqillashamiz-u, yana besh-o'n yil ko'rishmay ketamiz. Og'ayni Vanya, men senga teng emasman!

– Hadeb valdiray berma, tezroq boraylik. Yigirma daqiqa sening ixtiyoringdaman, keyin ruxsat berasan.

Restoratsiyaga chiqish uchun ikki qanotli aylanma yog'och zinapoyadan ikkinchi qavatga ko'tarilish kerak edi. Biroq, zinapoyada biz birdan ikkita qattiq mast janoblar bilan to'qnash keldik. Bizni ko'rgach, ular gandiraklashib chetlashishdi.

¹ Berezovka – aroq turi.

² Pomeranets – Janubiy Osiyoda o'sadigan doim yashil sitrus daraxti va uning apelsinga o'xshash xushbo'y, lekin achchiqroq nordon mevasi.

Ulardan biri juda yosh, hali soqoli chiqmagan, endigina mo'ylabi sabza bo'lib kelayotgan va aftidan qip-qizil ahmoqligi bilinib turgan yosh yigit edi. U juda olifta kiyingan, lekin kiyimi o'ziga yarashmasdi: xuddi birovning kiyimini kiyib olganga o'xshardi; barmoqlarida qimmatbaho uzuklar, galstugida ham qimmatbaho to'g'nag'ich, sochini bo'lsa juda ham kulgili tarzda antiqa qilib tarab olgan. U hadeb tirjayib hiringlar edi. Uning o'rtog'i elliklarga kirgan, semiz, qorni katta, pala-partish kiyingan, uning galstugida ham katta to'g'nag'ichi bor edi, boshi taqir kal, salqigan, mastona cho'tir yuzli, burnining ustiga tugmachaga o'xshash ko'zoynak taqib olgan kishi edi. Aftidan berahm va fosiqligi ko'rinib turardi. Xunuk, qahrli va gumonsirab qaraydigan ko'zlari yog' bosib ketganidan teshikdan qarab turgandek ko'rinardi. Ular ikkalasi ham Masloboevni tanishardi, shekilli, meshqorin bizni ko'rishi bilan ensasi qotib, betini tirishtirib qo'ydi, yoshi esa yaltoqlanib iljaydi. U hatto kartuzini¹ yechdi.

– Kechirasiz, Filipp Filippich, – deb g'udurladi xushomadgo'ylik bilan unga tikilib.

– Nimaydi?

– Kechirasiz... Haligi... (u bo'yniga chertib qo'ydi) u yerda Mitroshka o'tiribdi. Men sizga aytsam, Filipp Filippich, u yaramas odam!

– Nima gap o'zi?

– Haligi... Shundoq... Mana buni (o'rtog'ini ko'rsatdi) o'tgan hafta o'sha Mitroshka tufayli bir nojo'ya yerda aftiga qaymoq chaplashdi... hii!

O'rtog'i achchig'lanib uni tirsagi bilan turtib qo'ydi.

– Siz, Filipp Filippich, biz bilan birga yarim dyujinasini² Dyussonikida otib olsak bo'lardi, umid qilsak bo'ladimi?

– Yo'q, jigar, hozir mumkin emas, – javob berdi Masloboev. – Ish bor.

– Qhi... Mening ham sizda qittak ishim bor... – o'rtog'i uni yana tirsagi bilan turtib qo'ydi.

– Keyin, keyin!

¹ Kartuz – XVI-XX asrlarda keng tarqalgan erkak bosh kiyimlari.

² Dyujina (lotincha: duode-cim – o'n ikki) – o'n ikki dona (bir xildagi narsalar haqida).

Masloboev ularga qaramaslikka urinar edi. Biz peshtaxtasiga boshidan oyog'igacha, usti turli nozi-ne'matlar, qip-qizil pishgan piroglar¹, og'zi ochiq somsalar, turli rangdagi sharoblar to'ldirilgan grafinlar tizib qo'yilgan birinchi uyga kirdik. Kiriшимiz bilan Masloboev meni bir burchakka olib bordi-da:

– Yoshi, savdogarning o'g'li Sizobryuxov, mashhur allofning² o'g'li, otasidan yarim million meros qoldi. endi shuni sovuryapti. Parijga bordi, u yerda pulni kuldek sovurdi, balki, o'sha yerda hammasini sovurib bo'lardi ham-ku, tog'asidan meros tegadigan bo'lib, Parijdan qaytib keldi, endi qolganini bu yerda tugatyapti. Bir yil, yarim yildan keyin xonavayron bo'lsa kerak. Aql degan narsadan tariqcha ham yo'q, yurishi katta restoran, qovoqxonalar, mayxona, tanishi artistkalar; gusar ham bo'lmoqchi bo'ldi – yaqinda ariza berdi. Narigisi, yoshi qaytgani – Arxipov, u ham savdogarmi yoki gumashtami³, ishqilib, shunga o'xshash, soliqlarni o'lponga olib ham yurdi; firibgar muttaham, hozir Sizobryuxovning pinjiga kirib yuribdi. O'ta ayyor, mayxo'r. Ikki marta singan, yaramas, iflos ko'chalarga kirib chiqqan fosiq odam. Shu qabildagi bir jinoyat qilganini ham bilar edim, lekin qutulib ketdi. Bir ish vajidan men uni bu yerda uchratganimga xursandman, uni qidirib yurgandim... Arxipov Sizobryuxovni toza shilayotgan bo'lsa kerak. Juda ko'p xilvat joylarni biladi, shuning uchun ham ana unaqa yoshlar, nazarida, qadri-qimmati baland.

Men, uka, unga anchadan beri tishimni qayrab yuribman. Mitroshka ham. Hov anovi deraza tagida o'tirgan boyvachcha, belburma kamzul kiygan lo'li bashara yosh yigitcha – o'sha Mitroshka. U ot savdosi qiladi, shu yerdagi hamma gusarlar bilan tanish. Senga aytsam, u shunaqangi dog'uliki, ko'zingni baqraytirib turib qalbaki pul yasab tashlaydi, lekin sen o'z ko'zing bilan

¹ **Pirog** (*ruscha*: pirog – «bazzm, ziyofat») – qiyma, meva, qiyom va shu kabilar solib, duxovkada pishiriladigan shirinlik.

² **Allof** – 1) giyohfurush, o'tin-cho'p sotish bilan shug'ullanuvchi kishi; 2) bozorda g'alla, don, un sotuvchi.

³ **Gumashta** (*forscha*; vakolatli shaxs; xizmatkor) – 1) XX asr boshlariga qadar Turkistonda katta savdogar boylarning joylarda savdo ishlarini olib boruvchi ishonchli kishisi, vakili; 2) biror kimsani qo'llab-quvvatlash bilan muayyan amalga tayinlangan yoki birov tomonidan maxsus topshiriq bilan qo'yilgan shaxs (*asarda shu ma'noda*).

ko'rib turgan bo'lsang ham, pulini maydalab beraverasan. U baxmal belburma kamzulda slavyanofillarga¹ o'xshaydi (ha, rostini aytsam, bu o'ziga yarashib turibdi), unga hozir bashang frak² yoki shunga o'xshash kiyimlarni kiygizib, ingliz klubiga³ olib borib bu falonchi, katta yer egasi, graf Barabanov desang, hech so'zsiz uni ikki soat o'tar-o'tmas graf deb o'ylaydilar, qarta ham o'ynayveradi, graflarga o'xshab gapira oladi ham, hech kim sezmaydi, hammani aldab ketadi. Lekin oxiri voy bo'ladi. Shunday qilib, ana shu Mitroshka meshqoringa rosa tish qayrab yuribdi, chunki unga alam qilgan yeri bor – uning beli baquvvat emas, terisini shilib ololmagan ilgari og'aynisi Sizobryuxovni meshqorin undan aynitib oldi. Agar ular restoratsiyada uchrashgan bo'lsa, oralaridan qiziq bir gap o'tgan bo'lsa kerak. Men nima bo'lganini ham bilaman. Arxipov Sizobryuxov bilan bu yerda bo'lishini va ba'zi bir yaramas ishlar uchun bu yerda izg'ib yurishlarini menga Mitroshkaning o'zginasi shipshitib qo'ygan. Mitroshkaning Arxipovga bo'lgan adovatidan men foydalanmoqchiman, chunki bunga sabablarim bor, bu yerga kelishimning sababi ham shu. Lekin Mitroshka sezmasligi kerak, sen ham unga qarayverma. Bu yerdan chiqayotganimizda uning o'zi oldimizga kelib, menga kerakli gapni aytsa kerak... Endi yur, Vanya, huv anovi xonaga kiramiz, ko'ryapsanmi? Xo'sh, Stepan, – davom etdi u xizmatkorga murojaat etib, – menga nima kerakligini bilasanmi?

– Bilaman.

– Bajo keltirasanmi?

– Keltiraman.

– Mayli, o'tir Vanya. Xo'sh, nega menga qarayverasan.

Ko'zingni uzmayсан. Hayron bo'lyapsanmi? Hayron bo'lma.

¹ **Slavyanofil** – XIX asrning 30-40-yillarida Rossiyada yuzaga kelgan reaksion mutaassib harakat. Bu harakatning g'oyasiga ko'ra G'arbiy Yevropa madaniyati rus madaniyatiga ziddir. Ular G'arbiy Yevropa madaniyatning Rossiyaga kirib kelishiga qarshilik qilishgan. Ular shu maqsadda ruslarning qadimiy kiyimlarini kiyib yurishgan.

² **Frak** (*fransuzcha*) – old qismi kalta qilib o'yilgan, uzun orqa etagining quyi qismi ikkiga ajralgan, tantanalarda kiyiladigan erkaklar kiyimi, kostyum.

³ **Ingliz klubi** – taniqli dvoryan, amaldorlar vaqtni birgalikda o'tkazish uchun tashkil etilgan kecha, maskarad, bazm va shu kabilar. Bunda marosimlarning ingliz klubi deyilishining sababi shundaki, bunday marosimlar, eng avvalo, Angliyada paydo bo'lgan.

Odamning ahvoli shu ekan, boshiga har xil savdolar tusharkan, yetti uxlab tushingga kirmagan balolar tushishi mumkin ekan. Ayniqsa, o'sha vaqtlarda... O'sha biz sen bilan Korneliy Nepotaning¹ asarlarini yodlab yurgan chog'larimizda!.. Vanya, sen bitta narsaga ishonginki, Masloboev yomon yo'lga kirib ketgan bo'lsa ham, uning qalbi boyagi-boyagidek! Muhit va sharoit o'zgargan, xolos. Ustim juldur bo'lgani bilan hech kimdan kam emasman. Doktorlikka o'qidim, ona tili va adabiyot o'qituvchisi bo'lishga ham tayyorlandim, Gogol haqida maqola ham yozdim, oltin koni egasi bo'lishni ham istadim, uylanmoqchi ham bo'ldim, ko'ngil qurg'ur qaylarni tusaydi, -- uyimda sichqonlar hassa tayanib yurganiga qaramay, qiz ham rozi bo'ldi. O'zim esa to'y marosimiga tayyorlanib qarzga pishiqroq etik ham olmoqchi bo'ldim, chunki o'zimniki bir yarim yildan beri teshik edi. Lekin uylanolmadim. U qiz bir o'qituvchiga erga tegdi, men idorada xizmat qila boshladim. Ya'ni savdo idorasi emas, shunchaki, oddiy idorada. Shundan boshlab hamma ishlar chappasiga aylanib ketdi. Yillar o'tdi, men endi bir joyda ishlamasdan ham pul topish yo'lini bilaman: pora yeyman, adolat yo'lini tutaman, o'zimni sher bilaman-u, botirni ko'rsam, dumimni qisaman, yo'l-yo'riqni bilaman, masalan, yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham, dong'i chiqmas, degan so'zning ma'nosiga ham yetaman-u, lekin bo'sh kelmayman, mening ishlarimning ko'pi xufiya ishlar... tushunasanmi?

– Nima balo, yoki ayg'oqchimisan?

– Yo'q, ayg'oqchi deb bo'lmaydi. Shunday ishlarki. qisman rasmiy ravishda, qisman o'z maylim bilan shug'ullanaman. Vanya, bilsang, aroqqa berilib ketdim. Ichganim bilan aqlimni yeb qo'yganim yo'q, shuning uchun o'z keljagimni bilaman. Davrim o'tdi, qora namatni yuvganing bilan oqarmaydi. Shuni aytayki, agar menda odamgarchilik qolmagan bo'lsa, bugun sening oldingga bormagan bo'lardim, Vanya. To'g'ri aytasan, men seni, ilgarilari ham bir necha bor ko'rganman, ko'p marta oldingga bormoqchi ham bo'lganman, ammo botinol-

¹ Korneliy Nepot (miloddan avvalgi 99 – miloddan avvalgi 24) – Qadimgi Rim tarixchisi, yozuvchi.

maganman, ana-mana deb keyinga suraverganman. Sening tirnog'ingga arzimayman. O'zing to'g'ri aytding, Vanya, faqat kayfim borligi uchun oldingga bordim, bular hammasi behuda gaplar, kel, qo'y, men to'g'rimda bas qilaylik. Kel, yaxshisi, sen to'g'ringda gaplashamiz. Xo'sh, o'qidim, o'qidim, boshdan oyoq o'qib chiqdim! Men, og'ayni, sening to'ng'ich asaring haqida gapiryapman. O'qib chiqib, yaxshi odam bo'lib qolishimga sal qoldi-da! Sal qoldi, o'ylab-o'ylab, yaxshisi, yaramasligimcha qolishni ma'qul ko'rdim. Shunaqa gaplar...

U menga yana juda ko'p gapirdi. Uning tobora kayfi oshib borardi, ko'ngli bo'shab ketib ko'ziga yosh oldi. Masloboev hamma vaqt yoqimtoy odam edi, ammo u ichidan pishgan va yoshiga nisbatan fikri o'sgan, dog'uli, maktabdaligi chog'lari-dayoq sulloh va uddaburon, lekin shunga qaramay rahmdil edi. Xarob bo'lgan odam. Bundog' odamlar rus xalqi ichida ko'p uchraydi. Bular katta iste'dod egalari bo'lishsa-da, lekin bular hammasi ularda aralash-quralash bo'lib ketadi, buning ustiga ma'lum bir nuqtada ojizlik qilib, ongli ravishda o'z vijdonlariga xilof ish qilishdan ham toymaydilar, halokatga ketayotganlarini o'zlari oldindan biladilar. Shu bilan birga Masloboev ichkilik balosiga muhtalo bo'lgan edi.

– Do'stim, yana bitta gap bor, – davom etdi u. – Dovrug'ing qanchalik taralib ketganini eshitdim, keyin sening to'g'ringda yozilgan har xil tanqidlarni ham o'qidim, rost, o'qidim: (meni hech narsa o'qimaydigan bo'lib ketgan deb o'y-laysanmi), keyin seni yirtiq etiklarda, loylarda kalishsiz, g'ijimlangan shlyapada yurganingni ham ko'rdim, nima hodisa bo'lganini payqadim. Endi muxbir bo'lish niyating bormi?

– Ha, Masloboev.

– Demak, pochtaxona qirchang'isi bo'lmoqchi ekansandada?

– Shunaqaga o'xshaydi.

– Gapim shuki, do'stim, undan ko'ra ichgan yaxshi! Mana men, miriqib ichib olaman-da, divanga o'zimni tashlayman (yaxshi yumshoq divanim bor), yotaman-u, o'zimni-o'zim allaqan-

day Gomer¹ yoki Dante², yoki Fridrix Barbarusaman³ deb faraz qilaman. Kim bo'lishni xohlasang, o'zingni o'sha odam deb tasavvur qilish mumkin. Lekin senga kelsam, sen, albatta, o'zingni Dant yoki Fridrix Barbarusa deb faraz qilolmaysan, sababi: birinchidan, sen o'zing o'z yo'lingdan qolmoqchi emassan; ikkinchidan, bir narsani orzu qilish huquqi yo'q, chunki sen o'zing pochtaxona qirchang'isidan. Men xayol, sen esa haqiqat olamida. Menga qara, oshna-og'aynilardek ochiq gaplashaylik (yo'qsa minba'd ko'nglimni og'ritib, xo'rlagan bo'lasan), pul kerakmi? Pul bor. Ey, aftingni tirishtirmagin. Pulni ol, antreprenyorlar⁴ bilan hisob-kitobingni qil, yelkangdagi bo'yinturuqni olib tashla, keyin o'zingni bir yilga ta'minlab olib xohlaganingcha fikr yurgizaver, buyuk asar yarat! Nima deysan bunga?

– Menga qara, Masloboev! Mehribonchiliging uchun rahmat, lekin hozircha hech narsa deyalmayman, negaki hozir gapirib beraman desam gap ko'p. Mavridi kelganda bir kun hammasini batafsil gapirib beraman, taklifing uchun minnatdorman, oldingga kelib turishga va'da beraman. Hali kelaverib seni zeriktirarman ham. Gap shundaki, sen mendan yurak sir-laringni berkitmaysan, shu sababdan sendan bir maslahat so'ramoqchiman, bunaqangi ishlarni do'ndira oladigan kishisan.

Men unga Smit va uning nabirasi voqeasini qandolat do'konidagi hodisadan boshlab hammasini gapirib berdim. Qiziq, men unga gapirib berayotganimda, bu gaplardan qisman xabardorligi ko'zidan bilinib turardi. Men bu to'g'rida unga savol berdim.

– Yo'q, bunday emas, – deb javob berdi u. – Ammo Smit haqida eshitganim bor, qandolat do'konda qanaqadir bir chol

¹ **Gomer** – yunon shoiri. Uning hayoti haqida aniq ma'lumotlar yo'q «Iliada» va «Odissey» dostonlarining muallifi.

² **Dante Aligeri** (1265 – 1321) – italyan shoiri. «Bazm», «Monarxiya haqida», «Yer va suv haqida» nomli risolalari va «Komediya» («Ilohiy komediya») dostoni mavjud. Doston 3 qism («Do'zax», «A'rof», «Jannat») dan iborat. Har bir qismda 33 ta qo'shiq bor.

³ **Fridrix I Barbarossa** (Friedrich Barbarossa; kizil soqolli) (taxminan 1125 – 1190) – Germaniya qiroli (1152-yildan). Shtaufenlar sulolasidan bo'lgan «Muqaddas Rim imperiyasi» imperatori (1155 yildan).

⁴ **Antreprenyor** – teatr, sirk, san'at saroylari va shu kabilarning xo'jayini.

o'lganligidan xabarim bor. Bubnova xonimni bo'lsa, haqiqatan ham, uncha-muncha taniyman. Bu xonimdan bundan bir oy muqaddam pora olganman.

Je prends mon bien où je le trouve¹

Shu jihatdan Molerga² o'xshayman. Biroq men undan yuz so'm shilib olganim bilan, o'shandayoq o'zimga o'zim, uni yuz so'm emas, besh yuz so'mga chuv tushiraman deb so'z berganman. Yaramas xotin! Nojo'ya ishlar bilan shug'ullanadi. Mayliydi-ku, lekin ba'zan juda ham haddidan oshib ketadi. Sen meni, Xudo xayr bergur, Don Kixot³ deb hisoblama. Hamma gap shundaki, menga ancha qo'l keladigan ish bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham bundan yarim soat ilgari Sizobryuxovni uchratganimda juda xursand bo'ldim. Chamamda, Sizobryuxovni bu yerga boshlab kelganlar, olib kelgan kishi o'sha meshqorin bo'ladi, u, ayniqsa, meshqorinning qanaqa ishlar bilan shug'ullanishini bilaman, bas, shunday xulosa chiqarishim mumkinki...

– Shoshmagin, men uni boplab qo'lga tushirmasam! Anovi qiz haqida sendan eshitganim uchun ham xursandman, endi men boshqa ishning iziga tushdim. Men-chi, og'ayni, har xil xususiy ishlar bilan shug'ullanaman. Eh-ha, shunday odamlar bilan tanishmanki! Yaqinda bir knyaz uchun shundaqangi ishni axtarib topdimki, men senga aytsam, o'sha knyazdan shu ish keladi deb sira ham o'ylamaysan. Xohlasang, yana boshqa bir narsani – erli xotin voqeasini gapirib beraman. Sen og'ayni, menikiga kelib turgin, senga shunaqangi syujetlarni⁴ tayyorlab qo'ydimki, yozsang odamlar ishonishmaydi...

¹ *Je prends mon bien où je le trouve* (fransuzcha) – o'z nasibamni qayerdan topsam, shu yerdan olaman (frans.).

² **Jan Batist Poklen Moler** (1622-1673) – fransuz dramaturgi, aktyori, teatr arbobi, sahna san'ati islohotchisi. «Tartyuf», «Zo'raki nikoh», «Mizantrop», «Amfitrion», «Jorj Danen», «Xasis», «Dvoryanlar orasidagi meshchan», «O'qimishli ayollar», «Soxta bemor» komediyalar va «Don Juan» pesalar muallifi.

³ **Don Kixot** – ispan adibi Migel de Servantes (1547-1616) shunday nomli romanining qahramoni. Komik. Uning doimiy sherigi eshakda yuradigan Sancho Pansa.

⁴ **Syujet** (fransuzcha: sujet < lotincha: subjectum – predmet, mazmun, mohiyat, narsa) – 1) badiiy asarda, filmda voqea-hodisalar tasviri, bayonidagi izchillik va o'zaro aloqa;

– O'sha knyazning familiyasi nima? – deb so'zini bo'ldim, nimanidir yuragim sezib.

– Senga nima keragi bor? Mayli, ayta qolay: familiyasi Valkovskiy.

– Pyotr?

– Xuddi o'zi. Tanishmisan?

– Tanishman, lekin juda ham tanishmasman. Xo'p, Masloboev, bu janob tufayli seni ko'p yo'qlayman, – dedim men o'rimdan turar ekanman, – meni o'lardek qiziqtirib qo'yding.

– Mana, ko'rdingmi, eski og'aynim, xohlaganingcha yo'qlayver. Cho'pchak aytishga juda ustaman, ammo hamma-sining ham chegarasi bor-a, tushundingmi? Yo'qsa kredit¹ emas, obro'dan ham ajralasan, ya'ni bor burdingni yo'qotasan va hokazo!..

– Vijdon ko'targanicha.

Men hovliqib qolgan edim. U buni sezdi.

– Xo'sh, hozir men senga aytib bergan voqea haqida endi nima deysan? Ilojini o'ylab topdingmi yoki yo'qmi?

– Sen gapirib bergan voqea to'g'risidami? Yo'qsa ikki daqiqa meni kutib tur; hisoblashib kelay.

U bufetga² bordi va betakalluflik bilan Mitroshka deb atashadigan haligi kamzulli yigit-la go'yo to'satdan uchrashib qoldi. Nazarimda, Masloboev o'zi menga aytib bergandan ko'ra uni yaxshiroq bilar edi. Har qalay, ular birinchi martaba uchrashmayotganliklari ko'rinib turibdi. Mitroshkaning qiyofasi juda g'alati edi: yuzining chiziqlari keskin bo'lsa ham, istarasi issiq, ko'rinishda yosh, qorachadan kelgan, ko'zlarida jasorat chaqna-gan yigit edi. U o'zining qiyofasi va qizil shohi ko'ylak bilan kamzuli yarashib turgan qaddi-qomati bilan kishida juda alomat

badiiy asar mazmuni (bu yerda shu ma'noda); 2) tasviriy san'atda; tasvir ob'ekti, predmeti.

¹ Kredit (lotincha: creditum – qarz < credere – ishonmoq) – 1) foyda qaytarish sharti bilan, vaqtincha foydalanish uchun pul yoki moddiy mablag'lar berish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi; 2) shaxs yoki muassasaning o'ziga tegishli pullarni hisoblab qo'yiladigan schyoti; qarz, nasiya, kredit; mablag', chiqarilgan pul.

² Bufet (fransuzcha: buffet – stol) – 1) idish-tovoq, meva-cheva, ichimlik va shu kabilar saqlanadigan maxsus javon (shkaf) (bu yerda shu ma'noda); 2) katta oshxona va restoranlar, muayyan korxonalar qoshida tashkil etiladigan, yengil-yelpi ovqatlanish uchun mo'ljallangan do'kon; tamaddixona.

va iliq taassurot qoldirar edi. Uning harakatlari dovyurakligidan darak berar, shu bilan birga shu daqiqa o'zini sipo va ishbilarmand qilib ko'rsatishga uringanligi sezilib turardi.

– Gap bundog', Vanya, – dedi Masloboev oldimga qaytib kelib, – bugun soat yettida menga bir uchrashib ket! Balki, men biror narsa aytib berarman. Bir o'zimning qo'limdan ish kelmaydi, ilgari kelardi-yu, endi aroqxo'r va ishdan chiqib qolgan odamman. Lekin ilgarigi tanish-bilishlarim bor, shulardan ba'zi narsalarni surishtirib bilib olishim mumkin, shular menga ish beradi; rost, bo'sh vaqtlarimda, ya'ni, masalan, kayfim taraq bo'lmagan mahalda o'zim ham uncha-muncha ish qilaman, u ham tanishlar orqali... Ko'pincha ayg'oqchilar yordami bilan... Xo'sh, endi bas qilaylik... mana senga mening manzilim: Shestilavochnaya. Endi, uka, mening mazam qochib qoldi. Yana bitta oltin yulduzlidan¹ yutaman-u, uyga ravona bo'laman. Dam olaman. Kelsang, Aleksandra Semenovna bilan tanishtiraman, vaqt bo'lsa, she'riyat haqida suhbatlashamiz.

– Anovi haqda-chi?

– U haqda ham, balki, gaplasharmiz.

– Kelsam, kelarman, albatta, kelsam kerak.

VI BOB

Anna Andreevna anchadan beri meni kutib o'tirgan ekan. Natashaning maktubi haqidagi kechagi gapim uni juda qiziqtirib qo'yibdi. Shuning uchun u meni ertalab soat o'ndan kutishga boshlabdi. Nihoyat, men tushdan keyin, soat birdan oshganda kelsam, bechora kampirning toqati toq bo'lib, diqqati oshib o'tirgan ekan. Undan tashqari, u kechadan boshlab paydo bo'lgan yangi umidlari, kechadan beri tobi qochib, ma'yuslanib yurgan, shu bilan birga unga nisbatan ancha muloyim bo'lib qolgan Nikolay Sergeich haqida gapirib berishni istar edi. Men kelganimda u meni norozi va sovuq ifoda bilan qabul qilmoqchi va

¹ Oltin yulduz – aroq navi.

kelish-kelmasligim unga befarq bo'lgandek: «Nega kelding? Har kuni tentirab yurganing yurgan», – demoqchidek ko'rindi. U kech kelganim uchun achchiqlanardi. Ammo men shoshilardim, shuning uchun hech narsaga e'tibor bermay, Natashanikida kecha bo'lgan hodisalarning hammasini gapirib berdim. Kampir bechora katta knyazning kelgani, uning tantana bilan qiziga o'g'liga tegishni taklif etganini eshitgan zahoti, undagi soxta xafagarchilikdan asar qolmadi, Uning qanchalik sevinib ketganini tasvirlashga so'z ham ojizlik qiladi, u o'zini tamom yo'qotib qo'yib cho'qinar, yig'lardi, ikona oldiga kelib tiz cho'kib yer o'pard, meni quchoqlardi va shu zahoti Nikolay Sergeich oldiga borib o'z shodligini izhor etmoqchi bo'lardi.

– Menga qara, bo'tam, axir, u turli-tuman xo'rlik va haqoratlardan xafa bo'lib yuribdi. Endi bu gapni eshitsa, Natashaning murodi hosil bo'lganini bilsa, darrov hammasini esidan chiqaradi qo'yadi.

Men uni zo'rg'a to'xtatdim. Bechora kampir, yigirma besh yil eri bilan birga umr kechirganiga qaramay uni yaxshi bilmas edi. U men bilan birga Natasha oldiga borgisi kelib qoldi. Nikolay Sergeich uning bu ishini ma'qullashi u yoqda tursin, ishni tamom buzib qo'yishimiz mumkinligini tushuntirdim. Zo'rg'a u o'ziga keldi, lekin meni yana yarim soat ortiq olib o'tirib, jag'i tinmay gapirdi. «Bu xursandchiliklarni kimga aytib, yuragimni bo'shataman, – derdi u, – to'rt devor ichida kim bilan qolaman?» – Nihoyat, menga javob berishi kerakligini, Natasha meni kutaverib ko'zi teshilishini uqtirdim. Kampir menga oq yo'l tilab bir necha bor cho'qintirdi, Natashaga duo yubordi. Natasha tinch bo'lsa, shu kecha kechqurun qaytib kelolmasligimni eshitib yig'lab yuboray dedi. Nikolay Sergeichni bu gal ko'rmadim: u shu kecha tong otguncha boshi og'rib, eti uvushib uxlamay chiqibdi, hozir o'z kabinetida uxlab yotgan ekan.

Natasha ham meni ertadan beri kutayotgan ekan. Men kirganimda u odati bo'yicha uyda u yoqdan-bu yoqqa qo'l qovushtirganicha xayol surib yurardi. Hatto hozir ham men uni eslasam, jihozga kambag'al uyda bittagina o'zi, o'ychan holda intizor bo'lib, ko'zlarini yerga tikkanicha bemaqsad u yoqdan bu

yoqqa yurib turgani ko'zimga ko'rinadi.

U astagina, hamon yurishda davom etib nega kech kelganimni so'radi. Men hamma sarguzashtlarni qisqacha gapirib berdim, ammo u menga quloq solmasdi. U bir narsaning tashvishini tortayotgan sezilib turardi. «Nima yangiliklar bor?» – deb so'radim. «Hech qanaqa yangilik yo'q», – javob berdi u, ammo men uning ko'rinishidan, biror yangilik borligini va shu yangilikni aytish uchun meni kutayotganini, biroq odati bo'yicha hozir emas, ketayotganimda aytishini darrov sezdim. Uning shunday odati bor edi. Uning fe'liga tushunib qolganman. Shuning uchun indamay kutdim.

Biz, albatta, gapni kechagi voqeadan boshladik. Meni nihoyatda hayratga solgan narsa shu bo'ldiki, katta knyaz haqidagi taassurotlarimiz ikkimizniki ham xuddi bir xil edi. Knyaz unga aslo yoqmasdi. U ko'ziga kechagidan ham battar yomon ko'rinar edi. Biz knyazning kechagi tasodifiy ziyoratini birma-bir esladik. Keyin Natasha shunday dedi:

– Bilasanmi, Vanya, ko'pincha biror odam boshda senga yoqmasa, keyin, albatta, yoqib qoladi. Menda, masalan, hamisha shu hol yuz beradi.

– Koshkiydi, shundoq bo'lsa, Natasha. Men ham o'ylab-o'ylab shu xulosaga keidimki, agar knyaz tilyog'lamachilik qilyotgan bo'lsa ham, sizning uylanishingizga chindan va jiddiy rozilik beryapti...

Natasha uyning o'rtasida to'xtab menga tumtayib qaradi. Uning yuzi o'zgarib ketdi; lablari astagina dirillardi.

– Unday bo'lsa, qanday qilib u ayyorlik qilib yolg'on gapirar ekan? – so'radi u g'urur bilan o'zini bilmaslikka solib.

– Gap shunda-da! – dedim men tasdiqlashga shoshilib...

– Yolg'on gapirmagan bo'lsa kerak. Menimcha, bu to'g'rida o'ylab o'tirishning ham hojati yo'q. Hatto ayyorlik qilishga ham vaj topib bo'lmaydi. Nihoyat, uning nazarida, kim-manki, u meni shu darajada kalaka qiladi? Nahotki inson boshqa bir insonni shunchalik ranjitishga qobil bo'lsa?!

– Albatta, yo'q, – deb uning gapini tasdiqladim, ammo dilimda: «Sen bechora uyda u yoqdan bu yoqqa yurib faqat shu

haqda o'ylasang kerak, balki, mendan ham ko'ra ko'proq shubhalanayotgandirsan», – deb o'yladim.

– Eh, tezroq kela qolsaydi! – dedi u. – Kelib butun oqshom o'tirmoqchi edi, o'shanda. Modomiki, hammasini tashlab ketgan ekan, zarur ish chiqib qolgandir. Nimaligini bilmaysanmi, Vanya? Hech narsa eshitganing yo'qmi?

– Buni Xudo biladi. U hadeb pul to'playapti. Peterburgda dala-hovli baholab olayotganini eshitdim. Biz Natasha, bunaqa ishlarga tushunmaymiz.

– Rost, tushunmaymiz. Alyosha kecha qandaydir maktub haqida gapirgan edi.

– Biror xabardir-da. Keldimi, Alyosha?

– Keldi.

– Barvaqt keldimi?

– Soat o'n ikkida: u ko'p uxlaydi. Birpas o'tirdi; keyin men uni Katerina Fyodorovna oldiga jo'natdim.

– Shunday qilmasa bo'lmaydi-da, Vanya.

– O'zi bormoqchiasmidi?..

– Yo'q. O'zi ham bormoqchi edi.

U yana nimanidir aytmoqchi edi, lekin jim bo'lib qoldi. Men unga qarab kutib turdim. Uning chehrasi g'amgin edi. Men buning sababini so'ramoqchi ham bo'ldim, ammo botinolmadim. U hadeb so'rab-surishtirishni yomon ko'rar edi.

– G'alati yigit-da, – dedi u nihoyat, labini burib, betimga qaramaslikka urinib.

– Biror gap o'tganga o'xshaydi-a?

– Yo'q, shunchaki... U juda shirin so'z-u... Ammo...

– Mana, shunday qilib u barcha g'am-u tashvishdan qutuldi qo'ydi, – dedim men.

Natasha menga sinchiklab tikildi. Balki, bu qarashda u: «Ilgari ham uning g'am-u tashvishi uncha ko'p emas edi», – demoqchiday edi. Ammo, nazarida, mening so'zimda shu ma'no bordek tuyuldi-da, tumtayib oldi.

Lekin shu zahotiyoq yana xushchaqchaq, xushmuomala bo'lib qoldi. Bu gal u juda ham yuvosh, beozor edi. Men uning oldida bir soatdan ko'p o'tirdim. U qattiq xavotirda edi. Qiyaz

uni cho'chitardi. Natashaning ba'zi bir savollaridan men, kechagi o'tirishda u knyazda qanday ta'sir qoldirganligini bilishga qiziq-qanini payqadim. U knyaz oldida o'zini kerakligicha tuta bildimi? Xursandligini ochiq bildirib qo'ymadimikin? Xafa yoki, aksincha, ortiq darajada takabbur ko'rinmadimikin? Uning xayoliga yomon narsa kelmadimikin? Masxara qilib kulmadimikin? Undan nafratlanmagan bo'lsa go'rga-ya! Bu fikrlardan uning yonoqlari lovullab yonar edi.

– Bitta yaramas odam nima deb o'ylarkan deb shuncha xafa bo'lishning nima hojati bor? Sadqai sar, o'ylasa, o'ylay-versin! – dedim men.

– Nega yaramas bo'lar ekan? – so'radi u.

Natasha har narsadan hadiksirayverar, ammo qalbi pok, oqko'ngil edi. Uning badgumonligi ham qalbining pokligidan edi. U ajoyib oliyjanob va mag'rur qiz edi, u qadrlagan narsani uning ko'z oldida yerga ursalar, masxara qilsalar, aslo chidolmas edi.

Past odamning nafratiga u ham, albatta, faqat nafrat bilan javob bergan bo'lardi, ammo kim bo'lmasin, o'zi hurmat qilgan kishini masxara qilib kulsa, uning yuragi qon bo'lib ketar edi. Bu uning ko'ngli yumshoqligidan emas, balki, kiborlar hayotini kam bilganligidan, odamlarga o'rganmaganligidan, odamlarga aralashmaganligidan kelar edi. U bir umr odamlarga aralashmasdan o'sdi, nihoyat, eng ko'ngilchang odamlarga xos bo'lgan xususiyat (bu otasidan o'tgandir, ehtimol), odamlarni maqtash, o'jarlik bilan bir odamni o'zidan yuqori qo'yish, hovliqib ketib shu odamdagi fazilatlarni oshirib yuborish xususiyati g'oyat darajada kuchli edi. Bunday odamlar birovdan ko'ngli qolsa, juda og'ir ahvolga tushadi, ayniqsa, o'zi aybli bo'lgan vaqtda juda ham og'ir tuyuladi, nega ular qo'lidan shu ish keladi, deb o'ylaysan kishi. Bunday odamlarni har daqiqa umidsizlik kutadi. Bunday odamlar uchun o'z uylarida tinchgina o'tirishdan, kiborlarga aralashmaslikdan yaxshi narsa yo'q; men shuni ham payqadimki, bunaqangi odamlar o'z uylarini shu qadar yaxshi ko'rishadiki, hatto yovvoyilashib ketadilar. Ammo Natashaning boshiga juda ko'p g'am tushdi, ko'p tahqirlandi. Bu endi xasta bir

kimsa ediki, garchi men ayblayotgan bo'lsam-da, uni ayblab bo'lmasdi.

Men shoshilayotganim uchun o'rnimdan turdim. U menga kelganimdan beri uncha ro'yxush bermagan, men bilan odatdagidan ham ko'ra sovuq muomalada bo'lsa-da, ketayotganimni ko'rib hayron bo'ldi va yig'lab yuboray dedi. U meni qattiq o'pdi, ko'zlarimga uzoq tikilib qoldi.

– Bilasanmi, Vanya, – dedi u, – Alyosha bugun juda ham kulgimni qistatdi, men hayron qoldim: u ko'rinishda juda yoqimtoy, juda ham shod, baxtiyor edi. U parvonadek otilib kirdi. Shunday olifta ediki, oyna oldidan nari ketmadi. U shu qadar betakalluf ediki... Ko'p o'tirmadi ham. Menga konfet ham olib kelyapti-ya, tavba.

– Konfet? Nima bo'libdi, juda yaxshi, bu soddalik alomati. Ey ikkalangiz ham qiziqsizlar-da! Endi bir-biringizni kuzatish, bir-biringizni poylash, bir-biringizning ichki siringizni yuzingizdan bilib olish boshlandi (baribir, hech narsa tushunmaysizlar); bu ham baharnav. U ochiq, avvalgidek maktab bolasi. Sen-chi, senchi-a?

Esimda bor: Natasha hamma vaqt gap ohangini o'zgartirib Alyoshadan hasrat qilish yoki biror nozik masalani hal etish uchun oldimga kelgan va yo biror sirni aytib og'zidan chiqmasdan turib ko'nglidagini bilib olishimni istagan paytlarida menga shunday qarardi, uning ko'nglini olish uchun hoziroq bir qarorga kelishimni kutib yarim iljayib turar edi. Biroq shunisi ham esimda borki, shunday vaqtlarda men xuddi birovni koyimoqchi bo'lgandek darrov qovog'imni solib jiddiy bo'lib olar edim, haqiqatan, bu qiyofaga men juda tez kira olardim. Mening xo'm-rayishim va dimog'dorligim, sipoligim juda o'rinli bo'lardi, obro'lroq ko'rinardi, negaki, axir, odam degan narsa vaqti-vaqti bilan tanbeh eshitish zaruriyatini sezadi. Har qalay, Natasha hamma vaqt o'rtamizda shunday gap o'tgandan keyin ancha taskin topardi.

– Yo'q, menga qara. Vanya, – davom etdi u bir qo'lini yelkamdan olmay, ikkinchi qo'li bilan qo'limni qisib, ko'zlarimga xushomadgo'ylik bilan tikilib: – nazarimda, u mendan sovi-

gandek ko‘rinadi... Nazarimda, xuddi uylanganiga o‘n yil bo‘lgan-u, lekin hali ham xotini bilan xushmuomala maridek¹ ko‘rinib ketdi, axir, hali ancha ertamasmi-a?.. O‘ynab-kulib, o‘ralishib yurdi, ammo bular hammasi, menimcha, avvalgidek emas, shunchaki ko‘ngil uchun qilgandek tuyuldi... Katerina Fedorovna oldiga borish uchun juda shoshildi... Men unga gapirsam, u yo quloq solmaydi, yoki boshqa yoqdan gapiradi. Bilasanmi, bu asilzodalarga xos eng yomon bir odat, biz bu odatni tashlatish uchun qancha urindik. Xullas, u menga nisbatan beparvodek ko‘rindi... Ammo men nima qila olardim? Hasratimdan chang chiqqa boshladi! Ey Xudo, muncha ham biz talabchanmiz-a, Vanya! Injiq, o‘z so‘zlikmiz, a? Faqat endi payqayapman! Odamning aftidagi oddiy o‘zgarishni kechira olmaymiz, Xudo biladi, uning basharasi nimadan o‘zgardi ekan! Meni achitib-achitib gapirishga haqlisan, Vanya! Bir men o‘zim aybliman! O‘zimizga o‘zimiz g‘am orttirib, yana o‘zimiz oh-voh qilamiz... Rahmat, Vanya, meni ancha ovutding. Ey, koshkiydi, kela qolsa shu bugun! Haligi gaplardan achchiqlanar, balki.

– Nahotki urishib qolgan bo‘lsangiz! – dedim men hayron bo‘lib.

– Hech sir boy berganim yo‘q! Lekin biroz xafaroq edim, u esa xursand bo‘lib turib birdan o‘ychan bo‘lib qoldi va, nazarimda, men bilan sovuq xayrlashgandek bo‘ldi. Ha, oldiga odam yuboraman. Vanya, sen ham shu bugun kel.

– Albatta, kelaman, agar bir ish bilan tutilib qolmasam.

– Nima ish tag‘in?

– Ey, o‘zinga o‘zim tashvish orttirdim. Ha, bo‘libdi, albatta, kelaman.

¹ Mari (fransuzcha) – er.

VII BOB

Xuddi soat yettida Masloboevnikida bo'ldim. U «Shestilavochnaya» ko'chasida, uncha katta bo'lmagan bir hovlining fligelida¹, uch xonali ivirsigan uyda turar ekan, uy yaxshigina jihozlangan, ko'rinishda ro'zg'ori mo'l-ko'lginaga o'xshaydi, shu bilan birga, ortiq darajada betartibliги ko'rinib turardi. Menga eshikni o'n to'qqizlarga kirgan, soddagina, lekin yaxshigina kiyingan ozodagina va ko'zlari muloyimgina qiz ochdi. Men bu qiz, boya Masloboev gap orasida qistirib o'tgan va men bilan tanishtirmoqchi bo'lgan Aleksandra Semyonovnaning o'ziginasi ekanini darrov payqadim. U mening kimligimni so'radi va familiyamni eshitgandan keyin, kutayotganini, ammo hozir o'z kabinetida uxlab yotganini aytdi-da, uyga boshlab kirdi. Masloboev juda qulay yumshoq divanda, ustiga isqirt shinelini yopib, boshiga qirilib ketgan charm yostiqni qo'yib uxlab yotardi. Uyqusi juda ham ziyrak ekan, biz kirishimiz bilan shu zamona otimni atab chaqirdi.

– E, senmisan? Kutib yotibman. Hozir tushimda ko'rsam, sen kelib meni uyg'otyapsan. Demak, vaqti, qani ketdik.

– Qayerga boramiz?

– Xonimnikiga.

– Qanaqa xonim? Nega?

– Bubnova xonimnikiga, uning ishlariga barham berish uchun boramiz. O, uning husn-jamolini bir tomosha qilsangiz, – cho'zib gapirdi u Aleksandra Semyonovnaga yuzlanib va Bubnova xonimni eslab turib barmoqlarining uchini o'pib qo'ydi.

– Ana endi boshlandi, ichidan chiqarib gapiraveradi, endi, – dedi Aleksandra Semyonovna, – achchiqlanishini lozim deb topib.

– Tanishmasmisan? Tanishib qo'y, uka... Aleksandra Semyonovna, bu adabiyot generali; bularni bir yilda bir marta bepul ko'rish mumkin, qolgan vaqtlarda pulga ko'riladi.

¹ Fligel (nemischa: Flügel – qanot) – turar-joy binosiga yoki noturar binosiga qo'shimcha qurilgan kichik imorat, shuningdek, yakka tartibdagi qo'shimcha qurilish.

– Juda ahmog‘ini topib olgan-da bu. Siz uning gaplariga quloq solmang. Yana meni kalaka qilyapti. Qanaqa general bo‘lardilar?

– Shuni aytyapman-da, boshqacha deb. Sen esa, taqsiri olam, bizlarni uncha laqma deb o‘ylama. Biz ko‘rinishda shunday bo‘lganimiz bilan, aslida ancha aqllimiz, oshna.

– Quloq solmang, uning gapiga! Yaxshi odamlar oldida izza qilgani qilgan, uyatsiz. Undan ko‘ra biror marta teatrga olib borsang-chi.

– Ey, Aleksandra Semyonovna, undan ko‘ra uy ichingizni sevsangiz-chi. Nimaga ko‘ngil qo‘yish kerakligini unutmadingizmi? O‘sha so‘zni unutmadingizmi? Haligi sizga o‘rgatganim-chi?

– Hech esimdan chiqarganim yo‘q. Lekin bo‘lmag‘ur bir so‘z bo‘lsa kerak.

– Qani ayting-chi, qanaqa so‘z edi?

– Mehmon oldida sharmanda bo‘lib menga zaril kelibdimi. Balki, uyatli so‘zdir. Aytsam agar, tilim kesilsin.

– Demak, esingizdan chiqibdi-da-a?

– Chiqarganim yo‘q. Penatlar!¹ O‘z penatlaringizni seving... O‘ylab topgan gapni qarang! Balki, hech qanaqa penatlar bo‘lmagandir ham, nimaga ularni sevish kerak ekan? Shunday yolg‘on gapiradiki!

– Lekin Bubnova xonimnikida...

– Bubnovaga ham ajal kelsin, tuf! – Aleksandra Semyonovna jahl qilib, uydan chiqib ketdi.

– Ayni vaqti, ketdik. Xayr, Aleksandra Semyonovna! Biz chiqib ketdik.

– Ko‘rdingmi, Vanya, avval shu izvoshga o‘tiramiz. Xo‘sh. Ikkilamchi, men hali sen bilan xayrlashganimdan keyin ba‘zi narsalarni bilib oldim, bilganimda ham taxminan emas, aniq bildim. Men Vasilevskiyda yana bir soat qoldim. Anovi meshqorin eng razil haromzoda, ming eshikka kirib chiqqan fosiq, iflos narsalarga ishqiboz bo‘lgan yaramas odam. Bubnova esa shu qabildagi ishlari bilan ko‘pdan ma‘lum xotin. U yaqinda

¹ Penat – uy, uy ichi.

tuppa-tuzuk oilaning qizi bilan qo'lga tushishiga sal qoldi. Anovi yetimcha qizga kiydirgan anovi harir ko'ylaklar (hali o'zing aytganding-ku), meni tashvishga solib qo'ygan edi, chunki men bunga qadar ham ba'zi narsalarni eshitganman. Hali men yana ba'zi bir narsalarni bilib oldim, tasodifan eshitdim-u, lekin hammasi to'g'ri bo'lishi kerak. Qizning yoshi nechada?

– Aftidan o'n uchlarda.

– Lekin bo'yi pastroq bo'lsa kerak. Uni o'zi to'g'rilayveradi. Kerak bo'lsa, o'n birda deydi; kerak bo'lsa o'n beshga kirgan deydi. U bechoraning boshida ota-onasi, himoyachisi bo'lmasa...

– Nahotki?

– Sen nima deb o'ylagan eding? Bubnova xonim yuragi achiganidan yetimchani olibdi deb o'ylaysanmi? Modomiki, u yerga meshqorin tanda qo'ygan bo'lsa, gap o'sha. U Bubnova bilan shu bugun ertalab ko'rishgan. Anovi xumpar Sizobryuxovga bugun chinovnik va shtab ofitserining xotini, go'zal bir juvon va'da qilingan. Pulni po'choq deb biladigan savdogarvachchalar bunaqa narsalarga o'ch, hamma vaqt mansabini surishtiradilar. Bu haligi lotin grammatikasidagi gapga o'xshaydi, esingda bormi, mazmun qo'shimchadan afzalroq deyiladi. Oh-ho, men hali ham mastga o'xshayman-a. Bubnovaga bunday ishlar bilan shug'ullanishga yo'l qo'ymaymiz.

U politsiyani ham aldamoqchi bo'ladi. Bekor aytibsan! Mana shuning uchun men uning o'taka-sini yoraman. U biladiki, men eski odatim bo'yicha... Ishqilib, shunaqa gaplarda, tushunasanmi?

Menim esim og'ib qoldi. Bu gaplar mening yuragimni hovliqtirib qo'ydi. Men kechikmasaydik deb qo'rqardim va hadeb izvoshchini, tezroq hayda, deb qistardim.

– Tashvish qilma, chorasi ko'rib qo'yilgan, – dedi Masloboev. – Mitroshka u yerda. Sizobryuxov unga pul bilan chuv tushsa, iflos meshqorin natura¹ bilan to'laydi. Bu ham hali hal etilgan edi, Bubnova esa mening ulushim... Shuning uchun ham churq etolmaydi...

¹ Natura – pul evaziga to'lanadigan mol, mahsulot.

Biz yetib keldik, restoratsiya oldida to'xtadik, lekin Mitroshka deb atalgan odam u yerda yo'q edi. Izvoshchiga bizni restoratsiya eshigida kutib turishga buyurib, o'zimiz Bubnovanikiga jo'nadik. Mitroshka bizni darvoza tagida kutib turgan ekan. Oynalardan yorug' tushib turar, Sizobryuxovning mastona qahqahasi eshitalardi.

– Ular hammasi shu yerda, chorak soatcha bo'ldi, – dedi Mitroshka. – Hozir ayni vaqti.

– Biz qanday qilib kiramiz? – so'radim men.

– Mehmonmiz-da, – e'tiroz bildirdi Masloboev. – Bubnova meni taniydi. Mitroshkani ham. Rost, hamma yoq berk, lekin biz uchun emas.

U darvozani asta taqillatdi, darvoza Shu zahoti ochildi. Eshikni qorovul ochdi va Mitroshkaga ko'z qisib qo'ydi. Biz as-tagina ichkari kirdik: uydagilar kirganimizni payqashmadi. Qorovul bizni zinapoyadan olib chiqib, keyin eshikni taqillatdi. Undan kimligini so'radilar, u «Bir ish chiqib qoldi», – deb javob berdi, eshikni ochdilar, biz hammamiz birdan yopirilib kirib oldik. Qorovul g'oyib bo'ldi.

– Hoy, kim bu? – deb qichqirdi mast, sochlari hurpaygan Bubnova kichkinagina dahlizda sham ushlab turgan holda.

– Kim bo'lardi! – dedi Masloboev. – Bu qanday gap, axir, Anna Trifonovna, nahotki, aziz mehmonlarni tanimasangiz-a? Kim bo'lardi, Filipp Filippich-da!

– E Filipp Filippich! Sizmidingiz! Aziz mehmonlar... Qayoqdan shamol uchirdi?.. Men... mayli... Qani bu yoqqa...

U sarosimaga tushib qoldi.

– Qayoqqa bu yoqqa? Axir, bu yer to'sib qo'yilgan-ku... Yo'q, bizni tuzukroq kutib oling. Muzdakkinasidan ichgani keldik, qo'lbolasidan yo'qmi?

Bubnovaga jon kirdi.

– O, bunaqangi aziz mehmonlar uchun yer tagidan bo'lsa ham topaman, Xitoydan topdirib kelarman.

– Bir og'iz gap bor, Anna Trifonovna: Sizobryuxov shu yerdami?

– Sh... shu yerda.

– Xuddi o‘zginasi kerak-da menga. Qanaqa qilib u iflos mensiz aysh-ishrat qilishga jur’at etibdi-a?

– U sizni esidan chiqargani yo‘qdir. Allakimni kutayotgan edi, shu sizdirsiz, balki...

Masloboev eshikni itardi, biz mo‘ljallaganimizdek ikkita oynali deraza tagiga, yorongul qo‘yilgan savat kursilar va eski fortepyano turgan kichikroq uyga kirib qoldik. Hamma narsa joyida. Ammo biz kirmasdan turib, hali dahlizda turganimizdayoq Mitroshka yo‘q bo‘lib qoldi. Keyin bilsak, u ichkari kirmay, eshik orqasida turgan ekan. U keyin birovga eshik ochishi kerak edi. Haligi ertalabki Bubnova orqasidan mo‘ralab turgan pahmoq, yuziga upa-elik chaplagan xotin uning tutingan opasi ekan.

Sizobryuxov qizil daraxtdan yasalgan kichkinagina divanda o‘tirardi, oldida ustiga dasturxon yozilgan to‘garak stol, stol ustida ikki shisha iliq shamp¹an¹ vinosi, bir shisha jo‘ngina rom, konfet, pryanik, uch xil yong‘oq solingan likopcha. Stol yonida, Sizobryuxov ro‘parasida qirqlarga kirgan, cho‘tir, xunuk xotin o‘tirardi. Uning ustida qora shohi ko‘ylak, qo‘lida bronza bilaguzuk va to‘g‘nag‘ichlar taqib olgan, ammo u shtab zobit ayoli emas, balki bir boshqa ayol edi. Sizobryuxovning kayfi taraq, o‘zi juda xursand edi. Uning meshqorin yo‘ldoshi bu yerda yo‘q edi.

– Mana odamlar nima bilan mashg‘ul! – baqirdi ovozi boricha Masloboev, – tag‘in Dyussoga taklif qiladi!

– Filipp Filippich, xursand qildingiz, – g‘udurladi Sizobryuxov taltayganicha, hurmatimiz uchun o‘rnidan turib.

– Ichyapsanmi?

– Kechirasiz...

– Kechirasiz demay, mehmonlarni chaqirsang-chi. Sen bilan birga aysh surgani keldik, mana yana bitta mehmon olib keldim. Og‘aynim! – Masloboev meni ko‘rsatdi.

– Buni qara-yu, shamp¹an¹ vinosi emish, achigan karam sho‘rvaga o‘xshaydi.

– Xafa bo‘lyapsizmi?

¹ **Shamp¹an** (*fransuzcha*: Champagne – Fransiya¹dagi ayni vino dastlab rasm bo‘lgan Shamp¹an viloyati nomidan) – karbonat angidrid gazi bilan to‘yintirilib, germetik idishda qayta achitilgan uzumdan solingan, ko‘piklanib vijillab turadigan vino.

– Dyussoga ko‘rinishga ham botinolmaydi-ku, tag‘in chaqiradi-ya!

– U hozir Parijda bo‘lganini gapirib (berayotgan edi, -- dedi shtab ofitserka, – yolg‘on aytayotgan bo‘lsa kerak-a?

– Fedosya Titishna, xafa bo‘lmang... Bo‘lganmiz... Borganmiz.

– Ey, sendaqa dehqonga Parijni kim qo‘yibdi?

– Borganmiz, borish qo‘limizdan keladi. Biz u yerda Karp Vasilevich bilan ish ko‘rsatganmiz. Karp Vasilevichni taniydilarmi?

– Karp Vasilevichni tanib nima qilaman?

– Ha, shunchaki aytyapman-da... siyosiy ish... Biz u kishi bilan Parij yaqinidagi bir joyda, Juber xonimnikida ingliz toshoynasini sindirganmiz.

– Nimani sindirgansizlar?

– Toshoyna. Toshoyna bo‘lganda ham butun devorni egallaydigan, shiftgacha yetadigan oyna edi! Karp Vasilevich shunday mast edilarki, Juber xonim bilan ruschalab gaplashdilar. Toshoynaga tirsagini tirab turardi. Juber esa o‘z tilida bir narsa deb baqirdi: «Toshoynalar yetti yuz frank turadi, sindirasan!» – degan bo‘lsa kerak. U irjaydi-da, menga qaradi. Men esa ro‘parasidagi kresloda o‘tiribman. Yonimda chiroyli bir ayol, lekin mana bu bedavoday emas, quling o‘rgilsin, ishqilib, oromijon deysan. U: «Stepan Terentich, hoy Stepan Terentich! – deb baqirdi. – Qoq o‘rtasiga tushiraymi? Men esa: «Qoq o‘rta-siga!» – dedim, u mushtumi bilan qarsillatib solgandi, toshoyna chilchil bo‘ldi! Juberta dod deb to‘ppa-to‘g‘ri uning yuziga chang solib: «Hoy muttaham qayerdan kelding!» (o‘z tilida gapirdi). U bo‘lsa: «Sen Juber xonim, pulini ol, men ko‘nglimga kelganini qilaman», – dedi-da, shu zamonida unga olti yuz ellik frank chiqarib berdi: ellik frank kam berishga ko‘ndirdik.

Shu daqiqa biz turgan joydan ikki-uch xona naridagi eshik orqasidan dahshatli, chinqirgan ovoz eshitildi. Men cho‘chib tushdim, beixtiyor baqirib yubordim. Men u ovozni tanigan edim. U Yelenaning tovushi edi. Shu zahoti chinqiriq orqasidan ingragan ovoz, shovqin-suron, so‘kish, va nihoyat, shapaloq

ovozi aniq va ravshan eshitila boshladi. Bu Mitroshka, o'z ishini bajarayotgan bo'lsa kerak. Birdan eshik qattiq ochildi, rangi oppoq oqargan, ko'zlari xiralangan, olishaverib g'ijim-g'ijim bo'lib yirtilib ketgan oq harir ko'ylakda, sochlari to'zib ketgan Yelena uyga otilib kirdi. Men eshik ro'parasida turgan edim. Kira solib meni ikki qo'li bilan quchoqlab oldi. Hamma o'rnidan turib ketdi, shovqin-suron ko'tarildi. Uning orqasidan o'zining semiz dushmanini itdek qiynab sochidan burab sudrab Mitroshka kirdi.

Mitroshka halloslab uni ostonagacha sudrab keldi-da, oldimizga uloqtirdi.

– Mana u! Olinglar buni! – dedi mamnun ovoz bilan.

– Hoy, menga qara! – dedi Masloboev oldimga astagina kelib va yelkamdanda asta turtib, – haligi izvoshda qizni olib uyingga jo'na. Sening bu yerda ortiq ishing yo'q. Ertaga hammasini to'g'rilaymiz.

Men so'zini ikki qilmay itoat eta qoldim. Yelenani qo'li-dan ushlab bu yaramas uydanda olib chiqib ketdim. U yerda nima bo'lganini bilmayman. Bizni hech kim to'xtatmadi. Uy bekasi-ning esi chiqib ketgan edi. Bu ishlar shu qadar tez sodir bo'ldiki, u aralashishga ham ulgurmay qoldi. Izvoshchi bizni kutib turgan ekan, yigirma daqiqadan keyin mening uyimga yetib keldik.

Yelena chala o'likdek yotardi. Men uning ko'ylak ilgak-larini yechdim. Yuziga suv sepib divanga yotqizib qo'ydim. Uning isitmasi ko'tarilib, alahlay boshladi. Men uning rangsiz yuzchasiga, oqarib ketgan lablariga, sochmoy surib taralgan, lekin hozir parishon qora sochlariga, uning barcha usti-boshiga, ko'ylagining u yer-bu yerida saqlanib qolgan pushti lentalariga tikildim va bu qabih voqeaning tagiga yetdim... Bechora! Uning ahvoli tobora og'irlashmoqda edi! Men oldidan qo'zg'almadim, shu oqshom Natasha oldiga bormaslikka qaror qildim. Ahyon-ahyonda Yelena uzun kipriklarini ko'tarar va menga qarab-qarab qo'yardi, xuddi meni taniyotgandek uzoq va tikilib qarardi. Allamahalda, kechasi soat birlarga yaqin uxlab qoldi. Men uning oldida, yerga joy solib uxladim.

VIII BOB

Men juda erta turdim. Tong otguncha har yarim soatda uygʻonib, bechora mehmonimga qarar edim. Uning isitmasi bor, biroz alahlardi. Lekin ertalabga borib qattiq uxlab qoldi. Bu yaxshi alomat deb oʻyladim men, oʻzimcha. Lekin ertalab uygʻonib, bechora qiz uxlab turguncha birrov doktorga borib kelishga qaror qildim. Men xotinsiz oʻtgan oqkoʻngil bir chol doktorni tanirdim, u juda koʻp vaqtlardan beri bir nemis ayol – ekonomkasi¹ bilan birga Vladimirkayada turardi. Men shu cholnikiga ravona boʻldim. U soat oʻnda kelishga vaʼda berdi. Men borganimda soat sakkiz edi. yoʻl-yoʻlakay Masloboevnikiga bir kirib ketgim keldi-yu, lekin fikrimdan qaytdim: negaki u, balki, kechagi hodisalardan keyin hali uxlab yotgandir, undan tashqari, Yelena uygʻonib qolishi ham mumkin, kimsasiz mening uyimda yotganini koʻrib qoʻrqib ketishi ham mumkin. U kasal holda, qanaqa qilib, qachon menikiga kelganini unutib qoʻygan boʻlishi ham mumkin.

Men uyga kirib kelgan maholimda u uygʻondi. Oldiga borib hol-ahvolini soʻradim. U javob bermadi, ammo oʻzining oʻtkir, qora koʻzlari bilan menga uzoq tikilib qaradi. Nazarimda, hamma narsani tushungandek va es-hushi joyida edi. Ehtimol, indamay qoʻya qolishga odatlangani uchun menga javob bermagandir. Kecha ham, oʻtgan kuni ham u menikiga kelganida savolimga bir ogʻiz ham javob bermagan, faqat u mening koʻzlarimga hayrat va yovvoyi sinchkovlikdan tashqari yana qandaydir magʻrurlikni ifodalovchi koʻzlari bilan uzoq tikilgan edi. Endi esa uning boqishlarida qahr va hatto ishonchsizlik sezdim. Men isitmasi bormikin deb peshonasini ushlab koʻrmoqchi boʻlib edim, u indamasdan oʻzining kichkina qoʻllari bilan mening qoʻlimni surib qoʻydi va yuzini devorga oʻgirib oldi. Men endi bezovta qilmay qoʻya qolay deb nari ketdim. Uyimda katta mis choynak bor edi. Men uni anchadan beri samovar oʻrniga ishla-

¹ **Ekonomka** (*ruscha*) – boshqalarning, odatda, oliy tabaqali amaldorlarning xoʻjalik ishlarini boshqaruvchi xotin.

tib, unda suv qaynatar edim. O'tinim esa bor, qorovul bira to'la besh kunlik o'tin olib kirib qo'yardi. Men pechka yoqdim, suv olib kelib choy qo'ydim. Stolga choynak, piyola keltirib qo'ydim. Yelena men tomonga o'girilib nima qilayotganimga zehn solib yotdi. – Biror narsa ko'ngling tilaydimi? – deb so'radim. Ammo u yana teskari o'girilib yotdi, gapimga javob ham bermadi.

«Mendan nega achchiqlanarkin? – deb o'yladim. – Juda alomat qiz-a!»

Tanish doktorim va'dasiga vafo qilib xuddi soat o'nda keldi. U nemislarga xos hafsala bilan qizni ko'rdi, ozgina isitmalab turgan bo'lsa ham, hech qanaqa xavfli kasali yo'q deb menga tasalli berdi. «Buning boshqa bir kasali – eski yurak kasali bo'lishi kerak, ammo bu alohida bir tekshirib ko'rishni talab etadi, hozircha xavf-xatar yo'q», – deb qo'shib qo'ydi. Doktor unga uncha zarur bo'lmasa hamki, ko'ngil uchun suyuq dori va allaqanaqa kukun dorilar yozib berdi va shu zahoti: «Bu qiz qanaqa qilib bu yerga kelib qoldi», – deb so'rab qoldi, o'zi esa ajablanib uyimni ko'zdan kechirar edi. Judayam ezma edi bu chol.

Yelena esa chol tomirlarini ushlamoqchi bo'lganda qo'lini tortib oldi, tilini ko'rsatishni ham xohlamadi, shu bilan uni hayratda qoldirdi. Savollariga bir og'iz ham javob bermadi, faqat doktor bo'ynida osilib turgan katta Stanislav nishoniga tikilib qarab qoldi. «Boshi qattiq og'riyatgan bo'lsa kerak, – dedi chol, – lekin uning qarashlari juda ajib». Yelena haqida hozir gapirib o'tirishni ep ko'rmadim va: «Gap ko'p, ko'mir oz», – deb qo'ya qoldim.

– Kerak bo'lsa menga xabar qiling, – dedi u keta turib. – Hozircha xatar yo'q.

Men kun bo'yi Yelena yonida bo'lishga, to tuzalmaguncha yolg'iz o'zini qoldirmaslikka qaror qildim, ammo Natasha va Anna Andreevna meni kutaverib eslari ketishini o'ylab, hech bo'lmasa, Natashaga shahar pochtasidan xat yozib, bugun borolmasligimni xabar qilmoqchi bo'ldim. Lekin Anna Andreevnaga xat yozib bo'lmasdi. U meni o'zi bir kuni, Natasha kasal vaqtida, xabar qilganimda, illo-billo xat yozmasligimni so'radi.

«Sening xatingni ko'rsa, cholning tabiati xira bo'ladi, – derdi u, – bechora xatda nima yozilganini bilgisi keladi-yu, so'ramoqchi ham bo'ladi-yu, tag'in bo'yin yorimaydi. Lekin kuni bilan xafa bo'lib yuradi. Undan tashqari, «Bo'tam, xat yozganing bilan meni ko'nglim buziladi, xolos. Besh-o'n satr bilan nimani ayta olardi kishi! O'zingni ko'rib bitta-bittadan so'ragim keladi», – derdi. Shuning uchun men bitta Natashaning o'ziga yozdim va dorixonaga retsept¹ olib borganimda birato'la xatni ham pochtaga tashlab yubora qoldim.

Shu orada Yelena yana uxlab qoldi. Uyqusida u astagina ingrar va cho'chib-cho'chib tushar edi. Doktor to'g'ri aytdi, uning boshi qattiq og'rir edi. Ba'zan u qattiq chinqirib uyg'onib ketardi. Mening mehribonligimdan unga malol kelayotgandek jahl bilan qarardi. To'g'risini aytsam, bu menga juda og'ir botar edi.

Soat o'n birda Masloboev keldi. U sertashvish va parishon edi; bir daqiqagagina kiribdi, o'zi qayergadir juda shoshilyapti ekan.

– Ey og'ayni, shunaqa ko'rimsiz uyda turarsan deb o'ylagan edim, – dedi u yoq-bu yoqqa ko'z tashlab, – ammo qafasda turarsan deb o'ylamagan edim. Bu uy emas, bir qafas-ku. Bu ham mayli-ku-ya, lekin mana shu mashmashalar seni ishdan qoldiradi. Men bu haqda kecha Bubnovanikiga ketayotganimizdayoq o'ylagan edim. Men, og'ayni, mijozim va ijtimoiy ahvolim bo'yicha shunday odamlar toifasidanmanki, ularning qo'lidan birorta durustroq ish kelmaydi-yu, boshqalarga unday qil, bunday qil, deb nasihat qiladi. Endi menga qara, senikiga erta yoki indinga kelaman, sen esa yakshanba kuni ertalab menga, albatta, uchrash. U vaqtgacha bu qizning ishi bir yoqlik bo'lsa kerak deb o'ylayman. O'shanda sen bilan yaxshilab gaplashaman, chunki seni endi qo'lga olmasam bo'lmaydi. Bu ahvolda yashash mumkin emas. Men kecha senga faqat shama qilgan edim, endi bo'lsa mantiqiy ravishda tushuntiraman. Hoy, menga qara, og'ayni,

¹ **Retsept** (*lotincha*: receptum – olingan, qabul qilingan narsa) – 1) vrachning dori tarkibi, dozasi va undan qanday foydalanish haqida bemorga (odatda, dorixona uchun) beradigan yozma ko'rsatmasi (**asarda shu ma'noda**); 2) biror narsani tayyorlash haqida qoida va ma'lumotlar majmui.

nima, mendan qarzga pul olishni o'zingga or deb bilasanmi!..

– Kel-qo'y, g'idi-bidi qilaverma! – so'zini bo'ldim men uning, – yaxshisi, ayt-chi, kecha mojaro nima bilan tugadi?

– Nima bo'lardi, juda ham muvaffaqiyatli tugadi, ayni muddao bo'ldi, tushundingmi? Vaqtim ziq, fursatim yo'qligini va sendan boshqa ham dardi-kasalim borligini aytib qo'yish uchun bir daqiqagagina oldingga kirgan edim. Ha, aytgandek, uni biror yerga o'rnashtirasanmi yoki o'zingnikida tura turadimi? Negaki shu masalani ham hal qilish kerak.

– Buni hali o'zim ham bilmayman, rostin aytsam, maslahatingni olish uchun seni kutib o'tirgan edim. Xo'sh, buni qaysi asosga muvofiq o'z uyimda saqlay olaman?

– Ey, shuning ham g'amini yeb o'tiribsanmi, xizmatkor qiz qatorida turaveradi-da...

– Iltimos qilaman, sekinroq gapir. U kasal bo'lgani bilan, baribir, hushi o'zida, seni ko'rib, nazarimda, bir cho'chib ham tushdi. Kechagi gaplar esiga tushdi, shekilli.

Shu yerda men qizning xarakteri va unda sezgan hamma xususiyatlarni gapirib berdim. Mening so'zlarim Masloboevni juda qiziqtdi. Men uni bir oilaga olib borib qo'ysam dedim va chol-u kampirim haqida qisqagina gapirib berdim. Shunisi qiziqki, Natasha voqeasini qisman bilarkan. Undan: «Sen qayerdan bilasan?» – desam, shunday javob berdi:

– Shundoq. Ancha bo'lgandi, qulog'imga bir chalinib qolgan edi bir ish munosabati bilan. Axir, men senga aytgan edim-ku knyaz Valkovskiyni taniyman deb. Lekin uni o'sha chol-u kampirnikiga yubormoqchi bo'lganing yaxshi, yo'qsa siqilib qolasan. Yana bitta gap: uni sal-pal odam bashara qilib ki-yintirish kerak. Lekin, oshna, sen tashvishlanmay qo'ya qol, buni men o'z ustimga olaman. Yaxshi qol, tez-tez borib tur. U nima, uxlayaptimi?

– Shunaqaga o'xshaydi, – javob berdim.

Biroq u ketishi bilan meni Yelena chaqirdi.

– Kim u? – deb so'radi. Uning ovozi titrab ketdi, ammo menga hamon o'sha sinchkov va takabburona tikildi. Boshqacha qilib ayto olmayman ham.

Bu Masloboevning familiyasini aytdim. O'sha orqali men uni Bubnova qo'lidan qutqarib olganim, Bubnova undan juda qo'rqishini qo'shib qo'ydim. Bir narsalar yodiga tushib ketdi, shekilli, uning yonoqlari birdan lovullab ketdi.

– Endi Bubnova bu yerga hech qachon kelmaydimi? – so'radi Yelena menga sinchkov nazar tashlab.

Men uni tinchitishga tirishdim. U jim bo'lib qoldi, o'zining qaynoq panjalari bilan mening qo'limni ushladi, ammo shu zahotiyoq es-hushi joyiga kelgandek qo'limni itarib tashladi. «Nahotki rostdan ham u mendan shunchalik nafratlansa?» – deb o'yladim, o'zimcha. Bu uning odati bo'lsa kerak yoki... Bechora boshidan shuncha g'am-kulfat kechirganki, endi dunyoda hech kimga ishonmay qolgan.

Xuddi belgilangan vaqtda men dori olish uchun dorixonaga va yo'l-yo'lakay, ba'zan o'zim ovqatlanib turadigan va menga nasiyaga ovqat beradigan bir tanish traktirga¹ bordim. Bu gal uydan bir idish ko'tarib chiqdim va traktirdan Yelena uchun bir portsiya² tovuq sho'rva oldim. Lekin u tuz totmadi, sho'rva pechkada qoldi.

Unga dori ichirib men o'z ishimga o'tirdim. Uxlayapti deb o'ylagan edim, ammo bexosdan qayrilib qaradim. U boshini ko'tarib tikilganicha mening yozishimni ko'zdan kechirib turgan ekan, men o'zimni ko'rmaganga soldim.

Nihoyat, u rostakamiga uxlab qoldi va Xudoga shukurki, bu gal alahlamadi ham, ingramadi ham. Xayolim qochdi: Natasha mening ishlarimdan xabarsiz, bugun bormaganligim uchun mendan achchig'lanishi u yoqda tursin, xuddi mana shundog' men unga kerak bo'lgan mahalimda beparvolik qilganimdan xafa bo'lishi ham mumkin, deb o'yladim. Balki, tashvish chiqib qolgandir, menga topshiradigan ishlari bordir, men esa aksiga olib borolmayapman.

Anna Andreevnaga kelsak, endi ertaga unga nima deb ja-

¹ Traktir – 1) oddiy restoran (bu yerda shu ma'noda); 2) mehmonxonalı restoran.

² Porsiya (lotincha: portio) – har bir odamga tegishli ulush, hissa. 1) biror narsaning kimgadir, nimagadir mo'ljallangan o'lchovli bo'lagi, miqdori; 2) restoran yoki oshxonada bir xo'randaga mo'ljallangan ma'lum miqdordagi yegulik (bu yerda shu ma'noda kelgan).

vob berishimni bilmasdim ham. O‘ylab-o‘ylab, axiri, u yoqqa ham, bu yoqqa ham yugurib borib kelmoqchi bo‘ldim; hammasi bo‘lib ikki soat uyda bo‘lmasligim mumkin. Yelena uxlab yotibdi, borib kelganimni payqamaydi ham. Men irg‘ib o‘rnimdan turdim, paltomni yelkamga tashladim, furajkamni¹ olib endi chiqib ketayotgan edim, birdan Yelena chaqirib qoldi. Men hayron bo‘ldim. Nahotki u yolg‘ondan o‘zini uxlaganga solib yotgan bo‘lsa?

Shuni ham qayd qilib o‘tayki, Yelena go‘yo men bilan gaplashishni istamagandek bo‘lsa ham, tez-tez chaqirib turishi, o‘zini taajjublantirgan narsani so‘rayverishi buning aksini isbot etardi va ochig‘ini aytsam, bu menga yoqardi.

– Siz meni qayerga bermoqchisiz? – so‘radi u men oldiga kelganimdan keyin. Umuman u qandaydir bexosdan, kutilmagan savol berib qolardi. Bu gal hatto men savoliga darrov tushunolmay ham qoldim.

– Hali anovi tanishingizga meni allaqanday xonadonga bermoqchi bo‘lganingizni aytdingiz. Men hech qayoqqa borishni istamayman.

Men unga engashdim: yana harorati ko‘tarilgan, isitmalab yotardi; men uni yupatib, tinchita boshladim, agar u menikida qolishni istasa, hech yerga bermasligimni aytdim. Gapirib turib paltom bilan furajkamni yechib qo‘ydim. Uni shu ahvolda yolg‘iz tashlab ketishga ko‘zim qiymadi.

– Yo‘q, boravering! – dedi u shu damdayoq mening qolayotganimni sezib. – Uxlamoqchiman, hozir uxlab qolaman.

– Qanaqa qilib yolg‘iz o‘zing qolasan?.. – dedim men hang-mang bo‘lib. – Ammo men ikki soatga ham qolmay kelib qolarman.

– Boravering dedim-ku. Bir yil kasal bo‘lib yotsam, bir yil uydan chiqmay o‘tirasizmi, – u jilmayishga urindi va go‘yo qalbidan barq urib chiqayotgan yaxshi tuyg‘ular bilan kurashayotgandek menga g‘alati qilib qarab qo‘ydi. Bechora! Odamoviligiga, g‘azabli ko‘rinishiga qaramay uning mehrli, pokizagina

¹ **Furajka** (fransuzcha: fourrage – yem-xashak tayyorlovchining bosh kiyimi; fourre – somon) – erkaklarning gardishli va qisqa soyabonli bosh kiyimi.

qalbi o'zini ko'rsatib turar edi.

Men oldin Anna Andreevnanikiga yugurib borib keldim. U meni joni halqumiga kelib kutayotgan ekan, kirishim bilan o'pkalay boshladi. O'zi bo'lsa, juda tashvish tortayotgan ekan; Nikolay Sergeich hozir ovqatdan keyin hovlidan chiqib ketibdi. Qayerga ketgani noma'lum. Sezishimcha, kampirsho hovliqib ketib, o'zining odati bo'yicha shama qilib hamma gapni aytib qo'yganga o'xshaydi. Keyin o'zi ham shunga iqror bo'ldi: shunday xushxabarni unga aytmay turolarmidim. Buni eshitgandan keyin, kampirning gapicha Nikolay Sergeichning qovog'idan qor yog'ibdi-yu, hech narsa demabdi, «Hatto savollarimga javob ham bermadi». Birdan ovqatdan keyin o'tlanibdi, g'oyib bo'libdi. Bularni gapirarkan Anna Andreevna o'zi qo'rqqanidan qalt-qalt titrardi, u Nikolay Sergeichni birga kutib o'tiraylik deb yolvordi. Men ko'nmadim, balki, ertaga ham kelolmasman, to'g'risini aytsam ogohlantirish uchun kelgandim, deb qattiq turib oldim. Bu gal urishib ketishimizga sal qoldi. U ko'z yoshi qildi; achchiq-achchiq gaplar aytdi, lekin men endi eshikdan chiqib ketayotgan paytimda yugurib kelib bo'ynimdan quchoqlab oldi va unday «g'aribdan» xafa bo'lmasligimni, uning so'zlarini ko'nglimga olmasligimni so'radi.

Natashani yana yolg'iz topaman deb o'ylamagan edim. Shunisi qiziqki, nazarimda, u mening kelishimdan kechagidek, umuman oldingi safarlardagidek xursand emasdi. Go'yo men uni xafa qilgandek yoki xalaqit bergandek. Bugun Alyosha keldimi? – degan savolimga: «Kelishga keldi, ammo ko'p o'tirmadi. Bugun kechqurun kelishga va'da qildi», – deb javob berdi u o'ychanlik bilan.

Kecha kechqurun kelganmidi?

– Y-yo'q. Uni ushlab qolibdilar, – dedi u tez-tez gapirib.

– Xo'sh, Vanya, o'zingning ishlaring qalay?

U nima uchundir gapimizni boshqa yoqqa chalg'itmoqchi bo'lganini sezdim. Men unga tikilib qaradim. U xafa ko'rinardi. Mening diqqat bilan tikilayotganimni sezib jahl aralash yalt etib menga qaradi, u yoq-bu yog'imdan o'tib ketgandek bo'ldi uning bu qarashi. «Uning boshiga yana kulfat tushgan, – deb o'yladim

men, – lekin u menga aytishni istamayapti».

Ishlaring qalay, deb bergan savoliga men Yelena voqeasi-ni ipidan ignasigacha hikoya qilib berdim. Mening hikoyam uni g'oyat qiziqtdirdi va taajjublantirdi.

– Ey tangrim! O'sha kasal qizni yana yolg'iz qoldir-dingmi-a? – dedi u hovliqib.

– Bugun kelishini istamagan edim-ku, ammo kelmasam, mendan xafa bo'larsan, balki, menda ishing bordir degan xayol bilan keldim, – dedim.

– Ish deysanmi, – g'udurladi u o'ychanlik bilan, – ish-ku bor-a, Vanya, lekin, yaxshisi, boshqa safarda. Biz, biznikiga bordingmi?

Men gapirib berdim.

– Ha, Xudo biladi endi, otam bu gaplarga qanday qarar-kin. Ha, endi qanday qarasa ham, buning nima ahamiyati bor...

– U nima deganing? – so'radim men, – biror jiddiy gap bor, shekilli.

– Yo'q, shunchaki... Otam qayerga ketdi ekan-a? Anovi gal ham mening oldimga ketgan deb o'ylagan edinglar. Vanya, bilasanmi, iloji bo'lsa, ertaga kel. Balki, bir sir aytarman... Faqat seni bezovta qilishga vijdonim chidamaydi, endi, uyingga, meh-monning oldiga borganing ham ma'qul. Uydan chiqqaningga ikki soat bo'lib qolgandir, a?

– O'tdi. Xayr Natasha. Xo'sh, bugun Alyosha sen bilan qanday muomala qildi?

– Ha, Alyosha deysanmi? Hech nima... Bunga qiziqu-verganingga hayronman.

– Ko'rishguncha yaxshi qol, do'stim.

– Yaxshi bor, – u menga parvosizlik bilan qo'l cho'zdi va xayrlashuv oldidan unga qarashimdan qochgandek yuzini o'girib oldi. Men hayron bo'lib uning oldidan chiqdim. «Ha, – deb o'yladim men, – bosh qotiradigan gaplar ko'p. Axir, bu hazila-kam ish emas. Ertaga kelsam, o'zi yana hamma gapni gapirib beradi qo'yadi».

Men uyga dilim siyoh bo'lib qaytdim va eshikdan kiri-shim bilan hang-mang bo'lib qoldim. Uy ichi qorong'i bo'lsa

ham, Yelena divanda boshini quyi solganicha chuqur xayolga botib o'tirganini payqadim. Xayol daryosiga botgandek, menga qaramadi ham. Oldiga borganimda u o'zicha nimalar deb shivirlardi. «Yana alahlayaptimikin-a?» – deb o'yladim.

– Yelena do'stim, nima bo'ldi senga? – so'radim men yoniga o'tirib, yelkasidan quchoqlab.

– Men bu yerdan ketaman... Unikiga bora qolganim yaxshiroq, – dedi u menga boshini ko'tarmasdan.

– Qayerga? Kimnikiga? – so'radim men hayron bo'lib.

– Bubovanikiga. Men undan juda ko'p qarz emishman, oyimni o'z puliga ko'mgan emish... Onamni qarg'ashini xohlamayman, men uning qo'lida ishlab hamma qarzlarimdan qutulishni istayman... O'shanda undan o'zim ketaman. Hozir yana qaytib o'shanikiga boraman.

– Tinchlan, Yelena, unikiga borib bo'lmaydi, – dedim men. – U seni qiynaydi, u seni xarob qiladi...

– Mayli, xarob qilaversin, qiynayversin, – dedi alam bilan Yelena so'zimni bo'lib, – qiynalgan bitta menmi, hamma ham, mendan yaxshiroqlar ham qiynaladi. Buni menga ko'chada bitta gadoy xotin gapirdi. Men qashshoqman, qashshoq bo'lishni xohlayman. Umr bo'yi qashshoq bo'laman; oyim o'layotgan paytda shunday degan. Men ishlayman... Mana bu ko'ylakda yurishni xohlamayman...

– Men ertagayoq senga boshqasini olib beraman. Men kitoblaringni ham olib kelib beraman. Sen shu yerda turasan. Agar o'zing xohlamasang, seni hech kimga bermayman, xavotirlanma.

– Men oqsoch bo'laman.

– Yaxshi, yaxshi! Faqat hozir tinchlan, yot, uxla!

Bechora qizning ko'z yoshlari duv-duv oqdi. Sekin-asta ho'ngrab yig'lay boshladi. Men nima qilishimni bilmasdim: suv ichirdim, chakkalarini, boshlarini qo'llardim. Nihoyat, u tamom holsizlanib divanga yiqildi, yana shaqillatib isitmasi tuta boshladi. Men uni to'g'ri kelgan narsalar bilan o'rab tashladim. U uyquga ketdi, lekin notinch uxladi, har daqiqa cho'chib-cho'chib uyg'onar edi. Bugun uncha ko'p yurmagan bo'lsam ham qattiq

charchadim, vaqtliroq yotishga qaror qildim. Miyamni og'ir xayollar chulg'ab oldi. Bu qiz boshimga tashvish orttirishini sezardim. Ammo hammadan ko'p meni tashvishga solgan Natasha va uning ishlari edi. Umuman, hozir esimga tushyapti, hech qachon uyquga ketayotganda o'sha kun oqshomidagidek og'ir ruhiy holatga tushgan emasman.

IX BOB

Shu kuni men uyqudan ancha kech, ertalab soat o'nda, mazam qochibroq uyg'ondim. Boshim aylanar va og'rir edi. Men Yelenaning o'rniga qaradim, o'rin bo'sh edi. Shu vaqtda o'ng tomondagi hujramdan allaqanday ovoz – supurgi ovozi eshitildi. Men qaragani chiqdim. Yelena bir qo'lida supurgi, bir qo'li bilan o'zining hali o'sha kechadan beri yechib tashlamagan harir ko'ylagining etagini ko'tarib olib polni supurayotgan edi. Pechka uchun tayyor qilib qo'yilgan o'tinlar bir chekkaga to'plab qo'yilgan, stol artilibdi, choynak tozalanibdi, xullas kalom, Yelena tozalagan ekan.

– Yelena! – baqirdim men. – Kim seni pol supurgin deyapti? Sen kasalsan, axir, nima, sen menga oqsoch bo'lish uchun kelibsanmi?

– Kim bu yerni supurardi? – so'radi u qaddini ko'tarib menga tik qarab. – Men endi kasal emasman.

– Ammo men seni ishlatish uchun olib kelgan emasman, Yelena. Bu ham Bubnovaga o'xshash yegan-ichganlarimni yuzimga soladi deb qo'rquyapsan, shekilli. Mana bu cho'ltoq supurgini qayerdan topding? Supurgim yo'q edi-ku! – dedim men unga hayrat bilan boqib.

– Bu mening supurgim. Buni o'zim bu yerga olib kelganman. Buvamning ham polini supurib berardim. Supurgi o'sha vaqtdan beri mana shu yerda, pechkaning tagida yotgan ekan.

Men xayol surganimcha uyga kirdim. Balki, yanglishayotgandirman-u, biroq, nazarimda, mening mehmondo'stligim-

dan u xijolat chekayotgandir, har xil yo'llar bilan u tekintomoq emasligini isbot qilishga tirishayotgani ko'rinardi. «Muncha serjahl qiz-a?» – Oradan ikki daqiqa ham o'tmay o'zi kirib keldi va indamasdan boshimdan oyog'imgacha tikilib kechagi joyga – divanga o'tirdi. Shu o'rtada men choy qaynatdim, damladim, unga bir piyola quyib berib, bir burda oq non uzatdim. U so'z qaytarmay oldi. U kechadan beri tuz totmagan edi.

– Ana, supurgi bilan yaxshi ko'ylagingni bulg'atib qo'yibsan, – dedim men yubkasining etagida kattakon dog'ni ko'rib.

U u yoq-bu yog'iga qaradi va piyolani yerga qo'ydi, sovuqqonlilik bilan indamay ko'ylagini ikki qo'li bilan changallab bir tortishda boshidan oyog'igacha yirtib tushirdi. Keyin u menga chaqnab turgan ko'zlari bilan tikilib qaradi. Rangi quv o'chib ketgan edi.

– Nima qilyapsan, Yelena? – baqirdim men, endi bu qizning g'irt jinni ekaniga ishonib.

– Bu yomon ko'ylak, – dedi u hayajonidan nafasi tiqilib, – nega buni yaxshi ko'ylak deysiz? Men uni kiymayman, – chinqirdi u birdan o'rnidan turib. – yirtib tashlayman. Men unga «meni yasantir» degan emasman. U o'zi meni zo'rlab yasantirdi. Men oldin ham bittasini yirtib tashlagan edim, buni ham yirtaman! Yirtaman! Yirtib tashlayman!..

U jon holatda yana ko'ylagiga yopishdi. Bir zumda ko'ylakni burda-burda qilib tashladi. Yelenaning rangi bo'zdek oqardi, qalt-qalt titrab oyoq ustida zo'rg'a turardi. Men uning bunchalik qahr-u g'azab qilishiga hayron bo'lib og'zimni ochganimcha anqayib turar edim. U ham menga, xuddi mening ham uning oldida biror aybim bordek, jahl bilan tikilib turar edi. Men nima qilishim kerakligini bilardim.

Men, unga shu bugun ertalabning o'zidayoq yangi ko'ylak sotib olishga qaror qildim. Mana bu yovvoyi, alamzada qizga mehribonlik bilan yondoshish kerak edi. U shunday o'qrayib qarar ediki, go'yo uning ko'zlari insofli odamni sira ko'rmandek edi! Modomiki, shuncha qattiq jazoga qaramay avvalgi ko'ylagini burda-burda qilib yirtib tashlabdimi, demak, yaqinda-

gina sodir bo'lgan dahshatli daqiqalarning shohidi bo'lgan mana bu ko'ylakni ham shunday g'azab bilan yirtib tashlashi tabiiy edi.

Chayqov bozorida yaxshigina, oddiygina ko'ylakni arzon garovga sotib olish mumkin edi. Aksiga olib hozir qo'limda bir chaqa ham pulim yo'q. Mayli, qarzga pul olsa bo'ladigan ishonchli bir kishi bor, bugun o'sha tomon, chayqov bozor tomon borishim kerak edi. Kecha o'ringa yotganimda o'shanikiga borishga jazm qilgan edim. Shlyapamni oldim. Yelena xuddi bir narsa kutayotgandek meni sinchiklab ta'qib etib turardi.

– Tag'in ustimdan qulflab ketasizmi? – so'radi u, kalitni qo'limga olganimda.

– Azizim, – dedim men uning oldiga borib, – bunga xafa bo'lma. Sen kasalsan, birortasi kelib qolsa, qo'rqib ketishing mumkin. Agarda Xudo ko'rsatmasin Bubnova kelib qolsa-chi!

Men bu gapni ataylab aytdim. Aslida men unga ishonmaganim uchun ustidan bekitib ketardim, nazarimda, u birdan ketib qolayotgandek edi. Vaqtincha ehtiyot bo'lib turishga jazm qildim, Yelena indamay qo'ya qoldi, bu gal ham ustidan bekitib ketdim.

Men ko'p tomlik bir asarni uch yildan beri nashr etayotgan noshirni tanir edim. Ba'zan pul zarur bo'lib qolgan mahallarda o'shandan ish olar edim. Haqini yaxshi to'lardi. Men bir haftada boshqalarning asaridan foydalanib yozilgan bir maqola topshirishga va'da qilib undan yigirma besh so'm olishga muvaffaq bo'ldim. Men romanimni yozish uchun fursat topaman degan umidda edim. Pul zarur bo'lib qolganda shunday qilardim.

Pul olganimdan keyin chayqov bozoriga ravona bo'ldim. U yerda eski-tuski sotadigan bir tanish kampirni topdim. Men unga Yelenaning taxminan bo'yi qandog'ligini tushuntirdim. U bir zum o'tmay, yuvilsa, bir martagina yuvilgan, pishiq-puxta rangi ochiq chit ko'ylakni juda arzon bahoga topib berdi. Kichkina ro'molcha ham oldim. Pulini to'lab turib Yelenaga yana bitta arzongina po'stin yoki shunga o'xshash qishlik kiyim ham olish kerak, deb o'yladim. Havo sovuq, uning qishga hech narsasi yo'q edi. Lekin bu xarajatni keyingi galga qo'ydim. Yelena juda arazchi, kibrli qiz edi. Xudo bilsin, u hali mana bu

ko'ylakni ham qanday qabul qilar ekan? Qo'ylakning mumkin qadar soddasini, ko'rimsizginasini, eng jo'nini tanlashga harakat qildim. Buning ustiga ikki juft ip paypoq, bitta jun paypoq oldim. Uning betobligini va uyning sovuqligini bahona qilib buni bera olaman. Unga ichki ko'ylak ham kerak edi. Ammo men bularning hammasini u bilan yaqindan tanishib olganimdan keyin olishga qaror qildim. Qaravotni to'sib qo'yadigan eskiroq parda ham sotib oldim, bu juda zarur va Yelena bundan xursand bo'lishi mumkin edi.

Olgan narsalarimni bir tugun qilib uyga soat birda qaytdim. Qulfim hech sharpasiz ochilar edi, shuning uchun kelganimni Yelena sezmadim. U stol oldida mening kitob, qog'ozlarimni titib turganini payqadim. Mening sharpamni eshitib o'qiyotgan kitobini shartta yopdi va qip-qizarib stoldan nari ketdi. Men kitobga qaradim: bu mening ayrim kitob holida bosilib chiqqan, tepasiga mening nomim yozilgan birinchi romanim edi.

– Siz yo'g'ingizda bugun kimdir eshikni taqillatdi, – dedi u go'yo: «Mana, bekitganingni jazosi», – deb meni masxara qilgandek.

– Doktor emasmikin-a, – dedim men, – ovoz berdingmi Yelena?

– Yo'q.

Men indamay tugunni yechib undan xarid qilingan ko'ylakni oldim.

– Mana, azizim Yelena, – dedim men uning yoniga kelib, – mana bu ustingdagi juldur-juldur kiyimda yurib bo'lmaydi. Shuning uchun men senga har kun kiyadigan odmi ko'ylak sotib oldim.

Suv tekin, hammasi bo'lib bir so'm yigirma tiyin. Sen ham tashvish tortmasang bo'ladi. Buyursin.

Ko'ylakni uning oldiga qo'ydim. Yelena qizarib ketdi va ko'zlarini katta ochib menga tikildi.

U nihoyatda ajablangan va, nazarimda, qattiq xijolat chekayotgandek edi. Ammo ko'zlarida qandaydir yumshoq va muloyim bir ifoda jilvalandi. U indamagandan keyin men stolga qaraganimcha qoldim. Qilgan ishimdan hayratlanib bir narsa de-

moqchi bo'ldi-yu, biroq hech narsa demay yerga qarab oldi.

Boshim borgan sari qattiq og'rib, borgan sari qattiqroq aylana boshladi. Ochiq havoda yurib kelganimning ham qittak foydasi tegmadi. Lekin nima bo'lsa ham Natashanikiga borish kerak edi. Uning haqidagi tashvishim kechadan beri pasaymas, aksincha tobora oshib bormoqda edi. Birdan, nazarimda, Yelena meni chaqirgandek bo'ldi. Unga qayrilib qaradim.

– Siz bir yoqqa ketganingizda meni ustimdan bekitmang, – dedi u boshqa yoqqa qarab turib, barmoqlari bilan divan popuklarini tarab, go'yo butun borlig'i bilan shu mashg'ulotga berilib ketgandek. – Men hech yoqqa ketib qolmayman.

– Yaxshi, men roziman, Yelena. Ammo biror begona odam kelib qolsa-chi? Kim biladi deysan, kim keladi...

– Unday bo'lsa, kalitni menga tashlab keting, men ichidan bekitib olaman, taqillatsalar uyda hech kim yo'q deyman, – dedi-yu, «Bu oson gap-ku!» degandek menga qarab qo'ydi.

– Kiringizni kim yuvadi? – deb so'rab qo'ydi u to'satdan, javob berishga ulgurmasdan turib.

– Shu yerda, bir ayol yuvadi.

– Men kir yuvishni bilaman. Kecha ovqatni qayerdan oldingiz?

– Traktirdan.

– Men ovqat qilishni ham bilaman. Sizga ovqatni endi o'zim pishiraman.

– Qo'ysang-chi, Yelena, qanaqa qilib sen ovqat pishirishni bilarding? Bekorchi gaplarni gapirma...

Yelena indamay boshini quyi solib o'tirdi. Mening gapimdan xafa bo'ldi, shekilli. Oradan o'n daqiqacha o'tdi, ikkimiz hamon jim o'tirar edik.

– Sho'rva, – dedi u yerdan boshini ko'tarmay.

– Sho'rva? Qanaqa sho'rva? – so'radim men ajablanib.

– Sho'rva qilishni bilaman. Oyim kasal vaqtida sho'rva pishirib berar edim. Bozorga ham borar edim.

– Mana, ko'rdingmi, sen qanday kibrlisan, – dedim men uning yoniga o'tirib. – Men senga chin dilimdan yordam qilmoqchiman. Endi sen yolg'izsan, ota-onang yo'q, bechora bir

faqirsan. Men og'ir ahvolda qolsam, sen ham yordam qilgan bo'larding. Lekin sen bunday mulohaza yurgizishni xohlamayapsan, kichkinagina iltifotim ham senga malol kelgandek, xuddi men ham Bubnovaga o'xshash yuzingga soladigandek shu zahoti yaxshilikni bir ish bilan qaytarmoqchi bo'lasan. Agar shunday bo'lsa, bu uyat, ayb, Yelena.

U javob bermas, lablari titrar, aftidan, u menga bir narsa aytmoqchi edi. Lekin o'zini bosib jim o'tirardi. Men Natasha oldiga borish uchun o'rnimdan turdim. Bu gal men Yelenaga kalitni tashlab ketdim. Biror kishi kelib taqillatsa, kimligini so'rab qolishni tayinladim. Nima uchundir, Natashaning boshiga og'ir bir ish tushgan-u, mendan yashirayotganga o'xshardi. Bir daqiqaga bo'lsa ham uning oldiga kirib chiqmoqchi bo'ldim.

Ha, aytganim keldi. U meni yana sovuq, malol kelgandek qarshi oldi. Uning ro'yxush, bermagani menga og'ir botdi, lekin chiqib ketishga oyog'im tortmadi.

– Oldingga bir daqiqagagina kirdim, Natasha, – dedim men, – mehmonimni nima qilsam ekan, deb sen bilan maslahatlashmoqchi edim. – Shundan keyin men hovriqib Yelena to'g'risida gapira boshladim, Natasha meni indamay tingladi.

– Nima deb maslahat berishimni ham bilmayman, Vanya, gaplaringga qaraganda, juda alomat qizga o'xshaydi. Menimcha, u xo'rlangan, yurak oldirgan bir bebaxt qizga o'xshaydi. Mayli, u oldin tuzalsin. Biznikiga joylashtirmoqchimisan?

– U rozi bo'lmayapti? Hech yoqqa ketmayman deydi. Xudo bilsin, biznikilar nima deyisharkin, nima qilishimni o'zim ham bilmayman. Xo'sh, do'stim, o'zing qalaysan? Kecha mazang qochib turganga o'xshagandi? – deb so'radim qo'rqibgina.

– Ha... nima uchundir bugun ham boshim og'rib turibdi, – javob berdi u xomushgina, – biznikilardan hech kimni ko'rmadingmn?

– Yo'q. Ertaga borib kelaman. Axir, ertaga shanba-ku...

– Shanba bo'lsa, nima bo'libdi?

– Kechqurun knyaz keladi...

– Kelsa, nima bo'libdi? Esimdan chiqqani yo'q.

– Yo'q, o'zim... shunchaki...

Natasha ro'paraginamga kelib to'xtadi, ko'zlarimga uzoq tikildi. Bu gal uning boqishida allaqanday qat'iylik, o'jarlik, hayajon, jo'shqinlik alomati bor edi.

– Bilasanmi, Vanya, – dedi u, – Xudo xayringni bersin, uyingga bor, menga juda ham xalaqit beryapsan...

– Jonim, Natasha! Senga nima bo'ldi? Nima gap o'zi? – dedim men hayrat bilan, kreslodan irg'ib turib.

– Hech gap bo'lgani yo'q! Hammasi, hammasini ertaga bilasan, hozir o'zim tanho qolishni istayman. Eshityapsanmi, Vanya. Ket hozir! Hozir seni ko'rishga toqatim yo'q, bor!

– Axir, hech bo'lmasa...

– Hamma, hammasini ertaga bilasan! Ey Xudo! Ketasanmi, yo'qmi?

Azbaroyi esankirab qolganimdan nima qilishni bilmay chiqib ketdim. Mavra orqamdan yugurib dahlizga chiqdi.

– Nima, achchig'lanyaptimi? – so'radi u, – bugun unga ro'para bo'lishdan ham qo'rqyapman.

– Nima bo'ldi! Bilmaysanmi!

– U uch kundan beri qorasini ko'rsatmaydi.

– Qanaqa uch kun? – so'radim men hayrat bilan. – Kecha ertalab keldi, tag'in kechqurun ham kelmoqchi degan edi-ku kecha?

– Qanaqa kechqurun! U ertalab ham kelgani yo'q! Aytyapman-ku uch kundan beri bedarak deb! Nahotki, ertalab keldi deb yolg'ondan aytgan bo'lsa.

– O'zi aytdi.

– Be, – dedi Mavra o'ylanib qolib. – Kelmaganini sendan yashirgan bo'lsa, demak, juda ham qattiq alam qilgan ekan-da. Obbo qizi tushmagur-e!

– Axir, o'zi nima gap, aytsang-chi!

– Ey, mening ham boshim qotib qolgan. Nima qilishimni ham bilmayman, – davom etdi Mavra qo'llarini kerib. – Kecha ikki marta meni uning oldiga yubordi, ikki marta ham yo'ldan qaytardi. Bugun esa men bilan gaplashgisi ham kelmaydi. Sen Alyoshani bir ko'rishing kerak. Men oldidan bir qadam nari ketishga ko'nglim bo'lmayapti.

Jonim halqumimga kelib zinapoyadan pastga yugurib tushdim.

– Kechqurun kelasanmi? – baqirdi orqamdan Mavra.

– Ko‘ramiz, – dedim men yo‘l-yo‘lakay. – Balki, sening oldingga kelib-ketarman, nima gapligini sendan so‘rarman. Agar boshim omon bo‘lsa...

Yuragimga bir narsa bo‘lgandek siqilib og‘riy boshladi.

X BOB

To‘ppa-to‘g‘ri Alyoshanikiga jo‘nadim. U otasinikida – «Maloe Morskoe» ko‘chasida turardi. Yolg‘iz o‘zi istiqomat qilishiga qaramay knyazning kvartirasi ancha katta, Alyosha bu kvartiraning ikkita, juda chiroyli xonasini ishg‘ol etardi. Men Alyoshanikiga ahyon-ahyonda bir yoki ikki marta kelganman. U esa mening uyimga, ayniqsa, Natasha bilan dastlabki tanishgan kezlارimizda tez-tez kelib turardi.

Alyosha uyda yo‘q ekan. Men uning xonasiga o‘tdim-u, mana shu maktubni yozib qoldirdim.

«Alyosha, nazarimda, esingizni yo‘qotib qo‘yganga o‘xshaysiz. Axir, seshanba kuni kechqurun dadangiz muruvvat qilib, siz uchun Natashaning qo‘lini so‘radi, siz bundan g‘oyat shod edingiz, bunga men ham guvohman, ammo hozirgi vaziyatda sizning xatti-harakatingiz bir qadar g‘alati, xo‘p deng. Natashaning qanday ahvolga tushirganingizni bilasizmi? Har qalay, mening bu qisqagina maktubcham, bo‘lajak rafiqangiz oldida nihoyat darajada beandishalik qilayotganingizni eslatar. Sizga o‘git qilishga hech qanaqa haqqim yo‘qligini juda yaxshi bilaman, ammo bunga e‘tibor bermayman.

Mening maktubim haqida u hech narsa bilmaydi, sizning bormay yurganingizni u aytgan emas».

Men konvertni yopishtirib maktubni uning stoli ustida qoldirdim. Alyoshaning xizmatkori: «Aleksy Petrovich uyda deyarli bo‘lmaydilar, endi kelsalar ham, yarim kechada, tongga yaqin keladilar», – dedi.

Men uyga arang yetib keldim. Boshim aylanib oyoqlarim bo'shashib titrardi. Uyimning eshigi ochiq. Uyda Nikolay Sergeich Ixmenev meni kutib o'tirgan ekan. U hayrat bilan Yelenaga tikilganicha stol yonida o'tirar, Yelena ham hayron bo'lib, churq etmay unga qarar edi. «Qiziq ish bo'libdi-ya, – o'yladim men, – Yelena uning ko'ziga juda g'alati ko'rinsa kerak».

– Voy, inim-ey, bir soatdan beri seni kutaman-a, ammo seni bu ahvolda ko'raman deb sira o'ylamagan edim, – davom etdi u uyni ko'zdan kechirib, sekingina Yelenaga imlab qo'yib. Uning ko'zlarida hayrat ifodalanardi, ammo yaqinroq kelib, sertashvish va g'amgin ekanligini ko'rdim. Yuzi dokadek oqargan edi.

– O'tir-chi, o'tir, – dedi u, parishonlik bilan, – mana, shoshilib seni oldingga keldim, ish bor; o'zingga nima bo'ldi? Afti-boshing bir holatda-ya.

– Tobim qochib turibdi. Ertalabdan beri boshim aylanadi.

– Ehtiyot bo'l, beparvolik qilma. Shamollagandirsan.

– Yo'q, shunchaki... asablarim buzilgan. Ba'zan shunday bo'lib turadi. Xo'sh, o'zingiz sog'misiz?

– Baharnav... Senikiga shoshib kelganimdan shunaqa... Senda bir ish bor. O'tir.

Men kursini yaqin surib u bilan yuzma-yuz o'tirdim. Chol men tomon salgina engashdi-da, shivirlab gap boshladi:

– Qiz tomonga qarama, u haqda gaplashayotganimizni bilmasin, go'yo boshqa narsa to'g'risida gaplashgandek ko'rinaylik. Bu o'tirgan mehmon qiz o'zi kim?

– Keyin hammasini tushuntirib beraman, Nikolay Sergeich. Bu shu uyda turgan va qandolat do'konida o'lgan Smit cholning nabirasi, kambag'al, qoq yetim qiz.

– Ha, ha, uning nabirasi bor ekan-da! Inim, bu juda g'alati qiz ekan! Shunday tikilib qaraydiki, Xudo haqqi, yana besh daqiqa kelmasang bu yerdan qochib ketardim. Eshikni ham arang ochdi. Shu chog'gacha churq etmaydi. Shunday tikiladiki, kishining yuragi orqasiga tortib ketadi, odamzotga o'xshamaydi-ya! U qanaqa qilib bu yerda paydo bo'lib qoldi? Ha, ehtimol, buvasining o'lganini bilmay, kelib qolgan bo'lsa kerak-a?

– Ha, bu bechora juda ham baxtsiz qiz. Chol qazo qila turib buni esga olgan edi.

– Ha! Bobosi qanday bo'lsa, nevarasi ham shunday. Keyin menga hammasini gapirib berarsan. Balki, shunchalik baxtsiz, bechora ekan, biror narsa bilan yordam qilarmiz... Xo'sh, endi unga chiqib tur, deya olmaysanmi, chunki sen bilan gaplashadigan jiddiyroq gaplar bor.

– Ketadigan yeri yo'q-da. U shu yerda turadi.

Men cholga voqeani, qo'limdan kelganicha, qisqacha tushuntirdim, gap orasida, uning oldida gapiraverish ham bo'ldi, u yosh bola, deb qo'ydim.

– Ha, rost... Yosh bola degin. Ammo, inim, meni dovdiratib qo'yding. Sen bilan birga turadi-ya, Xudoyo, tavba!

Chol taajjub bilan unga yana qaradi. Yelena o'zi haqida gap borayotganini sezib, barmoqlari bilan divan popuklarini titib indamay yerga qaraganicha o'tirardi. U yangi ko'ylagini kiyib olgan, ko'ylak o'ziga juda mos kelgan edi. Sochlarini silliq tarabdi, yangi ko'ylak kiygani uchun shunday qilgan bo'lsa kerak. Umuman, uning ko'zlarini chaqchaytirib turishi bo'lmasa, ancha yoqimtoy qiz edi.

– Gapning po'skallasini aytish kerak, inim, gap shuki, – deb boshladi chol, – gap ko'p, juda zarur gap...

Chol boshini quyi solganicha o'tirar va «gapning po'skallasini aytish kerak» degani bilan so'zni nimadan boshlashini bilmas edi.

– Bilasanmi, Vanya, men senga katta bir iltimos bilan keldim. Biroq eng oldin... senga ba'zi bir narsalarni tushuntirish kerak, nihoyatda nozik ish...

U yo'talib olib menga ko'z qirini tashlab qo'ydi; qaradi-yu, o'zi qizarib ketdi; qizardi-yu, o'zidan o'zining no'noqligidan jahli chiqib ketdi; jahl aralash gap boshladi:

– Ha, nimasini ham tushuntirib o'tirardim! O'zing tushunasan. Gapning po'skallasi shuki, men knyazni duelga chaqiraman. Sendan shu ishga bosh bo'lib, mening sekundantim¹

¹ **Sekundant** (lotincha: sekundans, secundantis – yordam, ko'mak beruvchi) – duel qatnashchilaridan har bir raqibning duel shartlari haqida muzokara olib boruvchi va ularning bajarilishini kuzatib turuvchi ishonchli kishisi.

bo'lishingni iltimos qilaman.

Men cho'chib tushib, stul suyanchig'iga o'zimni tashladim, unga baqrayganimcha qarab qoldim.

– Nega baqrayyapsan, xo'sh! Meni jinni bo'lib qolgan deb o'ylayapsanmi?

– Nikolay Sergeich! Nimanı bahona qilasiz, maqsad nima? Nihoyat qanaqa qilib shu...

– Bahona! Maqsad! – baqirdi chol, – juda soz!

– Yaxshi, yaxshi, nima deyishingizni bilaman, ammo bu ishingiz bilan nimaga erishasiz? Buning natijasi nima bo'ladi? Xudo haqqi hech narsaga tushunmayapman.

– O'zim ham hech narsaga tushunmassan, deb o'ylagandim. Eshit bo'lmasa: bizning sudlashishimiz tugadi (ya'ni yaqin kunlarda tugaydi, ba'zi bir rasmiy jihatlari qoldi, xolos); men mahkum etildim. Men o'n mingcha to'lashim kerak, shunday hukm chiqardilar. Bunga Ixmenevka qishlog'i ketadi. Binobarin, endi anavi razil odam pulini oladi. Men esa Ixmenevkani topshirib, pulini to'ladim deguncha, xoli odam bo'laman qo'yaman. Mana shunda men bosh ko'taraman. Unday qilib ham, bunday qilib ham, muhtaram knyaz meni ikki yil haqorat qilib keldingiz; mening nomimni, oilam nomusini bulg'adingiz, men bularning hammasiga chidashim kerak edi! Men u vaqtda sizni duelga chaqirolmadim. O'shanda chaqirsam, siz menga ochiqdan ochiq: «Seni qara-yu, hiylakor, pulni ertami, kechmi mening foydamga hukm bo'lishini sezib, to'lamaslik uchun meni o'ldirmoqchisanda! Yo'q. Oldin ko'raylik, nima hukm chiqarilar ekan, keyin chaqiraver!» – der edingiz. Endi, muhtaram knyaz sud tugadi, siz qanoatlandingiz, binobarin, hech qanaqa to'sqinlik yo'q. Shunday bo'lgandan keyin marhamat qilib maydonga chiqsinlar. Mana gap nimada. Xo'sh, qani, ayt-chi, nihoyat, o'zim uchun, hamma uchun qasos olishga mening haqim yo'qmi?

Uning ko'zlari chaqnar edi. Men unga javob bermay, tikilganimcha miq etmay o'tirardim. Men uning yashirin fikrini bilib olmoqchi bo'lardim.

– Menga qarang Nikolay Sergeich, – dedim nihoyat, – baqamti gaplashib, bir-birimizni tushunib olish uchun, men bilan

ochiq gaplasha olasizmi?

– Gaplasha olaman! – dedi u qat’iy.

– Shuni ayting-chi, qasos olish hissiga sizni duelga chiqishga majbur etyaptimi yoki ko’nglingizda boshqa gap ham bormi?

– Vanya, – dedi u, – o’zing bilasan, men gaplashganda ba’zi bir nozik masalalarga tegishga hech kimga ruxsat bermayman, ammo bu gal u qoidadan chetga chiqishga to’g’ri keladi. O’zing ham o’tkir fahmi-farosating bilan shu nozik yerga tegmaslik mumkin emasligini darrov payqading. Ha, mening boshqa maqsadim bor. Bu maqsad – xarob bo’lgan qizimni qutqarish, uni halokat jari tomon sudrab borayotgan falokatdan asrab qolishdir.

– Biroq, duel bilan uni qanaqa qilib qutqarmoqchisiz?

– Hozir ular boshlamoqchi bo’lgan ishga xalaqit berish bilan. Sen, o’ylamaki, mening qalbimda otalik mehri va shunga o’xshash zaif hislar qo’zg’alibdi deb. Bular hammasi behuda gaplar! Men qalbimning ichini hech kimga ko’rsatmayman. Uni sen ham bilmaysan. Qizim meni tashlab ketdi, o’ynash deb uyimdan ketdi, men ham uni endi qalbimdan yulib tashlaganman, o’sha oqshom men uni qalbimdan butunlay yulib tashlaganman. Esingda bormi? Basharti uning surati oldida yig’layotganimni ko’rgan bo’lsang, bu menda kechirish niyati tug’ildi degan so’z emas. Men o’shanda ham kechirgan emasman. Men yo’qolgan baxt, barbod bo’lgan orzular uchun yig’ladim, lekin hozirgi qizim uchun emas. Balki, tez-tez yig’lab turarman ham, ammo bolamni avvallari dunyoda hamma narsadan ortiq sevganimga endi iqror bo’lishdan nomus qilmaganimdek, bunga iqror bo’lishdan ham nomus qilmayman. Ehtimol, bular hammasi mening hozirgi harakatlarimga zidma-ziddir. Sen, modomiki, kechgan qizingizning taqdiriga beparvo ekansiz, bo’lmasa nima uchun edi u yerda bo’layotgan tayyorlanishlarga aralashasiz, deyarsan. Javob beraman: birinchidan, anavi pastkash, hiylakor odamning tantana qilishiga yo’l qo’ymayman, ikkinchidan, eng oddiy insonparvarlik, odamgarchilik hissi meni aralashishga majbur etyapti. Garchi u endi mening qizim bo’lmasa hamki, u ojiz, himoyasiz va aldangan bir kimsa, uning umrini xazon etish

uchun battaroq aldashyapti, bu ishga men to'g'ridan to'g'ri aralasha olmayman, bilvosita — duel orqali aralasha olaman. Duelda meni o'ldirishlari yoki yarador qilishlari mumkin. Nahotki, mening qizim shu to'siqni bosib o'tib, balki, anavi podshohning qizi singari mening jasadim ustidan hatlab o'tib, mening qotilimning o'g'li bilan nikoh o'qitdirarkan-a? (Esingda bormi, bizda shunday bir kitob bor edi, sen o'sha kitobdan o'qishga o'rgangan eding), shunda bir podshohning qizi otasining jasadi ustidan aravada o'tib ketgani yozilgan edi. Undan tashqari, hamon duel masalasi ko'tarilgandan keyin knyazimizning o'zi to'yni to'xtatadi. Xullas kalom, men bu nikohga tish-tirnog'im bilan qarshiman. Shu nikohni buzish uchun qo'limdan kelganicha urinaman. Endi tushundingmi?

— Yo'q. Agar siz Natashaga yomonlikni ravo ko'rmasangiz, qanday qilib bu nikohga mone' bo'lasaiz. Axir, turmushga chiqish bilan u sha'niga dog' tushirgan malomatlardan xalos bo'lishi mumkin. Axir, u hali uzoq yashaydi-ku... Nomini pokiza qilib olishi kerak-ku.

— O'sha asilzodalarning gap-so'ziga tupurdim deyishi kerak u! Uning nomusini yerga uradigan narsa, asosan, mana shu nikoh, ana o'sha qabih odamlar, jirkanch oqsuyaklar muhiti. Ularga oliyjanob mag'rurlik bilan javob bersin! Shundagina, balki, men unga yordam qo'lini cho'zarman. Mana shunda ko'ramiz, mening aziz bolamni malomat qilishga kim jur'at eta olar ekan!

Bu o'taketgan johillik meni hayratga soldi. Biroq, men cholning jahl ustida, azbaroyi kuyib ketganidan gapirayotganini bilardim.

— Bu o'ta johillik, binobarin, shafqatsizlikdir, — dedim. — Siz u bechora ojizadan shu qadar og'ir iroda talab etyapsizki, tug'ilishda bu kuchni unga bermagansiz. Nahotki siz uni faqat knyaginya bo'lish niyatidagina bu nikohga rozilik bergan deb o'ylasangiz? U sevadi, axir, bu kuchli muhabbat qismati azaliy-ku. So'ng siz Natashadan oqsuyaklar jamiyatining fikriga nafrat o'qishni talab etasiz-u, o'zingiz unga sajda qilasiz! Knyaz sizni xo'rladi, aldab-suldab knyaz avlodiga urug' bo'lmoqchi degan

qabih soʻzlar bilan sizni xalq koʻzida sharmanda qildi, siz oʻylaysizki, ular tomonidan rasmiy ravishda qilingan taklifni Natasha rad etsa, bu avvalgi tuhmatlarga xotima beruvchi ochiq javob boʻladi deb, siz shuni istaysiz. Siz oʻzingiz knyazning mulohazalari oldida tiz choʻkyapsiz. Uni oʻz xatosiga iqror qildirmoqchisiz. Siz knyazni masxara qilmoqchi, undan qasos olmoqchisiz, bu niyatlarga erishish uchun qizingizning baxtini qurbon qilmoqchisiz. Bu xudbinlik emasmi?

Chol qovogʻidan qor yogʻib, anchagina gʻiring etmay turdi.

– Nohaqlik qilyapsan menga, Vanya, – dedi nihoyat. Kipriklarida koʻz yoshi munchoqdek yiltilladi. – Xudo haqqi, adolatsizlik qilyapsan. Mayli, bas qilaylik! Afsuski, qalbimni yorib senga koʻrsatolmayman, – davom etdi u oʻrnidan qoʻzgʻalib, shlyapasini olar ekan. – Shuni aytib qoʻyay: sen qizimning baxti haqida gap ochding, lekin men mana shu baxtga sira-sira ishonmayman! Basharti men aralashmagan taqdirda ham nikoh boʻlmaydi, mana koʻrasan!

– Nega, axir? Nega shunday deb oʻylaysiz, siz biror sirni bilasizmi? – deb yubordim men qiziqsinib.

– Yoʻq, aytarli narsa bilmayman. Biroq bu iflos tulki bu ishga bejiz ahd qilgan emas. Hammasi behuda gap, hiyla-yu nayrang! Shu gapim esingdan chiqmasin – bu ishning tagidan misi chiqmasa, otimni boshqa qoʻyaman! Ikkilamchi, toʻy boʻlsa, demak, u razil odamning koʻnglida hech kimga maʼlum boʻlmagan maxfiy bir siri bor, bu nikohning unga qandaydir bir foyda keltiradigan yeri bor, lekin nimaligiga aqlim yetmaydi. Mana endi oʻzing ayt, qalbingga havola qil, qanday qilib bu nikohdan qiz baxtli boʻla oladi? Halitdan uning sevgisi koʻngliga urgan, halitdan taʼna qilayotgan, xoʻrlayotgan bola uylangandan keyin uni hurmat qilmay qoʻyadi, ranjitadi, kamsitadi. Shu bilan bir vaqtda u sovigan sari qizda sevgi kuchayadi, rashk, alam, sitam, kulfat boshiga tushadi. Ish borib ajralishga taqaladi, shuning orqasida, balki, jinoyat ham sodir boʻlmogʻi mumkin... Yoʻq, Vanya! U yerda bir ishni boshlagan boʻlsangiz, sen yordam bera-
yotgan boʻlsang, oldindan aytib qoʻyayki, Xudoyi taolo oldida

o'zing javob berasan, biroq unda vaqt o'tgan bo'ladi. Yaxshi qol!
Men uni to'xtatdim.

– Menga qarang, Nikolay Sergeich, shunday qilaylik: sabr etib turaylik. Xotirjam bo'lingki, bu ish faqat siznigina tashvishga solayotgani yo'q, zo'rlik qilmasdan, yaxshilikcha uni, masalan, duelsiz bitar. Vaqt eng yaxshi qozi deydilar! Shuni ham aytib qo'yayki, sizning o'ylagan narsangiz xomxayol. Naftotki knyaz duelga rozi bo'ladi deb o'ylaysiz-a?

– Nega qabul qilmas ekan? Esing joyidami o'zi!

– Xudo haqqi, qabul qilmaydi! Shunga ishoninki, u juda asosli bahona topadi va bu ishni shunday sipolik bilan ijro etadiki, ikki o'rtada kulgi bo'lganingiz qoladi...

– Menga qara, Xudo xayr bergur! Sen ishning beliga tepdinghm! Nega u qabul qilmas ekan! Yo'q, Vanya. Sen g'alati odamsan, chinakam shoirsan! Xo'sh, seningcha, men bilan duelga chiqish or-nomusmi? Men undan kam emasman. Men keksa, haqoratlangan otaman; sen rus yozuvchisisan, demak, o'zingga yarashur hurmating bor, sekundantim bo'la olasan va... va... Men tushunolmay ham qoldim, tag'in senga nima darkor...

– Mana, ko'rasiz, u shunday bahonalar topadiki, siz o'zingiz birinchi bo'lib, otishishning sira ham iloji yo'q ekaniga iqrar bo'lasiz.

– Hm... Yaxshi, do'stim, mayli, sening aytganingcha bo'la qolsin! Men kutaman, albatta, ma'lum bir vaqtgacha. Ko'ramiz, vaqt o'zi nimalarni ko'rsatar ekan. Ammo jigarim, gap bundoq bo'lsin, menga so'z ber, u yerda ham, Anna Andreevnata ham bu haqda og'iz ochmaysan.

– So'z beraman.

– Yana... Vanya, Xudo xayringni bersin, menga ham hech qachon bu haqda og'iz ochmaslikka so'z ber!

– Yaxshi, so'z beraman.

– Yana bitta iltimos: bilaman, azizim, balki, biznikida zerikib ham qolarsan, lekin ilojini topsang, tez-tez borib tur. Bechora Anna Andreevnam seni shunday yaxshi ko'radiki, va... sensiz shunday zerikadiki... Ha, o'zingdan o'tadigan gap yo'q-a, Vanya?

U mening qo'limni mahkam qisdi. Men chin ko'nglimdan unga va'da berdim.

– Endi-chi, Vanya, oxirgi, nozikroq bir gap qoldi; rost ayt, puling bormi?

– Pul! – takrorladim men ajablanib.

– Ha (chol qizarib ketdi va yerga qarab oldi), uyingga qarab, inim... mana bu sharoit... Har xil zarur harajatlaring borligini ocd'ylasam... (ayniqsa, hozir bo'lishi mumkin), mana jigar, bir yuz ellik so'mni hozircha ishlatib tur.

– Bir yuz ellik so'm-a, hozircha emish, aytishga oson... Sudlashib yutqizgan paytingizda...

– Vanya, senga gap uqtirish qiyin bo'lib qolibdi-da! Har xil zarur xarajatlar chiqib qolishi mumkin, tushungin, axir. Kishi-ning yonida puli bo'lsa, beli baquvvat, mustaqil bo'ladi. Balki, hozir senga kerak ham emasdir, ammo birdan zarur bo'lib qolishi ham mumkin. Har holda, men senga tashlab ketaman. Topgan-tutganim shu bo'ldi. Ishlatmasang, qaytib berarsan. Xayr bo'lmasa! Ey Xudo, kasalsan-ku! Rangingda ranging qolmabdi.

Men qarshilik qilmadim, pulni oldim. U pulni nima uchun tashlab ketayotgani oydan ham ravshan edi.

– O'zim ham zo'rg'a turibman, – javob berdim.

– Beparvolik qilma, Vanya, jon bolam. Ehtiyot bo'! Bu-
gun hech qayoqqa borma. Anna Andreevnaga ahvolingni tushun-
tirib qo'yaman. Doktor kerakmasmi-a? Ertaga yana xabar olar-
man, Xudo xohlasa, agar o'zim sog' bo'lsam. Oyoq ustida tura
bilsam. Endi yota qolsang bo'lardi. Xo'p, xayr. Xayr, qizim; tes-
kari qarab olganini qara-ya buning. Menga qara, jigarim! Mana
yana besh so'm, bu qizga. Ammo men berganimni unga aytna,
o'zing unga u-bu olib berarsan, oyog'igami, ustigami... Ishqilib,
asqatib qolar. Xayr do'stim, xayr...

Men uni darvozagacha kuzatib chiqdim. Qorovuldan ov-
qat keltirib berishni so'rashim kerak edi. Yelena haligacha ovqat-
lanmagandi...

Biroq o'z xonamga qaytishim bilan, birdan boshim ayla-
nib ketdi-yu, uy o'rtasiga gup etib yiqildim. Yelena chinqirib
yuborgani va chapak chalib meni ushlab qolishga yugurgani

esimda. Xotirimda saqlanib qolgan so'nggi taassurot shu edi. Keyin qarasam, ko'rpada yotibman. Qolganlarini Yelena gapirib berdi: ovqat olib kirib qolgan qorovul bilan meni divanga olishibdi. Hushimga kelib ko'zimni ochsam, har gal tepamda engashib turgan Yelenaning tashvishli, mehribon siymosiga ko'zim tushardi. Ammo bular hammasi bir tushdek, tuman orasidan ko'ringandek, bechora qizning mehribon qiyofasi, hushimdan bir ketib, bir o'zimga kelib yotganimda go'yo bir sharpa surat kabi ko'rinardi; u menga suv ichirar, ko'rpamni tuzatar yoki bo'lmasa, qo'rqa-pisa yonimda parishonxotir o'tirar va o'zining jajji barmoqlari bilan sochlarimni silardi. Bir gal yuzimdan astagina o'pgani ham esimda. Boshqa bir gal kechasi uyg'onib ketib, divan oldiga surib qo'yilgan stolcha ustida yonib turgan sham yurg'ida, Yelena qonsiz lablari yarim ochiq, yuzida qo'rquv ifodasi bilan kaftini iliq yuzchasiga qo'yganicha mening yostig'imga bosh qo'yib uxlab yotganini ko'rdim. Tongotardagina men o'zimga keldim. Sham batamom yonib bo'libdi, tong quyoshi-ning pushti rang, yorqin nuri devorda jilvalanardi. Yelena stol oldidagi kursida o'tirganicha, horg'in boshini chap qo'li ustiga qo'yib qattiq uxlardi. Shunda esimda bor, men uning mana bu, hatto uyquda ham yosh bolalarnikiga o'xshamagan g'amgin, dardchil ajoyib go'zal yuzchasiga, uzun kipriklari, tim qora sochlar o'rab turgan rangpar ozg'in yonoqlariga osilib tushgan, nari-dan-beri turmaklangan sochlariga mahliyo bo'lib tikilgandim. Ikkinchi qo'li mening yostig'imda edi. Men ana shu nozik qo'lchalarni astagina o'pdim, ammo bechora bolagina uyg'onmadi, faqat rangsiz lablarida tabassum o'ynagandek bo'ldi. Unga uzoq tikilib turib, tinch, osoyishta, shifobaxsh uyqu eltdi meni. Bu gal men choshgohgacha uxlab qolibman. Uyg'onsam, ruhim ancha yengil tortib qolibdi. Faqat darmonsizlik va barcha muchalarimdagi horg'inlik kasalligimdan darak berardi. Ilgarilari ham shunga o'xshash birdan tutib qoladigan asabiy xastaligim bor edi, shuning uchun men kasalimning tilini yaxshi bilar edim. Odatda xastalik bir kecha, bir kunduzda batamom bosilardi-ku, ammo juda qattiq tutardi.

Tush mahali bo'lib qolgan edi. Uyg'onib, kecha men olib

kelgan parda burchakka tutib qo'yilganini ko'rdim. Buni Yelena qilgan, albatta. U xonadan o'ziga alohida burchak ajratib olibdi. U pechka oldida o'tirib choy qaynatayotgan edi. Uyg'onganimni ko'rdi-da, ochiq chehra bilan kulib oldimga keldi.

– Do'stginam, – dedim men uning qo'lini ushlab, – kechasi bilan menga parvarish qilib chiqding, sening shunchali ko'ngilchanligingni bilmagan edim.

– Qayoqdan bilasiz parvarish qilganimni, balki, kechasi bilan uxlab chiqqandirman? – so'radi u menga muloyim va makr aralash uyatchanglik bilan qarab. Ayni zamonda o'z so'zidan o'zi uyalib qizarib ketdi.

– Men uyg'onib, uyg'onib turdim, hammasini ko'rdim. Sen faqat tong otishga yaqin uxlab qolding...

– Choy ichasizmi? – so'zimni bo'ldi u, gapni davom ettirishdan qiynalgandek. Ma'sum, nihoyatda pokiza qalbli kishilar o'zlari haqida maqtovli so'z eshitganlarida shunday qiladilar.

– Ichaman, – javob berdim, – ayt-chi, kecha o'zing tushlik qildingmi, yo'qmi?

– Tushlik qilganim yo'q, kechqurun ovqatlandim. Qorovul olib keldi. Ammo siz ko'p gapirmang, tinchgina yoting, hali tuzalib ketganingiz yo'q, – qo'shib qo'ydi u choy keltirib, mening o'rnimga o'tirarkan.

– Yotishga balo bormi? Qosh qorayguncha yota turaman, keyin ko'chaga chiqishim kerak. Albatta, borishim kerak, Lenchka.

– Shuncha zarurmi! Kimnikiga borasiz? Yoki kechagi mehmonnikiga bormoqchimisiz?

– Yo'q. Unikiga emas.

– Yaxshiyam, unikiga emas. O'sha sizni kecha xafa qildi. Yo'qsa uning qizinikigami?

– Uning qizini sen qayoqdan bilasan?

– Kecha hammasini eshitdim, – dedi u yerga qarab.

U qovog'ini solib oldi. Qoshlari chimirildi.

– U yomon chol, – qo'shib qo'ydi keyin.

– Sen uni taniysanmi? Aksincha, u juda ham ko'ngilchan odam.

– Yo‘q, yo‘q, u bag‘ritosh odam. Men eshitdim, – dedi u qizishib.

– Nimani eshita qolding?

– U o‘z qizining gunohidan o‘tishga ko‘ngli yo‘q...

– Ammo u qizini sevadi. Qizi uning oldida gunohkor, shunga qaramay, u qizining g‘amini yeydi, azoblanadi.

– Nega bo‘lmasa kechirmaydi? Endi kechirsa ham, qizi unikiga bormasin.

– Bu nima deganing? Nima uchun?

– Negaki u qizining muhabbatiga loyiq emas, – javob berdi u qizishib. – Qizi undan butunlay ketsin, yaxshisi, gadoylik qilsin, u qizining gadoylik qilib yurganini ko‘rib kuyib o‘lsin.

Uning ko‘zlari chaqnar, yonoqlari lovullar edi. «Bekordan bekorga shunday demayapti-ku-ya», – deb qo‘ydim o‘zimcha.

– Meni shu odam uyiga yubormoqchimidingiz? – so‘radi u biroz jim turgandan so‘ng.

– Ha, Yelena.

– Yo‘q. Undan ko‘ra xizmatkorlikka kirganim yaxshi.

– Eh, Lenchka, yaxshi emas bu gaping! Kimga ham xizmatkor bo‘larding? Behuda gap.

– Biror dehqon-pehqonga, – dedi u toqatsizlik bilan, to-bora boshini quyi solib. Jizzakiligi yaqqol ko‘rinib turardi.

– Dehqonga bunaqa xizmatkorning keragi ham yo‘q, – dedim men kulib.

– Bo‘lmasa janoblarga.

– Sen shu fe‘ling bilan janoblarniknda turib bo‘libsan?

– Shu fe‘lim bilan! – u qizishgan sari shartta-shartta javob qaytarar edi.

– Sabring chidamaydi.

– Chidaydi! Meni so‘ksalar, ataylab jim turaveraman. Ursalar ham, indamay turaveraman, g‘iq etmayman, urganlari bilan yig‘lamayman, yig‘lamayman! Yig‘lamaganimdan keyin ularning jig‘ibiyroni chiqadi.

– Voy, Yelena tushmagur! Qanchalik alamzadasan-a, o‘zingga yetkuncha takabbur ekansan-ku! Juda ko‘p jafo chek-

kanga o'xshaysan-a?

Men turib katta stol yoniga bordim, Yelena divanda qoldi, u o'ychanlik bilan yerga qaraganicha o'tirar va barmoqchalari bilan parda popuklarini taramlardi. U jim o'tirgani uchun: «Gapimdan ranjidi, shekilli?» – deb o'yladim.

Stol oldida turib men bexosdan maqola yozish uchun olgan kechagi kitobni ochib qoldim va sekin-asta o'qishga berilib ketdim. Shunaqa odatim ham bor: boraman-u, bir narsani bilish uchun kitobni ochaman va o'qishga berilib ketib, hamma narsani esimdan chiqarib yuboraman.

– Siz bu yerda nimalarni yozasiz? – so'radi Yelena iymanibgina iljayib, asta stolga yaqinlashib.

– Har xil narsalar yozaman, Lenchka. Menga shuning uchun pul to'laydilar.

– Arizalarmi?

– Yo'q, arizalar emas. – Men unga qo'limdan kelgancha tushuntirdim: har xil odamlar boshidan o'tgan turli voqealarni yozaman, bulardan kitoblar chiqadi, shular qissalar, romanlar deb ataladi. U meni zo'r qiziqish bilan tingladi.

– Nima, siz bo'lgan voqealarni yozasizmi?

– Yo'q. O'ylab to'qiyman.

– Nega yolg'on narsalarni yozasiz?

– Mana, o'zing o'qib ko'r, ko'rdingmi mana bu kitobchani; sen avval ham ko'rgansan buni. O'qishni bilasan-ku, a?

– Bilaman.

– Juda soz, o'zing ko'rasan. Mana shu kitobchani men yozganman.

– Siz-a? O'qib chiqaman...

U nimanidir menga aytmoqchiga o'xshadi-yu, ammo qiy-nalardi, shuning uchun qattiq hayajonda edi. Uning savollari tagida bir sir bor edi.

– Sizga ko'p pul to'laydilar buning uchun? – so'radi u nihoyat.

– Ha, uncha-muncha. Ba'zan ko'p, ba'zan hech narsa ham bo'lmay qoladi, chunki ish yurishmaydi. Bu qiyin ish, Lenchka.

– Bundan chiqdi, siz boy emasmisiz?

– Yo‘q. Boy emasman.

– Yo‘qsa men ishlay qolay, sizga yordam beray...

U menga yalt etib qaradi, o‘zi qizarib ketdi. Boshini quyi solganicha men tomon bir-ikki qadam tashladi-yu, birdan ikki qo‘llab meni quchoqlab oldi, yuzini ko‘kragimga qattiq bosib turdi. Men ajablanib unga tikilib turardim.

– Men sizni yaxshi ko‘raman, men kibrli emasman, – dedi u. – Kecha siz meni takabbur dedingiz. Yo‘q, yo‘q... Men unaqa emasman... Men sizni yaxshi ko‘raman. Dunyoda bitta siz meni yaxshi ko‘rasiz...

Yig‘i tomog‘idan xippa bo‘g‘ib olgandek edi. Bir daqiqadan so‘ng, xuddi kechagi tutqanog‘i tutgan vaqtdagidek ko‘ksidan faryod otilib chiqdi, endi u ho‘ngrab-ho‘ngrab yig‘lar, mening oyoqlarim ostiga tiz cho‘kib qo‘llarimni, oyoqlarimni o‘par-di...

– Siz meni yaxshi ko‘rasiz! – takororladi u, – bitta siz, bitta sizgina meni yaxshi ko‘rasiz!..

U mening tizzalarimni joni-jahdi bilan quchoqlardi. Ko‘p vaqtdan beri ko‘ksida saqlanib kelgan butun hislari birdan, shalola kabi shiddat bilan otilib chiqardi, iffatli qalbining ajib matonati menga ravshan bo‘ldi. Ko‘nglidagi hislarini yashirishda qalb qancha ko‘p matonat ko‘rsatsa, ularni izhor etib, ko‘ngil bo‘shatish ehtiyoji undan ham dahshatliroq, kuchliroq bo‘ladi. Insonning butun borlig‘i birdan mana bu sevgi, minnatdorchilik, erkalik, ko‘z yoshlarini to‘kishga ehtiyoji bilan to‘lib toshib ketgan bo‘lsa, u o‘zini ortiq tutib tura olmaydi, bu menga shu chog‘ ravshan bo‘ldi!..

U shu qadar qattiq yig‘ladiki, nihoyat, tutqanog‘i tutib qoldi. Tizzamni quchoqlab olgan qo‘llarini arang bo‘shatdim. Ko‘tarib divanga olib borib yotqizdim. Go‘yo mening betimga qarashga uyalgandek, yostiqqa yuzini qo‘yib olib uzoq yig‘ladi, ammo mening qo‘limni o‘zining jajji qo‘lchasi bilan mahkam ushlab, ko‘ksiga qo‘ydi-yu, anchagacha qo‘yib yubormadi.

Asta-sekin ovuna boshladi, ammo hali ham yuzimga qarolmasdi. Bir-ikki marta menga o‘g‘rincha ko‘z qirini tashladi. Bu qarashlarda shunchalik mehribonlik va qo‘rqa-pisa yashirilib

olgan tuyg'u ifodalanardi. Nihoyat, u qizarib-bo'zarib, shiringina jilmayib qo'ydi.

– Yengil tortdingmi? – so'radim men, – ko'ngli yarim Lenochkam, betobginam?

– Yo'q, Lenochka emas... – shivirladi u hamon mendan yuzchasini yashirib.

– Lenochka emas? Nima bo'lmasa?

– Nelli.

– Nelli? Nega endi, albatta, Nelli bo'lishi shart? Lekin bu juda chiroyli ism. Sen xohlasang, bundan keyin shunday deb aytaman.

– Onam meni shu ism bilan atardi. Onamdan boshqa hech kim hech qachon meni Nelli deb chaqirmagan... Men o'zim ham onamdan boshqa hech kim shu nom bilan atashini xohlamasdim. Mayli, siz aytsangiz, mayli. Men bunga roziman. Men sizni doimo sevaman, bir umr...

«Sevgiga mushtoq, mag'rur qalb, – o'yladim, – Nelli deb chaqirish menga osonlikcha muyassar bo'lmadi». Biroq bu qalb menga endi abadiy maftun ekanligini bilaman.

– Nelli, menga qara, – so'radim men u tinchlanishi bilan.

– Bitta onamdan boshqa hech kim meni yaxshi ko'rmagan deb aytding. Buvang-chi, buvang rostdan ham seni sevmasmidi?

– Sevmasdi...

– Sen esa u o'lgandan keyin yig'lading, esingda bormi zinapoyada.

U o'ylanib qoldi.

– Yo'q. Yaxshi ko'rmasdi. U yovuz odam edi. – Nelling yuzida allaqanday alam ifodalandi.

– Undan buni talab qilib ham bo'lmasdi, Nelli. Miyasi aynib qolgandi, shekilli. U o'lganda ham jinnilardek o'ldi. Qanday o'lganini men senga aytib bergan edim-ku.

– Ha, lekin oxirgi oylardagina uning esi pastroq bo'lib qolgan edi. Shu yerda ertadan kechgacha haq deb o'tiraverar, men kelmasam, ikki kun, uch kun ham ichiga tuz kirmasdi. Avvallari ancha tuzuk edi.

– Qachon?

- Onam o‘lmasdan ilgari.
- Demak, unga ovqatni sen olib kelar ekansanda-a, Nelli?
- Ha, men olib kelardim.
- Sen qayerdan olarding, Bubnovadanmi?
- Yo‘q, men Bubnovadan hech qachon, hech narsa olmaganman, – dedi u qat’iy va qandaydir titroq ovoz bilan.
- Yo‘qsa qayerdan olarding, axir, hech narsang yo‘q ediku?

Nelli indamadi, rangi oppoq oqarib ketdi, keyin menga uzoq tikilib qaradi.

– Men ko‘chalarda xayr tilardim... Besh tiyin yig‘ganimdan keyin unga non, burnaki¹ sotib olardim...

– Nelli! Nelliginam! Buvang seni shu holga solganmidi!

– Eng oldin o‘zim boshladim, unga aytmadim. Bilib qolgandan keyin o‘zi meni xayr tilashga chiqara boshladi. Men ko‘prikda turib o‘tgan-ketganlardan tilayman, u ko‘prik atrofida yurib kutadi, sadaqa berganlarini ko‘rib qolsa, yugurib keladi-da, xuddi men undan yashirib qo‘yatgandek, u uchun tilanmayotganimdek pulni tortib oladi.

Bu gaplarni ayta turib alam bilan, zaharli kulib qo‘ydi.

– Bu ishlar hammasi onam o‘lgandan keyin bo‘ldi, – dedi u, – shundan keyin judayam jinniga o‘xshab qoldi.

– Bundan chiqdi u onangni qattiq yaxshi ko‘rar ekanda? Nega bo‘lmasa birga turmagan?

– Yo‘q, yaxshi ko‘rmasdi... U yomon edi, onamning gunohini kechirmadi, xuddi kechagi badjahl choldek. – Rangi borgan sari oqarib, shivirlab gapirdi u.

Men bir xil bo‘lib ketdim. Butun boshli bir romanning yechimi ko‘z oldimga keldi. Tobutsozning yerto‘lasida asta-sekin jon berayotgan ana u bechora ayol, o‘z qizini «oq» qilgan bobosini ahyon-ahyonda yo‘qlab turadigan yetimcha qiz, qandolat do‘konida iti o‘lgandan keyin jon bergan, aqldan ozgan tentak chol!

– Azorka oldin oyimniki edi-da, – dedi to‘satdan Nelli, bir

¹ **Burnaki** – kayf qilish yoki davo maqsadida burunga otiladigan yoki iskaladigan dorivor, narkotik moddalarning umumiy nomi.

narsa esiga tushgandek jilmayib. – Buvam oldin onamni juda yaxshi ko'rgan, onam undan ketib qolgandan keyin Azorka buvamda qolgan. Shuning uchun ham Azorkani u juda yaxshi ko'rar edi... Onamni kechirmadi, it o'lgandan keyin, o'zi ham o'lib ketdi, – deb qo'shib qo'ydi tumtayib Nelli, endi uning yuzidagi tabassum ham yo'qolgan edi...

– Nelli, u o'zi ilgari kim bo'lgan? – so'radim biroz sukutdan so'ng.

– U oldin juda badavlat bo'lgan... Men uning kimligini bilmayman, – javob berdi u. – Uning allaqanaqa zavodi bo'lgan. Onam shunday derdi. U avvallari meni kichkina deb, hamma gapini gapirmasdi. Onam meni o'pib-o'pib qo'yardi-da: «Hammasini bilasan, vaqti kelib hammasini bilib olasan, bechoraginam, baxtsizginam!» – derdi. Har doim meni bechora, bebaxt deb aytardi. Kechalari meni uxladi deb o'ylab (men ataylab o'zimni uxlaganga solardim), tepamda hamon yig'lardi, o'pib-o'pib: «Bechoraginam, betoleim», – deb yig'lardi.

– Onang nimadan o'lgan?

– Sil kasalidan; olti haftacha bo'ldi.

– Buvangning boy bo'lgan vaqtini eslaysanmi?

– Men unda tug'ilmagan ham edim-ku. Onam men tug'ilmasdan ilgari buvamnikipidan ketgan ekan.

– Kim bilan ketgan ekan?

– Bilmayman, – javob berdi Nelli astagina xayolchanlik bilan. – U chet elga ketgan, men o'sha yerda tug'ilganman.

– Chet elda? Qayerda?

– Shveytsariyada. Men hamma yerda bo'lganman, Italiyada ham, Parijda ham.

Men hayron qoldim.

– Shular hammasi esingda bormi, Nelli?

– Ko'pi esimda bor.

– Qanday qilib sen ruschani shuncha yaxshi bilasan, Nelli?

– Onam meni hali o'sha yoqdagiligimizdayoq ruschaga o'rgatgan. U rus edi, chunki uning onasi ham rus bo'lgan, buvam bo'lsa ingliz edi-ku, lekin ruslashib ketgan ekan. Biz bundan

yarim yil ilgari onam bilan bu yerga qaytib kelganimizdan keyin yaxshi o'rganib oldim. Onam o'shandayoq kasal edi. Bu yerda biz kundan kunga kambag'allashib ketaverdik. Onam hadeb yig'lar edi. Onam, Peterburgga kelganimizdan keyin buvamni juda ko'p qidirdi, u hadeb: «Men uning oldida gunohkorman», – deb yig'layverardi. Shunday yig'lardiki! Shunday yig'lardiki! Buvamning qashshoq bo'lib qolganini bilgandan keyin undan battar yig'ladi. Juda ko'p unga xatlar yozardi, lekin u hech javob qaytarmaedi.

– Onang nima uchun bu yerga qaytib kelgan edi? Faqat shu otasi uchunmi?

– Bilmayman. U yerda biz shunday yaxshi yashardikki, – Nellining ko'zlari chaqnab ketdi. – Onam yolg'iz o'zi men bilan turardi. Uning bitta oshnasi bor edi, sizga o'xshagan oqko'ngil... U onamni avvaldan, bu yerdan tanirkan, ammo u odam o'lib qoldi. Shundan keyin onam qaytib keldi...

– Demak, onang o'sha bilan ketgan ekan-da?

– Yo'q. U bilan emas. Onam boshqa bir odam bilan, u esa onamni tashlab ketgan...

– Kim bilan ketgan ekan, Nelli?

Nelli menga bir qarab qo'ydi-yu, lekin hech narsa demadi. Mazmuni onasi kim bilan ketganini va uning otasi kim ekanini bilardi. Uning nomini hatto menga aytish ham uning uchun og'ir edi...

Hadeb surishtiraverib qiynagim kelmadi. Bu ajoyib, ta'sirchan, o'zgarib turuvchi, qizg'in, shu bilan birga jo'shqin hislarini yashira oladigan, yoqimtoy, ayni zamonda mag'rur va pismiq bir qiz edi. Mana shu kunlar davomida u meni chin qalbidan, eng yorqin va jo'shqin muhabbat bilan sevganini, hatto alamiztirobsiz eslay olmaydigan onasi qatori sevganiga qaramay, u men bilan kamdan kam ochilib gaplashardi, shu kundan boshqa o'tmishi haqida men bilan kamdan kam hasratlashadigan, mendan cho'chigandyok sir saqlaydigan bo'lib qoldi. Biroq shu kun, bir necha soat davomida u o'zining eng og'ir, hayajonlantiruvchi xotiralarini hiqillab yig'lab turib, alam bilan gapirib berdi. Bu mudhish hikoya hech qachon esimdan ketmaydi. Biroq hikoya-

ning muhim qismi hali oldinda...

Bu mudhish qissa, bebaxt, dilpora, tashlab ketilgan bir ayol qissasi edi. Bemor, xo'rlangan, hamma tark etgan, so'nggi umidi, suyangani tog'i – bir vaqtlar o'zi haqoratlagan va o'z navbatida dahshatli xo'rliklarga bardosh berolmay aqldan ozgan yolg'izgina otasi tomonidan tark etilgan g'arib, miskin ayolning qissasi edi... Bu qissa umid-orzulari toptalib, kichkinagina qizchasi bilan Peterburgning sovuq, iflos ko'chalarida tentirab, tilanib yurgan, oxiri zax yerto'lada oylarcha o'lim to'shagida yotgan, hayotining oxirgi daqiqalarigacha otasi afv etmagan zaifaning qissasi edi, nihoyat, eng oxirgi daqiqadagina qilmishidan pushaymon yeb, yorug' dunyoda o'zi uchun eng aziz bo'lgan farzandini afv etish uchun kelib, uning sovuq murdasi ustidan chiqqan ota qizining tarixi edi. Bu miyasi aynigan chol bilan uning yosh bo'lishiga qaramay, hayotning achchiq-chuchugini totigan, tinch va osoyishta hayotda yashovchi bir kimsa ko'p yillar davomida tushunib yetolmaydigan narsalarga farosati yetadigan kichkinagina nabiracha o'rtasidagi sirli, anglab bo'lmaydigan munosabat haqidagi ajoyib hikoya edi.

Ha, bu mudhish voqea Peterburgning bulutli osmoni ostida, shahri azimning xilvat ko'chalarida tez-tez bo'lib turadigan, o'ta xudbinlik, shaxsiyatparastlik, jirkanch kayf-safo, yashirin jinoyatlar, bema'ni va chirkin hayot sharoitida ro'y beradigan voqealarning eng dahshatlisidir.

Biroq buni keyin eshitasiz...

UCHINCHI QISM

I BOB

Allaqachon qorong'i tushib, kech kirgandan keyingina men mudhish ro'yolardan o'zimga keldim. Hozirgi ishlar esimga tushdi.

– Nelli, – dedim, – mana hozir betobsan, xafasan, men esa seni shu ahvolda, hayajonlaring, ko'z yoshlaring bilan qoldirishim kerak. Azizim, meni kechir, bilginki, sendan boshqa yana bir sevimli, lekin afv etilmagan, bebaxt, xo'rlangan, tashlanib ketilgan bir kimsa bor. U meni kutayotir. O'zim ham, sening hikoyalaringdan so'ng uni ko'rishga shu qadar oshiqyapmanki, nazarimda, hozir, shu tobning o'zida uni ko'rmasam chidab turolmaydiganga o'xshayman.

Bilmadim, Nelli mening aytganlarimning hammasini tushundimi, yo'qmi? Men uning hikoyasidanmi, yaqindagina kasaldan turganimdanmi, qattiq hayajonlangandim, darhol Natasha oldiga yugurdim. Men unikiga kirganimda allamahol bo'lgan, soat sakkizdan oshib ketgan edi.

Hali ko'chadayoq, Natasha turadigan hovlining darvozasi oldida kolyaskaga¹ ko'zim tushdi, nazarimda, u knyazning kolyaskasidek tuyuldi. Natashanikiga hovlidan kirilar edi. Zinaga oyoq qo'yishim bilan, mendan bir necha pillapoya yuqorida,

¹ Kolyaska (*ruscha*: g'ildirak) – resorli, qaytarma soyabonli to'rt g'ildirakli izvosh.

bu joy bilan notanish yer bo'lgani uchun ehtiyotlik bilan piypaslanib chiqib ketayotgan odamning sharpasini eshitdim. Bu knyaz bo'lsa kerak, degan fikr dilimdan o'tdi. Biroq o'z fikrimdan darrov qaytdim. Notanish odam zinadan ko'tarilarkan, hadeb vaysar, yo'lni so'kar, ko'tarilgan sari so'kishi ham avjiga chiqardi. Beshak zinapoya tor, iflos, tippa-tik, qop-qorong'i edi, biroq uchinchi qavatdan eshitilayotgan bo'konador so'kishlar knyaz og'zidan chiqishiga asti aqlim bovar qilmasdi. Chiqib ketayotgan janobning og'zidan oq it kirib, qora it chiqmoqda edi. Shukurki, uchinchi qavatda yorug' boshlandi. Natashaning eshigi tepasida kichkinagina fonus yonmoqda edi. Xuddi eshik oldida men notanish kishiga yetib oldim, bu odam knyaz ekanligini ko'rib hangmang bo'lib qoldim. Men bilan tasodifan to'qnash kelgani unga juda ham yoqimsiz tuyuldi, shekilli. Daf'atan, u meni taniy olmadi, biroq birdan uning chehrasi o'zgardi. Yuzida paydo bo'lgan dastlabki g'azab va nafrat ifodasi birdan yo'qolib yorishib ketdi. Favqulodda shodlik bilan menga ikki qo'lini uzatdi.

– Ey, sizmisiz! Men esa hozir jonimni o'z panohingda saqla deb Xudoga yolvormoqchi edim. So'kinishlarimni eshitdingizmi?

U juda ham soddadillik bilan qah-qah urib kuldi. Ammo birdan uning yuzida jiddiyat va tashvish alomati paydo bo'ldi.

– Qanday qilib Alyosha, Natalya Nikolaevnani shu uyga ko'chirib kelgan! – dedi u boshini silkitib. – Mana shunaqangi mayda-chuydalardan odamning kimligini bilish mumkin. Undan juda tashvish tortaman. U yuvosh, oqko'ngil, lekin mana sizga bir misol: jonidan ortiq sevgan odamini mana shu qafasga tiqib qo'yibdi. Men eshitdimki, ba'zan yeyishga nonlari ham bo'lmas emish, – dedi u shivirlab qo'li bilan eshik qo'ng'irog'ini izlarkan, – men uning kelajagini o'ylasam, ayniqsa, Anna Nikolaevnaning o'g'limga tekkandan keyingi kelajagini o'ylasam, boshim qotadi...

U Natashaning nomini yanglish aytdi, lekin qo'ng'iroqni topolmasdan xunob bo'lib turgani uchun yanglishganini ham sezmedi. Qo'ng'iroqchani o'zi yo'q edi. Men eshik halqasini tortdim va shu zahotiyoq Mavra eshik ochib, shosha-pisha bizni

qarshi oldi. Dahlizdan taxta bilan to'sib qilingan kichkinagina oshxonada, qiya ochilib turgan eshikdan uncha-muncha tayyorgarlik ko'rib qo'yilgani ko'zga tashlanardi: hamma yoq qirtishlab tozalangan, pechkaga o't yoqilgan, stol ustida qandaydir yangi idish-oyoq paydo bo'lgan edi. Bizni kutayotganlari bilib turardi. Mavra paltolarimizni yechishga shoshildi.

– Alyosha shu yerdami? – so'radim men.

– Kelgani yo'q, – shivirladi u mening qulog'imga allaqanday sirli ohangda.

Biz Natasha oldiga kirdik. Uning xonasida hech qanaqa deyarli tayyorgarlik ko'rinmas, hammasi avvalgidek joy-joyida edi. Shuni ham aytish kerakki, Natashaning xonasi hamisha top-toza, shinam bo'lar, yig'ishtirib o'tirishning ham hojati yo'q edi. Natasha bizni eshik oldida kutib oldi. Garchi uning so'lg'in yonoqlariga bir zum qizil yugurgan bo'lsa ham, ozib ketgan za'farondek sap-sariq oriq yuzlarini ko'rib juda taajjublandim. Uning ko'zlari javdirar edi. U indamasdan, shoshilganicha knyazga qo'lini uzatdi, uning dovdiragani, xijolat chekayotgani sezilib turardi. Menga qiyo ham boqmadi. Men indamay kutib turdim.

– Mana, men ham keldim! – do'stona va shodlik bilan gapirdi knyaz. – Qaytganimga bir necha soatgina bo'ldi, xolos. Hamma vaqt ko'z oldimdan ketmadingiz (u muloyimlik bilan Natashaning qo'lini o'pdi), – necha martalab sizning haqingizda o'yladim, bilsangiz... Sizga aytish uchun qancha gaplar o'ylab qo'ydim... Albatta, hali miriqib gaplashamiz-ku! Nazarimda, mening yengiltagim hali kelmaganga o'xshaydi-a...

– Kechirasiz, knyaz, – dedi Natasha uning so'zini bo'lib, uyalganidan qizara-bo'zara, – Ivan Petrovichga ikki og'iz so'z aytishim kerak. Vanya, bu yoqqa yur... Bir og'iz gapim bor...

U meni qo'limdan ushlab shirma orqasiga olib kirdi.

– Vanya, – dedi u shivirlab, meni qorong'i burchakka olib kirib, – meni kechirasanmi, yo'qmi?

– Natasha, qo'ysang-chi, senga nima bo'ldi?

– Yo'q, yo'q, Vanya juda ko'p martaba meni kechirib kelding. Axir, har qanday toqat ham toq bo'ladi-da, bilasanmi, hech qachon mendan ko'ngling qolmaydi, ammo meni nonko'r

deb atashing mumkin, kecha ham, avval kuni ham sening oldingda nonko'r, xudbin, bemehrman...

Birdan uning yoshlari duv to'kilib yuzini yelkamga qo'ydi.

– Bas, Natasha, -- ovutishga shoshildim men. – Tuni bilan og'rib chiqdim, hozir ham zo'rg'a turibman, shuning uchun kecha kechqurun ham, bugun ham kelolmadim, sen esa meni xafa bo'lgan deb o'ylibsan... Do'stim, axir, sening qalbingda nimalar bo'layotganini bilmaymanmi?

– Bo'libdi, bo'lmasa... Demak, har vaqtdagidek yana kechirasan, – dedi u ko'z yoshlari orasidan jilmayib va qo'limni qattiq qisib. – Qolganlarini keyin gapirishamiz. Senga juda ko'p narsalar aytishim kerak, Vanya. Endi, yur uning oldiga chiqaylik...

– Tezroq, Natasha, to'satdan uni yolg'iz qoldirdik...

– Mana, o'zing ko'rasan, nima bo'lishini, – shivirladi shoshilib. – Hammasini bilaman, hammasiga aqlim yetadi. Hammasiga aybdor o'shaning o'zi. Bugungi oqshom ko'p gaplarni hal qiladi... Yur!

Men tushunmadim, ammo qaytadan so'rashga vaqt yo'q edi. Natasha knyaz oldiga ochiq chehra bilan chiqdi. U hamon qo'lida shlyapasini ushlaganicha tippa-tik turardi. Natasha kulib undan uzr so'radi, shlyapasini oldi, unga stul surib qo'ydi, uchalamiz uning stoli atrofiga o'tirdik.

– Men o'zimning yengiltak o'g'lim haqida gap boshlagan edim, – davom etdi knyaz, – men uni bir daqiqagina ko'rdim, xolos. U ham bo'lsa ko'chada, grafinya Zinaida Fedorovnanikiga borish uchun kolyaskaga o'tirayotgan vaqtida uchratdim. O'lgunday shoshilayotgan ekan, buni qarangki, to'rt kundan beri ko'rishmaganimizga qaramay, o'rmidan turib men bilan xonamga kirishni ham ravo ko'rmadi. Hozir u sizning huzuringizda bo'lmaganiga aybdor men o'zim, Natalya Nikolaevna, biz undan ilgari keldik, o'zim bugun grafinyanikiga borolmaganim uchun fursatdan foydalanib unga bitta topshiriq berdim. Ammo u hade may kelib qoladi.

– Sizga bugun kelaman deb va'da berganmidi? – so'radi

Natasha juda ham soddalik bilan knyazga qarab.

– Ey, kelmay nima qilardi, tag'in so'raysiz-a, tavba! – dedi u hayrat bilan Natashaga tikilib. – Ha, ha, bilaman, siz undan xafasiz. Nafsilamr, hammadan keyin kelish unga yarashmaydi. Lekin takror aytaman, men o'zim aybliman. Undan ham xafa bo'lmang. U yengiltak, betayin, men uning yonini olmayman, ammo ba'zi bir muhim mulohazalar shuni taqozo qiladiki, unga hozir grafinya va boshqa ba'zi bir kerakli oilalardan uzoqlashish emas, aksincha, ularga mumkin qadar yaqinlashish, tez-tez borib turishi kerak. Sizning oldingizdan bir qadam jilmay, kiborlar muhitini butunlay esdan chiqargan o'g'limni har zamonda ba'zi bir topshiriqlar bilan bir-ikki soatga band etsam, xafa bo'lmaysiz. Aminmanki, u o'sha oqshomdan beri biror marta ham knyaginya K.nikida bo'lmagan, hali shuni so'rab qolmaganim uchun endi o'zimni koyiyapman!..

Men Natashaga qaradim. U knyaz gaplarini yengil kino-yali tabassum bilan tinglardi. Ammo knyaz shunday ishonch bilan, shunday tabiiy gapirardiki, biror narsadan gumonsirashga hech o'rin yo'qdek tuyulardi.

– Mana shu kunlarda u menikiga biror marta ham kelmanini rostdan bilmasmidingiz? – sekin so'radi Natasha xotirjam ovoz bilan, go'yo u o'zi uchun eng oddiy hodisa haqida gapirayotgandek.

– Nima-nima! Biror marta kelmadi dedingizmi? Tushuntiribroq gapiring! – dedi knyaz, juda ham hayratga tushgandek.

– Siz menikiga seshanba kuni kechqurun allamahalda kelgan edingiz; ertasiga ertalab u yarim soatgagina kelib ketdi, o'shandan beri dom-daragi yo'q.

– Yo'g'-e, mumkin emas (uning tobora hayrati oshardi). Men esa u sizning oldingizdan qo'zg'almay o'tiribdi, deb yuribman. Kechirasiz, ammo bu juda g'alati gap... Aql bovar qilmaydi!

– Afsuski, haqiqatda, shunday. Men esa uning qayerdiligini sizdan bilish uchun sizni orziqib kutayotgan edim.

– Ey, tavba! Lekin o'zi hali zamon kelib qoladi! Ammo sizning gapingiz meni shu qadar gangitib qo'ydi... Men undan

hamma narsani kutishim mumkin edi, ammo, buni, buni – aslo!...

– Nega muncha taajjublanasiz! Men taajjublanish u yoqda tursin, shunday bo‘lishini bilardingiz deb o‘ylagandim.

– Bilardim! Men-a? ishoning, Natalya Nikolaevna, men uni shu bugun bir zumgina ko‘rdim, xolos, hech kimdan uni so‘raganim ham yo‘q. Go‘yo ishonmaganingiz meni hayratga sol-yapti, – davom etdi u ikkimizga qarab qo‘yib.

– Xudo saqlasin, – dedi uning gapini og‘zidan olib Nata-sha, – gapingizning rostligiga ishonamiz.

U yana knyazning ko‘ziga tikka qarab turib shunday kulib qo‘ydiki, nazarimda, knyazning tomiri tortishib ketdi.

– Tushuntirib gapiring, – dedi u sarosimaga tushib.

– Tushuntiradigan hech gap ham yo‘q. to‘ppa-to‘g‘risini aytaman qo‘yaman. Siz uni qanchalik yengiltak, qanchalik esi joyida emasligini bilasiz. Gap – shu: endi uning jilovi bo‘shatib yuborilgan, shunga ko‘ra u ham bilganini qilib yuribdi.

– Ammo bunchalik bebosh bo‘lib ketishi mumkin emas, axir, bu yerda bir gap bo‘lishi kerak, ko‘rasiz, kelishi bilan hamma gapni aytishga majbur qilaman. Ammo hammadan ko‘p meni taajjublantirayotgan narsa shuki, nazarimda, siz bu masalada meni ham ayblayotganga o‘xshaysiz, vaholanki, men o‘zim bu yerda bo‘lmaganman. Ammo, lekin Natalya Nikolaevna, siz undan toza xafaga o‘xshaysiz, bu tabiiy! Siz bunga to‘la haqlisiz, va... va shuning uchun meni gunohkor hisoblashingiz to‘g‘ri, ko‘zingizga avval men ko‘ringanim uchun alamingizni mendan olyapsiz, to‘g‘rimi? – davom etdi va zarda bilan miyig‘ida kulib menga qaradi.

Natasha bo‘riqib ketdi.

– Ruxsat eting, Natalya Nikolaevna, – davom etdi u viqor bilan, – gunohkorligimga iqorman, aybim shuki, men siz bilan tanishganimning ertasigayoq jo‘nab ketdim, mening sezishimcha, tabiatigingizdagi har narsaga gumonsirayverish odatingiz tufayli mening haqimdagi fikringizni o‘zgartirishga ulguribsiz, bu sharoitning taqozosi. Ketmaganimda edi, siz meni yaqinroq bilgan bo‘lardingiz, Alyosha ham mening nazoratim ostida yengiltaklik qilmagan bo‘lar edi. Shu bugunoq eshitasiz unga nimalar

deyishimni.

– Ya'ni shunday qilasizki, u mendan soviy boshlaydi. Sizning shu donoligingiz bilan, bu chora menga foyda yetkazadi deb o'ylashingizga kishining aqli yetmaydi.

– Hali, bu o'g'lining ko'nglini mendan sovutish uchun ataylab shunday qilyapti deb shama qilmoqchisiz, shekilli? Meni ranjityapsiz, Natalya Nikolaevna!

– Men kim bilan gaplashmayin, mumkin qadar shama qilib gapirmaslikka urinaman, – dedi unga javoban Natasha, – aksincha, hamma vaqt, iloji boricha, to'g'risini gapirishga harakat qilaman, bunga o'zingiz, balki, shu bugunoq pshonch hosil qilarsiz. Sizni xafa qilishni ham istamayman, bunga hojat ham yo'q, shuning uchun hamki, siz, baribir, men nima desam ham gapimdan xafa bo'lmaysiz. Bunga men to'la ishonaman ham, negaki oramizdagi munosabatni ham juda yaxshi tushunaman: axir, siz bunga jiddiy qaramaysiz, to'g'ri emasmi? Ammo men sizni rostdan ham xafa qilgan bo'lsam... mehmondo'stlik burchini ado etish yuzasidan uzr so'rashga tayyorman.

Natasha shu jumlanı yengilgina va hatto lablarida tabassum bilan hazil ohangda gapirgan bo'lsa ham, men uni hech qachon bunchalik serzarda ko'rmaganman. Shu uch kun ichida qalbi qanchalik iztirob chekkanini endigina tushundim. Uning hamma narsani bilib, aqlim yetib turibdi, degan sirli so'zlari meni qo'rqitib yubordi, bular knyazga tegizib aytilayotgan edi. U endi knyaz haqidagi o'z fikrini o'zgartgan, unga dushman deb qarayotgani ochiqdan ochiq bilinib turardi. U o'zining Alyosha bilan ishi o'ngidan kelmasligini uning ta'siri natijasi deb bilar va bunga qandaydir dalıli ham bordek edi. Oralarida to'satdan janjal chiqib ketishidan qo'rqar edim, negaki Natashaning hazilomuz gaplarining ma'nisi ravshan, haddan tashqari pardasiz edi. Uning knyazga aytgan oxirgi so'zi, ya'ni ularning munosabatiga knyazning jiddiy qarolmasligi, mehmondo'stlik tufayli undan uzr so'rashi, shu ohangning o'zida ochiq gapira olishga qudrati yetishini tahdidomuz aytishi shu qadar zaharli va shu qadar niqobsiz ediki, knyaz bularning hammasiga tushunmagan bo'lpshi asti mumkin emasdi. Men uning rangi o'zgarib ketganini ko'rdim,

ammo u o'zini qo'lga olishni bilardi. U shu zahoti o'zini aytilgan gaplarni sezmaganga, ularni asli ma'nosiga tushunmaganga soldi va hazilga oldi-yu:

– Xudo uribdimi sizdan uzr talab etib! – dedi kulib, – men buni istaganim ham yo'q va umuman ayollardan uzr so'rashni talab etish odati menda yo'q. O'sha, siz bilan birinchi ko'rishganimizdayoq men fe'lim qanaqaligini aytib ogohlantirib o'tgan edim, shuning uchun men bitta gap aytsam, modomiki, gap umuman hamma ayollar haqida borarkan, xafa bo'lmasangiz kerak; siz ham mening fikrimga qo'shilsangiz kerak, – davom etdi u mulozamat bilan menga murojaat qilib. – Men ayol xarakterida shunday bir xislat sezdimki, masalan, xotin kishi biror masalada aybdor bo'lsa, u keyinchalik o'z aybini yuvish uchun ming xil noz-karashma qilsa qiladiki, ammo, u o'la qolsa ham, xuddi o'sha ayb ustida tutilsa, shu daqiqada unga iqror bo'lib, afv so'rashga rozi bo'lmaydi. Shunday deb faraz qilamiz, siz meni xafa qilgan bo'lsangiz ham, men hozir, shu daqqa ataylab uzr so'rashingizni xohlamayman; menga keyinchalik, siz o'z xatongizni tushunib, uni yuvish uchun mendan ming lutf bilan uzr so'raganingiz afzalroq... Siz esa shu qadar sofdil, shu qadar pok, zohiran shu qadar nafissizki, Xudo haqqi, ko'nglim sezib turibdi, o'sha pushaymon yegan daqiqalaringiz ajoyib, jozibador bo'ladi. Ammo afv so'rash o'rniga, yaxshisi, shuni aytingki, men siz bilan o'ylaganingizdan samimiyroq, to'g'ri munosabatda bo'lishimni shu bugunning o'zidayoq biror yo'l bilan isbot eta olamanmi, yo'qmi?

Natasha qizarib ketdi. Menga ham knyazning javobida qandaydir havoyilik, hatto iltifotsizlik, allaqanday behayo hazil-kashlik ohangi eshitilayotgandek bo'ldi.

– Siz menga nisbatan samimiy va sofdil ekanligingizni isbot qilmoqchimisiz? – so'radi Natasha, uning jig'iga tegib.

– Ha.

– Shunday bo'lsa, mening iltimosimni bajaring.

– Jonim bilan.

– Iltimos – shu: mening haqimda na bir og'iz gap, na bir imo-ishora bilan bugun ham, erta ham Alyoshani bezovta qil-

maysiz. U meni esdan chiqarib qo'yganini na yuziga solasiz va na unga nasihat o'qiysiz. Men uni shunday kutib olamanki, go'yo oramizda hech gap o'tmaganday hech narsani sezmasin. Menga shu kerak. Shunaqa so'z berasizmi menga?

– Bajonidil! – javob berdi knyaz, – chin qalbimdan shu so'zlarni aytib qo'yishga ijozat bering: men bunday ishlarda hech kimda bundan ortiq donolik, bundan ortiq sofdillik ko'rmaganman... Ha, Alyoshaning o'zi ham keldi, shekilli.

Darhaqiqat, yo'lakda shov-shuv eshitildi. Natasha cho'chib tushdi va go'yo nimagadir tayyorgarlik ko'rayotgandek bo'ldi. Knyaz jiddiy qiyofada o'tirar va bir nima bo'lishini kutar, Natashaga sinchiklab razm solardi. Eshik ochildi-yu, yelib-yugurib Alyosha kirdi.

II BOB

Darhaqiqat, u ochiq chehra, shod va sho'xlik bilan yugurib kirdi. Shu to'rt kunni u rostdan ham xursandchilik bilan baxtiyor o'tkazgani ko'rinib turardi, Uning bizga bir narsani aytmoqchi ekani xuddi peshonasiga yozib qo'yilgandek ravshan edi.

– Mana, men ham keldim! – dedi u uyni boshiga ko'tarib. – Hammadan ilgari kelishim kerak edi-yu, kechikdim. Ammo hozir hammasini, hammasini bilasizlar. Hali dada, sen bilan bir og'iz gaplasholmadik, senga aytadigan gaplarim juda ko'p edi. Dadam hushi kelgan daqiqalarda menga o'zini «senlash»ga ruxsat beradi, – o'z gapini bo'ldi u menga yuzlanib. – Boshqa vaqtlarda Xudo ko'rsatmasin! U shunday yo'l tutadi, meni, birdan sizlay boshlaydi. – Ammo shu bugundan boshlab u hamisha yaxshi kayfiyatda bo'lishini xohlayman, shunday qilaman ham! Umuman aytganda, men shu to'rt kun ichida juda ham o'zgarib ketdim. Tamom o'zgardim, hammasini gapirib beraman. Keyinroq. Hozir eng muhimi ana u! Ana o'zi! Ana Natasha jonginam, salomatmisan, farishtam! – dedi u Natasha yoniga o'tira turib, uning qo'llarini orziqib o'par ekan. – Shu to'rt kun ichida seni

juda sog'indim, ammo ilojim qancha, kelolmadim! Ulgura olmadim. Jonginam! Nazarimda, ozib qolibsanmi? Ranglaring ketib qolibdi...

U zavq bilan Natashaning qo'llaridan o'par, qarab to'y-magandek o'zining ajoyib go'zal ko'zlari bilan uning yuzlariga suqlanib boqar edi. Men Natashaga qaradim, uning ko'zlarida ikkimizning ham fikrimiz bir «unda hech qanaqa ayb yo'q» degan ifodani ko'rdim. Ha, qo'y og'zidan cho'p olmagan Alyosha qachon aybli bo'lardi? Natashaning qalbida to'planib yotgan qon go'yo boshiga urgandek, uning rangsiz yonoqlariga qizil yugurdi, ko'zlari chaqnadi va u g'urur bilan knyazga qaradi.

– Xo'sh... bo'lmasa... shuncha kundan beri qayoqda eding? – dedi u bosiq va titroq ovoz bilan. U entikib og'ir-og'ir nafas olar edi. Yo rabbiy, qanchalik sevardi-ya uni!

– Axir, shuni aytyapman-da, go'yoki men seni oldingda aybdordekman. Go'yoki emish. Rostdan ham aybliman, buni o'zim bilaman, bilganim uchun oldingga keldim. Katya kecha ham, bugun ham, bunchalik beparvolikni ayol kishi kechirolmaydi dedi (axir, u seshanba kuni bizda nima ahvol ro'y berganini biladi, ha, ertasigayoq gapirib berganman). Men u bilan toza olishdim, bu ayolni Natasha deydilar, bu olamda unga teng keladigan bitta odam bor, u ham esa Katya dedim: men bekorga bahslashganim yo'q, yutib chiqdim, shuni bilganim uchun bu yerga keldim. Senga o'xshash farishta kechirmay qo'yardimi? Kelmadimi, demak, biror narsa to'sqinlik qilgan, bu narsa ko'ngli sovuganini bildirmaydi, shunday deb o'ylaydi mening Natasham! O, sendan ko'ngil sovushi mumkinmi? Axir, shu mumkinmi? Seni sog'ina berib yurak-bag'rim ezilib ketdi-ku. Lekin, baribir, men aybli! Lekin, baribir, men aybli! Hammasini bilgandan keyin sen o'zing meni birinchi bo'lib oqlaysan! Hozir hammasini hikoya qilib beraman. Men hammangizning oldingizda ko'nglim sirlarini aytishim kerak. Shuning uchun ham keldim. Shu bugun (yarim daqiqagina bo'sh vaqtim bor edi) seni bittagina o'pib ketish uchun g'izillab kelib ketmoqchi edim, yo'q, yana bir monelik chiqdi: Katya qandaydir g'oyat zarur ish bilan darhol huzuriga chaqirib qoldi. Bu, hali men izvoshda o'tirgan

paytimda, dada, sen meni ko'rganingdan burun bo'lgan edi; men boshqa safar, boshqa maktub bilan Katya oldiga ketayotgan edim. Choparlar xat bilan kuni bo'yi u uydin bu uyga tanda qo'yishgan edi. Ivan Petrovich, sizning yozib qoldirgan maktubingizni men faqat kechasi o'qishga ulgurdim. Yozgan gaplaringiz hammasi to'g'ri. Ammo nima ilojim bor, tanimni bo'lolmayman-ku! O'zimcha: ertaga kechqurun hamma gunohimni yuvib yuboraman deb o'yladim. Negaki bugun kechqurun ham sening oldingga kelmasligimning iloji yo'q edi, Natasha.

– Qanaqa maktub edi u? – so'radi Natasha.

– Ivan Petrovich kecha uyimga borib, meni topolmay xat yozib ketibdi, sening oldingga kelmaganim uchun toza boplab so'kibdi. U to'g'risini yozgan, haqqi bor. Bu voqea kecha bo'lgan edi.

Natasha yalt etib menga qaradi. Knyaz:

– Katerina Fedorovnanikida ertadan kechgacha o'tirishga vaqt topasan... – degan edi, Alyosha:

– Bilaman, nima demoqchiligingni bilaman, – deb so'zni kesdi. – «Katyanikiga borishga bahona topsang, unda, bu yerga kelishga ikki barobar ko'p bahona topishing kerak edi», – demoqchisan. Fikringga qo'shilaman va o'zim ham qo'shimcha qilishim mumkin: bunga ikki marta emas, milliondan ortiq bahona topishim mumkin edi. Ammo hayotda shunday g'alati, kutilmagan hodisalar yuz beradiki, hamma narsa ayqash-uyqash, ostin-ustun bo'lib ketadi. Xo'sh, deganingizdan, shu hodisalar mening ham boshimdan o'tdi. Aytyapman-ku, men shu kunlarda tamom, tish-tirnog'imgacha o'zgardim. Shundan xulosa chiqarish kerakki, muhim holat yuz bergan!

– Ey Xudoyim, nima bo'ldi, axir! Odamni ko'p xit qilmay gapira qolsang-chi! – dedi Natasha, Alyoshaning qizishib ketganidan kulimsirab.

Darhaqiqat, Alyosha biroz kulgili edi: u shoshilar, labi labiga tegmay bidirlar, pala-partish gapirar, to'xtovsiz gapirishni istardi. So'zlab turib ham Natasha qo'lini qo'yib yubormas, go'yo o'pib to'ymagandek dambadam labiga olib borar edi.

– Gap shunda-da! Menda shu qadar muhim holat yuz ber-

diki! – davom etardi Alyosha. – Ey do'stlarim! Men nimalar ko'rmadim, nimalar qilmadim, qanday odamlar bilan tanishmadim. Birinchidan, Katya kamolotga erishgan bir qiz ekan! Men uni shu chog'gacha hech ham, qittak ham bilmas ekanman! O'sha, seshanba kuni, men senga u haqda gapirganimda ham, uni yaxshi bilmas ekanman, esingda bormi, Natasha, men u haqda baland ruh bilan gapirgan edim. Lekin uni tirnoqcha ham bilmas ekanman. Uning o'zi xuddi shu paytgacha mendan yashirinib yurgan ekan. Ammo endi biz bir-birimizni obdan tushunib oldik. Biz endi bir-birimiz bilan «sanlab» gaplashamiz. Biroq shoshmanglar, boshidan boshlayman: birinchidan, Natasha, sen bilsayding, u sening haqingda, o'sha kuni ertasiga – chorshanba kuni oldiga borib, oramizda o'tgan gaplarni gapirib berganimdan keyin, nimalar deganini bilsayding... Ha, esimga tushyapti. O'sha kuni – chorshanba kuni ertalab sening oldingga kelganimda, o'zimni shu qadar ahmoqona tutdimki, o'zim endi hayron qolaman. Sen meni shodlik bilan qarshi olding, yangidan ro'y bergan ahvol butun vujudingni hamrab olgan, men bilan yakkash shu haqda gaplashmoqchi bo'lasan; o'zing g'amgin bo'lganingga qaramay, sho'xlik qilasan, men bilan o'ynashasan, men esa sipolik qilib, o'zimni katta olaman! Voy ahmog'-ey! Ahmoq! Xudo haqqi, o'shanda men oliftagarchilik qilib yaqinda kuyov bo'lishimni, sipo odam bo'lishimni ko'rsatmoqchi, maqtanmoqchi bo'lgandim. Tag'in kim oldida kerilmoqchi bo'ldim, – sening oldingda-ya! Eh, o'shanda toza meni masxara qilgan bo'lsang kerak-a, masxara bo'lishga loyiq ekanman!

Knyaz indamasdan, lablarida qandaydir tantanali kino-yaomuz kulgi bilan Alyoshaga qarab o'tirar edi. Xuddi u o'g'li o'zini yengil tabiat, kulgili qilib ko'rsatayotganidan xursanddek. Men o'shanda butun oqshom unga razm solib o'tirdim va, o'zimcha, garchi knyaz o'g'lini otashin otalik mehri bilan sevishini gapirsa hamki, u o'g'lini aslo sevmasligiga ishondim.

– Sendan keyin men Katyanikiga ketdim, – javrardi hamon Alyosha. – Men aytdim-ku, xuddi shu bugun ertalab bir-birimizni juda yaxshi bilib oldik deb. Bu shunday ro'y berdiki... hatto esimda ham yo'q... Bir necha otashin so'zlar, bir necha

hissiyot, ochiqchasiga aytilgan fikrlar bizni abadiy yaqinlashedi. Natasha, Natasha, sen uni bilishing kerak! Sening qanaqaligingni tushuntirib naqadar ajoyib soʻzlar aytdi. Sen men uchun bebaho bir xazina ekaningni tushuntirdi. Asta-sekin u menga oʻzining hayotga boʻlgan qarashlarini va orzularini gapirib berdi; u shu qadar jiddiy, shu qadar joʻshqin yurakli qizki! U burch, maqsad haqida, biz barchamiz insoniyat uchun xizmat qilmoqimiz haqida gapirdi. Ikkimiz shu qisqa besh-olti soatlik suhbat asnosida bir-birimizni tamoman tushunib oldik, nihoyat, suhbat shu bilan tamom boʻldi: ikkimiz qiyomatli doʻst boʻlishga, umrimiz boricha birga ish koʻrmoqqa qasamyod etdik!

– Qanaqa ish? – soʻradi knyaz hayron boʻlib.

– Men shu qadar oʻzgardimki, dada, bular barchasi seni hayratga solishi turgan gap; hatto eʼtiroz bildirishingni ham oldindan sezib turibman, – javob berdi tantana bilan Alyosha. – Siz hammangiz tajribakor odamlarsiz, sizlar qolib ketgan, jiddiy, qattiq qoidalarga rioya qilasiz, siz barchangiz yangilikka, yangi tushunchaga ishonchsizlik, dushmanlik bilan qaraysizlar, uni masxara qilasizlar. Ammo endi men, bundan bir necha kun ilgari sen bilgan odam emasman, boshqa odamman! Men hamma-ga, olamda bor hamma narsaga tik qaray olaman. Agar men oʻzimning maslagim adolatli ekanini bilsam, jonim boricha shuning orqasidan ketaman va agar men yoʻldan adashmasam, demak, men sof vijdonli insonman. Boʻldi bas. Shundan keyin nima desanglar deyaveringlar. Men oʻzimga ishonaman.

– Oʻhoʻ! – dedi knyaz istehzo bilan.

Natasha olazarak boʻlib bizga bir-bir qaradi. U Alyoshani oʻylab tashvish qilardi. Alyosha bir gapga tushib ketgandan keyin koʻpincha aljib ketib kulgi boʻlib qolardi, Natasha buni yaxshi bilardi. Alyoshani bizning oldimizda, ayniqsa, otasi oldida mayna boʻlishini istamasdi.

– Senga nima boʻldi, Alyosha! Bu gaplaring allaqanaqa-allaqanaqa falsafa-ku, – dedi u, – senga birov oʻrgatgan, shekilli: yaxshisi, boʻlgan gapni ayt.

– Gapiryapman-ku! – dedi Alyosha qichqirib. – Billsang, Katyaning ikkita uzoq qarindoshi, allaqanaqa amakivachchalari,

Levinka va Borinkalar bor ekai, bittasi –talaba, bittasi – oddiy bir yigit. Katyaning ular bilan aloqasi bor, ular esa juda ajoyib odamlar! O‘z fe‘l-atvorlariga asosan grafinyanikiga kelishmaydi. Biz Katya bilan insonning maqsadi, vazifasi va hokazolar xususida gapirishganimizda, u shularni tilga oldi va darhol ularga xat yozib berdi. Men shu zahoti ular bilan tanishish uchun yugurdim. Shu oqshomning o‘zida biz hammamiz til topishib oldik. U yerda o‘n ikkita har turli odamlar, talabalar, ofitserlar, rassomlar bor edi, bitta yozuvchi ham bor... Ular hammasi Ivan Petrovich, sizni yaxshi bilishadi, ya‘ni sizning ko‘p asarlaringizni o‘qishgan va kelajakka sizdan umidlari juda katta. Ular o‘zlari shunday deyishdi. Men ularga siz bilan tanishligimni aytdim, ularni siz bilan tanishtirishga va‘da qildim. Ular hammasi meni birodarlari kabi, jon-dillari bilan qabul qildilar. Men darhol ularga yaqinda uylanishimni aytdim, ular o‘zlari ham meni uylangan kishi deb o‘ylagan ekanlar. Ular beshinchi qavatda, tunuka tom taglarida yashaydilar. Mumkin qadar tez-tez uchrashib turadilar, ko‘pincha chorshanba kunlari Levinka, Borinkalarnikida yig‘ilishadi. Bular hammalari barcha insoniyatni otashin muhabbat bilan sevuvchi yangi fikrli yoshlar; biz hammamiz istiqbol, ilm-u fan, adabiyot haqida gapirishdik. Shunday yaxshi, ochiq va takallufsiz gaplashdik... O‘sha yerga yana bitta gimnazist borib turadi. Ular bir-birlari bilan shundag! muomala qiladilar, shunday oliyjanoblarki, men umrimda bundaylarni aslo ko‘rmaganman! Men shu chog‘gacha qayerlarda yuribman? Nimani ko‘rdim? Qanday o‘sdim? Bitta sengina, Natasha, menga shunga o‘xshash narsalar gapirar eding. Eh Natasha, sen ular bilan darhol tanishmog‘ing kerak; Katya allaqachondan beri tanish. Ular Katyani ehtirom bilan tilga oladilar, Katya ham o‘z navbatida Levinka bilan Borinkaga, o‘z davlatini idora etish huquqiga ega bo‘lishi bilan, shu ondayoq to‘xtovsiz bir millionni jamiyat foydasiga hadya etishini aytgan.

– Shu millionni boshqaruvchi Levinka, Borinka va ularning ulfatlari bo‘lsa kerakda-a? – so‘radi knyaz.

– Yo‘q, yo‘q, dada, bunday deyish uyat! – qichqirdi Alyosha qizishib, – fikringni bilib turibman! Shu million haqida

rostdan ham gap bo'ldi, uni nimaga ishlatish haqida qarorga kelolmadik anchagacha bir Nihoyat, eng avval uni jamiyat ilm-u ma'rifati uchun sarf etishga qaror qildik...

– Ha, men rostdan ham Katerina Fedorovna qanaqaligini shu chog'gacha bilmagan ekanman, – dedi knyaz, o'ziga o'zi gapirgandek, hamon o'sha istehzoli kulgi bilan. – Men, masalan, undan ko'p narsani kutgan edim, ammo bu...

– Nima, bu? – so'zini kesdi Alyosha, – nimasi senga g'alati ko'rinyapti? Nima, sizlarning qoidalarigizga xilofmi? Shu chog'gacha hech kim iona¹ qilmagan millionni u qilmoqchi bo'lgani uchunmi? Shumi? Xo'sh, u birovlar hisobiga yashashni istamasa, nima qilsin, chunki bu millionlar hisobiga yashash – birovning hisobiga yashash demakdir. (Men buni endigina bildim.) U vatani uchun, hamma uchun foydali bo'lishni, shuning uchun jamiyat foydasiga o'z hissasini qo'shishni istaydi. Iona haqida biz bir vaqtlar husnixatlarda o'qiganimiz, mana shu ionadan millionlar isi kelib qolishi bilan, «bu qanaqasi» bo'lib qoldi-da, a? Men shunchalik ishongan, anovi maqtalغان tadbirkorlik nimaga asoslangan ekan? Nega menga unaqa qaraysan, dada! Xuddi bir oldingda masxaraboz, ahmoq odamni ko'rayotgandek! Ahmoq bo'lsam, nima qilibdi. Sen eshitsayding, Natasha, shu to'g'rida Katya nima deganini: «Eng muhimi aql emas, uni yo'lga sola bilgan, natura, qalb, oliyjanob fazilatlar, taraqqiyot», – deydi. Ammo eng muhimi bu haqda Bezmiginning dohiyona iboralari bor. Bezmigin – bu Levinka, Borinkalarning tanishi, oramizda eng aqlli, donosi shu! Kuni kecha u gap orasida; o'z ahmoqligiga iqror bo'lgan ahmoq ortiq ahmoq emas deydi! Naqadar oqilona gap. Bunday gaplar undan qaynab chiqadi! Haqiqatni ochib tashlaydi.

– Darhaqiqat, ajoyib dono ekan! – deb qo'ydi knyaz.

– Nuqul kulasan. Ammo men sendan hech qachon shunday so'zlarni eshitmaganman, sen yashagan muhitdagilarning ham birontasidan eshitgan emasman. Sizda aksincha: bularning hammasini yashiradilar, yerga urishning payida bo'ladilar. Hammaga o'z andozangizga qarab, o'z qoidangiz bo'yicha to'n bicha-

¹ Iona (arabcha; yordam, ko'mak) – moddiy yordam, nafaqa.

siz. Go‘yo bu mumkin bo‘lgan gapdek! Go‘yo biz gapirib, biz o‘ylagan narsadan ming marta qiyinroq va mumkin emasdek. Tag‘in bizni xayolparastlar deb aytadilar. Sen ularning kechagi gaplarini eshitsang edi...

– Xo‘sh, nimani gapirib, nimani o‘ylaysizlar? Gapirib ber, Alyosha, men hali ham uncha tushunganim yo‘q, – dedi Natasha.

– Umuman taraqqiyotga olib boradigan, insonparvarlik, muhabbat hissini uyg‘otadigan hamma narsa haqida o‘ylaymiz; hozirgi zamonga oid masalalar haqida gapiriladi. Biz oshkoralik, boshlanib kelayotgan islohotlar, insoniyatga muhabbat, shu zamon arboblari haqida gapirishamiz; biz ularni muhokama qilamiz, o‘qiymiz. Eng muhimi biz o‘zaro o‘z haqimizda hech tortinmasdan, samimiy va ochiqchasiga gaplashishga so‘z berdik. Faqat samimiyat, faqat rostgo‘ylik maqsad tomon olib bora oladi. Bunga Bezmigin, ayniqsa, katta ahamiyat beradi. Men buni Katyaga gapirib bergan edim, u ham Bezmiginga xayrixohlik bildirdi. Shuning uchun biz Bezmigin rahbarligi ostida umrbod sof vijdon bilan ish qilishga, bizni qancha qoralamaslar, orqamizdan qancha gapirmaslar, o‘zimizning shavqi-zavqimiz, havaslarimizdan uyalmay, xatolardan hech tap tortmay to‘g‘ri yo‘ldan ketishga so‘z berdik. Agar seni hurmat qilishlarini istasang, hammadan avval o‘zingni hurmatla; shundagina, o‘z qadringni bilganingdagina, boshqalar seni hurmat etishi mumkin. Buni ham Bezmigin aytgan va Katya ham unga batamom qo‘shiladi. Umuman biz endi o‘zimizning maslagimiz tufayli bitishib kelyapmiz, endi har kim alohida-alohida o‘zini o‘rganishi kerak, hammamiz birgalikda bir-birimizni o‘rganib, bir-birimiz bilan tanishtiramiz.

– Bu qanaqa safsatabozlik! – qichqirdi knyaz tahlikaga tushib, – Bezmigining kim o‘zi? yo‘q, bu ishni shundog‘ligicha qoldirib bo‘lmaydi...

– Nimani qoldirib bo‘lmaydi? – so‘zini og‘zidan oldi Alyosha, – menga qara, dada, bilasanmi, nima sababdan men endi bularni sening oldingda gapiryapman? Chunki seni ham o‘z safimizga olib kirishni istayman va shunga ishonaman ham. Men u yerda sening orqangdan so‘z berib qo‘ydim. Sen kulyapsan.

Ha, kulishingni o'zim ham bilardim! Ammo quloq sol! Sen oliyjanob, himmatli, tushungan odamsan, buni o'zing bilmaysan, lekin bu odamlarni ko'rmagansan, ularning o'z og'zidan eshitmagansan. Faraz qilaylikki, bu gaplarni eshitgansan, hammasini o'rgangansan, olim odamsan, ammo sen ularni o'z ko'zing bilan ko'rmagansan, ularnikida bo'lmagansan, bas, qanday qilib sen ular haqida to'g'ri hukm chiqara olasan! Sen bilaman deb xayol qilasan. yo'q, sen ular bilan birga bo'lib ko'r, o'z qulog'ing bilan so'zlarini eshit, shunda, shundagina, aminmanki, sen bizniki bo'lasan! Hammadan muhimi shuki, seni qurshab olgan jamiyatlardan, halokatdan, seni o'z maslagingdan qutqarishga qo'limdan kelganicha harakat qilaman.

Knyaz indamasdan, zaharxanda qilib uning gapini tinglar, ammo yuzida qahr-u g'azab ifodasi bor edi. Natasha hech yashirib bo'lmaydigan bir nafrat bilan uni kuzatardi. Knyaz buni sezar, ammo o'zini ko'rmaganga solar edi. Biroq Alyosha so'zini tamom qilishi bilan u birdan qah-qah urib kulib yubordi. U madori qolmaganidan kreslo suyanchig'iga o'zini tashlab kulardi. Ammo bu kulgining soxtaligi yaqqol ko'rinib turardi. Lekin o'g'lini, iloji boricha, qattiq ranjitish va uni yerga urish niyatida kulganligi bilinib turardi. Alyosha rostdan ham ranjidi, qattiq qayg'urgani yuzidan bilinib turardi. Lekin sabr bilan otasining qahqahasi bosilishini kutib turdi.

– Dada, – dedi u xomush, – nega mendan kulasan? Men sir saqlamay senga gapning ochig'ini aytdim. Basharti, sening fikringcha, men ahmoqona gap qilayotgan bo'lsam, mendan kulish o'rniga aql o'rgat. Kulishning o'rnini emas-ku. Men uchun endi muqaddas, sharafli ko'ringan narsalar ustidan kulyapsanmi? Mayli, men yo'ldan ozgan bo'lay, mayli, bular hammasi xato bo'lsin, mayli, men sen bir necha marta aytgandek ahmoq bo'lay, ammo adashayotgan bo'lsam ham samimiy sof dilman; men o'z fazilatlarimni yo'qotganim yo'q. Men buyuk g'oyalardan zavqlanaman. Mayli, ular xato bo'lsin, ammo ularning asosi muqaddasdir. Men senga aytib o'tdim-ku, na sen va na sening jamiyating meni yo'lga soladigan, qiziqtiradigan hech narsa aytgan emassizlar. Mayli, ularning nohaqligini isbot et, ulardan yaxshi-

roq biror fikr aytginki, men sening orqangdan ergashay, biroq mendan kulma, bundan men qattiq xafa bo'laman.

Alyosha bu gaplarni zo'r oliyjanoblik va g'alati bir vazminlik bilan gapirdi. Natasha xayrixohlik bilan uni ta'qib etardi. Knyaz biroz taajjub bilan o'g'lining so'zlariga quloq soldi va darrov muomalasini o'zgartdi.

– Seni aslo xafa qilmoqchi emasdim, do'stim, – javob berdi u, – aksincha, senga achinaman. Sen hayotda shunday bir yo'lga kiryapsanki, bu sendan yengiltak yosh bolalikni yig'ishtirib qo'yishni taqozo qiladi. Mana mening fikrim. Men beixtiyor kuldim, seni ranjitishni aslo istamagandim.

– Bo'lmasa nega shunday tuyuldi menga? – davom etdi Alyosha alam bilan. – Nima uchun anchadan beri sen menga ota o'g'liga qaragandek emas, g'araz bilan miyiq ostidan kulib qaraganga o'xshab ko'rinasan? Nima uchundir, nazarimda, agar men sening o'ringda bo'lsam, o'z o'g'limni sendek tahqirlamagan, masxara qilmagan bo'lar edim. Menga qara: hozir betmabet gaplashib olish kerak, oramizda hech qanaqa anglashilmovchilik qolmasin... Men ochig'ini, rost gapni aytmoqchiman: men bu yerga kirganimda bir anglashilmovchilik yuz bergandek tuyuldi; men sizlarni bu yerda bu holda birga ko'raman deb o'ylamagandim. Shundaymi, yo'qmi? Agar shunday bo'lsa, unda har kim o'z ko'nglidagi tuyg'usini ochib solgani yaxshiroq emasmi? Ro'yirost gapirish bilan ne-ne yomon ishlarning oldini olish mumkin!

– Gapir, gapir Alyosha? – dedi knyaz, – taklifing nihoyatda oqilona taklif. Balki, gapni shundan boshlash kerak edi ham, – dedi u Natashaga qarab.

– Gapning ochig'ini aytganim uchun jahling chiqmasin, – boshladi Alyosha, – sen o'zing shuni istaysan, o'zing shunga rag'batlantiryapsan. Eshit bo'lmasa: Natasha bilan turmush qurishimga o'zing rozi bo'lding, sen bizga bu baxtni ato etib, o'zingni o'zing yengding. Sen shunday muruvvatli ish qildingki, biz hammamiz sening bu oliyjanobligingdan g'oyat minnatdor bo'ldik. Ammo nima uchun endi o'zing negadir sevinch bilan to'xtovsiz meni ahmoq bola ekanimni, kuyov bo'lishga arzimas-

ligimni shama qilasan, bu ham kamdek, sen meni Natasha oldida masxara qilishni, pastga urishni istaysan, hattoki, qoralashni ham xohlagandek ko'rinasan. Sen hamma vaqt meni biror yo'l bilan kulgi qilganingdan xursand bo'lasan. Men buni endigina emas, anchadan beri sezaman. Sen nima uchundir ataylab, bizning turmush qurishimiz kulgili, bema'ni ekanini, bir-birimizga mos emasligimizni yuzimizga solishga tirishasan. O'zing biz uchun loyiq ko'rgan narsangga o'zing ishonmagandek ko'rinasan; bu ishlarga bir hazildek, o'yinchoqdek, qanaqadir kulgili bir tomoshadek qaraysan... Men sening bugungi so'zlaringga qarabgina xulosa chiqarayotganim yo'q. Men o'shandayoq, o'sha seshanba kuni kechqurunoq bu yerdan oldingga qaytib borganimda, o'z og'zingdan, meni hayratga solgan va hatto ranjitgan bir qancha g'alati so'zlar eshitdim. Chorshanba kuni ham, Peterburgdan jo'nay turib, bizning hozirgi vaziyatimizga dog' tushiradigan ke-satiqlar qilding, Natasha haqida ham, haqoratli bo'lmasa hamki, qandaydir men eshitishni xohlamagan yuzaki, unga nisbatan hur-matsizlik bo'lgan qanaqadir bir-ikki sovuq gap qilding... Buni anglatish qiyin, ammo gap tagida gap borligini ko'ngil sezib turadi. Yanglishayotgan bo'lsam ayt, ishontir, dalda ber menga... unga ham, chunki sen uning ham ko'nglini og'ritding. Men buni bu yerga kirishim bilan, bir qarashdayoq payqadam...

Alyosha bu gaplarni jo'shqinlik va qat'iyatlik bilan aytdi. Natasha uning so'zlarini qandaydir zavq, hayajon bilan tingladi, yuzlari lovullab ketgandi. So'z orasida: «Ha, ha, shunday!» – deb pichirlab o'tirdi. Knyaz xijolat tortdi.

– Chirog'im, – javob berdi u, – senga aytgan gaplarimning hammasini eslay olmayman, albatta. Biroq o'sha gapni egrilikka olganing menga erish tuyulyapti. Qo'limdan kelgancha yangli-shayotganingni isbotlashga tayyorman. Men hozir kulayotgan bo'lsam, bu ham tushunarli. Shuni aytib qo'yayki, kulgi bilan men hatto achchiq tuyg'ularimni yashirmoqchi bo'lgan edim. Seni hademay kuyov bo'lishingni ko'z oldimga keltirsam, naza-rimda, bu asti iloji bo'lmagan, bema'ni bir ishdek, kechirasam-u, kulgilidek ko'rinaradi. Mening kulgimdan xafa bo'lyapsan, lekin shuni aytib qo'yayki, bunga faqat o'zing sababsan. ham o'zimni

oppoq demayman, albatta... Ehtimol, keyingi vaqtlarda senga uncha e'tibor bermay qo'ygandirman, shuning uchun ham mana shu oqshom nimaga qodir ekaningni tushunib yetdim. Natalya Nikolaevna bilan birga quradigan kelajakdagi hayoting meni tahlikaga solib qo'ydi, men shoshilibman, bir-biringizga o'xshamasligingizni ko'rib turibman. Muhabbat bu o'tkinchi narsa, ammo oradagi tafovut hamisha qoladi. Hali ham sening taqdiring haqida gapirayotganim ham yo'q, biroq sen sof niyat bilan shu ishni qilayotgan bo'lsang, o'zing o'ylab ko'r, axir, sen bir o'zing emas, o'zing bilan birga Natalya Nikolaevnani ham xarob etasan, xarob etasan! Mana, hozir sen bir soat davomida insoniyatga muhabbat, oliy maslak, o'zing tanishgan oliyjanob odamlar haqida javrading, lekin Ivan Petrovichdan so'ra, men haligina mana bu yerdagi iflos zinadan to'rtinchi qavatga chiqa turib nimalar dedim? Biz eson-omon chiqib olanimizga ming shukurlar qildik... Bilasanmi, o'shanda qanday fikrlar o'tdi xayolimdan beixtiyor? Hayronman: Natalya Nikolaevnani shu qadar qattiq sevganing holda, qanday qilib sen uni shu uyda yashashiga chidab tura olasan? Yoningda bir chaqang yo'qligini, o'z burchingni ado etishga qurbing yetmasligini bila turib uylanishga, o'z ustingga bunday burchni olishga ham haqqing yo'qligiga qanday qilib aqling yetmadi? Bitta sevgining o'zi kifoya qilmaydi, sevgi ish bilan izhor etiladi. Sen esa: «Men bilan kulfat cheksang hamki, birga tur!» – deb muhokama yuritasan, axir, bu insofdan emas-ku, bu oliyjanoblik emas-ku! Ajabo, olamshumul muhabbat haqida gapirib, umumbashar masalalaridan zavqlanib, ayni zamonada sevgiga qarshi jinoyat qilish va uni sezmaslikka hayronman! So'zimni bo'lmang, Natalya Nikolaevna, men tugatay, menga alam qilyapti, hammasini aytishim kerak. Hali aytib o'tding, Alyosha, shu kunlarda sen nafosat, insof, oliyjanoblik hislariga berilib ketibsang, bizning jamiyatda bunday narsalarga qiziqish yo'qligini, quruq tadbirkorlikdan o'zga hech narsa yo'qligini yuzimga solding. Menga qara, azizim, oliyjanob va ajoyib ishlar bilan shug'ullansang-u, yana seshanba kuni bu yerda bo'lgan gaplardan so'ng, to'rt kun mobaynida sen uchun dunyoda eng aziz kishi bo'lishi kerak bo'lgan bir zotni mensimay, qorang-

ni ko'rsatmay ketib qolishing nimasi? Hatto Natalya Nikolaevna seni shunchalik sevishini, nimaiki qilsang, hammasini kechirib yuboradigan darajada oliyjanob ekanligini isbot qilish uchun Katerina Fedorovna bilan bas boylashganingga ham iqror bo'lding. Ammo kechirishiga ishonishga va bu to'g'rida tag'in birov bilan bahslashishga qanday haqqing bor? Nahotki, shu kunlar mobaynida Natalya Nikolaevna xayoliga qanchadan qancha achchiq fikrlar, shubhalar, gumonlar solishingni biror marta o'ylamading? Nahotki sen u yerda allaqanday yangi g'oyalar bilan bosh qotirib, eng muqaddas burchingga iltifotsizlik qilishga haqli eding? Natalya Nikolaevna, so'zimning ustidan chiqmaganligim uchun kechiring. Biroq endigi ishlar bu so'zdan jiddiyroq: o'zingiz buni tushunib olasiz... Bilasanmi, Alyosha, Natalya Nikolaevna men kelganimda qanday iztirobda edi, bu tushunarli, negaki sen uning hayotida eng laziz daqiqalar bo'lishi kerak bo'lgan to'rt kunni g'oyib bo'lib ketib do'zaxga aylantirgansan. Va'dalar, va'dalar boshqa-yu, qilmishing boshqa... Yoki men noto'g'ri gapiryapmanmi? Shundan keyin ham, o'zing boshdan oyoq aybli bo'la turib ham meni ayblay olasanmi?

Knyaz so'zini tugatdi. U o'zining so'zamolligidan shu qadar zavqlanib ketgan ediki, hatto bizdan o'z tantanasini yashira olmadi. Alyosha Natashaning azob chekkanini eshitgach, yuragi pora-pora bo'lib hasrat bilan unga qaradi, ammo Natasha bir qarorga kelgandi:

– Bas, Alyosha, g'am yema, boshqalarning aybi senikidan kattaroq. O'tir, eshit otangga nima deyishimni. Bu gaplarga xotima berish payti keldi!

– Tushuntirib gapiring, Natalya Nikolaevna! – dedi so'zni og'zidan olib knyaz, – iltimos qilaman! Ikki soatdan beri shu muammoni eshityapman. Sabr kosasi to'ldi. To'g'risini aytsan, meni bu yerda bunday kutib oladilar deb o'ylamagandim.

– Bo'lsa bordir, chunki siz so'zlaringiz bilan bizni maftun etib, yashirin niyatlarim sezilmay o'tib ketadi deb o'ylagandingiz. Nimani tushuntiray! Siz o'zingiz hammasini bilib, hammasiga tushunib turibsiz. Alyosha haqli. Sizning eng birinchi maqsadingiz bizni ajratish. O'sha seshanba oqshomidan keyinoq,

bu yerda nima bo'lishini besh panjangizdek bilardingiz. Men avval ham aytganman: siz menga ham, o'zingiz bosh qo'shgan ishga, unashtirishga ham jiddiyroq qaraganingiz yo'q. Siz hazil-lashyapsiz, siz o'ynashyapsiz, lekin o'zingiz bilgan maqsad sari ketyapsiz. O'yiningiz bexato. Alyosha, bu narsaga o'yin deb qaraysiz, deb sizni to'g'ri ta'na qiladi. Siz Alyoshadan xafa bo'lishning o'rniga xursand bo'lishingiz kerak edi, negaki u hech narsani sezmasdan siz kutgan ishlarni bajaravergan, balki, siz kutgandan ham oshirib bajargan.

Og'zim ochilib, qotib qoldim. Shu oqshom qandaydir bir falokat yuz berishini kutgan ham edim. Ammo Natashaning yurakdagi bor gapni haddan tashqari qat'iylik bilan aytishi, so'z-laridagi nafrat ohangi meni nihoyat darajada hayratga soldi. Bundan chiqdi, rostdan ham u biror sirni bilsa kerakki, orani ochdi qilishga qasd etgan, deb o'yladim. Shuning uchun ham hamma gapni shartta yuziga aytish uchun knyazni sabrsizlik bilan kutayotgan ekan-da. Knyazning sal-pal rangi o'chdi. Alyosha-ni yuzida ma'sumona qo'rquv va sabrsizlik ifodalandi.

– Meni hozir nima deb ayblayotganingiz esingizda tursin, – dedi knyaz baqirib, – jinday o'ylab gapirsangiz bo'lmaydimi... Men hech narsaga tushunmayanman!

– Ha-ha! Hali o'zingizni tushunmaganga ham solmoq-chimisiz, – dedi Natasha, – hatto u ham, hatto Alyosha ham gapingizga xuddi men tushungandek tushundi, biz esa til birik-tirgan emasmiz, hatto ko'rishganimiz ham yo'q! U ham bizni mayna qilayotganingizni, nayrangbozligingizni payqadi. U esa sizni sevadi va sizga Xudoga ishongandek ishonadi. Siz unga ehtiyotroq bo'lishni ham, mug'ambirroq bo'lishni ham o'zingiz-ga loyiq topmagansiz, aqli yetmaydi deb o'ylagansiz. Ammo u ziyrak, muloyim, ta'sirchan qalbli odam, sizning gaplaringiz, uning ta'biricha, tovushingizning ohangi dilini ranjitgan...

– O'lay agar, tushunayotgan bo'lsam! – dedi yana knyaz qattiq taajjublangan holda, menga murojaat qilib, xuddi meni guvohlikka chaqirayotgandek. Uning jahli chiqib birdan qizishib ketdi. – Siz har narsani ko'nglingizga olaverasiz, siz vahima qilyapsiz, – davom etdi u Natashaga qarab. – Ochig'ini aytganda,

siz uni Katerina Fedorovnadon rashk qilyapsiz, shuning uchun ham butun kiborlarni, birinchi navbatda meni qoralashga tayyor-siz... Va... hammasini aytishga ruxsat eting: umuman sizning fe'li-atvoringiz haqida kishida g'alati bir tasavvur paydo bo'ladi. Men bunaqa xarxashalarga o'rgangan emasman; agar o'g'lim masalasi meni qiziqtirmasa, men bu yerda bir daqiqa ham qolmas edim... Marhamat qilib, gapingizni tuzukroq tushuntiring... Men hali ham kutib turibman.

– Demak, siz haliyam o'jarlik qilyapsiz, hamma gapni ipidan-ignasigacha bilganingiz holda, o'zingizni bilmaslikka sol-yapsiz-a? To'ppa-to'g'ri yuzingizga aytishimni istaydiganga o'xshaysiz?

– Ha, shuni istayman.

– Juda soz, eshiting bo'lmasa, – baqirdi Natasha gazabdan ko'zlari chaqnab, – hammasini, hammasini aytib beraman!

III BOB

U o'rnidan turdi va azbaroyi hayajonlanganidan o'zi sez-magani holda tikka turib gapira boshladi. Knyaz ham gapiga qu-loq solib turib o'rnidan turdi. Mojaro tobora tantanali tus olmoq-da edi.

– Seshanba kuni aytgan so'zlaringizni esga oling, – bosh-ladi Natasha. – O'shanda menga pul, tekis yo'l, oqsuyaklar orasi-da mavqega ega bo'lishim kerak degan edingiz, esingizdami?

– Esimda.

– Balli, mana shuning uchun pul topish niyatida, qo'-lingizdan ketgan yutuqlarni qaytadan qo'lga kiritish uchun siz seshanba kuni bu yerga keldingiz va meni o'g'lingizga unash-tirish kerakligini o'ylab topdingiz, siz o'zingizcha bu nayrang boy berilgan yutuqlarni yana qo'lga kiritishga yordam beradi, deb o'yladingiz.

– Natasha, – qichqirdim men, – nimalar deyapsan, o'ylab gapiryapsanmi?

– Nayrang! G‘araz! – takrorladi knyaz nafsi nihoyatda haqoratlangan tus bilan. G‘amdan ado bo‘lgan Alyosha hech narsaga tushunmay o‘tirardi.

– Ha, ha, to‘xtatmanglar meni, men bir boshdan gapirib berishga qasd qildim, – davom etardi asabiylashgan Natasha, – esingizda bormi, Alyosha gapingizga kirmay qo‘ygandi. Uni mendan aynitish uchun yarim yil urindingiz. Lekin u ko‘nmadi. Vaqt ziq kelib qoldi. Uni qo‘ldan chiqarib yuborish demak, ham qayliqni, pulni, eng muhimi pulni, butun boshli uch millionli sepni boy berish demak edi. Siz uchun bitta-yu bitta chora qoldi, u ham bo‘lsa, siz unga olib bermog‘chi bo‘lgan qizni Alyosha sevib qolishi kerak edi. Basharti sevib qolsa, Natashadan sovib ketar deb o‘ylagan edingiz...

– Natasha, Natasha! – qichqirdi Alyosha parishon holda, – nimalar deyapsan!

– Siz shunday qildingiz ham, – davom etdi Natasha, Alyoshaning qichqirig‘iga parvo ham qilmay, – ammo yana boyagi-boyagi, boy xo‘janing tayog‘i! Hamma ishlaringiz yurishib ketishi ham mumkin edi, ammo yana men g‘ov bo‘ldim! Sizni bitta narsa umidvor qilishi mumkin edi: siz ko‘pni ko‘rgan, mug‘ombir odamsiz, ehtimol, o‘shandayoq Alyoshaning ba‘zan avvalgi mehri-muhabbati unga malol kelayotganligini sezib qolgansiz. Uning menga nisbatan iltifotsiz bo‘la boshlaganini, men bilan birga bo‘lgandagi zerika boshlaganini, besh kunlab mening oldimga kelmay yurganini sezmay qolmasdingiz, albatta. Ha, shunday qilib yurib ko‘ngilga tegar, tashlab ham ketar deb yurgandingiz, tasodifan seshanba kundagi Alyoshaning qat‘iy harakati sizni esankiratib qo‘ydi. Nima qilmog‘ingiz kerak edi!..

– Axir, – dedi knyaz qichqirib, – aksincha, bu voqea...

– Men gapiryapman, – deb shartta so‘zini bo‘ldi Natasha, – o‘sha kecha siz o‘z-o‘zingizga: «Nima qilsam ekan?» – deb savol berdingiz va endi Alyoshani menga uylanishiga yo‘l qo‘yish kerak, degan qarorga keldingiz, ammo bu shunchaki uni tinchitish uchungina og‘zaki gap edi. To‘yni istaganimizcha orqaga surish mumkin deb o‘yladingiz, shu o‘rtada yangi ishq-muhabbat boshlanib qoldi; siz buni sezdingiz. Mana shu yangi

muhabbatni siz asos qilib oldingiz.

– Ishq-muhabbat mojarolarni, – g‘udurladi knyaz, o‘z-o‘zi bilan gaplashayotgandek eshitilar-eshtilmas, – yolg‘izlik, xayolparastlik va roman o‘qishlarning oqibati!

– Ha, mana shu yangi muhabbatni siz hamma narsaga asos qilib oldingiz, – davom etdi Natasha, knyazning so‘zini eshitmay, unga e‘tibor ham bermay, titrab-qaqshab borgan sari qizishib, – bu yangi muhabbatdan umid zo‘r edi! Axir, bu ishq Alyosha hali qizning barcha ajoyib fazilatlarini bilib yetmagan chog‘dayoq boshlangan edi-ku! Xuddi o‘sha daqiqada, uni seva olmasligini, o‘sha qiz oldida boshqa qizga ko‘ngil berib qo‘ygani tufayli burch va boshqa qizning sevgisi uning sevgisiga monelik qilishini izhor etgan oqshomda, u qiz birdan buning oldida ajoyib oliyjanoblik ko‘rsatadi, unga va o‘zining raqibasiga shu qadar xayrixohlik bildiradiki, shu qadar chin ko‘ngildan uni afv etadiki, garchi shu daqiqaga qadar yigit uning go‘zalligiga qoyil qolsa ham, ammo uning bu qadar ajoyib qiz deb bilmagan edi! U o‘shanda mening oldimga kelib ham uni tilidan qo‘ymadi. – U Alyoshani benihoya maftun etgan edi. Ha, u yana ertasigayoq bu ajoyib qizni, hech bo‘lmasa, minnatdorchilik nuqtai nazaridan yana ko‘rishga unda hech qaytarib bo‘lmaydigan ehtiyoj uyg‘onishi zarur edi. Rost, nima uchun uning huzuriga bormasligi kerak edi! Axir, eski yor endi qiynalmaydi. Uning taqdiri hal etilgan, modomiki, unga bir umr baxsh etilgan bo‘lsa, bir daqiqa nima degan narsa... Shu bir daqiqani Natasha undan rashk qilsa, nonko‘rlik bo‘lmasmidi? Mana shunday qilib, asta-sekin Natashadan endi daqiqalar o‘rniga kunlar olinaverdi. Ammo mana shu davr ichida qiz o‘zining ajoyib, aslo kutilmagan yangi latofatlarini namoyon qiladi; u shu qadar oliyjanob, serzavq, shu bilan bir vaqtda shunchalik begunoh go‘dakki, bu xislatlari bilan u Alyoshaga juda ham o‘xshash ketadi. Ular bir-birlari bilan qiyomatli do‘st, aka-uka tutinadilar, umrbod bir-birlaridan judo bo‘lmaslikka qasam ichadilar. «Qandaydir besh-olti soatlik suhbat»da uning yuragi yangi hissiyotlar uchun ochiladi, qalbi taslim bo‘ladi... Nihoyat shunday bir vaqt keladiki, deb o‘ylaysiz siz, u o‘zining oldingi ishq-muhabbatini, yangi, jozibador tuyg‘ular

bilan solishtiradi; u yerda hammasi tanish, ko'ngilga urgan, u yerda jiddiy muomala, talabchanlik, uni rashk etadilar, koyiydilar, ko'z yoshi qiladilar... Basharti sho'xlik qilib u bilan o'ynash-salar ham, o'z tengi bilan emas, go'yo bola bilan o'ynashgandek o'ynashadilar... Eng muhimi: u yerda hammasi qadimgicha, hammasi besh qo'ldek ma'lum...

Ko'z yoshlari va achchiq alamlar uni bo'g'ib qo'ydi, ammo Natasha, yana bir daqiqagina o'zini qo'lga oldi.

– Xo'sh, keyin-chi? Keyin, vaqt mezon deydilar! Axir, Natashaning to'yi hali-beri bo'lmaydi-ku, vaqt hali ko'p, bora-bora hammasi o'zgaradi... Tag'in shularning ustiga sizning so'zlaringiz, shama, izohlaringiz, fasohatlaringiz... Hatto anovi jig'ingizga tegadigan Natashaga tuhmat qilish ham mumkin, uni shunday yomon ko'rsatish mumkinmi, oqibati nima bo'lishi noma'lum bo'lsa ham, ammo yutuq siz tomonda! Alyosha! Meni ayblama, azizim! Meni, muhabbatningni tushunmaydi yoki qadriga yetmaydi dema. Axir, hali ham meni sevishingni bilaman, balki, shu daqiqa nolalarimga tushunayotgandirsan ham... Bilaman, men shularning barchasini hozir aytib juda yomon ish qildim, ammo men shularning hammasiga tushunsam, shunga qaramay, senga bo'lgan muhabbatim tobora alanga olayotgan bo'lsa... es-hushimdan ajralish darajada seni sevsam, nima qilay!

U qo'llari bilan yuzini bekitdi, kresloga o'zini tashlab yosh boladek o'kirib yig'ladi. Alyosha faryod etib unga o'zini otdi. U Natashaning ko'z yoshiga chidolmasdi.

Uning yig'isi knyazga qo'l keldi, shekilli, Natashaning o'z dardini mana shu yo'sinda uzundan uzoq jo'shqinlik bilan izhor etishi, knyazning yuziga aytgan qattiq so'zlariga u, hech bo'lmasa, ko'ngil uchun xafa bo'lish kerak edi-yu, biroq bularning barchasini endi telba rashk o'ti, oyoq osti qilingan sevgi, hatto xastalik natijasi deb izohlash mumkin edi. Hattoki ko'nglini ovlash ham kerak bo'lib qoldi...

– Tinchlaning, kuymang Natalya Nikolaevna, – deb ovutardi uni knyaz, – bular hammasi asabiylik, xayol surish, yolg'izlik oqibati... Siz uning yengiltaklitidan qattiq xafa bo'lgansiz... Ammo bular uning tomonidan sodir bo'lgan yengil-

taklik, xolos. Siz alohida qayd qilib o'tgan muhim dalil – se-shanba kungi hodisa ko'proq uning sizga bo'lgan beqiyos sodiqligini isbot qiladi, siz esa aksincha...

– Qo'ying, gapirmang, hech bo'lmasa, hozir meni qiynamang! – so'zni bo'ldi Natasha, yig'lab turib, – yuragim allaqachon hammasini sezgan, anchadan beri! Nahotki, uning ilk sevgisidan asar ham qolmaganini sezmaydi deb o'ylaysiz... Shu yerda, mana bu kimsasiz xonada, yolg'iz qolib... u tashlab, unutgan chog'larida men yonib adoyi tamom bo'lganman... hammasini o'ylab chiqqanman... Nima qilishim kerak edi! Seni ayblayotganim yo'q, Alyosha... Nega siz meni aldaysiz? Nahotki, o'zimni-o'zim aldab ko'rmaganman deb o'ylaysiz!.. O, necha marta, necha martalardan! Men uning tovushini jon qulog'i bilan tinglamaganmanmi? Men uning yuzidan, ko'zlaridan fikrlarini uqib olishga o'rganmaganmanmi?.. Barchasi, barchasi barbod bo'ldi, barchasi qaro yer bo'ldi... Ey peshonam qursin!

Alyosha uning oldida tiz cho'kib o'tirib yig'lardi.

– Ha, men, men aybdor! Hammasiga men sabab!.. – deb takrorladi u yig'lab turib.

– Yo'q, sen o'zingni ayblama, Alyosha, – boshqa odamlar sabab... bizning dushmanlarimiz... Ular, ular!..

– Axir, ijozat bering, -- dedi knyaz biroz sabrsizlik bilan, – qanaqa asosga muvofiq siz mana bu... jinoyatlarni menga to'nkayapsiz? Axir, bular hammasi sizning, hech narsaga asoslanmagan gumonlaringiz-ku...

– Isbot kerakmi! – baqirdi Natasha kreslodan irg'ib turib. – Sizga isbot kerakmi, makkor! Siz o'z takliflaringiz bilan bu yerga kelganingizdayoq boshqacha harakat qilishingiz mumkin emasdi! Siz o'g'lingizni tinchitishingiz kerak edi. Katyaning og'ushiga tinchgina, bemaol o'zini tashlashi uchun uni vijdon azobidan qutqarishingiz kerak edi. Buningsiz u meni esga olaverrar, sizning so'zingizga kirmagan bo'lardi. Sizning esa toqatingiz toq bo'lgan edi.

– Yoki noto'g'rimi?

– Iqorman, – javob berdi knyaz kinoyali jilmayish bilan, – agar men sizni aldamoqchi bo'lgan bo'lsam, shularni hisobga

olgan bo'lar edim; siz juda ham dono qizsiz, ammo buni isbot etish kerak, keyin kishilarni mana bunday ta'nalar bilan tahqirlash kerak.

– Isbot qilish kerak deysizmi? Uni mendan ajratish uchun qilgan sizning avvalgi harakatlaringiz-chi? Kimki o'z o'g'lini oliy tabaqalar orasida obro' qozonish uchun, pul uchun mana buningdek burchlarini nazar-pisand qilmaslikka, ularni ermak qilishga o'rgatsa, uni buzadi! Hali zina to'g'risida, uyning yomonligi to'g'risida nimalar dedingiz? Axir, muhtojlik, ochlik tufayli bir-birimizdan ajralib ketishga majbur qilish uchun avvali berib turgan maoshni to'xtatib qo'ygan siz emasmingiz? Sizning kasofatingiz bilan shu kvartirada turamiz, shu zinadan chiqamiz, endi o'zingiz shuni bizning yuzimizga solyapsiz, ikkiyuzlama odam! Qayoqdan, birdan o'sha kecha sizda shunday qizg'inlik, sizga xos bo'lmagan yangi bir ishonch paydo bo'ldi? Va nega men sizga shuncha zarur bo'lib qoldim? Men mana shu to'rt kun mobaynida shu yerda yurib, hammasini birma-bir o'ylab chiqdim. Sizning har bir so'zingiz, yuz ifodangizni eslab shu xulosaga keldimki, ular hammasi soxta, maynavozlik, kishini haqoratlovchi past va yaramas komediyadan iborat edi... Axir, men sizni bilaman, allaqachondan beri bilaman-ku! Alyosha har gal sizning oldingizdan kelgan paytlarida, aftidan, siz unga nima deganingiz, nimalarni uqtirganingizni payqab olardim. Sizning unga bo'lgan ta'siringiz tinog'im yuzida! yo'q, siz meni alday olmaysiz! Balki, hali sizni yana boshqa niyatlaringiz ham bordir, balki, men eng kerakligini ayta olmagandirman, ammo menga baribir! Siz meni aldab kelgansiz, eng muhimi – shu! Shuni to'ppa-to'g'ri yuzimga aytsangiz ham bo'lar edi...

– Shu xolosmi? Hamma isbotingiz shumi? Ammo o'zingiz o'ylab ko'ring, jahli tez ayol, men o'zimning o'sha qilg'im bilan (seshanba kuni qilgan taklifni siz shunday qilib aytyapsiz) o'zimni o'zim bog'lab berdim. Bu esa men uchun nihoyat darajada yengiltaklik edi.

– Nima, nima bilan siz o'zingizni bog'ladingiz? Siz uchun meni aldash nima degan gap? Bitta qiz ranjitildi, xolos, sizga bundan nima! Axir, u bitta bebaxt qochqin, otasi tark etgan ojiza,

o'zini malomatga qo'ygan axloqsiz bir qiz-da! Modomiki, bu masxarabozlik, jindek bo'lsa ham foyda keltiradigan bo'lgandan keyin undan tortinib o'tirishga na hojat.

– O'zingizni qanday ahvolga solib qo'yyapsiz, Natalya Nikolaevna, o'ylab ko'ring! Meni tahqirlagan eding, deb shu gapga yopishib olyapsiz. Ammo bu shu qadar zo'r tahqir va shu qadar tubanlikki, men buni faraz qilish mumkinligini, ayniqsa, shu gapga yopishib olishingizni aqlimga sig'dirolmayman! Meni kechiring-ku, bunday haqoratga osongina yo'l qo'yish uchun har narsaga odatlanib qolgan bo'lish kerak. Sizdan har qancha o'pkalashga haqliman. Chunki siz o'g'limni menga qarshi qayrab solyapsiz: hozir u siz uchun menga qarshi chiqmayotgan bo'lsa hamki, yurakdan u endi menga qarshi.

– Yo'q, dada, yo'q, – baqirdi Alyosha, – men senga qarshi chiqayotgan bo'lsam, bu senga ishonganim tufayli, sen bunday haqorat qilolmaysan, shunchalik tahqirlash mumkinligini men xayolimga ham keltirolmayman!

– Eshitdingizmi? – dedi knyaz.

– Natasha, hammasiga aybdor o'zim, uni qoralama. Bu gunoh, bu dahshat!

– Eshityapsanmi, Vanya, endi bu ham menga qarshi! – qichqirdi Natasha.

– Bas! – dedi knyaz, – bu fojiaga xotima berish kerak! Chegaradan chiqib ketgan bu ko'r-ko'rona va g'azabli rashk xarakteringizni men uchun yangi bir shaklda tasvirlab berdi. Men ogohlantirildim. Biz shoshilgan ekanmiz, chindan ham shoshilgan ekanmiz. Meni naqadar xo'rlaganingizni o'zingiz ham sezmayapsiz; bular siz uchun hech gap emas ekan! shoshilibmiz. Shoshilganda qandoq... Shubhasiz, mening so'zlarim muqaddas bo'lishi kerak, biroq... Men, har qalay, otaman, o'z o'g'limga baxt tilayman.

– Siz so'zingizdan qaytyapsiz! – baqirdi Natasha bo'g'ilib, – siz bahona topilganiga xursandsiz. Lekin shuni bilib qo'yingki, men o'zim bundan ikki kun ilgari uni bergan so'zidan qutqarib qo'yishga qaror qilganman, endi hammaning oldida tasdiqlayman. Men uning bahridan o'tdim!

– Ya’ni, uni qaytadan o‘zingizga og‘dirish uchun siz unda avvalgi barcha tashvishlarni, vafo tuyg‘usi, hali o‘zingiz aytgandek, o‘z burchini ado etishga intilish kabi hislarni yangidan qo‘zg‘atmoqchisiz. Axir, bular hammasi sizning nazariyangiz bo‘yicha sodir bo‘lyapti, shuning uchun ham men shunday deyapman, biroq bo‘ldi, bas, uzil-kesil hal etish payti keldi. Men siz bilan ochiq gaplashib olish uchun bundan tinchroq vaqtni kutaman. Ishonamanki, biz siz bilan aloqamizni batamom uzmaymiz. Ishonamanki, siz ham mening qadrimga tuzukroq yetadigan bo‘larsiz. Men shu bugunoq ota-onangiz haqidagi rejalarimni aytmoqchi edim, shundan o‘zingiz xulosa chiqaradingiz... Biroq bas! Ivan Petrovich! – qo‘shib qo‘ydi u mening oldimga kelib, – endi siz bilan hamma vaqtdagidan ham ko‘proq yaqindan tanishib olishim men uchun nihoyatda zarur. Buni ko‘pdan beri orzu qilib yurganimni gapirmasam ham bo‘ladi. Umidvormanki, siz tushunasiz. Yaqin kunlarda huzuringizga boraman. Ijzat berasizmi?

Men bosh egdim. O‘zimga ham endi u bilan tanishishdan qochib yurish mumkin emasdek ko‘rindi. U mening qo‘limni qisdi, Natashaga so‘zsiz tavoze qildi-da, qadri-qimmatini tahqirlangan tus bilan chiqib ketdi.

IV BOB

Bir necha daqiqa biz hammamiz indamasdan o‘tirdik. Natasha xayolchan, parishon holda o‘tirar, uning barcha g‘ayrat-shijoati birdan so‘ngan edi. U beixtiyor Alyosha qo‘lini ushlaganicha bir nuqtaga tikilib, xayolga botgan edi. Alyosha esa alam yoshlarini to‘kar va har zamonda qo‘rqa-pisa Natashaga qarab qo‘yardi.

Nihoyat, u tortinibgina Natashaga tasalli bera boshladi; xafa bo‘lmasligini so‘rab yolg‘irdi, o‘zini aybladi; u nima qilib bo‘lsa ham, otasini oqlashni istagani, bu narsa uning yuragini qattik g‘ash qilayotgani ko‘rinib turardi; u bir necha bor shu haqda gap ochish uchun og‘iz jupladi, ammo qaytadan Natasha-

ning g'azabini qo'zg'atishdan cho'chidi, shekilli, jur'at etolmadi. U o'zining Natashaga bo'lgan doimiy sodiq sevgisi haqida qasamyod etib gapirar va Katyaga bo'lgan munosabatini oqlashga zo'r berib urinar edi; Katyani bir singil qatorida, mehribon, muloyim singil qatorida sevishini, uni tamom tashlab keta olmasligini, bunday qilsa, unga nisbatan insofsizlik va hatto xunuk ish qilgan bo'lishini hadeb takrorlar va agar Natasha Katya bilan yaqindan tanishsa, shu zahotiyuq inoq bo'lib ketishlarini, hech qachon bir-birlaridan ajrala olmasliklarini, shunda hamma gaplar o'zidan o'zi bosilib ketishini uqtirar edi. Mana shu fikr, ayniqsa, unga yoqar edi. Bechoraning gaplarida yolg'oni yo'q edi. U Natashaning xavfsirashiga tushunmasdi, umuman Natasha hali uning otasiga nimalar deganini ham yaxshi anglamagan edi. Faqat ular bir-birlari bilan g'ijillashib qolganlarinigina tushundi, bu esa uning yuragini g'ash qilar edi.

– Otang uchun meni ayblayapsanmi? – deb so'radi Natasha.

– Voy, men, hamma narsaga o'zim sabab, o'zim hammasiga aybdor ekanimni bila turib, kimni ayblay olar edim, – dedi javoban Alyosha iztirob bilan. – Shunchalik jahling chiqishiga men sabab bo'ldim, sen esa jahl ustida unga ayb qo'yding, chunki sen meni oqlamoqchi bo'lding, sen meni hamma vaqt oqlaysan, ammo men bunga arzimayman. Aybdor kimligini bilib olish kerak edi-da, sen esa unga yopishib ketding. Ammo Xudo haqqi, ayb unda emas! – dedi Alyosha jonlanib ketib. – Shuning uchun u bu yerga kelganmidi! Kutgani shumi edi!

Ammo Natashaning o'pka qilib unga alam ila qarab turganini ko'rish bilanoq, cho'chib ketdi.

– Bo'ldi, bo'ldi, boshqa gapirmayman, meni kechir, – dedi u, – hammasiga sabab o'zim!

– Ha, Alyosha, – davom etdi Natasha hasrat bilan. – U o'ramizga sovuqlik solib, umrbod bizning tinchligimizni buzdi. Sen hamisha hammadan ham ko'p menga ishonar eding, endi esa u sening yuragingda menga qarshi shubha, ishonchsizlik uyg'otdi, sen meni qoralaysan, u sening qalbingning yarmini mendan tortib oldi. O'ramizga sovuqlik, tushdi.

– Unday dema, Natasha. Nega «sovuqlik tushdi» deysan?
– unga shu so‘z qattiq tekkan edi.

– U soxta yaxshilik, yolg‘on muruvvatlar bilan seni o‘ziga og‘dirdi, – davom etdi Natasha, – endi tobora u seni menga qarshi qo‘yaveradi.

– Ont ichaman, bunday bo‘lmaydi! – qichqirdi Alyosha haligidan battarroq qizishib, – «shoshilgan ekanmiz» deb jahl ustida gapirdi. Mana o‘zing ko‘rasan, ertagayoq, yaqin kunlardayoq o‘zi shu gapidan pushaymon yeydi, agarda, u rostdan ham qattiq achchiqlanib, bizning turmush qurishimizga qarshi chiqsa, qasamyod qilib aytamanki, men uning so‘ziga kirmayman. Shunga, ehtimol, qudratim yetsa kerak... Bilasanmi, bizga kim ko‘mak beradi, – qichqirib yubordi, o‘z fikridan zavqlanib: – Katya bizga yordam beradi! Shunda o‘zing ko‘rasan, uning naqadar oliyjanob qiz ekanini! O‘zing ko‘rasan, u senga kundosh bo‘lishni, bizni bir-birimizdan judo qilishni istaydimi, yo‘qmi! Meni, to‘yning ertasigayoq ko‘ngli sovib aynib qoladigan odamlardan deb hali nohaq gapirding! Bilasanmi, menga qanchalik og‘ir edi shularni eshitish! Men unaqalardan emasman, basharti men Katyaning oldiga...

– Bas, Alyosha, xohlagan vaqtingda oldiga boraver. Men hali bu haqda gapirganim yo‘q. Sen tushunmabsan. Kim bilan xohlasang, o‘sha bilan baxtli bo‘l. Axir, men qalbingdan shundan ortig‘ini talab qila olmayman-ku...

Mavra kirdi.

– Nima qilay, choyni olib kiraveraymi? Ikki soatdan beri qaynaydi-ya samovar; soat o‘n bir bo‘ldi, axir.

U qo‘pollik bilan jahl aralash so‘radi; uning fe‘li aynib turgani, Natashadan achchiqlangani ko‘rinib turar edi. Gap shundaki, u shu kunlarda, seshanbadan beri, sohibasi (jonidan ham yaxshi ko‘radigan sohibasi) erga tegishidan terisiga sig‘may xursand bo‘lib yurgan edi, bu gapni hovlidagilarning hammasiga, tevarak-atrofdagilarga, do‘kondorga, hovli qorovuliga aytib ulgurgan edi. U maqtanardi va og‘zini ko‘pirtirib, knyazning katta mansabli odam, general va o‘lgudak badavlat ekanini, ataylab o‘zi kelib sohibasining roziligini so‘raganini o‘z qulog‘i bilan

eshitganini hikoya qilgan edi, endi esa birdan hamma ish chappa-
sidan ketdi. Knyaz xafa bo'lib choy ham ichmay ketib qoldi,
hammasiga aybdor sohibasining o'zi! Sohibasi knyazga hurmat-
sizlik bilan gapirganini Mavra o'z qulog'i bilan eshitdi.

– Mayli... olib kela qol, – dedi Natasha.

– Zakuskalarni-chi¹, uni ham keltiraymi?

– Ha, zakuskani ham... – Natasha dovdirab qoldi.

– Tayyorlayman deb kechadan beri oyog'imda oyoq qol-
madi, – davom etdi Mavra. – Vino uchun Nevskiyga borib kelib-
man-a! Endi esa... – u zarda bilan eshikni taraqlatib chiqib ketdi.

Natasha qip-qizarib ketdi va menga g'alati qilib qarab
qo'ydi. Shu orada choy olib keldilar, zakuska ham, qush go'shti,
allaqanaqa baliq, Yeliseevdan olingan ikki shisha, juda ajoyib
vino keltirib qo'yildi. «Nima uchun shuncha tayyorgarlik?» –
deb o'yladim ichimda.

– Ko'rdingmi, Vanya, men qanaqaman, – dedi Natasha
stol oldiga kelib, hatto mening oldimda ham xijolat chekib, –
xuddi shu bugundek bo'lishini oldindan sezib yurgan bo'lsam
ham, zora shunday bo'lmasa deb ham o'ylagan edim. Alyosha
kelib yarashar, hammamiz yarashib ketarmiz, mening barcha
shubhalarim asossiz chiqar, meni ishontirishar, degan umid bi-
lan... har ehtimolga qarshi, zakuskalar tayyorlab qo'ygan edim.
Gaplashib uzoq o'tirib qolarmiz deb o'ylagan edim...

Bechora Natasha! Shularni gapirib turib qip-qizarib ketdi,
bu gapdan Alyoshaning zavqi kelib:

– Mana, ko'rdingmi Natasha! – deb qichqirdi, – sen
o'zingga o'zing ishonmasding; bundan ikki soat ilgari o'z shub-
hangga o'zing ishonmaganding! Yo'q, hammasini to'g'rilash
kerak, men aybli, hammasiga o'zim sabab bo'lgandan keyin
hammasini o'zim tuzataman. Natasha, ruxsat ber, men hozir
otamning oldiga boray! Men uni ko'rishim kerak, u ranjatilgan,
tahqirlangan; uni yupatish kerak, men unga hammasini o'z no-
mimdan, yolg'iz o'z nomimdan tushuntiraman, seni aralashtir-
mayman ham. O'zim hammasini to'g'rilayman... Men uning

¹ Zakuska – spirtli ichimliklar yoki boshqa taomlar bilan birgalikda iste'mol qilinadigan
ichimliklar, yaxna taomlarning umumiy nomi.

oldiga borishga shoshilayotganim, seni tashlab ketayotganim uchun mendan xafa bo'lma. Gap unda emas; men unga achin-yapman, u sening oldingda o'zini oqlaydi, ko'rasan... Ertaga tong yorisharyorishmas oldingga yetib kelaman, kun buni oldingda bo'laman, Katyanikiga bormayman...

Natasha uni to'xtatmadi, hatto o'zi ham borishga maslahat berdi. Alyosha endi o'zini zo'rlab mening oldimda ertadan kechgacha o'tirib, mendan ko'ngli sovib qoladi deb qo'rqar edi Natasha. U faqat mening tilimdan hech narsa gapirma, deb iltimos qildi va xayrlasha turib xursandlik bilan jilmayishga urindi. U endi chiqib ketmoqchi bo'lib turganda birdan Natasha oldiga qaytib keldi-yu, ikki qo'lini ushlaganicha yoniga o'tirdi. Alyosha unga suqlanib qarar edi.

– Natashaginam, jonginam, farishtam, mendan achchiqlanma. Kel, hech qachon urishmaymiz. Endi menga hamma vaqt hamma masalada ishonishingga so'z ber, men ham so'z beraman. Mana endi mening farishtam senga bir narsani aytay: bir kun sen bilan urishib qoldik, nima uchunligi hozir esimda yo'q; men aybli edim. Biz bir-birimiz bilan gaplashmay yurdik. Oldin afv so'rashga bo'ynim yorimadi, ko'zimga dunyo qorong'i edi. Shunda men ko'chama-ko'cha tentirab, bormagan yerim qolmadi, oshna-og'aynilarimnikiga ham bordim, lekin shunday xafa edimki, ichimga chiroq yoqsa, yorishmasdi... Shunda aqlimga bir gap keldi: agarda Natasha kasal bo'lib o'lib qolsa, nima bo'ladi? Shu fikr xayolimga keldi-yu, birdan rostdan ham men seni abadiy yo'qotganday yuragim qinidan chiqib keta yozdi. Biri biridan og'ir, biri biridan dahshatli xayollar ko'nglimdan o'taverdi. Bora-bora shunday faraz qila boshladimki, go'yo men sening qabringga kelib behush yiqilibman va iztirob chekib qabringni quchoqlaganimcha yotibman. Xayolimda shu qabrni o'pgan, bir daqiqagina chiqqin deb seni chaqirgan emishman va Xudoyi taolodan bir daqiqagina ilohiy qudrati bilan seni tiriltirib mening oldimga chiqarishini iltijo qilgan emishman: shunda men joni-dilim bilan sening quchog'ingga otilib, bag'rimga bosib o'pganlarimni, bir daqiqagina qadimgidek seni yana quchoqlab o'pishga muyassar bo'lsam, jonim orom olishini ko'z oldimga keltir-

dim. Shularni faraz qilib tursam, birdan xayolimga shu gap kelib qoldi: mana men Xudodan bir daqiqagina diydoringni ko'rsatishini so'rayapman, holbuki biz sen bilan olti oydan beri birgimiz, shu olti oy ichida necha martabalardan g'ijillashdik, necha kunlab gaplashmay yurdik! Bir necha kun arazlashib yurdik, baxtimizning qadriga yetmadik, endi esa men seni bir daqiqagina qabrdan chiqishingni so'rayapman, mana shu bir daqiqa uchun bor hayotimni berishga ham tayyorman!.. Shularni ko'z oldimga keltirib, toqatim toq bo'ldi va visolingga shoshildim, yugurib bu yerga kelsam, sen meni kutib o'tirgan ekansan, shunda janjaldan keyin seni quchoqlab turib bag'rimga shunchalik qattiq bosdimki, nazarimda, rostdan ham men sendan ajralib qoladigandek. Natasha, hech qachon urishmaymiz! Bu men uchun hamisha shu qadar og'irki! Ey Xudo! Seni tashlab keta olarmidim men!

Natasha yum-yum yig'lardi. Ular bir-birlarini maqkam quchoqladilar. Alyosha yana bir marta uni hech qachon tashlab ketmaslikka qasam ichdi. Keyin u otasi huzuriga jo'nadi. U hamma ishni to'g'rilab kelishga qattiq ishonar edi.

– Hamma ish adoyi tamom bo'ldi! Chappasidan ketdi, – dedi Natasha mening qo'limni jon holatda qisib. – U meni sevadi va hech qachon mendan ko'ngli sovumaydi, ammo u Katyani ham sevadi va bir qancha vaqtdan keyin uni mendan ko'ra ko'proq sevib qoladi. Anovi ichi qora knyaz g'animatni qo'ldan bermaydi, ana shunda...

– Natasha! Knyazning qalloblik qilayotganiga men ham ishonaman, ammo...

– Men unga aytgan gaplarimning hammasiga ham sen ishonmaysan! Men buni sening aftingdan sezdim. Ammo shoshmay tur, o'zing ko'rasan, men haqli edimmi yoki yo'q? Men tag'inam shunchaki bilganlarimni gapirdim, Xudo bilsin, uning tag'in qanaqa niyatlari bor ekan! U juda ham yovuz odam! Men mana shu to'rt kun ichida uyda u yoqdan bu yoqqa yurib, hammasiga aqlim yetib qoldi. Unga xuddi shuning o'zi, Alyoshaning tinch yashashiga monelik qilgan, g'amdan, menga bo'lgan sevgisi tufayli bo'yniga tushgan burchdan uning yuragini ozod qilish kerak edi.

U meni unga unashtirish kerakligini o'ylab topdi, maqsadi o'z ta'siri bilan ichimizga suqilib kirib olish va o'zining oliyjanobligi bilan Alyoshani o'ziga maftun etish edi. Bu rost gap, Vanya! Alyoshaning fe'li xuddi shunaqa. U mendan xotirjam bo'lib olib, xavotir olmay qo'yardi: «Endi u mening xotinim, u hamisha men bilan», – deb o'ylardi-da, beixtiyor Katyaga ko'proq e'tibor bera boshlardi. Chamasi, knyaz o'sha Katyani yaxshi bilib olgan va u Alyoshaga mendan ko'ra ko'proq mos kelishiga, mendan ko'ra ko'proq uni o'ziga jalb eta olishiga aqli yetgan. Oh, Vanya! Endi hamma umidim sendan: u nima uchundir endi sen bilan yaqinlashmoqchi, tanishmoqchi. Buni rad etma, azizim, Xudo haqqi, tezroq grafinyanikiga borishga harakat qil. O'sha Katya bilan tanish, yaxshilab bilib olib, uning kimligini menga aytib berasan. U yerda sen mening ko'z-qulog'im bo'lishing kerak. Hech kim meni senchalik tushunmaydi, yolg'iz sengina menga nima kerakligini tushunasan. Yaxshilab bilib ol, ular qanchalik do'st, o'rtalarida nima gap bor, nimalarni gaplashishadi; Katyaga, hammadan ko'p Katyaga yaxshi e'tibor ber... Jonginam, jondan aziz Vanyaginam, yana bir marta, yana bir marta o'zingning do'stligingni isbot qil! Sendangina, yolg'iz sendangina menivg umidim...

Men uyga qaytib kelganimda kech soat o'n ikkidan o'tgan edi. Nelli uyquli ko'zi bilan eshikni ochdi. U jilmaydi va ochiq chehra bilan menga qarab qo'ydi. Bechoragina, uxlab qolgani o'ziga alam qilar edi. Nelli mening kelishimni kutib o'tirishni xohlardi. U kimdir kelib meni so'raganini, u bilan o'tirib, keyin stol ustida maktub qoldirganini aytdi. Maktub Masloboevdan edi. U meni ertaga soat birlarga chaqirgan edi. Men hammasini Nelli-dan surishtirib, bilgim kelib tursa ham, buni ertaga qoldirishga jazm qildim, borib uxlashini talab etdim, negaki bechora Nelli uningsiz ham meni kutaverib charchagan, kelishimdan yarim soat ilgari ko'zi uyquga ketgan ekan.

V BOB

Ertalab Nelli Masloboevning kechagi kelishi to'g'risida g'alatiroq narsalar gapirib berdi. Qiziq: nima boisdan Masloboev kecha kechqurun kelibdi ekan, holbuki mening uyda bo'lmasligimni bilgan, shu kuni uyda bo'lmasligimni o'zim unga oxirgi ko'rishganimizda aytganim esimda bor. Nellining aytishicha, oldin eshikni ochishni ham xohlamabdi, negaki qo'rqibdi, vaqt kech soat sakkiz bo'lib qolgan ekan. Ammo u berk eshik orqasidan turib, shu bugun maktub tashlab ketmasa, ertaga mening ishim chatoq bo'lishini gapirib ishontiribdi. Keyin Nelli eshikni ochgandan keyin u darrov maktubni yozibdi-yu, kelib uning yoniga – divanga o'tiribdi. «Men o'rnimdan turib ketdim, u bilan gaplashishni xohlamadim, – dedi Nelli, – men undan juda qo'rqdim, u Bubnovadan gap ochdi; meni qaytarib olishga jur'at qilolmay, toza xunob bo'layotganini gapirdi, keyin sizni maqtay ketdi; u siz bilan qalin og'ayni ekanini, sizni yoshligingizdan beri bilishini aytdi. Shundan keyin u bilan gaplasha boshladim. U cho'ntagidan konfet chiqarib, olishimni so'radi; men xohlamadim; shunda u o'zining oqko'ngil odam ekanini uqtirdi, ashula aytishni, o'yinga tushishni bilishini aytdi-da, o'rnidan irg'ib turib raqsga tushib ketdi. Mening kulgim qistab ketdi. Keyin tag'in birpas o'tirib turay-chi, zora Vanya kelib qolsa, dedi va sira qo'rqmasligimni, yoniga kelib o'tirishimni so'radi. Men o'tirdim, ammo u bilan hech gaplashgim kelmadi. Shunda u mening onamni va buvamni tanishini aytdi va... shundan keyin men ham gaplashaverdim. U ancha o'tirdi».

– Nimalarni gaplashdinglar?

– Onam haqida... Bubnova... buvam haqida gaplashdik. U ikki soatcha o'tirdi.

Nazarimda, Nelli ular nima haqda gaplashganlarini aytgisi kelmayotgandek edi. Men Masloboevdan eshitarman deb ortiq surishtirmadim ham. Masloboev ataylab Nellini yolg'iz uchratish uchun meni yo'qligimda kelgan degan fikr xayolimga keldi. «Bu nima uchun unga kerak ekan?» – deb o'yladim, o'zimcha.

Nelli menga u bergan uchta konfetni ko'rsatdi. Bu yashil va qizil qog'ozga o'ralgan, arzonbaho obaki¹ edi, chamasi, uni sabzavot do'konidan sotib olgan bo'lsa kerak. Nelli ularni menga ko'rsata turib o'zi kulib yubordi.

– Nega konfetlarni yemading? – deb so'radim.

– Xohlamayman, – dedi u jiddiy ohangda, qoshlarini chimirib. – Men, qo'linga ham olmadim, o'zi divanga tashlab ketdi...

Shu bugun juda ko'p yurishim kerak edi. Men Nelli bilan xayrlasha boshladim.

– Bitta o'zing zerikyapsanmi? – deb so'radim keta turib.

– Zerikamanam, zerikmaymanam... Siz bo'lmaganingiz uchun zerikaman.

U bu gapni ayta turib, menga shunday mehribonlik bilan qarab qo'ydi. U menga shu safar shunday muloyim tikilardiki, bu qarashda qanchadan qancha sho'xlik, erkalik, shu bilan birga, qandaydir uyatchanlik, hattoki tortinchoqlik ifodalanardi, go'yo u nima bilandir meni ranjitib qo'yishdan, unga bo'lgan mehri-muhabbatimni yo'qotishdan cho'chigandek va... va buni izhor etishdan xuddi uyaltandek ko'rinaradi.

– Nimaga zerikmayсан bo'lmasa? Axir, o'zing aytdingku: «zerikamanam, zerikmaymanam» deb, – so'radim men beixtiyor jilmayib, u menga tobora aziz va dilkash bo'lib borardi.

– Buni o'zim bilaman, – javob berdi u miyig'ida kulimsirab va negadir yana uyalib ketdi. Biz ochiq eshik ostonasida turib gaplashardik. Nelli mening ro'paramda, bir qo'li bilan yelkamni ushlab, ikkinchi qo'li bilan kamzulimning yengini yulqilaganicha yerga boqib turar edi.

– Nima, bu sirni? – so'radim.

– Yo'q... hech narsa... men... men sizning kitobingizni o'qiy boshladim, – gap boshladi ohistagina yumshoq, sinchkov boqish bilan menga qarab. O'zi esa qip-qizarib ketdi.

– Shunaqami hali? Xo'sh, senga yoqyaptimi? – Men mualliflarni ko'ziga qarab turib maqtaganlarida tushadigan saro-simada qolgan edim. Ammo, Xudo haqqi, hozir, shu topda uni

¹ Obaki (forscha: suyuq, suvli+tish) – shakar qiyomidan tayyorlangan shirinlik turi.

bir o'pish uchun hech narsani ayamadim. Biroq o'pish mumkin emasdek edi. Nelli indamadi.

– Nega, nega, axir, u o'ldi-ya? – so'radi Nelli chuqur qayg'u ifoda etgan yuz bilan, menga ko'z qirini tashlab, yana birdan yerga qarab olib.

– Kim, u?

– Anovi-chi, yosh yigit, sil bo'lib o'lgan... kitobdagichi?

– Nima qilish kerak, shunday bo'lishi shart edi, Nelli.

– Hech keragi yo'q, – javob berdi u endi shivirlab.

Ammo u negadir birdan xuddi jahli chiqqandek dudoqchalarini so'ljaytirib, battarroq yerga qarab olgan edi.

Yana bir daqiqa o'tdi.

– Anovi-chi... haligilar... qiz bilan chol, – shivirladi u qattiqroq mening yengimni yulqilab, – nima, ular birga yashashdimi? Qashshoq bo'lib qolishmaydimi?

– Yo'q, Nelli, qiz uzoqqa ketib qoladi; katta yer egasiga erga tegadi, chol yolg'iz o'zi qoladi, – javob berdim men nihoyatda afsuslanib. Unga tasalli beradigan biror javob berolmasligimdan, haqiqatan ham, afsuslangan edim.

– Shu-da... Shu! Shunaqa ekan-da! Sizni qarang-u!.. Endi o'qishni ham xohlamayman!

U zarda bilan qo'limni itarib tashladi-da, teskari qarab oldi. Stol oldiga borib, menga orqasini o'giranicha boshini quyi solib turaverdi. U loladek qizarib ketgan edi va bir narsadan qattiq g'azablangedek tez-tez nafas olar edi.

– Bo'ldi, Nelli, jahling chiqib ketdi-ya! – deb gap boshladim men oldiga borib, – axir, yozilgan narsalar hammasi yolg'on, to'qima gaplar. Shunga xafa bo'lish kerakmi? Nozik qizgina-ey!

– Xafa bo'layotganim, yo'q, – dedi u tortinibgina, u menga mehr-muhabbat olovlari bilan chaqnayotgan ko'zlarini tikib turardi. Keyin birdan mening qo'limni ushlab oldi. Ko'kragimga yuzini qo'ydi-yu negadir ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. Biroq shu zumning o'zida kulib yubordi, u ham kulardi, ham yig'lardi. Mening ham kulгим kelar, ham qandaydir shirin tuyg'u bilan ko'nglim to'lgandek edi. Ammo u boshini ko'tarib, menga qa-

rashni hech ham istamasdi, men yelkamdan uning yuzini ajratmoqchi bo'lsam, u battarroq menga yopishardi va battarroq qotib-qotib kulardi.

Nihoyat bu erkaliklar tugadi. Biz xayrlashdik, men shoshilib turgan edim. Nelli yonoqlari lovullab va hamon bir narsadan uyalgandek, yulduz kabi charaqlagan ko'zlari bilan orqamdan zipapoyagacha yugurib chiqdi va tezroq qaytishimni so'radi. Ovqat mahalgacha, albatta, yetib kelishga, iloji boricha, barvaqtroq kelishga va'da qildim.

Eng oldin men qariyalarnikiga bordim. Ikkovi ham betob edi. Anna Andreevna anchagina kasal ekan, Nikolay Sergeich o'z kabinetida o'tirardi. U mening oyoq tovushimni eshitdi, ammo odatdagidek o'n besh daqiqalardan so'ng, biz obdan gaplashib olganimizdan keyingina, chiqishini bilar edim. Men Anna Andreevnani unchalik xafa qilishni istamasdim, shuning uchun kecha kechqurun bo'lib o'tgan gaplarni, iloji boricha, ancha yumshatib gapirdim, lekin to'g'risini aytdim; taajjubkn, kampir biroz xafa bo'lgani bilan, ammo ajralish haqidagi xabarni eshitganda unchalik hayron bo'lmadi.

– Ey, bo'tam, o'zim ham shunday bo'lar deb o'ylagan edim, – dedi u. – Siz o'sha kuni ketdingiz, men o'ylab-o'ylab «shundoq bo'lmas» degan fikrga keldim. Xudo yarlaqamagan bandalar ekanmiz, shundoq razil odamga duchor bo'lganmiz; undan yaxshilik kutib bo'larmidi. O'n ming so'mni ko'ra-bila tortib olyapti, hazilakam gapmi. Bekordan bekorga olayotganini o'zi biladi, shunda ham oladi. Oxirgi burda nonimizni tortib olyapti, Ixmenevkani sotadilar. Natashaginam ularga ishonmay to'g'ri qiladi, aql-hushi bor-da, dono qiz. Bilasizmi, bo'tam, – davom etdi u ovozi pasaytirib. – Mening cholimni aytmaysizmi, cholimni! U shu to'yga butunlay qarshi. O'zidan o'zi gapirib yuradigan bo'lib qoldi: «Xohlamayman», – deb qo'yadi. Oldin men telba bo'lib qolibdi, deb o'yladim. Qarasam, rostdan aytayotgan ekan. Shundog' bo'lsa, u jonginam Natashaning holi nima kechadi? Axir, u tamom «oq» qilib yuboradi-ku. Xo'sh, Alyoshaning o'zi-chi, uning o'zi nima deydi?

U yana uzoq so‘rab-surishtirdi. O‘z odati bo‘yicha har bir javobimdan oh-u voh qilib, nolir edi. Umuman sezishimcha, keyingi vaqtlarda u es-hushini yo‘qotib qo‘ygan edi. Har qanday xabar uni iztirobga solar edi. Natashaning g‘ami yuragini tilka-pora qilib, uni adoyi tamom qilib qo‘ygan edi.

Ustida xalat va oyog‘ida tufli bilan chol kirib keldi, u bezgak xuruj qilayotganidan shikoyat qildi. Ammo, xotiniga mehribonlik bilan qarab qo‘ydi. O‘sha yerdaligimda u xotinini enaga kabi parvarish qilar, ko‘zlariga termilar, hatto uning oldida o‘zini yo‘qotib qo‘yardi ham. Ko‘zlarida muloyimlik aks etardi. U xotining kasalidan qo‘rqib qolgan, endi undan ham ajralsa, dunyoda kimsasiz g‘arib bo‘lib qolishini sezardi.

Men ularnikida bir soatcha o‘tirdim. Xayrlasha turib u mening orqamdan yo‘lakkacha chiqdi va Nellidan gap ochdi. Nellini qizi o‘rniga uyiga qabul qilish fikrida edi. U shunga Anna Andreevnani qanday qilib ko‘ndirish haqida men bilan maslahatlasha boshladi, Nelliga juda ham qiziqib, u haqda yana boshqa yangiliklar bilgan-bilmaganimni surishtirar edi. Men naridan beri gapirib berdim, mening hikoyam unda chuqur taassurot qoldirdi.

– Biz bu haqda tag‘in gaplashamiz, – dedi u qat‘iylik bilan, – hozircha... ha, mayli, men o‘zim senikiga boraman, biroz sog‘lig‘im joyiga kelsin, o‘shanda hal etamiz.

Xuddi soat o‘n ikkida men Masloboevnikida bo‘ldim. Meni nihoyatda hayratga solgan narsa shu ediki, u yerga kirishim bilan dastavval ko‘rgan odamim knyaz bo‘ldi. U yo‘lakda palto-sini kiyayotgan edi, Masloboev bo‘lsa, yelib-yugurib unga yordam berar, hassasini qo‘liga tutqazardi. U knyaz bilan tanish ekanini ilgari aytgan edi, ammo shunday bo‘lsa ham, mana, bu uchrashuv meni nihoyatda taajjublantirdi.

Knyaz meni ko‘rib dovdirab qolgandek bo‘ldi.

– Ey, sizmisiz! – qichqirdi u hovliqib, – uchrashgan joyimizni qarang-a! Ammo-lekin men hozirgina janob Masloboevdan, u kishi bilan tanish ekaningizni bildim. Xursandman, sizni uchratganimdan g‘oyat xursandman, o‘zim ham siz bilan bir uchrashish va, imkoni boricha, tezroq siznikiga borish orzusida edim. Ijzat beradilarmi? Sizdan bir iltimosim bor: menga

yordam bering, hozirgi ahvolimizni tushuntiribroq bering. So'-zimga tushungan bo'lsangiz kerak-a. Men kechagi gaplar haqida... Siz u yerdagilarga yaxshiroq tanishsiz, do'stsiz, siz hamma gaplardan xabardorsiz, so'zingiz o'tadi... Afsuski, siz bilan hoziroq suhbatlasha olmayman... Ish ko'p! Ammo yaqin kunlarda, balki, undan ham ilgariroq, suhbatingizga muyassar bo'larman deb o'ylayman. Hozircha...

U negadir qo'limni haddan tashqari qattiq qisdi va Masloboev bilan imlashib chiqib ketdi.

– Menga ayt-chi, Xudo haqqi, – deb gap boshladim uyga kira turib.

– Hech narsa deya olmayman, – so'zimni bo'ldi Masloboev shoshilganicha shapkasini changallab va yo'lakka tomon qadam tashlab, – ish, og'ayni, ish! Men shoshilib ketyapman, og'ayni, kech qoldim!..

– Axir, o'zing yozibsan-ku, xuddi soat o'n ikkida kel, deb.

– Yozsam nima bo'libdi? Kecha men senga yozdim, bugun menga yozdilar, tag'in shunday yozibdilar ki miyam tarsillab ketyapti, ishlar shunaqa! Meni kutyaptilar. Kechir, Vanya, seni rozi qilish uchun qo'limdan kelgani shuki, bekorga ovora qilganim uchun meni savalashing mumkin. Agar istasang, mayli, savala, lekin, Xudo haqqi, tezroq! Vaqtimni olma, ishlar ko'p, kutyaptilar.

– Nega endi savalar ekanman? Ishing bo'lsa, boraver, hammaning ham kutilmagan ishlari chiqib qolishi mumkin. Faqat...

– Yo'q, ana shu faqatni men aytayin, – so'zimni bo'ldi u yo'lakka yugurib chiqib, shinelini kiyar ekan (uning orqasidan men ham kiyina boshladim). – Senda bir ishim bor, juda zarur ish, shuning uchun ham seni chaqirgan edim, xuddi senga tegishli, sening manfaatingga doir ishlar. Bir daqiqada hammasini bayon etib bo'lmagani uchun, azbaroyi shifo, va'da bergin, shu bugun xuddi soat yettida menikiga kelasan, erta ham emas, kech ham emas. Men uyda bo'laman.

– Bugun, – dedim men ikkilanib, – ey og'ayni, bugun kechqurun bir joyga bormoqchi edim...

– Bugun kechqurun bormoqchi bo‘lgan yeringga, chirog‘im, hozir bor, kechqurun menikiga. Negaki Vanya, senga aytmoqchi bo‘lgan gaplarim yetti uxlab tushingga ham kirgan emas.

– Shoshma, shoshma, nima bo‘lishi mumkin? Rostini aytsam, yuragingga g‘ulg‘ula solib qo‘yding-da.

Shu orada biz darvozadan chiqib ko‘cha yo‘lakchasida turar edik.

– Kelasanmi? – so‘radi u qistov bilan.

– Kelaman dedim, kelaman.

– Yo‘q, chin so‘z ber.

– Ey tavba, ha, bo‘libdi so‘z beraman.

– Juda soz. Sen qay tomonga?

– Bu yoqqa, – dedim men o‘ng tomonni ko‘rsatib.

– Xo‘sh, men esa bu yoqqa, – dedi u chap tomonni ko‘rsatib. – Xayr, Vanya, esingda bo‘lsin, soat yettida.

«Qiziq-a?» – o‘yladim men orqasidan qarab qolib.

Men Natashanikiga kechqurun bormoqchi edim. Biroq endi Masloboevga va‘da berib qo‘yganim uchun unikiga hozir borishga jazm qildim. Men Alyosha ham o‘sha yerdadir, deb o‘ylagan edim, haqiqatan ham, u o‘sha yerda ekan, meni ko‘rib juda sevinib ketdi.

Alyosha ham muloyim, Natashaga g‘oyat mehribon bo‘lib qolgan edi; meni kelishim bilan juda ochilib ketdi. Natasha o‘zini xursandlikka solgani bilan uning shodligi zo‘rma-zo‘raki ekani ko‘rinib turardi. Rangi ketgan, zahil, kechasi bilan uxlamagani ko‘rinib turardi. Alyosha bilan ortiqcha mehribonlik qilar edi.

Alyosha, Natashaning ko‘nglini ochish, uning tabassumga moyil bo‘lmagan dudoqchalariga kulgi yugurtirish uchun ezmalik qilib ko‘p gapirgani bilan otasi haqida gapirmasligiga urinayotgani sezilib turardi. Chamasi, yarashish haqidagi kechagi urinishlari natija bermaganga o‘xshaydi.

– Bilasanmi? Oldimdan chiqib ketish ilojini topolmayapti, – shivirladi, shoshilib Natasha, Alyosha nimanidir aytish uchun Mavra oldiga chiqib ketganda, – biroq qo‘rqyapti. Men esa «ket» deyishga qo‘rqyapman, chunki, shunday desam, u ataylab ket-

may qolishi ham mumkin, eng qo‘rqan yerim shuki, bu yerda u zerikib qoladi, shu sababdan mendan butunlay sovib ketadi! Qandoq qilsam ekan-a?

– Xudoyo tavba. Muncha o‘zlaringni o‘zlaring qiynaysizlar-a? Shunday badgumonsanlarki, bir-birlaringizni poylaganing poylagan! Ochiqdan ochiq gaplashib qo‘yish kerak – vassalom. Mana shu ahvolda u rostdan ham sendan sovishi mumkin.

– Nima qilay bo‘lmasa? – qichqirdi u qo‘rqib ketib.

– To‘xta, o‘zim hammasini to‘g‘rilayman... – dedim-u, Mavradan loyga botgan bir poy kalishimni artib qo‘yishini so‘rashni bahona qilib oshxonaga chiqdim.

– Ehtiyot bo‘l, Vanya, – dedi orqamdan Natasha.

Men Mavra oldiga kirishim bilan, xuddi meni kutib turgandek Alyosha oldimga yugurib keldi:

– Ivan Petrovich, azizim, nima qilsam ekan? Maslahat bering: kecha men shu bugun, xuddi mana shu paytda Katyanikida bo‘lishga va‘da bergan edim. Beburd bo‘lib qolaman-ku, axir! Natashamni jonimdek sevaman, u uchun o‘zimni o‘tga tashlashga ham hozirman, ammo o‘zingiz o‘ylang, u yerga borishni ham butunlay tark etib bo‘lmaydi, bu, axir, mumkin bo‘lmagan gap...

– Ha, nima bo‘libdi, boravering...

– Natashaga nima deyman? Axir, uning ko‘ngli og‘riydi-ku, Ivan Petrovich, bir balo qilib hojatimni chiqaring...

– Menimcha, boraverganingiz yaxshi. U sizni qanday sevishini bilasiz, uning nazarida, xuddi siz u bilan zerikib qolayotgandek, o‘zingizni zo‘rlab o‘tirgandek ko‘rinasiz. Odam o‘zini erkin tutgani yaxshiroq. Mayli, bo‘libdi, yuring men sizga yordam qilaman.

– Azizim, Ivan Petrovich, qanday yaxshi odamsiz-a!

Biz ichkari kirdik, bir daqiqadan so‘ng men unga murojaat qilib:

– Hozir dadangizni ko‘rdim, – dedim.

– Qayerda? – qichqirdi u cho‘chib ketib.

– Ko‘chada, tasodifan ko‘rib qoldim. U men bilan bir daqiqa to‘xtab gaplashdi, yana: «Tanish-bilish bo‘laylik», – dedi.

Hozir uning qayerdaligini bilmaysizmi, deb sizni so'radi. Sizni ko'rishi juda zarur ekan, sizda gapi bor ekan.

– Voy Alyosha, bora qol bo'lmasa, ko'rinish ber, – dedi Natasha, mening nimaga shama qilayotganimni tushunib.

– Biroq... men uni endi qayerdan topaman? Uydamikan?

– Yo'q. Grafinyanikida bo'laman degan edi, shekilli.

– Unday bo'lsa... – dedi soddalik bilan Alyosha Natasha-ga ma'yus qarab qo'yib.

– E, Alyosha, nima bo'libdi! – dedi u, – nahotki sen rostdan ham faqat meni tinchitish uchun o'sha tanishingdan voz kechmoqchisan-a. Axir, bu bolalik bo'ladi-ku. Avvalo, bo'lma-g'ur gap, ikkinchidan, Katya oldida pastkashlik qilgan bo'lasan, sizlar oshnasizlar, axir, aloqani shunday qo'pollik bilan uzib bo'ladimi? Agar sen rashk qiladi deb o'ylasang, meni xafa qilgan bo'lasan. Bor, darrov bor, baraka topkur! Otang ham tinchlanadi.

– Natasha, farishtadan ham poksan, men sening tirnog'ingga ham arzimayman! – qichqirdi Alyosha ham zavq bilan, ham pushaymon bo'lib. – Sen shunday ajoyib odamsanki, men... men esa... qanaqaligimni bilib ol bo'lmasa! Men hozirning o'zida, oshxonada Ivan Petrovichdan bu yerdan ketishimga yordam berishini so'ragan edim. Shuning uchun u shu yo'lni o'ylab topdi. Ammo, meni koyima, farishtam! Mening uncha aybim yo'q, chunki men seni dunyoda hammadan ko'p sevaman, shuning uchun ham yangi bir fikr o'ylab topdim. Katyaga hamma sirni ochib gapirmoqchiman va hozirgi ahvolimizni, kechagi bo'lgan voqealarni darhol gapirib bermoqchiman. U bizni qutqarish uchun biror yo'l topadi, u bizga chin qalbidan sodiq...

– Mayli, bora qol, – javob berdi Natasha jilmayib, – bilasanmi, azizim, men o'zim o'sha Katya bilan tanishishni juda xohlayman. Qanday ilojini topsam ekan?

Alyoshaning sevinchi ichiga sig'masdi. U shu zahotiyoq qanday qilib tanishtirish yo'llarini qidira ketdi. Uningcha, bu juda oson. Katyaning o'zi ilojini topadi. U o'z fikrini qizishib bayon eta boshladi. Shu bugunning o'zidayoq, ikki soatdan keyin javobini olib kelib, oqshomni Natashanikida o'tkazmoqchi bo'ldi.

– Rostdan kelasanmi? – so‘radi Natasha uni kuzata turib.

– Nahotki shubha qilsang-a? Yaxshi qol, Natasha, yaxshi qol, sevgilim, umrli sevgilim! Xayr, Vanya! Ey Xudo, bexosdan sizni Vanya deb yuboribman-a, menga qarang, Ivan Petrovich, men sizni sevaman, shunday bo‘lgandan keyin nega sensirashmaymiz. Keling, sensirashamiz.

– Xo‘p, bo‘libdi.

– Xudoga shukur! Shu gap yuz martalab ko‘nglimga kelgan edi, ammo sizga aytishga jur‘at etmasdim. Mana hozir ham sizlayapman. Rost, sen deyish juda qiyin-a? Bu haqda Tolstoyning allaqaysi asarida yozilgan: ikki kishi bir-biriga sensirashga so‘z berishgan, ammo hech tillari bormas ekan, shuning uchun gaplashganda olmosh keladigan jummalarni ishlatmaslikka uringanlar. Eh, Natashaginam! Bir vaqt topib «Bolalik va o‘smirlik»ni o‘qib chiqamiz, qanday yaxshi-a!

– Bora qol, endi, jo‘nay qol, – deb haydardi uni Natasha, kula-kula, – sevinganingdan tiling ochilib ketdi...

– Yaxshi qol! Ikki soatdan keyin huzuringda bo‘laman!

U Natashaning qo‘lini o‘pib, shoshilganicha chiqib ketdi.

– Ko‘rdingmi, Vanya, ko‘rdingmi? – dedi u va ko‘z yoshlari oqib ketaverdi.

Men uning oldida ikki soatcha o‘tirdim, yupatdim va hamma gaplarga ishontirib ulgurdim. Vaholanki, uning hamma gapi, xavfsirashlari o‘rinli edi. Men uning hozirgi holini o‘ylasam yuragim g‘ash tortib ketar edi; men uning holi nima kechadi deb qo‘rqardim, ammo nachora?

Men uchun Alyosha ham g‘alati ko‘rinardi! U Natashani avvalgidan ham ko‘proq sevardi, pushaymon yeganidan va unga minnatdor bo‘lganidan yana ham kuchliroq, qattiqroq sevar edi. Ammo shu bilan bir vaqtda yangi ishq-muhabbat uning qalbida mustahkamlanib bormoqda edi. Bular hammasi nima bilan tugashini oldindan bilib bo‘lmasdi. O‘zim ham Katyani ko‘rishga juda qiziqar edim. Men yana, u bilan tanishib olishni Natashaga va‘da qildim.

Oxirga borib uning chehrasi ochilgandek bo‘ldi. Shu orada men Nelli, Masloboev, Bubnovalar haqida hikoya qilib

berdim, bugun Masloboevnikda knyaz bilan uchrashib qolganim, soat yettiga va'da berganimgacha gapirdim. Bular hammasi uni g'oyat qiziqtirdi. Keksalar haqida ko'p gapirmadim, Ixmenevning kelganini hozircha aytmay qo'ya qoldim. Nikolay Sergeich bilan knyaz o'rtasida bo'lishi mo'ljallangan duel uni qo'rqitib yuborishi mumkin edi. Knyaz bilan Masloboevning munosabatn, garchi hozirgi sharoit shuni taqozo qilsa hamki, knyazning men bilan tanishishga g'oyat mushtoq ekani, unga juda ham g'alati tuyuldi...

Soat uchlarda uyga qaytib keldim. Nelli meni porloq chehra bilan qarshi oldi.

VI BOB

Xuddi soat kech yettida men Masloboevnikida bo'ldim. U meni shovqin-suron bilan qulochini keng yozib kutib oldi. Uning shirakayfligi ko'rinib turardi. Ammo meni juda ham taajjublantirgan narsa, meni mehmon qilish uchun ko'rilgan favqulodda tayyorgarlik edi. Meni kutayotganlari bilinib turardi. Yaxshigina rux samovar, ustiga juda chiroyli va qimmatbaho dasturxon yoyilgan to'garak stol ustida shaqillab qaynab turar, xrustal¹, kumush, chinni idishlar yiltirar edi. Haligidan qolishmaydigan boshqacharoq dasturxon yoyilgan narigi stol ustidagi likopchalarda juda yaxshi konfetlar, kiev murabbolari, suyuq va quruq marmeladlar², qiyom, quyuq shinni, farang murabbolar, apelsin, olmalar va uch-to'rt xil yong'oqlar muhayyo, xullas, butun boshli meva do'koni deysiz. Oppoq dasturxon yoyilgan uchinchi stol ustida turli-tuman zakuskalar: baliq uvuldirig'i, pishloq, pashtet³, kolbasalar, dudlangan cho'chqa son go'shti, baliq va ajoyib yashil, yoqutrang, tillaranglarda tovlanuvchi xilma-xil navli sha-

¹ Xrustal (*yunoncha*: krystallos – muz) – shaffof tosh, billur.

² Marmelad (*fransuzcha*: marmelade – behi; < *lotincha*: melimelum – asal olma) – ezilgan meva va shakardan tayyorlanadigan qandolatchilik mahsuloti.

³ Pashtet (*nemischa*: Rastetc) – go'sht, jigar, tuxum, yog' va qo'ziqorindan tayyorlanadigan maxsus yaxna taom.

roblar to'ldirilgan xrustal grafinlar terib qo'yilgan. Nihoyat, nari-roqda, ustiga oq dasturxon yoyilgan kichkina stol ustida shampan vinosi solingan ikki vaza turibdi. Divan oldidagi stolchada uch shisha – Yeliseevdan olingan eng qimmatbaho sotern¹, lafit² va konyak jilvalanardi. Choy stoli oldida Aleksandra Semenovna o'tirardi. Uning kiyim-boshlari oddiygina bo'lsa ham, ammo juda nozik, yaxshi did bilan tiktilgan va juda xushbichim edi. Kiyimlari o'ziga yarashib turganini u yaxshi tushunardi va buning uchun faxrlanayotgani ham bilinib turardi; meni ko'rib u bir qadar tantana bilan o'rnidan turdi. Uning mamnunlik va sho'xlik ifoda etgan yuzchasi porlardi. Masloboev oyog'ida ajoyib xitoyi kavush, ustida qimmatbaho xalat va yap-yangi juda ham olifta ich kiyimda edi. Uning ko'ylagining modali zaponka va tugmalar qadalmagan yeri qolmagan edi. Sochlari silliq taralgan, moylangan va modaga yarasha farqi qiyshiq ochilgan.

Men hang-mang bo'lib, uyning o'rtasida to'xtab qoldim, dam Masloboevga, dam terisiga sig'may g'ururlanib o'tirgan Aleksandra Semenovnaga qarab turardim.

– O'zi nima gap, Masloboev? Bugun katta ziyofat bera-yotganmiding? – dedim men nihoyat tashvish bilan.

– Yo'q, albatta, o'zing, – javob berdi u baland ruh bilan.

– Bular-chi, – dedim men taomlarni ko'rsatib, – bular bilan butun boshli bir polkni to'ydirsa ham bo'ladi-ku?

– Ichirib qondirsa ham, eng keragini unutding; ichirib qondirsa ham, – deb qo'shib qo'ydi Masloboev.

– Shularning hammasi bitta men uchunmi?

– Aleksandra Semenovna uchun ham. Bular hammasi uning mayli bilan qilingan.

– Ana xolos! O'zim ham shuni bilgandim! – dedi lovlagisi chiqib ketgan Aleksandra Semenovna, ammo o'zining mamnunligini hech yashira olmadi. – Mehmonni tuzukroq kutib ham bo'lmaydi, darrov men aybli!

– Tongdan boshlab bilasanmi, sening kechqurun keli-shingni eshitib, sahar turib olib kuymalanadi-ya; toza urindi!

¹ Sotern – fransuz oq vinosi.

² Lafit – qizil uzum vinosi. Bu vino janubiy Fransiyada, shu nomli joyda ishlanadi.

– Bu ham yolgʻon! Tongdan boshlab emas, kecha kechqurundan boshlaganman. Sen kecha kechqurun kelishing bilan, bu kishi bugun oqshom biznikiga mehmon boʻlishlarini aytding...

– Buni yanglish eshitibsiz, – dedim.

– Yanglish eshitganim yoʻq. Xuddi shunday. Men hech qachon yolgʻon gapirmayman. Ha, nima boʻlibdi, mehmonni kutib ololmaymizmi? Yakkamoxov boʻlib oʻtib ketaveradimi kishi, hech kim kelmasa, ketmasa! Hamma narsamiz bor. Koʻrsin yaxshi odamlar boshqalardek yashay olishimizni.

– Eng muhimi, sizning qanchalik ajoyib chaqqon va tadbirli uy bekasi ekaningizni bilib oladilar, – qoʻshib qoʻydi Masloboev. – Bilasanmi, doʻstim, men, men bechoraning nima gunohim bor degin-a! Ustimga gollandcha koʻylakni kiydirdilar, zaponkalar qadab tashladilar, tufli, xitoyi xalat va hokazo... Oʻzi sochimni taradi, oʻzi nok soch moyini surkadi, allaqanaqa krem-bryule¹ atirini sepib qoʻymoqchi edi, ammo men shunisiga qolganda chidolmadim, qarshilik qildim, er nimaligini bir koʻrsatib qoʻydim...

– Hech ham olmurud emas-da, naqshli chinni bankachadagi eng yaxshi frantsuz soch moyi! – dedi soʻzni boʻlib, birdan tutaqib ketgan Aleksandra Semenovna. – Oʻzingiz oʻylab koʻring, Ivan Petrovich, na bir teatrga, na bir oʻyin-kulgi boʻladigan yerga, hech yerga olib bormaydi oʻzi meni, hadeb kiyim olib beraveradi. Ha, koʻylakni nima qilaman? Yasanib olib, yolgʻiz oʻzim uyda u yoqdan-bu yoqqa yuraman. Tunov kun, zoʻrgʻa teatrga borishga koʻndirdim, endi otlanib, toʻgʻnagʻichimni qadagani oʻgirilishim bilan javonni ochdi-yu, hadeb usti-ustiga yutaverdi, birpasda kayfi oshdi, qoldi. Teatr ham qoldi. Hech kim, hech bir zot ham biznikiga mehmon boʻlib kelmaydi, faqat ertalablari gʻalati-gʻalati odamlar ish bilan kelib-ketib turishadi, meni haydab chiqarishadi. Ammo hamma narsa bor, samovar deysizmi, chiroyli choy idishlar, gʻalati quloq piyolalar – hammasi bor, hammasi sovgʻaga kelgan. Oziq-ovqat ham olib kelib turishadi, yolgʻiz ichimlik va har zamonda bir upa-clik sotib olamiz,

¹ Krem-bryule – atir turi.

xolos. Mana bu zakuskalarni, pashtet, dudlangan cho'chqa go'shti va konfetlarni siz uchun sotib oldik... Hech bo'lmasa, biror kishi ko'rsaydi bizning ro'zg'orimizni! Bir yildan beri birorta mehmon, qadrli mehmon kelsaydi, hammasini ko'rsatardik, ziyofat qilardik, kelgan mehmonlar maqtashsa, o'zimiz ham xursand bo'lardik deb o'ylayman. Anavi tentakni sochini moylab qo'ysam yoqmaydi, bunga o'zi arzimaydi ham. Unga qolsa, irkit bo'lib yuraversa. Ustidagi xalatini qarang, uni ham sovg'a qilganlar. U shu xalatga arzimaydimi? Unga tomog'ini qo'llash bo'lsa bo'ldi. Ana o'zingiz ko'rasiz, choydan oldin sizga hali aroq beradi.

– Bo'lmasa-chi! Bundan soz gap bormi. Qani Vanya, oltinrang, kumushranglisidan yutib yuboraylik, undan keyin dilni tozalab olib boshqa ichimliklarni boshlaymiz.

– Ana, o'zim ham bilgandim!

– Tashvish qilmang, Sashenka, sizning salomatligingizga konyak bilan choyni ham ichib yuboramiz...

– Ana xolos! – qichqirdi Aleksandra Ivanovna chapak chalib. – Xonlar ichadigan choy, olti so'lkovoydan olingan, bundan uch kun ilgari bir savdogar sovg'a qilgan edi, buni u konyak bilan ichmoqchi! Siz uning gapiga quloq solmang, Ivan Petrovich. Mana hozir o'zim quyib beraman... Ko'rasiz, o'zingiz ko'rasiz qanaqa choyligini!

Shuni deb u samovar oldida o'ralisha boshladi.

Meni butun oqshom olib o'tirmoqchi ekanliklari bilinib turar edi. Aleksandra Semenovna bir yildan beri mehmon kelishini kutar ekan, ana endi men bilan toza dilkashlik qilmoqchi. Ammo, bular hammasi mening rejalarimga to'g'ri kelmasdi.

– Menga qara, Masloboev, – dedim men o'tira turib, – men, axir, senikiga mehmon bo'lib kelganim yo'q-ku, ish bilan keldim, o'zing nimanidir aytmoqchi bo'lib meni chaqiribsan-ku...

– Ammo ish o'z yo'liga, ulfatchilik ham o'z navbatida boraveradi-da.

– Yo'q, azizim, umid qilmay qo'ya qol. Sakkiz yarim bo'lishi bilan jo'nab qolaman! Ish bor, men va'da berganman...

– Yo‘g‘-a! Meni sharmanda qilmoqchimisani? Aleksandra Semenovnaning ahvoli nima bo‘ladi? Uning aftiga bir qara, qotib qoldi. Meni u bekorga sochlarimni moyladimi, axir, olmurud yog‘i surilgan-a, o‘zing o‘yla!

– Hazilga olaverasan-a, Masloboev. Aleksandra Semenovnaga, kelasi hafta, hech bo‘lmasa, juma kuni kelishga va‘da beraman, hozir bo‘lsa, og‘ayni, men birovga so‘z berganman, rostini aytsam bir joyga borishim kerak. Yaxshisi, sen menga tushuntir, nima gap aytmoqchi eding?

– Voy, tavba, rostdan ham faqat sakkiz yarimgacha o‘tirmoqchimisiz! – qichqirdi Aleksandra Semenovna iymanib, yalinchoq ovoz bilan, yig‘lamsirab, quloq piyolada ajoyib katop choyni uzatarkan.

– Tashvish qilmang, Sashenka, hammasi bo‘lmag‘ur gap, – dedi Masloboev. – U qoladi; behuda gap gapiryapti. Undan ko‘ra menga ayt-chi, Vanya, sen qayerlarga borib yurasan-a? Qanaqa ishlaring bor? Bilsak bo‘ladimi? Axir, sen har kuni qayerlardadir izg‘ib yurasan, ishlamaysan...

– Nima ishing bor? Balki, xonasi kelganda aytarman ham. Undan ko‘ra sen menga ayt-chi, kecha kechqurun o‘zing uyimga boribsan, uyda bo‘lmasligimni o‘zim senga aytgandim, esingda bormi?

– Keyin esimga tushdi, kecha unutgan ekanman. Chindan ham sen bilan ish haqida gaplashmoqchi edim, ammo eng zaruri Aleksandra Semenovnani tinchitish kerak edi. «Shundoq og‘ayning bor ekdi-ku, nega chaqirmaysan?» – deb bezor qildi. Oshna, agar bilsang, sen uchun meni to‘rt kundan beri tinchitishmaydi. Olmurud uchun qiyomatda, ehtimol, gunohimdan o‘tishar-ku, ammo, oshnang bilan bir oqshomgina ulfatchilik qilsang, nima bo‘libdi, deb o‘yladim, o‘zimcha. Shundoq qilib siyosat ishlatdim: shundoq ishki, basharti bormay qolsang, kemalarimiz g‘arq bo‘lib ketadi, degan mazmunda maktub yozib qoldirdim.

Men, bundan keyin bunaqa qilmasligini, yaxshisi, ochiqchasiga xabardor qilib qo‘yishni so‘radim. Biroq uning gapi meni qoniqtirmadi.

– Xo‘sh, bo‘lmasa, hali nega meni tashlab qochding? –

deb so'radim.

– Hali, rostdan ham zarur ish bor edi, shuncha ham yolg'oni yo'q.

– Knyaz bilanmi?

– Choyimiz sizga yoqyaptimi, yo'qmi? – so'radi Aleksandra Semenovna, muloyim tovush bilan.

Mana, u besh daqiqadan beri uning choyini maqtashimni kutib turgan ekan, mening esa bunga farosatim yetmabdi.

– Juda ham soz, Aleksandra Semenovna, juda ajoyib! Men bunaqasini hech ichgan emasman.

Gapim Aleksandra Semenovnaga moydek yoqib ketib yana ham loladek qizarib ketdi, menga yana choy quyishga shoshildi.

– Knyaz! – baqirdi Masloboev, – bu knyaz shunaqangi muttaham, shunaqangi dog'uliki... Uchiga chiqqan! Senga aytsam, og'ayni, mening o'zim ham toza muttahamman, shunday bo'lsa hamki, uning o'rvida bo'lishni asti istamasdim! Ke, qo'y, bas qilaylik! Pildir-pis! U haqda shunigina ayta olaman, xolos!

– Men esa ataylab o'sha to'g'rida so'rab-surishtirish uchun kelgan edim. Mayli, keyin gaplashamiz. Xo'sh, nega sen kecha mensiz Yelenamga obakilar berib, uning oldida o'ynading? Bir yarim soat sen u bilan nima haqda gaplasha olding?

– Yelena, bu kichkinagina, o'n ikki yoki o'n bir yoshlardagi qiz, vaqtincha Ivan Petrovichnikida turibdi, – tushuntirdi Masloboev birdan Aleksandra Semenovnaga o'girilib. – Qara, Vanya, qara, – davom etdi u barmog'i bilan Aleksandra Semenovnani ko'rsatib, – meni begona qizga obaki olib borganimni eshitishi bilan tutaqib, qizarib ketdi, xuddi birov to'pponchadan otgandek bir irg'ib tushdi... Ko'zlarini qara, cho'g'dek yonyaptiya! Ha, yashirmay qo'ya qoling, Aleksandra Semenovna, rashkingiz zo'r. Agar men o'n bir qiz ekanligini tushuntirmasam, allaqachon sochimni yulgan bo'lar edi. Olmurud yog'i ham qutqarmasdi.

– U hali ham qutqarolmaydi!

Shuni deb Aleksandra Semenovna choy stoli oldidan bir xatlab o'tdi-da, Masloboev boshini tortishga ulgurmay, uning bir

tutam sochini tutamlab tortqiladi.

– Mana, mana, senga kerak bo‘lsa! Mehmon oldida meni rashkchi deb uyaltirish bunaqa bo‘ladi, bunaqa bo‘ladi!

U qip-qizarib ketdi, kulib hazil qilgani bilan, baribir, Masloboev anchagina adabini yegan edi.

– Bo‘lmag‘ur uyat gaplarni gapiradi! – jiddiy ohangda qo‘shib qo‘ydi u menga o‘girilib.

– Mana ko‘rdingmi, Vanya, mening hayotimni! Shuning alamiga aroqni ichamiz! – dedi Masloboev sochlarini tuzatib va yugurganicha, grafin¹ oldiga borib. Ammo Aleksandra Semenov-na undan epchillik qilib, stol oldiga yugurib bordi-da, o‘zi quyib uzatdi va uni erkalab yonoqlariga urib-urib qo‘ydi. Masloboev g‘urur bilan menga imlab qo‘ydi, tilini taqillatib tantana bilan o‘z qadahidagini ichib yubordi.

– Obakilar xususida nima deyishga ham hayronman, – boshladi u mening yonimga – divanga o‘tira turib. – Men ularni bundan uch kun burun mastligimda meva do‘konidan sotib olgan edim, nima uchun olganimni o‘zim ham bilmayman. Ehtimol, vatanimiz savdo va sanoatini quvvatlash uchundir, – shunisi esimda borki, men o‘shanda mast bo‘lib ko‘chada ketayotgan edim, loyga yiqilib tushdim, sochlarimni yuldim va hech narsaga uquvim yo‘q deb yig‘ladim. Obakilar esimdan chiqib ketgan ekan, to kecha senikiga borib, divanga o‘tirgunimcha cho‘ntagimda qolib ketaveribdi, ustiga o‘tirib olganimdan so‘nggina esimga tushdi, o‘yinga tushganimga kelsak, bunga ham o‘sha mastlik sabab: kecha kayfim ancha tarah edi, kayfim oshgan mahallarda agar o‘zimdan xursand bo‘lsam, ba‘zan o‘yinga tushaman. Hamma gap shu; innaykin, anovi yetimcha qizga juda rahmim kelib ketdi, undan tashqari u menga jahl qilgandek gaplashishni xohlamadi ham. Shunday qilib uning ko‘nglini ochmoq uchun o‘yinga tushaverdim va obaki bilan siyladim.

– Yoki undan gap olish uchun obaki sotib oldingmi? Rostini ayt. Ataylab mening yo‘qligimni bila turib hech kim yo‘qligida undan gap olish uchun kirdingmi? Axir, xabarim borku, sen bu bilan bir yarim soat o‘tirgansan, marhuma onangni ta-

¹ Grafin (inglizcha) - suv, vino va shu kabilar solib qo‘yiladigan, bo‘g‘zi tor idish.

nirdim, deb ishontiribsan va yana nimalarnidir so'rabsan.

Masloboev ko'zini qisib, ayyorona kulimsiradi.

– Shunday fikrda bo'lsam yomon bo'lmasdi-ya, – dedi u. – yo'q, Vanya, unday emas. Masalan, shunday qulay payt kelib qolganda so'ramay nima qilasan. Lekin gap bunda ham emas. So'zimni eshit, qadrdon do'stim, men odatdagidek hozir ham mast bo'lganim bilan, shuni bilib qo'yki, Filipp seni yomon niyat bilan hech qachon aldamaydi, ya'ni yomon niyat bilan!

– Yomon niyatsiz-chi?

– Yomon niyatsiz ham... Ke qo'y, shu gaplarni, ichamiz, keyin gaplashamiz! O'zi arziydigan gap emas, – davom etdi u ichib bo'lib. – Anovi Bubnovaning bu qizni ushlab turishga hech qanaqa haqqi yo'q edi; men hammasini bilib oldim. Qiz qilib asrab olgan ham emas va hokazo. Onasining undan qarzi bor ekan, shuning evaziga qizini olibdi. Bubnova har qancha ayyor va yovuz xotin bo'lgani bilan, o'lguday ahmoq, hamma xotinlarga o'xshash ahmoq. Marhumaning pasporti toza, demak, hammasi joyida. Yelena senikida tursa bo'ladi, yaxshiroq bo'lardi agar oilali va qimmatli odamlar o'z tarbiyasiga olsa. Ammo hozircha senikida turaversin, durust, o'zim hammasini to'g'rilayman. Bubnova qo'lidan hech balo kelmaydi. Marhuma onasi haqida men deyarli hech narsa bilolmadim. U Zaltsman deganining bevasi ekan.

-- Shunday, Nelli ham menga shunday degan.

– Xo'sh, shunday bo'lsa juda soz. Endi-chi, Vanya, – boshladi u bir qadar tantana bilan, – sendan jindakkina iltimosim bor. Sen bajo keltir. Menga, iloji boricha, o'z ishlaringdan gapirib ber; qayerlarga borasan, kuni bilan qayerlarda tentirab yurasan? O'zim ham qisman bilaman, eshitganman ham, ammo to'laroq bilishim kerak.

Uning dabdaba bilan gapirishi meni hayron qoldirdi va tashvishlantirdi ham.

– Axir, o'zi nima gap? Nima uchun sen bularni bilishing kerak? Shunchalik dabdaba bilan so'raysanki...

– Gap bunday, Vanya, ko'p gap eshakka yuk: men senga yaxshilik qilmoqchiman. Ko'ryapsanmi, do'stim, agar men

quvlik qilmoqchi bo'lsam, dabdabasiz ham siringni bilib olardim. Sen esa meni quvlik qilyapti deb shubhalanyapsan: haligi obaki to'g'rida gapirding; axir, men tushundim-ku. Vaholanki, men dabdaba bilan gapirayotgan bo'lsam, bu o'zim uchun emas, sen uchun. Shunday qilib sen shubhalanma, to'g'risini dangal gapirib tashlayver...

– Qanaqa yaxshilik? Menga qara, Masloboev, nima uchun sen knyaz haqida hech narsa deging kelmaydi? Menga keragi ham shu. Gapirib bersang, yaxshilik qilgan bo'lasan.

– Knyaz haqidami? Hm... Bo'libdi, to'g'risini gapirib ber qolay; sendan surishtirayotganimning sababi ham shu knyazda.

– Ie!

– Gap shunday: og'ayni, bilasanmi, u negadir sening ishlaringga aralashib qolganini sezdim, sen haqingda mendan so'rab ham qoldi. Sen bilan tanishligimizni u qaydan bildi, bu sening ishing emas. Eng muhimi shuki, sen shu knyazdan ehtiyot bo'l. Bu o'taketgan xoin odam, undan ham battar. Shuning uchun u sening ishlaringga aralashib qolganini ko'rganimdan keyin oyog'i kuygan tovuqdek tipirchilab qoldim. Biroq men, axir, hech narsa bilmayman, shuning uchun ham mening biror xulosaga kelishim uchun o'zing gapirib ber deyapman... Hatto shuning uchun bugun seni chaqirdim ham. O'sha muhim ish deganim ham shuning o'zi: ochig'ini aytyapman.

– Loaqal, biror gap aytasanmi, hech bo'lmasa, nima uchun men knyazdan ehtiyot bo'lishim kerakligini tushuntirasan.

– Yaxshi. Men og'ayni, umuman, ba'zan boshqacha ishlar bilan shug'ullanaman. Axir, o'zing o'yla, og'zim bo'sh odam bo'lsa, boshqalar menga ishonib sir aytisharmidi? Qanaqa qilib men senga hammasini gapirib beraman? Shuning uchun men faqat uning qanaqa qallob ekanini ko'rsatish uchungina umumiy tarzda gapirsam, koyimaysan. Bo'libdi. Sen o'zing oldin boshla, o'z ishlaringdan gapir.

Men Masloboevdan hech narsani yashirish kerak emas, degan fikrga keldim. Natashaning ishlari hech kim uchun sir

emasdi, shu bilan birga men Masloboevning unga bir qadar foydasi tegadi deb umid qilishim mumkin edi. O'z-o'zidan ravshan-ki, hikoyamda, iloji boricha, ba'zi bir nuqtalarni tashlab o'tdim. Masloboev knyazga taalluqli bo'lgan hamma gaplarni juda diqqat bilan tingladi; ko'p yerlarda meni to'xtatib, qaytalab so'radi. Shunday qilib men ancha to'liq gapirib berdim. Mening gaplarim yarim soatcha davom etdi.

– Hm! Miyasi joyida u qizingning, – xulosa qildi Masloboev. – Basharti knyaz haqida unchalik to'g'ri tushunchasi bo'lmasa hamki, shunisi yaxshi bo'libdiki, birinchi qadamdayoq qanaqa odamga ishi tushganini bilib olibdi va u bilan aloqani uzibdi. Barakalla, Natalya Nikolaevna! Uning sog'ligiga ichaman! (U ichdi.) Bu yerda faqatgina aql emas, aldanmaslik uchun yana qalb ham kerak edi. Shu qalb uni aldamagan. Turgan gap, uning ishi pachava: knyaz aytganini qiladi va Alyosha uni tashlab ketadi. Ixmenevga achinadi kishi, – ana shu ablahga o'n ming to'laydi-ya! Kim uning ishini olib bordi, kim harakat qilib yuribdi? O'zi bo'lsa kerak-da! Eh! Qiziqqonlikning, oliyjanoblikning oqibati shu-da! Hech baloga yaramaydi bu xalq! Knyaz bilan boshqacha ish olib borish kerak edi. Men Ixmenevga shunaqangi advokatni topib berardimki, eh-eh! – U alam bilan stolga urib qo'ydi.

– Xo'sh, endi knyaz haqida nima gapirib berasan?

– Sen hadeb knyazdan gap ochasan. U to'g'rida nima ham deb bo'lardi? Undan gap ochganimga o'zim ham xursand emasman. Men, axir, Vanya, men faqat uning firibgarligini aytib ogohlantirib qo'yimoqchi edim, seni uning ta'siridan saqlamoqchi edim, xolos. U bilan kim aloqa qilsa, xavfdan xoli qolmaydi. O'zingga ehtiyot bo'l, vassalom. Sen esa, Xudo bilsin, qanaqa yashirin sirlarini aytib beradi deb o'ylab yuribsan. Romannavisliging shundan ham bilinib turibdi! Muttaham odam haqida nima ham deb bo'ladi? Uchiga chiqqan iflos odam!.. Mana, masalan, uning kirdikorlaridan birini senga aytib beraman, ammo voqea sodir bo'lgan joy, shahar, gap kim ustida, bu voqea qachon bo'lganini aytib o'tirmayman. O'zing bilasanki, u hali yosh, qirchillama vaqtida, idorasi beradigan maosh bilan yashashga majbur

bo'lgan davrlarida, bitta boy savdogar qiziga uylangan. Xo'sh, u savdogar qiz it kunini boshiga solgan, ammo gap hozir buning ustida bo'lmasa ham, shuni qayd qilish kerakki, do'stim Vanya, uning umri mana shunaqangi mashmasha bilan o'tgan. Mana yana bir hodisa: u chet elga ketgan. U yerda...

– Shoshma, Masloboev, sen qaysi bir ishini aytyapsan? Nechanchi yilda?

– Rosa to'qson to'qqiz yil-u, uch oy bundan muqaddam. Xo'sh, deganingizdan, o'shanda u bir qizni otasidan aldab olib, o'zi bilan Parijga olib jo'nagan. Tag'in qanaqa qilib degin! Otasi allaqanaqa zavod egasi bo'lgan, yoki allaqanaqa korxona ishlari-da ishtirok etgan. Aniq bilmayman. Axir, senga boshqa dalillarga va o'z tafakkurlarim va muhokamalarimga asoslanib gapiraman-da. Shunday qilib knyaz uni boplab aldagan, shu korxona ish-lariga sherik bo'lgan. Shunday aldaganki, undan pul ham undirib olgan. Olingan pullar haqida, chamasi, cholda ba'zi bir hujjatlar bo'lgan. Knyaz pulni olishga olib, qaytib bormaslikni mo'ljalla-gan, o'zimizcha, qilib aytganda, o'g'irlamoqchi bo'lgan. Chol-ning bir qizi bo'lgan, qiz bo'lganda ham hurliqo. Mana shu go'zal qizning ajoyib bir xushtori, ya'ni, masalan, Shillerning¹ ukasi desa bo'ladigan shoir, shu bilan birga savdogar, yosh-nav-qiron, xayolparast, xullas kalom, g'irt nemis, Feferkuxen degan oshiqi beqarori bo'lgan.

– Ya'ni, uning familiyasi Feferkuxenmi?

– Ey, kim biladi deysan, balki, Feferkuxen emasdir, gap unda emas. Faqat knyazgina cholning qizining ko'nglini ovlay bilgan. Qiz aql-hushini yo'qotish darajada uni sevib qolgan. Knyazga o'sha vaqtda xuddi shu ikki narsa kerak edi: birin-chidan, qizni qo'lga tushirish; ikkinchidan, choldan olgan pul haqidagi hujjatlarga ega bo'lish. Cholning hamma hujjatlarining kaliti qizida turar ekan. Chol esa qizini joni tanidan ortiq sevar-kan, shunchalik sevarkanki, hatto, erga berishga ko'zi qiymas

¹ Iogann Kristof Fridrix Shiller (1759-1805) - nemis shoiri, dramaturg, tarixchi, san'at nazariyotchisi. «Qaroqchilar», «Luiza Miller», «Fiyeskaning Genuyadagi fitnasi», «Don Karlos», «Shodlik uchun», «Uzlat», «Yengilmas armada», «Ruhnazar», «Ajoyib isyonlar va fitnalar tarixi», «Birlashgan Niderlandlarning ispan hukmdorligidan chiqish tarixi», «Orlean qizi», antik «Messian kelini», «Vilgelm Tell», «Makr va muhabbat», «Mariya Styuart» kabi asarlari bor.

ekan. Rost gap. Har qanaqa qayliqdan rashk qilar ekan. Qizdan ajralish mumkinligi aqliga sig'mas ekan. Shuning uchun Feferkuxenni ham haydab yuborgan ekan, g'alati, tentakroq ingliz ekan-da...

– Ingliz dedingmi? Axir, qayerda sodir bo'lgan ekan o'sha voqealar?

– Shunchaki, misol uchun aytdim-qo'ydim-da, ingliz deb, sen esa darrov ilib ola qolding. Santa-fede Bogota shahrida sodir bo'lgan, ehtimol, Krakovada. Ammo mana bu selter suvida¹ yozilganidek Nassau Fyurstentumida² bo'lgan desak to'g'riroq bo'lar; ko'ngling o'miga tushdimi? Shunday qilib knyaz qizni qo'lga tushirib, otasidan olib ketgan, tag'in knyazning qistovi bilan qiz allaqanaqa hujjatlarni olib jo'nagan. Shunday muhabbat ham bo'ladi, Vanya! E Xudo, qiz shunchalik sof, himmatli, oliy-janob bo'lganki, qo'yaverasan! Rost, balki, qog'ozlarning nimaligiga uncha tushunmagan bo'lsa kerak. Uni faqat bir narsa – otasi «oq» qilib yuborishi cho'chitgan, xolos. Knyaz bunga ham bahona topgan, senga uylanaman deb qonuniy, rasmiy hujjat bergan. Shunday qilib u qizni, shunchaki aylanib sayohat qilib kelamiz, chol hovridan tushgandan keyin, uning oldiga nikohli er-xotin bo'lib qaytib, uchalamiz umrbod apoq-chapoq yashab murodi maqsadimizga yetamiz deb ishontirgan. Qiz qochib ketgan, chol bo'lsa uni «oq» qilgan, o'zi singan. Qizning orqasidan Parijga hamma narsadan voz kechib, savdo-sotiqni ham yig'ishtirib qo'yib, Frauenmilx ham jo'nab qolgan, shunchalik qattiq sevar ekan.

– Shoshma, qanaqa Frauenmilx?

– Ha, haligi-chi, oting qurg'ur! Feyerbax-chi... ey... Oting qurg'ur Feferkuxen! Xo'sh, deganingizdan, knyaz qizga uylani-shi mumkin emas ekan, negaki, axir, grafinya Xlestova bunga nima deydi? Baron Pomoykin nima deydi? Qo'ying-chi, bir balo qilib laqillatib ketish kerak edi. Aldaganda ham juda razillik bilan aldagan. Birinchidan, qizni kaltaklashdan ham toymagan; ikkinchidan, uyiga ataylab Feferkuxenni taklif qilgan, u esa laqillab

¹ Selter suvi – Gollandiyaning mineral (ma'danli) suvi.

² Fyurstentum (*nemischa*; Tüerstentum) – knyazligida.

kelavergan, qizning do'sti qatorida qatnab yurgan, birga hasratlashishgan, oqshomlari yolg'iz o'tirishib o'z baxtlaridan nolishgan, u buni yupatgan, xullas, Xudoning bandalari-da. Knyaz jo'rttaga uni sharmanda qilmoqchi bo'lgan: bir kun juda kech kelib ularning birga o'tirganlari ustidan chiqadi-da: «Bir-birlaring bilan aloqang bor ekan», – deb tuhmat qiladi, o'z ko'zim bilan ko'rdim, falon-piston deb ikkalasini ham oldiga solib quvlaydi, o'zi esa hayyo-huv deb vaqtincha Londonga jo'nab qoladi. Ayol bechora homilador ekan, knyaz haydab chiqargandan keyin u qiz tug'adi... Yo'q, yanglishdim... O'g'il, ha, o'g'ilcha tug'adi. Unga Volodka deb ism beradilar, Feferkuxen uni asrab oladi. Shunday qilib u Feferkuxen bilan yo'lga tushadi. Feferkuxenning oz-moz sarmoyasi bor ekan. Ayol u bilan butun Shvetsariyani, Italiyani aylanib sayohat qiladi. Hamma go'zal yerlarda bo'ladi, ammo ko'z yoshi tiyilmaydi. Feferkuxen hamon noliydi va shu alpozda oradan bir necha yillar o'tib ketadi, qiz o'saveradi. Knyazning ham hamma ishi joyida edi-yu, ammo bir ish uning ko'nglini xira qilib turardi. Sababi shuki, nikohiga olish haqidagi rasmiy qog'ozni u qaytarib ololmagan edi. «Tuban bir insonsan, – debdi ayol u bilan ajrasha turib, – sen meni shilib olding, nomusimni bulg'ading, endi tashlab ketyapsan. Xayr! Ammo va'da bergan qog'ozingni bermayman. Bir kunmas-bir kun senga tegib olish emas, balki, shu hujjatdan qo'rqqaning uchun shunday qilyapman. Mayli, u umrbod mening qo'limda turaversin». Xullas, juda ham qizishib gapiribdi, knyaz esa parvoyi palagiga ham keltirmabdi. Umuman unga o'xshash pastkashlar, o'shanaqa oliyjanob zotlar bilan muomala qilishni yaxshi biladilar. Ular shu qadar pokizaki, ularni aldash ham juda oson; ikkinchidan, ular har doim, qonuniy yo'llar bilan ish olib borish o'rniga, oliyjanoblik qilib nafrat bilan chegaralanadilar, xolos. Misol uchun, ana shu onani olaylik, garchi hujjatni yonida olib qolgan bo'lsa ham, mag'rur nafrat bilan chegaralanib qolavergan, ammo, knyaz esa ayol o'zini ossa osadiki, hujjatni ishga solmasligini bilgan. Shunday qilib u vaqtincha bo'lsa ham, o'zicha xotirjam yuravergan, ayol uning razil basharasiga tuflashga tuflagan, ammo, qo'limda Volodka qoldi-ku; basharti

o'lib ketsam, uning holi nima kechadi, deb o'ylab o'tirmagan. Brudershaft ham unga tasalli bergan, oxirini o'ylamagan; Shiller asarini birga o'qishgan. Nihoyat, Brudershaft nimadandir betoblangan-u, vafot etgan...

– Ya'ni Feferkuxen?

– Ha-da, oti qursin! U bo'lsa...

– To'xta! Ular necha yil sayohat qilishgan?

– Roppa-raso ikki yuz yil. Xo'sh deganingizdan, nihoyat ayol Krakovga qaytib kelgan. Otasi bo'lsa qabul qilmagan, «oq» qilgan. U o'lib ketgan, knyaz bo'lsa shodligidan Xudoga shukur qilgan. Xullas, taraqa-turuq, so'qa-yu bo'yinturuq! Qani, ke, qo'y, ichaylik, Vanya, og'ayni!

– Sen uning shu ishi bilan shug'ullanyapsan deb shubhalanayotibman, Masloboev.

– Buni, albatta, bilishing shartmi?

– Ammo men bir narsaga tushunmayman, sen bu ishda nima ham qila olarding!

– Ko'ryapsanmi, u o'n yil o'tgandan keyin boshqa nom bilan Madridga qaytib keldi, shuning uchun hammasini to'liq bilib olishi kerak edi-da. Brudershaft haqida ham, choi haqida ham, rostdan ayolning qaytib kelgan-kelmagani haqida, bola to'g'risida ham, u o'lganmi, tirikmi, qog'oz bormi-yo'qmi va hokazo va hokazolarning hammasini va yana boshqa ba'zi bir gaplarni bilish kerak edi. O'taketgan razil odam u knyaz, Vanya, undan ehtiyot bo'l, Masloboevni hech qachon va zinhor iflos odam deb o'ylama! Ehtimol, u muttahamdir (menimcha, razil bo'lmagan odam yo'q), ammo senga nisbatan emas. Men qattiq mastman, ammo eshit: basharti bir vaqti kelib, hozirmi, keyinmi, bu yilmi, yoki kelasi yilmi, Masloboev senga qarshi biror quvlik qilganini sezsang (iltimos qilaman, quvlik qildi degan so'zni esingdan chiqarma), bilginki, bu beg'araz quvlik, Masloboev seni kuzatib yuradi. Shubhalanib yurma, yaxshisi, kelib ochiqdan ochiq aka-ukalar kabi Masloboev bilan maslahatlash. Xo'sh, endi ichishni xohlaysanmi?

– Yo'q.

– Tamaddi qilasanmi?

– Yo‘q, kechir, og‘ayni...

– Yo‘qsa jo‘nab qol, soat chorakkam to‘qqiz, sen esa takabbursan. Ketadigan vaqting bo‘ldi.

– Nima, nima? Mast bo‘lib olib endi mehmonni haydashga tushdingmi! Hamma vaqt shunaqa qiladi! Voy uyatsiz! – baqirdi yig‘lamsirab Aleksandra Semenovna.

– Otliqqa yayov o‘rtoq bo‘lmaydi! Aleksandra Semenovna biz o‘zimiz qolib otamlashamiz. Bu esa general: yo‘q, Vanya, men yolg‘on gapirdim, sen general emas, men esa pastkash odamman! Qara ahvolimga, kimga o‘xshayman? Sening oldingda men nima degan odamman? Kechir, Vanya, ta‘na qilma, yurak bo‘shatishga ijozat ber...

U meni quchoqlab oldi, ko‘z yoshlari duvullab oqib ketdi. Men ketishga otlandim.

– Xudoyo tavba! Kechki ovqat ham tayyor-a! – derdi Aleksandra Semenovna, fig‘oni falakka chiqib. – Juma kuni biznikiga kelasizmi?

– Kelaman, Aleksandra Semenovna, chin so‘zim, kelaman.

– Yoki anovining piyanistaligidan hazar qilyapsizmi-a. Hazar qilmang, Ivan Petrovich, u oqko‘ngil, juda ham oqko‘ngil odam. Sizni biram yaxshi ko‘radiki! U sizning haqingizda endi erta-yu kech gapiradi, faqat siz haqingizda gapiradi. Ataylab sizning kitoblaringizni menga deb sotib olibdi, men hali o‘qib chiqqanim yo‘q; ertaga boshlayman. Siz kelsangiz, menga ham juda yaxshi bo‘ladi! Hech kimni ko‘rmayman, hech kim biznikiga kelmaydi. Hamma narsamiz bor, doim yolg‘iz o‘tiramiz. Mana hozir men gaplaringizga jon deb astoydil quloq solib o‘tirdim. Qanday yaxshi-ya... Xo‘p, jumagacha xayr...

VII BOB

Men shoshilib uyimga jo'nadim. Masloboevning so'zlari meni nihoyatda hayratga solib qo'ydi. Xayolimga ming xil fikrlar kelib-ketdi... Aksiga olib uyda shunday kutilmagan bir hodisaga duch keldimki, bu vujudimni xuddi tok urgandek titratib yubordi.

Men istiqomat qiladigan hovli darvozasining ro'parasida fonus osig'liq turardi. Men endigina darvoza oldiga kelganimda naq fonus oldidan mening oldimga g'alati bir sharpa titrab-qaqshab, telbalarcha g'izillab keldi-yu, baqirganicha qo'limga yo-pishib oldi, azbaroyi qo'rqib ketganimdan dodlab yubordim. Meni dahshat bosdi.

Bu Nelli edi!

– Nelli! Senga nima bo'ldi? – baqirdim men. – Nima qilib yuribsan!

– U yerda, boloxonada... u o'tiribdi... biznikida...

– Kim u? Yur, yur men bilan.

– Chiqmayman, chiqmayman. U ketguncha kutib turaman. Yo'lakda turaman... Ko'rgim yo'q.

Ko'nglim g'ash bo'lib uyimga chiqdim, eshikni ochsam, knyaz o'tiribdi. U stol oldida roman o'qib o'tirardi. Har qalay, kitob ochiq edi.

– Ivan Petrovich! – dedi u quvonch bilan. – Axir, keldikansiz-a, shunday xursandmanki! Endi ketmoqchi bo'lib turgan edim. Bir soatdan ortiq sizni kutdim. Grafinya o'tinib iltimos qilavergani uchun, shu bugun kechqurun unikiga siz bilan birga kelishga so'z bergan edim. U shunday iltimos qildiki, siz bilan tanishishni shunchalik orzu qiladiki, asti qo'yaverasiz! Siz o'zingiz avval menga va'da berganingizni nazarga olib, siz u yoq-bu yoqqa ketib qolmasingizdan burun, ilgariroq oldingizga kelib, sizni taklif etishga qaror qildim. Kelsamki, oqsochingiz sizni uyda yo'q dedi-da, tarvuzim qo'ltig'imdan tushib, nima qilsam ekan deb qoldim. Axir, men sizni olib boraman deb qattiq va'da qilgan edim-da. Shuning uchun chorak soatcha kutib o'tiray dedim. Chorak soat qayda? Romaningizni varaqladim-u, o'qishga berilib ketdim, Ivan Petrovich! Axir, bu kamolot-ku!

Axir, buni o'qigandan keyin ham sizni tushunishmaydi-ya! Asaringizni o'qib ko'zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi! Men yig'ladim-a! Men uncha-munchaga yig'layvermayman.

– Shunday qilib siz mening borishimni istaysizmi? To'g'risini aytsam, hozir o'zim ham borishga qarshi emasman-ku, ammo...

– Xudo haqqi, boramiz! Mening ahvolimga tushunasizmi, axir, men sizni bir yarim soatdan beri kutyapman!.. Uning ustiga mening siz bilan gaplashishim juda zarur, tushunasizmi, nima haqda ekanini? Siz shu hamma ishlarni mendan ko'ra ko'proq bilasiz. Biz, balki, biror qarorga kelarmiz, biror to'xtamga kelarmiz. O'ylab ko'ring! Xudo haqqi, rad etmang...

Men, ertami, kechmi, baribir, borishga to'g'ri keladi, deb o'yladim. Faraz qilamiz, Natasha hozir yolg'iz, men unga kerakman, biroq, axir, uning o'zi qanday bo'lmasin tezroq Katyaning kimligini bilishimni topshirgan edi-ku. Buning ustiga, ehtimol, Alyosha ham o'sha yerdadir... Bilardimki, Natasha Katya haqida biror xabar topib kelmagunimcha ko'ngli o'rniga tushmasdi. Shuni o'ylab borishga ahd qildim. Ammo Nellidan ko'nglim to'q emasdi.

– Shoshmay turing, – dedim knyazga va zinapoyaga chiqdim. Nelli shu yerda qorong'i burchakda turar edi.

– Nega kirishni xohlamayapsan, Nelli? U senga nima qildi? Sen bilan nimani gaplashdi?

– Hech narsa... Xohlamayman, xohlamayman... – takrorladi u, – qo'rqaman...

Men uni qistasam ham, bundan hech nima chiqmadi. Biz u bilan shunday kelishdik, men knyaz bilan uydan chiqishim bilan u shu zahoti uyga kirib ichidan zanjirlab oladigan bo'ldi.

– Har qancha qistasam ham, oldingga hech kimni kirgizma, Nelli.

– Siz u bilan ketasizmi?

– Ha, u bilan.

U cho'chib tushdi va bormasligimni iltimos qilmoqchi bo'lgandek, qo'limga mahkam yopishib oldi, ammo hech narsa demadi. Men undan ertaga hamma gapni batafsil so'rab bilishga

jazm qildim.

Knyazdan uzr so‘rab, kiyina boshladim. U meni, u yerga yasan-tusan qilmasdan borilaversa ham bo‘ladi deb ishontira boshladi. «Yangiroq bo‘lsa bo‘laveradi-da! – qo‘shib qo‘ydi u boshimdan oyog‘imgacha sinchkov nazar tashlab, – bilasizmi, nima bo‘lganda ham zodagonlarga xos taassublar... Axir, ulardan batamom qutulishning iloji ham yo‘q-da. Mana bu kamolotni siz bizning kiborlar jamiyatida hali-veri topolmaysiz, – deb tugatdi u so‘zini, mening frakim borligini ko‘rgach, zavqi kelib.

Biz chiqdik. Ammo men uni zinapoyada qoldirdim-da, Nelli g‘izillab kirib ketgan uyga kirdim va yana bir marta u bilan xayrlashdim. U qattiq hayajonda edi. Yuzi ko‘karib ketibdi. Men undan xavotirda edim, uni tashlab ketish menga og‘ir edi.

– Oqsochingiz juda g‘alati, tavba, – dedi knyaz zinapoyadan tusha turib. – O‘sha kichkina qiz sizning xizmatkoringizku?

– Yo‘q... u shunchaki... hozircha mening uyimda turibdi.

– G‘alati qiz. Men aminmanki, u g‘irt jinni. Bilasizmi, u menga avval yaxshi javob berdi, keyin meni yaxshilab ko‘rib olgandan keyin menga yopishib olib qichqira boshladi, qalt-qalt titrab, bir nima demoqchi bo‘ladi-yu, aytolmaydi. Rostini aytsam, men qo‘rqib ketdim, endi uning qo‘lidan chiqib qochmoqchi edim, Xudoga shukurki, uning o‘zi meni tashlab qochdi. Men yoqamni ushlab qoldim. Siz qanaqa qilib chiqishasiz u bilan?

– Uning tutqanoq kasali bor, – deb javob berdim men.

– Ey, shunaqami! Ha, tutqanog‘i bo‘lsa... u holda uncha hayron qolarli emas...

Shu topda mening xayolimga bir narsa keldi: kecha Masloboev mening yo‘qligimni bilgani holda uyimga kelishi, bugun Masloboevnikiga borishim. Masloboevning kayf ustida, istar-istamas menga gapirib bergan hikoyasi, bugun soat yettida unikiga taklif etilishim, mening quvligimga ishonma deb uqtirishi, va nihoyat, knyazning, ehtimol, Masloboevnikida ekanimni bila turib, Nelli undan qochib ko‘chaga chiqib ketganligiga qaramay, meni bir yarim soat kutib o‘tirishi – hammasi bir qadar bir-

biriga bog'liq edi. Kishini o'ylantirib qo'yadigan gaplar edi hammasi.

Darvoza oldida kolyaska kutib turgan ekan, biz o'tirdig-u, jo'nadik.

Boradigan yerimiz uzoq emas, Torgoviy ko'prigigacha. Birinchi daqiqalarda biz indamay ketdik. Men hadeb: men bilan qanaqa qilib gap boshlarkin, deb o'ylardim. Nazarimda, mening qo'ynimga qo'l solib ko'rmoqchi, o'smoqchilab so'rab-surish-tirmoqchidek edi. Ammo u gapni aylantirmay, to'ppa-to'g'ri ishga tushdi qo'ydi.

– Sodir bo'lgan bir vaziyat meni g'oyat tashvishga sol-yapti, Ivan Petrovich, – deb boshladi u, – shu haqda eng avval siz bilan gaplashib olishim va sizdan maslahat so'rashim kerak. Ancha bo'ldi, mening foydamga hal bo'lgan protsessdan voz kechib, o'sha janjalli o'n ming so'mni Ixmenevga berishga qaror qilganman. Nima qilsam ekan?

«Sen bo'lasan-u, nima qilishni bilmaysan-a, – degan fikr lop etib o'tdi xayolimdan, – yoki meni mayna qilmoqchimisan?»

– Bilmayman, knyaz, – deb javob berdim men mumkin qadar o'zimni soddalikka solib. – Boshqa to'g'rilarda, ya'ni Natalya Nikolaevnaga doir, siz va hammamiz uchun ham zarur bo'lgan xabarlarni aytishga tayyorman, ammo bu xususda shak-siz o'zingiz mendan ko'proq bilasiz.

– Yo'q, yo'q, unchalik emas. Siz ular bilan tanishsiz, balki, Natalya Nikolaevnaning o'zi bir necha bor bu xusudagi o'z fikrini aytgandir; bu esa mening uchun eng muhim das-turilamal. Siz menga ko'p yordam berishingiz mumkin. Axir, bu juda mashaqqatli ish. Men qaytarib berishga tayyorman va hamma qolgan ishlar nima bilan tugamasin, baribir, qaytarib berishga, hech shubhasiz, qaror qilganman) – tushunasizmi? Ammo shuni qay usulda bajo keltirish kerak, hamma gap shunda! Chol takabbur, bir so'zlik, Xudo bilsin, hali u mening yaxshi-ligim uchun o'zimni xafa qilishdan ham, o'sha pullarni mening basharamga otib tashlashdan ham toymaydi.

– Kechirasiz, siz o'sha pullarni o'zingizniki deb hisob-laysizmi yoki uniki debmi?

– Protsessda mening foydamga hal bo‘lgan, demak, pul meniki.

– Biroq, vijdonan aytganda-chi?

– Vijdonan ham o‘zimniki deb hisoblayman, – javob berdi u mening betakallufigimdan biroz achchig‘lanib. – Nazarimda, siz bu ishning mohiyatini bilmas ekansiz. Men cholni qasddan aldashda ayblamayman va sizga rostini aytsam, hech qachon ayblagan emasman. O‘ziga o‘zi shuncha tashvishlarni orttirdi, u beparvoligi, unga ishonib topshirilgan ishlardagi uquvsizligi tufayli aybli, bizning ilgarigi shartimiz bo‘yicha u ba‘zi bir shu kabi ishlarga javobgar bo‘lishi kerak edi. Ammo, bilasizmi, gap bunda ham emas; gap bizning janjalimizda, o‘shandagi ikki tomondan yog‘dirilgan haqoratlarda, xullas, har ikki tomon izzat-nafsining tahqirlanishida. Men, balki, o‘shanda, ana shu la‘nati o‘n ming so‘mga ahamiyat ham bermagan bo‘lar edim, ammo shu ishning nima uchun va qanday boshlanib ketganidan xabardor bo‘lsangiz kerak. Bo‘ynimga olaman: men badgumon odamman, ehtimol, men nohaq hamdirman (ya‘ni o‘sha vaqtlarda), ammo o‘zim shuni sezmadim, uning dag‘alligiga, haqoratlarga chidolmay, vaqti-g‘animatdan foydalanib ish boshladim. Bular hammasi, ehtimol, sizga mening tomonimdan insofsizlikka o‘xshab ko‘rinar. Men o‘zimni oqlamayman, ammo faqat shuni qayd qilib o‘tamanki, g‘azab va qitiqlangan izzat-nafs hali insofsizlikdan dalolat bermaydi, bu tabiiy, insonga xos narsadir; shunga iqrorman, takror aytamanki, men, axir, Ixmenevning kimligini hech ham bilmasdim va uning qizi va Alyosha haqidagi fisqi-fasodlarga batamom ishondim, shunday bo‘lgandan keyin uni bila turib pul o‘g‘irlaganiga ham ishonganman... Ammo buni bir yoqqa yig‘ishtirib qo‘yaylik. Gapning eng muhimi shu: hozir men nima qilmog‘im kerak? Puldan voz kechsam-u, ammo hali ham mening da‘volarim to‘g‘ri deb hisoblasam, unda bu pulni men unga hadya etgan bo‘laman. Bu yerda tag‘in Natalya Nikolaevnaning noqulay ahvolini qo‘shish kerak... Shubhasiz, u bu pullarni otib uradi.

– Mana ko‘ryapsizmi, o‘zingiz pulni basharangizga urishini aytyapsiz, bundan chiqdi siz uni vijdonli odam deb

hisoblaysiz, shuning uchun ham siz, u sizning pulingizni o'g'irlamaganiga chin dilingizdan ishonsangiz kerak. Modomiki, shunday bo'lgandan keyin, nima uchun o'zingiz uning oldiga borib to'g'ridan to'g'ri da'vongizni qonunsiz hisoblaganingizni ayta qolmaysiz? Bu oliyjanob bir ish bo'lar edi va Ixmenev ham, ehtimol, o'z pulini qiynalmasdan qaytib olgan bo'lar edi.

– Hm... o'z puli! Hamma gap shunda-da, xo'sh, unda mening holim nima bo'ladi? Uning oldiga borib, o'z da'vom g'ayriqonuniy deb hisoblayman desam, xo'sh, qonunsiz ekanini bilar ekansan, nima sababdan da'vogar bo'lding demaydimi? – Hamma mening yuzimga shuni soladi. Men esa bu ta'naga sazovor emasman, negaki mening da'volarim qonuniy. Men hech yerda, u mening pulimni o'g'irlagan deb aytgan ham emasman, yozgan ham emasman, ammo uning tadbirsizligi, uquvsizligi, ish olib borolmaganligiga hali ham ishonaman. O'sha pullar shakshubhasiz, meniki va shuning uchun ham o'z boshimga o'zim tuhmat toshi yog'dirsam, alam qilmaydimi! Yana qaytarib aytamanki, chol o'ziga-o'zi qildi, siz esa bu uchun meni undan uzr so'rashga majbur etyapsiz – bu og'ir.

– Mening nazarimda, ikki kishi bir-biri bilan yarashmoqchi bo'lsa, unda...

– Bu oson gap demoqchimisiz?

– Ha.

– Yo'q, ba'zan juda ham oson bo'lmaydi, ayniqsa...

– Ayniqsa, bunga boshqa hodisalar ham bog'lanib ketgan bo'lsa, demoqchisiz. Mana bu fikringizga qo'shilaman, knyaz. Natalya Nikolaevna va o'g'lingiz masalasi sizga bog'liq bo'lgani vajhidan Ixmenevlarni batamom qanoatlantiradigan yo'sinda hal etilishi kerak. Faqat shundagina siz Ixmenev bilan protsess haqida ham tamomila samimiy kelisha olasiz. Endi esa hamon hali hech narsa hal bo'lmagan ekan, siz uchun faqat bittagina yo'l bor. U ham bo'lsa: o'z da'vongizning qonunsiz ekaniga iqror bo'lish, bo'lganda ham ochiqdan ochiq, kerak bo'lsa, jamoatchilik oldida iqror bo'lishdan iborat – mening fikrim – shu; sizga to'g'risini aytyapman, chunki siz o'zingiz mening fikrimni so'radingiz, binobarin, siz mening quvlik qilmay, ochig'ini aytishimni

istadingiz. Bu esa menga yana sizdan: nima uchun u pullarni Ixmenevga qaytarib berish tashvishiga tushib qoldingiz? – degan savolni berish huquqini beradi. Agar siz o'zingizni haqli deb hisoblasangiz, nima sababdan qaytarib berish darkor? Qiziqayotganim uchun meni afv eting, ammo bu boshqa bir ish bilan aloqador...

– O'zingiz qanday fikrdasiz? – so'radi u to'satdan, go'yo mening savolimni hech eshitmagandek, – keksa Ixmenevga shu o'n ming so'm hech so'zsiz va... va ikkilanishsiz topshirilsa, rad etishiga aqlingiz yetadimi?

– Rad etishi turgan gap!

Men shunday tutaqdimki, hatto g'azablanganimdan vujudim titrab ketdi. Surbetlarcha berilgan bu nordon savol menga shunday ta'sir qildiki, go'yo knyaz basharamga qarab tuflagandek bo'ldi. Menga yana alam qilgan yeri shu bo'ldiki, u oqsuyaklarga xos dag'allik bilan mening savolimga javob bermay, go'yo savolni eshitmagandek, gapni chalg'itib yubordi va betakalluflik bilan shunday savollar berishga jur'at etib haddimdan oshib ketganimni o'zimga bildirmoqchi bo'lardi. Men mana shu oqsuyaklar qilig'ini jinim yoqtirmas va kuchim boricha Alyosha-dagi shu qiliqlarni yo'qotishga urinardim.

– Hmm... juda ham jahlingiz tez ekan-ku, lekin kiborlar olamida ba'zi bir ishlar siz tasavvur etganingizdek qilinmaydi, – dedi xavotirlik bilan knyaz mening so'zimga javoban, – ammo lekin bu masalani qisman Natalya Nikolaevna o'zi hal qilsa ham, chakki bo'lmasdi deb o'ylayman; siz unga aytib qo'ying. U maslahat bera oladi.

– Aslo! – dedim men dag'allik bilan. – Siz janoblari hali men boshlagan gapga oxirigacha quloq solmadingiz, gapimni bo'lib qo'ydingiz. Agar siz pulni samimiyatsizlik va o'zingiz aytgandek ikkilanishsiz qaytarsangiz, demak, siz otasiga qizi uchun, qiziga esa Alyosha uchun haq to'lagan bo'lasiz, to'g'riroq qilib aytganda, pul bilan mukofotlamoqchisiz.

– Hm... qarang-a, azizim, Ivan Petrovich, siz meni qanday tushunibsiz. – Knyaz kulib yubordi. Nima uchun kulganiga aqlim yetmaydi. – Shunga qaramay, – deb davom etdi u so'zida, -- hali

siz bilan gaplashadigan gapimiz ko‘p. Ammo hozir vaqtim yo‘q. Siz faqat bir narsaga tushuningki, gap bevosita Natalya Nikolaevna va uning kelajagiga taalluqlidir, bular hammasi qisman bizning qarorimiz va nimaga kelib to‘xtashimizga bog‘liq. O‘zingiz ko‘rib turibsizki, bu ishda juda zarur odamsiz. Shuning uchun basharti siz Natalya Nikolaevyaga mehribon bo‘lsangiz, ko‘zingizga har qancha yomon ko‘rinsam ham, men bilan izohlashishdan bo‘yin torta olmaysiz. Ammo biz yetdik... abientôt¹.

IX BOB

Grafniya juda yaxshi hayot kechirar ekan. Uylar to‘liq jihozlangan, aytadigan dabdabali bo‘lmasa ham, did bilan bezatilgan. Ammo bular barchasi omonatga o‘xshab turar, bu bema’ni havaslarini bajo keltirishni zarur deb topgan oqsuyak zotlarning mahkam o‘rnashgan doimiy makoni emas, balki vaqtincha turadigan uyi edi. Grafniya yoz kunlari Simbirsk gubernasidagi o‘zining (vayron bo‘lgan va qaytadan garovga qo‘yilgan) mulkiga ketarkan va knyaz u bilan birga borarkan degan mishmishlar yurardi. Men buni allaqachon eshitganman. Katya grafniya bilan ketgudek bo‘lsa, Alyosha nima qilar ekan deb yuragim siqilardi. Bu haqda hali Natasha bilan gaplashganim yo‘q, qo‘rqardim, ammo ba’zi bir belgilardan bu xabar unga ham ma’lum ekanini sezib qoldim. Lekin u indamas va ich-ichidan iztirob chekardi.

Grafniya meni juda yaxshi qarshi oldi, ochiq chehra bilan qo‘l uzatdi va meni allaqachondan beri o‘z huzurida ko‘rish orzusida ekanligini izhor etdi. Choyni ham ajoyib kumush samovardan o‘zi quyib berdi. Biz – men, knyaz va yana keksayib qolgan, ko‘kragida yulduzi bor, ohor yoqali, diplomatlarday² zodagon bir janob bilan samovar yaqinida o‘tirardik. Sezishim-

¹ **Abientôt** (*fransuzcha*) – ko‘rishganimizgacha. Bu yerga gapni bo‘lingan yeridan davom ettirguncha xayr, degan ma’noda ishlatilgan.

² **Diplomat** (*fransuzcha*: diplomate – ikki buklangan varaq, hujjat) – chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokaralar olib borish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rgan va shunday ishlar uchun o‘z hukumati tomonidan vakil qilib tayin etilgan lavozimli kishi.

cha, bu mehmonni g'oyat hurmatlashardilar. Grafinya chet eldan qaytib kelgandan keyin, bu yil qish, Peterburgda hali o'zi istaganicha va mo'ljallaganicha katta oshna-og'aynilar orttirishga va o'z mavqeini mustahkamlab olishga ulgurmagan edi. Mana shu mehmondan boshqa hech kim yo'q edi ham va butun oqshom davomida hech kim kelmadi ham. Men ko'z qirim bilan Katerina Fedorovnani axtarardim. U Alyosha bilan boshqa uyda edi, ammo bizning kelganimizni eshitib, darhol oldimizga chiqdi. Knyaz nazokat bilan uning qo'lini o'pdi, grafinya esa unga meni ko'rsatdi. Knyaz shu zahoti bizni tanishtirdi. Men sabrsizlik bilan unga tikilardim: bu oq ko'ylak kiygan, o'rta bo'yli, yuz ifodasi muloyim, ajoyib feruza ko'zli, Alyosha aytganidek, yoshlik go'zalligi barq urib turgan nozikkina oq-sariq qiz edi. Men go'zallikda kamolotga erishgan bir qizni kutgan edim, ammo unday emas edi. Yuzining bichimi bejirim va nozik, qalin va chindan ham juda ajoyib sochlari oddiygina qilib turmaklab qo'yilgan, odamga ohistagina tikilib boqardi. Agar men uni biror yerda uchratib qolgan bo'lsam, uncha e'tibor ham bermay o'tib ketavergan bo'lardim, ammo bu birinchi qarashdayoq kishida shunday ta'sir qoldirardi, lekin men uni shu kecha davomida diqqatla ko'zdan kechirdim. Uning qandaydir soddadillik bilan zo'r berib ko'zimga tikilib turishi va hech bir so'z aytmadan turib qo'l berishining o'zginasi, o'zining g'aribligi bilan meni tong qoldirgan edi, men negadir ixtiyorsiz iljaydim. Men shu zumdayoq huzurimda pok qalbli bir inson turganini sezdim, shekilli. Grafinya unga diqqat bilan razm solib turardi. Qo'limni siqib ko'rishgandan keyin Katya allaqanaqa bir shoshilinch bilan mening oldimdan ketdi va uyning narigi tomoniga borib, Alyosha bilan birga o'tirdi. Alyosha men bilan so'rasha turib qulog'imga pichirladi: «Men bu yerda bir zumgina, hozir u yoqqa jo'nayman».

«Diplomat» – (men uning familiyasini bilmayman, biror nom bilan atash uchun diplomat deb qo'ya qolay) vazminlik va ulug'vorlik bilan qandaydir bir g'oyani talqin etardi. Grafinya diqqat bilan unga quloq solardi. Knyaz uni ma'qullab xushomadgo'ylik bilan iljayardi; notiq ko'pincha unga qarab gapirar,

chamasi, uni eshitishga sazovor deb bilardi, shekilli. Menga choy berib, o'z holimga qo'yib qo'yishdi, bunga o'zim ham juda xursand edim. Shu orada men grafinyaga zehn solib qarab o'tirdim. Daf'atan u menga yoqinqiramadi. Balki, buning sababi uning yosh bo'lmaganligimi, bilmadim, ammo, nazarimda, u yigirma sakkizlardan oshmagan edi. Uning rangi toza edi, yoshroq paytlarida juda ham ko'rkam bo'lgan bo'lishi kerak. To'q qo'ng'ir sochlari hali ancha quyuq, boqishlari g'oyat mu-loyim, ammo qandaydir havoyi va sho'x istehzoli edi. Lekin hozir nima uchundir o'zini bosib o'tirardi. Shu qarashda ham donolik va undan ham ko'ra ko'proq ko'ngilchanlik va xushchaqchaqlik ifodalanardi. Mening nazarimda, uning xarakterida bir qadar yengiltaklik, aysh-ishratga tashnalik va allaqandaydir sodda xudbinlik va, balki, bundan ham zo'r bir xudbinlik ustun turar edi. U knyazning ta'siriga berilib ketgan edi. Men ularning yaqinligini bilardim va, shuningdek, ular chet elda ekanlarida knyaz unchalik rashkli bo'lmagan jazman ekanligini ham eshitgandim, ammo, menimcha, o'shanda ham, hozir ham, ularni oldingi munosabatlaridan tashqari yana nimadir, qisman sirli, qandaydir manfaatga asoslangan g'arazgo'ylikka o'xshash bir narsa bog'lab turar edi... Qisqasi, shunga o'xshash bir narsa bo'lishi kerak. Shu paytlarda u knyazning ancha ko'ngliga urib qolganini, ammo shu bilan birga aloqalari uzilib ketmaganini ham bilardim. Ehtimol, u paytlarda, knyazning tashabbusi bilan qilinadigan bir ish – Katyaga bo'lgan umidlari ularni ham mahkam bog'lagandir. Shu asosga muvofiq knyaz, grafinyaning astoydil talabiga qaramay, Alyosha bilan o'gay qizi nikohiga yordam berishi kerakligiga ko'ndirib, unga uylanishdan qutulib oldi. Xullas, men o'zim, Alyoshaning soddalik bilan aytib bergan hikoyalaridan shunday xulosaga keldim, har qalay, u unchamuncha narsani sezib yurardi-ku. O'sha gaplardan menda shundan his tug'ildiki, grafinya batamom knyaz ta'siri ostida bo'lishiga qaramay, qandaydir bir sababga ko'ra knyaz undan qo'rqar edi. Buni hatto Alyosha ham sezgan. Men keyingi vaqtlarda shuni ham eshitib qoldim; knyaz grafinyani kimga bo'lsa ham, erga berishni istar, qisman shu maqsadda biror viloyatda

tuzukroq bir er topish umidi bilan uni Simbirsk gubernasiga yubormoqchi ekan.

Men qanday qilsam, tezroq Katerina Fedorovna bilan yuzma-yuz gaplasharkanman degan umid bilan gapga quloq solib o'tiraverdim. Diplomat grafinyaning hozirgi zamon ahvoli, boshlanib kelayotgan islohotlar va ulardan qo'rqish kerakmi, yo'qmi, degan qandaydir savoliga javob berardi. U uzoqdan uzoq, vazmin va nufuzli kishiday salobat bilan gapirardi. U o'z g'oyasini oqilona ustalik bilan ilgari surdi, ammo uning g'oyasi chirkin bir g'oya edi. U xuddi mana shu islohot va islohotlar juda ham tez fursatda ma'lum bir samaralar beradi, buni ko'rib odamlarning aqllari kirib qoladi, jamiyatga (uning ma'lum qismiga) bu islohotlar ruhi singib ketmaydi emas, balki, ular qilgan xatolarini tajribada ko'radilar va shunda yana yangi kuch-quvvat bilan eski-ni quvvatlay boshlaydilar, – derdi u. Tajriba achinarli bo'lgani bilan, baribir, juda foydali, chunki o'sha najotbaxsh eski tartiblarni qo'llab-qo'ltiqlashga o'rgatadi, buning uchun yangi dalillar keltiradi. Shuning uchun endi bu ehtiyotsizlik tezroq cho'qqisiga chiqsa, hatto ko'ngildagidek bo'lar edi. «Bizsiz holingizga voy, – dedi u so'zlariga xotima berib, – bizsiz hech qanaqa jamiyat hech qachon oyoqda turolgan emas. Biz hech narsa yo'qotmaymiz, aksincha yana yutamiz, biz hamon yuzaga chiqamiz va bizning shiorimiz shu daqiqada: «*Pire ca va mien ca est*»¹ bo'lishi kerak». Knyaz unga qarab xayrixohlik bilan yoqimsiz iljayib qo'ydi. Notiq o'z-o'zidan nihoyatda mamnun edi. Men esa azbaroyi qonim qaynab ketganidan ahmoqchilik qilib unga e'tiroz bildirmoqchi bo'ldim. Ammo knyazning zaharxanda qilib boqishi meni to'xtatdi, u men tomonga ko'z qiri bilan qarab qo'ydi va, nazarimda, knyaz men tomonimdan biror g'alati va yoshlarga xos biror harakat sodir bo'lishini kutib turgandek edi. U, balki, shuni istardi ham va men o'zimni beobro' qilib qo'yishimni ko'rib huzur qilmoqchi edi. Shu bilan birga men qattiq ishonardimki: diplomat mening e'tirozimni ham eshitmas va, balki, mening o'zimni ham ko'rmaganga solardi. Bular bilan o'tirishning o'zi juda ham ko'nglimga ura boshladi. Xudo xayr bergur

¹ *Pire ca va mien ca est (fransuzcha)* – qancha yomon bo'lsa, shuncha yaxshi.

Alyosha dardimga darmon bo'ldi.

U astagina mening oldimga jeldi-da, yelkamga qo'lini tegizib: «Ikki og'iz so'zim bor», deb chaqirib oldi. Men uni Katya yuborganligini payqadim. Haqiqatan, shunday bo'lib chiqdi. Bir daqiqadan keyin men Katya bilan o'tirar edim. Eng avval u o'zicha «Mana qanaqa ekansan», degandek boshimdan oyog'imgacha tikilib o'tirdi, avval biz gapni nimadan boshlashimizni bilmasdik. Ammo men u bir gapga tushib ketgandan keyin tong yutguncha ham gapi tamom bo'lmasligiga ishonardim. Alyoshaning «besh-olti soatlik suhbat ichida», degan gapi dilimdan o'tdi. Alyosha ham shu yerning o'zida bizning qanaqa qilib gap boshlashimizni toqatsizlik bilan kutib o'tirar edi.

– Nega gaplashmayapsizlar? – boshladi u tabassum bilan bizga qarab. – Topishib olib endi jim o'tirishibdi.

– Voy, Alyosha, g'alatisan-da... biz hozir, – javob berdi Katya. – Biz juda ko'p narsalarni gaplashib olishimiz kerak. Ivan Petrovich, nimadan boshlashimni bilmayapman. Biz juda kech tanishyapmiz, ilgariroq tanishishimiz kerak edi, ammo men sizni allaqachonlardan beri taniyman. Sizni shu qadar ko'rgim kelardiki... Men hatto sizga xat ham yozmoqchi bo'lgandim...

– Nima xususda? – so'radim men beixtiyor iljayib.

– Yozadigan gap ozmi, – dedi u jiddiy tusda. – Hech bo'lmasa, mana buning Natalya Nikolaevna haqida gapirganlari to'g'rimi, noto'g'riligini bilish uchun yozishim mumkin edi. U Natalya Nikolaevnani shunday paytlarda yolg'iz qoldirib kelsa ham, unga qattiq botmasmish. Shu rostmi? Axir, shu qiligi to'g'rimi? Marhamat qilib ayt-chi, Alyosha, axir, sen endi bu yerda nima qilib o'tiribsan?

– Ey Xudo, men hozir ketaman. Men aytdim-ku, bir daqiqagina o'tiraman-da, sizlarning gaplashishlaringni ko'raman-u, keyin jo'nayman deb.

– Xo'sh, nima bo'libdi, mana birga o'tiribmiz, ko'rdingmi? Bu hamma vaqt shunaqa, – deb qo'shib qo'ydi u xiyol qizarib va barmog'i bilan uni menga ko'rsatib: – «Bir daqiqa, faqat bir daqiqa», – deydi-yu, yarim kechagacha o'tirib qolganini o'zi bilmaydi. Undan keyin kech bo'lib qoladi. «U xafa bo'l-

maydi, u oqko'ngil», – deb o'ylaydi! Xo'sh, shu yaxshimi? Xo'sh, shu oliyjanoblikmi?

– Mayli, bora qolay bo'lmasa, – javob berdi Alyosha nolib, – faqat sizlar bilan shunday birga o'tirgim kelyaptiki...

– Bu yerda senga nima bor! Biz, aksincha, yolg'iz qolib ko'p narsalarni gaplashishimiz kerak. Menga qara, sen bunga xafa bo'lma, bu – zaruriyat, shuni yaxshilab tushunib ol.

– Zaruriyat bo'lsa, xafa bo'lib nima qilardim. Men faqat bir daqiqagina Levinkanikiga kirib chiqaman-da, keyin uning oldiga boraman. Menga qarang, Ivan Petrovich, – davom etdi u shlyapasini ola turib, – bilasizmi, otam Ixmenev protsessida o'z foydasiga hukm etilgan pullardan voz kechmoqchi.

– Bilaman, u menga aytdi.

– Naqadar ajoyib ish! Mana Katya, uning oliyjanoblik qilayotganiga ishonmaydi. Siz u haqda bu bilan gaplashing. Xayr, Katya, baraka topkur, Natashani sevishimga shubha qilma aslo. Tavba, nima uchun hammalaring, menga yopishib oldinglar, a? Ta'na qilaverasizlar, tergay berasizlar, xuddi men sizlarning taftishingiz ostida bo'lishim shartdek! Men uni qanchalik sevishimni o'zi biladi, menga ishonadi ham. Menga ishonishiga imonim komil. Men uni hech nimasiz, hech qanaqa shartsiz sevaman. Uni shunchalik sevamanki... Yaxshi ko'raman, vassalom. Shuning uchun meni xuddi bir aybdordek hadeb so'roq qilaverishning darkori yo'q. Mana, Ivan Petrovichdan so'rasang bo'ladi, Natasha meni qattiq sevgani bilan rashki zo'r, ammo uning muhabbatida xudbinlik ko'p, chunki u men uchun hech qurbon bergisi kelmaydi.

– Nima deganingiz bu? – so'radim men quloqlarimga ishonmay.

– Alyosha, senga nima bo'ldi? – dedi, baqirib yuborishga sal qolgan Katya, chapak chalib yuborib.

– Rost-da, nega muncha hayron bo'lyapsizlar? Hadeb yonida bo'lishimni talab qilaveradi. Buni talab etmaydi-ku, ammo shuni xohlagani ko'rinib turadi.

– Uyalmaysanmi-a, uyalmaysanmi! – dedi Katya jahli chiqqandan qizarib ketib.

– Nimasi uyat? Juda qiziqsan-a, Katya. Axir, men uni u o'ylagandan ham ko'ra ko'proq sevaman, basharti u ham meni xuddi mendek chindan sevganda edi, faqat o'z huzur-halovatini o'ylamagan bo'lar edi. Rost, u o'zi menga javob beradi, ammo uning aftidan, yuborgisi kelmayotgani ko'rinib turadi, shunday bo'lgandan keyin men uchun bu javob bermagan bilan baravar-da.

– Yo'q, bu gaplar bejiz emas! – qichqirdi Katya g'azabdan chaqnagan ko'zlari bilan yana menga murojaat etib, – Alyosha, iqror bo'l, hozir bo'yningga ol, bu gaplarni sening qulog'ingga otang quygan. Shu bugun aytdimi? Menga quvlik qilma, baraka topkur: baribir, hozir bilib olaman! Shundaymi, yo'qmi?

– Ha, aytgandi, – deb javob berdi, xijolat chekib Alyosha, – nima bo'libdi? U men bilan shu bugun shu qadar mehribonlik, shu qadar do'stona gaplashdiki, asti qo'yaverasiz. Natashani menga shunchalik maqtadiki, men hayron bo'lib qoldim, axir, u dadamni ozmuncha haqorat qildimi, u esa hadeb Natashani maqtaydi.

– Siz esa hammasiga ishondingizmi, -- dedim men, – siz, sizdan jonini ham ayamagan va hatto hozir ham, shu bugunning o'zida sizning g'amingizni yeb, siz zerikib qolmasligingiz, qanday bo'lsa ham, Katerina Fedorovna bilan ko'rishishingiz uchun har yo'l bilan uringan qiz haqida shunday deysizmi-a? Uning o'zi menga shu bugun aytgan edi. Siz esa birdan qayoqdagi bo'yama gaplarga ishona qolibsiz! Uyalmaisizmi?

– Noshukur! U uyatni bilarmidi! – dedi Katya Alyoshaga, odamgarchilikdan chiqib qolgan odamga gapirgandek.

– Tavba, sizlarga nima bo'ldi o'zi! – davom etdi Alyosha zorlangan ovoz bilan. – Hamma vaqt shunaqasan-a, o'zing Katya! Hamma vaqt bir yomon ish qilganimdek, mendan shubhalanib yurasan... Ivan Petrovich-ku, o'zi ma'lum! Sizlar meni Natashani sevmaydi deb o'ylaysizlar. Men uni xudbin deb aytmoqchi emasdim. Men faqat shuni aytmoqchi edimki, u meni haddan tashqari yaxshi ko'radi, chegaradan chiqib ketadi, shu sababdan o'ziga ham, menga ham qiyin. Otam esa, basharti xohlagan taqdirda ham, meni alday olmaydi, bo'y bermayman.

Otam Natashani xudbin deb g'araz bilan aytgani yo'q, men, axir, tushundim-ku. U xuddi hozir men aytgan gapning o'zginasini aytdi: u meni haddan tashqari sevadi, bu esa to'g'ridan to'g'ri xudbinlikka olib boradi, bu esa o'zi uchun ham, men uchun ham og'ir, bora-bora menga yana ham og'irroq bo'ladi. Nima bo'libdi, axir, u rostini aytadi, bu gaplarni meni yaxshi ko'rganidan aytadi-da. Bundan Natashani xafa qildi degan xulosa chiqarib bo'lmaydi-ku; aksincha, otam unda eng kuchli muhabbat, chegarasiz, til bilan ifodalab bo'lmaydigan bir muhabbat borligini payqagan....

Biroq Katya uning so'zini bo'lib, tamom qilishga qo'ymadi. U Alyoshani qattiq ta'na qila boshladi, otasi ataylab Natashani maqtab turib o'zining soxta ko'ngilchanligi bilan uni aldaganini, bular hammasi atayin ularning aloqasini buzish niyatida qilinganligini, ustalik bilan bilintirmasdan Alyoshani Natashaga qarshi qilib qo'yayotganini isbot qila boshladi. Katya qizg'in va oqilona, Natasha naqadar uni sevishini va hech qanaqa sevgan ko'ngil unga o'tkazilayotgan sitamlarni kechira olmasligini gapirdi, – u yog'ini surishtirganda chinakam xudbin, uning ya'ni Alyoshaning o'zi ekanligini aytdi. Sekin-asta Katya uni g'am daryosiga g'arq qilib, qilmishlaridan ming-ming pushaymon bo'lishgacha olib bordi; u oldimizda boshini quyi solganicha o'tirar, churq etib og'iz ocholmas, yuzining ifodasidan azob chekayotgani ko'rinib turardi. Ammo Katya shafqatsiz edi. Men nihoyatda qiziqib unga qarab o'tirardim. Men bu g'alati qiz qanaqaligini tezroq bilgim kelardi. U hali bola edi, ammo allaqanday, qattiq qoidalarga rioya qiluvchi, yaxshilik va adolatga tug'ma muhabbat bilan to'lib-toshgan yetuk bir bola edi. Agar uni, haqiqatan ham, bola deb ataladigan bo'lsa, bu holda uni bizning oilalarimizda ko'pgina uchrab turadigan xayol suruvchi bolalar to'dasiga kiritsa bo'lardi. Uning ko'p mulohaza qilganligi ko'rinib turardi. Ajabo, uning muhokamalar bilan to'lgan boshida bolalarga xos g'oyalar, boshidan kechirgan jiddiy taassurotlar, hayotdan olgan (chunki Katya ancha narsani ko'rgan edi), shu bilan birga hali unga tanish bo'lmagan, hali boshidan kechirmagan, ammo uni hayratga soladigan, u, o'zicha, boshimdan

kechirganman deb hisoblab yurgan son-sanoqsiz kitobiy, xayoliy tasavvurlar bir-biriga aralash-quralash bo'lib ketgan edi. Menimcha, men butun shu oqshom davomida va keyin uni yaxshigina sinab oldim. U otashin va ta'sirchan qalbli qiz edi. Boshqa bir hollarda u hamma narsadan haqiqatni yuqori qo'yib, o'zini tuta bilish xislatiga go'yo iltifotsizlik bilan qaragandek edi, turli hayotdagi sabr-toqatni rasm bo'lib qolgan eskilik aqidasi deb hisoblar, chamasi, bu e'tiqodidan mag'rurlanar ediki, bu holni qiziqqon va hatto uncha yosh bo'lmagan odamlarda uchratish mumkin. Ammo mana shuning o'zi unga allaqanday bir latofat bag'ishlardi. U fikr yurgizishni va haqiqatning tagiga yetishni juda yaxshi ko'rar edi, ammo bu masalada shu qadar go'l, shu qadar bolalarcha harakat etardiki, siz birinchi qarashdayoq, undagi shu barcha o'ziga xos xislatlarini sevib qolib, shunga ko'nikib qolardingiz. Men Levinka bilan Borinkani esga oldim va, nazarimda, bular hammasi tabiiydek bo'lib tuyuldi. Shunisi qiziqki, daf'atan qaraganda hech qanday go'zallik sezilmagan yuzi shu oqshomning o'zida daqiqa sari men uchun go'zal va jozibador bo'lib bormoqda edi. Uning ham bola, ham mulohaza etuvchi ayol kabi qiliqlari, mana bu bolalarcha haqqoniyat va adolatga bo'lgan chinakam chanqoqlik va o'zining intilishlariga qattiq ishonishi – hammasi qo'shilib uning yuzini ajoyib bir samimiyat nuri bilan yoritir, unga allaqanday oliy, ruhiy go'zallik bag'ishlardi. Oddiy, beparvo boqishda hammasi birdan ko'zga tashlanmaydigan bu go'zallikning tub ma'nosini uncha tez qamrab olish mumkin emasligiga tushuna boshlaysiz. Shunda Alyosha unga ixlos ila bog'lanib qolishi kerakligini tushundim.

Alyoshaning o'zi fikr yurgizib muhokama etolmaganidan uning uchun fikr yurgizadigan va hattoki shuni istagan odamlarni sevardi, – Katya esa uni allaqachon o'z homiyligiga olgan edi. Alyosha soflik va yaxshilikka sajda qiladigan, novdadek egiluvchan, oliyjanob bir qalb egasi edi, Katya esa o'zining barcha bolalik samimiyligi, jozibadorligi bilan uning oldida endi o'zini namoyon qilgan edi. Alyoshaning qittak ham o'z irodasi yo'q, Katya esa matonatli, kuchli va otashin iroda egasi edi. Alyosha esa faqat unga rahbarlik va hattoki ustidan hukmronlik qila

oladigan odamgagina bog'lanib qolishi mumkin edi. Natasha uni qisman shu bilan qo'lga olgan edi. U ham bo'lsa aloqalarining boshlanish davrida, xolos. Ammo Katya o'zi yosh bola, aftidan, hali anchagacha bolaligicha qolishi kerak bo'lganidan Natashadan yuqori turar edi. Uning mana shu bolaligi, yorqin aqli va shu bilan bir vaqtda muhokamasidagi ba'zi bir yetishmovchiliklar barchasi bir bo'lib qandaydir Alyoshaga yaqinroq edi. U buni sezar va shuning uchun Katya tobora uni o'ziga maftun etib bormoqda edi. Men ular tanho qolib o'zaro suhbatlashganlarida Katyaning jiddiy «tashviiy» gaplari qatorida, ish to donlashishgacha yetib borishiga imonim komil edi. Katya, ehtimol, Alyoshani juda ko'p martalar koyigani va uni qo'lga olib qo'ygani bilan, baribir, Alyosha Natashadan ko'ra Katya oldida o'zini yengilroq his etar edi. Ular ko'proq bir-birlariga mos edilar, bu esa juda muhim edi.

– Bo'ldi, bas, Katya, bas; sen hamma vaqt haqli bo'lib chiqasan, men esa – nohaq. Buning sababi shuki, sening qalbing menikidan pokroq, – dedi Alyosha o'rnidan turarkan va xayrlashish uchun unga qo'l cho'zarkan. – Hoziroq uning oldiga ketaman, Levinkanikiga ham kirmayman.

– Levinkanikiga kirishning hojati ham yo'q, endi gapga kirib, uning oldiga ketayotganing uchun ko'zimga yoqimtoy bo'lib ko'rinasan.

– Sen esa hammadan ming marta yoqimtoysan, – javob berdi xomush bo'lib Alyosha. – Ivan Petrovich, sizda ikki og'iz gapim bor.

Biz ikki qadam nari ketdik.

– Men bugun xunuk ish qilib qo'ydim, – shivirladi u menga, – juda pastkashlik qildim, men dunyoda hammaning oldida gunohkorman, ayniqsa, anovi ikkalasining oldida hammadan ko'ra aybliman. Bugun meni dadam tushlikdan keyin Aleksandrina bilan tanishtirdi (bitta frantsuz ayoli), judayam go'zal. Ishqiboz bo'lib qoldim... va ey, nimasini aytardim, men ular bilan birga bo'lishga loyiq emasman... Xayr, Ivan Petrovich!

– U oqko'ngil, oliyjanob yigit, – deb gap boshladi Katya shoshib-pishib, men yana kelib uning yoniga o'tirganimdan ke-

yin, – ammo biz u haqda hali ko‘p gaplashamiz; eng avval shu to‘g‘rida kelishib olaylik: knyazni siz qanaqa odam deb o‘ylaysiz?

– Juda yomon odam deb.

– Men ham. Demak, bu haqda siz bilan kelishar ekanmiz, shuning uchun bizga fikr yurgizmoq ham oson bo‘ladi. Endi Natalya Nikolaevnaga kelaylik... Bamisoli, Ivan Petrovich, men hozir go‘yo zulmat ichida yurgandekman, sizni xuddi bir nur kabi kutdim. Siz endi menga bularning hammasini tushuntirib berasiz, chunki eng muhim masalada men tasmollab, Alyoshaning gaplariga qarab mulohaza yurtizaman. Boshqa hech kimdan bilib bo‘lmasdi. Eng oldin shuni ayting (bu eng muhimi), sizning fikringizcha Alyosha bilan Natasha birga baxtli bo‘lishadimi, yo‘qmi? Mening aniq bir qarorga kelishim va shunga qarab biror chora ko‘rishim uchun eng oldin shuni bilishim kerak.

– Bunga qanday qilib aniq javob berish mumkin?..

– Ha, albatta, aniq javob emas, – so‘zimni bo‘ldi u, – sizning nazaringizda, qanday? Negaki siz juda dono odamsiz.

– Menimcha, ular baxtli bo‘lisha olmaydi.

– Nega?

– Bir-birlariga mos emaslar.

– Men ham shunday deb o‘ylagan edim! – U xuddi afsuslangandek qo‘llarini qovushtirdi.

– Batafsil gapirib bering. Menga qarang, Natashani juda ham ko‘rgim keladi, chunki men u bilan ancha gaplashishim kerak, nazarimda, biz u bilan hammasini hal eta olamiz. Hozir bo‘lsa men uni, o‘zimcha, shunday tasavvur qilaman: u nihoyatda aqlli, vazmin, haqqoniy va chiroyli bo‘lishi kerak. Shunday-a?

– Shunday.

– O‘zim ham shunga ishonardim. Xo‘sh, agar u shunday bo‘lsa, qanaqa qilib shu Alyoshani, shunaqa bolani sevib qola oldi? Shuni menga tushuntirib bering; shu haqda men juda ko‘p o‘ylayman.

– Buni tushuntirib bo‘lmaydi, Katerina Fedorovna, inson nima uchun, qanday qilib sevib qolishini tasavvur etish qiyin. U

hali yosh boladek, ammo bilasizmi, bolani ham sevib qoladi-ku kishi! (Unga, uning chuqur jiddiyat, sabrsizlik, diqqat bilan menga tikilib turgan ko'zlariga qarab ko'nglim yumshadi). Natasha-ning o'zi qanchalik yosh bolaga o'xshamagan bo'lsa, – deb davom etdim men, – qanchalik sipo bo'lsa, uni shuncha tez sevib qolishi tabiiy edi. Alyosha rostgo'y, samimiy, o'lgudek sodda, ba'zan bu soddalik unga latofat bag'ishlaydi. Qanday qilib aytsa bo'larkin?... Balki, u Alyoshani allaqanday rahm-shafqat yuzasidan sevib qolgan desa bo'larmikin? Oliyjanob qalb rahm kelgandan ham sevib qola oladi... Rostini aytsam, nazarimda, sizga buni anglata olmayapman, ammo ijozat bersangiz, o'zingizdan so'ramoqchiman: axir, o'zingiz uni sevasiz, a?

Men bu savolni unga juda dadillik bilan berdim va shoshilinch berilgan bu savol bilan men, bolanikidek benihoya sof, pokiza qalbga g'ulg'ula sola olmasligini sezdim ham.

– Xudo haqqi, hali ham bilmayman, – javob berdi u astagina, ochiq chehra bilan, ko'zimga tikilib turib, – uni qattiq sevaman, shekilli...

– Mana, ko'rdingizmi! Ammo siz uni nima uchun sevib qolganingizni tushuntirib bera olasizmi?

– Unda qalloblik yo'q, – javob qildi u o'ylab turib, – u mening ko'zlarimga tik qarab turib bir narsa gapirsa, menga juda yoqib ketadi... Menga qarang, Ivan Petrovich, mana men siz bilan shunaqangi gaplarni gapirib o'tiribman, men qiz bola, siz esa erkaksiz. Shu ishim yaxshimi?

– Ha, nima bo'libdi?

– Ha, xuddi shunday, bu yerda hech qanaqa yomon gap yo'q. Anovilar esa (u samovar oldida o'tirganlarni imlab ko'rsatdi), buni, albatta, yomon deb hisoblashardi. Ular haqlimi?

– Yo'q! Axir, siz yuragingizda yomon ish qilmayotganingizni sezib turibsiz-ku, shunday bo'lgandan keyin...

– Men hamma vaqt shunday qilaman, – gapimni bo'ldi u, chamamda, mumkin qadar tezroq men bilan gaplashib olish uchun, – agar men biror ishdan xijolat cheksam, shu zahoti o'z ko'nglimdan so'rab ko'raman, ko'nglim tinch bo'lsa, o'zim ham tinch. Hamma vaqt mana shunday qilish kerak. Shuning uchun

ham men siz bilan xuddi o'zim bilan gaplashgandek ochilib gaplashyapman, buning sababi shuki, avvalo, siz ajoyib, yaxshi odamsiz va men Alyoshaga qadar Natasha bilan sizning orangizda bo'lgan munosabatni bilaman, eshitganimda yig'laganman ham.

– Sizga kim aytib berdi?

– Alyosha-da, U ham yig'lab turib gapirdi, bu ajoyib oliyjanoblik edi, uning bu qilig'i menga yoqdi. Mening nazarimda, Ivan Petrovich, Alyosha sizni, siz uni yaxshi ko'rgandan ortiq yaxshi ko'radi. Mana shu tomonlari menga yoqadi-da. Ikkinchidan, men shuning uchun siz bilan xuddi o'zim bilan gaplashganimdek ochiq gaplashamanki, siz juda aqlli odamsiz va menga ko'p maslahatlar berib, ko'p narsalarni o'rgatishingiz mumkin.

– Nimaga asoslanib meni sizga aql o'rgatadigan darajada aqlli odam deb o'ylaysiz?

– Gapingizni qarang, qo'ying-e! – U o'ylanib qoldi. – Bu haqda shunchaki gap ochdim-da, keling, eng asosiy gapdan boshlaylik. Menga yo'l ko'rsating, Ivan Petrovich, mana o'zim sezib turibman, men endi Natashaning kundoshiman. Axir, shuni o'zim bilaman-ku, nima qilishim kerak endi? Men shuning uchun ham sizdan: «Ular baxtiyor bo'la olishadimi?» – deb so'radim. Men bu haqda tun-u kun o'ylayman. Natashaning ahvoli nihoyatda og'ir, juda ham og'ir! Axir, undan Alyoshaning ko'ngli sovib qoldi, menga bo'lgan sevgisi kundan kunga kuchayib boryapti. Shunday-ku, axir?

– Shunday bo'lyapti, shekilli.

– Axir, Alyosha uni aldayapti-ku. Kundan kunga ko'ngli sovib borayotganini u o'zi bilmaydi, buni Natasha bilsa kerak. U qanchalik azoblanayotgan ekan?

– Nima qilmoqchisiz endi, Katerina Fedorovna?

– Rejalarim ko'p, – javob berdi u jiddiy, – ammo, hammasi chigallashib ketdi. Shuning uchun ham menga shularni hal etib berasiz deb, sizni to'rt ko'z bilan kutdim. Siz bularni mendan ko'ra ko'proq bilasiz, axir, siz endi mening pushti panohimsiz. Eshiting, eng oldin men: modomiki, ular bir-birlarini sevsalar, baxt-saodatli bo'lishlari kerak, shuning uchun men o'zimni qur-

bon qilishim va ularga yordam berishim kerak, deb o'ylardim. Shunday emasmi?

– O'zingizni qurbon qilganingizni bilaman.

– Ha, men o'zimni qurbon qildim, keyin u hadeb mening oldimga kelaverib, kundan kun menga bo'lgan sevgisi oshaver-gandan keyin, o'ylab qoldim va o'zimni qurbon qilaymi, yo'qmi, deb o'ylaydigan bo'ldim. Axir, bu yaxshi emas-ku, rostmi?

– Bu tabiiy narsa, – javob berdim men, – shunday bo'lishi ham kerak edi... Siz aybli emassiz.

– Yo'q. Siz juda ko'ngilchan bo'lganingiz uchun shunday deyapsiz. Men esa... mening vijdonim unchalik pok emas, deb o'ylayman. Agar ko'nglim toza bo'lsa, qanday qilib hal etishni bilgan bo'lar edim. Ammo, bu gapni qo'yib turaylik! Keyin men ularning munosabatlari haqida knyazdan, Alyoshaning o'zidan ko'proq eshitib bildim, keyin ularning teng emasliklarini payqa-dim, mana endi siz buni tasdiqladingiz. Men yana ko'proq o'ylab qoldim. Endi nima qilish kerak? Modomiki, ular baxtli bo'lolmas ekanlar, hozir ajralib keta qolishlari yaxshi emasmi? Keyin shun-dan xulosaga keldim: sizdan hammasini surishtirib, keyin Nata-sha oldiga ravona bo'lsam va u bilan hamma ishni hal etsam.

– Ammo masala qanday hal qilinadi? Hamma gap shunda.

– Men Natashaga shunday deyman: «Bas, siz uni joningizdan ortiq sevasizmi, demak, siz uning baxtini ham se-vishingiz kerak, binobarin, undan voz kechmog'ingiz kerak».

– O, bu gaplarni u qaysi yurak bilan tinglaydi? Basharti u sizning gapingizga qo'shilganda ham bunday qilish uning qo'li-dan kelarmikiya?

– Mana, mana shu haqda men tun-u kun o'ylayman... va... va...

U birdan yig'lab yubordi.

– Siz ishonmaysiz, Natashaga qanchalik yuragim achiydi, – pichirladi u titrayotgan lablari bilan.

Biror narsa deyishga ham o'rin qolmagan edi. Men inda-masdim. Unga qarab turib o'zimning ham allaqanday bir ishq-muhabbat dardida yig'lagim kelar edi. Qanaqa ajoyib jozibador edi bu go'dak! Nima uchun o'zingizni Alyoshani baxtli qilishga

qobiliyatli deb hisoblaysiz, deb so'ramasdim ham.

– Siz musiqani sevasiz-ku, a? – so'radi u biroz ovungandan keyin, ko'z yoshlari qurisa ham g'amgin ohangda.

– Sevaman, – dedim men biroz ajablanib.

– Agar vaqt bo'lsa, men sizga Betxovenning¹ uchinchi kontsertini chalib berardim. Men hozir shuni chalyapman, bu tuyg'ular o'shanda... xuddi hozir men qns etayotgandek... Menga shunday tuyuladi. Lekin boshqa bir vaqtda, hozir gaplashish kerak.

U qanday qilib Natasha bilan ko'rishishi, bu ishni qanday qilib ro'yobga chiqarishi kerak, deb maslahatlasha boshladik. O'gay onasi rahmdil, uni yaxshi ko'rishini, biroq, baribir, qattiq tergap turishlarini va Natalya Nikolaevna bilan tanishishga aslo yo'l qo'ymasligini aytib berdi. Shuning uchun u endi quvlik ishlatishga qaror qilibdi. Ba'zan u ertalablari ko'pincha grafinya bilan sayr etgani chiqar ekan. Ahyon-ahyonda grafinya birga bormay, uni frantsuz ayol bilan yuborar ekan. U ayol hozir kasal ekan. Bu hol faqat grafinyaning boshi og'rib qolgandagina sodir bo'lar ekan, demak, uning boshi og'rib qolishini kutish kerak. Ungacha u o'z yaqinidek bo'lgan kampir frantsuz ayoli bilan kelishib qo'yadi, chunki u juda oqko'ngil ekan. Natijada shunday bo'lib chiqdiki, uning Natasha ziyoratiga boradigan kunni aslo oldindan belgilab bo'lmas edi.

– Natasha bilan tanishasiz, buning uchun hech pushaymon bo'lmaysiz, – dedim men. – Uning o'zi sizni ko'rishni istaydi, hech bo'lmasa, Alyoshani kimning qo'liga topshirayotganini bilish uchun ham ko'rishishi kerak-da. Bu haqda ko'p tashvish qilavermang. Vaqtning o'zi sizning tashvishingizsiz ham hal etadi. Axir, sizlar qishloqqa ketmoqchisizlar-ku.

– Ha, tez kunlarda, balki, bir oydan keyin ketarmiz, – javob berdi, – bilamanki, knyaz shuni talab qilyapti.

– Siz nima deb o'ylaysiz, Alyosha sizlar bilan birga ketadimi?

– Men ham shuni o'ylagan edim-a? – dedi u menga tikilib. – U boradi-ku.

¹ Lyudvig van Betxoven (1770-1827) – nemis kompozitori, pianinochi va dirijyor.

– Boradi.

– Yo rabbiy, nima bo'ladi, axir, borib-borib, bilmayman. Quloq soling, Ivan Petrovich, men hammasini sizga yozib turaman, tez-tez va batafsil yozaman. Joningizga ham tegib ketaman. Siz biznikiga tez-tez kelib turasizmi?

– Qaydam, Katerina Fedorovna, bu sharoitga bog'liq. Balki, hech ham kelmasman.

– Nega, axir?

– Bu har xil sabablarga bog'liq, hammadan muhimi, mening knyaz bilan bo'lgan munosabatimga bog'liq.

– U insofsiz odam, -- dedi Katya keskinlik bilan. – Bilsizmi, Ivan Petrovich, men siznikiga borsam, qalay bo'larkin?

– Siz o'zingiz nima deb o'ylaysiz?

– Yaxshi bo'lsa kerak deb o'ylayman. Shundoq yo'qlab turardim-da sizni... – qo'shib qo'ydi u tabassum qilib. – Men shuning uchun aytyapmanki, men sizni hurmat qilish bilan birga juda yaxshi ko'raman ham... Sizdan ko'p narsalarni o'rganish mumkin. Men sizni yaxshi ko'raman... Sizga bu gapni aytishim uyatmasmikan?

– Nimasi uyat? Siz endi menga o'z jigarimdek aziz bo'lib qoldingiz.

– Axir, siz meni oshnam bo'lishni xohlaysiz-ku, a?

– O, albatta! – javob berdim men.

– Anovilar bo'lsa-chi, albatta, uyat bo'ladi deyishadi, yosh qizga bunday qilish yaramaydi, deyishardi, – dedi u yana choy ichishib o'tirgan hamsuhbatlarni ko'rsatib. Nazarimda, knyaz bizni miriqib gaplashib olishsin deb ataylab yolg'iz qo'ygandi.

– O'zim ham yaxshi bilaman, – qo'shib qo'ydi u, – knyazga mening pullarim kerak. Meni ular hali g'irt yosh bola deb o'ylashadi va buni yuzimga ham aytishadi. Men unday deb o'ylamayman, endi bola emasman. G'alati odamlar-a o'zlari, tavba, o'zlari xuddi yosh bolaga o'xshashadi; nega muncha urinishar ekan?

– Katerina Fedorovna, so'rayman deb esimdan chiqibdi: haligi Alyosha oldilariga tez-tez borib turadigan Levinka bilan Borinkalar kim o'zi?

– Ular mening uzoq qarindoshim. Juda aqlli, juda ham insofli odamlar, ammo juda ko‘p gapirishadi... Men ularni bilaman.

Shuni deb u jilmayib qo‘ydi.

– Siz ularga vaqti kelib bir million taqdim qilmoqchimisiz-a, to‘g‘rimi?

– Ey, mana ko‘rdingizmi mana shu millionni olaylik, uni chaynayverib, ko‘ngilga tegishdi. Men, albatta, nimaiki foydali bo‘lsa, shunga iona qilaman, shuncha katta pulning nima keragi bor, to‘g‘ri emasmi? Ammo hali qachon beraman, ma‘lum emas-ku. Ular bo‘lsa allaqachon uni taqsimlab qo‘yib, bu to‘g‘rida bosh qotirishadi, shovqin-suron ko‘tarishadi, qayerga ishlatamiz deb janjallashishadi, – odamga g‘alati ko‘rinar ekan. Juda ham hovliqishyapti. Ammo, baribir, ular samimiy va aqlli odamlar. O‘qishadi. Bu, har holda, boshqa birovlarining hayotiga qaraganda yaxshiku, a. Shunday emasmi?

Biz yana u bilan juda uzoq gaplashdik. U menga qariyb o‘zining butun hayotini gapirib berdi va mening ham hikoyalirimni bajonidil tingladi. Ko‘proq Natasha haqida, Alyosha haqida to‘liqroq gapirishimni talab qilardi. Knyaz oldimga kelib, ketish kerakligini menga shama qilganda soat o‘n ikki edi. Men xayrlashdim. Katya qo‘limni qattiq siqib, aftimga ma‘noli qarab qo‘ydi. Grafinya kelib-ketib turishimni so‘radi. Biz knyaz bilan chiqib ketdik.

Men bir g‘alati va, ehtimol, bu ishlarga hech aloqasi bo‘lmagan bir mulohazani aytishdan o‘zimni to‘xtata olmayman. Katya bilan bo‘lgan uch soatlik suhbatimdan allaqanday qiziq xulosaga keldim; u, hali g‘irt bola bo‘lib, erkak bilan ayol o‘rtasida bo‘ladigan sirlarni aslo bilmas ekan. Bu esa uning ba‘zi bir xil mulohazalariga, umuman juda ko‘p muhim narsalar haqida gapirgan vaqtidagi jiddiy ohangiga ajoyib bir kulgili tus berardi.

X BOB

– Bilasizmi, nima, – dedi knyaz men bilan kolyaskaga o'tira turib, – bir ovqatlanib olsak, juda soz bo'lardi-da, a? Siz qanday o'ylaysiz?

– Qaydam... knyaz, – javob berdim men ikkilanib, – men hech vaqt kechqurun ovqatlanmayman...

– Ovqat bahonasi bilan suhbatlashib ham olamiz-da, – qo'shib qo'ydi u mening ko'zimga ayyorona tikilib.

Muddaosiga tushunish qiyin emasdi! «Gapirib ichini bo'shatib olmoqchi, – o'yladim men, – mening ham muddaom shuku». Men rozi bo'ldim.

– Juda joyida. Bolshaya Morskayaga, B.nikiga boramiz.

– Restorangami? – dedim men biroz taraddudlanib.

– Ha, nima bo'libdi? Men kechki ovqatni kamdan kam uyda qilaman. Nahotki, sizni taklif etishga ijozat bermaysiz-a?

– Ammo, men sizga aytdim-ku, men hech qachon kechqurun ovqatlanmayman deb.

– Ey, bir marta yesangiz, hech narsa bo'lmaydi. Uning ustiga men sizni taklif etyapman-ku...

«Ya'ni sen uchun to'layman-ku», – demoqchi, Xudo haqqi, buni ataylab takror aytdi. Men birga borishga ko'ndim, ammo restoranda o'zimga-o'zim to'lashga qaror qilib qo'ydim. Biz yetib keldik. Knyaz alohida bir xonani oldi va did bilan ikki-uch xil ovqat buyurdi. Buyurilgan ovqatlar qimmatbaho taomlar edi, xuddi shu taomlarga yarasha bir shisha ovqat oldida ichiladigan ajoyib sharob keltirishga ham buyurdi. Ular hammasi mening hamyonimga to'g'ri kelmasdi. Men qartaga qaradim va yarimta chil (qush), bir qadah lafit olib kelishni buyurdim. Knyaz norozilik bildirdi.

– Siz men bilan ovqatlanishni istamaysizmi, a? Bu, axir, kulgili-ku. Pardon? mon ami¹, ammo bu yaramas injiqlik-ku. Odanning ham shunchalik sirkasi suv ko'tarmas bo'ladimi? Bu yerda tabaqa manfaatlari o'rta tushyapti, shekilli. Xudo haqqi, shunday. Ammo meni xafa qilyapsiz.

¹ Pardon? mon ami (fransuzcha) – kechirasiz, azizim.

Biroq men o'z so'zimdagi turib oldim.

– Mayli, istaganingizcha bo'lsin, – qo'shib qo'ydi u. – Ixtiyoringiz... Ivan Petrovich, siz bilan ochiq, do'stona gaplashish mumkinmi?

– Buyuring, marhamat.

– Unday bo'lsa, aytay, menimcha, mana bunaqangi inijlik, sizga zarar yetkazadi. Xuddi shunday sizning sheriklaringiz ham shu xildagi nozlari bilan zarar qiladilar. Siz adabiyotchi, siz kiborlarni bilishingiz kerak, siz esa hammadan o'zingizni olib qochib yurasiz. Men endi chil haqida gapirmoqchi emasman, ammo siz bizning muhit bilan har qanaqa munosabatdan voz kechishga tayyorsiz, bu esa juda ham zararli. Bulardan tashqari yana siz ko'p narsadan quruq qolasiz, – xullas kalom, mansabga erisha olmaysiz, – bundan tashqari, yana siz, hech bo'lmasa, o'zingiz yozadigan narsalarni o'zingiz ko'rib bilishingiz uchun ham shu kerak edi, axir, sizning qissalaringizda graflar ham, knyazlar va zodagon ayollarning pardoixonalari ham tasvirlanadi... Ha, menga nima bo'ldi? Sizlar endi qashshoqlik, yo'qolgan shinellar, tekshiruvchilar, jirttaki ofitserlar, chinovniklar, eski davr va buzg'unchiliklar hayoti bilan shug'ullanasizlar.

– Ammo siz yanglishyapsiz, knyaz, basharti men siz aytgan «oliy doiralarga» bormasam, buning sababi shuki, u yerda kishi juda ham zerikadi; ikkinchidan, nima qilishingni bilmaysan! Ammo, shunga qaramay men...

– Bilaman, yilda bir knyaz R.nikiga borasiz. Men sizni o'sha yerda uchratganman. Yilning qolgan vaqtlarida esa siz demokratlik g'ururiga berilib, cherdaklaringizda sarg'ayib o'tirasiz, ammo hammangiz ham shunday qilmaysiz. Shunday sarguzasht qidiruvchilar ham borki, ulardan hatto kishining ko'ngli ayniydi...

– Men sizdan shuni iltimos qilardimki, knyaz, shu gapni qo'ysag-u, bizning cherdaklarga til tegizmasak.

– Voy tavba, xafa bo'ldingiz-a. Biroq, o'zingiz siz bilan do'stona gaplashishga ruxsat berdingiz-ku. Kechirasiz, men hali hech nima bilan sizga do'st bo'lishga arziydigan ish qilmadim. Vino ancha tuzuk ekan. Totib ko'ring.

U menga o'z shishasidan yarim stakan vino quyib berdi.

– Mana ko'rdingizmi, azizim Ivan Petrovich, men o'zim ham yaxshi tushunaman: xiralik bilan do'st bo'lishga urinish yaramas narsa. Axir, biz o'ylaganingizdek, sizlar bilan qo'pol va surbet muomala qilmaymiz-ku. Albatta, men ham juda yaxshi tushunaman, siz bu yerda, menga rag'batingiz borligidan emas, shunchaki men siz bilan gaplashishiga va'da berganim uchun o'tiribsiz. Shunday emasmi?

U kulib qo'ydi.

– Siz ma'lum bir kimsaning manfaatlarini himoya qilganingiz tufayli, mening fikrimni eshitmoqni istaysiz. Shundaymi? – qo'shib qo'ydi u zaharxanda kulgi bilan.

– Yanglishmadingiz, – so'zini bo'ldim men chidamsizlik bilan (ko'rib turibman u biror kishini qittak bo'lsa ham o'z hukmi ostida ko'rsa, darrov unga shuni sezdirib qo'yardi. Men esa hozir uning ixtiyoridaman, uning aytmoqchi bo'lgan gaplarini eshitmasdan ketolmayman, buni u juda yaxshi bilardi. Uning turqi birdan o'zgardi va u borgan sari surbetlarcha betakalluf va pichingchi bo'la boshladi). – Siz yanglishmadingiz, knyaz, men xuddi shuning uchun keldim, yo'qsa, to'g'risi, men bu yerda, bemahal vaqtda o'tirmagan ham bo'lar edim.

Men unga: yo'qsa siz bilan o'lsam ham birga qolmas edim, deyishni istardim-u, ammo tilim bormadi – boshqacha qilib aytdim, buning sababi qo'rqish emas, o'sha mening badbaxt bo'shangligim va nazokatliligim edi. Rostdan ham, qanday qilib birovning ko'ziga qarab turib, garchi o'sha odam shunga loyiq va xuddi o'sha odamga qo'pol muomala qilishni istagan taqdiringda ham, qanday qilib dag'allik qilib bo'ladi? Nazarimda, knyaz buni mening ko'zlarimdan sezdi, shekilli, xuddi mening yuraksizligimdan huzur qilganday, o'z qarashlari bilan meni: «Ha, ha, jigar, botinmading-ku, tiling bormadi-ku?» – deb gijgijlatgandek og'zimdagi jumlam tamom bo'lguncha menga masxaraomuz qarab o'tirar edi. Chamamda, xuddi shunday edi, chunki u men gapimni tamom qilishim bilan xaxolab kulib yubordi va allaqanday iltifot va marhamat bilan mening tizzamga qo'yib qo'ydi.

«Kulgimni qistatyapsan uka», – degan ifodani o'qidim men uning boqishida. «Shoshmay tur hali!» – deb o'yladim men ichimda.

– Bugun juda ham vaqtim chog'! – deb qichqirdi u, – ammo nima uchunligini bilmayman, ha, shunday do'stim! Ha! Men xuddi ana o'sha kimsa haqida gaplashmoqchi edim. Axir, uzil-kesil aytish qo'yish, biror xulosaga kelish kerak-ku. Shu bu gal meni batamom tushunishingizga imonim komil. Hali men siz bilan anovi pullar va anovi kallavaram ota, oltmish yashar go'dak haqida gap ochgan edim. Xo'sh! Endi eslashning ham hojati yo'q. Men shunchaki, aytdim-qo'ydim-da! Ha, ha, ha, axir, siz adabiyotchi, axir, fahmiga yetishingiz kerak edi-da...

Men hayron bo'lib, unga qarab o'tirardim. Hali-ku mast bo'lganicha yo'q...

– Endi anovi qizga kelsak, rost, men uni hurmat qilaman, hatto, sevaman ham, ishoning. Biroz injiqroq, ammo, axir: «Gul tikansiz bo'lmas», – derdilar, ellik yil burun. Juda to'g'ri gap: tikan sanchiladi, lekin, mana shunisi jozibador-da! Mening Alekseyim ahmoq bo'lgani bilan, qisman uni kechirdim, yaxshi didi uchun kechirdim. Qisqasi, o'shanaqa qizchalar menga yoqadi va menda (u labini ma'nodor qimtib qo'ydi), hatto niyatim ham boshqacha... Hay, mayli, bu haqda keyin gaplashamiz...

– Knyaz, gapimga quloq soling! – baqirdim men, – men, men sizning bu qadar tez o'zgarganingizga tushunolmayman, ammo... Gapni boshqa yoqqa buring, o'tinaman!..

– Yana qizishyapsiz! Xo'p, yaxshi... Gap mavzusini o'zgartiraman. Faqat shuni sizdan so'ramoqchiman, qadrli do'stim: siz uni qattiq hurmat qilasizmi?

– Turgan gap, – javob berdim dag'al betoqatlik bilan.

– Xo'sh, sevasiz hammi? – davom etdi u tishlarining oqini ko'rsatib va ko'zlarini suzib.

– Haddingizdan oshib ketyapsiz! – baqirdim men.

– Ha, mayli, oshmayman, oshmayman! Tinchlaning! Bugun kayfim juda ham yaxshi. Ko'p vaqtlardan beri vaqtim shunday chog' bo'lmagan edi. Shampan vinosidan ichib yubormaymizmi? Qalay o'ylaysiz, shoir?

– Men ichmayman. Ichishni xohlamayman ham!

– Qo‘ying-e, bu gapingizni! Siz bugun, albatta, menga ulfat bo‘lishingiz kerak. Men o‘zimni juda ajoyib his etyapman. Modomiki, men ko‘ngilchan, rahmdil bo‘lganim uchun, yolg‘iz o‘zim xursand bo‘lishni istamayman. Kim biladi, biz, balki, birbirimizga sensirashgacha ichisharmiz, ha, ha, ha! Yo‘q, mening yosh do‘stim, siz hali meni bilmaysiz! Men aminmanki, siz meni sevib ham qolasiz! Siz bugun men bilan g‘amimga ham, shodligimga ham sherik, garchi asti yig‘lamasligimga ishonsam hamki, ko‘z yoshi to‘kkanimda hamdard bo‘lishingizni istayman. Shundog‘ emasmi, Ivan Petrovich! Axir, siz faqat shuni tushunib olingki, agar mening xohlaganlarim ro‘yobga chiqmasa, u holda mening barcha ilhomlarim yo‘qoladi, havoga uchadi va siz hech narsa eshita olmay qolasiz; axir, siz bu yerda faqatgina biror narsa eshitish uchun o‘tiribsiz-ku. To‘g‘ri emasmi? – qo‘shib qo‘ydi u yana menga hayosizlik bilan ko‘z qisib qo‘yib, – xo‘sh, qani, birini tanlang.

Do‘qi joyida edi. Men rozi bo‘ldim. «Meni mast qilib qo‘ymoqchi emasmikin?» – deb o‘yladim. Darvoqe, knyaz haqidagi bir mish-mish gapni eslatib qo‘yish kezi keldi. Uni eshitganimga ham ancha bo‘ldi. U o‘z doirasi ichida doimo tavozeli va odobli bo‘lib yurgani bilan ba‘zan kechalari ichib yuradi, ichganda ham o‘taketgan piyanistalardan battarroq ichib, pinhona buzuqchilik qiladi, hech kimga bildirmay shaloq yuradi, deb gapirar edilar... Men u haqda juda qabih gaplar eshitganman. Alyosha ham otasini har zamonda ichib mast bo‘lishini biladi va buni hammadan, ayniqsa, Natashadan yashirishga urinadi, derdilar. Bir kun og‘zidan ilinib qoldi-yu, biroq gapni boshqa yoqqa burib yubordi va mening savollarimga javob bermadi. Lekin men uning o‘zidan eshitgan emasman, ammo shuni aytayki, avvaliga ishonmagan edim, endi nima bo‘lishini kutardim.

Vino keltirdilar, knyaz o‘ziga va menga ikki qadahga quydi.

– Dilrabo, jonon qiz, meni koyisa ham, baribir dilbar qiz! – davom etdi u, vinoni zavq bilan maza qilib ho‘plarkan, – ammo bu dilbar qizlar xuddi mana shu yerda, mana shunaqa daqiqalarda

jozibador bo'lib ketadilar... U esa meni uyaltirdim deb o'yladi, esingizda bormi o'sha oqshom, titig'ini chiqarib yubordim, deb o'yladi! Ha, ha, ha! Yuzlarining loladek qizarib ketgani unga qanday yarashadi? Ayollarning mijozini bilasizmi? Ba'zan bexosdan yuziga yugurgan qizillik rangsiz yuzlarga judayam yarashadi, shuni sezganmisiz? Ey Xudo! Tag'in jahlingiz chiqayotganga o'xshaydi?

– Ha, jahlim chiqyapti! – baqirdim men endi o'zimni tuta olmay, – endi Natalya Nikolaevna xususida gapirishingizni istamayman... Ya'ni mana bu ohangda gapirishingizni... men... men bunga yo'l qo'ymayman!

– Eh-e! Buyurgaylar, gap mavzusini o'zgartiray, ko'nglingiz tinchisin. Men gapga kiraveraman, xamirdek yumshoq odamman. Mayli, siz to'g'ringizda gaplashamiz. Men sizni yaxshi ko'raman, Ivan Petrovich. O, sizga do'st, hamdard ekanligimni bilsangiz edi.

– Knyaz, ish ustida gaplashsak, yaxshiroq bo'lardi, – dedim men gapini bo'lib.

– Ya'ni, masalan, o'z ishimiz haqida demoqchisiz-da. Og'zingizdan chiqmay turib tushunaman, mon ami!! Ammo shu topda sizdan so'z boshlasak, siz mening gapimni bo'lmay tursangiz, ayni ishga taalluqli gap kelib chiqishiga shubha qilmaysiz. Shunday qilib, davom etaman: sizga shuni aytmochimanki, mening bebaho do'stim Ivan Petrovich, sizdaqa hayot kechirish, o'z-o'zini xarob etish demakdir. Har qalay, shu nozik tomonlarga o'tsam, xafa bo'lmaysiz; do'stligimdan gapiraman. Siz qashshoqsiz, siz o'z antrepreperingizdan foyda olasiz, qarz-qurzlaringizni to'laysiz, qolganiga yarim yil yolg'iz choy-non bilan qanoatlanasiz va romaningiz qachon antreprenyor jurnalida bosilishini kutib, o'z cherdagingizda titrab-qaqshab kun o'tkazasiz. Shunday-ku, a?

– Mayli, shunday bo'lsin, ammo, har holda, bu...

– O'g'irlashdan, laganbardorlikdan, poraxo'rlikdan ig'vo va hokazo va hokazolardan yaxshiroq demoqchisiz. Bilaman, bilaman nima demoqchi ekaningizni! Bular allaqachon kitoblarda bosilgan.

– Modomiki, shunday ekan, mening ishim haqida gapirib o'tirishingizning keragi yo'q. Nahotki, men sizni nazokatli bo'lishga o'rgatishim kerak-a, knyaz?

– O, albatta, o'rgatadigan siz emas! Faqat nima ham qilaylikki, biz xuddi o'sha nazokat torini chertyapmiz. Axir, busiz iloji yo'q-ku. Ha, mayli, yaxshisi, cherdaklarni o'z holiga qo'yaylik. Mening o'zimni ham, ma'lum bir hollarni mustasno qilganda, ularga unchalik hushim yo'q (u juda xunuk xaxolab kuldi). Biroq meni shu narsa hayratga soladi: ikkinchi shaxs rolini o'ynashning sizga nima zaruri tushdi? Albatta, hatto yozuvchilaringizdan bittasi, qayerdadir: agar odam hayotda ikkinchi shaxs roli bilan chegaralanib qola bilsa, bu odamning eng ulug' mardligi emasmi, degan gapi esimda bor... Shunday edi chog'imda! Shu to'g'rida tag'in qayerdadir eshitganman, axir, Alyosha sizning qaylig'ingizni tortib oldi, xabarim bor, siz esa allaqanday Shiller singari jonbozlik ko'rsatib, shularga tag'in mulozamat qilasiz, ularning yugurdagi ham bo'lib, qolibsiz... Meni afv etasiz, azizim, ammo, axir, bu oliyjanob tuyg'ularni jirkanch tarzda o'yin qilish-ku... Qanaqa qilib shular ko'nglingizga urmadi-ya! Hatto uyat-nomus. Men sizning o'rningizda bo'lsam, alamimga chidolmay o'lib ketardim, eng muhimi uyat va nomus!

– Knyaz! Siz meni ataylab bu yerga haqorat qilish uchun olib kelganga o'xshaysiz! – baqirdim men g'azabdan tutaqib.

– O, yo'q, yo'q, do'stim, men shu daqiqada sizning baxt-saodatingizni tilaydigan ishbilarmon odamman. Xullas kalom, hamma ishlarni joyiga tushirmoqchiman. Ammo vaqtincha hamma ishni ham qo'yib turamiz, siz mening so'zlarimni oxirigacha eshiting, hech bo'lmasa, bir-ikki daqiqa qizishmay o'tiring. Xo'sh, agarda siz uylansangiz, nima bo'ladi? Shu to'g'rida nima deysiz? Ko'rdingizmi, men, axir, endi butunlay boshqa xususlarda gapiryapman, nega muncha menga ajablanib qaraysiz?

– Gapingizni tamom qilishingizni kutib turibman, – dedim men rostdan ham hayron bo'lib unga tikilganimcha.

– Gapiradigan gap ham qolmadi, men faqat xuddi shuni-gina: agar sizning chindan baxtli bo'lishingizni istagan do'st-

laringizdan birortasi sizga yoshgina, chiroylikkina, ammo unchamunchani boshidan kechirgan qizni (men majoziy ma'noda gapiryapman), ya'ni, masalan, o'zingiz tushunasiz, Natalya Nikolaevnaga o'xshash qizni ol desa, nima deb javob berishingizni bilmoqchi edim, albatta, yaxshigina mukofot bilan-da. (Bilib qo'ying, men butunlay boshqa bir odam to'g'risida gapiryapman, gap bizning ishimiz ustida ketayotgani yo'q.) Xo'sh, nima degan bo'lardingiz?

– Siz... siz aqldan ozibsiz, degan bo'lardim.

– Ha, ha, ha! Hoy, meni urmoqchi ham bo'lyapsiz, shekilli?

Men rostdan ham uning ustiga tashlanishga tayyor edim. Endi o'zimni ushlay olmay qolgandim. U ko'zimga gazandaga, katta o'rgimchakka o'xshab ko'rindi, uni yanchib tashlagim kelib ketdi. U meni masxara qilib kulayotganidan zavqlanardi, u meni tamoman o'z ixtiyoridagi odam deb hisoblar, mushuk sichqon bilan o'ynashgandek men bilan o'ypashar edi. Nazarimda, (men buni tushunardim ham) u mening oldimda yuzidagi niqobini sidirib tashlab, o'zining pastkashligi, yuzsizligi, hayosizligidan negadir zavqlanar, lazzatlanardi. U mening taajjublanishimni, mening dahshatga tushishimni ko'rib huzur qilishni istardi. U ich-ichidan mendan nafratlanar va mendan kulardi.

Boshidanoq bular hammasi qasddan qilinayotganligini va biror narsaga shama ekanligini yuragim sezib turgan edi, ammo men shunday ahvolda edimki, nima bo'lmasin, uning gaplarini oxirigacha eshitish kerak edi. Bular ham Natashaning manfaatiga doir edi, shuning uchun hamma narsaga tayyor bo'lishim va hamma narsaga chidab turishim kerak edi, chunki shu daqiqada hamma ish hal bo'lishi mumkin edi. Ammo qanday qilib Natashaning sha'niga aytilayotgan mana bu odobsiz, qabih so'zlarga bardosh berish mumkin, bularga qanday qilib sovuqqonlik bilan qarash mumkin? Buning ustiga uning o'zi, men uning so'zlariga quloq solishga toqatim yo'qligini yaxshi tushunardi, bu esa xo'rligimni keltirar edi. «Darvoqe, axir, uning o'zi menga muhtoj-ku», – deb o'yladim, shuning uchun unga qo'pol va tahqiro-muz javob bera boshladim. U buni tushundn.

– Menga qarang, birodar, – boshladi u menga jiddiy qarab, – bu ahvolda gapni davom ettirish mumkin emas, shuning uchun, yaxshisi, kelishib olaylik. Ko'ryapsizmi, men sizga ba'zi bir narsalarni aytish niyatida edim, siz bo'lsangiz, marhamat qilib, men nima demay, eshitishga rozi bo'lishingiz kerak. Men og'zinga siqqancha, tilagan narsamni gapirmoqchiman, rostini aytganda shunday bo'lishi ham kerak. Xo'sh, birodar, nima qilaylik, sabr qilib eshitasizmn?

U o'zining zaharxanda boqishlari bilan xuddi o'zi ataylab menda qattiq norozilik tug'dirishga harakat qilayotgandek ko'rinsa hamki, men tishimni tishimga qo'yib, indamay o'tiraverdim. Ammo u ketmaslikka rozi bo'lganimni tushundi va davom etdi:

– Mendan xafa bo'lmang, do'stim. Siz bir narsadan xafa bo'ldingiz-a? Bitta nozanin uchun, to'g'ri emasmi? Axir, aslini surishtirganda mendan boshqacha gap kutmagandingiz, siz bilan qaysi tarzda gaplashmay: nazokat va odob bilanmi yoki hozirgi gapirgandekmi, baribir, ma'nisi bir xil bo'lardi. Siz mendan nafratlanasiz, shunday emasmi? Ko'ryapsizmi, menga qanchadan qancha muloyim soddalik, rostgo'ylik, bu bonhmia¹ bor. Men sizning oldingizda hammasiga va hatto o'zimning boladek inijliklarimga ham iqror bo'laman. Ha, mon cher², ha, sizning tomoningizdan ham ko'proq bonhmia bo'lsa biz kelishamiz, gapni bir joyga qo'yamiz, va nihoyat, bir-birimizning gapimizga batamom tushunamiz. Mendan bo'lsa ajablanmang: azbaroyi Xudo, mana bu soddaliklar, Alyoshaning ko'ngli bo'shligi, mana bu Shillerbozliklar, Natasha bilan bo'lgan mash'um aloqasi (lekin dilbargina qiz), mana bu mashmashalar, nihoyat, mening ko'nglimga shunday urdiki, men sizga aytsam, fursati kelib qolganda aftimni bujmaytirib qo'ya qolgim keladi. Fursat o'zidan-o'zi kelib qoldi. Shu bilan birga men sizning oldingizda yuragimni bo'shatmoqchi edim ham. Ha, ha, ha!

– Knyaz, siz meni hayron qoldiryapsiz, men sizni taniyolmayapman. Siz masxarabozlikka o'tib olyapsiz, mana bu kutil-

¹ Bonhmia (fransuzcha) – oqko'ngillik.

² Mon cher (fransuzcha) – azizim.

magan rostgo'ylik...

– Ha, ha, ha! Aytgandek, bir hisobda gapingiz to'g'ri! Juda ajoyib bir o'xshatish! Ha, ha, ha. Men aysh-ishrat qilaman, do'stim, ayshg-ishrat! Men shod va mamnunman, siz esa, mening shoirim, mumkin qadar iltifot ko'rsatmog'ingiz kerak. Ammo keling, yaxshisi, ichaylik, – dedi u o'zidan g'oyat mamnun bo'lgani holda qadahga vino quya turib. – Mana, do'stim, bitta hov anovi bema'ni oqshom – esingizda bormi – Natasha-nikidagi oqshom meni adoyi tamom qildi. Rost, uning o'zi ajoyib, jozibador edi, ammo men u yerdan g'azab otiga minib chiqdim, hech qachon buni-esimdan chiqarmoqchi emasman. Esimdan chiqarib ham bo'lmaydi, yashirib ham. Albatta, bizga navbat kelib qolar va u hatto yaqinlashib ham kelyapti, endi biz buni shu holda qo'ymaymiz. Darvoqe, men sizga shuni aytib qo'ymoqchi edim, mening shunday fe'lim bor, siz uni hali bilmasdingiz, bu mana bu bemaza, hech narsaga arzimaydigan soddaliklar, hissiyotga berilishdan nafratlanish xislatidir. Men uchun eng shavqli lazzatlardan biri, hamma vaqt avval boshda mug'ambirlik qilib, o'zimni shunday sodda ko'rsatish, shu maqomga tushib olish, qandaydir bir abadiy yosh Shillerni silab-siypab, ko'nglini ko'tarib, undan keyin uning oldida birdan niqobni olib tashlash va yashnab turgan yuzni unga burishtirib ko'rsatishdir, buningdek sovg'ani aslo kutmagan bir daqiqada unga tilni ko'rsatib, uni dovdiratib qo'yishdir. Xo'sh? Siz buni tushunmaysiz, bu sizga qabih, bema'ni pastkashlik bo'lib ko'rinadigandir, balki, shundaymi?

– Bo'lmasa-chi!

– Siz ochiq gapiradigan odamsiz. Xo'sh, agar menim o'zimni azobga solayotgan bo'lsalar nima qilay! Men ahmoq, sir yashirolmayman, nima ham qilardim, fe'lim shu. Ammo hayotimdan, bir xislatlarimdan gapirib bergim kelyapti. Siz meni yaxshiroq tushunasiz, bu juda qiziqarli narsa. Ha, ehtimol, men bugun, haqiqatan ham, masxarabozga o'xsharman; axir, masxaraboz ochiq gapiradigan bo'ladi, to'g'ri emasmi?

– Menga qarang, knyaz endi kech bo'ldi, to'g'risi...

– Nima? Xudoyo tavba, buncha sabrsizlik qilasiz! Qayoq-

qa ham shoshilasiz? O'tiramiz, do'stona, samimiy otamlashamiz, yaxshi og'aynilardek qadahni to'lg'izib quyib dilkashlashamiz. Siz meni mast deb o'ylayapsizmi? Hechqisi yo'q, qaytaga shu yaxshi. Ha, ha, ha! To'g'risi! Bu do'stona ulfatchilik esdan chiqmaydigan narsa bo'ladi, zavq bilan uni esga olinadi. Insofingiz yo'q, Ivan Petrovich, sizda ko'ngilchanlik, hassoslik yo'q. Axir, menga o'xshash og'ayningiz uchun bir soat, nima degan so'z? Uning ustiga shuni o'zi ham ishga taalluqli... Xo'sh, qanday qilib shuni tushunib bo'lmaydi? Tag'in adabiyotchi emishsiz: siz, axir, bu hodisa uchun shukurlar qilishingiz kerak. Axir, siz mendan obraz yasashingiz mumkin. Ha, ha, ha! Yo, Ollo, qanchalik bugun ochilib gapiryapman-a!

U mast bo'ldi, shekilli. Yuzi o'zgardi, allaqanday g'azabli tusga kirdi. Chog'imda u zahrini sochmoqni, ignasini sanchmoqni, masxaralab kulmoqni istardi. «Bir hisobda mast bo'lgani ham yaxshi, – deb o'yladim men, – mast odam hamma vaqt laqillab gapirib qo'yadi». Ammo uning aqli joyida edi.

– Do'stim, – deb boshladi u, chamasi, o'z-o'zidan zavqlanib, – men hozir sizning oldingizda bir narsaga iqror bo'ldim, balki, o'rinli ham emasdir, ya'ni menda ba'zan ma'lum bir holatlarda kimgadir tilimni chiqarib ko'rsatish istagi tug'ilishini aytdim. Bu soddaligim va ochiqligim uchun siz meni masxarabozga o'xshatdingiz, bu mening kulgimni qistatdi. Ammo menga qo'pol muomala qildingiz, oddiy bir dehqondek adabsizlik qilyapsiz, so'z ohangini birdan o'zgartirdingiz deb meni ta'na qilsangiz va bunga hayron bo'lsangiz, insofsizlik qilgan bo'lasiz. Birinchidan, istagim shu; ikkinchidan, men o'z uyimda emas, siz bilan birgaman... ya'ni qalin oshnalardek biz hozir kayf-safo qilyapmiz demoqchiman; uchinchidan, men injiqlik qilishni o'lgudek yaxshi ko'raman. Bilasizmi, men bir vaqtlar bu injiqligim tufayli hatto metafizik¹ ham, filantrop² ham bo'lganman va oz

¹ **Metafizika** (yunoncha: «Meta ta physika» – «Fizikadan keyin» (Aristotelning falsafiy asarlari nomidan)) – dialektikaga qarama-qarshi o'laroq, tabiat va jamiyat hodisalarini rivojlanishda va bir-biriga bog'liq holda olib qaramasdan, bir-biridan uzilgan holda, turg'un va o'zgarmas holda olib tekshiradigan hodisalarning ichki qarama-qarshiliklarini inkor etuvchi bilim metodi.

² **Filantropiya** (yunoncha) – yordamga muhtoj insonlarga yordam beruvchi shaxslar haqidagi falsafiy ta'limot. **Filantrop** – xayr-ehson qilish bilan shug'ullanadigan shaxs.

bo'lmasa, xuddi siznikiga o'xshash g'oyalarga berilib ketganman. Ammo bular allaqachonlar o'tib ketgan, bular yoshligimning oltin davrlarida edi. Esimda bor: hali men o'shanda o'z qishlog'imga insonparvarlik ruhi bilan keldim va o'lgudek zerikdim; o'shanda men bilan qanaqa hodisa yuz berganini gapirsam ishonasizmi? Azbaroyi zerikkanimdan men yaxshi-yaxshi qizlar bilan tanisha boshladim... Ey, yuzingizni tirishtirmang? O, mening yosh do'stim, axir, endi biz siz bilan do'stona ulfatlashaymiz-ku. Qachon aysh-ishrat surib, qachon ochilib gaplashamiz, axir! Axir, men rus tabiatli odamman, chinakam rus mijozli odamman, vatanparvar, ochilib gapirishni sevaman, buning ustiga g'animatni qo'ldan boy bermay hayotdan lazzatlanish kerak. Uladigan dunyo! Mana shunday qilib xotinlarning orqasidan qolmay yurdim. Esimda bor: bitta cho'pon ayolning eri bor edi. Chiroyli, yosh dehqon edi. Men uni qattiq jazoladim va soldatlikka yubormoqchi bo'ldim-u, (bir vaqtgi sho'xliklar, shoirim!) lekin soldatlikka bermadim. U mening kasalxonamda o'ldi... Qishloqda mening o'n ikki koykalik¹ kasalxonam bo'lgan, yaxshi jihozlangan, ozoda, poli parketdan² qilingan. Men sizga aytsam, uni allaqachon bekitib qo'yganman, o'sha vaqtlarda esa u bilan faxrlanardim, filantrop edim, dehqonni esa xotini uchun urib o'ldirayozgan edim. Ey, nega tag'in yuzingizni tirishtiraysiz? Qulog'ingizga yoqmayaptimi? Oliyjanoblik tuyg'ularingizni tahqirleyaptimi? Tinchlaning, tinchlaning! Bular hammasi o'tib ketgan. Men bularni romantik bo'lganimda, odamzodga homiy bo'lmoqchi, filantropik jamiyat qurmoqchi bo'lganimda ko'rganman... O'shanda shunaqa yo'lga tushib qolgan edim. Shunda kaltaklaganman ham. Endi kaltaklab o'ldirmayman, endi aft-basharangni burushtirib qo'ya qolish kerak... Endi biz hammamiz shunday qilamiz, shunaqa vaqt keldi... Ammo hammadan ko'p tentak Ixmenev kulgimni qistatadi. Men aminmanki, o'sha dehqon voqeasini biladi... Nima bo'ldi? U o'zining oqko'ngilligidan (bu yurak shinnidan bo'lsa kerak),

¹ **Koyka** (*gollandcha*: kemadagi yotoq-joy, hujra, katalak) – bir kishilik karavot, joy (kasalxona, yotoqxonada).

² **Parket** (*fransuzcha*: parquet) – turar-joy va jamoat binolari pollariga qoplash uchun mo'ljallangan yupqa taxtacha yoki shunday taxtachalardan qilingan pol.

o'sha vaqtlar meni yaxshi ko'rib qolganidan, o'zi o'ziga meni maqtab, hech narsaga ishonmaslikka qaror qildi, ishonmadi ham, ya'ni dalillarga ishonmadi va o'n ikki yil o'zi meni himoya qilib keldi, to boshiga tayoq tekkuncha himoya qildi, ha, ha, ha! Hadda, bular hammasi behuda gaplar! Ichamiz, yosh do'stim. Menga qarang, xotinlarga hushingiz bormi?

Men javob bermadim. Men faqat uning so'zini tinglardim, u endi ikkinchi shishani boshladi.

– Men esa kechki ovqat ustida ular haqida gapirishni yaxshi ko'raman. Ovqatdan keyin sizni bitta made moiselle Philederta bilan tanishtirib qo'ysam, a, nima deysiz? Ey, sizga nima bo'ldi? Menga qaragingiz ham kelmaydi-ya... hm!

U xomush bo'lib qoldi. Keyin birdan boshini ko'tardi-yu, menga allaqanday ma'nodor qarab qo'yib davom etdi.

– Mana, shoirim, men sizga, tabiatning, chamamda, hali sizga tamomila ma'lum bo'lmagan bir sirini ochmoqchiman. Men aminmanki, siz shu lahzada meni gunohga botgan, balki, hattoki, muttaham, razil, fisq-fujurning uchiga chiqqan odam deb o'ylarsiz. Ammo men sizga shuni aytib qo'yay! Agar mumkin bo'lsa edi (ammo odamzodning tabiati bunga hech yo'l qo'ymaydi), agar har qaysimiz ichimizdagi butun sirlarimizni bir-bir bayon etsak, birovga aytishga ham qo'rqadigan va o'la qolsak ham odamlarga bildirmaydigan, o'zimizning yaqin do'stlarimizga aytishdan ham qo'rqadigan va hattoki, ba'zan o'z-o'zimizga iqrar bo'lishdan ham qo'rqadigan sirimizni bir-bir yozsak, u holda dunyoni shunday badbo'y hid bosib ketardiki, hammamiz bo'g'ilib o'lardik. Mana, shuning uchun, qavs ichida, bizning oqsuyaklar muhiti va odatlari naqadar soz deymiz. Ularda chuqur bir fikr, axloqiy deb ayto olmayman, albatta, ammo har ehtiyotning oldini oladigan, qulaylik yaratadigan fikr bor, aslini surishtirilsa, axloq qulaylik va farog'atning o'zidir, ya'ni yolg'iz farog'at uchun o'ylab chiqarilgandir. Ammo nazokat haqida keyin gaplashamiz, hozir gapimdan adashib ketyapman, keyin esimga solib qo'yarsiz. So'zimni shu bilan tugataman. Siz meni fosiq, buzuqi, axloqsiz deb ayblayapsiz, men esa shuning uchun aybdormanki, boshqalarga qaraganda ochiq gapiraman, vassa-

lom; boya aytib o'tganimdek boshqalar hatto o'zlaridan ham yashiradigan sirlarni men bekitmayman... Men yaramas ish qilyapman, ammo men endi shuni istayman. Biroq, siz tashvish tortmang, – qo'shib qo'ydi u masxaraomuz kulgi bilan, – men «aybdorman» dedim, ammo bu, axir, sizdan kechirim so'rash degan so'z emas. Shuni bilib qo'yingki, men sizdan uyalmayman ham, o'zimni oqlash niyatida, sizning ham hech qanaqa gunohingiz bormi, deb so'ramayman ham... Men odob va oliyjanoblikni qo'ldan bermayman. Umuman, men hamma vaqt oliyjanob ish qilaman...

– Siz shunchaki aljirayapsiz, – dedim men, jirkanch bilan unga qarab.

– Aljirayapsiz emish, ha, ha, ha! Aytaymi, hozir nimani o'ylayotganingizni? Siz, nega meni bu yerga olib keldi-yu, hech narsadan hech narsa yo'q, oldimda eshilib ketdi, deb o'ylayapsiz. Shundaymi, yo'qmi?

– Shunday.

– Ha, siz buni hali keyin bilasiz.

– Qisqasi, ikki shishani urib oldingiz-da, kayfingiz oshib qoldi.

– Ya'ni mastsiz, deng. Bunday ham bo'lishi mumkin. «Kayfingiz oshib qoldi!» emish, ya'ni mast bo'ldingiz degandan ko'ra nozikroq qilib aytdingiz-da! O, nazokat bilan to'lib-toshgan inson! Biroq... biz yana urisha boshladik, shekilli-a, endi qiziq narsalardan hangamalashib kelayotgan edik. Ha, mening shoirim, dunyoda eng yaxshi va shirin narsa bor bo'lsa, u ham ayollardir.

– Bilasizmi knyaz, nima sababdan o'z sirlaringiz va ishqiy sarguzashtlaringizdan voqif qilish uchun kelib-kelib meni tanladingiz, buning boisiga, har qalay, tushunolmayman.

– Hm... ha, axir, men sizga aytdim-ku, keyin bilasiz deb. Xavotir olmang, bir hisobda hech sababsiz sizni tanlagan bo'lsam nima bo'libdi; siz shoirsiz, meni tushunasiz, hali aytib edim-ku. Mana bu to'satdan niqobni sidirib tashlashning, birovning oldida uyalmay-netmay, siringni aytishdek hayosizlikning o'ziga yarasha gashti bor. Men sizga bitta latifa aytib beraman.

Parijda bitta jinni chinovnik bor edi. Keyin jinniligi aniqlangandan so'ng uni jinnixonaga joyladilar. Shunday qilib, u endi jinni bo'lib kelayotgan davrda, u o'zini xursand qilish uchun shunday qiliqni o'ylab topibdi: u o'z uyida qip-yalang'och bo'lib yechinarkan, faqat oyoq kiyimidagina qolar ekan, ustiga tovonigacha tushadigan keng plashini tashlarkan-u, unga o'ralganicha kekkayib olib sipolik bilan ko'chaga chiqarkan. Bundoq yonidan qaraganlar, hamma qatori keng plashga o'ralib olib sayr qilib yurgan odam-da, deb o'ylarkan. Ammo birorta yo'lovchini, ovloqda uchratib qoldimi, bo'ldi, indamasdan g'oyat jiddiy qiyofo bilan uning ro'parasida birdan to'xtarkan, plashini yechib yuborib, hamma yog'ini ko'rsatarkan... Bu bir daqiqagina davom etarkan, keyin u tag'in plashiga o'ralib olib, g'iq etmasdan, qittak ham yuz ifodasini o'zgartirmasdan, hayratdan hang-mang bo'lib qolgan tomoshabin yonidan Gamletdagi soya¹ kabi gerdayib o'tib ketaverarkan. U bu qiliqni erkaklar, ayollar, bolalar oldida ham qilaverar ekan, u shundan lazzatlanar ekan. Qandaydir bir Shillerni to'satdan dovdiratib va hech kutmaganda unga tilingni ko'rsatib o'sha rohatning savobini topsa bo'ladi. «Dovdiratib» ajoyib so'zmi-a? Men bu so'zni qayerdadir, o'zlaringizning zamonaviy bir asaringizdan o'qib bilganman.

– U jinni ekan, siz-chi...

– Esingiz joyida demoqchimisiz?

– Ha.

Knyaz xaxolab yubordi.

– Siz insof bilan gapirar ekansiz, azizim, – qo'shib qo'ydi u yuzida nihoyatda razil bir ifoda bilan.

– Knyaz, – dedim men uning uyatsizligidan jonim halqumimga kelib, – siz bizni ko'rolmaysiz, shularning ichida meni ham. Endi barchasi uchun mendan o'ch olyapsiz. Sizdagi bu qiliqlaringiz hammasi izzat-nafsingizning bachkanaligidan. Siz yovuz, pastkash, yovuz odamsiz. Biz sizning jig'ingizga tegdik,

¹ Gamletdagi soya – **Faust Broken** – tabiatning sirli hodisasi – Broken tog'idagi ulkan soyalar Faustni ham qiziqtirgan. Aslida bu ma'itnot nemis adibi Gyotening (1782-1832) ning «Faust» va «Gamlet» asarlarida tasvirlangan. Asarda yozilishicha, 30-apreldan 1-mayga o'tar kechasi Bloksberg tog'ida har xil jodugarlar, arvoqlar bazm uyushtirishadi. Shularning sharpasi ulkan sova deb atalgan.

balki, hammadan ham anovi oqshomdagi gaplar uchun jahlingiz chiqyapti. Albatta, siz meni tahqirlash yo‘li bilan qasdingizni olmasligingiz mumkin emasdi. Biz bir-birimizga nisbatan nazokatli bo‘lishimiz zarur bo‘lsa hamki, siz o‘zingizni eng oddiy nazokat qoidalaridan xalos ettingiz. Siz oldimda yuzingizdagi qabih niqobni olib tashlab iflos basharangizni ko‘rsatish bilan mendan sira uyalmasligingizni bildirmoqchi bo‘ldingiz.

– Shularni nima uchun aytyapsiz? – so‘radi u qo‘rslik bilan menga o‘shshayib qarab. – O‘zingizning ziyrakligingizni ko‘rsatish uchunmi?

– Sizning muddaongizga tushunayotganimni ko‘rsatish va sizning oldingizda shuni izhor etish uchun.

– Quelle idee, mon cher¹, – davom etdi u birdan o‘zining avvalgi xushchaqchaqligi, ezmaligi, xushmuomalaligiga qaytib, – siz faqat gapimdan adashtirib yubordingiz. Buvans, mon ami²! Quyishga ruxsat eting. Men esa bitta ajoyib va favqulodda shoyon hayrat bir hodisani gapirib bermoqchi bo‘lib turgandim. Xullasini gapirib bera qolaman. Bir vaqtlar men bir xonim bilan tanish edim. O‘zi uncha ham yosh emas, yigirma yetti, yigirma sakkizlarga kirgan, o‘taketgan go‘zal juvon edi. Uning ko‘ksi, qomati, yurish-turishlarini ko‘rsangiz! Boqishlari qiyg‘ir qarashdek o‘tkir, ammo hamisha sovuq, jiddiy va sipo, o‘zini ulug‘vor tutardi. U o‘zining qahraton qishdek sovuqligi bilan nom chiqargan va yetishib bo‘lmaydigan shafqatsiz iffati bilan hammani cho‘chitardi. Xuddi shu shafqatsiz iffat bilan! O‘z doirasida bunga o‘xshash shafqatsiz hakam yo‘q edi. U faqat buzuqliknigina emas, boshqa ayollarda hatto qittakkina zaiflik topsa ham, qattiq qoralar edi. Jazolaganda ham shikoyatga hech o‘rin qoldirmas edi. O‘z doirasida obro‘si juda ham baland edi. Eng takabbur, eng zo‘r fazilatli kampirlar ham uni hurmat va hattoki uning oldida xushomadgo‘ylik qilishar edilar. Ularning barchasiga u o‘rta asr monastirlarining rohibasi³ kabi beparvo – shafqatsizlik bilan qarardi. Uning bir qarashi, bir gapi yosh juvonlarni titroqqa solar edi. Uning bitta tanbehi, bitta ta‘nasi bir ayolning obro‘sini yer

¹ Quelle idee, mon cher (*fransuzcha*) – bundan nima ma‘no chiqadi, azizim.

² Buvans, mon ami (*fransuzcha*) – ichamiz, do‘stim.

³ Rohiba – monax ayol.

bilan yakson qilib yubora olardi. Jamiyat ichida u o'zini shu darajadagi balandlikka qo'ygan edi, undan hatto erkaklar ham qo'rqishardi. Nihoyat, u allaqanaqa xayoliy mistitsizmga berilib ketdi, ammo bunda ham sokin va ulug'vorligini qo'ymadi... Xo'sh, nima bo'ldi deng? Buzuqlarning buzug'i shu xotin edi. Men esa uning ishonchiga sazovor bo'lish baxtiga noil bo'ldim. Xullas, men uning xufiya va sirli o'ynashi edim. Aloqamiz shu qadar mohirlik, shu qadar ustalik bilan xaspo'shlangan ediki, hatto uning uyidagilardan hech birida qittak bo'lsa ham shubha tug'ilmadi; faqat bitta chiroylikdan kelgan oqsoch ayol – frantsuz ayoli uning sirlaridan xabardor edi. Biroq bu oqsoch ayolga bemalol ishonilsa bo'laverardi. Uni o'zi bu ishga aralashgan edi. Qanday qilib deysizmi? Bu to'g'rida lom-mim demayman.

Mening jononim shu qadar shahvatga berilgan ediki, Markiz de-Sad¹, undan dars olsa bo'lardi. Ammo bu aysh-ishratning eng kuchli, eng o'tkir tomoni, uning sirliligi va behayolarcha aldanchiligi va grafinyaning jamoat ichida eng yuksak, eng oliy va buzilmas qonun deb targ'ib etgan hamma narsalardan maxfiy ravishda qah-qah urib kulishi va poymol etish mumkin bo'lmagan hamma narsani ongli ravishda poymol etishi edi. Tag'in bular barchasi shu qadar avjga chiqqan ediki, eng otashli tasavvurga ham sig'masdi. Ana o'sha aysh-ishratning eng yorqin xislati ham mana shundan iborat edi. Ha, bu inson qiyofasidagi iblisning o'zi bo'lib, yengib bo'lmaydigan darajada jozibador edi. Men hozir ham uni zavq-shavqsiz eslay olmayman. U ishrat eng avjiga chiqqan paytida birdan jazavasi tutgandek qah-qah urib kular, men esa nega qah-qah urayotganiga tushunardim va o'zim ham kula boshlardim... Hali-hali, garchi oradan shuncha yillar o'tib ketgan bo'lsa ham, esimga tushgan zahoti nafasim tiqilib ketadi. Bir yildan so'ng u o'rnimga boshqasini topdi. Basharti men unga yomonlik qilmoqchi bo'lsam ham qilolmasdim. Axir, kim menga ishonardi? Ajoyib xarakterli ayol edi-da. Xo'sh, siz nima deysiz, mening do'stginam?

¹ Donasen Alfons Fransua de Sad (1740 – 1814) – fransuz aristokrat, siyosatchi, yozuvchi va faylasuf. U mutlaq erkinlik g'oyasini targ'ib qiluvchi axloqiy, diniy yoki huquqiy qonunlarni rad qilgan. U asosan axloqsiz mavzudagi romanlar yozgan. Uning nomidan «Sadizm» – qiynoqqa solish, azob berish g'oyasi kelib chiqqan.

– Tfu, naqadar razillik! – javob berdim men jirkanch bilan uning so‘zlarini eshitib bo‘lib.

– Agar shundan boshqa javobni bersangiz, men sizni do‘stginam demasdim! Men shunday deyishingizni bilgan edim. Ha, ha, ha! Shoshmay turing? mon ami, hali yoshsiz, boshingizga tushganda bilasiz, hozir bo‘lsa sizga ham shirin kulcha kerak. Yo‘q. Shundan keyin sizni shoir deb bo‘lmaydi. Bu ayol hayotning nimaligini tushunardi va undan foydalanishni ham bilardi.

– Ha, axir, shu qadar vahshiylikning nima keragi bor edi?

– Qanaqa vahshiylik?

– Anavi ayol va u bilan birga siz qilgan vahshiyona ish.

– Ha, hali siz buni yovvoyilik deb atayapsizmi, bu demak siz hali yetovdagi odam ekansiz. Albatta, men mustaqillik butunlay aksincha bo‘lishi mumkinligiga iqroman, ammo... oddiyroq gaplashamiz, mon ami, – o‘zingiz xo‘p deng, axir, bular hammasi behuda gaplar-ku.

– Bo‘lmasa nima behuda emas?

– Behuda bo‘lmagan narsa – bu shaxs, mening o‘zim. Hamma narsa va butun dunyo men uchun barpo etilgan. Quloq soling oshnam, men dunyoda yaxshi yashash mumkinligiga ishonaman. Bu esa eng yaxshi e‘tiqod, chunki shu e‘tiqodsiz yomonroq yashash ham mumkin emas. Unda zahar ichishga to‘g‘ri kelar edi. Bitta ahmoq shunday ham qilgan emish. U shu qadar falsafaga berilib ketibdiki, oxirda hamma-hamma narsani va hattoki insonning me‘riy, tabiiy burchlarining qonuniyligini rad etibdi, va nihoyat, shu ahvolga kelibdiki, unda hech narsa qolmabdi, yakunda nol qolibdi, mana shunda u dunyoda eng yaxshi narsa tsianid kislotasi deb jar solibdi. Siz, bu Gamlet, bu dahshatli umidsizlik, xullas qandaydir yetti uxlab tushimizga ham kirmaydigan ulug‘ narsa dersiz. Ammo siz shoirsiz, men esa oddiy bir odamman va shuning uchun ishga eng oddiy, amaliy nuqtai nazardan qaramoq kerak, deyman. Men, masalan, o‘zimni allaqachonlar har qanaqa kishandan, hatto burchlardan ozod etganman. Biror ish menga uncha-muncha foyda keltirgan taqdir-dagina men o‘zimni burchli deb hisoblayman. Siz, albatta, hech narsaga bunday qaray olmaysiz, sizning oyog‘ingiz tushovli,

didingiz ham xasta. Siz g'oyalar izlaysiz, saxovatli bo'lishni istaysiz. Ammo do'stim, axir, men o'zim ham nimani buyursangiz, hammasini inobatga olmoqqa tayyorman, ammo na chora! Men barcha inson fazilatlari asosida g'oyat chuqur xudbinlik yotishini bilsam nima qilay! Ezgu ish qanchalik ezgu bo'lsa, shu yerda nafsoniyat kuchli bo'ladi. Men bitta qoidaga rioya qilaman: u ham bo'lsa «o'zing bo'l – o'zgani qo'y». Hayot – savdo-sotiq bitimi, pulni havoga sovurmang, ammo xizmat uchun to'laysiz, shu bilan siz yaqin odamingiz uchun o'z vazifangizni o'tagan bo'lasiz. Basharti juda ham bilgingiz kelsa, mana bu mening axloqim! Ammo shuni aytib qo'yayki, menimcha, yaqin odamingizga haq to'lagandan ko'ra, uni bekorga ishlatish yaxshiroq. Menda yuksak maqsad yo'q, bo'lishini istamayman ham. Hech qachon ularga muhtojlik ham sezgan emasman. Dunyoda g'oyasiz ham shu qadar shod, shu qadar soz yashash mumkin... va en somme¹, shunga xursandmanki, tsianid kislotasiz ham o'ta olaman. Men basharti fazilatliroq bo'lsam edi, anavi ahmoq faylasuf kabi kislotasiz ishim bitmagan bo'lardi (shubhasiz, nemis bo'lishi kerak). Yo'q! Olamda hali yaxshi narsalar juda ko'p. Men mavqe, amal, mehmonxonani, qimorga katta pul tikishni (qartani o'lardek yaxshi ko'raman, sevaman. Ammo hammadan muhimi xotinlar, ha, ha, ha! Har xil xotinlarni, yashirin gunohni, hech kim qilmagan g'alati fisq-fujurni yaxshi ko'raman... Ha, ha, ha! Yuzingizdan ko'rib turibman, endi menga nafrat bilan qarayapsiz!

– Rost aytdingiz, – javob berdim men.

– Faraz etamiz, siz haqlisiz, biroq, har holda, tsianid kislotadan ko'ra fisq-fujur yaxshiroq-ku, axir, noto'g'rimi?

– Yo'q, tsianid kislota yaxshiroq.

– Men sizdan «noto'g'rimi?» – deb ataylab so'radim, maqsadim sizning javobingizdan zavqlanmoq edi. Javobingizni men oldindan bilib turgandim. Yo'q do'stim, siz chinakam insonparvar bo'lsangiz, u holda hamma dono odamlarda mening dilimga o'xshashgan qabihroq did bo'lsin deb tilang, aks holda dono odamlar tez fursatda qiladigan ish topolmay qoladi, dunyo-

¹ En somme (fransuzcha) – umuman.

da faqat ahmoqlargina qoladi. Toza baxtli bo'lishadi-da, ular! Axir, hozir ham shunday bir maqol bor: maza, maza betamizniki. Bilasizmi nima, dunyoda yolg'iz ahmoqlar bilan yashashni va ularga qarab: foyda qilasan, deb turishning g'alati gashti bor-da. Siz meni bid'atlarga berilgan, ma'lum muhitda yashab, yuksak mavqega ega bo'lishga uringan odam deb o'ylamang, axir, men puch jamiyatda yashayotganimni ko'rib turibman-ku. Ammo hozircha uning qo'yni issiq va men unga haybarakallachilik qilaman, uni qattiq himoya qilaman, basharti qulay payt kelib qolsa, men uni birinchi bo'lib tark etaman. Sizlarning barcha yangi g'oyalaringsizdan xabarim bor, men ulardan hech qachon ziyon ko'rgan emasman, ziyon ko'radigan joyi ham yo'q. Hech qachon menda vijdon azobi bo'lgan emas. Agar menga yaxshi bo'lsa bas, hammasiga rozi bo'laveraman. Biz kabilar yuz minglab, hamma-miz rohatda yashaymiz. Olamda hamma halok bo'lishi mumkin, yolg'iz biz halok bo'lmaymiz. Biz dunyo turguncha turamiz. Bir vaqtlar kelib butun butun dunyo yer bilan yakson bo'lishi mumkin, ammo biz yuziga qalqib chiqamiz. Siz shunga e'tibor bering: bizga o'xshash odamlarning joni qattiq. Axir, bizning jonimiz sabil, o'lmas odamlarmiz-a, bu sizni hech qachon ajablantirganmi? Demak, tabiatning o'zi bizni himoya qiladi, he-he-he! Men shaksiz to'qsonga kirmoqchiman. Men o'limni sevmayman va undan qo'rqaman ham. Ey, kim biladi deysiz qaysi yo'sinda o'ladi kishi! Biroq, nega shu haqda gaplashayapmiz-a! Meni zahar ichib o'lgan faylasuf vasvasaga solib qo'ydi. Falsafasini jin ursin! Buvans, mon cher! Axir, biz jonon qizchalar haqida gap boshlagan edik-ku... Qayerga ketmoqchisiz?

– Men ketaman, siz ham ketsangiz bo'lardi.

– Qo'ysangiz-chi! Men sizning oldingizda qalbimni ochib tashladim, siz esa do'stlikning yorqin dalilini sezmadingiz ham. Ha-ha-ha! Sizda mehr-oqibat yo'qroq, shoirim. Ammo shosh-mang, men yana bir shisha ichmoqchiman.

– Uchinchisini-ya?

– Ha, uchinchisini, ezgulik haqida gaplashaylik, mening yosh shogirdim (mana shu shirin nom bilan atashga ruxsat eting, zora-mora mening nasihatlarim zoe ketmasa)... Shunday qilib,

mening shogirdim, ezgulik haqida men sizga hali ham aytib o'tdim: «Ezgu ish naqadar ezgu bo'lsa, unda nafsoniyat shuncha kuchli bo'ladi», – deb. Mana shu haqda men sizga bir ajoyib latifa aytib bermoqchiman: men bir vaqtlar bir qizni sevib qoldim. Sevganda ham deyarli chin ko'ngildan sevdim. U hatto men uchun ko'p ziyon-zahmatlar chekdi...

– Bu anavi siz shilib olgan qiz emasmi? – dedim men siltab, ortiq o'zimni bosib o'tirishni istamay.

Knyaz cho'chib tushdi. Rangi o'chib o'zining qon quyilgan ko'zlari bilan menga tikilib qoldi. Uning qarashida hayrat va g'azablanish ifodalandi.

– Shoshmang, – g'udurladi u o'ziga gapirayotgandek, – shoshmang, o'zim tushunib olay... Men rostdan ham mast bo'lib qoldim, miyam uncha ishlamayapti...

U jim bo'lib qoldi va ketib qolishimdan qo'rqqandek qo'limni ushlaganicha boyagidek qahr bilan menga tikilib qarab turardi. Men shunga aminmanki, shu daqiqa u miyasini ishlatib, deyarli hech kimga ma'lum bo'lmagan ishni u qayoqdan bilishi mumkin va bunda hech qanaqa xavf-u xatar yo'qmikan, deb zo'r berib o'ylayotgan edi. Bu bir daqiqacha davom etdi, biroq uning yuzidagi ifoda tezdan o'zgardi va uning ko'zlarida masxaraomuz kayfi chog'lik ifodasi qayta paydo bo'ldi. U xandon tashlab kulib yubordi.

– Ha-ha-ha! Taleyranning¹ o'zginasi-ya! Rost, haqiqatan ham, u mening ko'zimga qarab turib tomdan tarasha tushgandek: «Sen meni shilib olding!» – deganda aftiga tuflangan odamdek serrayganimcha turavergandim! O, o'shanda uni chinqirganlarini, urishganlarini ko'rsangiz! Quturgan ayol edi. Na bir hayiqishni bilardi! Ammo o'zingiz o'ylab ko'ring. Birinchidan, men uni hozir aytganingizdek hech bir talagan emasman. U o'zi menga o'z pullarini taqdim etdi va shuning uchun u pullar meniki bo'lgan edi. Masalan, faraz qilamiz: siz menga o'zingizning eng yaxshi frakingizni taqdim etasiz (buni gapirib turib u mening bor bisotimdagi bittagina, bundan uch yil muqaddam mashinachi

¹ Perigor Sharl Moris Taleyran (1754 – 1838) — faransuz diplomati Krupniy XIX asr burjua hokimiyatining yirik vakili.

Ivan Skorniyagin tikkan jo'ngina fragimga qarab qo'ydi), men sizga minnatdorchilik bildiraman va uni kiyib yuraman, siz bir yildan keyin men bilan achchig'lashib qolib, uni qaytarib berishimni talab etasiz, men esa uni kiyib eskirtib qo'yganman. Bu oliyjanoblik emas: nega bo'lmasa taqdim etish kerak edi? Ikkinchidan, pullar meniki bo'lishidan qat'i nazar, men darhol qaytarib bermoqchi edim, ammo o'zingiz o'ylab ko'ring: men birdan shuncha pulni qayerdan topardim? Eng muhimi men hali sizga aytib o'tgandim, ko'ngilchanlik va shillerchilikka aslo toqatim yo'q, hammasiga sabab shu edi. Agar men sizga uning «boshko'zimdan sadaqa!» – deb pulni (o'z pulimni) otganda baqiribchaqirganini aytib bersam, ishonmaysiz. Meniki ham tutib ketdi, ammo men darhol to'g'ri bir qarorga kela bildim, – negaki men hech qachon esankirab qolmayman: pulni berib, balki, men uni battarroq baxtsiz qilarkan deb o'yladim. Bu bilan men yolg'iz men tufayli baxtsizlikka uchraganligi uchun bir umr meni qarag'ash huzuridan uni mahrum etgan bo'lur edim. Ishoning, azizim, bu xildagi baxtsizlikka tushganda o'zingni batamom haqli va oliyjanob deb bilish va shu kulfatlarga solgan kishini iflos deb atashga to'liq haqli ekaningni tushunishning o'zida allaqanaqa bir gasht bor. Bu xildagi alamzadalik gashti Shiller kabi shaxslarda uchraydi, ehtimol, keyinroq borib o'sha ayolning yeyishga ovqati ham qolmagandir, ammo men aminmanki, u o'zini baxtiyor sezgan. Men ham uni shu baxtdan mahrum qilishni xohlamay, pul yubormay qo'ydim. Shunday qilib, mening qoidalarim ham tamomila o'zini oqladi, negaki inson saxovati naqadar dabdabali va katta bo'lsa, unda eng yaramas nafsoniyat shu qadar kuchli bo'ladi... Nahotki, shular sizga tushunarli bo'lmasa-a? Biroq... Siz meni gapdan tutmoqchi bo'lib edingiz? Ha-ha-ha!... To'g'risini ayting, tutmoqchimidingiz?... Voy, Taleyran-ey!

– Xayr, – dedim o'rnimdan qo'zg'alib.

– Bir daqiqa! Ikki og'iz so'z bor tag'in, – baqirdi u yana birdan o'zining xunuk tovush ohangini o'zgartirib, jiddiy tusga o'tarkan. – Oxirgi so'zlarimni eshitib oling; mening hamma aytgan gaplarimdan sizga shu narsa ma'lum va ravshan bo'lsinki

(siz o'zingiz ham shuni sezgandirsiz deb o'ylayman), men hech qachon va hech kim uchun o'z manfaatimdan kechishni xohlamayman. Men pulni yaxshi ko'raman va u menga kerak ham. Katerina Fedorovnada esa pul achib yotibdi, uning otasi o'n yil vinofurushlikni o'lpon qilib olgan. Uning uch millioni bor, bu uch million so'm menga juda ham qo'l keladi. Alyosha bilan Katya, bir-biriga juda ham munosib, ikkalasi ham o'taketgan laqma, menga shunisi kerak. Mana shuning uchun ikkisining turmush qurishini men astoydil istayman va bu qancha tez bo'lsa, shuncha yaxshi. Ikki yoki uch haftadan keyin grafinya va Katya qishloqqa jo'naydilar. Alyosha ularga hamroh bo'lib borishi kerak. Natalya Nikolaevnani ogohlantirib qo'ying: hech qanaqa erkalik, hech qanaqa shillerchilik, menga qarshi noroziliklar bo'lmasin. Men qasos oladigan yovuz odamman, aytganimning ustidan chiqaman. Undan men qo'rqmayman, hech qanaqa shakshubhasiz, hamma ish istaganimcha bo'ladi, shuning uchun men uni ogohlantirib qo'ymoqchiman, – bu uning o'zi uchun yaxshi. Bilib qo'ying: hech qanaqa noma'qulchilik bo'lmasin, o'zini yaxshi tutsin. Aks holda unga yomon, judayam yomon bo'ladi. Men u bilan qonunga muvofiq ish qilmaganimga shukur qilsin. Shuni bilib qo'yingki, muhtaram shoir, qonun oila tinchligini himoya qiladi, ular o'g'ilning otaga bo'ysunishini ta'min etadi va farzandlarning ota-onalariga bo'lgan muqaddas burchidan ozdiruvchilarni rag'batlantirmaydi. Hech bo'lmasa, shuni uqib oling, mening tanish-bilishim ko'p, unda esa yo'q... nahotki men uni ne holga solishim mumkinligiga aqlingiz yetmasa!.. Ammo men hech narsa qilmadim, chunki u shu vaqtgacha o'zini yaxshi tutib keldi. Xotirjam bo'ling: shu yarim yil mobaynida har daqiqa ularning bosgan qadamlari ta'qib ostida bo'ldi, men ularning eng mayda ishlarigacha bilib yurdim. Mana shuning uchun Alyosha o'zi uni tashlab ketguncha sabr qilib kutib turdim, uning ko'ngli sovib kelyapti, hozircha uning uchun ko'ngilxushligi kerak. Men esa uning tasavvurida insonparvar ota bo'lib qolaverdim, menga shu kerak edi, mening to'g'rimda u shunday deb o'ylashini xohlardim. Ha-ha-ha! Hov anavi oqshom esimga tushaveradi: oliyjanoblik qilib o'g'limga tegib olmagani uchun unga toza

xushomad qildim; ko'rardim qanaqa qilib u o'g'limga tegib olishini! O'shanda unikiga borganimga kelsak, bu faqat tezroq ularning aloqasini uzish uchun qilingan edi. Ammo men hammasini o'z ko'zim bilan ko'rib, tajribadan o'tkazishim kerak edi... Yetarlimi sizga? Yoki siz yana nima uchun men sizni bu yerga boshlab kelganim va nima uchun oldingizda shunchalik noz qilib, shunchalik sirdosh bo'lganimning sababini bilmoqchimisiz? Bularning hammasini hech qanaqa daromad qilmay aytilsa ham bo'laveradi-ku, a?

– Ha, – dedim men tishimni tishimga qo'yib uning gaplarini diqqat bilan eshitarkanman. Negaki shundan o'zga choram ham yo'q edi.

– Bu faqat shuning uchunki, do'stim, siz, anavi ikkita ahmoqdan ko'ra idrokliroq ekanligingizni va hayotga mulohaza bilan qarashingizni sezdim. Siz meni kimligimni avvalroq bilishingiz, mening haqimda ilgariroq bir fikrga kelishingiz mumkin edi, ammo men sizni bu mashaqqatdan ozod etmoqchi va kim bilan gaplashayotganingizni sizga amalda ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldim. Haqiqatan ham, taassurot – buyuk narsa. Tushuning, axir, meni, mon ami! Siz endi kim bilan muomala qilayotganingizni bilasiz, siz u qizni yaxshi ko'rasiz, shuning uchun uni ba'zi bir tashvishlardan xalos etish uchun ta'sir ko'rsatarsiz deb ishonaman (har holda, unga sizning gapingiz o'tadi). Agar shunday qilmasangiz, amin bo'lingki, boshiga katta tashvish orttiradi. Nihoyat, siz bilan ochiq gaplashishning uchinchi sababi shuki, bu... (ey, o'zingizdan o'tadigan gap yo'q-ku, azizim), mana shu narsalarga xuddi sizning ko'zingiz oldida tuflamoqchi edim...

– Murodingizga yetdingiz, – dedim men g'azabdan titrab..

– Siz o'z g'azabingizni mening ko'z oldimda menga va bizning hammamizga bo'lgan barcha nafratingizni bundan, ya'ni mzna bu ochiq gaplashishdan boshqa yo'l bilan to'kib sololmasdingiz. Siz ochiqchasiga gapirish bilan mening oldimda o'z obro'yingizni to'kishdan qo'rqmadingiz, hatto mendan uyalmadingiz ham... Siz, haqiqatan ham, anavi plash kiygan jinniga o'xshaysiz. Siz meni odam o'rnida ko'rmadingiz.

– Topdingiz, azizim, – dedi u o'rnidan turarkan, – juda

topdingiz; axir, yozuvchi ekaningiz bejiz emas-da. Do'stlikcha xayrlasharmiz deb ishonaman. Brudershaft ichmaymizmi?

– Siz mastsiz, shuning uchungina men sizga tegishlicha javob berishni istamayman...

– Yana indamay, kinoya bilan cheklanib qolmoqchiciz, kelisholmagan bo'lsak javob qaytarish kerak edi-da, xa-xa-xa! Siz uchun to'lashga ijozat bermassiz.

– Tashvish qilmang, o'zim to'layman.

– Shubhasiz, shundog' yo'limiz bir emasmi?

– Men siz bilan ketmayman.

– Yaxshi qoling, shoirim. Meni tushungandirsiz deb o'ylayman...

U sal-sal gandraklab, men tomonga qaramasdan chiqib ketdi. Lakey uni kolyaskaga o'tqazib qo'ydi. Men o'z yo'limga ketdim. Vaqt soat uchlarga yaqin. Yomg'ir yog'moqda, tun tim qorong'i edi...

TO‘RTINCHI QISM

I BOB

Mening g‘azabimni izhor etishga til ham ojizlik qilardi. Undan har nima kelishini kutish mumkin bo‘lsa hamki, men gangib qolgan edim. Go‘yo u o‘zining butun qabihligi bilan ko‘z oldimda tamom kutilmagan bir vaqtda namoyon bo‘lgandek edi. Ammo shunisi esimdaki, mening tuyg‘ularim noaniq edi: go‘yo-ki meni bir narsa bosib qolgandek, lat yegandek, ko‘nglim tobora qorong‘ilashib, yuragim siqilib bormoqda edi; men Natasha uchun qo‘rqardim. Natashaning boshiga hali juda ko‘p kulfatlar kelishini ko‘nglim sezib turardi va shularning oldini olish, mana bu ishlar bartaraf bo‘ladigan oxirgi daqiqalarda uning dardi, hasratini yengillatish uchun xayolan jon kuydirardim. Endi ishning oxiri nima bo‘lishi to‘g‘risida hech qanday shubha yo‘q edi. U yaqinlashmoqda va oqibat nima bo‘lishini fahmlash qiyin emasdi!

Yomg‘ir hamma yog‘imdan o‘tib ketganiga qaramay uyga yetib kelganimni bilmay ham qolibman. Sahar payt, soat uch edi. Men eshigini taqillatishga ham ulgurmasdan, uydan ingragan tovush eshitildi va go‘yo Nelli uxlamasdan ostonada poylab o‘tirgandek eshik darhol ochildi. Sham yonib turardi. Men Nelli-ning yuziga qaradim-u, qo‘rqib ketdim: afti butunlay o‘zgarib ketibdi: isitmalagandek ko‘zlari yonar, xuddi meni taniyolmayotgandek javdirardi. Uning harorati baland edi.

– Nelli, senga nima bo‘ldi, betobmisan? – so‘radim men unga engashib va uni qo‘ltiqlab.

U bir narsadan qo‘rqqandek titrab, qaltirab bag‘rimga yopishdi. Xuddi bir narsani menga tezroq aytish uchun kelishimni kutib turgandek, tez-tez entikib gapira boshladi. Ammo uning so‘zlari poyma-poy va g‘alati edi; men hech narsa tushunmadim, u alahlayotgan edi...

Tezda uni o‘ringa olib bordim, ammo u hamon menga talpinar, go‘yo qo‘rqqandek, go‘yo allakimdan o‘zini himoya qilishimni so‘ragandek menga qattiq yopishar va o‘rniga yotgandan keyin ham yana ketib qolishimdan qo‘rqqandek shoshib-pishib qo‘limni ushlar va qo‘yib yubormas edi. Men shu qadar garang bo‘lib, asablarim buzilib ketdiki, uning ahvolini ko‘rib yig‘lab yubordim. O‘zim ham kasal edim. Mening ko‘z yoshlarimni ko‘rib, u xuddi bir narsani tushunib olmoqchi bo‘lgandek, diqqatini bir joyga to‘plab, menga uzoq harakatsiz tikilib oldi. Ammo bu unga og‘irlik qilayotgani ko‘rinib turardi. Niho-yat, uning yuzida fikr alomati ko‘rindi, uning qattiq quyanchig‘i tutgandan keyin, odatda u bir necha vaqtgacha o‘z fikrini bir yerga yig‘olmas va aniq talaffuz eta olmasdi. Bu gal ham shunday bo‘ldi, menga nimanidir aytish uchun qattiq urindi va hech narsa tushunmayotganini fahmlagach, qo‘lchasini cho‘zib, ko‘z yoshimni arta boshladi, keyin bo‘ynimdan quchoqlab meni o‘ziga tortdi va o‘pdi.

Aniq ma‘lum ediki, men yo‘q paytimda uning tutqanog‘i tutgan, xuddi eshik oldiga kelganda tutgan. Tutqanog‘i bosilgandan keyin ham u anchagacha o‘ziga kelolmagan bo‘lsa kerak. Bunday vaqtda voqelik qora xayol bilan aralashib ketadi. Xayoliga qandaydir dahshatli, vahimali narsalar kelgan bo‘lishi kerak. Shu bilan bir vaqtda, meni qaytib kelishim, eshikni taqillatishim g‘ira-shira esida turgan bo‘lishi va shuning uchun ostonaning oldida yerda yotib mening kelishimni ziyraklik bilan kutgan va birinchi tiqillatishimdayoq o‘rnidan turgan bo‘lishi kerak.

«Biroq nima uchun u xuddi eshik tagida paydo bo‘lib qoldiykin?» – deb o‘yladim va birdan uning ustida kalta po‘stinni ko‘rib hayron qoldim. (Men bu kalta po‘stinni yaqindagina

uyimga kelgan, nasiyaga mol berib turadigan tanish olibsotar kampirdan sotib olgan edim) bundan chiqdi u ko'chaga chiqmoqchi bo'lgan va eshikni ochayotgan mahalda birdan tutqanog'i tutib qolgan. Qayerga bormoqchi bo'ldi ekan? Yo o'shandayoq alahlayotgan edimikan?

Uning harorati tushmadi, qattiq alahlab, hushidan ketib qoldi. Mening uyimga kelgandan beri ikki marta tutqanog'i tutdi. Lekin har safar xatarsiz tugagan, bu gal esa u isitmalab ko'z ochmay yotar edi. Uning oldida yarim soatcha o'tirganimdan keyin divan oldiga kursilarni qator qildim-da, agar u meni chaqirsa darrov uyg'onish uchun yechinmay yaqiniga kelib yotdim. Shamni o'chirmadim. Ko'zim to uyquga ketgancha unga bir necha bor qarab-qarab qo'ydim. Uning rangi oqarib ketgan, lablari haroratdan po'rsildoq bog'lab, yiqilgandan bo'lsa kerak, qon qotib qolgan edi; yuzidan qo'rquv va hatto uyqusida ham tinch qo'ymayotgan allaqanday og'ir hasrat ifodasi ketmasdi. Agar ahvoli og'irlashib qolsa, barvaqt turib tezdin shifokor olib kelishga qaror qildim. Isitmalab qattiq yotib qolishidan qo'rquydim.

«Buni knyaz qo'rqitgan!» – o'yladim men yuragim orqamga tortib va uning yuziga pulni otib yuborgan ayol haqidagi gaplari esimga tushib ketdi.

II BOB

Ikki hafta o'tdi, Nelli sog'aya boshladi. Isitmasi yo'q edi. Ammo hanuz betob edi. Aprelning oxirlarida, havo ochiq va musaffo kuni ko'rpadan bosh ko'tardi. Ro'za oldi haftasi edi.

Bechora qiz! Men hikoyamni avvalgi tartibda davom ettira olmayman. O'tmish voqealarini yozayotgan hozirgi daqiqalargacha orada ko'p vaqtlar o'tib ketdi, ammo shu chog'gacha anavi rangpar ozg'in yuz, anavi qora ko'zlarning qattiq va uzoq tikilib boqishini og'ir hasrat bilan eslayman, ba'zan ikkimiz qolgan chog'larimizda u o'z o'rnida yotarkan, go'yo uning

xayolidagi fikrlarni payqayapmanmi, yo'qmiligini bilmoqchi bo'lgandek menga uzoq tikilib qarardi, ammo mening payqamayotganligimni va hamon boyagi-boyagidek hayron ekanligimni ko'rib, astagina tabassum qilardi va birdan mehribonlik bilan o'zining barmoqlari ozg'in, qaynoq qo'ldalarini uzatardi. Endi hammasi o'tib ketdi, hammasi ma'lum, ammo men shu chog'gacha anavi xasta, azoblangan, xo'rlangan kichkina qalbning bor sirini bilmayman.

Men hikoyadan chetga chiqib ketayotganimni sezyapman, ammo shu daqiqa ko'ngil faqat bitta Nelli haqida o'ylashni xohlaydi. Qiziq, men endi kasalxonada yolg'iz yotaman, eng ko'p va qattiq sevgan odamlarim tomonidan tark etilganman, shu paytda men uchun unchali shoyon diqqat bo'lmagan, tez esdan chiqib ketadigan o'sha davrning qanday kichkina bir xususiyati birdan xotirimga keladi-yu, hatto shu chog'gacha tushunmay kelgan narsalarim to'satdan mening ongimda butunlay boshqacha ma'no kasb etadi.

U kasal bo'lgandan keyin to'rt kungacha biz shifokor bilan jonimizni hovuchlab yurdik, ammo beshinchi kuni shifokor meni nariroqqa chaqirib turib, qo'rqmang, u tez kunda tuzalib ketadi, deb aytdi. Bu huv o'sha menga anchadan beri tanish bo'lgan, Nelli dastlabki kasal bo'lganida chaqirilgan va Nellini o'z bo'ynidagi kattakon Stanislav nishoni bilan hayratga solgan bo'ydoq, oqko'ngil va hazilkash keksa doktor edi.

– Demak, qo'rqmasa ham bo'lar ekan-da! – dedim men suyunib.

– Ha, u hozir tuzaladi, ammo keyin tezda o'lib qoladi.

– O'lib qoladi! Nega endi! – baqirdim esankirab qolib.

– Ha, u uzoqqa bormay, albatta, o'lib ketadi. Bemorning uzviy yurak kasali bor, arzimagan bir ko'ngilsiz gap bo'lsa, keyin u yana yotib qoladi, axir, borib vafot etadi.

– Nahotki, uni saqlab qolishning hech iloji bo'lmasa-a? Yo'q, bu mumkin emas!

– Ha, iloji yo'q, ammo, lekin ko'ngilsiz hodisalardan batamom xoli bo'lsa, tinch va osoyishta hayot kechirsa, umri shirinlik bilan o'tsa, qizdan ajalni uzoqlashtirish mumkin. Ba'zan

shunday... Kutilmagan, me'yordan tashqari va ajoyib... Qisqasi Xudo yarlaqab uning uchun juda ko'p qulay sharoitlar tug'dirilsa, o'limdan qutulib qolishi mumkin. Ammo batamom tuzalib ketmaydi.

– Yo Rabbiy, nima qilsa bo'ladi endi?

– Maslahatlarga quloq solish, tinch hayot kechirish, dorilarni vaqtida iste'mol qilib turilishi kerak. Ammo sezishimcha, bu qiz o'ziga yetgancha o'jar, asabiy va hatto pichingchi ekan. U dorilarni vaqtida iste'mol qilishni juda yomon ko'radi, mana hozir ham qat'iyon rad qilyapti.

– Ha, doktor. U rostdan ham g'alatiroq qiz, lekin men bularning hammasi kasalligidan deb bilaman. Kechagina u so'zga kirayotgan edi, bugun bo'lsa, men unga dori olib kelsam, go'yo bexosdan, qoshiqni shunday turtib yubordiki, dori to'kilib ketdi. Yangi kukun dorini qormoqchi bo'lib tursam, u qo'limdan qutisi bilan tortib oldi-yu, yerga otdi, keyin o'zi yig'lab yubordi... Buning sababi faqat kukun dorini ichishga majbur etayotganimiz bo'lmasa kerak, – deb qo'shib qo'ydim biroz o'ylab turib.

– Hm. Irritatsiya¹. Boshidan o'tgan og'ir kulfatlar (men doktorga Nelli voqeasini to'la-to'kis va ochiqchasiga gapirib bergan edim. Doktor mening so'zlarimdan qattiq ta'sirlangan edi) shunga bog'liq, kasali ham shular tufayli. Hozircha bitta-yu bitta chora – kukun dorilarni qabul qilish; u, albatta, kukun dorilarni ichishi kerak. Men hozir borib, yana bir marta ilmi tib maslahatlariga quloq solish kerakligini uqtirib ko'raman va... ya'ni umuman aytganda... Kukun dorilarni qabul qilishi kerakligini aytaman.

Biz ikkimiz oshxonadan chiqdik (biz shu yerda gaplashib olgan edik) va doktor yana kasal yoniga keldi. Biroq Nelli bizning so'zlarimizni eshitgan ekan, shekilli, yostiqdian boshini ko'tarib, biz tomonga quloq solar va diqqat bilan gaplarimizni eshitishga urinar edi. Men buni qiya ochiq turgan eshikdan ko'rib qolgan edim; biz uning oldiga kirganimizda esa, qiz ko'rpaga ayyor burkanib oldi-da, biz tomonga masxaraomuz kulgi bilan mo'ralay boshladi. Bechora, shu to'rt kun ichida judayam ozib

¹ Irritatsiya (lotincha) – asabiylanish, hayajon.

qolibdi; ko'zlari ich-ichiga tushgan, isitmasi xali ham pasaymagan. Shunga qaramay, uning yuzidagi sho'x ifoda va ayyorona boqishlari o'ziga shu qadar yarashardiki, bu bilan Peterburgdagi hamma nemislarning eng ko'ngilchani bo'lgan doktorni hayratga solgan edi.

Doktor jiddiy, shu bilan birga mumkin qadar yumshoq gapirishga tirishib, yumshoq, muloyim ohangda kukun dorilarining zarurligi va najotbaxsh ekanini, binobarin, har bir bemor uni iste'mol qilishi zarur ekanini tushuntirdi. Nelli boshini ko'tarmoqchi bo'ldi, go'yo bexosdan qo'li qoshiqqa tegib ketdi va dorining hammasi yerga to'kildi. Aminmanki, u ataylab dorini yerga to'kkan edi.

– Bu juda ham ko'ngilsiz ehtiyotsizlik, – dedi xotirjamlik bilan kekxa doktor, – siz buni ataylab qildingiz deb shubhalan-yapman, yaxshi emas. Biroq... bu tuzatsa bo'ladigan ish, boshqatdan kukun dori qoramiz.

Nelli uning ko'zginasiga qarab turib kulib yubordi.

Doktor boshini sarak-sarak qildi.

– Yaxshi emas, – dedi u yangi kukun dorini qora turib, – juda ham maqtaydigan ish emas.

– Mendan xafa bo'lmang, – dedi – Nelli, qaytadan kulib yubormaslikka tirishib, – albatta, ichaman... Siz meni yaxshi ko'rasizmi?

– Agar siz maqtovg'a loyiq bo'lsangiz, juda ham yaxshi ko'raman.

– Judami?

– Juda.

– Hozir yaxshi ko'rmaysizmi?

– Hozir ham yaxshi ko'raman.

– Men sizni o'pishni xohlasam, siz meni o'parmidingiz?

– Ha, agar siz shunga sazovor bo'lsangiz.

Shu yerda Nelli o'zini tutolmay yana kulib yubordi.

– Kasalimiz juda xushchaqchaq ekan, ammo hozirgisi asab va o'jarlikdan, – shivirladi doktor menga eng jiddiy tus bilan.

– Xo'p, yaxshi, kukun dorini ichaman, – qichqirdi birdan

Nelli o'zining ovozi bilan, – lekin men katta qiz bo'lganimda siz menga uylanasizmi?

Chamasi, uning bu yangi sho'xligi o'ziga juda yoqib ketdi shekilli, ko'zlari chaqnar va birmuncha hayratga tushib turgan doktorning javobini kutib lablari kulgidan ko'tarilib turardi.

– Ha-da, – javob berdi u, bemorning yangi noziga beixtiyor jilmayib, – rost, agar siz yaxshi va odobli qiz bo'lsangiz, gapga kirsangiz va...

– Kukun dorilarni ichsangiz! – so'zini ilib oldi Nelli.

– Oh-ho! Ha-da, agar kukun dorilarni ichsangiz. Oq-ko'ngil qiz, – shivirladi u yana, – ko'ngli juda oq, aqli joyida, biroq... erga tegish... juda g'alati noz-a...

U yana Nelliga dori olib keldi. Ammo bu gal u hatto ayyorlik ham qilmadi, to'g'ridan to'g'ri qo'li bilan qoshiqning tagidan turtib yubordi, dorining hammasi bechora chol ko'ylagining ko'kragi, yuzlariga sachrab ketdi. Nelli qattiq kuldi, ammo bu avvalgidek sodda va sho'x kulgi emas edi. Uning yuzida qandaydir shafqatsizlik va g'azab ifodasi ko'rindi. Shu asnoda Nelli mendan ko'zini olib qochib doktorning o'zigagina masxaraomuz qarardi. Lekin ayni shu vaqtda tashvish tortayotgani, mana bu «kulgili» chol endi nima qilarkan, deb kutib turgani bilinib turardi.

– E, yanami... Qanday falokat! Biroq... mayli yana qorsak bo'laveradi, – dedi chol dastro'mol bilan yuzini, yengini arta turib.

Bu Nellini juda hayron qoldirdi. U bizning qahr-u g'azabimizni kutgandi, meni urishib so'ka boshlashar, deb o'ylardi va, balki, uning o'zi beixtiyor ravishda shu daqiqada g'azablanishimizni xohlagandir, dodlab yig'lashga bahona topish, haligiga o'xshab kukun dorilarni sochib tashlash va hatto alam iztirobdan bir narsalarni urib sindirish va shu bilan o'zining azob chekkan injiq yuragini bo'shatib olishni istagandir. Bunaqangi injiqliklar faqat kasallardagina, faqat Nellidagina bo'lmaydi. Shu hol tez-tez menda ham ro'y berib turardi; men o'zimdan o'zim tezroq biror kishi meni xafa qilsaydi yoki bitta gap gapira qolsaydi, meni ranjitish uchun bu gapni aytdi-ku deb bir narsadan

alamimni olardim, degan g'ayrishuuriy istak bilan uyning u boshidan bu boshiga yuradigan kunlar ham oz bo'lmagan edi. Xotinlar-ku shu yo'l bilan yuraklarini «bo'shatib» astoydil yig'lay boshlaydilar, ayniqsa, ta'sirchanlari hatto jazavalari tutguncha yig'laydilar. Bu juda oddiy va turmushda uchraydigan hodisa, kishining yuragida hech kim bilmaydigan, xohlasa ham birovga aytolmaydigan g'ami bo'lsa shunday qiladi.

Ammo ranjitilgan chol bechoraning farishta kabi ko'ngilchanligi va bir og'iz ham ginaxonlik qilmasdan, vazminlik bilan indamay yangidan kukun dorini qorishidan tang qolgan Nelli birdan jimib qoldi. Lablaridan masxara ifodasi yo'qoldi, yuziga qizil yugurdi, ko'zlari namlandi, menga bir qarab qo'ydi-yu, darrov teskari o'girilib oldi. Doktor unga dori keltirdi. U cholning dumaloqqina qizil qo'lini ushlaganicha cholning ko'zlariga asta tikilib turib, qo'rqa-pisa tortinibgina dorini ichib yubordi.

– Mening... zaharligimdan xafa bo'lyapsiz, – deb so'zini davom ettirmay to'xtab qoldi. Ko'rpa orasiga kirib ketib, boshigacha burkandi va ho'ngrab yig'lab yubordi.

– O, bechora bolaginam, yig'lamang, hech gap emas... Bu asabdan, suv iching.

Ammo Nelli uning gapiga quloq solmasdi.

– Tinchlaning... O'zingizni qiynamang, – davom etdi u, qiz tepasida yig'lab yuborishdan o'zini arang tutib, chunki u g'oyat ta'sirchan odam edi, – men sizni kechiraman va sizga uylanaman ham, agar siz yaxshi, odobli, insofli qiz bo'lsangiz...

– Kukun dori ichsangiz! – eshitildi ko'rpa orasidan, uning yig'i aralash qo'ng'iroqday asabiy kulgisi. Bu kulgi menga juda ham tanish edi.

– Yaxshilikni biladigan, ajoyib qiz, – dedi zavq doktor Bilan o'pkasi to'lib. – Bechora qizgina!

Shu kundan boshlab u bilan Nelli o'rtasida g'alati, allaqanday ajoyib mehr paydo bo'ldi. Men bilan esa Nelli, aksincha, sovuq, asabiy va serzarda bo'lib qoldi. Men buni nimaga yo'yishni bilmasdim, undan taajjublandim, negaki bu o'zgarish unda qandaydir to'satdan boshlangandi. Kasalining dastlabki kunlarida u menga nihoyatda shirin so'z va mehribon edi, go'yo u

menga qarab to'ymaydigandek tuyulardi, meni oldidan jildirmas, qo'llarimni o'zining qaynoq qo'lchalari bilan ushlab yotar va meni o'z yoniga o'tqazardi. Agar men xafaroq ko'rinsam va xunob bo'lib turgan bo'lsam, ko'nglimni olishga urinar, hazil-lashar, men bilan o'ynashar, chamasi, dardini yengishga urinib tabassum qilar edi. U mening kechalari ishlashimni yoki uning yonida o'tirib chiqishimni xohlamas, uning so'ziga kirmaganimni ko'rsa xafa bo'lib qolardi. Ba'zan men uning yuzida tashvish alomati borligini payqab qolardim; shunda u mendan, nega g'amgin ko'ringanimni, nimalarni o'ylashimni o'smoqchilab so'rar edi, lekin shunisi qiziqki, gap kelib Natashaga taqalishi bilan shu zahoti jim bo'lib qolar va yoki gapni boshqa yoqqa burib yuborardi. U go'yo Natasha haqida gapirishdan o'zini tiyar, bu esa meni ham tang qoldirar edi. Men kelganimda u sevinib ketardi, ketmoqchi bo'lib shlyapani qo'lga olsam, u menga ma'yus tikilib, o'pkalangandek g'alati qilib ko'zi bilan meni kuzatib qolardi.

Nelli betob bo'lganining to'rtinchi kuni, men butun oqshom, yarim kechadan oshguncha Natasha oldida o'tirdim. Gap-larimiz yig'ilib qolgan edi. Uydan ketayotganimda men Nelliga juda tez qaytib kelishimni aytgan edim, o'zim ham shuni mo'l-jallagan edim. Bexosdan Natashanikida tutilib qolgan bo'lsam ham Nellidan ko'nglim to'q: u yolg'iz emasdi. U bilan Aleksandra Semyonovna qolgan edi. U, menikiga bir lahzagina kirgan Masloboevdan Nellining betobligini, bitta o'zim, tashvishim boshimdan oshib ketganini eshitibdi. Oqko'ngil Aleksandra Semyonovna qanday tashvishga tushib qolganini ko'rsangiz edi.

– Bunday bo'ladigan bo'lsa, u endi biznikiga ovqatga ham kelmas ekan-da!.. Ey, Xudoyim! Bitta o'zi-ya, bechora! Qani endi bo'lmasa biz unga o'z xayrixohligimizni ko'rsataylik. Fursat kelganda uni qo'ldan bermaylik, – debdi.

U shu zahotiyoq katta tugun bilan izvoshda kelib qoldi. Keldi-yu, endi ketmasligini, menga yordam qilish uchun kelganini aytdi va tugunni yechdi. Tugunda betob uchun sharbat, qiyom, kasal tuzala boshlasa, quvvat bo'lishi uchun tovuq, jo'ja, olmalar, apelsinlar (mabodo doktor buyurib qolsa), kiev quruq

qiyomlari, nihoyat, ichki kiyimlar, choyshab, sochiqchalar, ayollar uchun ichki kiyimlar, xuddi bir butun boshli lazaret¹ uchun tayyorlangandek bint², kompresslar³ bor edi.

– Hammasi bor bizda, – dedi u menga shoshib-pishib, go'yoki bir yoqqa shoshilib ketayotgan odamdek, – siz esa bo'ydoqchasiga yashaysiz. Axir, sizda bunaqa narsalar kam-ku. Endi mening o'zimga qo'yib bering... Filipp Filippich ham shuni buyurdi... Xo'sh, endi... Qani, tezroq ayting, nima qilish kerak hozir-a? U qalay? Hushi joyidami? Ey, axir, bunday yotishi yaramaydi-ku, boshi past bo'lishi uchun yostig'ini tuzatib qo'yish kerak, bilasizmi nima... charm yostiq yaxshiroq bo'lmas-mikin? Charm sovuq bo'ladi. Voy, esim qursin! Esimga ham kelmabdi-ya, o'zim bilan olib kelish. Borib olib kelaman... O't yoqish kerakmi? Men siznikiga kampirimni yuboraman. Bir tanish kampirim bor. Sizda xizmatkor ayollardan hech kim yo'q-ku... Nima qilsak ekan hozir-a? Bu nima? Qo'kat... doktor buyurgandir-da, a? Ko'krakni yumshatish uchun bo'lsa kerak-a? Hozir men borib o't yoqaman.

Ammo men uni tinchitdim, u ish uncha ko'p emasligini bilib juda hayron qoldi, hatto xafa ham bo'lib qoldi. Ammo u esankirab qolmadi. Nelli bilan darrov do'st bo'lib oldi va u betob yotgan vaqtida menga juda ko'p yordam qildi, deyarli har kuni kelib turdi, har vaqt go'yo biror narsasi yo'qolib qolgandek, birortasi qayergadir ketib qolgan-u, uni tezroq uchratish kerak bo'lgandek hovliqib kirib kelar edi. U hamma vaqt, Filipp Filippich shunday buyurdi, deb qo'shib qo'yardi. U Nelliga juda yoqdi. Ular bir-birlarini opa-singillardek sevishib qoldi, men o'y-laymanki, Aleksandra Semyonovna ham ko'p jihatdan xuddi Nelliga o'xshash yosh bola edi. U Nelliga har xil voqealarni

¹ **Lazaret** (*fransuzcha*: lazaret, *italyancha*: lazzaretto < lazzaro – moxov; dastlab «moxovlar kasalxonasi»ma'nosida qo'llangan) – harbiy qismlardagi yaradorlar va bemorlarni vaqtincha yotqizib davolaydigan kichkina shifoxona.

² **Bint** (*nemischa*: Binde – bog'ich, bog') – yaralarni bog'lashga mo'ljallangan doka, bo'z, flanel, lenta va boshqalar).

³ **Kompress** (*lotincha*: compressus – qisilgan) – shifo maqsadida qo'yilgan issiq yoki sovuq boylam. Og'riq a'zoni sovqotishdan va boshqa tashqi ta'sirlardan himoya qilish uchun bir necha qavat doka yoki qalin paxta qatlamdan iborat quruq kompressdan foydalaniladi.

gapirib berar, kuldirardi, uyiga ketgan paytlarda Nelli uni juda sog'inib qolardi. Aleksandra Semyonovna birinchi marta biznikiga kelganda bemorim hayron qoldi, ammo bu chaqirilmagan mehmon nima sababdan kelganini darrov payqadi va, odati bo'yicha, qovog'ini solib olib, indamas va sho'rtumshuq bo'lib oldi.

– U nima uchun biznikiga keldi? – so'radi Nelli norozi bo'lib, Aleksandra Semyonovna uyiga ketgandan keyin.

– Senga qarashib turish uchun, Nelli, senga qarab turish uchun.

– Nimaga keladi?.. Qaysi ishim uchun keladi? Axir, men unga hech qanaqa yaxshilik qilgan emasman-ku.

– Yaxshi odamlar, oldin ularga yaxshilik qilishlarini kutib o'tirmaydilar, Nelli. Ular busiz ham muhtoj odamlarga yordam berishni yaxshi ko'radilar. Bas, Nelli, dunyoda muruvvatli odamlar juda ko'p. Faqat sen bechora ularni uchratmagansan, kerak bo'lganda uchratmagansan.

Nelli indamadi, men uning oldidan nari ketdim. Biroq oradan chorak soat o'tgandan keyin u suv so'ramoqchi bo'lgandek meni zaif tovush bilan chaqirdi-yu, birdan mahkam quchoqlab oldi, menga yopishib olib, anchagacha qo'yib yubormadi. Ertasiga Aleksandra Semyonovna kelganda uni shod tabassum bilan qarshi oldi. Ammo o'zi hamon bir narsadan uyalgandek edi.

III BOB

Mana, xuddi shu kuni men butun oqshom Natashanikida o'tirdim. Men ancha kech keldim. Nelli uxlab qolgan edi. Aleksandra Semyonovna uyqusi kelsa ham, bemor tepasida, meni kutib o'tirgan ekan. Men kirishim bilan shoshib-shoshib shivirlay boshladi; Nelli oldin juda ham xursand ekan, juda ko'p kulibdi, ammo borib-borib u xomush bo'lib qolibdi. Men kela-vernaganimdan keyin jim bo'lib xayol sura boshlabdi: «Keyin boshim og'riyapti, deb shikoyat qildi, yig'ladi, shunday qattiq yig'ladiki, nima qilishni bilmay qoldim, -- deb qo'shib qo'ydi

Aleksandra Semyonovna: – Natalya Nikolaevna haqida gapira boshladi, ammo men unga hech nima deya olmadim, u ham so‘ramay qo‘ya qoldi, keyin yig‘lab-yig‘lab ko‘zida yoshi bilan uxlab qoldi. Xo‘p bo‘lmasa, Ivan Petrovich, xayr. Sezishimcha, u ancha yengil tortib qoldi. Endi men keta qolay, Filipp Filippich ham shunday buyurgan. Sizga rostini aytsam, bu gal u meni faqat ikki soatga yuborgan edi. Men esa o‘zim qolaverdim. Mayli, hechqisi yo‘q, mendan tashvish qilmang. U jahl qilishga botinolmaydi... Faqat shunisi borki... Ey, Xudoyim, mehribon Ivan Petrovich, nima qilsam ekan-a, u endi uyga doim mast bo‘lib keladi! O‘zi bir ish bilan juda ham band, menga aytmaydi, o‘zi diqqat bo‘ladi, muhim bir ish bilan band uning miyasi; ha, o‘zim ko‘rib-bilib turibman; kechqurun, baribir, mast bo‘lib keladi... Xayolim unda: hozir uyga qaytib keldi. Kim endi yotqizadi uni? Hay, mayli ketdim, yaxshi qoling, Ivan Petrovich. Kitoblaringizni ko‘rdim: o‘-ho‘, qancha ko‘p-a! Hammasi ajoyib kitoblar bo‘lsa kerak-a; men esa ahmoq, umrimda hech narsa o‘qigan emasman... Mayli, ertagacha...»

Ammo ertasiga Nelli uyqudan g‘amgin va xomush bo‘lib uyg‘ondi, savollarimga istar-istamas javob qildi. O‘ziga qolsa, men bilan gaplashmasdi, mendan arazdek ko‘rinardi. Faqat sezdirmaslikka harakat qilib bir necha bor menga ko‘z tashlab qo‘yayotganini sezdim; bu boqishlarda allaqanday yashirin ko‘ngil alamlari bor, ammo ularda to‘g‘ri qaraganda sezilmaydigan muloyimlik ifodasi bor edi. Xuddi shu kuni injiqlik qilgan edi. Nima qilishimni bilmay boshim qotib qoldi.

Biroq Nelli tamoman boshqacha bo‘lib qoldi. Uning g‘alatiligi, injiqliklari, ba‘zan hatto mendan nafratlanish – hammasi to u menikidan ketib qolgan kungacha, to mojaromizga xotima bergan o‘sha kungacha davom etib keldi. Biroq, bu haqda keyin gaplashamiz.

Shunisi ham borki, ba‘zan u birdan biror soat men bilan qadimgidek xushmuomala bo‘lib qolardi. Uning mehri shu daqiqalarda ikki barobar oshib ketgandek ko‘rinardi. Ko‘proq shu daqiqalardan u achchiq-achchiq yig‘lardi. Ammo bu soatlar juda tez o‘tib ketar va yana boshqatdan qadimgidek qayg‘uga botar,

yana menga dushmanlik ko'zi bilan tikilar yoki doktorga qilgan nozlarini qilar, yoki uning qandaydir yangi qilig'i menga yoqimsiz tuyulayotganini sezib qolib, birdan qotib-qotib kula boshlar va bular hammasi ko'z yosh bilan tugar edi.

U hatto bir marta Aleksandra Semyonovna bilan achchiqlashib qoldi: «Hech narsangiz kerakmas», – dedi. Men Aleksandra Semyonovna oldida undan gina qilsam, shu qadar tutaqib ketdiki, qizishib, achchiq-achchiq gaplar aytdi, ammo birdan jim bo'lib qoldi va rosa ikki kun men bilan bir og'iz ham gaplashmadi, dori ham ichmadi, hatto ichishni ham, yeyishni ham xohlamadi, faqat kekxa doktorgina uni ko'ndirishga, insofga keltirishga muvaffaq bo'ldi.

Men hali aytib o'tgan edim; doktor bilan uning o'rtasida o'sha dori ichgan kundan boshlab allaqanday bir mehr paydo bo'lgan edi. Nelli uni juda ham yaxshi ko'rib qoldi, u kelmasdan burun qanchalik xafa bo'lmasin, baribir, uni sevinch va tabassum bilan qarshi olardi. O'z navbatida chol ham biznikiga har kuni, ba'zan kuniga ikki mahal ham qatnaydigan bo'ldi. Hatto Nelli oyoqqa turgandan keyin ham, batamom tuzalib ketgandan keyin ham xuddi uni sehrlagandek, chol bir kuni ko'rmasa, uning kulgi va qiziq-qiziq hazillarini eshitmasa turolmaydigan bo'lib qoldi. U Nelliga suratli, ibratomuz kitoblar keltiradigan bo'ldi. Bittasini u ataylab Nelli uchun sotib olibdi. Keyin u qizga shirinliklar, yaxshi-yaxshi qutichali konfetlar olib kela boshladi. Bunday paytlarda u odatda to'y egasidek g'oyat tantana bilan kirib kelar va Nelli shu zahoti uning sovg'a bilan kelganini payqar edi. Biroq u sovg'alarni darrov ko'rsata qolmas, ayyorona kulib, Nelli yoniga o'tirar, keyin: basharti bitta yosh qiz o'zini yaxshi tuta bilsa va mening yo'qligimda hurmatga sazovor bo'lsaydi, u holda shu yosh qiz yaxshi mukofotga ham sazovor bo'lardi, deb shama qilardi. Bunday chog'larda u Nelliga shu qadar sodda-dillik va muloyimlik bilan qarardiki, garchi Nelli uni ochiqdan ochiq masxaralab kulsa hamki, shu daqiqalarda uning yashnab ketgan ko'zlarida samimiy mehribonlik chaqnab turardi. Niho-yat, chol tantana bilan o'rnidan turar, konfetli qutichalarni olib kelardi-da, Nelliga topshirar edi. Albatta: «Mening bo'lajak

sevgili rafiqamga», – deb qo‘shib qo‘yardi. Bu daqiqalarda chol o‘zini Nellidan ham baxtliroq sezsa kerak.

Shundan keyin gap boshlanar va har gal u kamoli jiddiyat bilan Nelliga sog‘lig‘ini saqlash kerakligini uqtirar va tibbiy maslahatlar berar edi.

– Avvalo, kishi o‘z sog‘lig‘ini saqlashi kerak, – derdi u e‘tirozga yo‘l qo‘ymaydigan ohangda, – birinchidan va eng muhimi, boshing omon bo‘lsin uchun; ikkinchidan, har doim sog‘lom bo‘lish va shu yo‘l bilan baxtli hayot kechirish uchun kishining tan-joni sog‘ bo‘lishi kerak. Agar sizning biror g‘a-mingiz bo‘lsa, aziz bolaginam, uni esdan chiqaring, eng yaxshisi, u haqda o‘ylamaslikka tirishing. Agarda hech qanaqa qayg‘ungiz bo‘lmasa, unda ham... u haqda o‘ylamang, aksincha huzur-halovat haqida o‘ylashga urining... Sho‘x, qiziq-qiziq narsalarni o‘ylang...

– Qanaqa, sho‘x, o‘ynoqi narsalarni o‘ylash mumkin? – so‘radi Nelli.

Doktor lol bo‘lib qolardi.

– Ha, endi... biror yoshingizga yarasha soddagina o‘yin haqida, yoki bo‘lmasa... ha, shunga o‘xshash-da...

– Men o‘yin-kulgini istamayman, o‘yinni yaxshi ko‘r-mayman, – derdi Nelli. – Men bilasizmi nimani, yangi ko‘ylakni yaxshi ko‘raman.

– Yangi ko‘ylak deysizmi? Ha, bu endi uncha yaxshi emas. Hayotda, har bir narsada kichik bir nasiba bilan qanoatlanmoq lozim. Ha, bunday qaraganda... yangi ko‘ylakni yaxshi ko‘rsa ham bo‘laveradi.

– Men sizga erga tekkanimda ancha ko‘ylak tiktirib berasizmi?

– Aqliga kelgan gapni qarang! – derdi doktor va beixtiyor qovog‘ini solib olardi. Nelli ayyorona iljayardi, hatto bir gal beixtiyor menga ham iljayib qarab qo‘ydi. – Ha, aytgandek... Agar siz odobli qiz bo‘lsangiz, ko‘ylak qilib beraman, – davom etardi doktor.

– Sizga tekkanimda ham har kun kukun dori ichish kerakmi?

– Yo‘q, unda har kuni ichmasa ham bo‘ladi, – doktor jilmaya boshlardi.

Nelli gapni kulgi bilan to‘xtatib qo‘yardi. Unga ergashib chol ham kular va uning sho‘xliklarini zavq bilan tomosha qilar edi.

– Sho‘x! – derdi u menga murojaat etib. – Biroq hamon bir qadar injiq, serxarxasha va jizzakiligi ko‘rinib turadi.

U haqli edi. Nelliga nima bo‘lganini men aslo tushunolmasdim. Xuddi uning oldida bir gunoh qilib qo‘yganidek men bilan gaplashishni sira istamasdi. Bu menga alam qilardi. Hatto mening o‘zim ham xo‘mrayib olardim. Bir marta kuni bilan u bilan gaplashmadim, biroq ertasiga o‘zim qilmishimdan uyalib ketdim. Ko‘pincha u yig‘lardi, men nima bilan uni yupatishimni bilmay boshim qotardi. Shunday qilib kunlardan bir kun uning o‘zi oramizdagi sukutni buzdi.

Bir kun men shom qorong‘isida uyga qaytdim va Nelli bitta kitobni shoshilib yostiq tagiga bekitib qo‘yayotganini ko‘rib qoldim. Bu mening romanim edi, men yo‘g‘imda uni stoldan olib o‘qib yurarkan. Nega uni mendan bekitish kerak edi? Uyalar-mikin, deb o‘yladim, o‘zimcha, ammo o‘zimni ko‘rmaslikka sol-dim. Oradan chorak soat o‘tgandan keyin, bir daqiqagina oshxo-naga chiqib ketsam, u irg‘ib o‘rnidan turdi-yu, romanni avvalgi joyiga keltirib qo‘ydi, qaytib kirib men uni stol ustida ko‘rdim. Bir daqiqadan so‘ng o‘zi meni oldiga chaqirdi, ovozidan haya-jonlangani sezilardi. U men bilan gaplashmaganiga mana to‘rt kun bo‘ldi.

– Siz... bugun... Natashaning oldiga borasizmi? – so‘radi u mendan to‘xtab-to‘xtab.

– Ha, Nelli, men uni bugun ko‘rishim juda zarur. Nelli indamadi.

– Siz... – uni juda yaxshi ko‘rasizmi? – so‘radi u yana zaif ovoz bilan.

– Ha, Nelli, juda yaxshi ko‘raman.

– Men ham uni sevaman, – qo‘shib qo‘ydi u astagina. Keyin yana jimlik cho‘kdi.

– Men unikiga ko‘chib borishni xohlayman, u bilan birga

turaman, – deb gap boshladi yana Nelli, qoʻrqa-pisa menga qarab.

– Mumkin emas bu, Nelli... – javob berdim, biroz taajjublanib. – Menikida turganing yomonmi?

– Nega mumkin emas? – u qizarib ketdi, – axir, meni uning otasinikiga borib turgin deb qistaysiz-ku.

Unikiga borishni istamayman. Natashaning malay qizi bormi?

– Ha, bor.

– Unday boʻlsa u malay qizga javob berib yuborsin, men oʻzim uning xizmatini qilaman, hamma ishini qilaman, haq talab qilmayman; men uni jonimdek koʻrib, ovqatini pishiraman. Bugun borsangiz, shu bugun shuni ayting.

– Bunaqangi bemaʼni gapning nima keragi bor, Nelli? Sen uni kim deb oʻylaysan? Seni u oshpaz qilib olishga rozi boʻlarmidi? Basharti oladigan boʻlsa, oʻz tengi qatori singlisi qilib oladi.

– Yoʻq, tengi qatori boʻlishni men xohlamayman. Men buni istamayman.

– Nega, axir?

Nelli indamasdi. Uning dudoqchalari dirillar, oʻpkasi toʻlib turardi.

– Axir, sevgan kishisi endi uni yolgʻiz tashlab ketyaptimi? – soʻradi u nihoyat.

Men hayron qoldim.

– Sen buni qayoqdan bilasan, Nelli?

– Siz oʻzingiz gapirib bergansiz, uch kun bundan ilgari ertalab Aleksandra Semyonovnaning eri kelgandi, men undan soʻragandim, hammasini gapirib berdi.

– Masloboev ertalab kelganmidi?

– Kelgan edi, – javob berdi u yerga qarab.

– Nega boʻlmasa uning kelganini menga aytmading?

– Oʻzim...

Men bir zum oʻylanib qoldim. Masloboevning sirli ravishda kelib yurishiga balo bormidi! Nega u muncha pashshaxoʻrda boʻlib qoldi? Uni bir koʻrish kerak edi.

– Xo‘sh, Nelli, u Natashani tashlab ketsa, senga nima?

– Axir, siz uni juda yaxshi ko‘rasiz-ku, – javob berdi Nelli yerdan ko‘zini uzmay. – Sevganingizdan keyin, anovi yigit ketishi bilan siz unga uylanasiz-da.

– Yo‘q, Nelli, u meni, men uni sevganimdek sevmaydi. Men ham... Bunday bo‘lmaydi, Nelli.

– Men esa ikkingizga oqsoch bo‘lib xizmat qilardim, siz bo‘lsangiz, xursand bo‘lib yuraverardingiz, – dedi u eshitilar eshitilmas, menga qaramay.

«Bunga nima bo‘ldi o‘zi-a, nima bo‘ldi!» – deb o‘yladim, yuragim «shig‘» etib ketdi. Nelli jim bo‘lib qoldi va shu oqshom bir og‘iz ham gap aytmadi. Men ketganimdan keyin yig‘labdi, butun oqshom yig‘lab-yig‘lab uxlab qolibdi. Menga shunday deb aytdi, Aleksandra Semyonovna: «U hatto kechasi uyqusida ham yig‘ladi va uyqusirab nimalarnidir gapirdi».

Shu kundan boshlab u yana ham badqovoq va indamas bo‘lib oldi va men bilan endi hech ham gapirishmay qo‘ydi. To‘g‘ri, men bir-ikki marta uning menga o‘g‘rincha qarab qo‘yganini sezdim. Bu boqishlar naqadar mehr-muhabbatga to‘la edi! Ammo bu yoqimli erkalik uni vujudga keltirgan daqiqa bilan birga o‘tib ketar, buning evaziga borgan sari Nellining qovog‘i solinar, hatto uning fe‘l-atvoridagi o‘zgarishga hayron qolayotgan doktor bilan ham sovuq muomala qilar edi. Vaholanki, Nellini endi butunlay tuzalib ketdi desa bo‘lardi. Nihoyat, doktor unga ochiq havoda biroz yurishga ruxsat berdi. Havo ochiq, iliq edi. Pasxadan¹ oldingi hafta juda ham kechikib kelgan edi; men ertalab uydan chiqdim, Natashanikiga borishim juda zarur edi. Ammo uyda yolg‘iz qolgan Nellini sayr qildirish uchun uyga vaqtliriq qaytishga qaror qildim.

Biroq, uyda meni kutib turgan zarbani ifodalashga tilim ojizlik qiladi. Shoshilib uyga kelsam, eshik kaliti tashqi tomonda.

¹ **Pasxa** (qadimiy yahudiycha: peysax – o‘tmoq) – yahudiylar va xristianlarning bahor bayrami. Yahudiylarda bu bayram Misr Fir‘avnlarning qulligidan qutulib chiqqanlari (taxminan miloddan avvalgi VII asr) munosabati bilan nishonlanadi. Xristianlikda bu bayram Isoning tirilishi to‘g‘risidagi rivoyat bilan bog‘liq bo‘lib, pravoslavlarning asosiy bayrami hisoblanadi. Bahorgi tengkunlik va to‘lin oydan keyingi 1-yakshanbada nishonlanadi. Bayram kunlari sanasini hisoblab chiqish uchun jadvallar (pasxaliya) tuziladi.

Ichkari kirdim, uyda hech zog' yo'q. Turgan joyimda qotib qoldim. Ko'zim stol ustidagi qog'ozga tushdi, unda qalam bilan egri-bugri qilib ynrik harflar bilan quyidagilar yozilgan:

*«Men siznikidan ketdim, hech qachon qaytib kelmayman.
Ammo sizni qattiq sevaman.*

Sizga sodiq Nelli»

Men chinqirib yubordim va uydan chopganimcha chiqib ketdim

IV BOB

Men hali ko'chaga ham chiqib ulgurmasdan, nima qilish kerakligini o'ylab ham bo'lmasimdan bizning darvoza oldida izvosh to'xtadi va Nellini qo'lidan ushlaganicha Aleksandra Semyonovna izvoshdan tushib kelaverdi. U Nelli yana qochib ketmasin deb qo'rqqanidan qo'lidan mahkam ushlab olibdi. Men jon holatda ularga qarab yugurdim.

– Nelli, senga nima bo'ldi? – baqirdim men, – qayerga ketganding, nega?

– To'xtang, hovliqming, tezroq uyingizga kiraylik, hamma gapni o'sha yerda eshitasiz, – dedi bidillab Aleksandra Semyonovna, – shunaqangi gaplarni aytib beramanki sizga, Ivan Petrovich, – shivirladi u shoshib-pishib yo'l-yo'lakay. – Og'zingiz ochilib qoladi!.. Yuring, hozir bilasiz.

Uning yuzidan g'oyat muhim yangi bir gap aytmoqchi bo'lgani bilinib turardi.

– Bor, Nelli, bor, birpasgina yonboshla, – dedi u uyga kirganimizdan keyin, – charchading, axir, osonmi, shuncha yo'l yurish, kasaldan turib yurib bo'ladimi! Yota qol, jonginam, yot. Yuring, biz siz bilan u yoqqa chiqaylik, xalaqit bermaylik, uxlasin. – U imlab, oshxonaga chiqishimni so'radi.

Ammo Nelli yotmadi, u divanga o'tirib, ikki qo'li bilan yuzini bekitib oldi.

Biz chiqib ketdik, Aleksandra Semyonovna nima bo'lganini naridan-beri gapirib berdi. Keyin men hamma gapni batafsil eshitdim, voqea shunday bo'lgan ekan.

Qaytishimga ikki soat qolganda menga xat qoldirib Nelli eng oldin chol doktornikiga yuguribdi. Manzilini avval surishtirib bilib olgan ekan. Doktor Nellini ko'rib hang-mang bo'lib qolganini, ko'zlariga ishonmaganini gapirib berdi. «Bunga asti ishonmayman, – deb tamomladi u o'z hikoyasini, – hech qachon ham ishonmayman». Xullas, Nelli, haqiqatan ham, unikiga borgan. Doktor o'z kabinetida savat kresloda qahva ichib o'tirganda Nelli chopganicha yugurib kiribdi va u es-hushini yig'ib olguncha, uning bo'yniga otilibdi. Qon-qon yig'lab uni quchoqlab o'pibdi, qo'llarini o'pib telba-teskari yalinib-yolvoribdi, o'z uyida olib qolishini so'rabdi. Endi menikidan ketganligini, ortiq men bilan turishni xohlamasligini, endi bu uning uchun og'ir ekanini, uni masxara qilib kulmasligini, yangi ko'ylak janjalini qilmasligini va o'zini yaxshi tutishini, uning manishkalarini yuvib dazmollashni (o'z so'zlarini u yo'lda yoki undan ham ilgariroq o'ylab qo'yganga o'xshaydi) o'rganib olishni, va nihoyat, mo'min qiz bo'lib har kuni har qancha dori bo'lsa ham, ichaverishini gapiribdi. Ilgari sizga tegaman degan bo'lsam, bu hammasi hazil edi, bu to'g'rida o'ylamang ham deb aytibdi. Keksa nemis chol azbaroyi esi og'ib qolganidan sigarasini ushlagan qo'lini ko'targanicha qolaveribdi, uning o'chganini ham sezmadbi.

– Oyimqiz, – debdi nihoyat u, tili biroz so'zga kelib, – oyimqiz, tushunishimcha, siz menikida turishni iltimos qilib so'rayapsiz. Biroq buning aslo iloji yo'q! Ko'ryapsiz-ku, turar yerim juda tor va daromadimning ham uncha mazasi yo'q... Nihoyat, to'g'ridan to'g'ri, o'ylamaynetmay... Bu yaxshi emas! Ko'ryapmanki, siz o'z uyingizdan qochib kelyapsiz. Bu durust ish emas va mumkin ham emas... Va nihoyat, men sizga, valine'matingiz nazorati ostida ochiq havoda, oz-moz sayr etishga ruxsat bersam, siz o'zingizni ehtiyot qilish o'rniga, u kishini tashlab... va... va... dorilarni ham ichish o'rniga menikiga qochib kelibsiz. Va nihoyat... nihoyat, men hech narsa tushunolmay qoldim-ku...

Nelli uni gapirtirmabdi. U yana yig'lay boshlabdi, qaytadan unga yalina boshlabdi, ammo bu foyda bermabdi. Chol esa borgan sari hayratga botib, butunlay gangib qolibdi. Nihoyat, Nelli uni o'z holiga qo'yib: «Ey Xudoyim, Xudo!», – deb qichqirganicha uydin zing'illab chiqib ketibdi. «Men kuni bo'yi kasal bo'lib yurdim, – qo'shib qo'ydi doktor o'z hikoyasini tugatib, – kechasi dori ichib yotdim...»

Nelli esa Masloboevlarnikiga chopibdi. Ularning ham manzillarini bilib olgan ekan, ancha mashaqqat bilan bo'lsa ham, izlab topibdi. Masloboev uyida ekan. Aleksandra Semyonovna Nellining ularnikiga kelib turish haqidagi iltimosini eshitib chapak chalib yuboribdi. «Nega u bilan turishni istamaysan, og'ir-mi?» – deb so'rasalar, Nelli javob bermabdi va faryod qilib o'zini kuraiga otibdi. «U shunday dodlab yig'ladiki, shunday yig'ladiki, – deb gapirardi Aleksandra Semyonovna, – ichagi uzilib o'lib qoladi, deb o'yladim». Hech bo'lmasa, un xodimasi, osh pishiruvchi qilib olinglar, pol ham supuraman, kir yuvishga o'rganaman debdi. Nima uchundir, u kir yuvish meni ishga oluvchilarni juda qiziqtirardi, deb o'ylar, shundan qandaydir umid kutar edi. Aleksandra Semyonovna to masala hal bo'l-guncha uni uylarida qoldirish va menga bu to'g'rida xabar berishmoqchi bo'libdi. Biroq Filipp Filippich qat'iy qarshilik qilib shu zahoti qochoqni menikiga eltib qo'yishga buyuribdi. Yo'l-yo'lakay Aleksandra Nellini o'pibdi, quchoqlabdi, Nelli esa battarroq yig'labdi. Unga qarab Aleksandra Semyonovna ham yig'lab yuboribdi. Shu alpozda ikkalalari butun yo'l bo'yi yig'lab kelishibdi.

– Axir, nima sababdan, Nelli, unikida turishni xohlamaysan, yoki u seni xafa qiladimi? – so'rabdi ko'z yoshlarini duv-duv to'kib Aleksandra Semyonovna.

– Yo'q, xafa qilmaydi.

– Nega bo'lmasa?..

– O'zim. xohlamayman unikida turishni. Turolmayman... Men unga shunchalik zaharlik qilamanki... u esa sofdil... Siznikida esa men zaharlik qilmayman, ishlayman, – debdi u yana qattiqroq yig'lab.

– Nima sababdan sen unga shunchalik zahringni sohasan, Nelli?

– Qaydam...

– Shu «qaydam»dan boshqa gap eshitmadim undan, – dedi soʻz oxirida Aleksandra Semyonovna yoshlarini artib, – nega shunchalik baxtsiz ekan, bechora? Tutqanogʻi bormikan-a yoki? Siz nima deb oʻylaysiz-a, Ivan Petrovich?

Biz Nelli oldiga kirdik; u yostiqqa yuzini qoʻyib yigʻlamoqda edi. Men uning oldiga kelib tiz choʻkdim, qoʻllarini ushlab oʻpa boshladim. U qoʻlini tortib olib battarroq uvvos solib yigʻlay boshladi. Men nima deyishimni ham bilmas edim. Xuddi shu chogʻ keksa Ixmenev kirib qoldi.

– Ha, salom alaykum, Ivan! Senga bir ish bilan kelgan edim, – dedi u hammamizga bir-bir qarab, mening tiz choʻkib oʻtirganimdan taajjublanib. Chol keyingi vaqtlarda betob edi. U rangsiz va ozgʻin, ammo-lekin kimningdir oldida oʻzini koʻrsatish uchun oʻz kasalini pisand qilmas, Anna Andreevnaning gaplariga quloq solmas, yotmasdan oʻz ishlari bilan yurgani yurgan edi.

– Hozircha yaxshi qolinglar, – dedi Aleksandra Semyonovna, cholga tikilib qarab qoʻyib, – Filipp Filippich, iloji boricha, tezroq qaytishga buyurgan. Ishimiz bor edi. Kechqurun qosh qorayganda kelib ikki soat oʻtirib ketarman.

– U kim boʻladi? – deb shivirladi chol. Miyasi boshqa narsa bilan bandga oʻxshardi. Men tushuntirdim.

– Hm. Mana, men bir ish bilan kelgan edim, Ivan...

Men qanaqa ishligini bilardim va uning kelishini kutgandim. U men bilan Nelli haqida gaplashish va uni soʻrab olib ketish uchun kelgan edi. Anna Andreevna axiyri yetimcha qiz olib asrashga rozi boʻlibdi. Bu esa bizning yashirin suhbatlarimiz oqibati edi: Anna Andreevnaga oʻz otasi tomonidan «oq» qilingan onaning qizi – yetimcha qizning ahvoli, ehtimol, bizning cholni ham koʻnglini eritar, yuragida boshqa fikrlar uygʻotar, deb aytgan va soʻzimni maʼqullatgan edim. Men unga oʻz rejalarimni shunchalik ravshan qilib tushuntirgandimki, uning oʻzi uyimizga yetimcha qiz olaylik, deb erini qiyin-qistoq qila boshladi. Chol

bajonidil bu ishga kirishdi: avvalo, u o'zining Anna Andreevna-sining ko'ngligini olmoqchi edi; ikkinchidan, uning maxsus mulohazalari bor edi... Ammo bularning hammasini men keyinroq batafsil tushuntiraman...

Men yuqorida aytib o'tgan edim, Nelli cholni o'sha birinchi ko'rishidayoq yomon ko'rib qolgan edi. Sezishimcha, uning oldida Ixmenev nomini tilga olsalar ham, uning yuzida allaqanaqa nafrat paydo bo'lar edi. Chol gapni u yoq-bu yoqdan aylan-tirib o'tirmasdan shu zahoti ishga tushdi. U hali ham yuzini yostiqqa bekitib yotgan Nelli oldiga keldi va uning qo'lini ush-lab: «Qizim o'rniga qiz bo'lib, menikiga borib turishni xohlay-sanmi?» – deb so'radi.

– Mening qizim bor edi, uni jonimdan ortiq sevar edim, – tugatdi so'zini chol, – ammo u yonimda emas. U o'lgan. Sen mening uyimda va... qalbmida uning o'rmini bosishni istay-sanmi?

Uning hayajon o'tidan qizargan quruq ko'zlarida yosh miltillardi.

– Yo'q, istamayman, – javob berdi, Nelli boshini ko'tarmay.

– Nega, axir, bolajonim, sening hech kimning yo'q. Ivan seni o'z uyida bir umr olib turolmaydi-ku, menikida esa xuddi o'z tug'ilgan uyingdagidek turasan.

– Istamayman, chunki siz qahri qattiq odamsiz. Ha, qahri qattiq, – qo'shib qo'ydi u boshini ko'tarib va o'rnida cholning ro'parasiga o'tira turib. – Men o'zim zaharman, hammadan ham zaharroqman, siz esa mendan battarsiz!... – Buni gapirib turib Nelli oqarib ketdi, ko'zlari chaqnadi, hatto qaltirayotgan lablari oqarib, g'azabini qo'zg'atgan qandaydir kuchli tuyg'udan qiy-shayib ketdi. Chol dovdirab unga qaradi.

– Ha, mendan ham battarsiz, chunki siz o'z qizingizni kechirishni istamaysiz, siz uni tamom esdan chiqarib, boshqa bolani o'zingizga olmoqchisiz. Axir, o'z farzandini unutib bo'la-dimi? Siz meni yaxshi ko'ra olarmidingiz? Axir, siz mening aftimga qarashingiz bilanoq men begona ekanimni, o'z qizingiz bo'lganligini, uni o'zingiz unutib yuborganligingizni eslaysiz.

Chunki siz qahri qattiq odamsiz. Men esa bag'ritosh odamlarnikida turishni istamayman. Istamayman dedim, istamayman!.. – Nelli xo'rsindi va ko'z qiri bilan menga qarab qo'ydi.

– Indinga Xristos¹ tiriladi, deb hamma bir-biri bilan o'pishadi, quchoqlashadi, hamma yarashadi, barcha gunohlar kechiriladi... Men, axir, bilaman-ku... Bitta siz shunday... Qahri qattiqsiz. Uh! Keting ko'zimdan!

Uning ko'z yoshlari duvullab oqa boshladi. Bu so'zlarni u anchadan beri o'ylab qo'ygan, mabodo chol yana uni uyiga taklif etgundek bo'lsa, aytish uchun yodlab olgan ko'rinadi. Chol tong qotib qolgan va rangi o'chib ketgan edi. Uning yuzida alamli tuyg'ular ifodalandi.

– Nega, nega endi, axir, hammaga mening g'amim tushib qoldi ekan? Xohlamayman dedim-ku, xohlamayman! – Chin-qirib yubordi Nelli birdan qattiq hayajon ichida, – men gadoychilik qilaman!

– Nelli, senga nima bo'ldi? Nelli do'stim! – deb yubordim men beixtiyor, biroq mening bu gapim o't ustiga moy sepgan bilan barobar bo'ldi.

– Ha, men, yaxshisi, ko'cha kezib, sadaqa so'rayman, ammo bu yerda qolmayman, – baqirardi u yig'lab turib. – Onam ham tilanchilik qilgan. U o'zi o'layotgan paytida sig'indi bo'lib yashagandan ko'ra qashshoq bo'lib tilanchilik qilgan yaxshi degan, sadaqa so'rash ayb emas, men bitta odamdand emas, hammadand so'rayman, hamma bu bitta odam emas, bittadand so'rash ayb, axir. Men kichkina bolaman, hech narsam yo'q. Men hammadand sadaqa so'rayman. Bu yerda qolishni istamayman, istamayman, istamayman, men yomonman, hammadand qahri qattiqman, mana mening qahrim qanaqa!

Nelli birdan hech kutilmaganda stol ustidagi quloq piyolani oldi-yu, polga bir urdi.

– Mana endi, chil-chil bo'ldi, – qo'shib qo'ydi allaqanday

¹ **Iso Masih** (*Iusus Xristos*) – Qur'onda tilga olingan payg'ambarlardan biri. Islomda Muhammad (s.a.v.) dan oldingi payg'ambar sifatida alohida e'zozlanadi. Qur'onda, shuningdek, «al-Masih» («Xudo yarlagagan»), Ibn Maryam («Maryamning o'g'li»), Abdulloh («Allohning quli»), Rasuhulloh («Allohning elchisi»), Allohning muqarrabi (yaqini), «Haqni so'zlovchi», deb ta'riflanadi. Unga Injil nozil qilingan.

behayo tantana bilan menga qarab qo'yib. – Quloq piyola faqat ikkitagina, – qo'shib qo'ydi u, – men unisini ham sindiraman... Unda choyni nimada ichasiz?

U shu qadar g'azablangan ediki, go'yo shu g'azablanishdan o'zi rohatlanayotgandek, o'zi buning qanchali uyat va odobsizlik ekanini sezib turgani holda nojo'ya harakatlarga o'zini majbur qilayotgandek edi.

– Men senga aytsam, buning sog' emas, Vanya, – dedi chol, – yoki... U qanaqa bola ekanligiga tushunmayotirman. Xayr!

Chol o'z furajkasini oldi-da, qo'limni qisdi. Uning ruhi tushgan edi. Nelli uni juda qattiq haqorat qildi. Meniki ham tutib ketdi:

– Rahming kelmadi-ya unga, Nelli! – baqirdim men, yolg'iz qolganimizdan keyin, – ayb emasmi? Uyalmaisanmi! Yo'q, sen oqko'ngil emassan, rostdan ham juda zaharsan! – dedim-u, shapkasiz-nesiz cholning orqasidan yugurganimcha chiqib ketdim. Men, hech bo'lmasa, darvozagacha kuzatib, uni yupatish uchun bir-ikki og'iz gap aytmoqchi edim. Zinadan g'izillab tushib ketayotganimda ham mening ta'nalarimdan oppoq oqarib ketgan Nellining yuzi ko'z oldimdan nari ketmasdi.

Men tezda chol orqasidan yetib oldim.

– Bechora qiz xo'rlangan, menga ishonaver, Ivan; uni ham o'z qayg'usi bor, men esa unga o'z hasratimni aytib o'tiribman, – dedi u achchiq kulib. – Men uni yaralarini yangiladim. «Och bilan to'qning nima ishi bor», – deydilar. Vanya, men shuni aytib qo'yayki, och ham ochni hamma vaqt tushunavermaydi. Xo'p bo'lmasa, xayr!

Men boshqa bir xususda gap ochmoqchi edim, chol qo'lini siltab qo'ya qoldi.

– Menga tasalli bermay qo'ya qol. Yaxshisi, ehtiyot bo'l, u sendan qochib ketmasin. Uning qarashi bejo, – qo'shib qo'ydi u g'alati alamzadalik bilan va shahdam qadam tashlab hassasini do'qillatganicha jo'nab qoldi.

U karomat qilganini o'zi ham bilmagandir.

Uyga qaytib kirib, Nelli yana uyda yo'qligini payqaga-

nimda qanday holga tushganimni tasvir eta olmayman! Men yo‘lakka yugurdim, zinalarni qidirdim, chaqirdim, hatto qo‘shnilarning eshigini taqillatib uni so‘radim; uning yana qochib ketishiga ishonmasdim ham, buni xohlamasdim ham. Qanday qilib qochdiki u? Hovlida darvoza bitta. Biz chol bilan gaplashib turganimizda u oldimizdan o‘tishi kerak edi. Ammo, afsuski, men nima bo‘lganini keyin angladim: to men uyga qaytib kelgunimcha u zinaning biror yerida bekinib turishi, men uyga kirib ketganimdan keyin qochib ketishi mumkin edi, men uni hech ham uchratishim mumkin emasdi. Har qalay, u uzoqqa ketolmasdi.

Qattiq tashvish bilan yugurib chiqib yana uni axtarishga tutindim, har ehtimolga qarshi uyni ochiq qoldirib ketdim.

Avval boshlab men Masloboevnikiga jo‘nadim. Masloboevlar o‘zi ham, Aleksandra Semyonovna ham uyda yo‘q ekan. Ularni yangi falokatdan xabardor qilib, agar Nelli kelsa, tezdan menga bildirishlarini so‘rab xat yozib qoldirdim-da, o‘zim doktornikiga yugurdim, u ham uyda yo‘q ekan, oqsochi: «Ikkinchi marta kelgani yo‘q», – dedi. Nima qilish kerak. Men Bubnovanikiga ravona bo‘ldim va tobutsoz tanishimdan, Bubnova kechadan beri qandaydir bir ish bilan politsiyada o‘tirganini eshitdim, Nellini esa o‘shandan beri hech kim ko‘rmabdi. Horibcharchab men yana Masloboevnikiga chopdim. O‘sha javobni eshitdim: hech kim kelmabdi, ularning o‘zlari ham hali qaytishmabdi. Xatim stolda yotibdi. Endi nima qilishim kerak edi?

Qayg‘uga botib kechqurun allamahalda uyga qaytib keldim. Shu oqshom men Natashanikida bo‘lishim kerak edi, u meni hali ertalab chaqirgan edi. Men esa kuni bilan hech narsa yeganim ham yo‘q, Nellining tashvishi mening bor vujudimni g‘alayonga keltirmoqda edi. «Bu nima degan gap o‘zi? – deb o‘yladim men. – Nahotki, bu xastalikning natijasi bo‘lsa. Jinni emasmikana, yoki endi jinni bo‘lib kelayotganmikan? Ey Xudoyim, u endi qayerda ekan, qayerdan topaman uni?»

Shu gap xayolimdan o‘tishi bilan, birdan mendan bir necha qadam narida V. ko‘prigida Nellini ko‘rib qoldim. U fonar tagida turar va meni ko‘rmas edi. Uning oldiga chopib bormoqchi

bo'ldim, lekin o'zimni to'xtatdim: «Bu yerda u nima qilib turgan ekan?» – o'yladim men hayron bo'lib va endi uni yo'qotib qo'ymasligimga ishonib, kutishga va uni kuzatib turishga qaror qildim. O'n daqiqacha o'tdi, u hamon o'tgan-ketganlarga qarab turardi. Nihoyat, yaxshi kiyingan bir chol o'tib qoldi, Nelli uning oldiga bordi, u to'xtamadi ham, cho'ntagidan nimadir chiqarib unga uzatdi, Nelli qulluq qildi. Shu daqika ichimdan nima o'tganini tasvir etolmayman. Yuragim iztirobdan siqilib ketdi. Go'yo men uchun qadrli, men sevib ardoqlagan, erkalagan bebaho bir kimsa shu daqika ko'zlarim oldida badnom etilgandek, sharmanda bo'lgandek tuyulib ketdi, biroq shu bilan birga ko'zlarimdan yoshlarim duvullab oqmoqda edi.

Ha, garchi bechora Nelli uchun yosh to'kayotgan bo'lsam ham, ayni zamonda g'azabim qo'ziyotganini sezdim; u muhtojlikdan sadaqa so'rayotgani yo'q edi. U biror kimsa tomonidan taqdir qo'liga tashlab qo'yilgan, tark etilgan emas; u berahm zolimlardan emas, uni sevib ardoqlagan do'stlaridan qochib ketdi. U o'z mardligi bilan kimnidir hayratda qoldirmoqchi yoki kimnidir qo'rqitmoqchi, shekilli, xuddi u biror kimsa oldida kerilmoqchidek! Ammo uning qalbida qandaydir bir sirli niyat bor... Ha, chol haqli; u xo'rlangan, uning jarohatlari tuzalmas va u xuddi mana bu sirlilik, hammamizga bo'lgan ishonchsizligi bilan jo'rttaga o'z jarohatlarini alamga kiritib, agar shunday deyish mumkin bo'lsa, go'yo o'zi bu azobdan, bir o'zi chekayotgan bu darddan xudbinlarcha rohatlangandek bo'lardi. Mana shu kabi jarohatlaringni alamga kiritmoq va undan huzur qilmoq tuyg'usi menga tushunarli edi. Juda ko'p xo'rlangan va haqoratlanganlar, taqdir tomonidan ezilgan va o'zi taqdirining nohaqligini tushunib chindan lazzatlanadilar. Ammo Nelli bizning qaysi adolatsizligimizdan shikoyat eta oladi? U go'yoki o'z injiqligi va yovvoyi qiliqlari bilan bizni hayratda qoldirmoqchi va cho'chitmoqchi, xuddi bizning oldimizda maqtanmoqchi edi... Yo'q! U endi yolg'iz, uning sadaqa so'raganini bizdan hech kim ko'rmasdi. Nahotki, u o'zi shundan bir lazzat oladi? Nima uchun u sadaqa so'raydi, nima uchun unga pul kerak?

Sadaqani olgandan keyin u ko'priktan tushdi va magazin-

ning yorug' oynasi oldiga keldi. Shu yerda u o'z o'ljasini hisoblashga tutundi. Men undan o'n qadamcha berida turibman. Qo'lidagi puli anchagina edi, uning ertalabdan beri tilangani ko'rinib turardi. Pullarni qo'lida siqimlaganicha u ko'chani kesib o'tdi va mayda-chuyda narsalar sotadigan do'konga kirdi. Men shu lahza lang ochilib turgan do'kon eshigi oldiga kelib qaradim. U bu yerda nima qilarkin?

Uning do'kon peshtaxtasiga pul qo'yganini va unga oddiygina quloq piyola berganlarini ko'rdim, u hali ertalab menga va Ixmenevga o'zining qanchalik zahar ekanini ko'rsatish uchun urib chil-chil qilgan quloq piyolaga o'xshardi. Bu quloq piyola hammasi bo'lib o'n besh tiyin va, balki, undan ham arzonroqdir. Do'kondor uni qog'ozga o'rab bog'ladi-da, Nelliga uzatdi. U shoshilganicha mamnunlik bilan do'kondan chiqdi.

– Nelli! – dedim men unga yonma-yon bo'lganimdan keyin, – Nelli!

U cho'chib tushib menga qaradi, qo'lidagi piyola qo'lidan sirg'alib ketib tosh yo'liga tushdi va chil-chil bo'ldi. Nellining rangi o'chib ketgan edi, ammo menga qarab, qilgan ishlarini ko'rganim va bilganimga ishongach, birdan qip-qizarib ketdi. Bu qizarish chidab bo'lmaydigan qattiq uyalish alomati edi. Men uni qo'lidan ushlab uyga olib keldim; uzoq yurishga to'g'ri kelmadi. yo'lda bir og'iz ham gaplashmadik. Uyga kelgach, men o'tirdim. Oldimda boyagidek rangi o'chgan qolda xayolchan, xijolat chekkan Nelli yerga boqib turar edi. U menga qarolmasdi.

– Nelli, sen sadaqa so'radidingmi?

– Ha, – shivirladi u va battarroq yerga qarab oldi.

– Sen ertalabki sindirgan quloq piyolani sotib olish uchun pul yig'moqchimiding?

– Ha...

– Men shu quloq shiyolani sindirding deb seni ta'na qildimmi, seni koyidimmi? Nahotki, Nelli o'z harakatingda qanchalik yomonlik, mag'rurona yovuzlik borligini ko'rmaysan-a? Shu yaxshimi? Nahotki, uyalmayсан? Nahotki...

– Uyat... – shivirladi u eshitilar eshitilmas va ko'z yoshi yonoqlaridan dumalab ketdi.

– Uyat... – dedim men uning soʻzini takrorlab. – Nelli azizim, agar men sening oldingda aybdor boʻlsam, kechir; kel, yarashamiz.

U yalt etib menga qaradi, koʻziga jiqqa yosh keldi va oʻzini koʻksimga otdi.

Shu daqiqada Aleksandra Semyonovna kirib qoldi.

– Nima? U uydami? Yana-ya? Eh, Nelli, Nelli, senga nima boʻlyapti-a? Xoʻp, mayli, yaxshi, har holda, uyda ekan-ku... Qayerdan topdingiz uni, Ivan Petrovich?

Men Aleksandra Semyonovnaga surishtiravermang degandek imlab qoʻydim, u tushundi. Men hamon achchiq-achchiq yigʻlayotgan Nelli bilan shiringina xayrlashdim va oqkoʻngil Aleksandra Semyonovnadan men qaytib kelguncha u bilan oʻtirib turishini iltimos qilib, oʻzim Natashanikiga yugurdim. Men kechikib qolgan edim, shuning uchun shoshilardim.

Shu oqshom bizning taqdirimiz hal boʻlishi kerak edi. Natasha bilan gaplarimiz juda koʻp edi, biroq shunday boʻlsa ham, men Nelli haqida gap ochib, nima voqea boʻlganini batafsil, oqizmay-tomizmay gapirib berdim. Mening hikoyam Natashani juda qiziqtirdi va hayratga soldi.

– Bilasanmi, Vanya, – dedi u oʻylab turib, – nazarimda, u seni sevadi.

– Nima... Qanaqa qilib? – soʻradim men taajjublanib.

– Ha, bu sevgining boshlanishi, ayol sevgisining...

– Nima deyapsan Natasha, qoʻysang-chi! Axir, u hali goʻdak-ku!

– Yaqinda oʻn toʻrtga toʻladi. Tutaqishining sababi uning ishqini sezmaganing. Balki, uning oʻzi ham oʻz qalbida nima boʻlayotganini tushunmas. Uning bu tutaqishida bolalarga xos xususiyatlar bor, ammo u jiddiy va aziyatli narsa. Muhimi u seni mendan rashk qiladi. Sen meni shu qadar sevasanki, ehtimol, uyda ham faqat meninggina tashvishimni qilib, meni ogʻzingdan tushirmay, fikri-zikring menda boʻlsa kerak va shu tufayli unga unchalik parvo qilmassan. Buni u sezgan va alam qilgan. U, balki, sen bilan gaplashishni xohlar, sening oldingda oʻz qalbidagi dardini ochishga ehtiyoj sezar, ammo uyaladi, nima istaga-

nini o'zibilmaydi, qulay payt poylaydi, sen esa shu qulay paytni yaqinlashtirish o'rniga undan uzoqlashasan, uning oldidan menikiga yugurasan, hatto u betob yotgan paytlarida ham kuni bilan yolg'iz tashlab ketasan. Shuning uchun ham u yig'laydi. Uning dardi – sen, hammasidan ham ko'proq alam qiladigan yeri shuki, sen uni tushunmaysan. Sen, mana hozir, shunday paytda ham meni deb uni tashlab kelibsan. Ha, endi shu sababdan u ertaga yotib qoladi. Qanday qilib uni tashlab kela olding? Bor, tezroq uning oldiga bor...

– Men uni yolg'iz qoldirmas edim ham-ku... ammo...

– Ha, men o'zim sening kelishingni so'ragan edim, Mayli, hozir bora qol uning oldiga.

– Borishga boraman, ammo bu gaplarning hech biriga ishonmayman.

– Chunki u boshqalarga o'xshamaydi. Sen uning boshidan kechirganlarini esla, hammasini o'ylab ko'rsang, shunda ishonasan. U sen bilan menga o'xshab o'sgan emas...

Shunga qaramay uyga kech qaytdim. Aleksandra Semyonovna, Nellining yana xuddi o'sha oqshomgidek juda ko'p yig'laganini, o'shandagidek «ko'zida yoshi bilan uxlab» qolgani aytdi. «Endi men ketay, Ivan Petrovich, Filipp Filippich shunday buyurgan. Bechora meni kutaverib esi ketgandir».

Men unga minnatdorchilik bildirdim va Nellining bosh tomoniga kelib o'tirdim. Shunday og'ir daqiqalarda uni tashlab ketganimga o'zim ham xafa edim. Men uning boshida, uzoq, tun yarimdan oshguncha xayol surib o'tirdim... Mash'um kunlar edi bu kunlar.

Biroq mana shu ikki hafta ichida bo'lib o'tgan hodisalarni gapirib o'tish kerak.

Anavi B. restoranida knyaz bilan o'tkazgan unutilmas oqshomdan beri men bir necha kun surunkasiga Natashadan xavotir olib yurdim. «Bu razil knyaz uni nima bilan qo'rqitayotgan ekan, nima qilib undan o'ch olmoqchi ekan? – deb so'rardim men o'z o'zimdanda dam-badam va turli-tuman gumonlar bilan boshimni qotirardim. Nihoyat, men shunday xulosaga keldimki, uning tahdidlari quruq dag'dag'a, maqtancholik emas, Natasha Alyosha bilan birga tursa, rostdan ham Natashaga yomonlik qilish knyazning qo'lidan keladi. U nazari past, qasos oluvchi, yovuz va manfaatparast odam, deb o'yladim men. U haqoratni esidan chiqarishi qiyin va o'ch olish uchun qulay paytdan foydalanmay qo'ymaydi. Har qalay, u bu masalaning bitta muhim tomoniga diqqatimni jalb etdi va shu haqda fikrini aniq va ravshan izhor etdi: u Alyoshani Natashadan ajralishini qattiq talab etardi, mendan Natashani shu yaqinlashib kelayotgan judolikka tayyorlashimni kutar edi. Natashani shunday tayyorlashim kerak ediki, hech qanaqa «janjal, ko'z yoshi, shillerchiliklar» bo'lmasligi kerak edi. Albatta, u hammadan ko'p Alyoshaning undan rozi bo'lishi va uni hamon mehribon ota deb hisoblashi to'g'risida g'amxo'rlik qilardi, bu esa unga keyinchalik Katyaning pullariga osongina ega bo'lishi uchun kerak edi. Shunday qilib, men Natashani yaqin orada yuz beradigan judolikka tayyorlashim kerak. Biroq Natashada katta o'zgarish sezdim: uning men bilan bo'lgan ilgari samimiyatidan asar ham qolmagan edi. Bu ham yetmagandek u menga ishonchsizlik bilan qaray boshladi. Mening tasallilarim unga azob berardi, mening so'roqlarim tobora jig'iga tegib, hattoki, jahlini chiqarardi. Shunday kunlar bo'lardiki, unikida o'tirib uni ko'zdan kechirardim! U qo'llarini qovushtirib olib uyda, go'yo behushdek, hatto oldida men borligimni ham unutib qo'ygandek parishon holda u burchakdan bu burchakka yurib turardi. Agarda menga ko'zi tushib qolgudek bo'lsa (u hatto mendan ham ko'zini olib qochardi), u holda yuzida birdan toqatsizlik, alam alomati ko'rinar, u tezda teskari qarab olar edi.

Men tushunardim: u yaqinlashib kelayotgan ayriliq haqida, balki, qandaydir o'zicha rejalar tuzardi, ammo ularni alam-sitamsiz o'ylan olarmidi? Uning ajralishga qaror berganiga imonim komil edi. Biroq shunga qaramay uning motamsaro umidsizligi meni xafa qilar va cho'chitar edi. Buning ustiga u bilan gaplashishga, tasalli berishga yuragim dov bermasdi, shu tufayli bu mojaro nima bilan tugashini dahshat bilan kutardim.

Endi, uning men bilan sovuq muomalasi va dimog'dorligiga kelsak, garchi bu meni tashvishga solsa ham, garchi meni xafa qilsa ham, Natashaning qalbiga ishonardim: uning azob chekayotgani va ko'ziga dunyo qorong'i ekanini ko'rib turardim. Birovning aralashishi uning faqat zardasini qaynatib g'azabini qo'zg'atar edi. Bunday hollarda, ayniqsa, sirlarimizni biladigan yaqin do'stlarimizning aralashishi hammadan ko'p jahlimizni chiqarardi. Ammo men oxirgi daqiqalarda Natasha xuddi mening oldimga kelishini va mening qalbimda o'ziga oromgoh qidirishini yaxshi bilardim.

Knyaz bilan bo'lgan gaplar haqida, shubhasiz, unga hech narsa demadim: bu gaplar buni battarroq hayajonlantirar, ko'nglini buzar edi. Men faqat so'z orasidagina knyaz bilan grafinyanikida bo'lganim va uning o'lgudek razil odam ekaniga batamom ishonganimni aytib o'tdim. Biroq u knyaz haqida so'roqlab ham o'tirmadi, buning uchun o'zim ham juda xursand bo'ldim, biroq Katya bilan ko'rishganim haqida nima gapirsam, hammasini diqqat bilan tingladi. Eshitib bo'lib bu ham Katya haqida hech narsa demadi, ammo uning rangpar yuzlariga qizil yugurdi va kuni bo'yi bezovta bo'lib yurdi. Men Katya haqida hech narsani yashirmadim, hatto menda ham ajoyib bir ta'sir qoldirganiga ochiqdan ochiq iqrar bo'ldim. Ha, yashirishning nima hojati ham bor edi? Axir, Natasha, baribir, yashirayotganimni payqardi va buning uchun meni koyirdi. Shuning uchun ham ataylab, mumkin qadar uning beradigan savollarini oldindan payqab batafsil gapirib berdim. U mendan so'rab-surishtiradigan ahvolda emasdi: axir, o'z kundoshining kamolotlari haqida o'zini beparvolikka solib turib o'smoqchilab savol berishi osonmidi?

Men knyazning qat'iy buyrug'iga muvofiq Alyosha grafi-

nya bilan Katyani qishloqqa kuzatib borishi kerakligini hali u bilmaydi deb o'yladim va zarba mumkin qadar yengil bo'lsin uchun bu haqda qanday gap ochsam ekan, deb qiynalib turardim, ammo og'zimdan chiqmasdan turiboq Natasha meni to'xtatib: «Chaynalmay qo'ya qol, men buni bundan besh kun ilgari eshitganman», – desa hang-mang bo'lib qolibman.

– E Xudo! – baqirdim men, – axir, senga kim aytdi?

– Alyosha.

– Nima? Ayta qoldimi u?

– Ha, men qat'iy qarorga kelib qo'ydim, Vanya, – qo'shib qo'ydi u, shu to'g'rida og'iz ochmasligimni ochiqdan ochiq talab etuvchi ifoda bilan.

Alyosha Natashanikiga tez-tez kelib turardi. Ammo hamma vaqt bir daqiqagagina kelardi, faqat bir marta men yo'g'imda surunkasiga bir necha soat o'tirib ketibdi. Odatda u ma'yus holda kirib kelar, Natashaga muloyimgina qo'rqa-pisa tikilardi, ammo Natasha uni shu qadar muloyim, shu qadar mehribonlik bilan kutib olar ediki, u shu zumdayoq hamma narsani unutib, vaqti xush bo'lib ketardi. Menikiga ham Alyosha bot-bot, deyarli har kuni keladigan bo'lib qoldi. To'g'ri, u qattiq azoblanardi, bir daqiqa bo'lsin o'z hasrati bilan yolg'iz qololmas, har daqiqa mendan tasalli eshitish uchun kirib turardi.

Nima deya olardim men unga? U meni sovuq va beparvosan deb ayblar, hattoki unga nisbatan yovuz niyatda ekanligimni aytib o'pka qilar, qayg'urar, yig'lar, Katyanikiga ketib qolar va o'sha yerda ko'ngli orom olar edi.

O'sha, Natasha menga ularning ketishini bilishini aytgan Kuni (knyaz bilan gaplashganimdan bir hafta keyin) Alyosha umidsizlik bilan oldimga yugurib kelib, meni quchoqlab oldi va bolalardek ho'ngrab-ho'ngrab yig'ladi. Men indamasdan, uning nima deyishini kutardim.

– Men pastkash, men razil odamman, Vanya, – boshladi u, – qutqar meni o'z o'zimdan. Men pastkash, razil ekanimdan yig'layotganim yo'q, men tufayli Natasha baxti qaro bo'ladi, shuning uchun yig'layapman. Axir, men uni baxtsiz qilib tashlab ketyapman... Vanya, do'stim, menga ayt, men uchun hal qil, men

kimni ko'proq sevaman: Katyanimi yoki Natashanimi?

– Men buni hal etolmayman, Alyosha, – javob berdim men, – mendan ko'ra senga ayonroq.

– Yo'q, Vanya, buni aytayotganim yo'q, men bunday savolni beradigan darajada ahmoq emasman. Biroq gap shundaki, men o'zim nimaligini bilmayman. O'zinga o'zim savol berib, javob topolmayman. Sen esa chetdan turib, balki, mendan ko'ra ko'proq bilarsan... Xo'p, agar bilmasang ayt-chi, senga qanday tuyuladi?

– Menimcha, sen Katyani ko'proq sevasan.

– Senga shunday tuyuladi! Yo'q, yo'q, hech ham! Sen hech ham topmading. Men Natashani benihoya sevaman. Men hech ham, hech qachon uni tashlab ketolmayman, men buni Katyaga ham aytdim. Katya ham menga batamom qo'shildi. Nega indamaysan? Mana ko'rib turibman, iljayding. Eh, Vanya, sen meni hozirgidek og'ir vaqtlarda ham yupatmagansan...

U bizning so'zlarimizga indamay quloq solib o'tirib hayron qolgan Nellida g'oyat kuchli ta'sir qoldirib g'izillaganicha uydan chiqib ketdi. O'shanda Nelli hali betob, o'rinda yotar, dori ichar edi. Alyosha u bilan hech qachon gaplashmas, kelgan paytlarida unga qiyo boqib qaramasdi ham.

Ikki soatdan so'ng u yana keldi. Ochiq chehrasini ko'rib hayron qoldim. U yana mening bo'ynimga yopishib quchoqladi.

– Ish bitdi! – qichqirdi u, – hamma anglashilmovchiliklar hal etildi. Sizdan chiqib men to'ppa-to'g'ri Natashanikiga bordim. Men xafa edim, usiz turolmasdim. Kira solib men uning oldida tiz cho'kdim va oyoqlaridan o'pdim. Shunday qilmasam bo'lmasdi, shuni istardim, busiz mening yuragim tars yorilar edi. U meni so'zsiz quchoqladi va yig'lab yubordi. Shunda men Katyani undan ko'ra ortiqroq sevishimni yuziga aytdim...

– U-chi?

– U hech narsa demadi, faqat meni erkalab ovuta boshladi, meni-ya! Unga shunday so'zni aytgan odamni-ya! U tasalli berishga usta, Ivan Petrovich! O, men butun hasratlarimni unga aytib yig'lab-yig'lab xumordan chiqdim. Men to'g'ridan to'g'ri Katyani qattiq sevishimni, ammo qanday yaxshi ko'rmayin, kim-

ni yaxshi ko'rmayin, baribir, usiz, ya'ni Natashasiz yashay olmasligimni, o'lishimni aytdim. Ha, Vanya, men usiz bir kun ham turolmayman. Ha, buni sezyapman! Shuning uchun biz to'xtovsiz nikoh o'qittirib olishga qaror qildik. Biroq bu ishni ketishimizga qadar to'g'rilash mumkin emas, chunki hozir ro'za payti, nikoh o'qishmaydi, shuning uchun buni men kelganimdan keyin, birinchi iyunda qilamiz. Otam ijozat beradi, bunga shakshubha yo'q. Katyaga kelsak, xo'sh, nima bo'libdi! Axir, men Natashasiz turolmayman-ku... Nikoh o'qitib olamiz-da, u bilan Katya turgan yerga boramiz...

Bechora Natasha! Mana bu yigitni yupatish, uning oldida o'tirib rozini tinglash va bu soddadil xudbin yigitni tinchitish uchun yaqinda bo'ladigan nikoh haqida cho'pchak o'ylab topishni ayting! Alyosha, haqiqatan ham, bir necha kun tinchlanib yurdi. U, ayniqsa, shuning uchun ham Natashanikiga tanda qo'y-gandiki, uning ojiz qalbi tanho bu g'amlarni ko'tarolmasdi. Ammo shunga qaramay, hijron damlari yaqinlashgan sari u qaytadan tashnishga tushib qoldi, yana ko'z yoshi qilib, mening oldimga kelib o'z hasratini aytib ko'nglini bo'shatib ketadigan bo'ldi. Keyingi vaqtlarda u Natashaga shu qadar bog'lanib qoldiki, bir yarim oy emas, bir kunga ham uni tashlab ketolmasdi. Ammo u oxirgi daqiqagacha, Natashani faqat bir yarim oyga qoldirib ketayotganligi, qaytgandan keyin, albatta, ularning to'yi bo'lishidan ko'ngli to'q edi. Natashaga kelsak, u o'z navbatida uning taqdiri tubdan o'zgarayotganini, Alyosha endi hech qachon unga qaytib kelmasligini va shunday bo'lishi kerakligini batamom tushunardi.

Judolik kuni yetib kelmoqda. Natasha kasal edi, rangi ketgan, ko'zlari qizargan, qovjiragan lablar bilan u har zamonda o'z o'zi bilan so'zlashar, har zamonda menga yalt etib, sinchkov nazar tashlab qo'yar, yig'lamas, savollarimga javob bermas edi. Eshikdan kirib kelayotgan Alyoshaning qo'ng'iroqdek ovozi eshitilganda daraxt bargidek titrab ketardi. U shafaq kabi qizarib, oldiga yugurib borar, uni qattiq quchoqlar, o'par, kular edi... Alyosha unga tikilib-tikilib boqar, ba'zan tashvish bilan uning tani sog'ligini so'rar, uncha uzoq muddatga ketmayotganligi, ke-

yin to'ylari bo'lishini aytib uni yupatar edi. Natasha o'zini bosishga urinar, yoshlarini ichiga yutar edi. Natasha uning oldida yig'lamasdi.

Bir gal Alyosha, unga o'zi yo'qligida yetadigan pul qoldirmoqchi ekanini, uning bezovta bo'lmasligini, otasi yo'lga juda ko'p pul bermoqchi bo'lganini aytib qoldi. Natasha xo'mrayib oldi. Biz o'zimiz yolg'iz qolganimizda, har ehtimolga qarshi uning uchun menda bir yuz ellik so'm pul borligini aytdim. Natasha pulni qayerdan olganimni surishtirmadi ham. Bu Alyoshaning ketishiga ikki kun qolganda va Natashaning Katya bilan birinchi va oxirgi uchrashuvi arafasida edi. Katya Natashadan ertaga uchrashuvga ruxsat so'rab Alyosha orqali xat berib yubordi. Shu bilan birga menga ham yozibdi. Katya ularning uchrashuvida mening ham bo'lishimni so'rabdi.

Men har qanday moneliklarga qaramay Natashalarnikiga soat o'n ikkiga (Katya belgilagan soatga), albatta, borishga qaror qildim, tashvish va moneliklar esa boshdan oshib yotardi. Nellini hisobga olmaganda ham keyingi vaqtlarda Ixmenevlarnikidati tashvishlar menga yetib ortadi.

Bu tashvish bundan bir hafta oldin boshlandi. Bir kun ertalab Anna Andreevna, hech kechiktirib bo'lmaydigan juda ham zarur ish bor, har qanaqa ishing bo'lsa ham tashlab to'xtovsiz menikiga yetib kel, deb menga odam yubordi. Men uning oldiga kelganimda yolg'iz o'zi edi. U qattiq hayajon va qo'rquvdan titrab uyda u yoqdan bu yoqqa yurib turar, Nikolay Sergeichning qaytishini jonsaraklik bilan kutardi. Odatdagicha, men anchagacha nima gapligini, nega shunchalik joni chiqib ketganini surishtirib bila olmadim. Holbuki har daqiqa g'animat edi. Niho-yat, achchiq-achchiq, ishga hech qanaqa aloqasi bo'lmagan ta'nalardan keyin:

«Nega kelib turmaysan, o'z yog'larida o'zlari qovurilsin degandek bizlarni yetimcha qilib tashlab qo'yding, sensiz nima balolar bo'lyapti, Xudoning o'zi biladi» deb, keyin Nikolay Sergeichning so'nggi uch kun ichida shu qadar bezovta bo'lganini aslo til bilan bayon qilib bo'lmasligini bildirdi.

– Butunlay o'zgarib ketgan, – derdi u, – kechalari mendan

berkitib ikona oldida titrab-qaqshab, tiz cho'kib duo o'qiydi, uyqusiraydi, o'ngida bo'lsa xuddi es-hushini yo'qotgan odamdek. Kecha karam sho'rva ichmoqchi bo'lib o'tirsak, oldida turgan qoshiqni topolmadi. Bog'dan so'rasam, u tog'dan keladi. Ba'zan uydan chiqib ketadigan bo'lib qoldi. «Ish bor, advokatni ko'rishim kerak», – deydi; bugun ertalab o'z kabinetiga kirib ichidan bekitib oldi; «Janjalli ishlar haqida qog'oz yozishim kerak», – dedi. Xo'sh, oldidagi qoshiqni topolmagan odam qanaqa xat yozar ekan, deb o'yladim, o'zimcha. Shunday bo'lsa ham, tirqishdzn qaradim, yozyapti-yu, o'zi xun-xun yig'laydi. «Ishga daxldor xatni nega bundan yozarkan! – deb o'ylayman. – Yoki rostdan ham Ixmenevkamizga shu qadar yuragi achiyotganmikin, demak, Ixmenevkamizdan tamom mahrum bo'libmizda!» Men shuni o'ylab tursam u birdan o'rnidan sapchib turdiyu, peroni stolga qarab otdi, o'zi qip-qizarib, ko'zlari chaqnab, furajkasini changallaganicha mening oldimga chiqdi. «Anna Andreevna, men tezda qaytib kelaman», – dedi. O'zi chiqib ketdi, men darrov uning yozuv stoli yoniga bordim, bizning janjalimiz haqida qog'oz demaganingiz uyilib ketgan, ammo ularga qo'l tegizdirmaydi. Men necha martalardan; «Axir, baraka topkur, hech bo'lmasa, qog'ozlarni ko'tarib stolning changini artishga ruxsat bersang-chi!» – deb ko'rdim. Qayda! Baqirib beradi, qo'llarini silkitadi, Peterburgga kelib u besabr, baqiroq bo'lib qoldi. Shunday qilib, men stol oldiga keldim-u, hozir yozgan qog'ozni qaysi ekan, deb qidira boshladim. Negaki, u qog'ozni o'zi bilan olib ketmaganini, o'rnidan turib boshqa qog'ozlar tagiga tiqib qo'yganini aniq bilaman. «Mana, bo'tam, Ivan Petrovich, qarang-chi, men nima topdim?»

U menga yarmigacha yozib tashlagan bir bet pochta qog'ozini uzatdi, xat shu qadar o'chirilib yozib tashlanganki, ba'zi joylarini asti o'qib ham bo'lmaydi.

Bechora chol! Birinchi satrlaridanoq maktubni kimga yozganini payqash mumkin edi. Bu Natashaga, jondan ortiq sevgan Natashasiga yozilgan xat edi. Xat otashin va muloyim so'zlar bilan boshlanar edi: afv so'rab, uni o'ziga chaqirar edi. Telba-teskari va ko'p joylari o'chirib tashlangan hayajonli mak-

tubning hammasiga tushunish qiyin edi. Faqat shu narsa ko‘rinib turar ediki, uni qo‘liga pero olishga va dastlabki samimiy satrlarni yozishga majbur etgan qizg‘in tuyg‘ular, tezdan, shu birinchi satrlardan keyinq tubdan aynib ketibdi: chol qizidan gina qila boshlabdi, uning jinoyatini yorqin tasvirlabdi, shafqatsizligini, balki ota-onasini nima ahvolga solganini biror marta xayoliga ham keltirmaganini yozib ta‘na qilibdi. Takabburligi uchun uni jazolash, «oq» qilish kerak, deb qo‘rqitibdi va to‘xtovsiz itoat qilib uyga qaytishini talab etib xatni tugatibdi. «Ehtimol, oiladagi itoatkorliging va namunali hayotingdan so‘ng kechirishga qaror qilarmiz», – deb yozibdi u. U o‘zining avvalgi oliyjanob tuyg‘ularini, bir qancha satrlardan so‘ng ojizlik deb hisoblab uyalgani ko‘rinib turardi, va nihoyat, g‘ururining haqorat etilganini sezib maktubni g‘azab va tahdidlar bilan tugatibdi. Kampir qo‘llarini qovushtirganicha mening oldimda turar va xatni o‘qiganimdan keyin mening nima deyishimni jonini hovuchlab kutib turar edi.

Men unga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘z fikrimni aytdim. Cholning endi Natashasiz yashashga majoli qolmaganligi va yaqin kunlarda ularning yarashib olishi zarurligini, ammo-lekin bular hammasi sharoitga bog‘liq ekanini aytdim. Men o‘z taxminlarimni gapirdim: birinchidan, knyazning qozongan g‘alabasi uning izzat-nafsini qanchalik tahqirlagani va ishning bu xilda hal etilishi tufayli unda qahr-u g‘azab uyg‘onganini bir chekkaga yig‘ishtirib qo‘yganda ham sudlashishning xunuk oqibati uni shubhasiz qattiq ranjitib va hayajonga keltirgan. Bunday daqiqalarda ko‘ngil o‘ziga hamdard izlamay turolmaydi, u dunyoda jonidan ham aziz ko‘rgan qizini eslagan. Nihoyat, shunday bo‘lishi ham mumkin: ehtimol, u tez kunlarda uni Alyosha tashlab ketishini (chunki Natasha haqidagi hamma gaplarni u biladi va ularni kuzatib boradi) eshitgandir. U qizining holi endi nima kechayotganini va o‘zidan qiyos qilib unga hozir qanchalik tasalli zarurligini tushungan bo‘lishi kerak. Biroq, shunga qaramay, u o‘zini qizi tomonidan xo‘rlangan va haqoratlangan hisoblab, o‘z izzat-nafsini yenga olmasdi. Balki, uning xayoliga shu gaplar ham kelgandir: har qalay, qiz oldin uning oldiga kelmaydi: ehtimol, u kelishni o‘ylamas ham va yarashishga hech qanaqa

ehtiyoj ham sezmas. Mana shunday o'ylagan bo'lishi mumkin, – dedim men o'z fikrimni xotimalab, – mana shuning uchun u xatni oxiriga yetkazmagan va, ehtimolki, bulardan avvalgidan ham o'tib tushadigan yangi xunuk gaplar chiqib qolishi ham hech gap emas, kim biladi, yarashish tag'in uzoqqa cho'zilib ketar.

Kampir mening gaplarimni tinglab turib yig'lar edi. Niho-yat, men Natashanikiga hozir borishim zarurligi, men kechikib qolganimni aytganimda u tipirchilab qolib eng kerakli gap esidan chiqib qolganini aytdi. Xatni qog'ozlar tagidan ola turib bexos-dan uning ustiga siyoh to'kib yuboribdi. Maktubning bir burcha-giga siyoh to'kilib ketgan edi, kampir endi chol mana bu dog'ni ko'rib, u yo'g'ida qog'ozlarning titilgani va Anna Andreevna Natashaga yozilgan maktubni o'qilganini bilib qolishidan qo'r-qib ketdi. Uning qo'rqanida ham jon bor edi: biz uning sirini bilib qolganimizni bilsa bormi, uyatdan va jahli chiqqanidan uning gina-kudurati uzoqqa cho'zilishi va kechirishga bo'yni yor bermay qolishi mumkin edi.

Ammo voqeaga tushunganimdan keyin kampirmi tashvish qilmaslikka unatdim. U stoldan shu qadar hayajon bilan turib ketganki, endi mayda-chuyda narsalar esida ham yo'qdir, xatni o'zi iflos qilgan va buni esidan chiqarib qo'yganman deb o'ylashi mumkin. Shunday qilib, Anna Andreevnani yupatdim-da, xatni sekingina avvalgi joyiga qo'yib qo'ydik. Men esa keta turib u bilan Nelli haqida gaplashmoqchi bo'ldim. Nazarimda, onasi, o'z otasi tomonidan «oq» qilingan bechora g'arib – yetimcha o'zining o'tmish hayoti, onasining vafoti haqidagi fojiali hiko-yalari bilan cholning ko'nglini yumshatishi, unda oliyjanob hissiyotlar uyg'otmog'i mumkin edi. Uning yurak-bag'ri ezilib ado bo'ldi, qizining sog'inishi endi uning g'ururidan va haqorat-langan izzat-nafsidan zo'r chiqmoqda. Faqat birgina turtki, qulay bir hodisa yetishmay turardi, mana shu qulay hodisa o'rmini Nelli bosishi mumkin. Kampirsho gapimga diqqat bilan quloq soldi, yuzlari umid va zavq bilan jonlanib ketdi. U shu zahotiyoq nima uchun shuni ilgariroq aytmaganimdan gina qila boshladi. Sabr-sizlik bilan Nellini so'rab-surishtira boshladi. Endi uning o'zi yetim qizni olib boqishga cholni ko'ndirishga tantanali va'da

berib gapini tamomladi. Endi u chin qalbdan Nellini seva boshladi, kasal ekaniga achindi, u haqda hadeb so'rayverdi. Nelli uchun o'zi ataylab qaznoqdan bir banka qiyom olib chiqib berdi; doktor uchun puling yo'qdir, deb qo'limga boqish uchun besh so'lkavoy¹ bermoqchi bo'ldi, men olmadim. Nelliga hali ancha narsa kerak bo'ladi, deb o'z o'ziga tasalli berdi, hoynahoy, kiyim-kechak kerakdir deb u shu zahoti sandiqni ochib «etimchaga» hadya qilsa bo'ladigan kiyim qidirib o'z ko'ylaklarini tita boshladi.

Men esa Natashanikiga ketdim. Yuqorida aytib o'tganimdek, aylanma tik zinaga qadam qo'yganimga yuqori pog'onada, Natashaning eshigi oldida, endigina eshikni qoqmoqchi bo'lib turgan, biroq mening oyoq tovushimni eshitib to'xtab qolgan bir kishini ko'rib qoldim. Nihoyat, u kishi, chamasi, biroz ikkilanib turib birdan niyatidan voz kechdi, shekilli, pastga tusha boshladi. Men u bilan zinada to'qnash keldim, bu odam Ixmenev ekanini ko'rib hang-mang bo'lib qolsam bo'ladimi! Zinapoya kunduz kuni ham juda qorong'i edi. U menga yo'l berish uchun devorga suyandi. Shu chog' g'alati qilib menga tikilib turgani esimdan chiqmaydi. Nazarimda, u lovlagisi chiqib qizarib ketdi. Chamasi, o'lardek xijolat tortib, dovdirab qoldi.

– E, Vanya, senmiding! – dedi u tutilib-tutilib, – mana shu yerga bir odamnikiga... bir mirzoning oldiga... ish bilan kelgandim... Yaqinda ko'chib kelgan... Shu yerga, allaqayerga... Ha, bu yerda turmaydi, shekilli, yanglishibman. Xayr.

U g'izillaganicha zinadan pastga tushib ketdi.

Men bu uchrashuv haqida hozircha Natashaga hech gap aytmaslikka qaror qildim, ammo Alyosha ketib u yolg'iz qolgani keyin, shu zahoti aytishni niyatlab qo'ydim. Hozir esa u shu qadar xafaki, garchi shu bo'lib o'tgan hodisani tushunib, uning tub ma'nosini qamrab olishga qodir bo'lgani bilan, keyinroq, baribir, qayg'u-hasrat boshiga tushgan daqiqalaridek qattiq his va idrok etolmasdi.

Shu kun men Ixmenevlarnikiga borishim mumkin edi, shunga ko'nglim chopib ham turgandi, ammo bormadim, naza-

¹ So'lkavoy (ruscha: целковый) – bir so'mlik tanga.

rimda, chol uchun mening ko'zimga qarash juda og'ir bo'lsa kerak; u shu uchrashuv tufayli meni ataylab yelib-yugurib kelibdi deb o'ylashi ham mumkin edi. Ularnikiga oradan ikki kun o'tkazib bordim. Chol xafa edi. Ammo meni ancha betakalluf kutib oldi va hadeb o'z ishi haqida gapiraverdi.

– Anavi kuni kimnikiga borgan eding, huv boloxonadachi, esingda bormi, sen bilan uchrashib qolgan edik, uch kun bo'ldi, shekilli, – so'radi u to'satdan o'zini beparvolikka solib, lekin ko'zlarini mendan olib qochib.

– O'sha yerda bitta oshnam turadi, – javob berdim men ham boshqa yoqqa qarab turib.

– E! Men esa mirzamni axtarib yurgan edim, Astafevni; menga o'sha uyni ko'rsatishdi... yanglish ekan... Xo'sh, shunday qilib men senga o'z ishimni gapirayotgan edim, senatda shunday qaror qilibdilar... – va hokazo va hokazo...

U ish xususida gapirayotganda hatto qizarib ham ketdi.

Men shu kuniyoq Anna Andreevnani xursand qilish uchun unga hamma gapni gapirib berdim, ammo cholga hadeb serma'no qarayvermasligini, uning oldida hadeb uh tortmasligini, hech qanaqa narsaga shama qilmasligini, xullas kalom, uning keyingi qilig'idan xabardor ekanligini hech qanaqa yo'l bilan sezdirmasligini yolvorib so'radim. Kampir shu qadar hayron qolib, quvonib ketdiki, hatto avval gapimga ishonmadi ham. U ham o'z navbatida Nikolay Sergeichga yetim qiz haqida gap ochganini, ammo uning o'zi avval yetimcha boqib olishni shuncha qistaganiga qaramay, bu gal indamay qo'ya qolganini, ammo uning o'zi avval yetimcha boqib olish haqida unga, gapni aylantirib o'tirmay, po'skallasini aytadi-qo'yadi.

Ammo ertasi ikkalamiz ham qattiq dahshatga tushib, qattiq tashvish tortdik.

Bundog' bo'libdi: Ixmenov, ertalab uning ishlari haqida harakat qilib yurgan chinovnik bilankurishibdi. Chinovnik knyazni ko'rganini va knyaz garchi Ixmenovkani o'z foydasiga qoldirgani bilan ba'zi bir oilaviy mojarolar munosabati-la» cholni mukofotlashga va unga o'n ming so'm berishga qaror qilganini aytibdi. Chinovnikning oldidan chol to'g'ri menikiga keldi,

fig'oni falakka chiqqan, ko'zlari g'azab o'ti sochardi. U meni, bilmayman nima uchundir, uydan zinapoyaga chaqirtirdi va darhol knyaz oldiga borib duelga chaqirganini aytishimni talab etdi. Men shu qadar dovdirab qolgan edimki, anchagacha nimeligini tushunmadim. Men uni yo'ldan urmoqchi bo'lgandim, chol shu qadar qattiq g'azablanib ketdiki, ko'ngli ozib qolayozdi. Men uyga suvga yugurdim, ammo kaytib kelganimda zinapoyada Ixmenevning arvohi ham qolmagan edi.

Ertasi kun men ularnikiga jo'nadim, ammo uyida yo'q ekan, shu ketgancha u uch kun domi-daraksiz ketibdi.

Uchinchi kunigina biz nima gapligini bildik. U menikidan chiqib to'g'ri knyaznikiga yuguribdi, uni uydan topolmay xat tashlab ketibdi; u o'z xatida: knyazning chinovnikka aytgan so'zini eshitganini, shunga ko'ra o'zini g'oyatda darajada haqorat etilgan odam deb hisoblaganini ta'kidlab, knyazni eng tuban razil odam deb bilgani uchun uni duelga chaqirishini, u dueldan bo'yin tovlamasligini, aks holda jamoat o'rtasida sharmanda qilinishini yozib ogohlantiribdi.

– Chol uyga shunday xafa keldiki, azbaroyi xunobi oshib ketganidan yotib qoldi. – dedi menga Anna Andreevna. U kampir bilan xushmuomala bo'libdi, ammo savollariga uncha javob bermabdi, u bir narsani sabrsizlik bilan tipirchilab kutgandek ko'rinardi. Ertasiga ertalab shahar pochtasidan xat kelibdi. Xatni o'qib turib birdan baqirib yuboribdi va boshini changallab qolibdi. Anna Andreevna qo'rqqanidan joni chiqib ketayozibdi. Chol esa shu zumdayoq shlyapa, hassasini olib yugurganicha chiqib ketibdi.

Xat knyazdan ekan. U sovuqqina, qisqagina va muloyimgina qilib, o'zining chinovnikka aytgan so'zlari uchun hech kimga hisob bermoqchi emasligini Ixmenevga bayon qilibdi. U garchi protsessda yutqazgani uchun Ixmenevga qattiq achingani bilan, afsuski, da'voda yutqizgan kishining qasos olish uchun o'z raqibini duelga chaqirishga haqli ekanini to'g'ri deb topolmaydi. Endi «jamoat oldida sharmanda qilish» bilan qo'rqitishlariga kelsak, bu to'g'rida Ixmenev tashvish tortmasa ham bo'ladi, negaki hech qanaqa jamoat oldida sharmanda qilish mumkin ham

emas. Maktub esa to'xtovsiz tegishli joyiga topshiriladi va ogohlantirib qo'yilgan politsiyaning tartib va osoyishtalikni saqlash uchun tegishli choralarni ko'rishga qudrati yetsa kerak, deb yozibdi.

Ixmenev qo'lida maktubni changallaganicha knyaznikiga chopadi. Knyaz yana uyda yo'q ekan. Lekin chol, lakeydan knyaz hozir graf N.nikida ekanligini bilib oladi. Uzoq o'ylab turmasdan u grafnikiga yuguradi. U zinapoyadan chiqayotganidayoq uni graf shveytsari¹ to'xtatadi. Joni halqumiga kelgan chol uni hassasi bilan solib yuboradi. Shu zahoti uni ushlab ko'cha eshikka olib chiqadilar va politsiyaga topshiradilar. Politsiya uchastkaga jo'natadi. Grafga bu gapni yetkazadilar. Bu hodisa yuz berganda shu yerda bo'lgan knyaz shahvatparast mo'ysafidga, bu – o'sha Ixmenev, – o'sha Natalya Nikolaevnaning otasi ekanini tushuntiradi (knyaz bunaqa ishlar bilan grafning ko'p martalar ko'nglini olgan), shunda mansabdor mo'ysafid kulibgina qo'ya qoladi va g'azabini afv bilan almashtiradi. Ixmenovni boshi oqqan yoqqa jo'natishga buyruq beriladi, biroq uni faqat uchinchchi kuni bo'shatadilar, shu bilan birga cholga (knyazning buyrug'i bilan bo'lsa kerak) knyazning o'zi grafdan afv etishini so'raganini e'lon qiladilar.

Chol xuddi jinnilardek uyga qaytib keldi, o'zini karavotga tashladi va bir soat qimir etmay yotdi, nihoyat, o'rnidan qo'zg'alib, Anna Andreevnani dahshatga keltiruvchi so'zlarni aytdi, ya'ni u tantana bilan o'z qizini abadiy «oq» qilganini va oq fotiha bermasligini e'lon qildi.

Anna Andreevna dahshatga keldi, ammo cholga qarab turish kerak edi, o'zi ham hushidan ketay deb zo'rg'a yurib, kuni bo'yi tuni bilan cholni parvarish qilib chiqdi, boshini sirka bilan ho'llab, muz qo'ydi. Chol isitmalab alahlab chiqdi. Men kechasi soat ikkilardan o'tganda ularnikidan jo'nadim. Ammo Ixmenov ertalaboq bosh ko'tardi va shu kuniyoq, Nellini endi butunlay olib ketish uchun menikiga keldi. Biroq Nelli bilan uning o'rtasida bo'lgan anavi voqeani aytib o'tgan edim, bu mojaro uni

¹ Shveysar – mashhur restoran, mehmonxona, muzey va boshqa shunga o'xshash maishiy joylarda mehmonlarni kutib olish va kuzatib qo'yish uchun ma'sul xodim.

butunlay ezib tashladi. Uyga qaytgandan keyin ko'rpa-yostiq qilib yotib oldi. Bular hammasi pasxadan oldingi juma kuni – Katya bilan Natashaning uchrashadigan kuni, Alyosha bilan Katyaning Peterburgdan jo'nash arafasida ro'y berdi. Bu uchra-shuvda men bo'ldim: ular ertalab barvaqt hali chol menikiga kelmasdan burun, Nellining birinchi marta qochib ketishidan oldin uchrashishdi.

VI BOB

Uchrashuvga bir soat qolganda Alyosha Natashani ogohlantirib qo'yish uchun yetib keldi. Men Katyaning kolyaskasi xuddi bizning darvoza oldiga kelib to'xtagan paytda keldim. Katyaning yonida frantsuz ayol bor edi, u juda uzoq yalinish va ikkilanishlardan so'ng, nihoyat, Katya bilan birga kelishga rozi bo'libdi va hatto uning yolg'iz o'zini yuqoriga – Natasha oldiga chiqishga ham ruxsat beribdi, ammo-lekin Alyosha ham birga bo'lishini so'rabdi, o'zi esa kolyaskada qolibdi. Katya, kolyaskadan tushmay turib meni chaqirib oldi-da. Alyoshani chaqirib berishimni so'radi. Natashaning yig'lab o'tirgani ustiga kelib qoldim, Alyosha ham, u ham yig'lab o'tirishardi. Katya kelganini eshitib Natasha o'rnidan turdi, ko'z yoshlarini artirdi va hayajon bilan eshik to'g'risiga kelib turdi. Shu kun ertalab u boshdan oyoq oq kiyimda edi. Uning qo'ng'ir sochlari silliq taralib, orqaga qalin turmaklangan edi. Sochini shu xilda turmaklashi menga juda yoqar edi. Natasha u bilan qolganimni ko'rgach, pastga tushib, mehmonga peshvoz chiqishimni so'radi.

– Shu chog'gacha Natashanikiga kelolmadim, – derdi menga Katya zinadan ko'tarila turib. – Meni shunday poylashadiki, asti iloji yo'q. Madame Albertga ikki haftadan beri yalinaman, axir, rozi bo'ldi. Siz-chi, siz, Ivan Petrovich, biror marta ham menikiga kelmadingiz-a! Xat ham yozmadim sizga, hafsalam kelmadi, undan tashqari xat bilan nimani tushuntirib bo'lardi. Sizni ko'rishim shunday zarur bo'ldiki... Ey Xudoyim, yura-

gimning urishini qarang-a...

– Zina juda tik, – dedim men.

– Rost... zina ham tik ekan... Siz nima deb o'ylaysiz-a?

Natasha mendan xafa bo'larmikin?

– Yo'q, nega xafa bo'lsin?

– Ha, rost... albatta, nega xafa bo'lardi, o'zim hozir uni ko'raman-ku, so'rashning nima hojati bor ekan?

Men uni qo'ltiqlab oldim. Rangi o'chib ketdi, juda qo'rqa-yotgandek ko'rinardi. Oxirgi qayrilishda u nafasini rostlab olish uchun to'xtab qoldi, ammo menga bir qaradi-yu, dadil qadam tashlab va qulog'imga: «Men shunday kiranman va unga ishon-ganim uchun cho'chimay kelaverdim, deyman... Tavba, nima deyapman, axir, ishonamanki, Natasha ham oliyjanob bir qiz. To'g'ri emasmi?» – deb shivirladi.

U xuddi aybdordek iymانبgina kirdi va Natashaga tikilib qaradi, Natasha esa unga shu zumdayoq tabassum qildi. Shunda Katya uning oldiga g'izillab bordi-da, qo'llarini ushladi va o'zining do'rdoq lablarini uning lablariga yopishtirdi. Shundan keyin Natashaga bir og'iz ham gap aytmay turib, jiddiy va hatto qat'iy suratda Alyoshaga murojaat etib, bizni yarim soatga xoli qoldirishini so'radi.

– Jahling chiqmasin, Alyosha, – qo'shib qo'ydi u, – men Natasha bilan g'oyat muhim va jiddiy bir masala haqida, juda ko'p narsalar to'g'risida gaplashishim kerak, buni sen eshitishing kerakmas, aqlli bola bo'lg'in, bora qol. Siz Ivan Petrovich, qola-siz. Siz bizning hamma gapimizni boshidan, oyog'igacha eshitishingiz kerak.

– O'tiraylik, – dedi U Natashaga Alyosha ketgandan ke-yin, – men mana shundog' sizning ro'parangizga o'tiraman. Oldin sizni yaxshilab ko'rib olgim kelyapti.

U Natashaning ro'parasiginaga o'tirdi va bir necha lahza unga tikilib qaradi. Natasha unga beixtiyor tabassum bilan javob qildi.

– Men sizning suratingizni ko'rganman, – dedi Katya, – Alyosha ko'rsatgan.

– Xo'sh, suratimda o'zimga o'xshaymanmi?

– Suratdagidan yaxshiroqsiz, – javob berdi Katya keskin va jiddiy ohangda. – Ha, o‘zim ham shunday o‘ylagan edim, yaxshiroqsiz deb.

– Rostdanmi? Men esa sizga mahliyo bo‘lib qoldim. Qanaqa chiroylisiz-a!

– Voy, qo‘ysangiz-chi! Qayoqda!.. Qoqindiq bo‘lay sizga! – qo‘shib qo‘ydi u titroq qo‘li bilan Natasha qo‘lini tutib. Ikkalasi yana jim bo‘lib, bir-birlariga tikilishardi. – Bilasizmi nima, jonginam, – jimlikni buzdi Katya, – biz faqat yarim soatgina birga bo‘la olamiz, Madame Albert shunga ham zo‘rg‘a ko‘ndi, biz juda ko‘p narsalarni gaplashishimiz kerak... Men shuni istardim... Men bilishim... To‘ppa-to‘g‘ri so‘ray qolay:

– Siz Alyoshani juda yaxshi ko‘rasizmi?

– Ha, juda.

– Agar shunday bo‘lsa... Agar siz Alyoshani qattiq sevsangiz... Unda siz uning baxtini ham sevishingiz kerak... – qo‘shib qo‘ydi u qo‘rqa-pisa, shivirlab.

– Ha, men uning baxtli bo‘lishini xohlayman...

– Shundog‘... Ammo masala shundaki, men uni baxtli qila olamanmi, yo‘qmi? Shunday deyishga haqqim bormi, negaki men uni sizdan tortib olyapman. Nazaringizda, u siz bilan baxtliroq bo‘ladigan bo‘lsa, endi shuni hal etamiz, u holda... U holda...

– Bu allaqachon hal etib qo‘yilgan, azizim Katya, axir, o‘zingiz ko‘ryapsiz-ku, hammasi hal etilgan, – javob berdi Natasha astagina va boshini egdi. Gapni davom ettirish unga og‘ir edi, shekilli.

Aftidan, Katya Alyoshani kim baxtli qila oladi, ikkalasidan qaysi biri Alyoshadan voz kechishi kerak, degan mavzuda uzundan uzoq bayonot tayyorlagan edi, shekilli, ammo Natasha-ning javobidan so‘ng bular allaqachon hal etib qo‘yilgani va bu haqda gapirib o‘tirishga o‘rin yo‘qligini darrov tushundi. O‘zining go‘zal dudoqchalarini yarim ochganicha, hamon uning qo‘llarini o‘z qo‘lida ushlab Natashaga taajjub va g‘amginlik bilan qarab qolgan edi.

– Sizchi, siz uni juda ham sevasizmi? – deb so‘rab qoldi

birdan Natasha.

– Ha, men ham shuni sizdan so‘ramoqchi edim, shuning uchun ham kelgan edim: ayting, uni nimasi uchun sevasiz?

– Bilmayman, – javob berdi Natasha, uning javobida alamli sabrsizlik ohangi bor edi.

– U aqlimi, siz qanday o‘ylaysiz? – so‘radi Katya.

– Yo‘q. Men uni shunday sevaman.

– Men ham. Nima uchundir hadeb unga yuragim achiyveradi.

– Mening ham, – javob berdi Natasha.

– Nima qilsa bo‘ladi endi uni? Qanaqa qilib u meni deb sizdan kechyapti, shuni tushunolmayman, – dedi Katya. – Mana endi sizni ko‘rganimdan keyin hech ham tushunmayman! – Natasha javob bermadi, yerga tikilganicha o‘tiraverdi. Katya birpas jim turdi. Keyin birdan o‘rnidan turib Natashani quchoqlab oldi. Ikkisi ham bir-birini bag‘riga bosib yig‘lashardi. Katya Natashani quchoqlagan holda u o‘tirgan (kresloning suyanchig‘iga o‘tirdi, qo‘llarini o‘pa boshladi.

– Men sizni qanchalik sevganimni bilsangiz edi! – derdi u yig‘i aralash. – Keling, opa-singil tutinamiz, bir-birimizga xat yozishib turamiz... Men esa sizni umrbod sevaman. Shunday sevamanki...

– U sizga iyunda bo‘ladigan to‘yimiz haqida gapirdimi? – so‘radi Natasha.

– Gapirdi. Sizning ham roziligingizni aytdi. Axir, bu hammasi shunchaki uni yupatish uchunku-a, shunday emasmi?

– Albatta.

– Men ham shunday tushundim. Men uni sevib ardoqlayman, Natasha, hammasini sizga yozib turaman. Endi u tez kunlarda mening erim bo‘ladiganga o‘xshaydi, ishning borishi shunaqa. Hammaning og‘zida shu gap.

Jonginam Natasha, axir, endi siz uyingizga ko‘chib borasiz-a?

Natasha unga javob bermadi, ammo indamasdan qattiq o‘pdi.

– Baxtli bo‘linglar, – dedi Natasha.

– Siz... Siz... ham... – dedi Katya. Shu lahzada eshik ochildi. Alyosha kirdi. Uning toqati toq bo'lgan, mana shu yarim soatni o'tkazishga uning sabri chidamagan edi, ikki qizning ko'zlarida yosh, bir-birini quchoqlashib o'tirganlarini ko'rgach, madori qurib, iztirob ichida Natasha va Katya oyog'iga yiqildi.

– Sen nega yig'laysan? – dedi unga Natasha, – mendan judolashayotganinggami? Uzoq vaqtga ketyapsanmi? Iyunda kelasan-ku?

– O'shanda sizlarning to'ylaringiz bo'ladi, – shoshilib gapga aralashdi Katya ham yig'i aralash Alyoshaga tasalli berish uchun.

– Biroq men seni bir kun ham tashlab ketolmayman, Natasha. Sensiz o'laman... sen endi men uchun qanchalik qadrdon ekaningni bilmaysan! Xuddi shu damlarda!..

– Bo'lmasa shunday qil, – dedi Natasha, birdan chehrasi ochilib, – axir, grafinya yana bir necha kun Moskvada bo'ladi-ku-a?

– Ha, bir haftacha bo'ladi, – dedi Katya.

– Bir hafta! Juda soz, sen ertaga ularni Moskvagacha kuzatib borasan, bunga faqat bir kun ketadi, shu zahoti bu yerga qaytib kel. Moskvadan jo'nashadigan bo'lganda biz bir oyga xayrlashamiz, sen ularni kuzatish uchun Moskvaga qaytasan.

– Ha, shunday... Har holda, sizlar to'rt kun birga bo'lasizlar! – qichqirib yubordi sevinib ketib Katya, Natasha bilan ma'nodor qarashib olgandan keyin.

Mana bu yangi gapdan Alyosha shu qadar terisiga sig'may ketdiki, uning shodligini ifodalash ham qiyin edi. U birdan ovinib qo'ya qoldi, quvonchdan yuzi gulgun ochildi. U Natashani quchoqlar, Katyaning qo'lini o'par, meni bag'riga bosar edi. Natasha g'amgin tabassum bilan unga tikilardi, ammo Katya bu og'ir daqiqalarni ko'tarolmadi. U menga o'tkir, chaqnab turgan ko'zlari bilan bir qarab qo'ydi, Natashani quchoqladi va ketish uchun o'rnidan turdi. Xuddi shu chog' ataylab qilgandek frantsuz ayol, suhbatni tezroq tamom qilishlari kerakligini, belgilangan yarim soat allaqachon o'tganini aytish uchun odam yuboribdi.

Natasha o'rnidan turdi. Ikkala qiz qo'l ushlashganicha bir-

birlarining ro'parasida turar va shu boqish bilan ko'ngillaridagi barcha armonlarni ifodalamoqchi bo'lgandek ko'rinar edilar.

– Axir, bir, bir umr ko'rishmaymiz, – dedi Katya.

– Hech qachon Katya, – javob berdi Natasha.

– Xo'p, bo'lmasa, xayrlashaylik. – Ikkalasi quchoqlashishdi.

– Meni qarg'amang, – shivirladi Katya shoshilib, – men esa... Hamisha... Ko'nglingiz to'q bo'lsin... U baxtli bo'ladi... Yur, Alyosha, meni kuzatib qo'y! – teztez gapirdi u, Alyoshaning qo'lidan ushlab.

– Vanya! – dedi hayajonga kelgan, kuyib ado bo'lgan Natasha, ular chiqib ketgandan keyin, – bor, sen ham ular orqasidan va... qaytib kelmay qo'ya qol: Alyosha kechgacha oldimda bo'ladi, soat sakkizgacha. U kechqurun qololmaydi, jo'nab ketadi. O'zim yolg'iz qolaman... Soat to'qqizlarda kel, o'tinaman.

– Soat to'qqizda Nellini Aleksandra Semyonovna bilan qoldirib (quloq piyola singandan keyin), men Natasha oldiga keldim. U o'zi yolg'iz ekan, meni sabrsizlik bilan kutayotgan ekan. Mavra samovar keltirdi. Natasha menga choy quyib berib o'zi divanga o'tirdi va yaqinroq o'tirishimni iltimos qildi.

– Mana, shunday qilib hammasi adoyi tamom bo'ldi, – dedi u menga tikilib qarab turib. Bu boqishni men hech qachon esimdan chiqarmayman.

– Mana, muhabbatimiz ham tamom bo'ldi. Yarim yillik hayot! Bir umrga-ya, – qo'shib qo'ydi qo'limni qisib. Uning qo'li qaynoq edi. Men uni qalinroq kiyin, o'rningga borib yot, deb qistay berdim.

– Hozir, Vanya, hozir, mening qadrdon do'stim. Birpas gapirib, xotirlashta imkon ber... Men endi xarob bo'lganman... Ertaga men uni oxirgi marta ko'raman, soat o'nda... Oxirgi marta-ya!

– Natasha, isitmang bor, hozir bezgak tutib qoladi, o'zingni ayasang-chi...

– Xo'sh? Shu yarim soat ichida u ketganidan beri seni kutdim, Vanya, bilasanmi meya nimalarni o'yladim va o'zimga o'zim qanday savol berdim; men uni sevardimmi yoki sevmas-

midim? Qanaqa sevgi edi bizning sevgimiz? – deb so‘radim. Nega kulyapsan Vanya, bu to‘g‘rida o‘zimga endi shunday savol berganim seni hayratga solyaptimi?

– O‘zingni koyitma, Natasha...

– Ko‘ryapsanmi, Vanya: men uni tengim kabi, odatda ayol erkak kishini sevgani kabi sevmagan ekanman. Men uni... xuddi bir ona bolasini sevgandek sevganman. Nazarimda, bir-birini o‘z tengi sevish bo‘lmasa kerak. Olamda bunaqangi sevgi bo‘lmasa ham kerak. Sen qanday o‘ylaysan?

Men bezovtalanib unga qaradim, isitmasi tutib kelmayotganmikan deb qo‘rqardim. Nazarimda, bir nima uning fikrini mahliyo qilayotgandek ko‘rinardi: u gapirishga qandaydir alohida bir ehtiyoj sezayotgan edi; ba‘zi bir so‘zlari bir-biriga qovushmagandek, hattoki ba‘zi so‘zlarini eplab aytolmasdi ham. Yuragim orqamga tortib ketdi.

– U meniki edi, – davom ettirdi gapini u. – Men bir ko‘rishdayoq menda u meniki, tezroq meniki bo‘lsaydi va hech kimga qiyo boqmasa, mendan o‘zta hech kimni bilmasaydi degan bir orzu tug‘ildi. Katya hali juda to‘g‘ri aytdi: men uni xuddi shuning uchun sevardimki, u negadir hamisha menga ayanchli ko‘rinardi, unga rahmim kelardi... Men har doim yolg‘iz qolgan kezlarimda, u bitmas-tuganmas abadiy baxtga ega bo‘lsa degan orzu meni qamrab olardi, hatto azoblardi ham. Men uning yuziga beparvo qarolmas edim (o‘zing bilasan-ku, uning yuz ifodasini, Vanya) hech kimning yuzida bunday ifoda bo‘lmaydi, kulganda esa a‘zoyi badanim jimirlashib ketardi... Ey voh!..

– Natasha, quloq sol...

– Uni bo‘sh xarakterli derdilar, o‘zing ham aytarding, bolalardek aqli ham qisqa derdilar. Xuddi shuning uchun uni sevardim-da, ishonasanmi? Shuning uchun sevardimmi, yo‘qmi, o‘zim ham bilmayman: qanday bo‘lsa, shunday sevardim, balki, u boshqacharoq fe‘l-atvorda yoki aqlliroq bo‘lganda shunchalik sevmasdim. Bilasanmi, Vanya, men senga bir sirimni aytay: esingda bormi, bundan uch oy muqaddam, u haligi oting qurg‘ur Minnanikiga borganda g‘ijillashgan edik... Men buni bilib qolib, ketidan poylab yurdim, ishonasanmi, qanchalik azob chekdim,

ammo shu bilan bir vaqtda xursand bo'lgan ham edim... nima uchunligini o'zim bilmayman... U ham katta bo'lib, kattalar qatorida sohibjamollarnikiga boribdi, degan fikrning o'zi meni faxrlantirdi! Minnanikiga borgan-a!.. Ana shu janjaldan men o'shanda qanchalik huzur qilgan edim: keyin uni kechirish!.. O, jonginam!

U mening aftimga qaradi-yu, g'alati qilib kulib qo'ydi. Keyin go'yo xayol daryosiga cho'mib ketdi, hali ham bir narsalarni eslayotganday edi. Shu ahvolda, lablarida tabassum bilan o'tganlarni o'ylab uzoq o'tirdi.

– Men uni kechirishni o'lgudek yaxshi ko'rardim, Vanya, – davom etdi u. – Bilasanmi u meni yolg'iz qoldirib ketgan paytlarida uyda u yoqdan-bu yoqqa yurardim, qiynalardim, yig'lar-dim, o'zim esa ba'zan: «Mening oldimda qanchalik aybli bo'lsa, shunchalik yaxshi-ku!..» deb o'ylardim. Ha, bilasanmi, nazarimda, hamma vaqt u kichkinagina bola-yu, u mening tizzamga bosh qo'yib uxlab qolgandek, men esa astagina uning boshini silab, zrkalayotgandenman... U yonimda bo'lmaganda men hamisha shularni xayolimga keltirardim... Menga qara, Vanya, – qo'shib qo'ydi u birdan, – Katya qanaqa ajoyib qiz-a!

Nazarimda, u ataylab o'z yarasini yangilar, umidsizlikka tushib azob chekish ehtiyojini sezgandek o'z yarasini yangilar edi... Bu hol esa judolik dardiga uchragan qalblarda tez-tez ro'y beradi!

– Menimcha, Katya uni baxtli qila oladi, – davom etdi u. – Irodali, o'ziga qattiq ishongan qiz deydilar. Alyosha oldida u o'zini shu qadar jiddiy va sipo tutadiki, xuddi kattalardek aqlli narsalardan gaplashadi. O'zi-chi, o'zi g'irt yosh bola! Jonim, jonginam! O, mayli, ular baxt-saodatli bo'lishsin! Mayli, mayli!..

Birdan uning ko'ksidan otilib chiqqan faryod ko'z yoshlari bilan qo'shilib ketdi. Yarim soatdan ko'p u o'ziga kelolmadi, o'pkasini bosolmadi.

Mehribonim, farishtam, Natasha! Shu oqshom ham, o'zining qayg'u-hasratlariga qaramay, mening tashvishlarimga hamdard bo'ldi. Men uning biroz tinchlanganini, to'g'rirog'i, horib-charchaganini ko'rib, men uning qayg'usini tarqatish

uchun Nelli haqida gapirib berdim... Biz shu kecha uzoq o'tirdik, men u uxlab qolguncha kutib o'tirdim, keta turib Mavradan, o'zining bemor bekachasi oldidan butun kecha hech yoqqa qo'zg'almay o'tirishini so'radim.

– O, tezroq, tezroq, – derdim men o'z o'zimga, uyga qayta turib, – tezroq tugasaydi bu uqubatlar! Nima bilan bo'lsa hamki, tezroq, tezroq tugasaydi!

Ertasiga barvaqt, xuddi soat o'nda men uning oldiga keldim. Men bilan bir vaqtda Alyosha ham... xayrlashish uchun keldi. Bu haqda gapirib ham o'tirmayman, uni esga olishni ham istamayman. Natasha o'zini shod va beparvo ko'rsatishga ahd qilgan bo'lsa ham, ammo bu qo'lidan kelmasdi. U Alyoshani mahkam quchoqlab bag'riga bosdi. Ko'p gaplashmadi, ammo iztirob ichida, telbalarcha, unga tikilib qaraganicha qotib qoldi. Uning har bir so'ziga jon-jahdi bilan quloq soldi, ammo nima deyayotganiga aslo tushunmayotgandek edi. Esimda bor, u Natashadan kechirim so'radi, uning mana shu sevgisini va shu davr ichida unga o'tkazgan sitamlari, xiyonati, Katyaga bo'lgan ishq-muhabbati, ketayotgani uchun afv etishini so'radi u. Poyma-poy gapirar, ko'z yoshlari unga xalaqit berardi. Ba'zan u birdan uni yupatishga tushib ketardi. Faqat bir oyga, uzog'i bilan besh haftaga ketayotganini, yozda kelganda to'ylari bo'lishini va otasi bunga rozilik berishini va nihoyat, u indinga Moskvadan qaytib kelishini, shunda to'rt kun birga bo'lishlarini gapirar, axir, bir kun ko'rishmas ekanmiz-da, deb ovutardi...

Qizig'i shuki, u o'zining indinga Moskvadan qaytib kelishiga va gapirgan gaplarining to'g'riligiga qattiq ishonar edi... Nega bo'lmasa o'zi shuncha yig'lab, shuncha azoblanardi?

Nihoyat, soat o'n birga jom chaldi. Men uni zo'rg'a ketishga unatdim. Moskva poezdi xuddi o'n ikkida jo'nar edi. Bir soat vaqt qolgan edi. Natasha o'zi keyin unga oxirgi marta qanaqa qilib qaragani esida yo'qligini aytdi. Mening esimda qolgani shuki, Natasha uni cho'qintirdi, o'pdi, keyin qo'li bilan ko'zlarini bekitgancha orqadagi uyga o'zini otdi. Men ham Alyoshani ekipajgacha¹ kuzatib qo'ymasam bo'lmasdi, aks holda, u orqasi-

¹ Ekipaj – foytun, arava.

ga qaytib kelishi turgan gap edi va hech qachon zinadan tusholmasdi ham.

– Hamma umidim sizda, – derdi u pastga tusha turib, – do‘stim Vanya! Men sening oldingda gunohkorman, hech qachon sening muhabbatlaringga sazovor bo‘lmadim, ammo oxirigacha menga akalik qil. Uni ardoqla, yolg‘iz qoldirma, hamma-sini batafsil menga yozib tur, mayda qilib yoz, ko‘p gap sig‘ishi uchun juda mayda qilib yoz. Indinga men bu yerda, albatta, bo‘laman, albatta! Ammo keyin, men ketganimdan so‘ng, albatta, yoz!

Men uni ekipajga o‘tqazdim.

– Indingacha xayr! – deb baqirdi u menga ekipajda turib, – Albatta!

Yuragimni hovuchlab men yuqoriga, Natasha yoniga qaytdim. U qo‘lini qovushtirib uy o‘rtasida turar va xuddi tani-may qolgandek menga anqayib turar edi. Sochlari g‘alati bo‘lib bir tomonga surilib ketibdi; qarashlari ma‘nosiz; ko‘zlari xira-lashgan, javdirar edi. Mavra esa esxonasi chiqib ketganday eshik oldida unga qarab turar edi.

– Ha, bu sen, sen! – qichqirdi u menga. – Faqat bitta o‘zing qolding endi-a! Sen uni ko‘rolmasding! Men uni sevib qolganim uchun sen uni hech qachon kechirolmasding... Endi tag‘in mening yonimda qoldingmi! Xo‘sh, nima bo‘libdi? Yana sen mening ko‘nglimni olish, meni tark etgan, «oq» qilgan otam oldiga qaytib borishga ko‘ndirish uchun keldingmi? Men buni allaqachon, kecha, bundan ikki oy ilgari bilganman!.. Qaytib borishni xohlamayman, xohlamayman! Men o‘zim ularni «oq» qilaman!.. yo‘qol bu yerdan, seni ko‘rishga toqatim yo‘q. yo‘qol ko‘zimdan!

U haddan tashqari hayajon ichida ekanini va mening afti-basharam uning qahr-u g‘azabini battarroq qo‘zg‘atishini, shun-day bo‘lishi kerakligini payqadim. Yaxshisi, ko‘ziga ko‘rin-maslik kerak deb qaror qildim. Men zinapoyaga chiqib, birinchi bosqichga o‘tirdim, kutdim. Har zamonda o‘rnimdan turib borib eshikni ochardim-da, Mavrani imlab chaqirib undan Natashani so‘rab-surishtirardim; Mavra yum-yum yig‘lardi.

Shu ahvolda bir yarim soat o'tdi. Shu vaqt ichida ichimdan nimalar o'tganini tasvirlash qiyin. Bu og'ir hasratdan yuragim siqilar, og'rir edi. To'satdan eshik ochildi, Natasha boshida shlyapasi, ustida mursak¹ bilan yugurganicha zinapoyaga chiqdi. U esi-hushidan ajralgan kishiga o'xshardi. Keyin o'zi: «O'sha vaqtdagi holatim g'ira-shira esimda qolgan, qayerga, qanaqa niyat bilan ketmoqchi bo'lganimni o'zim bilmasdim», – dedi.

Men o'rimdan turib, uning ko'zidan yo'qolib, biror joyga bekinishga ulgurmay, u birdan meni ko'rib, angrayganicha taxta bo'lib qotib qoldi. «Birdan hushim joyiga tushdi, – gapirib berdi keyin o'zi. «Men devona, bag'ritosh, seni, jonajon do'stimni, akajonimni, mening xaloskorimni haydab yuborishga qanday ko'nglim bo'ldi-ya! Shunda qahrimga uchragan sen bechora meni kutib o'tirishing, tag'in chaqirishimni kutib ketmay o'tirishingni ko'rib, nima ahvolga tushganimni bilsayding. Vanya! Nazarimda, ko'ksimga xanjar sanchilgandek bo'ldi...»

– Vanya, Vanya! – deb chinqirib yubordi, qo'llarini cho'zib, – shu yerdamisan!.. – deb quchog'imga yiqildi.

Men uni ko'tarib uyga olib kirdim. U bechora behush edi! «Nima qilsam ekan? – deb o'yladim. – Endi, shubhasiz, isitmasi tutib qoladi».

Men doktorga yugurmoqchi bo'ldim, kasalning oldini olish kerak. Tezgina borib kelish mumkin edi. Odatda keksa nemisim soat ikkigacha uyda bo'lar edi. Mavradan Natasha oldidan bir daqiqa ham, bir soniya ham jilmasligini, uni ham hech yoqqa yubormasligini tayinlab, doktorga yugurdim. Xudo o'zi meni yarlaqadi: sal kechiksam, cholimni uyida topolmas ekanman. U meni uyidan chiqib kelayotganda, ko'chada uchratdi. Hash-pash deguncha, doktor esini yig'ib olishga ham ulgurmasdan men uni izvoshga o'tqazdim. Orqamizga qayrilib Natasha-nikiga ketdik.

Ha, Xudo o'zi menga madad berdi! Shu yarim soat ichida shunday bir hodisa yuz beribdiki, agar biz doktor bilan vaqtida yetib kelmasak, Natasha halok bo'lishi ham hech gap emas ekan. Ketganimga chorak soat ham o'tmay bu yerga knyaz kelibdi. U

¹ **Mursak** – ayollar kiyadigan yeng kalta ustki milliy kiyim; yengsiz kamzul.

hozirgina odamlarini jo'natib, vokzaldan to'ppa-to'g'ri Natashanikiga kelgan ekan. U oldindan Natashanikiga kelishni mo'ljal-lab qo'ygan bo'lishi kerak. Daf'atan knyazning kelishidan Natasha taajjublanmabdi ham. «Miyam aynib qolgan edi», – dedi o'zi keyin menga.

Knyaz unga achingan kishidek mehribonlik bilan qarab, ro'parasiga kelib o'tiribdi.

– Jonginam, – debdi xo'rsinib qo'yib, – qayg'u-hasra-tingizni tushunaman, bu daqiqa siz uchun naqadar og'irligini bilardim, shuning uchun huzuringizga kelishni burchim deb bil-dim. Agar iloji bo'lsa, Alyoshadan voz kechish bilan uni baxtli qilganingizni o'ylab tinchlaning. Ammo siz buni mendan ham ko'ra yaxshi tushunasiz, negaki siz oliyjanob bir ishga jur'at etdingiz...

«Men uning gaplariga quloq solib o'tirdim, – dedi keyin Natasha, – ammo rostini aytsam, eng avval gaplariga tushun-madim ham. Men unga tikilib, tikilib qarab o'tirganim esimda. U mening qo'limni olib qisa boshladi, nazarimda, bu unga juda yoqar edi. Men shunchalik o'zimni yo'qotib qo'ygan edimki, qo'limni tortib olish ham esimga kelmabdi».

– Siz Alyoshaga xotin bo'lsangiz, oqibatda uning nafratini qo'zg'atgan bo'lishingizni tushundingiz va buni anglab yetish va bir qarorga kelish darajasida oliyjanob, mag'rur ekaningizni ko'rsatdingiz... Ammo, axir, men sizni maqtash uchun kelganim yo'q-ku. Men faqat shuni izhor etmoqchimanki, hech qachon, hech yerda mendan ortiq do'st topolmaysiz. Men sizga xayri-xohman, achinaman. Mana shu bo'lib o'tgan ishlarga men beixti-yor qatnashdim, biroq shu bilan o'z burchimni ado etdim. Siz-ning ajoyib g'o'zal qalbingiz shuni tushunib yetadi va meniki bilan yarashadi... Menga sizdan ham ko'ra og'irroq edi, ishoning!

– Bo'ldi, bas qiling, knyaz, – debdi Natasha, – meni tinch qo'ying.

– Ketaman, ketaman, albatta, – javob beribdi u, – ammo sizni o'z qizimdek yaxshi ko'raman. Oldingizga kelib-ketib turishga ruxsat etgaysiz. Endi siz menga xuddi o'z otangizga qaragandek qarang va xizmat-ingizdz bo'lishimga ruxsat eting.

– Menga hech narsa kerakmas, meni o‘z holimga qo‘ying, – debdi yana Natasha, uning so‘zini kesib.

– Bilaman, siz mag‘rursiz... Ammo men samimiy va chin yurakdan gapiryapman. Siz endi nima qilmoqchisiz? Ota-onangiz bilan yarashmoqchimisiz? Bu juda soz ish bo‘lur edi, ammo otangiz insofsiz, takabbur va zolim odam; meni kechirasiz-u, ammo shunday. Siz endi o‘z uyingizda ta‘na va yangi mashaqqatlardan o‘zgani ko‘rmaysiz... Ammo-lekin siz endi birov qo‘liga qaram bo‘lmasligingiz kerak, mening vazifam, muqaddas burchim – endi sizning g‘amingizni yeyish va sizga ko‘mak berishdir. Alyosha sizni tashlab qo‘ymasligimni, sizga do‘st bo‘lishimni yolvorib so‘radi. Biroq mendan boshqa ham sizga chuqur sadoqatli odamlar bor. Ehtimol, graf N.ni sizga tanishtirishga ijozat berarsiz. U ajoyib qalbli odam, bizning qarindoshimiz, hattoki butun bizning avlodimizning valine‘mati deb atalsa ham bo‘ladi. U Alyosha uchun ko‘p yaxshiliklar qildi. Alyosha uni qattiq hurmat qilar va yaxshi ko‘rardi. U g‘oyat e‘tiborli, nufuzli odam, o‘zi ancha keksayib qolgan, shuning uchun uni bermalol qabul qilaversangiz bo‘ladi, oppoq qiz. Men unga siz haqingizda gapirib berganman. U sizni o‘rmashtirib qo‘yadi, agar istasangiz, sizga qarindoshlaridan birinikidan yaxshi joy topib beradi... Bizning ishlarimizni unga allaqachon ochiq va ravshan qilib gapirib berganman, u ezgu, oliyjanob tuyg‘ularga shu qadar berilganki, o‘zi tezroq siz bilan tanishishga oshiqadi. Olamdagi barcha go‘zalliklarga xayrixohlik ko‘rsatuvchi bu saxiy, hurmatli, so‘zlarimga ishonavering, inson fazilatlarini qadrlashga qobiliyatli bir mo‘ysafid. Yaqindagina hatto otangiz bilan yuz bergan bir voqeada juda ajoyib oliyjanoblik ko‘rsatdi.

Natasha ilon chaqqandek o‘rnidan sapchib turib ketibdi. Endi u knyazning niyatlariga tushungan edi.

– Qo‘ying meni, keting hozir! – baqiribdi u.

– Ammo, do‘stginam, siz haddingizdan oshyapsiz, grafning otangizga ham foydasi tegishi mumkin...

– Mening otam sizdan hech narsa olmaydi. Meni o‘z holimga qo‘yasizmi? – deb baqiribdi yana Natasha.

– Ey, Xudoyo tavba, shu qadar sabrsiz, badgumon ekansiz! Nahotki men shunga loyiq bo‘lsam, – debdi knyaz atrofga olazaraklik bilan qarab. – Har qalay, siz menga ruxsat etasiz, – davom etibdi u kissasidan qalin paketni ola turib, – mening, ayniqsa, o‘z maslahatlari bilan menga yo‘l ko‘rsatgan graf N.ning sizga bo‘lgan mehribonchiligimiz isboti uchun shuni qoldirishga ijozat bergaysiz. Buning ichida o‘n ming so‘m pul bor. Shoshmay turing, do‘stim, – debdi shoshib knyaz, Natashaning g‘azab bilan o‘rnidan turayotganini ko‘rib, – sabr qilib hammasini eshiting; bilasizmi, otangiz men bilan sudlashib yutqazdi, mana bu o‘n ming so‘m shuning evaziga bir mukofot o‘rnida...

– Yo‘qol, – baqiribdi Natasha, – yo‘qol, puling boshingda qolsin! Men sizning kim ekaningizni bilaman... E, pastkash, razil, iflos odam!

Knyaz jahli chiqqandan bo‘zdek oqarib o‘rnidan turibdi. Ehtimol, knyaz bu joyni ko‘zdan kechirish, ahvolni bilish va, balki, mana bu gadoy, hamma tomondan tashlangan Natashada shu o‘n ming so‘mning kuchli taassurot qoldirishiga qattiq ishongan bo‘lsa kerak... Pastkash va qo‘pol bu inson shahvatparast qari graf N.ga bunaqangi ishlarda ko‘p martaba xizmat ko‘rsatgan, ammo u Natashani ko‘rishga ko‘zi, otishga o‘qi yo‘q edi, ish o‘ngidan kelmaganini payqagan, hech bo‘lmasa, mehnati bekor ketmasin uchun shu zahoti ohangini o‘zgartirib, g‘azabnok sevinch-la uni haqorat qilishga shoshildi.

– Chakki qilyapsiz, jonginam, buncha qizishasiz, – debdi u titroq ovoz bilan, o‘z haqorati ta‘sirini tezroq ko‘rish ishtiyoqida. – Bu yaxshi emas. Sizga homiylik qilmoqchi bo‘lsalar, siz burningizni ko‘taryapsiz... Menga minnatdorchilik bildirish esingizga ham kelmaydi. Yosh yigitni yo‘ldan ozdirib, shilib olganingiz uchun men sizni allaqachon axloq tuzatish uyiga qamattirishim mumkin edi, axir, men shuni qilmadim-ku... Xe-xe-xe-xe!

Xuddi shu payt biz kelib qoldik. Oshxonadan turib ovozi-
ni eshitishim bilan, bir daqiqa doktorni to‘xtatib qo‘yib, knyazning oxirgi so‘zlariga quloq soldim. Keyin yoqimsiz kulgi, orqasidan Natashaning: «Ey Xudoyim!» – deb chinqiraganini

eshitib qoldim. Shu lahza eshikni ochib knyazga tashlandim.

Men uning yuziga tufladim va joni-jahdim bilan tarsakilab solib yubordim. U ham menga hamla qilmoqchi bo'ldi, ammo bizning ikki kishiligimizni ko'rib, stol ustidagi pulni siqimlaganicha dumini xoda qilib qochib qoldi. Ha, shunday qildi. Men oshxonadagi stol ustidan o'qlovni olib orqasidan otdim. Uyga yugurib qaytib kirganimda doktor Natashani ushlab turar edi. U tipirchilab, yulqinib doktorning qo'lidan chiqishga urinar edi. Biz uni anchagacha o'ziga keltira olmadik; nihoyat, uni tinchlatib arang o'ringa yotqizdik. U xuddi isitmalagandek kuyib yotar edi.

– Doktor! Uning ahvoli nima bo'ladi? – so'radim men xavotirlanib.

– Shoshmang, – dedi u, – avval kasali nima ekanini aniqlash kerak, keyin biror fikrga kelamiz... ammo umuman aytganda ahvoli uncha yaxshi emas... isitmalab alahlashi mumkin. Har holda, oldini olamiz...

Ammo endi boshqa fikr xayolimga keldi. Men doktordan Natasha oldida yana uch-to'rt soat o'tirishini iltimos qilib, oldidan bir daqiqa ham qo'zg'almaslik va'dasini oldim, u so'z berdi, men uyga yugurdim.

Nelli burchakda qovog'ini solganicha, bezovtalanib o'tirar va menga g'alati qilib qarar edi. Mening ko'rinishim ham g'alati bo'lsa kerak.

Uni ko'tarib olib, o'zim divanga o'tirdim, uni tizzamga o'tqazdim va qattiq-qattiq o'pdim. U qip-qizarib ketdi.

– Nelli! Farishtaginam! – dedim men, – ayt-chi, bizning xaloskorimiz bo'lishni xohlaysanmi? Hammamizni halokatdan qutqarishni xohlaysanmi?

U angrayib menga qarar edi.

– Nelli! Butun umidimiz endi sendan! Bitta ota bor, sen uni ko'rgansan, taniysan. U o'z qizini «oq» qilgan va kecha qizi o'rniga seni qiz qilib asrab olish uchun kelgan edi. Endi uning qizi Natashani (sen uni yaxshi ko'raman deb aytgan eding!) sevgan yori tashlab ketdi, o'shani deb Natasha ota-onasidan kechgan edi. U yigit anavi knyazning o'g'li bo'ladi, esingda bormi, bir kun kechqurun menikiga kelgan edi, sen o'zing yolg'iz ekansan,

uning oldidan qochib chiqib ketibsan, keyin kasal bo'lib qolding... Taniysan-ku uni-a? U yomon odam!

– Bilaman, – javob berdi Nelli cho'chib tushib, rangi quv o'chib.

– Ha, u yomon odam. U, o'g'li Alyosha Natashaga uylanmoqchi bo'lgani uchun Natashani ko'rolmasdi. Bugun Alyosha ketib qoldi, bir soatdan keyin otasi Natasha oldiga kelib uni haqorat qildi, axloq tuzatish uyiga qamayman deb qo'rqitdi, masxara qildi. Mening gapimga tushunyapsanmi, Nelli?

Uning qora ko'zlarida o't chaqnadi, ammo shu zahoti srga qarab oldi.

– Tushunaman, – shivirladi u eshitar-eshtilmas.

– Endi Natasha yolg'iz qoldi, betob, men uni doktorimiz bilan birga qoldirib, sening oldingga yugurdim. Eshit, Nelli... Sen bilan Natashaning otasinikiga boramiz, sen uni yomon ko'rasan, unikiga borishni xohlamagan eding, endi birga bormasak bo'lmaydi. Kirishimiz bilan men endi ularga Natasha o'rniga qiz bo'lishni xohlaganingni aytaman. Chol hozir kasal yotibdi, chunki Natashani «oq» qildi, chunki Alyoshaning otasi uni yaqinda juda yomon haqorat qildi. Endi qizi to'g'risida bir gap eshitishga ham toqati yo'q, ammo o'zi uni sevadi. sevadi, u bilan yashishni istaydi, men buni bilaman, xammasini bilaman! Bu shunday!.. Eshityapsanmi, Nelli?

– Eshityapman, – dedi yana u boyagidek shivirlab. Men ko'z yoshlarimni to'kib turib gapirardim, u tortinibgina meni tinglar edi.

– Shunga ishonasanmi?

– Ishonaman.

– Shunday qilib, men seni olib boraman, o'tqazib qo'yaman, seni paypaslab gap so'ray boshlaydilar. Shunda men o'zim gapni shunday burib yuboramanki, ular sendan ilgari qanday yashaganing, onang, buvang haqida surishtira boshlaydilar. Sen ularga hammasini menga gapirib berganingdek gapirib ber, Nelli. Hech qaysisini yashirmasdan hammasini gapirib ber. Sening onangni bir yomon odam qanday qilib tashlab ketgani, onang Bubnova yerto'lasida qaysi ahvolda o'lgani, onang bilan birga

ko'chama-ko'cha yurib gadoylik qilganlaring, u o'la turib senga nima deganlarini, nima deb iltimos qilganini gapirib ber... Shu zahoti buvang to'g'risida gapir, u onangni kechirishni istamagani va o'lim to'shagida yotgan onang, unga seni yuborib, kelib uning gunohidan o'tishini so'ragani, uning kelmagani... va onang qanaqa qilib o'lganini gapirib ber. Hammasini, hammasini gapir! Shularning hammasini gapirib bersang, chol o'z qalbida ham shular borligini sezadi. Axir, u biladiki, bugun uni Alyosha tashlab ketdi, u xor-zor, yolg'iz, kimsasiz, himoyachisiz, o'z dushmaniga poymol bo'ldi. U bularning hammasini biladi... Nelli! Natashani qutqar! Borasanmi?

– Ha, – javOb berdi u og'ir nafas olib va menga g'alati qilib uzoq tikilib qarab. Bu boqishda qandaydir ginaxonlik bor edi, men buni o'z qalbim bilan sezdim.

Ammo men o'z fikrimdan qaytolmasdim. Unga qattiq ishonardim. Nellining qo'lidan mahkam ushlaganimcha ko'chaga chiqdik. Soat kunduzgi ikkidan oshgan. Havoni bulut bosib kelmoqda. Keyingi vaqtlarda havo issiq va dim edi, ammo hozir qayerdadir, uzoqlarda birinchi bahor momoqaldirrog'i gurulladi, yel-chang ko'chalardan esib o'tdi.

Biz izvoshga o'tirdik. Butun yo'l bo'yi Nelli churq etmadi, ahyon-ahyonda hamon haligi g'alati va sirli boqish bilan menga qarab qo'yardi. Yurakchasi duk-duk urardi, izvoshda uni suyab o'tirib, kaftlarimda uning kichkina yurakchasi qafasdagi qushdek uchib ketmoqchi bo'lib tipirchilayotganini sezardim.

VII BOB

Nazarimda, yo'l juda ham uzoqdek ko'rinib ketdi. Niho-yat, biz yetib keldik va yuragimni hovuchlab chol-u kampirim oldiga kirdim. Men ularnikidan qay ahvolda chiqib ketishimni bilmasdim, ammo shu yerdan, nima bo'lsa ham, afv va yarash-yarash bilan chiqishligim kerakligini yaxshi bilardim.

Soat uchdan oshib ketgan edi. Chol-u kampir odatdagidek uylarida o'tirishardi. Nikolay Sergeich qattiq xafa va betob edi,

o'zining kreslosida oyog'ini cho'zganicha yonboshlab yotar, rangi sarg'aygan, holdan toygan, boshini ro'mol bilan bog'lab olgan edi. Anna Andreevna uning oldida o'tirib, har zamon, bir zamonda chakkasini sirka bilan artib-artib qo'yar va rahmi kelayotgandek tinmay uning aftiga tikilib ezilib o'tirar edi, bu esa cholni bezovta qilar va hatto g'ashiga ham tegayotganga o'xshardi. U o'chakishgandek indamaodi, Anna Andreevnaning esa gapirishga yuragi dov bermasdi. Bizning qo'qqisdan kelib qolishimiz ikkisini ham hayratga solib qo'ydi. Anna Andreevna meni Nelli bilan ko'rib, nima uchundir cho'chib ketdi va dabdurustdan o'zining aybi borligini sezgandek bizga qarab anqayib qoldi.

– Mana, men sizlarnikiga Nellini olib keldim, – dedim eshikdan kira turib. – O'zi o'ylab ko'rib, sizlarnikiga kelishni istadi. Mana qabul qilib, boshini silanglar...

Chol menga shubha bilan qarab qo'ydi, shu qarashidanoq unga hamma narsa ma'lumligi, Natashaning yolg'iz qolganligi, tashlangan, tark etilgan va, ehtimolki, haqorat etilgani ham ma'lum ekanini anglashmumkin edi. U bizning kelishimiz siriga tezroq yeta qolishni istar, u menga va Nelliga savol nazari bilan ko'z tashlardi. Nelli qalt-qalt titrar, qo'limni qattiq siqimlardi, yerdan ko'z uzmas va ahyon-ahyonda xuddi tutib olingan joni-vordek qo'rqa-pisa atrofga qarab qo'yar edi. Biroq ko'p o'tmay Anna Andreevna o'ziga keldi va ahvolni tushundi: u Nelliga o'zini otib, uni quchoqlab o'pdi, erkalatdi, hatto yig'lab ham yubordi. Keyin mehribonlik bilan uni o'z yoniga o'tqazdi, qo'lini qo'yib yubormasdi. Nelli allaqanday hayrat bilan qiziqib unga ko'z qirini tashlar edi.

Anna Andreevna Nellini erkalatib, o'z yoniga o'tqazishga o'tqazdi-yu, ammo endi nima qilishini bilmay, bir narsa kutib, soddadillik bilan menga tikilardi. Chol esa men nima uchun Nellini olib kelganimga tushunqirab yuzini tirishtirdi. Uning ensasi qotganini va qovog'ini solayotganini men sezganimni ko'rib, qo'li bilan peshanasini ushladi va keskin ravishda:

– Boshim og'riyapti, Vanya, – dedi.

Biz hammamiz hamon indamasdan o'tirardik. Men gapni nimadan boshlashimni o'ylardim. Uyning ichi qorong'iroq, qora

bulutlar yaqinlashib kelmoqda edi, yana uzoq-uzoqlardan momaqaldiroq eshitildi.

– Bu ko‘klam juda erta momaqaldiroq boshlandi, – dedi chol. – O‘ttiz yettinchi yilda bo‘lsa biz tomonlarda bundan ham erta boshlangan edi.

Anna Andreevna uh tortib qo‘ydi.

– Samovar qo‘yib yuborsakmikin? – so‘radi u tortinibgina. Ammo unga hech kim javob bermadi, u yana Nelliga qaradi.

– Sening noming nima, jonginam? – deb so‘radi u. Nelli eshitilar-eshtilmas o‘z nomini aytdi va battarroq yerga qarab oldi. Chol unga tikilib qaradi.

– Yelena deganingmi? – davom etdi kampirsho, ancha jonlanib

– Ha, – javob berdi Nelli va yana o‘rtaga sukunat cho‘kdi.

– Opamiz Proskovya Andreevnaning Yelena degan jiyani bor edi, – gap boshladi Nikolay Sergeich, – Esimda bor, uni ham Nelli deb chaqirardik.

– Nima, jonginam, sening tug‘ishganlaring, otang ham, onang ham yo‘qmi, chirog‘im? – so‘radi yana Anna Andreevna.

– Yo‘q, – dedi Nelli qo‘rqa-pisa shivirlab.

– Eshitganman, buni eshitganman. Onangning o‘lganiga ancha bo‘ldimi?

– Yaqinda.

– Bechora bolaginam, yetimchaginam, – davom etdi kampirsho unga achinib qarab. Nikolay Segeich toqatsizlik bilan stolni tiqillata boshladi.

– Onaginang boshqa yurtli edi, shekilli-a? Shunday deganmidingiz, Ivan Petrovich? – deb hayiqibgina surishtira ketdi Anna Andreevna.

Nelli, go‘yo mendan ko‘mak kutgandek o‘zining qora ko‘zlari bilan menga yalt etib qarab qo‘ydi. U allaqanday asabiy holatda og‘ir nafas olar edi.

– Onasining, Anna Andreevna, – boshladim men, – otasi ingliz, onasi rus bo‘lgan, ko‘proq rus desa bo‘ladi. Nelli o‘zi chet elda tug‘ilgan.

– Qanaqa qilib? Uning onasi eri bilan chet elga ketgan ekanmi?

Nelli birdan tutaqib ketdi. Kampir adashib gap aytib yuborganini darrov sezib qoldi va cholning jahl bilan qaranidan cho‘chib ketdi. U xotiniga xo‘mrayib qarab qo‘ydi-da, deraza tomonga burilmoqchi bo‘ldi-yu, lekin birdan Anna Andreevnaga murojaat qilib shunday dedi:

– Uning onasi yomon va iflos bir odam tomonidan aldangan. Onasi otasidan voz kechib o‘sha odam bilan ketib qolgan va otasining pulini o‘ynashiga bergan, u bo‘lsa pulni avrab olganda, o‘zini chet elga olib ketgan, uni qip-qizil qilib shilgandan so‘ng tashlab ketgan. Bitta insofli odam uni tashlab qo‘ymasdan umrining oxirigacha yordam qilib turgan, u qazo qilgandan keyin, onasi ikki yil bundan muqaddam otasi oldiga qaytib kelgan. Shunday degan eding, shekilli, Vanya? – so‘radi u keskin ravishda.

Nelli qattiq hayajonga kelib o‘rnidan turdi va eshik tomon yo‘l olmoqchi bo‘ldi.

– Bu yoqqa kel, Nelli, – dedi chol, nihoyat, qizga qo‘lini uzatib, – kel, mana bu yerga, mening yonimga o‘tir, bu yoqqa! – U engashib Nellining peshanasidan o‘pdi va asta-sekin boshini silay boshladi. Nelli titrab ketdi... Ammo o‘zini bosib oldi. Anna Andreevna esa uning Nikolay Sergeichi, nihoyat, bechora yetim qizning boshini silaganini ko‘rgach, ko‘ngli erib ketib, sevinch umidi bilan eriga tikildi.

– Bilaman, Nelli, onangni bir yovuz, yomon, axloqsiz odam xarob etganini bilaman, ammo onang o‘z otasini qanchalik sevib hurmat qilganini ham bilaman, – dedi hayajon ichida Nikolay Sergeich Nellining boshginasini silashda davom etib va shu daqiqa bizga ma‘nodor qarab qo‘yishdan o‘zini tutolmay. Uning rangsiz yonoqlariga qon yugurdi; u bizning ko‘zimizga qaramaslikka urinardi.

– Buvam uni sevgandan ortiq sevar edi, – dedi Nelli tortinchoqlik bilan, ammo qat’iy qilib, hech kimga qaramaslikka tirishib.

– Sen buni qayerdan bilasan? – shartta so‘radi chol, xuddi

bolalardek sabrsizlik bilan, go'yo o'zining sabrsizligidan xijolat chekkandek.

– Bilaman! – dedi keskinlik bilan Nelli. – U onamni qabul qilmagan... Haydab yuborgan...

Men Nikolay Sergeichning nimadir demoqchi ekanini, e'tiroz bildirmoqchi bo'lganini, masalan, chol qizini qabul qilmagan bo'lsa, buning vaji bor, demoqchi bo'lganini ko'rdim, ammo u bizga bir-bir qarab qo'ydi-yu, indamay qo'ya qoldi.

– Buvang sizlarni qabul qilmagan bo'lsa, qayerda turgan-sizlar? – so'radi Anna Andreevna. Nima uchundir unda birdan shu mavzuda gaplashishni davom ettirishga shiddatli ishtiyoq tug'ilgan edi.

– Biz qaytib kelganimizdan keyin, buvamni juda ko'p qidirdik, – javob berdi Nelli. – Ammo hech yerdan topolmadik. O'shanda onam aytgan ediki, buvam ilgari juda badavlat bo'ltan, fabrika qurmoqchi ekan, endi esa u qashshoq bo'lib qolgan, chunki onamni birga olib ketgan kishi oyimdan buvamning hamma pulini tortib olgan va qaytib bermagan, onam o'zi menga aytgan edi.

– Hm... – dedi chol.

– Yana u menga aytgan ediki, – davom etdi Nelli tobora jonlanib, go'yo Nikolay Sergeichga e'tiroz bildirmoqchi bo'lgandek, lekin Anna Andreevnaga qarab turib, – u menga buvam undan juda qattiq xafa ekanini, uning oldida o'zi aybdor bo'lib, endi bu olamda buvamdan boshqa uning hech kimsasi yo'qligini gapirgan edi, gapirib turib yig'lardi... «U meni hech ham kechirmaydi, – derdi u bu yoqqa kelayotgan vaqtimizda. – Lekin, balki, seni ko'rib, seni yaxshi ko'rib qolar, sen uchun meni kechirar» – derdi. Onam meni juda ham yaxshi ko'rar, shularni gapirganda meni o'par edi, buvamnikiga borishdan juda qo'rqardi. Meni buvamni duo qilishga o'rgatardi, o'zi ham duo qilardi, ilgari, buvam bilan tsanday yaxshi yashaganlarini, buvam uni jonidan ham aziz ko'rganini juda ko'p gapirar edi. Onam unga fortepyano chalar ekan, kechalari kitob o'qib berar ekan, buvam esa uni o'pib, juda ko'p sovg'a olib berar ekan... Hadeb sovg'a olib beraverar ekan, hattoki bir marta shu yuzadan urishib qolishibdi.

Oyinning tug'ilgan kuniga u sovg'a olibdi. Buvam, nima olganimni bilmaydi deb o'ylasa, u allaqachon nimaligini bilib yurar ekan. Onam isirg'a olishni xohlarkan, buvam esa isirg'a emas, to'g'nag'ich olib beraman deb aldab yurar ekan. Isirg'ani olib kelgandan keyin, onam to'g'nag'ich emas, isirg'a ekanini allaqachon bilib olganini ko'rib, buvam toza achchig'lanibdi va yarim kun onam bilan gaplashmay yurib, keyin yana o'zi kelib o'pib, kechirim so'rabdi.

Nelli zo'r ishtiyoq bilan hikoya qilardi, uning rangsiz, xasta yonoqlari loladek qizarib ketgan edi.

Ko'rinib turardiki, uning onasi o'zining kichkina Nellisi bilan yerto'lada, burchakda o'tirib olib, qizini (dunyoda yakka-yu yagona ovunchog'ini) quchoqlab, o'pib o'tmishdagi baxtli kunlaridan juda ko'p martabalar hikoya qilgan, achchiq-achchiq ko'z yoshlarini to'kkan, shu bilan birga bu hikoyalar qizining haddan ziyod ta'sirchan va bemahal kamol topgan qalbiga qanchalik og'ir ta'sir etishini ko'ngliga keltirmagan.

Biroq qizishib gapga kirib ketgan Nelli birdan hushi o'ziga kelib qolgandek, ishonchsizlik bilan atrofga alanglab qarab jim bo'lib qoldi. Chol peshanasini tirishtirdi va yana stolni tiqillata boshladi; Anna Andreevnaning esa ko'ziga yosh keldi, dastro'moli bilan artib qo'ydi.

– Onam bu yerga og'ir kasal bo'lib qaytdi – qo'shib qo'ydi Nelli past ovoz bilan, – uning ko'kragi qattiq og'rir edi. Biz buvamni juda ko'p qidirdik, o'zimiz yerto'lada bir burchakdan joy ijaraga oldik.

– Burchakdan! Betob odam-a! – qichqirib yubordi Anna Andreevna.

– Ha... burchakdan... – javob berdi Nelli, – onam qashshoq edi. Onam menga, – davom etdi u tobora ochilib: – kambag'allik ayb emas, boy bo'lib kishi ko'nglini ranjitish gunoh... Xudo o'zi menga jazo beryapti, – derdi.

– Siz o'sha Vasilevskiyda ijaraga turarmidingizlar? Anavi Bubnovanikimi? – so'radi chol, menga murojaat qilib, go'yo bu savol bilan o'zining parvosizligini ko'rsatmoqchi bo'lib. U shunchaki, jim o'tiraverish o'ng'aysiz bo'ltanligi uchungina so'radi,

albatta.

– Yo‘q, u yerda emas... Oldin Meshchanskiyda turganmiz, – deb javob berdi Nelli. – U yer juda qorong‘i va zax edi, – so‘zida davom etdi biroz jim turgandan keyin. – Onam bechoraning ahvoli kundan kunga og‘irlashaverdi. Shundog‘ bo‘lsa ham, o‘zi yura olar edi. Men kirini yuvarдим, u esa yig‘lardi. U yerda ham bitta kapitansha¹ kampir va yana bitta iste‘foga chiqqan chinovnik turardi, u Xudoning bergan kuni mast bo‘lib kelib, kechalari shovqin-suron ko‘tarardi. Men undan juda qo‘rqardim. Onaginam meni o‘z yoniga chaqirib, mahkam bag‘riga bosib olardi, o‘zi esa qalt-qalt titrardi. Chinovnik esa so‘kib to‘polon qilgani qilgan edi. Bir kun u kapitanshani urmoqchi bo‘ldi, u juda qari, hassa bilan zo‘rg‘a yuradigan kamnir edi. Onam kampirga achinib, uning yovini olgan edi, chinovnik onamni urib yubordi, men chinovnikni...

Nelli to‘xtab qoldi, xotiralar uning yuragini to‘lqinlatar, ko‘zlari chaqnar edi.

– Ey tangrim! – qichqirardi hikoyani jon qulog‘i bilan eshitayotgan Anna Andreevna, ko‘proq unga qarab gapirayotgan Nellidan ko‘z uzmay.

– Shunda onam u yerdan chiqib ketdi, – davom etdi edi Nelli, – meni ham yetaklab oldi. Bu kunduz kuni biz kuni bo‘yi to kechgacha ko‘chalarda kezib yurdik, onaginam hamon yig‘lar, qo‘limdan yetaklab yurardi. Men juda ham charchab ketdim, shu kuni ichimizga tuz kirmagan edi. Onajonim esa hadeb o‘zi bilan o‘zi gaplashar, yakkash menga; «Nelliginam, qashshoq bo‘l, men o‘lganimdan keyin hech kimning gapiga kirma; hech kimnikiga borma; yolg‘iz o‘zing bo‘l, qashshoq bo‘l, ishla, ish topmasang, gadoylik qil, ammo ularga yalinib borma», – derdi. Faqat kechqurun qosh qorayganda biz bir katta ko‘chadan o‘tib ketayotgan edik; onam birdan «Azorka! Azorka», – deb qichqirib yubordi. Shunda birdan tullagan bitta katta it onam oldiga yugurib kelib ingillay boshladi va onamga o‘zini tashladi, onam esa qo‘rqib ketdi, rangi oppoq oqarib chinqirib yubordi va yerga qarab hassasiga tayanib kelayotgan novcha bir chol oyog‘iga yiqildi.

¹ Kapitansha – kapitanning xotini yoki beva.

Ana o'sha novcha chol buvam ekan. U juda oriq, ustidagi kiyimlari eski edi. Shunda men buvamni birinchi marta ko'rdim. Buvam juda ko'rqib ketdi, rangi quv o'chdi, o'zining oldida yotib, oyoqlarini mahkam quchoqlab olgan onamni ko'rib, oyog'ini oldi, onamni itarib yubordi, hassasi bilan yerga taq etib urdi-yu, tez-tez yurib bizning oldimizdan ketib qoldi. Azorka bizning oldimizda qoldi, u hamon ingillab, onamni yalar edi, keyin buvam orqasidan zing'illab borib, uni etagidan tishlab orqaga sudray boshladi, buvam esa uni hassasi bilan urdi. Azorka yana biz tomonga yugurdi, buvam uni chaqirdi, u yana buvam orqasidan ketdi, lekin ingillar edi. Onam esa o'likdek cho'zilib yotar-di, atrofga odamlar yig'ildi, politsiyachilar kelishdi. Men esa hadeb baqirib onamni turg'izishga urinardim. U o'rnidan turib, atrofga qaradi, keyin mening orqamdan ergashib ketdi. Men uni uyga olib bordim. Odamlar bizga ancha qarab turishdi, ular hadeb boshlarini chayqashardi...

Nelli nafasini rostlab, o'ziga kelish uchun to'xtab oldi. Uning rangi oppoq, ammo boqishlarida qat'iylik bor edi. U hammasini, hamma sarguzashtlarini gapirishga qaror qiltani ko'rinib turar edi. Unda hattoki shu daqiqada qandaydir g'azab alomati bor edi.

– Nima bo'libdi, – dedi Nikolay Sergeich, asabiy tovushda, qandaydir jahl aralash qo'pollik bilan, – onang o'z otasini xo'rlagan, shuning evaziga u onangdan voz kechgan...

– Onaginam ham menga shunday degan edi, – dedi Nelli ham to'satdan, – keyin biz uyga ketayotganda ham: «Mana shu sening buvang bo'ladi, Nelli, men uning oldida gunohkorman, u meni «oq» qilgan, shuning uchun endi meni tangrining o'zi ham qahriga olgan», – degan edi, shu kuni butun oqshom, keyingi kunlar u shu so'zni qaytarardi. Go'yo u aqldan oznb qolgandek hadeb gapiraverar edi.

Chol indamay qo'ya qoldi.

– Keyin boshqa uyga ko'chib o'tdinglarmi? – so'radi hamon piqillab yig'lashda davom etayotgan Anna Andreevna

– Onamning shu kechayoq tobi qochib qoldi, kapitansha, Bubnovanikidan uy topdi, ikki kundan keyin biz ko'chib bordik,

kapitansha ham biz bilan birga ko'chdi.

Ko'chib kelganimizdan keyin onam juda ham og'irlashib qoldi, uch hafta kasal yotdi, men uni parvarish qildim. Yonimizda bir chaqa ham pulimiz qolmadi, bizga kapitansha va Ivan Aleksandrovich qarashib turishdi.

– Tobutsoz, uy boshlig'i, – dedim men tushuntirish uchun.

– Onam o'rnidan turib, yuradigan bo'lganda menga «Azorka» to'g'risida gapirib berdi.

Nelli to'xtab qoldi. Chol gap «Azorka» ustiga ko'chgandan sevingandek bo'ldi.

– Nima dedi u senga «Azorka» xususida? – so'radi u, yerga qarab yuzini bekkitish uchun o'z kreslosida yana ham engashib.

– U menga hadeb buvam to'g'risida gapirardi, – javob berdi Nelli, – kasal yotib ham, alahlaganda ham faqat o'sha to'g'rida gapirardi. Mana endi, yostiqdan bosh ko'tara boshlaganda ham ilgari qanday yashagani, Azorkani qanday qilib topganlarini hikoya qilardi. Bir kun shahar tashqarisidagi daryo bo'yiga bolalar Azorkani bo'ynidan sirtmoq bog'lab, cho'ktirish uchun olib kelishibdi, onam bolalarga pul berib, ulardan Azorkani sotib olibdi. Buvam Azorkani ko'rib hadeb kularmish. Azorka qochib ketgan ekan, onam toza yig'labdi, shunda buvam qo'rqib ketib, Azorkani kim topib kelsa, yuz so'm beraman, debdi. Ikki kundan keyin uni olib kelibdilar, buvam yuz so'm beribdi, shu kundan boshlab Azorkani yaxshi ko'rib qolibdi. Onam uni shunday yaxshi ko'rib qolibdiki, hatto o'mida ham birga olib yotar ekan. Onam menga gapirib berdi: Azorka avvallari masxarabozlar bilan ko'chalarda yurarkan, qo'l berishni bilarkan, maymunni mindirib yurarkan, miltiq o'qtalgandek harakat qilarkan, ko'p qiliqlarni bilarkan... Onam buvamdanda ketib qolganda, buvam Azorkani o'zi bilan olib qolibdi, u bilan ko'chama-ko'cha yuradigan bo'libdi, shuning uchun onam ko'chada Azorkani ko'rishi bilan, shu yerda buvam ham borligini darrov payqabidi...

Chol Azorka haqida boshqa gapni kutgan edi, shekilli, qovog'ini battarroq solib oldi. U endi hech narsa so'ramay ham qo'ya qolgan edi.

– Nima bo'ldi keyin, shunday qilib buvangni boshqa ko'-

rolmadinglarmi? – so‘radi Anna Andreevna.

– Yo‘q, onam tuzalib kelayotgan kunlarda men yana buvamni uchratdim. Men do‘konga nonga ketayotgan edim, birdan Azorka bilan ketayotgan odamni ko‘rib qoldim, qarasam, buvam ekan. Men devorga yopishib turib unga yo‘l berdim. Buvam menga qaradi, uzoq tikilib qaradi, vajohati shunday dahshatli ediki, men undan juda ham qo‘rqdim, u o‘tib ketdi; Azorka esa meni tanib qolib oldimda sakrab, qo‘llarimni yalay boshladi. Men shoshilganimcha uyga jo‘nadim, orqamga qarasam, buvam do‘konga kirib ketdi. «Meni surishtirish uchun kirgandir», – deb o‘yladim, o‘zimcha, va undan battarroq qo‘rqib ketdim, uyga kelganimda onamga bu to‘g‘rida churq etib og‘iz ochmadim, yana kasal bo‘lib qolishidan qo‘rqdim. O‘zim ertasiga «boshim og‘riyapti» deb do‘konga bormadim, uchinchi kun nonga borganimda hech kimni ko‘rmadim, ammo o‘zim shunday qo‘rqdimki, oyog‘imni qo‘limga olib chopdim. Yana oradan bir kun o‘tgan-dan keyin endigina muyulishga yetganimda birdan oldimdan buvam bilan Azorka chiqib qolsa bo‘ladimi! Men qochib ketdim, boshqa ko‘chaga burilib, do‘konga boshqa tomondan kirdim; birdan tag‘in unga to‘qnash kelib qoldim, shunday qo‘rqib ketdimki, turgan yerimda taxta bo‘lib qoldim. Buvam yana ro‘paramga kelib menga qarab turdi, uzoq tikilib keyin boshimni silab-silab qo‘limdan ushladi-da, o‘zi bilan yetaklab olib ketdi. Azorka esa orqamizdan dumini likillatib kelaverdi. Shundagina men buvamni, qaddini ko‘tarib yurolmasligini, hassaga suyanib arang yurishini ko‘rdim, qo‘llari ham qaltirar edi. U meni burchakda o‘tirib pryanik, olma sotadigan kishi oidiga boshlab keldi. Buvam xo‘roz, pryanik, baliq, bitta popuk va olma sotib olib berdi, u charm karmonidan pul olayotganda qo‘li qalt-qalt qilardi, bir mirini tushirib yuborgandi, men yerdan olib berdim. U menga shu bir mirini berdi, pryaniklarni ham berib, boshimni siladi, yana bir og‘iz ham gapirmay, uyiga ketdi.

Uyga kelganimda, onamga hamma voqeani, avval men undan qo‘rqib bekinganlarimgacha gapirib berdim. Onam avval menga ishonmadi, keyin shunday sevinib ketdiki, butun oqshom shu to‘g‘rida mendan so‘rab-surishtirdi, o‘pdi, yig‘ladi. Keyin

men hammasini aytib berganimdan so'ng onam menga, bundan keyin buvangdan hech qo'rqma, qidirib kelgan bo'lsa, demak, u seni sevarkan, sen buvangga erkalik qilib u bilan gaplashib yur, dedi. Ertasiga, buvam kechga yaqin keladilar, deb aytsam ham, ertalabdan boshlaboq bir necha marta meni do'konga yubordi.

O'zi esa uzoqroqda orqamdan kelaverdi, burchakda bekinib turdi, ertasiga ham shunday qildi, ammo buvamdan darak bo'lmadi, shu kunlarda yomg'ir yog'ib turar edi. Onam qattiq shamollab qoldi, nega desangiz bir necha bor orqamdan darvoza-ga chiqqan edi. Tag'in yotib qoldi.

Buvam bir haftadan keyin keldi, yana menga bitta pry-anik, baliq, bitta olma olib berdi, yana hech narsa demadi. U oldimdan ketgandan keyin men asta-sekin uning orqasidan yura-verdim, poylab borib qayerda turishini bilib olmoqchi va onamga aytib bermoqchi bo'lgan edim. Men ko'chaning bu betiga o'tib olib, uzoqdan boraverdim, buvam meni ko'rmadi. U juda uzoq joyda turar ekan, hozirgi turgan va o'lgan yeri emas, undan boshqa – Goroxovoy ko'chada katta bir uyda, to'rtinchi qavatda turar ekan, men shularning hammasini bilib uyga kech qaytdim. Onam qayerdaligimni bilmay toza xavotir olibdi. Onamga gapirib berganimdan keyin u juda quvonib ketdi. Ertagayoq buvamnikiga bormoqchi bo'ldi, ammo ertasiga o'ylay boshladi, borishga yuragi dov bermadi, uch kungacha otlandi-yu, borolma-di. Keyin meni oldiga chaqirib: «Bilasanmi Nelli, endi men betobman, borishga quvvatim yetmaydi, lekin unga bir maktub yozib qo'ydim, shuni olib borib ber buvangga, ammo Nelli, maktubni qanday qilib o'qiganini, nima qilganiga razm sol, o'zing tiz cho'kib, uni o'p, quchoqla va onangni kechirishini so'rab iltijo qil»...– dedi degani, nima

O'zi ho'ngrab-ho'ngrab yig'ladi, meni o'pdi. Oq yo'l tilab duo o'qidi, o'zi bilan birga meni ham ikona oldiga o'tqazib Xudoga ibodat qildi va shuncha kasalligiga qaramasdan meni darvozagacha kuzatib chiqdi, qoram o'chguncha orqamdan qarab turdi...

Men buvamnikiga kelib, eshigini ochdim, eshik zanjirsiz ekan. Men kirganimda buvam stol oldida non bilan kartoshka yeb

o'tirgan ekan. Azorka esa uning ovqat yeganiga qarab dumini likillatib turibdi. Buvam ilgari turgan uyning ham oynalari kichkina, unda bor-yo'g'i bitta stol, bitta stul bor ekan. Bitta o'zi turar ekan. Men kirdim, meni ko'rib, shunday qo'rqib ketdiki, rangi o'chib a'zoyi badani titray boshladi. Men ham qo'rqib ketdim, ammo hech narsa demasdan stol oldiga bordim-u, xatni qo'ydim. Buvam xatni ko'rib shunday jahli chiqib ketdiki, o'rnidan irg'ib turib menga hassasini o'qtaldi, ammo urmadi, meni yo'lakka olib chiqib itarib yubordi. Men hali zinapoyaning birinchi zinasiga ham tushib ulgurmay, u eshikni ochdi-yu, konverti ochilmagan xatni orqamdan uloqtirdi. Men uyga kelib hammasini gapirib berdim. Shunda onam yana yotib qoldi.

VIII BOB

Shu daqiqa momaqaldiraq qattiq gulduradi, katta-katta yomg'ir tomchilari deraza oynalariga urila boshladi, uy ichi qorong'ilashdi. Kampir qo'rqib ketgandek, cho'qinib oldi. Biz hammamiz birdan jim bo'lib qoldik.

– Hozir o'tib ketadi, – dedi chol derazaga qarab, keyin o'rnidan turib uyda u yoqdan-bu yoqqa yurdi. Nelli unga ko'z qiri bilan qarab turar edi. U g'oyat asabiy holatda, hayajonda edi. Men buni ko'rib turardim, u esa menga qaramaslikka tirishar edi.

– Xo'sh, keyin nima bo'ldi? – so'radi chol yana o'z kreslosiga kelib o'tirib.

Nelli qo'rqa-pisa atrofga qarab oldi.

– Xo'sh, shunday qilib keyin buvangni ko'rmadingmi?

– Yo'q, ko'rdim...

– Ha, ha! Gapiraver jonginam, gapiraver, – dedi Anna Andreevna.

– Men uni uch hafta ko'rmadim, – boshladi Nelli, – to qishgacha. Keyin qish tushdi, qor yog'di. Men buvamni yana o'sha yerda ko'rganimda juda ham sevinib ketdim... Nega desangiz, onam, endi u yurolmay qolibdi deb qayg'urib yurar edi. Uni ko'rishim bilan ataylab, meni qochib ketyapti deb o'ylasin

deb, ko'chaning narigi betiga chopib o'tdim. Bir qayrilib qarasam, buvam menga yetib olish uchun orqamdan tez-tez yurib, keyin chopib kela boshladi va yo'l-yo'lakay: «Nelli, Nelli!» – deb chaqirdi. Azorka uning orqasidan chopib kelardi. Buvamga yuragim achishib ketdi-yu, to'xtadim. U oldimga kelib, meni qo'limdan yetaklab olib ketdi. Yig'layotganimni ko'rgandan keyin to'xtab menga qarab turdi va engashib meni o'pdi. Shunda u mening oyoq kiyimim yirtiqligini ko'rib «Boshqasi yo'qmi?» – deb so'radi. Men shu zahotiyoq shoshilib, onamda bir tiyin ham yo'qligini, uy egalari rahmlari kelgandan bizga ovqat berishlarini aytdim. Buvam hech narsa demadi, ammo meni do'konga boshlab borib oyoq kiyim olib berdi-da, hoziroq kiyib olishga buyurdi, keyin meni uyiga – Goroxovoyga olib bordi. Oldin do'konga kirib pirog va ikkita konfet olgan edi, uyga kirganimizda eng avval pirog yeyishga buyurdi, mening yeganimga qarab o'tirdi, keyin konfet berdi. Azorka ham stolga qo'lini qo'yib pirog so'radi, men berdim, buvam kulib yubordi. Keyin meni yoniga o'tqazib olib boshimni silay boshladi va: «Biror narsa o'qigan-sanmi, nimani bilasan?» – deb surishtirdi. Men unga nima o'qiganimni gapirib berdim, u iloji bo'lgan kuni har kuni soat uchga uning oldiga kelishimni, u o'zi meni o'qitishini aytdi. Keyin u mening orqamni o'girib, derazaga qarab turishimni va «bo'ldi» degandagina aylanishimni buyurdi. Men o'girilib turdim, lekin ichim pishib ketib astagina orqamga qarasam, u o'z yostiq jildining bir uchidan so'kib, u yerdan to'rt so'lkovoy oldi. So'lkovoylarni olgandan keyin mening oldimga kelib: «Bular sening o'zingga», – dedi. Men olmoqchi bo'ldim-u, biroz o'ylab turib, «bitta mening o'zingga bo'lsa, olmayman», – dedim. Buvamning birdan jahli chiqib ketdi va: «Bor, bilganingni qil, jo'na», – dedi, men chiqib ketdim, u meni, loaqal, o'pmadi ham.

Uyga kelishim bilan hammasini onamga aytib berdim. Onamning holi kundan kunga og'irlashmoqda edi. Tobutsoznikiga bitta talaba kelib yurardi, o'sha onamni boqdi va dori ichishga buyurdi.

Men esa buvamnikiga tez-tez qatnab turadigan bo'ldim, onam, borib tur, derdi. Buvam Injil va geografiya kitoblari sotib

oldi va meni o'qita boshladi; ba'zan dunyoda qanday yerlar bor, qanaqa odamlar yashaydi, qanaqa dengizlar bor, avvallari qanday bo'lgan, qanday qilib hammamizning gunohimizni Xristos kechirganini gapirib berardi. Mening o'zim undan bir narsani so'rasam, juda shodlanib ketar edi. Shuning uchun o'zim ko'pincha unga savol berardim, u hamma narsani gapirib berardi, Xudo to'g'risida juda ko'p gapirardi. Ba'zi vaqtlarda, o'qimayotgan maholimda Azorka bilan o'ynashardim. Azorka meni juda yaxshi ko'rib qoldi, uni tayoq ustidan sakrab o'tishga o'rgatdim, buvam kulib, hadeb boshimni silardi. Buvam juda kam kular edi. Ba'zi vaqtda ko'p gapiradi, ba'zi vaqtda birdan jim bo'lib qoladi-yu, indamay o'tiradi, xuddi uxlab qolgan deb o'ylaysiz, ammo ko'zlari ochiq. Shu o'tirgancha qorong'i tushgancha o'tiradi, qorong'ida u shunday qo'rqinchlik, shunday qari bo'lib ko'rinadiki... Shunday vaqtlar ham bo'lardiki, uning oldiga kelganimda u o'z stulida xayol surib o'tiradi, kelganimni payqamaydi ham. Azorka esa uning oldida cho'zilib yotadi. Men kutib-kutib, yo'talib ko'raman, buvam boshini ham ko'tarmaydi. Shu holda qaytib ketaveraman. Uyda esa onam meni zoriqib kutib yotadi. Men unga hammasini gapirib beraman, kech kirib, qorong'i tushsa ham, men gapiraman, u buvam to'g'risida qancha eshitsa, shuncha eshitgisi kelaveradi: bugun u nima qildi, menga nimalarni, qanaqa voqealarni gapirib berdi va menga qanaqa vazifa berdi, hammasini gapirib beraman. Azorka to'g'risida, qanaqa qilib men uni tayoq ustidan sakrashga o'rgatganim, buvamning kulganini gapirsam, u ham birdan kula boshlaydi, quvonib uzoq kuladi, tag'in boshqatdan boshlab gapirishimni so'raydi, keyin duo o'qiy boshlaydi. Men, o'zimcha, qanaqa qilib onam buvamni shunchalik qattiq sevadi-ku, buvam uni sevmaydi, deb o'yladim. Keyin buvam oldiga kelganimda, ataylab onam uni qanchalik sevishini gapirib berdim. U quloq solib o'tirdi. Jahli chiqsa ham, eshitib o'tirdi, lekin bir og'iz ham gapirmadi. Shunda men undan: nima uchun onam uni shunchalik yaxshi ko'radi, shunchalik undan gap ochaveradi-yu, u onamni hech qachon so'ramaydi, deb savol berdim. Buvam achchig'i chiqib ketib, meni haydab chiqardi, men eshik orqasida birpas turdim, u birdan eshikni ochdi-da, me-

ni qaytarib chaqirib oldi va hamon jahlidan tushmay jim o'tira-verdi. Keyin biz din darsi o'qiy boshlaganimizda, men yana: nega bo'lmasa Isus Xristos bir-biringlarni sevinglar, kek saqlamanglar, deb o'rgatadi-yu, u onamni kechira olmaydi, deb so'radim. Shunda u o'rnidan irg'ib turdi, «Hammasini onang o'rgatgan», – deb baqirdi va ikkinchi marta meni haydab chiqardi, «Ikkinchi bu yerga qadam bosma!» – dedi. O'zim ham, endi oldingga kelmayman, dedim-u, chiqib ketdim... Ertasiga buvam boshqa uyga ko'chib ketibdi...

– Aytdim-ku, yomg'ir tinadi deb, mana tindi, oftob ham chiqdi... Qara, Vanya – dedi Nikolay Sergeich derazaga o'girilib.

Anna Andreevna nihoyat darajada ensasi qotib unga qaradi va birdan shu chog'gacha mo'min-qobil bo'lgan kampirning ko'zlarida qahr-u g'azab o'ti chaqnab ketdi. U indamasdan Nellining qo'lidan ushlab, tizzasiga o'tqazdi.

– O'zinga gapiraver, chirog'im, – dedi u, – o'zim eshitaman. Mayli, kim toshyurak bo'lsa...

U gapirolmay yig'lab yubordi. Nelli taajjub va qo'rquv aralash menga savol nazari bilan qarab qo'ydi. Chol menga ko'z tashlab hayron bo'lgan kishidek yelkasini qismoqchi bo'ldi-yu, lekin shu zahoti teskari burilib oldi.

– Davom et, Nelli, – dedim.

– Men uch kun buvamnikiga bormadim, – boshladi yana Nelli, – shu orada onamning ahvoli tag'in ham yomonlashdi. Pulimiz sob bo'ldi, dori olishga bir tiyininimiz qolmadi, o'zimiz ham hech narsa yemadik, chunki uy egalarida ham hech narsa qolmagan edi, ular bizga, «Boshimizga bitgan balo bo'ldinglar», – deb ta'na qilisha boshlashdi. Oradan ikki kun o'tgandan keyin erta turib kiyina boshladim. Onam qayerga borasan, deb so'radi. Buvam oldiga, pul so'ramoqchiman, dedim, oyim juda sevinib ketdi, negakn, buvam haydab yuborganini, endi unikiga qadam bosmasligimni aytgan edim, onam yig'lab-siqtab borishga qistaganda ham quloq solmagan edim. Men buvamnikiga borsam, u ko'chib ketibdi, ko'chib borgan yangi uyini axtara boshladim. Men uning yangi turgan uyiga kirishim bilan meni ko'rdi-yu, o'rnidan irg'ib turib menga tashlandi, oyoqlari bilan tepinib,

baqirib berdi. Men shu zahoti onam og'irlashib qolganini, doriga aqalli ellik tiyin ham topolmaganimizni, yeyishga bir burda nonimiz ham yo'qligini gapirdim. Buvam baqirib, meni uydan itarib chiqardi-yu, eshigini ichidan zanjirlab oldi. Ammo u meni turtib chiqarayotgan mahalda, «Baribir, pul bermaguningizcha zinapoyada o'tiraveraman», – dedim. O'zim ham zinapoyada «haq» deb o'tiraverdim. Birozdan keyin u eshikni ochdi-yu, o'tirganimni ko'rib yana eshikni zanjirlab oldi. Keyin oradan ancha vaqt o'tgandan keyin u yana ochdi, meni ko'rib tag'in bekitib oldi. Yana bir necha bor ochib, bir necha bor qaradi. Nihoyat, Azorka bilan chiqib, eshikni qulfladi va mening oldimdan g'iq etmasdan o'tib ketdi. Men ham hech narsa demadim, o'tiraverdim, qorong'i tushguncha o'tirdim.

– Jonginam, – jingilladi Anna Andreevna, – zinapoyasi o'lgur sovuq bo'lsa kerak-ku, axir!

– Ustimda po'stincham bor edi, – dedi Nelli.

– Po'stin bo'lsa, nima qilibdi... Bechoraginam, qancha azob tortgansan-a! Xo'sh, keyin buvang nima bo'ldi?

Nellining lablari burilib ketay dedi, ammo u yig'lab yubormaslik uchun o'zini bosishga urinardi.

– Buvam qorong'i tushgandan keyin keldi va kira turib menga qoqilib ketdi, kim bu yerda, deb baqirdi: «Men», – dedim. U meni allaqachon ketib qolgan deb o'ylagan bo'lsa kerak, hali ham shu yerda o'tirganimni ko'rib juda hayron qoldi va ancha-gacha oldimda qotib turdi. Birdan hassasini to'qillatib yugurganicha chiqib ketdi, eshigini ochdi va bir daqiqadan so'ng, nuqul bir mirilik chaqalarni olib chiqib oldimga otib tashladi. «Mana, ol, bor-yo'g'imni ol, onangga ayt, men uni «oq» qilganman!» – deb baqirdi, o'zi eshikni taraqlatib yopib kirib ketdi. Chaqalar zinapoyalardan yumalab tushib ketdi. Men qorong'ida ularni tera boshladim, buvam, nazarimda, chaqalarni sochib yuborganini va qorong'ida ularni topish qiyinligini payqadi, shekilli, eshikni ochib uydan sham ko'tarib chiqdi, sham yorug'ida men ularni tezgina terib oldim. Buvamning o'zi ham men bilan terisha boshladi, hammasi bo'lib yetmish tiyin bo'lishi kerak, deb qo'ydi-da, o'zi kirib ketdi. Men uyga kelib pulni onamga berdim

va hamma bo'lgan voqealarni onamga aytib berdim, shunda onamning ahvoli juda ham yomonlashdi, o'zim ham tun bo'yi kasal bo'lib chiqdim. Ertasiga ham kuni bilan isitmalab yotdim. Lekin hamon bir narsani o'ylayverardim, chunki buvamdanda qattiq xafa bo'lgan edim. So'ng onam uxlab qolgandan keyin, buvam turadigan ko'chaga qarab ketdim, uyga yetmasdan beriroqda ko'prik ustiga borib turdim. Shunda anovi kishi keldi...

– Arxipovni aytyapti, – dedim – men, sizga u to'g'rida gapirgan edi, Nikolay Sergeich, – Bubnovanikida, anovi savdogar bilan birga bo'lgan-chi, o'sha kaltak yegan odam. Nelli uni birinchi topqir o'shanda ko'rgan... Davom et, Nelli.

– Men uni to'xtatib, pul so'radim, – bir so'lkavoy so'radim, U menga qarab: «Bir so'lkavoy?» – deb so'radi». «Ha», – dedim. Shunda u kulib qo'ydi-da: «Yur men bilan», – dedi. Men borish-bormasligimni bilmay turgandim, birdan bitta tilla ko'zoynak taqqan mo'ysafid kelib qoldi, u mening bir so'lkavoy so'raganimni eshitgan edi, menga engashib turib: «Nima uchun, albatta, bir so'lkavoy bo'lishi kerak», – deb so'radi. Men unga, onam kasal, faqat doriga shuncha pul kerak, dedim. U biz qayerda turishimizni so'radi va daftarchasiga yozib oldi va menga bir so'mlik qog'oz pul berdi. Anovi kishi bo'lsa ko'zoynakli cholni ko'rishi bilan jo'nab qoldi va menga boshqa «yur» demadi. Men do'konga kirib bir so'mni chaqalarga maydalatib oldim. O'ttiz tiyinni ajratib, onam uchun qog'ozga o'rab qo'ydim, yetmish tiyinni qog'ozga o'ramasdan ataylab kaftimda siqimlaganimcha buvamnikiga ketdim. Unikiga borib eshikni ochdim-da, ostonada turganimcha hamma pulni unga qarab joni-jahdim bilan otib yubordim, chaqalar polda dumalashib ketdi.

– Mana, oling pullaringizni! – dedim men unga, – onamga sizning pulingiz kerak emas, chunki siz uni «oq» qilgansiz, – dedim va eshikni taraqlatib bekitdim-u, yugurib chiqib ketdim.

Uning ko'zlarida o't chaqnadi va soddadillik bilan uning jig'iga tegish uchun cholga qarab qo'ydi.

– Ajab bo'libdi, – dedi Anna Andreevna, Nikolay Sergeichga qaramasdan, Nellini mahkam bag'riga bosib, – unga shu-

naqa qilmasa ham bo'lmadi, buvang yovuz, qahri qattiq odam ekan...

– Hm! – deb qo'ydi Nikolay Sergeich.

– Keyin-chi? – deb so'radi Anna Andreevna toqatsizlik bilan.

– Men buvannikiga qadam bosmaydigan bo'ldim. U ham mening oldimga kelmay qo'ydi, – javob berdi Nelli.

– Keyin nima bo'ldi, onang bilan qolaverdinglarmi? Ey bechora baxti qarolar!

– Onam esa kundan kun og'irlashib boraverdi, kamdan kam o'rnidan turar edi, – davom etdi Nelli, uning ovozi titrab, birdan to'xtab qoldi. – Bir chaqa ham pulimiz qolmadi, men kapitansha bilan xayr so'ray boshladim. Kapitansha uyma-uy yurib xayr tilar, ko'chalarda ham tuzukroq odamlarni to'xtatib tilanar va shu bilan kun ko'rar edi. U: «Men gadoy emasman, mening martabam yozilgan qog'ozlarim bor, o'sha qog'ozda mening kambag'alligim yozilgan», – derdi. Mana shu qog'ozlarni u odamlarga ko'rsatardi, shu qog'ozga qarab unga pul berardilar. O'sha menga, ko'pchilikdan xayr so'rash or-nomus emas, derdi. Shunday qilib, men u bilan tilanchilik qilardim, bizga xayr-ehson berardilar, shu bilan kun kechirar edik. Onam buni bilib qoldi, chunki qo'shnilarimiz uni «gadoy» deb yuznga soladigan bo'ldilar. Bubnovaning o'zi onamga kelib, qizingni tilanchilik qildirganingdan ko'ra, menga bera qolsang bo'lmaydimi, dedi. U oldin ham onam oldiga kirib-chiqib turar edi, pul olib kelardi, onam pulini olmasa, Bubnova: «Dimog'ing shishmay o'lsin!» – derdi. Keyin ovqat yuborar edi. Menim to'g'rimda gapirgandan keyin onam qo'rqib yig'lab yubordi, Bubnova esa onamni qarg'ay boshladi, chunki u mast edi, «Uningsiz ham qizing gadoy, kapitansha bilan tilanchilik qiladi», – dedi va shu oqshomoq kapitanshani uydan haydab chiqardi. Onam bulardan xabardor bo'lgach, yig'lay boshladi, keyin birdan yotgan o'rnidan turdi, kiyindi va meni qo'limdan yetaklaganicha o'zi bilan olib chiqib ketdi. Ivan Aleksandrovich uni to'xtatmoqchi bo'ldi, ammo u quloq solmadi, biz chiqib ketdik. Onam arang yura olardi, har qadamda ko'chada o'tirib olardi, men uning qo'ltig'idan ushlab turadim.

Onam hadeb, buvarnikiga bormoqchi ekanini aytardi. Unikiga olib borishimni so'rardi. Vaqt esa alla-palla bo'lib qolgan. Be-xosdan biz katta bir ko'chadan chiqib qoldik. Bu yerda bitta bino oldida karetlar kelib to'xtar, odamlar chiqib turar edi. Oynalar yorug', musiqa ovbzi yangramoqda edi. Onam to'xtadi. Meni mahkam bag'riga bosdi va: «Nelli, qashshoq bo'l, bir umr gado bo'l, lekin ularnikiga borma, kim seni chaqirmasin, oldingga kim kelmasin, borma. Sen ham mana shu yerda bo'lishing, boy va ajoyib kiyimlarda bo'lishing mumkin edi, ammo men buni istamayman. Ular yovuz, bag'ritosh odamlar, mana, senga nasihatim: kambag'alligingcha qolaver, ishla va gadoychilik qil, agar birov seni chaqirib kelsa, sizlarnikiga borishni istamayman deb ayt!» – dedi o'shanda. Shuni menga onam kasal vaqtida aytgan, men bir umr uning aytganidan chiqmoqchi emasman, – qo'shib qo'ydi Nelli, hayajondan titrab, bo'riqib ketib, – umrim boricha ishlashni, mehnat bilan kun kechirishni xohlayman, siznikiga ham xizmat qilish uchun keldim, qizingiz o'rnida bo'lish uchun emas...

– Bo'ldi, bas, erkatoyim, bas! – chinqirib yubordi kampir, Nellini qattiq bag'riga bosib. – Axir, onang bularni gapirganda betob edi-da.

– Devona edi, – dedi chol shartta.

– Mayli, devona bo'lsa bo'la qolsin! – gapni ilib oldi Nelli shartta cholga o'girilib, – mayli, jinni bo'lsa ham, ammo u menga shunday buyurgan, men umrimning boricha uning aytganini qilaman. Onam shu gapni aytib turib hushidan ketdi.

– Yo Rabbiy! – qichqirdi Anna Andreevna, – kasal holi-cha, ko'chada-ya, qishda-ya!

– Bizni politsiyaga olib ketmoqchi bo'ldilar, ammo bir janob mendan uyimizni surishtirdi, qo'limga o'n so'm tutqizib, onamni o'z izvoshida uyimizga eltib qo'yishni buyurdi. Shundan keyin onam o'rnidan turolmadi, uch haftadan keyin vafot etdi...

– Otasi-chi? Shunday qilib, kechirmadimi, a? – deb qichqirib yubordi Anna Andreevna.

– Kechirmadi! – javob berdi zo'rg'a o'zini bosib Nelli, – o'lishiga bir hafta qolganda onam meni oldiga chaqirib oldi va:

«Nelli, yana bir marta, oxirgi marta buvang oldiga bor, mening oldimga kelishini va meni kechirishini so'ra. Unga ayt, men bir necha kundan keyin o'laman, dunyoda yolg'iz o'zingni tashlab ketaman. Yana unga ayt, kechirmasa, qiynalib o'laman...» dedi. Men bordim, buvamning eshigini taqillatdim, u eshikni ochdi-yu, meni ko'rishi bilan yana shu zahoti yuzimga eshigini bekitmoqchi bo'ldi, ammo men ikki qo'llab eshikka yopishib oldim va unga: «Onam o'lyapti, sizni chaqiryapti, boring!» – deb baqirdim. Biroq u yana meni itarib tashlab, eshikni bekitib oldi. Men qaytib keldim, onamning yoniga kirib yotdim, quchoqladim, unga hech narsa demadim... Onam ham meni quchoqladi va hech narsa so'ramadi...

Shu yerga kelganda Nikolay Sergeich butun og'irligi bilan qo'lini stolga tirab o'rnidan turdi, ammo allaqanday g'alati, nursiz ko'zlari bilan hammamizga bir-bir qaradi-yu, madori qurigan odamdek qaytib kresloga o'tirdi. Anna Andreevna endi unga qaramadi ham, ammo qon-qon yig'lab Nellini bag'riga bosar edi...

– Mana, oxirgi kuni, o'ladigan kuni kechqurun onam meni oldiga chaqirdi, qo'llarimni ushlab turib dedi: «Bugun men o'laman, Nelli», – yana nimadir aytmoqchi bo'ldi-yu, lekin ayta olmadi. Men unga qarab turibman, u esa, nazarimda, meni ko'rmayotganga ham o'xshardi, faqat qo'limni mahkam ushlab turardi. Men qo'limni sekingina sug'urib oldim-da, uydan yugurib chiqdim. Chopib buvamnikiga keldim. U meni ko'rib o'rnidan turib ketdi va qotganicha qarab qoldi, shunday qo'rqib ketdiki, rangi quv o'chib o'zi qalt-qalt titrardi. Men uning qo'liga yopishdim va jon holatda «Hozir o'ladi!» – dedim, xolos. Shunda u birdan tipirchilab qoldi, hassasini olib, orqamdan yugurdi, hatto shlyapasini ham unutib qo'ydi, havo sovuq edi. Men shlyapasini olib, kiydirib qo'ydim va ikkalamiz birga yugurib chiqib ketdik. Men uni shoshiltirardim, izvosh olishga qistardim, chunki onam hozir jon beradi, derdim. Ammo buvamda hammasi bo'lib yetti tiyin bor ekan. U izvoshchilarni to'xtatib savdolashardi, ular esa faqat kulishardi, Azorkadan kulishardi. Azorka esa biz bilan chopishib kelmoqda edi, biz hamon olg'a intilardik, chopardik.

Buvam charchab, halloslab qoldi, biroq shunga qaramay shoshilar, yugurar edi. Birdan u yiqildi, boshidan shlyapasi uchib tushdi, men uni turg'izib shlyapasini kiygizdim va uni suyab olib keta boshladim, faqat qorong'i tushganda uyga yetib keldik... Ammo onam allaqachon o'lib bo'lgan ekan. Uni ko'rgandan keyin buvam chapak chalib yubordi, a'zoyi badani titrab ketdi, tepasida lom-mim deya olmay tik turib qoldi. Shunda men onamning jasadini oldiga keldim va buvamning qo'lidan ushlab: «Mana bag'ritosh, zolim odam, mana, endi ko'r!.. Qo'r buni!» – deb baqirdim. Shunda buvam dodlab yubordi va o'likdek polga yiqildi...

Nelli irg'ib o'rnidan turdi, Anna Andreevna quchog'idan otilib chiqib, o'rtamizda dokadek oqargan, holdan ketgan, bir narsadan qo'rqqandek turar edi. Ammo Anna Andreevna unga otilib, yana uni bag'riga bosdi va go'yo ilhomlanib ketgandek:

– Men, men endi sening onang bo'laman, Nelli, sen mening bolaginamsan! Ha, Nelli, ketamiz, toshyurak va zolim odamlarning hammasini tashlab, bosh olib ketamiz! Mayli, odamlarga azob beraverishsin, Xudoning o'zi ularning jazosini beradi. Yur Nelli. Yur, bu yerdan ketamiz, – dedi.

Men uni hech qachon, oldin ham, keyin ham shu holatda ko'rgan emasman, ha, men uni biror vaqt shunchalik hayajonga kelar deb o'ylamagan edim. Nikolay Sergeich kreslosidan turib qaddini rostladi va qaltiroq tovush bilan:

– Anna Andreevna, qayoqqa? – deb so'radi.

– Unikiga, qizginam Natashamnikiga! – baqirdi u va Nellini o'zi bilan birga olib eshik tomon yurdi.

– To'xta, to'xta, shoshma!..

– Kutganning foydasi yo'q, shafqatsiz, zolim odam! Men uzoq kutdim, u ham uzoq kutdi, endi esa yaxshi qol...

Shu javobni berib kampir eriga qayrilib qaradi-yu, taxta bo'lib qoldi. Nikolay Sergeich uning oldida shlyapasini, titroq va bemajol qo'llari bilan shoshilganicha paltosini kiymoqda edi.

– Sen ham... Sen ham men bilan bormoqchimisan?! – deb qichqirdi u iltijo qilganday kaftlarini birlashtirib, go'yo bu baxtga jur'at etolmagandek eriga shubha ko'zi bilan qararkan.

– Natasham, qani mening Natasham! Qani u! Qani mening qizginam! – nola otilib chiqdi nihoyat chol ko'ksidan. – Qaytarib beringlar mening Natashaginamni! Qani, qani u, – va men qo'liga tutqazgan hassani siqimlaganicha eshikka qarab yugurdi.

– Kechirdi, gunohidan o'tdi! – deb baqirdi Anna Andreevna.

Ammo chol ostonaga borib yetmasdan eshik birdan ochildi, uyga rangi oqargan, isitmasi tutganday ko'zlari chaqnagan Natasha kirib keldi. Uning ko'ylagi g'ijim-g'ijim, yomg'irda ivib ketgan edi. O'rab olgan ro'moli boshidan gardaniga tushib ketgan, qalin parishon soch tolalarida yirik-yirik yomg'ir tomchilari yiltillar edi. U uyga otilib kirdi, otasini ko'rgach, faryod qilib, uning oldida tiz cho'kib, qo'llarini cho'zdi.

Ammo qizi allaqachon uning bag'rida edi!..

U qizini go'dakdek qo'liga ko'tarib o'z kreslosiga olib keldi-yu, o'tqazib, o'zi uning oldida tiz cho'kdi. U qizining qo'llarini, oyoqlarini o'par; uning diydoriga to'yolmay, shoshib-pishib o'par, go'yo qizi, uning Natashasi u bilan birga ekaniga, u yana o'z jonajon qizini ko'rayotganiga, so'zlarini eshitayotganiga ishonmayotgandek edi!

Anna Andreevna ho'ngrab yig'laganicha qizini mahkam quchoqlab, boshini o'z siynasiga bosib, bir so'z aytishga ham majoli kelmay turar edi.

– Chirog'im!.. Ko'zimning nuri!.. Ovunchog'im!.. – poyma-poy derdi chol, Natashaning qo'lini ushlab va uning za'farondek sarg'aygan, ozg'in, ammo-lekin ajoyib go'zal yuziga, yoshlari yaltirab turgan ko'zlariga suqlanib qarab. – Ovunchog'im mening, bolaginam! – takrorlardi u, zavq-shavq bilan unga tikilib yana jim bo'lib qolardi. – Mana u ozib-to'zib ketgan devdilar-a! – shoshib-pishib, go'yo bolalarnikidek ma'sum tabassum bilan bizga qarab derdi u, hamon qizining oldida tiz cho'kib turarkan. – Ozib qolibdi, rost, rangi ketibdi, ammo qargin-a, naqadar ko'hlik! Ilgarigisidan ham yaxshi, rost, juda ko'hlik! – qo'shib qo'ydi u, qalbni tars yorib yuboray deyayotgan shodlikning og'rig'idan beixtiyor jim bo'lib qolib.

– Turing, dadajon! Turing, axir, – dedi Natasha, – axir, men ham sizni o‘pkim kelyapti-ku...

– Jon bolam! Eshityapsanmi, eshitdingmi Annushka, tiling shirinligini qara, – yana qattiq quchoqlab oldi uni.

– Yo‘q, Natasha, sening kechirganingni qalbim sezmaguncha oyoqlaring ostida yotishim kerak, negaki men endi hech qachon, hech sening afv etishingga sazovor bo‘lolmayman! Men sendan voz kechdim, seni qarg‘adim, eshityapsanmi, Natasha, men seni qarg‘adim-a, shu ishni qila oldim-a... Sen-chi, sen, Natashaginam, «oq» qila olishimga ishondingmi? Ha, ishonding, ishonding-a! Ishonmaslik kerak edi. Ishonmay qo‘ya qolsang bo‘lar edi! Yurakchang toshdan ekan sening! Nega o‘zing kelavermading? Axir, sen bilarding seni qanaqa kutib olishimmi!.. O, Natashaginam, axir, bilarding-ku, ilgari seni naqadar sevishimni. Endi anovi hijron kunlarida men seni avvalgidan afzalroq, ming marta ortiq sevdim seni. Men seni bor vujudim bilan sevdim! Qalbimni sug‘urib, tilka-pora qilib sening oyoqlaring ostiga qo‘yardim!.. O, quvonchim mening!

– O‘psangiz-chi meni, rahmsiz odam, o‘psangiz-chi meni onam kabi, lablarimdan, yuzimdan! – derdi Natasha sevinch yoshlari bo‘g‘ib kelayotgan ojiz tovush bilan.

– Ko‘zingdan ham! Esingda bormi, qadimgidek ko‘zginangdan ham o‘pay, – takrorladi chol qizi bilan uzoq va shirin quchoqlashgandan so‘ng. – O, Natasham! Hech tushlaringga kirdikmi biz? Sen esa Xudoning bergan kuni mening tushimga kirarding, har kecha oldimga kelarding, men sening tepangda yig‘lardim, bir marta kichkinagina qiz bo‘lib kelding, esingda bormi, sen o‘n yoshlarda, endigina fortepyanno o‘rganayotgan eding, xuddi o‘sha vaqtdagidek ustingda kaltagina ko‘ylak, oyoqlaringda jansjigina tufli, qo‘lchalaring qip-qizil emish... Esingda bormi, Annushka, o‘shanda uning qo‘llari qizilgina edi, a? Kelib mening tizzamga o‘tirding, bo‘ynimdan quchoqlading... Sen... sen berahm qiz! Meni «oq» qildi, borsam qabul qilmaydi, deb o‘ylading, a!.. Axir, men... Quloq sol, Natasha; axir, men senikiga necha martalardan bordim... onang bilmasdi, hech kim bilmasdi; hali derazang tagiga borib turaman, hali darvozang

tagida yo'lakchada turib tiq etgan tovushga quloq solaman! Bir chiqsang-u, uzoqdan bo'lsa ham sening diydoringni ko'rsam! Oqshomlari ko'pincha derazangda sham yonib turardi; necha martalardan Natasha, oqshomlari oldingga borardim, aqalli sening shamingni, hech bo'lmasa, derazangdan soyangni ko'rish, kechalari haqingga duo o'qish uchun borardim... Men uchun kechalari duo o'qirmiding? Meni esingga olarmiding? Oynalaring tagida turganimni yuraging sezardimi? Necha martabalardan qorong'i qish tunlari sening zinangdan chiqib, ovozingni eshitarmikanman deb zim-ziyo yo'lakda eshik tirqishlaridan quloq solardim. Kulganingni eshitarmikanman derdim. «Oq» qilibmanmi? Axir, men xuddi shu oqshom oldingga bordim, seni kechirmoqchi edim, faqat eshiging tagiga kelganda yana qaytdim... O, Natashaginam!..

U o'rnidan turdi, qizini kreslodan turg'izib, qattiq-qattiq siynasiga bosdi.

– U yana bu yerda, mening qalbidam! – dedi u faryod otib. – O, tangrim, hammasi, hammasi uchun, qahrining uchun ham, mehribonliging uchun ham shukurlar qilaman!.. Momaqal-diroqdan so'ng bizga nurini sochgan quyoshing uchun ming-ming shukur! Mana shu daqiqalarga yetkazganing uchun shukur. O! Mayli, biz xo'rlangan, biz haqoratlanganmiz, ammo biz yana birgamiz, mayli, mayli, endi o'sha bizni xo'rlagan, haqoratlagan kalondimog', manmanlar tantana qilsin! Mayli, bizga ta'na toshlari otsin! Qo'rqma, Natasha... Biz qo'lni qo'lga berib boramiz, men ularning ko'ziga qarab turib: bu mening jondan aziz, sevgili qizim, mening!.. Bu siz haqoratlab, yerga urgan, ammo men jondan ortiq sevgan, begunoh qizginam deyman, umrim boricha uni duo qilaman!..

– Vanya, Vanya!.. – dedi Natasha majolsiz ovoz bilan otasining ko'ksidan turib menga qo'llarini cho'zarkan.

O, shu daqiqada esga olib, meni xotiramdan chiqarmayman!

– Nelli qayerda qoldi? – so'radi chol olazarak bo'lib.

– Voy, qani u? – deb qichqirdi kampir, – jonginam, qanisan?.. Unutib qoldirdimiz uni!

Ammo Nelli uyda yo‘q edi; u astagina yotoqxonaga kirib ketibdi. Hammamiz u yoqqa kirdik. Nelli eshik orqasidagi bur-chakda, olazarak bo‘lib, bekinib turgan edi.

– Nelli, senga nima bo‘ldi, oppog‘im! – dedi chol, uni quchoqlamoqchi bo‘lib. Ammo Nelli unga g‘alati qilib uzoq tikilib qoldi...

– Onam, onajonim qani mening? – dedi u behush odam-dek, – qani, qani mening onajonim? – qichqirdi u yana bir marta, titroq qo‘llarini biz tomon cho‘zib va birdan uning ko‘ksidan dahshatli, qo‘rqinchli bir faryod otilib chiqdi, yuzining tomirlari tortishdi, dahshatli tutqanoq tutib qolib yerga yiqildi...

XOTIMA

OXIRGI XOTIRALAR

Iyunning o'rtalari. Kun issiq va dim; shaharda qolishning iloji yo'q, chang, ohak, qurilish, qizib ketgan toshlar, bug'lardan zaharlangan havo... Ammo, mana, suyunchi! Qayerdadir moma-qaldiraq gurulladi, asta-sekin havo tumtayib oldi; shamol esib shahar to'zonlarini oldiga solib quva ketdi. Yerga yirik-yirik yomg'ir tomchilari tusha boshladi, orqasidan xuddi osmon yori-lib ketgandek, shahar ustiga sharros yomg'ir quyib yubordi. Yarim soatlardan keyin, yana quyosh charaqlab chiqqach men hujramning derazasini ochdim va horg'in ko'kragim bilan toza havodan suqlanib-suqlanib nafas oldim. Ko'nglim yayrab, vaqtim chog' bo'lib ketganidan peroni ham, hamma ishlarimni ham tashlab, o'sha noshirimning ishini ham yig'ishtirib qo'yib, bizlarnikiga – Vasilevskiyga chopmoqchi bo'ldim. Ammo havas qancha zo'r bo'lmasin, men uni yengib oldim va allaqanday yangi bir shiddat bilan yana qog'ozga yopishdim; nima bo'lmasin tamom qilmoq kerak! Noshirim shunday buyurgan, aks holda, pul bermaydi. Meni u yerda kutyaptilar, ammo men oqshom bo'sh bo'laman, shamoldek erkin bo'laman va bugungi oqshom meni shu oxirgi ikki kecha-yu ikki kunduzda qilgan mehnatim, uch yarim bosma list yozganim uchun mukofotlaydi.

Mana, nihoyat ishni ham tugatdim, peroni tashladim, o'rnimdan turdim, belim, ko'kragim sirqiraydi, miyam g'uvul-laydi. Bilaman, shu daqiqada mening asablarim nihoyat darajada buzilgan va go'yo keksa doktorimizning: «Yo'q, bu kabi zo'r berib ishlamoqqa hech qanaqa sog'liq bardosh berolmaydi, bu-ning iloji ham yo'q!...» degan oxirgi so'zlari qulog'im tagida yangragandek bo'ldi. Ammo hozircha iloji bor-ku! Boshim ayla-nadi, oyoq ustida arang turibman, ammo shodlik, benihoya shodlik qalbmni to'ldirgan. Qissamni tamom yozib tugatdim, garchi men undan ancha qarz bo'lib qolgan bo'lsam ham, no-shirim, «o'ljani» o'z qo'lida ko'rgandan keyin uncha-muncha bo'lsa ham, pul beradi, hech bo'lmasa, ellik so'm beradi-ku, qo'limga qachonlardan beri shuncha pul tushgani yo'q. Ozodlik va pul!.. Shavq-zavqqa to'lib, men shlyapamni qo'limga oldim, qo'lyozmani qo'litiqqa urib, hurmatli Aleksandr Petrovichni uyidan topish uchun oyog'imni qo'lga olib chopdim.

Men uni uydan chiqib kelayotgan vaqtda uchratdim. U ham o'z navbatida, g'ayriadabiy, ammo-lekin o'zi uchun juda foydali bir savdo ishini tugatib va qorachadan kelgan qandaydir bir yahudiyni kuzatib chiqqan ekan, u bilan ikki soat siring'asiga o'z kabinetida suhbatlashibdi. U menga muloyimlik bilan qo'lini cho'zadi na o'zining mayin, yo'g'on ovozi bilan sog'ligimni so'raydi. Bu ajoyib ko'ngilchan odam, men undan behad minnat-dorman: axir, umr bo'yi adabiyot olamida faqat noshir bo'lib kelayotgan bo'lsa, u ayblimi? U adabiy asarlarga nashriyotchi kerakligini payqab qoldi, payqaganda ham ayni vaqtda payqadi, buning uchun, noshirligi uchun unga shon-sharaflar bo'lsin!

U qissa yozib bitirilganligini va shu bilan kitobning nav-batdagi nomerini nashr etish ishi ta'min etilganini bilib yoqimli iljayadi va, umuman, mening qunt bilan biror narsani oxiriga yetkaza olganimdan taajjublanadi, shiringina askiya ham qilib qo'yadi. Shundan keyin u menga va'da qilingan ellik so'mni berish uchun o'zining po'lat sandig'i oldiga boradi, shu bilan birga menga boshqa bir, bizga dushman bo'lgan qalin jurnalni uzatadi va tanqid bo'limida mening oxirgi qissam haqida yozil-gan bir necha satrlarni ko'rsatadi.

Bu «perepischik»ning¹ maqolasi ekan. Meni so'kishyaptimi, maqtashyaptimi, bilib bo'lmasdi, shunga ham vaqtim chog'. Ammo «perepischik» mening asarlarimdan umuman: «Ter hidi kelib turadi», – deb yozibdi, ya'ni men asarim ustida shu qadar ter to'karmishman, shu qadar ishlarmishman, ularni shu qadar pardozi va bezar emishmanki, natijada ko'ngilga uradigan darajada chuchmal bo'lib ketarmish.

Biz noshir ikkimiz qah-qah urib kulamiz. Men unga avvalgi qissam ikki kechada yozilgan bo'lsa, bu gal ikki kecha-ikki kunduzda uch yarim bosma list yozganimni aytdim, serhafsalaligim, ortiqcha sustkashligimni yuzimga solayotgan «perepischik» shularni bilsaydi!

– Nima demang, ayb o'zingizda, Ivan Petrovich. Axir, o'zingiz ham ishni shuncha kechiktirib yuborasizki, keyin mana shunaqa kechalari ishlashga to'g'ri keladi.

Aleksandr Petrovich, garchi, uning o'ziga xos kamchiligi, chunonchi, uni juda yaxshi biladigan odamlar oldida o'zining adabiyotshunosligi bilan maqtanish kabi odati borligiga qaramasdan, ajoyib ko'ngilchan odam. Ammo men hozir u bilan adabiyot haqida tortishib o'tirishni xohlamay, pulni olib, shlyapamga yopishaman. Aleksandr Petrovich, o'zining bog'i – Ostrovga ketayotgan ekan, u Vasilevskiyga ketayotganimni eshitib, muloyimlik bilan o'z karetasida olib borib qo'yishni taklif etadi.

– Yangi kareta oldim, xabaringiz bormi? Durustgina.

Biz pastga tushamiz. Karetasi rostdan ham tuppa-tuzuk ekan, dastlabki kunlari haddan tashqari kayfi chog' bo'lgan Aleksandr Petrovich hatto unga o'zining tanishlarini solib, boradigan joyiga eltib qo'yishga chin dilidan ehtiyoj sezadi.

Karetaga o'tirgandan keyin ham Aleksandr Petrovich bir necha bor hozirgi zamon adabiyoti haqida mulohaza yurgizadi. U mendan tortinmaydi ham, oldimda birovlarining fikrini, o'zi hurmat qiladigan va ishonadigan adabiyotchilardan yaqin kunlarda eshitgan fikrlarni bahuzur takrorlayveradi. Bunday vaqtlarda u ba'zan g'alati narsalarni ham hurmat bilan tilga oladi. Ba'zan

¹ Perepischik – 1) kotib, ko'chirib yozuvchi; 2) nusxa ko'chiruvchi.

shunday ham bo'ladiki, u boshqalarning fikrini buzib gapiradi yoki uni noo'rin ishlatib qo'yadi, natijada, gapirgan gapi beburd bo'ladi. Men o'tirib, indamasdan quloq solaman va odam havasining xilma-xilligi va sertalabligidan ajablanaman. «Mana, bir odam, – deb o'ylayman, o'zimcha, – kerak bo'lsa pul to'plab, boyiyvermaydimi; yo'q, unga shuhrat, adabiy shuhrat kerak, yaxshi nashriyotchi, tanqidchilik shuhrati kerak!»

Hozirgi daqiqada u menga, uch ko'p ilgari mendan eshitgan va o'zi qarshi chiqib men bilan munozara qilgan fikrni endi o'ziniki qilib ko'rsatyapti. Biroq, bu kabi parishonxotirlik unda har bir daqiqa sodir bo'ladi. U o'zining bu beg'araz kamchiligi bilan hamma tanishlari orasida mashhurdir. Hozir u o'zining karetasida o'tirib va'zxonlik qilayotganidan naqadar shod, taqdiridan naqadar mamnun, naqadar vaqti chog'! U ilmiy-adabiy bahs olib boryapti, hattoki uning mayin, yo'g'on ovozi ham olimlarnikiga o'xshaydi. Bora-bora u liberallikka o'tib ketadi. Bizning adabiyotda va umuman hech qanaqa adabiyotda hech qachon hech kimda halollik va kamtarlik bo'lishi mumkin emas, faqat bitta narsa bor, u ham bo'lsa «bir-birining go'shtini ye-yish», ayniqsa, obuna oldidan, degan sodda skeptik¹ fikrga keladi. Men, o'zimcha, Aleksandr Petrovichda har qanaqa halol va samimiy adabiyotchini, u halol va samimiy bo'lgani uchun ahmoq deb hisoblamaganda ham, hech bo'lmasa, befahm deb hisoblash mayli bor, deb o'ylayman. Ehtimol, bunaqangi e'tiqod Aleksandr Petrovichning haddan tashqari soddaligidan kelib chiqsa kerak.

Ammo endi, uning gapi qulog'imga ham kirmaydi. Vasilevskiyda u meni karetasidan tushirib qoldiradi. Men o'zimizlarnikiga g'izillayman. Mana O'n uchinchi liniya, mana ularning uylari. Anna Andreevna meni ko'rib, barmog'i bilan po'pisa qiladi, qo'llarini silkitib, tovush chiqarmang deb shipshiydi.

– Nellining endigina ko'zi uyquga ketdi, bechoraginam! – shivirlaydi u menga shoshib-shoshib, – Xudo haqqi, uyg'otib

¹ Skeptitsizm (yunoncha: skeptikos – ko'rib chiquvchi, tadqiq qiluvchi) – haqiqatning biron ishonchli mezonini mavjudligiga shubha bilan qaraydigan falsafiy nuqtai nazar. Uning vakillari ob'ektiv voqelikni idrok qilish mumkinligiga shubha qiladilar. Skeptitsizm antik jamiyat inqirozga yuz tutgan davrda yuzaga kelgan.

yubormang! Bechora bolagina juda ham bedarmon. Biz undan xavotir olyapmiz. Doktor hozircha hech gap emas deyapti. Ha, o'sha doktoringiz tuzukroq bir gap aytarmidi? Uyalmayszmi-a, Ivan Petrovich? Kutaverib ko'zimiz teshildi. Axir, ikki kun kelmadingiz-a!..

– Axir, men sizlarga uch kun ilgari aytgan edim-ku, ikki kun kelmayman deb, – shivirladim Anna Andreevnaning qulog'iga. – Ishimni tugatishim kerak edi...

– Axir, bugun tushlikka yetib kelaman deb va'da bergan edingiz-ku! Nega kelmadingiz? Nelli ataylab o'rnidan turdi, chiroqqinam bechorani avaylab kresloga o'tqazdik, tushlik ovqatga olib chiqdik: «Sizlar bilan birga Vanyani kutaman», – deydi, Vanyadan esa nom-nishon yo'q. Hademay soat olti bo'ladi-ya! Qayoqda yurgandingiz? Ey, betavfiqlar-ey! Axir, uni shunchalik ranjitdingizki, ovutaman deb esim ketdi... Shukur, oppog'imning ko'zi ilindi, shekilli. Buning ustiga Nikolay Sergeich shaharga ketgan edi (choyga yetib keldi); bir o'zim o'z... Ish topiladi unga, Ivan Petrovich, faqat Permdaligi esimga tushib ketsa, yuragim orqamga tortib ketadi.

– Natasha qani?

– Bog'da, erkaginam bog'da! Boring oldiga... G'alati-roq... Hech aqlim yetmay qoldi... Eh, Ivan Petrovich, yuragim siqilib ketadi! O'zini xushchaqchaq va xursand qilib ko'rsatadi, ammo, ishongim kelmaydi... Bora qol oldiga, Vanya, keyin menga sekingina uning ko'nglidagi gapni aytib berasan... Eshitdingmi?

Ammo endi Anna Andreevnaning gapi qulog'imga kirmaydi ham, men bog'chaga qarab chopaman. Bu bog' shu hovliga qarashli, uzunasiga ham, eniga ham yigirma besh qadam keladi, ichi ko'm-ko'k daraxtzor. Bu yerda uch-to'rt baland, qari, sershox daraxt, bir necha tup yosh qayin, bir necha tup nastarin, dukcho'p daraxtlari bor, bir burchak malinazor, ikki ariq qulupnay ham bor, bog'chaning uzunasiga ham, eniga ham torgina ilon izi yo'l ketgan. Chol bog'chadan juda xursand va bu yerda yaqin oralarda qo'ziqorin o'sadi deydi. Hammadan muhimi, bu bog'chani Nelli yaxshi ko'rib qolgan va uni kresloda bog'chaga olib

chiqadilar, Nelli endi bu uyning bir sanami bo'lib qoldi. Ana Natasha ham ko'rindi, u meni mamnunlik bilan qarshi oladi va qo'l berib ko'rishadi. Shunchalik ozib-to'zib, ranglari ketganki! U ham kasaldan zo'rg'a tuzaldi.

– Batamom bitirdingmi, Vanya? – so'raydi u mendan.

– Batamom, butunlay! Butun oqshom bo'shman.

– Xudoga shukur-a! Shoshildingmi? Buzib qo'ygan-dirsan-a?

– Nima qilay bo'lmasa! Ha, hechqisi yo'q. Mana bu zo'r berib ishlashdan asablarimda alohida bir ta'sirchanlik yuzaga kelyaptiki, men ravshanroq fikr yuritaman, jonliroq va chuqurroq his etaman va hattoki so'zlar ham menga batamom bo'yin-sunadilar. Shunday qilib zo'r berib ishlagan ish yaxshiroq chiqadi. Hammasi yaxshi...

– Eh, Vanya, Vanya!

Men keyingi vaqtlarda shunday bir narsa sezdimki, Natasha mening adabiyot sohasidagi yutuqlarim, mening shuhratimga juda ham jonkuyar bo'lib qolgan. U oxirgi yillarda nima yozgan bo'lsam bittasini ham qo'ymay o'qib chiqadi. Mening kelajakdagi rejalarim haqida dam o'tmay so'roqlaydi, menga yozilgan har bir tanqid bilan qiziqadi, ba'zilaridan jahli chiqadi va nima qilib bo'lsa ham adabiyot sohasida o'zimni yuqori darajada tutishimni xohlaydi. U istak-orzularini shu qadar kuch va mato-nat bilan ifodalaydiki, men turib-turib uning hozirgi tutgan yo'liga ajablanaman.

– Yozaverasan, yozaverasan, Vanya, – dedi u menga, – o'zingni zo'r lab bo'lsa hamki, yozaverasan, axir, yozuvchilikdan chiqib qolasan, undan tashqari salomatligingni yo'qotasan. Ana S*** u ikki yilda bittadan qissa yozadi. X* bo'lsa o'n yilda hammasi bo'lib bitta roman yozdi. Ammo shuni aytish kerakki, ularniki hafsala bilan yozilgan, pardoqlangan! Bitta ham pala-partish gapni topolmaysan.

– Ha, ularning moddiy ahvoli yaxshi. Muddatga qarab o'tirmay yozaveradilar, men esa bamisoli aravaga qo'shilgan qirchang'i! Ha, bular hammasi behuda gaplar! Kel, qo'y, do'stim. Xo'sh, hech qanaqa yangilik yo'qmi?

– Yangilik ko‘p. Birinchidan, undan maktub bor.

– Yanami?

– Ha, yana. – U menga Alyoshaning maktubini berdi. Ajralganimizdan beri bu uchinchi maktub. Birinchisini hali Moskvada ekanligida yozgan edi, maktub isitmalab turganda yozilgandek edi. U: shunday bir hol ro‘y berdiki, va‘dalashgandek Moskvadan Peterburgga borishning asti iloji bo‘lmadi, – deb yozgandi. Ikkinchi maktubida u, shoshib-pishib, Natasha bilan tezroq nikoh o‘qittirib olish uchun yaqin kunlarda bu yerga kelishini, bu endi qat‘iy hal etilgani, hech qanaqa kuch buni to‘xtata olmasligini bayon etgandi. Ammo-lekin maktubning turqidan uning umidsizlikka tushgani, tashqi ta’sirlar uning qanotini qayirib qo‘ygani, endi u o‘zi o‘ziga ishonmay qolganligi ochiq va ravshan ko‘rinib turardi. Gap orasida u Katya mening taqdiri ilohim, yolg‘iz ugina menga tasalli beradi va ko‘nglimni ko‘taradi deb qistirib o‘tibdi. Men zo‘r ishtiyoq bilan uning so‘nggi uchinchi maktubini ochdim.

Ikki qog‘ozga to‘ldirilgan bu maktub o‘qib bo‘lmaydigan darajada tartibsiz, pala-partish, shoshilinch bilan yozilgan, siyoh va ko‘z yoshlari tomgani ko‘rinib turardi. Xat boshidayoq Alyosha endi Natashadan voz kechganini bildirib, uni endi yodidan chiqarishni iltimos qilibdi. U qovushish mumkin emasligini, o‘zgalar, g‘animlarning ta’siri hamma narsadan ham kuchli ekanligi, va nihoyat, shunday bo‘lishi ham kerakligini, ular Natasha ikkisi turmush qurishsa, bebaxt bo‘lishlari, negaki teng emasliklarini isbot etishga urinibdi. Ammo u chidolmay, birdan o‘z mulohaza va dalillarini uloqtirib gashlab, shu yerning o‘zidayoq, maktubning birinchi yarmini yirtib olib tashlamasdan, o‘zi Natasha oldida gunohkor ekaniga, o‘zining xarob bo‘lganligiga va qishloqqa yetib kelgan otasining ixtiyoriga qarshi chiqishga kuchi yetmasligiga iqrar bo‘libdi. O‘zining tortayotgan azoblari ni ifodalashga ojiz ekanini yozibdi; yana shu orada o‘zi Natashani baxtli qilishga qodir ekanligiga iqrar bo‘lib, birdan ikkalalarining bir-birlariga juda ham mos ekanliklarini isbotlay boshlabdi va otasining dalillarini g‘azab bilan rad etib, basharti ular uylanishgan taqdirda ular – u va Natasha ko‘radigan hayotning

barcha huzur-halovatlarini noumidlik bilan yozib kelib, o'zining irodasizligiga la'nat o'qibdi va abadiy vidolashibdi! Maktub qiynalib yozilgan; o'zini yo'qotib qo'ygan mahalda yozilgani ko'rinardi, ko'nglim buzilib ko'zimga jiqqa yosh keldi... Natasha menga boshqa bir maktubni, Katyadan kelgan maktubni berdi. Bu Alyoshaning maktubi bilan birga bitta konvertda, lekin konvert ichidagi og'zi berk konvertda edi. Katya qisqagina, bir necha satrlarda, rostdan ham Alyosha qattiq xafaligi, ko'p yig'layotgani, umidsizlikka tushgani va hatto biroz betobroq ekanligini bildiribdi, ammo u Alyosha bilan birga bo'lgandan keyin Alyosha baxtli bo'ladi, deb yozibdi. Shu bilan birga, Katya o'z maktubida Natashaga: «Alyosha shunchalik tez yupanib qola qolibdida, xafaligi ham yuzaki ekan-da», – deb o'ylamasligini tushuntirmoqchi bo'lar edi. U sizni hech qachon yodidan chiqarmaydi, – deb qo'shib qo'yibdi u, – ha, hech qachon yodidan chiqarolmaydi ham, chunki uning qalbi shunaqa. U sizni benihoya sevadi, hamisha sevadi, agar biror vaqt kelib u sevmay qolsa, biror vaqt kelib sizni sog'inmay qolsa, shu daqiqadan boshlab undan ko'nglim qoladi...»

Men Natashaga ikkala maktubni ham qaytarib berdim; biz bir-birimizga karab qo'ydik, lekin bir og'iz so'z ham aytmadik. Avvalgi ikki maktubni o'qiganda ham shunday qilgan edik, umuman aytganda, endi biz go'yo kelishib qo'ygandek, o'tmishdan gapirishmaslikka urinardik. U haddan tashqari qattiq iztirob chekardi, men buni ko'rib turardim, ammo hatto menim oldimda ham sir boy bermaslikka tirishardi. Ota uyiga qaytib kelganidan so'ng u uch hafta alangayi otashda kuyib, ko'rpa-yostiq qilib yotdi, endi arang, arang tuzalib kelmoqda edi. Biz hatto yaqinida yuz berishi kerak bo'lgan o'zgarishlardan ham kam gapirishardik, vaholanki, u cholning xizmatga kirib, boshqa yerga ko'chishini va tez kunda bizga ajralishga to'g'ri kelishini bilar edi. Shunga qaramay, u menga shunchalik mehribon, shunchalik shirin so'z bo'lib qoldiki, shu vaqt ichida menga tegishli bo'lgan narsalarga shu qadar qiziqardi, o'zim haqimda nimaiki gapirib bermayin, shu qadar qunt va diqqat bilan tinglardiki, hatto boshda men o'ng'aysizlik seza boshladim, nazarimda, oramizda

o'tgan hamma gaplar badaliga ko'nglimni ovlamoqchiday bo'lardi. Lekin bu o'ng'aysizlik tezdan yo'qoldi: men uning istagi butunlay boshqa ekanini tushundim, u meni sevardi, xolos, cheksiz sevardi, mensiz va menga taalluqli bo'lgan hamma narsa to'g'risida g'amxo'rlik qilmay turolmasdi. Men, o'zimcha, hech qachon hech qanday singil o'z akasini Natasha meni sevgandek qattiq sevgan emas deb o'ylayman. Men bilardim: yaqinlashib kelayotgan hijron uning yuragini ezar va Natasha azob chvkari edi; usiz turolmasligimni ham bilardi, ammo ikkimiz ham ro'y beradigan voqealar to'g'risida batafsil gapirishsak ham, bu haqda og'iz ochmas edik...

Men Nikolay Sergeichni so'radim.

– Hademay qaytib kelar deb o'ylayman, – javob berdi Natasha. – Nonushtaga yetib kelmoqchi edi.

– Hali ham ish topish uchun harakat qilib yuribdimi?

– Ha, endi ish masalasi, shubhasiz, hal bo'ladi, bugun chiqib ketishga ehtiyoj ham yo'q edi, shekilli, – qo'shib qo'ydi u xayol surib, – ertaga borsa ham bo'lardi.

– Bo'lmasa nega ketdi?

– Chunki men xat oldim... Uning dardi men, – qo'shib qo'ydi u biroz jim turgandan so'ng, – shunchaliki, Vanya. bu menga og'ir tuyulib ketadi. U hatto tushida ham bitta meni ko'rsa kerak. Uning mendan boshqa g'ami yo'q.

Holim nima kechyapti, nima qilyapman, hozir nima to'g'risida o'ylayapman, fikr-yodi shular bilan band, boshqa narsa to'g'risida o'ylamaydi. Mening har bir qayg'u-hasratimga sherik. Axir, men ko'rib-bilib turaman-ku, ba'zan u mening to'g'rimda qayg'urayotganini bekitishga, o'zini xursandlikka solib, kulib va bizni kuldirishga shu qadar no'noqlik bilan urinadi, asti qo'yaverasan. Bunday daqiqalarda onam ham o'ng'aysiz holga tushadi, uning kulgisiga ham ishonmay xo'rsinadi... U judayam epsiz, soddadil! – qo'shib qo'ydi u kulib. – Mana shunday qilib, men bugun maktub olishim bilan u uydan qochib chiqib ketdi... Ko'zimga qarashdan ham tortinadi... Men uni, Vanya, dunyoda hammadan ham, jonimdan ham ortiq yaxshi

ko‘raman, – qo‘shib qo‘ydi u boshini egib va mening qo‘limni qisib, – hatto sendan ham...

U yana gap boshlaguncha bog‘ni ikki marta aylanib chiqdik.

– Bugun biznikiga Masloboev keldi, kecha ham kegan edi, – dedi u.

– Ha, keyingi vaqtlarda u sizlarnikiga juda serqatnov bo‘lib qoldi.

– Bilasanmi, u nima uchun pashshaxo‘rda bo‘lib qoldi? Onamning unga ixlosi zo‘r. U shunchalik ko‘p narsalarni (haligi qonun-ponunlarni-da) biladiki, har qanaqa ishni ham boplashi mumkin deb o‘ylaydi. Sen nima deb o‘ylaysan, hozir onamning miyasi nima bilan band ekan? O‘z ko‘nglida u meni knyaginiya bo‘lmaganimga juda kuyadi va achinadi. Mana shu fikr uni tinch qo‘ymaydi va shu to‘g‘rida u Masloboevga yuragini ochganga o‘xshaydi. Otam bilan bu haqda gaplashishga qo‘rqadi va Masloboev biror yo‘l bilan ko‘mak bermasmikin, birorta qonuniy yo‘l topmasmikin deb o‘ylaydi. Masloboev unga zid gapirmaydi, shekilli, shuning uchun onam uni sharob bilan siylaydi, – qo‘shib qo‘ydi Natasha kulimsirab.

– U shumning qo‘lidan har balo keladi. Sen qayoqdan bilasan bularni?

– Bexosdan oyimning og‘zidan chiqib ketdi... Shama qilib qo‘ydi...

– Nelli qalay? Ahvoli yaxshimya? – so‘radim men.

– Hayronman senga, Vanya, shu vaqtgacha u to‘g‘rida bir og‘iz ham so‘ramading! – dedi Natasha o‘pkalab.

Nelli bu uydagilar uchun bir sanam edi. Natasha uni o‘lgudek sevardi, nihoyat, Nelli ham uni butun vujudi bilan sevib qoldi. Bechora bola! U biror vaqt kelib shunday odamlarni topishini, unga shuncha mehr-muhabbat qo‘yishlarini bilmagan edi. Men qahr-u g‘azabga to‘lgan qalbi yumshab, hammamiz uchun ochilganidan juda xursand edim. Avvalgidek: ishonchsizlik, qahr-u g‘azab, o‘jarlikni qo‘zg‘atadigan barcha tuyg‘ular zid bo‘lgan umumiy muhabbatga otashin muhabbat bilan javob qaytara boshladi. Biroq Nelli shunda ham uzoq sarkashlik qildi,

ko'nglida yig'ilib yotgan yarash yoshlarini bizdan uzoq yashirib keldi va nihoyat butun borlig'i bilan bizga berildi. U Natashani qattiq yaxshi ko'rib qoldi, keyin cholni ham. Men esa unga shu qadar kerakli bo'lib qoldimki, agar uzoqroq kelmay qolsam, kasali zo'rayadigan bo'ldi. Oxirgi marta ketishimda ham, o'lda-jo'lda qolib ketgan ishlarimni tugatish uchun ikki kungagina uyga borib ishlash uchun uni, u yoq-bu yoqdan gapirib zo'rg'a ko'ndirdim. Nelli hali ham o'z xislatlarini ochiq-oydin, oshkor ifoda etishdan uyalar edi.

U hammamizni xavotirga solib qo'ygan edi. So'zsiz, bir og'iz gapsiz, uning endi umrbod Nikolay Sergeichnikida qoldirishga qaror qilindi, holbuki ko'chib ketadigan kunlar ham yaqinlashmoqda, uning ahvoli esa kundan kun og'irlashib bormoqda edi. Nelli o'sha, biz u bilan birga qariyalarimiznikiga kelgan kun, qariyalarning Natasha bilan yarashgan kunidan beri xasta edi. Ha, nimalar deyapman? U hamisha kasal edi. Kasali avval ham asta-sekin kuchayar edi, ammo endi juda tezlik bilan zo'rayaverdi. Men uning kasali nima ekanini ham aniq bilmayman va buni aniqlay ham olmayman. Rost, tutqanog'i ilgariga qaraganda tez-tez tutib turadi, ammo eng muhimi qandaydir holsizlik, darmonsizlik, to'xtovsiz harorat va bezovtalik uni keyingi kunlarda shu ahvolga olib keldiki, endi yotgan yeridan turmaydigan bo'lib qoldi. Ajabki, kasali og'irlashgan sari, Nelli, biz bilan muloyim, xushmuomala va sir yashirmaydigan bo'ldi. Bundan uch kun muqaddam men uning karavotchasi yonidan o'tib ketayotgan edim, qo'limdan tutdi-yu, yoniga tortdi. Xonada hech kim yo'q edi. Yuzi isitmada yonar, ko'zlarida o't chaqnardi (u nihoyatda ozib ketgandi). U titrab-qaqshab menga cho'zildi, men engashgan edim, o'zining qorachagina, ozg'in qo'lchalari bilan bo'y-nimdan quchoqladi va qattiq-qattiq o'pdi, keyin darhol o'z huzuriga Natashani chaqirtirdi. Men uni chaqirib berdim, albatta, Natasha uning karavotiga kelib unga qarab o'tirishini istardi Nelli...

– O'zim, sizga hadeb qarayvergim keladi, – dedi u, – kecha men sizni tushimda ko'rdim, bugun kechasi ham ko'raman... Siz juda ko'p tushimga kirasiz... Har kecha...

Chamasi, u ko'ngil yorib biror nima degisi kelar edi, his-

tuyg'ular uning qalbini liq to'ldirgan, ammo uning o'zi ham o'z hislariga tushunmas va qanday qilib uni izhor etishni bilmasdi...

U mendan boshqa Nikolay Sergeichni hammadan ham ortiq sevardi. Shuni ham qayd qilib o'tish kerakki, Nikolay Sergeich ham uni Natashani sevganidan kam sevmasdi. U Nellini xursand qilib, kuldirish qobiliyatiga ega edi. U Nelli oldiga keldi deguncha kulgi va hattoki sho'xliklar boshlanar edi. Betob qizi xuddi bolalardek quvonib chol bilan o'ynashar, undan kular, tushlarini gapirib berar va, albatta, ko'pini ichidan to'qir edi, cholni ham gapirishga majbur etardi. Bulardan cholning boshi osmonga yetar, o'z «Kichkintoy qizi Nelli»ga qarab, kundan kun zavq-shavqi oshar edi.

– Buni hammamizga, bizning qayg'u-hasratlarimiz evaziga tangrimning o'zi yubordi, – dedi kunlardan bir kun kechasi Nelli oldidan chiqib keta turib va odati bo'yicha yotish oldidan uni cho'qintirib.

Har kuni kechqurun hammamiz yig'ilishganimizda (Masloboev ham deyarli har kuni kechqurun kelardi) joni-dili bilan Ixmenevlarga o'rganib qolgan keksa doktor ba'zan kelib turardi; Nellini o'z kreslosida bizning oldimizga olib chiqishardi. Balkonning eshigi ochib qo'yilardi. Botib borayotgan oftob nurlariga cho'mgan bog'cha kaftdek ko'rinib turardi. U yerdan maysalar va endigina ochilib kelayotgan siren hidlari gurkirab kelib turardi. Nelli o'z kreslosida o'tirib hammamizga mehr to'la ko'zlari bilan qarar va gaplarimizga quloq solar edi. Ba'zan esa o'zi ham ochilib ketardi va, albatta, biror xususda gap boshlar edi... Ammo bunday daqiqalarda odatda hammamiz tashvish bilan quloq solar edik, chunki uning xotiralarida hech tegib bo'lmaydigan nozik yerlari bor edi. Men ham, Natasha ham va Ixmenevlar ham uning oldida o'z aybimizni sezardik, anavi kuni, uning qanchalik hayajon va iztirob ichida ekanini bila turib unga o'z boshidan o'tganlarni gapirtirdik. Doktor, ayniqsa, bu xotiralarga qarshi edi, odatda gapni chalg'itar edik. Bunday hollarda Nelli o'zini bu harakatimizni tushunmaganga solar va doktor yoki Nikolay Sergeich bilan o'ynasha boshlardi...

Biroq uning holi kundan kun og'irlashmoqda edi. U had-

dan tashqari ta'sirchan bo'lib qoldi. Tomiri yomon ura boshladi. Yaqin kunlarda vafot etishi ham mumkin, dedi menga doktor.

Men buni Ixmenevlarni tashvishga solmaslik uchun aytmay qo'ya qoldim. Nikolay Sergeich yo'lga chiqqunlaricha uning tuzalib qolishiga astoydil ishonar edi.

– Ana, dadam ham qaytdi, – dedi Natasha uning ovozini eshitib, – yur, Vanya.

Nikolay Sergeich ostonaga qadam qo'ymasdanoq odati bo'yicha shang'illab gapira boshladi. Anna Andreevna unga qarab qo'llarini silkitdi. Chol shu zahotiyiq jim bo'lib qoldi va men bilan Natashani ko'rib, o'z sarguzashtlarining oqibatini, shu mahalgacha ketidan yurgan ish masalasi endi batamom hal bo'lganini va bundan g'oyat shod ekanini hovliqib shivirlab gapira boshladi.

– Ikki haftadan keyin jo'nasak ham bo'ladi, – dedi u qo'lini ishqalab va tashvish bilan Natashaga qiya boqib qo'yib. Ammo u otasiga tabassum-la javob qilib, uni quchoqlab oldi, hamma shubhalar bir zumda tarqaldi.

– Jo'naymiz, jo'naymiz, jonginalarim, jo'naymiz! – gapirib ketdi u sevinib ketib. – Faqat, sen Vanya, faqat sendan ajralishimizgina og'ir... (shuni aytib o'tayki, u biror marta meni birga ketishga taklif qilmadi, uning fe'l-atvoriga qaraganda, boshqa bir sharoitda, ya'ni mening Natashaga bo'lgan sevgimni bilmaganda, albatta, taklif etgan bo'lar edi.)

– Ilojimiz yo'q, do'stlar, nochor! Menga og'ir, Vanya, ammo joyning o'zgarishi hammamizni jonlantiradi deb o'ylayman. Joy o'zgartirish demak, hamma narsani o'zgartirish demakdir! – qo'shib qo'ydi u yana bir marta qiziga qarab qo'yib.

U shunga ishonardi va shunga ishonganidan mamnun edi.

– Nelli-chi? – dedi Anna Andreevna.

– Nellimi? Nima bo'lardi... Qizginam betobroq, ammo u vaqtgacha tuzalib qolsa kerak. U hozir ham ancha yaxshi; sen nima deb o'ylaysan, Vanya? – dedi u qo'rqib ketgandek, tashvish bilan menga qarab, go'yoki uni taajjublantirgan narsani hal etib berishim kerakdek.

– U qalay? Qanday uxladi? Unga bir narsa bo'lmadimi?

Uyg'onmadimikin hozir? Bilasanmi, Anna Andreevna, biz tezgina stolni ayvonga surib chiqamiz, samovar keltiradilar, biznikilar keladi, hammamiz bir joyga yig'ilamiz, keyin Nelli ham oldimizga chiqadi... Juda soz, juda soz. Uyg'onmaganmikin-a? Oldiga boray-chi. Ko'raman, xolos... Uyg'otib yubormayman, xavotir olma! – qo'shib qo'ydi u, Anna Andreevnaning yana unga qo'l silkitganini ko'rib...

Ammo Nelli allaqachon uyg'ongan edi. Chorak soatdan keyin odatdagidek jamoat jam bo'lib, kechki choyga o'tirdik.

Nellini kresloda olib chiqdilar. Doktor ham, Masloboev ham keldi, Masloboev Nelli uchun katta siren guldastasi olib keldi, ammo uning o'zi nimadandir tashvish tortar va go'yoki biror narsadan jahli chiqqanday ko'rinardi.

Darvoqe, Masloboev xudoning bergan kuni kelardi desa bo'ladi. Men avval ham aytib o'tgandim: hamma, ayniqsa Anna Andreevna uni judayam yaxshi ko'rib qolgan edi, ammo biror marta, biror so'z bilan Aleksandra Semyonovnani tilga olishmasdi. Masloboevning o'zi ham u to'rrida lom-mim demasdi, Anna Andreevna mendan Aleksandra Semyonovna hali Masloboevning nikohli rafiqasi bo'lguncha yo'q, degan gapni eshitib o'zicha uni mehmonga chaqirish va uyda u haqda gap ochish mumkin emas degan qarorga kelgan edi. Shunga rioya qilinar, bu bilan Anna Andreevna juda ham kerilar edi. Shuni aytish kerakki, agar uning Natashasi bo'lmaganda, eng muhimi anavi voqealar bo'lib o'tmaganda, ehtimol, o'zi ham bunchalik talabchan bo'lmas edi.

Nelli bu oqshom g'alati, g'amgin va hatto bir narsadan tashvish tortayotganday edi. Go'yo u yomon tush ko'rgan-u, o'shani o'ylab yuragi g'ash bo'layotgandek ko'rinardi. Ammo Masloboevning sovg'asidan g'oyat quvonib ketdi va uning oldiga, stakanga solib qo'yilgan gullarga zavqlanib qarab o'tirdi.

– Gulni shuncha yaxshi ko'rasanmi deyman, Nelli? – so'radi chol. – Shoshma bo'lmasa! – qo'shib qo'ydi u shavq-zavq bilan, – ertagayoq... ha, mayli, mana o'zing ko'rasan!..

– Yaxshi ko'raman, – javob berdi Nelli, – qanday qilib oyimni gullar bilan qarshi olganimiz esimda. Biz hali u yoqda

ekanimizda (u yoq deb endi chet elni aytardi), oyim butun bir oy qattiq kasal bo'lib yotdi. Genrix bilan men ikkimiz, onam yostiqdan bosh ko'tarib birinchi marta o'z yotoqxonasidan chiqqanda (shu uydan u bir oy chiqmay yotdi), biz uyning hamma yog'ini gullar bilan bezab tashlaymiz deb kelishib qo'ydik. Shunday qildik ham. Onam kechqurun ertaga ertalab, albatta, chiqib sizlar bilan nonushta qilaman, deb aytgan edi. Biz ertasiga saharlab turdik. Genrix juda ko'p gullar olib keldi va biz uyning hamma yog'ini yashil barglar va gulchambarlar bilan bezatib tashladik. Baxmal gullar, yana barglari yapaloq gullar, otini bilmayman, yana hamma narsaga ilashaveradigan barglar, katta-katta oq gullar, nargislar ham bor edi (men nargisni hammasidan ham ko'ra yaxshi ko'raman), ajoyib atirgullar bor edi, ishqilib, juda ham gul ko'p edi. Biz ularni gulchambar qilib har yer, har yerlarga ildik, tuvaklardagi gullarni ham har yer, har yerga qo'ydik. Shularning ichida katta-katta tuvaklarda shunday gullar ham bor ediki, xuddi butun bir daraxtga o'xshardi, ularni biz burchak-burchakka, onamning kreslosi yoniga qo'ydik. Onam chiqib hayron qoldi va juda ham sevinib ketdi. Genrix bo'lsa terisiga sig'masdi... Hali-hali esimda...

Shu oqshom Nelli juda ham quvvatdan ketgan, asabi qozigan edi. Doktor tashvish bilan unga qarab-qarab qo'yardi. Ammo Nellining hadeb gapirgisi kelar edi. U to qosh qorayguncha o'zining u yoqda o'tgan hayotidan hikoya qildi, biz uning so'zini bo'lmadik. U yoqda ular onasi va Genrix bilan juda ko'p sayohat qilishgan ekan, o'tmish esdaliklari uning xotirasida yorqin gavdalanar edi. U hayajon bilan ko'm-ko'k samo, o'z ko'zi bilan ko'rib yonidan o'tgan qor va muz cho'qqili baland tog'lar, tog' sharsharalari, keyin Italiya vodiylaridagi ko'llar, gullar, daraxtlar, qishloq odamlari, ularning kiyimlari, ularning bug'doyrang yuzlari, qora ko'zlari va ular bilan uchrashuvlar va ro'y bergan hodisalar haqida hikoya qilar edi. Ulkan shaharlar, saroylar, qubbalarida birdan rang-barang olov tovlanib ketuvchi hashamatli cherkovlar, keyin zangori samo va kumush dengiz, issiq janub shahri haqida gapirardi... Nelli o'z xotiralarini hech qachon bizga bunchalik batafsil gapirgan emasdi. Biz uning

hikoyalarini nihoyat darajada diqqat bilan tinglardik. Faqat biz hammamiz shu chog'gacha uning boshqa xotiralarini – bo'g'uvchi, zaharlovchi, buzuq havoli mudhish shahar, doimo ifloslik qaynagan qasrlar; nursiz, yog'dusi kam quyosh, ona bolaga ne-ne sitamlar ko'rsatgan yovuz va devonasifat odamlar haqidagi xotiralarni eshitardik. Men ular ikkalasi iflos yerto'lada, rutubatli zulmat kechada, juldur ko'rpa ustida bir-birlari bilan quchoqlashib o'tirib o'zlarining o'tmishlarini, mavhum Genrix va o'sha uzoq ellarning ajoyib otlarini eslab o'tirgan paytlarini tasavvur etdim... Yana, Pellini o'zi tanho, onasiz, Bubnova kaltak va vahshiyona zulmlar bilan uning qanotini sindirib yomon yo'lga solmoqchi bo'lganda shularning hammasini naqadar iztirob bilan eslagani ko'z oldimda gavdalandi...

Biroq bora-bora Nelling ahvoli yomonlashib qoldi va uni joyiga qaytarib olib kirdilar. Chol juda ham qo'rqib ketdi va uni shuncha ko'p gapirishga yo'l qo'yganimiz uchun fig'oni falakka chiqdi. Uning g'alati tutqanoq'i tutib ko'ngli ozib qoldi. Bu tutqanoq bir necha marta takrorlangan edi. To'xtagandan keyin Nelli Vanyani ko'rishim zarur, deb turib oldi. U mening yolg'iz o'zimga biror gap aytmoqchi edi. U shu qadar qattiq yolvorib so'radiki, bu gap doktorning o'zi uning istagini bajo keltirishimizni so'radi, shundan so'ng hamma uydan chiqib ketdi.

– Bilasanmi, Vanya, – dedi Nelli ikkimiz yolg'iz qolganimizda, – bilaman, ular meni birga ketadi deb o'ylashyapti, ammo men bormayman, chunki borolmayman, hozircha senikida turaman, mana shuni senga aytishim kerak edi.

Men uni ketishga ko'ndirmoqchi bo'ldim, Ixmenevlar uni juda yaxshi ko'rishlarini, uni o'z qizlaridek sevishtlarini, bormay qolsa, ular qattiq xafa bo'lishlarini aytdim. Aksincha, mening uyimda tursa, unga qiyin bo'lishini, men uni qattiq sevsam-da, baribir, ajralishga to'g'ri kelishini aytdim.

– Yo'q, mumkin emas! – qat'iy javob berdi Nelli, – chunki men tushimda onamni tez-tez ko'rib turaman, u ham menga ular bilan ketmay shu yerda qolishimni tayinlaydi; juda ko'p gunoh qildim, buvangni yolg'iz tashlab ketdim, deydi, gapirib turib juda ko'p yig'laydi, men shu yerda qolib, buvamni par-

varish qilishni xohlayman, Vanya.

– Axir, buvang o‘lgan-ku, Nelli, – dedim men uning so‘zlaridan ajablanib.

U o‘ylab qoldi, keyin menga tikilib qaradi.

– Vanya, yana gapirib ber, yana bir marta gapirib ber, buvamning o‘lganini, – dedi u. – Hammasini ayt. Hech bittasini qoldirmay gapir.

Men uning talabidan ajablandim, lekin shunday bo‘lsa ham bo‘lgan voqeani batafsil hikoya etishga tutindim. Gumonimcha, u alahlayotganga, tutqanoqdan keyin u miyasi joyiga tushmaganga o‘xshardi.

U mening hikoyamni diqqat bilan tingladi, esimda bor; o‘shanda uning alam, iztirob o‘ti chaqnagan qora ko‘zlari, hikoyam davomida menga sinchkovlik bilan tikilib turdi. Uy ichiga allaqachon qorong‘ilik cho‘kkan edi.

Hikoyamni eshitib va biroz o‘ylab turgandan keyin:

– Yo‘q, Vanya, u o‘lgan emas, – dedi qat‘iy qilib. – Onam buvam haqida juda ko‘p gapiradi, kecha men unga; «Axir, buvam o‘lgan-ku», – desam, u juda xafa bo‘ldi, yig‘ladi va menga buvamning o‘lmaganligini, menga ataylab shunday deganlarini, u hozir gadoychilik qilib yurganini aytdi. «Sen bilan gadoychilik qildik-ku, o‘shanga o‘xshab u gadoychilik qilyapti, o‘sha, biz sen bilan uni birinchi topqir uchratib, oyog‘iga yiqilgan joyimiz bor-ku, Azorka meni tanigan edi, esingdami, o‘sha yerga borib xayr so‘raydi...», – deydi onam.

– Bu hammasi, tush Nelli, kishi betob bo‘lsa, shunaqa aloq-chaloq tushlar ko‘radi, sen betobsan, – dedim.

– Men o‘zim ham bular hammasi tushdir deb o‘ylagan edim, – dedi Nelli, – shuning uchun hech kimga aytmadim ham. Faqat bitta sening o‘zingga aytgim keldi. Ammo bugun sen kelavermaganingdan keyin uxlab qolgandim, tushimda buvamning o‘zini ko‘rdim. U o‘zining uyida o‘tirib meni kutayotgan emish, u shunday ozib-to‘zib ketgan, «Ikki kundan beri hech narsa yemadim, Azorka ham och», – deydi. Mendan juda xafa va o‘pkalar emish. O‘zi ham aytdi: «Burnakisi qolmaganmish, tamakisiz turib bo‘ladimi», – deydi. Rost, Vanya, u menga ilgari

ham, onam o'lgandan keyin unikiga borganimda ham, bir marta shuni aytgan edi. O'shanda u qattiq betob yotgan edi, hech narsaga tushunmasdi ham. Mana, bugun ham men undan shu gapni eshitib, o'zimcha, boraman-da, ko'prik ustida turib xayr tilayman, tushgan pulga buvamga non, pishgan kartoshka va tamaki sotib olib boraman, deb o'yladim. Mana men turgan emishman-da, hadeb xayr tilarmishman. Qarasam, buvam atrofimda yurgan emish. Sekin-sekin yurib turarmish-da, oldimga kelib qancha tushdi ekan deb razm solib, keyin o'ziga olarmish. Bu ionga, endi tamaki uchun yig', dermish. Men yig'aman, yig'aman, u kelib mendan tortib oladi. Men unga, bunaqa qilmasang ham, beraman, bekitib olib qolmayman, deyman. «Yo'q, – dermish u, – sen o'g'irlaysan, menga sening o'g'riligingni Bubnova ham aytgan, shuning uchun men seni hech qachon uyimga ko'chirib olib kelmayman, yana bir mirini qayerga qo'yding?» U menga ishonmagani uchun yig'lab yubordim, u esa quloq ham solmay hadeb; «Bir mirini o'g'irlading!» – deb baqirdi, keyin meni ura boshladi, shu yerning o'zida ko'prik ustida ayamay urdi. Men rosa yig'ladim... U, shubhasiz, tirik va qayerlardadir sargardon bo'lib yuribdi, balki, mening borishimni kutayotgandir, deb o'yladim men, Vanya...

Men uning boshqatdan ko'nglini ko'tarib, bular hammasi behuda narsalar ekaniga uni ishontirmoqchi bo'ldim, nihoyat ishontira oldim, shekilli. U: «Endi uxlashga ham qo'rqaman, buvam ko'rib qoladi», – deb javob berdi. Nihoyat meni mahkam quchoqlab oldi...

– Baribir, men seni tashlab ketolmayman, Vanya! – dedi u o'zining yuzchasini mening yuzimga bosib. – Basharti buvam bo'lmagan taqdirda ham, baribir, men sendan ayrilmayman.

Nellining tutqanog'i tutib qolganidan uydagilar hammasi qo'rqib qolishgan edi. Men Nellining barcha xayollarini sekingina doktorga aytib berdim va uning kasali haqida uzil-kesil nima o'ylashini so'radim.

– Hali noma'lum, – dedi u o'ylab turib, – men hozircha zehn solib, kasalni tekshirib mushohada qilyapman, bosh qotir-yapman, ammo... hech narsa ma'lum emas. Umuman tuzalib

ketishiga umid yo'q. U o'ladi. Siz tayinlaganingiz uchun men ularga aytmayapman, ammo juda achinaman, ertagayoq konsilium¹ chaqirmoqchiman. Balki, kasal konsiliumdan so'ng aynib qolar ham, ammo bechora qizga yuragim achiydi, xuddi o'z qizimdek achinaman. Shunday ajoyib, shunday ajoyib qiz! Shu qadar hazilkash, o'tkir qiz.

Nikolay Sergeich, ayniqsa, hovliqib qolgan edi.

– Men senga aytsam, Vanya, bir narsani o'ylab topdim, – dedi u, – Nelli gulni juda ham sevadi. Bilasanmi, nima? Ertaga u uyqusidan turganda biz uni, xuddi u onasi kasaldan turganda Genrix bilan kutib olgandek, biz ham uni gul bilan qarshi olamiz, o'zi bugun gapirib bergandek... U shu qadar hayajon bilan gapirdiki...

– Gap shunda-da, qattiq hayajon bilan gapirdi, – javob berdim men. – Hayajonlanish endi unga juda ham zararli-da...

– Ha, ammo yoqimli hayajon boshqa gap! Menga ishonaver, jonim, o'zimning boshimdan o'tgan, yoqimli hayajon hech gap emas; hatto yoqimli hayajon dardingga davo bo'ladi, sog'liqqa yaxshi ta'sir qiladi...

Xullasi kalom, cholning o'ylab topgan narsasi uning shu qadar zavqini keltirdiki, boshi osmonga yetdi. Unga e'tiroz bildirishning iloji ham yo'q edi. Men doktordan maslahat so'radim, ammo uning o'yi bitguncha chol shlyapasini changallab, shu ish orqasidan yugurdi.

– Bilasanmi, – dedi u keta turib, – shu yaqin orada bir gulxona bor, juda ajoyib gulxona. Bog'bonlar gullarni sotishgani sotishgan, juda arzonga olsa bo'ladi... Suv tekin! Sen Anna Andreevnaga tushuntirib qo'y, yo'qsa u hozir chiqimning daragini eshitib, jahli chiqib ketadi. Shunday, ha! Xo'sh, do'stim, yo'l bo'lsin senga? Axir, qutulding, ishingni tugatding, endi uyga muncha shoshilishning nima hojati bor? Yetib qolaver, tomdagi xonada yota qolasan, esingda bormi, huv ilgarigi vaqtlarga o'x-

¹ **Konsilium** (lotincha: *consilium* – kengash) – bemorga tashxis qo'yish va davolash masalalarini hal etish uchun o'tkaziladigan vrachlar (bemorga bevosita aloqador bo'lgandan tashqari tor soha mutaxassisleri) kengashi. Bemorni davolovchi vrach (bemorning ahvoli og'ir yoki kasallikni aniqlash qiyin bo'lgan hollarda) yoki uning yaqin kishilari iltimosiga binoan o'tkaziladi.

shab. To'shaging ham, karavoting ham o'sha turgan yerida qimir etmay turibdi. Farang qirolidek uxlaysan, nima deding? Qolaver. Ertaga barvaqtroq turamiz, gullarni olib kelishadi va soat sakkizlargacha hammamiz birgalikda uyni bezatib bo'lamiz. Natasha ham ko'maklashadi, sen bilan mendan ko'ra uning didi baland... Xo'sh, rozi bo'lasanmi? Yetib qolasanmi?

Men yotib qoladigan bo'ldim. Chol ishni joyiga qo'ydi. Doktor bilan Masloboev xayrlashib chiqib ketishdi. Ixmenevlar vaqtli uxlashadi: soat o'n birlardayoq yotishadi. Ketayotganda Masloboevning xayoli parishon edi, menga nimanidir aytmoqchi bo'ldi, lekin keyin aytaman deb qo'ya qoldi. So'ng men qariyalar bilan xayrlashib o'z xonamga chiqsam, u shu yerda meni kutib, stol oldida qandaydir bir kitobni varaqlab o'tiribdi, men juda hayron qoldim.

– Yo'ldan qaytdim, Vanya, chunki hozir aytsam, yaxshiroq bo'lar deb o'ylayman. O'tir-chi. Men senga aytsam, shunday bir bo'lmag'ur, hattoki alam qiladigan ish...

– Nima gap o'zi?

– Ha, anavi iflos knyazing bundan ikki hafta ilgari shunday pand berib ketdiki, shu chog'gacha alam qilyapti.

– Nima, nima? Hali ham knyaz bilan aloqang bormi?

– Ana xolos, Xudo berdi endi senga, xuddi bir hodisa yuz bergandek: «Nima gap, nima bo'ldi?» – deb hovliqasan. Senga aytsam, inim, xuddi Aleksandra Semyonovna bilan ikkalangning tuprog'ing bir joydan olingan. Umuman shu hamma xotin... Xotinlarga tob-toqatim yo'qda!... Qarg'a «qag'» deb qo'ysa ham, baloga qoladi; darrov: «Nima gap, nima bo'ldi?...»

– Jahling chiqmasin-da.

– Hech jahlim chiqayotgani yo'q, ammo darrov pashshani filga aylantirish kerak emas... Shundog'.

U hali ham mendan o'pkalayotgandek biroz jim turdi. Men ham so'zini bo'lmadim.

– Bilasanmi, inim, – boshladi u yana, – men bir narsaning izini topdim... ya'ni aslini surishtirilsa, hech kanaqa iz topganim ham yo'q va hech qanaqa izning o'zi ham yo'q, menga shunday tuyuldi... ya'ni, ba'zi bir mulohazalarga qaraganda men shunday

xulosaga keldimki, Nelli... ehtimol... balki, knyazning pushti kamaridan bo'lgan qiz...

– Nima deyapsan?

– Ana endi, hozir: «Nima deyapsan?» – deb baqiradi. Tavba, bu odamlar bilan tuzukroq gaplashib bo'lmaydi-ya! – baqirdi u zo'r berib qo'l siltab. – Ey, kallavaram, men senga: «Xuddi shunday», – deyapmanmi? Men senga knyazning qonuniy qizi shu isbot etildi, dedimmi? Aytdimmi, yo'qmi?

– Menga qara, og'ayni, – so'zini bo'ldim men qattiq hayajon ichida, – Xudo haqqi, baqirmasdan ochiqroq, aniqroq qilib tushuntir, Xudo haqqi, tushuna olaman. Axir, o'zing bu qanchalik ahamiyatga ega va oqibati nima bo'lishi mumkinligini tushunsang-chi...

– Gap shunda-da, oqibati nima bo'lishida-da! Isbot qani? Ish bunday qilinmaydi. Men, senga sir saqlasang, aytib beraman. Nima uchun bu to'g'rida sen bilan gap ochganimni keyin tushuntirib beraman. Demak, shunaqa bo'lishi kerak ekan. Nafasingni ichingga yutib tingla, shuni bilib qo'yki, bu gaplar juda ham maxfiy.

Ish bundog' bo'lgan edi. Hali qishdayoq, Smit o'lmasdan ilgari, knyaz Varshavadan qaytishi bilanoq bu ishni boshlagan edi, ya'ni ishni allaqachon, o'tgan yiliyoq boshlagan edi-ya. Ammo knyaz ilgari birini qidirib yurgan bo'lsa, endi boshqasini axtarmoqda. Gapning qizig'i shu yerdaki, u kalavanning uchini yo'qotib qo'ydi. O'n uch yil bundan muqaddam Parijda Smitixadan ajralib, uni tashlagan bo'lsa, shu o'n uch yil to'xtovsiz uni ta'qib etib keldi, bugun tilga olingan Genrix bilan turishini ham bilardi, uning Nellisi borligini ham bilardi, o'zining kasalligini ham, xullas, hammasini bilardi, lekin birdan kalavanning uchini yo'qotib qo'ydi. Bu, ehtimol, Genrix vafotidan so'ng, Smitixa Peterburgga qaytishga otlanganida ro'y bergan bo'lishi kerak. U Rossiyaga qanday familiya bilan qaytmasin, baribir, Peterburgda juda tez topib olishi turgan gap edi. Ammo gap shundaki, uning chet eldagi josuslari yolg'ondan guvohlik berib uni aldab qo'yishdi: u janubiy Germaniyadagi allaqanday xarob bir shaharchada yashaydi deb ishontirishdi. Ular o'zlari esa hafsalasiz-

liklari tufayli bittasini boshqasi bilan adashtirib qo'yishgan. Shu ahvol bir yil yoki undan ko'proq davom etdi. Bir yil o'tishi bilan knyaz shubhaga tushib qoldi. Ba'zi bir dalillarga qaraganda, sal ilgariroq knyazga u boshqa ayoldek tuyula boshladi. Endi haqiqiy Smitixa qayerga ketib qoldi, degan savol tug'ildi. Uning kallasiga: (hatto hech qanday dalilsiz) u Peterburgda emasmikin, degan fikr keldi. Chet eldan bir xabar kelgan bo'lsa, u bu yerda boshqasini kovlashtirdi, ammo, nazarimda, u haddan tashqari rasmiy yo'llarni qo'llashni istamasdi, shekilli, men bilan tanishib oldi. Unga meni, falon-piston, shunaqa ishlar bilan shug'ullanadi, shunday ishlarning gadoyi va hokazo deb tavsiya etgan bo'lsalar kerak.

Mana shunday qilib u menga ish nimadan iboratligini tushuntirdi, ammo mujmal qilib tushuntirdi u iblisvachcha. Dudmal va dumi xurjunda qilib gapirdi. Xatolari ko'p, bitta so'zni bir necha bor takrorlaydi, bir vaqtning o'zida bitta dalilni bir necha shaklda bayon etadi... Ammo ma'lumki, ming quvlik qilganing bilan oyni etak bilan yopib bo'lmaydi. Turgan gap: men ham xushomadgo'ylik qilib, o'zimni soddalikka solib, qulluq qilib yuragim bilan, o'zimcha, tuzib olgan qoidamga, shu bilan birga tabiat qonuniga (negaki bu tabiatning qonuni) rioya qilib ish tutishni mo'ljallab qo'ydim. Chunonchi, birinchidan, u o'z ehtiyojini menga bayon etayotganmikan? Ikkinchidan, buning tagida boshqa bir aytilmagan gap bormi? Agar shunday bo'lsa, ehtimol, o'zing ham shoirona aqling bilan tushunib olishing mumkin, azizim, u meni haqimni yeb ketadi; aytaylik, bir ish bir so'm tursa, boshqasi to'rt so'm turadi, shunday bo'lgandan keyin to'rt so'm turadigan ishni bir so'mga qilib berib men ahmoq emasman-ku. Men ishga kirishdim, tasmol qilib asta-sekin iziga tusha boshladim; birini uning o'zidan o'smoqchilab so'rab bildim, boshqasini ba'zi bir begonalardan bilib oldim, uchinchi-siga o'z aqlim bilan yetdim. Ehtimol, nega men xuddi shu yo'sinda harakat kilishga jazm etganimni so'rarsan-a? Xo'p, javob beraman: nima uchundir knyaz juda pitillab qoldi, nima-dandir juda qo'rqib ketdi. Bundog' qaraganda nega shunchalik qo'rqish kerak ekan? Ha, xo'p, o'ynashini otasidan olib qochib

ketibdi, u homilador bo'lib qolibdi, u esa uni tashlabdi-yu, ketaveribdi. Xo'sh, bu yerda qanaqa hayron qoladigan narsa bor? O'yinqaroqlik, sho'xlik qilsa qilibdi-da! Knyazdek odam bundan qo'rqmasa ham bo'ladi! Ammo u qo'rqardi... Mana shunisi meni shubhaga soldi. Men, og'ayni, g'alati, diqqatga loyiq bir ish iziga tushdim. Shuni aytish kerakki, Genrix orqali tushdim. U endi o'lib ketgan, lekin tog'asining qizlaridan biri (u hozir bitta novvoyning xotini, shu yerda, Peterburgda turadi), avval Genrixni qattiq sevgan. U ittifoqo sakkiz bola orttirgan va semiz bulkachchi eri bo'lishiga qaramay, Genrixni o'n besh yil muttasil sevib yuravergan. Mana shu ayoldan har xil yo'llar bilan juda ham muhim bir narsani bilib olishga muvaffaq bo'ldim: Genrix nemis odatiga muvofiq unga maktublar va xotira daftari yozib turgan, o'lishidan sal ilgariroq shu ayolga ba'zi bir qog'ozlarini yuborgan. Bu ahmoq ayol maktublarning eng kerakli joylariga tushunmagan, faqat oy, meyn, liber Avgustin va yana, chamamda, Vilande haqida yozilgan yerlariga tushungan, xolos. Ammo men kerakli ma'lumotlarni oldim va ana shu maktublar orqali yangi izga tushdim. Masalan, janobi Smit, uning qizi o'g'irlab qochgan sarmoya va uni o'z qo'liga kiritib olgan knyazni bilib oldim. Nihoyat, xatlardagi turli-tuman oh-vohlar, kinoyalar, majoziy gaplar orasida menga ishning asli mohiyati oshkor bo'ldi, ya'ni o'zing tushunasani, Vanya! Yana ijobiy bir narsa yo'q. Nodon Genrix ataylab buni yashirgan va faqat shama qilib o'tgan, xolos. Shunday qilib, ana shu shama va imo-ishoralarning hammasidan men uchun g'alati bir samoviy sir-asrori namoyon bo'la boshladi: axir, knyaz Smitxaga uylangan ekan-da! Qayerda uylandi, qanaqa qilib, qachon, chet eldami, shu yerning o'zidami, qani hujjat? – hech narsa ma'lum emas, ya'ni, masalan, Vanya oshna, alam qilgandan sochimni bittalab yuldim, qani endi topsam, qidirdim, qidirdim, kecha-kunduz qidirdim.

Nihoyat, Smitni qidirib topdim. U esa birdan o'lib bersa bo'ladimi! Men hali uni tirikligida ko'rganim yo'q edi. Shu orada bir voqea bahonasi bilan, men birdan Vasilevskiy orolida men uchun shubhali bo'lgan bir ayolning o'lganini bilib qolaman, surishtirib, surishtirib yana xuddi iziga tushaman, Vasilevskiyga

yuguraman, ana o'shanda, esingda bormi sen bilan uchrashib qoldik. O'shanda men ko'p narsalarni bilib oldim. Xullas kalom, bu yerda Nelli menga juda ham yaxshi ish berdi...

– Menga qara, – kesdim so'zini, – nahotki shuni Nelli biladi deb o'ylaysan-a?

– Nimani?

– Knyazning qizi ekanini?

– Axir, sen o'zing ham bilasan u knyazning qizi ekanini, – javob berdi u menga allaqanday achchiq ta'na bilan tikilib, – shunaqa bekorchi savollar berishning nima hojati bor? Bema'ni odam ekansan-ku! Gapning muhimi bunda emas, gap shundaki, u shunchaki knyazning qizi ekanini emas, balki, knyazning qonuniy qizi ekanini biladi, shuni tushunasanmi o'zing?

– Bo'lmagan gap! – baqirib yubordim men.

– Mening o'zim ham boshda: «Bo'lmagan gap!» – deb yurardim, hatto endi ham ba'zan bo'lmagan gap deyman, o'zimcha. Ammo gap shunda-da, mana shu: «Bo'lishi mumkin gap», – shunday bo'lishi ehtimolga yaqin.

– Yo'q, Masloboev, bunday emasdir, juda hovliqib qolibsan! – baqirdim men. – Nelli buni asti bilmaydi ham, u, haqiqatan ham, nikohsiz tug'ilgan qiz. Nahotki onasi qo'lida uncha-muncha hujjati bo'lgan holda, bu yerda – Peterburgda boshidan kechirgan shunchalik achchiq qismatga bardosh bera olardi va o'z farzandini mana bunday yetimcha qilib tashlab keta olardi? Bas! Buning bo'lishi mumkin emas, axir.

– Men o'zim ham shuni o'ylaganman, ya'ni, hali ham bu masala men uchun muammo bo'lib keladi. Biroq shunga e'tibor berish kerakki, Smitixa o'zi dunyoda o'ziga yetgancha o'taketgan telba va qaysar ayol edi. Juda ajoyib tabiatli ayol bo'lgan; sharoitni bir ko'z oldingga keltirib ko'r: axir, bu romantizm-ku, bularning barchasi aql doirasiga sig'maydigan, uchiga chiqqan jinnilik, bema'nigarchilik-ku. Sen shunga e'tibor qil: avval boshlab uning xayoli yerdagi ajoyib samoviy hayot, malaklarda bo'lgan, chin yurakdan sevgan, oshiqiga cheksiz ishongan. Shunga imonim komilki, keyin, sevgani undan ko'ngli sovib qolgani, uni tashlab ketgani uchun emas, o'zining bino qo'ygan odami,

uni aldashga va uni tashlab keta olishga qobiliyatli ekanidan, uning farishtasi ablahga aylanib ketgani, uni sharmanda qilib, oyoq osti qilganidan jinni bo'lgan. Uning romantik va ma'sum qalbi bu o'zgarishni ko'tara olmagan. Buning ustiga tag'in xo'rlik! Bilasanmi, bu qanday xo'rlik! Dahshatdan va eng muhimi mag'rurlikdan u cheksiz nafrat bilan knyazdan yuz o'g'irgan. Butun aloqasini uzib barcha hujjatlarni parchalagan; pulga ham tuflagan, hatto pul o'ziniki emas, otasinikiligini ham unutgan, aldoqchini o'z qalbining buyukligi bilan ezish, uni o'g'ri hisoblab, bir umr undan nafratlanish huquqiga ega bo'lish uchun puldan ham voz kechgan, puldan bir iflos, manxus narsadan yuz o'g'irgandek yuz o'g'irgan va ayni zamonda, ehtimol, unga xotini bo'lishga endi nomus qilishini ham aytgandir. Bizda taloq hujjati yo'q, ammo de fasto¹ ular ajralishgan, shundan keyin knyazga yalinishga bo'yin yor bermaydi! Esingga ol, u telba o'lim talvasasida yotganda ham Nelliga: ular oldiga borma, ishla, ammo kim chaqirmasin, o'lsang ham borma, degan (ya'ni u bu yerda ham hali ham uni chaqiradilar, demak, yana bir marta qasos olish mumkin, chaqiruvchini nafrat bilan ezish mumkin deb umid qilgan, xullas, oziq o'rniga og'uli xayollar bilan ko'p kechirgan). Men, og'ayni, Nellidan juda ko'p narsalarni o'smoqchilab bilib oldim, hozir ham ba'zan o'smoqchilab yuraman. Uning onasi kasal, sil edi. Bu kasallik odamni alamzada va juda jizzaki qilib qo'yadi, biroq men Bubnovaning bir do'sti orqali, uning knyazga, ha, xuddi knyazning o'zginasiga maktub yozganini bilib olganman.

– Yozgan deysanmi! Maktub borib tekkanmi? – baqirib yubordim men toqatim toq bo'lib.

– Gap mana shunda-da, borib yetgan, yetmaganini bilmayman, Smitixa o'sha ayol bilan ko'rishgan (esingda bormi, Bubnovanikidagi upa-elik yeurtib yuradigan ayolchi? Hozir u axloq tuzatuv uyida). Maktubni ana o'shandan yubormoqchi bo'lgan, yozgan ham, lekin bermasdan tag'in qaytib olgan; bu voqea o'lishidan uch hafta ilgari sodir bo'lgan... Bu muhim dalil: modomiki, yuborishga qaror qilganmi, ming qaytarib olganda

¹ De fasto (latincha) – haqiqatda.

ham, baribir, boshqa vaqtda yuborishi mumkin edi. Shunday qilib, u maktubni jo'natdimi, yo'qmi – bilmayman, ammo maktubni yubormagan deb taxmin etishga bitta asos bor, chunki knyaz, ehtimol, uning Peterburgda ekanini bilardi, ammo qayerdaligini o'lgandan keyingina bilgan bo'lsa kerak. Qutulganiga judayam sevingan bo'lsa kerak!

– Ha, esimda bor, Alyosha allaqanday maktub haqida gapirib, undan otasi juda sevinib ketganini gapirgan edi, ammo bu yaqindagina, bundan ikki oy muqaddam edi, shekilli. Xo'sh, innaykin-chi, knyazni nima qilding.

– Knyazga nima bo'lardi! Axir, shuni tushungin: shunday bo'lganiga qanoat hosil qilgan bo'lsam-da, ammo bitta ham tuzukroq dalil yo'q. Shuncha jonimni jabborga berganim bilan bitta ham dalil bo'lmasa-ya ahvol chatoq! Chet ellardan surishtirish kerak edi, ammo qaysi ajnabiy mamlakatdan qidirasan? Noma'lum. Menga endi u bilan jang-u jadal qilishga to'g'ri kelishini, endi men uni faqat shama bilan qo'rqita olishim va o'zimni ko'p narsani biladigan qilib mug'ambirlik qilishim kerakligini tushunib qoldim.

– Xo'sh, undan keyin-chi?

– Aldanmadi, ammo hazilakam cho'chimadi-da! Ha, cho'chimas ekan-a! Biz u bilan bir necha bor uchrashdik, uning o'zini xokisor tutishini ko'rsang! Bir gal, o'zini do'st ko'rsatib hammasini gapira boshladi. Bu huv o'sha, meni hamma narsadan xabardor deb gumon qilgan vaqtda edi.

Hech narsani yashirmay kuyinib gapirdi, ammo hammasi g'irt yolg'on edi, albatta. Mana shunda, u mendan tsanchalik qo'rqishini payqab oldim. Uning oldida o'zimni go'llikka solib, zohirda quvlik qilayotgandek bo'ldim: beso'naqay qo'pollik bilan qo'rqitdim, ataylab shunday qildim, ataylab qo'rslik bilan do'q qila boshladim: meni toza ham galvars odam ekan, deb tilidan ilinib qolarmikan deb qildim. Fahmlab qoldi, muttaham! Keyin bir gal o'zimni mastlikka soldim, yana hech narsa chiqmadi, shaytonga dars beradi u ablah! Shunga tushunyapsanmi, og'ayni Vanya, u mendan qanchalik xavfsirashini bilishim, o'zimni o'z bilganimdan ko'proq sirini biladigan qilib ko'r-

satishim kerak edi-da...

– Xo'sh, oxir nima bo'ldi?

– Hech nima bo'lmadi. Isbot kerak edi, dalillar kerak edi, menda bular yo'q. U faqat shuni tushundiki, men, har holda, katta janjal chiqarishim mumkin. Shubhasiz, u faqat mana shu janjaldan qo'rqar edi. Ayniqsa, u endi aloqalarini kengaytirib kelayotgan vaqt edi. Uning uylanayotganidan xabaring bordir?

– Yo'q...

– Yangi yilta! Qayliqni u o'tgan yili ko'z olib qo'ygan, unda qiz endi o'n to'rtida edi, bu beshga kirdi, hali fartuk kiyib yursa kerak, Ota-onalari shod! Bilasanmi, u xotanim o'lsin deb qancha tilak tilardi! Endi generalning qizini olyapti, puldor qiz, pul juda ko'p. Sen bilan biz, Vanya, og'ayni, hech qachon bunaqangisiga uylanolmaymiz... Men endi o'lgunimcha o'zimni o'zim kechirmayman, – baqirdi Masloboev stolga mushti bilan qattiq urib. – Ikki hafta bundan burun u ablah meni chuv tushirib ketdi... Ablah!

– Qanday qilib?

– Ey qo'ysang-chi. Menda tuzukroq bir dalil yo'qligini tushunib qolibdi, ish qancha cho'zilsa, u mening ojiz ekanimni shuncha tez tushunib qolganini sezdim. Shunday qilib men undan ikki ming so'm olishga rozi bo'ldim.

– Ikki ming so'm olding!..

– Ha, Vanya, kumush bilan, istar-istamas oldim, axir, shu ish ikki ming so'm turadimi? O'zimni xor qildim. Uning oldida turibman-u, yer yorilmadi, yerga kirmadim: U esa: «Masloboev, men sizning ilgarigi xizmatlaringiz uchun hali haq to'lamagan edim (ilgarigi xizmatlarim evaziga u allaqachon, shartimiz bo'yicha bir yuz ellik so'm to'lagan), shunday qilib men ketyapman, bu yerda ikki ming so'm bor, umid qilamanki endi hamma ishimiz shu bilan batamom tugadi», – dedi. Men esa: «Batamom tugadi, knyaz», – deb javob berdim, o'zim esa boshimni ko'tarib uning basharasiga qaray olmayman. Nazarimda, uni basharasiga: «Ko'p oldim deb o'ylayapsanmi? Faqat muruvvat yuzasidan sen ahmoqqa pul berdim!» – degan ifoda yozilganga o'xshaydi. Oldidan qanaqa qilib chiqib ketganim esimda yo'q!

– Axir, bu pastkashlik-ku, Masloboev! – baqirdim men. – Nima qilding sen Nellini?

– Bu faqat pastkashlik emas, bu jinoyat, bu ifloslik... Bu... bu... nima deb atashga so‘z ham topolmayman buni!

– Yo Rabbiy! Axir, u, hech bo‘lmasa, Nellini ta‘minlashi kerak edi-ku.

– Gap shunda-da. Ta‘minlashi kerak. Nima bilan uni majbur etish mumkin? Qo‘rqitibmi? Qo‘rqib bo‘libdi! Axir, men undan pul olganman. O‘zim uning oldida kumush bilan ikki ming so‘mlik holim bor, deb iqror bo‘ldim-ku. O‘zimga o‘zim shu narxni qo‘ydim-ku. Endi uni nima bilan qo‘rqitasan?

– Nahotki, nahotki Nellining ishi barbod bo‘lgan bo‘lsa? – qichqirdim men umidimni uzib.

– Hech qachon! – baqirdi Masloboev qizishib va bir sapchib tushib. – Yo‘q, men shundoqligicha qo‘ymayman! Men yana yangi ish boshlayman, Vanya, men shunga bel bog‘ladim! Xo‘sh, ikki ming so‘m olgan bo‘lsam, nima bo‘libdi? Tuf deyman! Meni ranjitgani uchun undan pul olganman, desa bo‘ladi, chunki u xushyoqmas meni boplab ketdi, masxara qildi. Ham aldadi, ham masxara qildi! yo‘q, meni mayna qilishga yo‘l qo‘ymayman... Endi men, Vanya, Nellining o‘zidan boshlayman. Aminmanki, ba‘zi bir mushohadalarga binoan ana shu ishning uchi xuddi shuning o‘zida. U hammasini biladi. Hammasini biladi. Hammasini... Unga onasining o‘zi gapirib bergan. Isitma ichida, alam-iztirob bilan gapirgan bo‘lishi mumkin. Hasratini aytishga hech kim bo‘lmagandan keyin, Nelliga aytib bergan. Balki, birorta hujjatga duch kelib ham qolarmiz, – qo‘shib qo‘ydi u zavq bilan qo‘llarini ishqalab. – Tushundingmi endi, Vanya, bu yerga tanda qurishimning sababini? Birinchidan, seni o‘zimga yaqin tutganimdan – bu o‘z o‘zidan ma‘lum, biroq eng muhimi: Nellini kuzatib borish; uchinchi esa, do‘stim Vanya, istasang, istamasang, sen menga yordam qilishing kerak, chunki Nelliga sening so‘zing o‘tadi!..

– Albatta, qasam ichaman, – qichqirib yubordim men, – ishonmanki, Masloboev, sen eng muhimi Nelli uchun harakat qilasan, o‘zingning shaxsiy manfaating uchun emas, bechora xo‘r-

langan yetim qiz uchun tirishasan...

– Kimning foydasiga tirishganim bilan nima ishing bor sening darvesh odam? Eng keragi ish bitsin, ish! Asosan yetimcha bechora uchun, albatta, odamparvarlik ham shuni buyuradi. Ammo sen Vanyusha, basharti o'z manfaatim uchun tirishayotgan bo'lsam ham, meni asta qoralama. Men bir kambag'al odamman, u mushtipar odamlarni xafa qilishga jur'at etmasin. U mening ulushimni tortib olyapti, tag'in o'lgan ustiga chiqib tepgandek, u iflos meni aldab ketdi. Xo'sh, seningcha, shundan keyin ham ana u firibgarning boshini silashim kerakmi? Kechirib qo'yasiz!

Ammo bizning gul bayramimiz ertasiga muvaffaqiyatli chiqmadi-Nellining ahvoli og'irlashdi, u uydan eshikka chiqolmay qoldi.

Shu yotganicha bu uydan ortiq chiqmadi.

Ikki hafta o'tgandan keyin u vafot etdi. Mana shu ikki hafta ichida u o'lim talvasasida biror marta o'ziga kelolmadi va g'alati xayolotlardan qutula olmadi. Uning aqli-hushi go'yo xiralashib qolgandek edi. U to o'lguncha buvasi uni o'z yoniga chaqirayotganiga va bormagani uchun undan xafa bo'layotganiga, hassasi bilan unga po'pisa qilib, insofli odamlardan non va tamaki tilab olib kel deb qiyin-qistoq qilayotganiga qattiq ishonar edi. Ko'pincha u tushida yig'lay boshlar va uyg'ongandan keyin tushida onasini ko'rganini gapirib berar edi.

O'qtin-o'qtin u hushiga kelgandek bo'lardi. Kunlardan bir kun ikkalamiz yolg'iz qoldik. U menga tomon cho'zilib o'zining ozg'in, otashdek qizib yotgan qo'lchalari bilan qo'limni ushladi.

– Vanya, – dedi u menga, – men o'lganimda Natashaga uylan!

Bu uning doimiy va allaqachondan beri o'ylab yurgan istagi edi, shekilli. Men indamasdan unga kulib qarab qo'ydim. Mening kulgimni ko'rib o'zi ham iljaydi. Sho'xlik bilan ingichka, oriq barmoqchasi-la po'pisa qildi va shu zahoti meni o'pa boshladi.

Vafotidan uch kun ilgari ajoyib yoz oqshomlaridan birida u yotgan yotoqxonasining darpardasini ko'tarib, derazani ochish-

larini so'radi. Uy derazasi bog'chaga qaragan edi, u qalin chshil daraxtlarga, botib borayotgan quyoshga uzoq tikilib yotdi, keyin to'satdan ikkimizni xoli qoldirishlarini so'radi.

– Vanya, – dedi u zo'rg'a eshitiladigan tovush bilan, chunki endi juda ham quvvatdan qolgan edi, – men ko'p o'tmay o'laman. Juda ham yaqin qoldi, shuning uchun meni doimo yodingda saqlashingni so'rayman, esdalik uchun men senga mana shu medalonni qoldirib ketmoqchiman (u menga ko'kra-gida but bilan osilib turgan kattagina medalonni ko'rsatdi). Buni onam menga o'layotgan vaqtida bergan edi. Men o'lganimda mana shu medalonni yechib ol va ichidagini ochib o'qi. Men o'zim hammalariga medalonni faqat bitta sen o'zing olishing kerakligini aytaman. Nima yozilganini o'qiganingdan keyin uning oldiga borgin-da, mening o'lganimni, ammo uni kechirmaganligimni ayt. Tag'in unga aytki, men yaqinda Injilni o'qib chiqdim, unda: «O'z dushmanlaringizning hamma gunohini kechiring», – deb yozilgan. Men o'qidim-u, ammo uni, baribir, kechirmadim, chunki joni chiqayotgan paytda onaning oxirgi so'zi: «Men unga la'nat o'qiyman!» – degan so'z bo'ldi, men ham unga la'nat o'qiyman, o'zim uchun emas, onam uchun la'nat o'qiyman... Onamning qay ahvolda o'lganini, qanaqa qilib men Bubnovanikida yolg'iz qolganimni aytib ber. Bubnovanikida sen meni qay ahvolda ko'rgansan, hammasini bitta qo'ymay gapirib ber, shuni ham ayt, men unikiga borishdan ko'ra o'sha Bubnova-nikida qolishni a'lo ko'rganimni gapirib ber...

Shu so'zlarni ayta turib Nellining rangi o'chib ketdi, ko'zlari chaqnadi, yuragi shu qadar qattiq urib ketdiki, u holdan ketib yostiqqa suyandi va ikki daqiqacha bir so'z aytishga ham madori kelmadi.

– Ularni chaqir, Vanya, – dedi u nihoyat, ojiz tovush bilan, – men ularning hammasi bilan vidolashmoqchiman. Alvado, Vanya!..

U oxirgi marta meni bag'riga bosib quchoqladi. Hammalari kirishdi. Chol uning o'lishini tasavvuriga sig'dirolmasdi; buni xayoliga keltirishni ham istamasdi. U oxirgi damlargacha hammamiz bilan olishib: «U o'lmaydi, albatta, tuzalib ketadi», –

deb bizni ishontirmoqchi bo'lardi. G'am yeyaverib, hammadan ko'p ozib ketdi, Nellining karavoti oldida u ertadan kechgacha va hatto kechalari ham o'tirib chiqardi... Oxirgi tunlarda u mijja qoqmadi, u Nellining har qanaqa injiqligini ko'tarishga, og'zidan chiqqanini bajo keltirishga tirishar va uning oldidan bizning oldimizga chiqib achchiq-achchiq yig'lardi, ammo bir daqiqa o'tmay yana umidvor bo'lar va, albatta, tuzalib ketadi deb bizni ishontirardi. U xonaniyg hamma yog'ini gullar bilan bezatib tashladi. Bir gal u juda ajoyib oq, qizil atirgullardan katta guldasta yasab olib keldi, qayerdandir, uzoq yerdan o'z Nellijoniga olib kelibdi... Bu ishlari bilan u Nellini hayajonga solar edi. U ham hammaning muhabbatiga butun qalbi bilan minnatdor bo'lmay turolmasdi. Shu oqshom u hammamiz bilan vidolashmoqchi bo'lganda, chol u bilan abadiy xayrlashishni aslo istamadi. Nelli o'zini shod ko'rsatmoqqa urindi, u bilan hazillashdi, hatto kulib o'ynab yotdi... Biz hammamiz uning oldidan umidvor bo'lib chiqdik. Ammo ertasiga u tildan qoldi. Ikki kundan keyin abadiy ko'z yumdi.

Esimda bor, chol uning tobutini gullar bilan yasatayotib, uning ozib ketgan jonsiz yuziga, uning o'lim oldidagi tabassumiga, ko'krak ustiga qovushtirib qo'yilgan qo'lchalariga tikilarkan, ko'ngli vayron bo'lardi. Uning jasadi ustida o'z farzandi ustida yig'lagandek faryod qilib yig'ladi. Natasha, men, biz hammamiz uni yupatishga urinardik. Ammo u taskin topmasdi, Nelli dafnidan keyin qattiq kasal bo'lib yotib qoldi.

Anna Andreevna Nellining ko'ksidan yechib olgan medalonni menga topshirdi. Shu medalonda Nelli onasining knyazga yozgan xati bor edi. Men buni Nelli vafot etgan kun o'qidim. U knyazga la'natlar o'qib, uni kechira olmasligini, o'zining so'nggi kunlardagi hayotini, Nellining qanchalik mudhish ahvolda qolayotganini yozgan edi va, hech bo'lmasa, bola uchun biror yaxshilik qilishini so'ragandi. «U sizning pushti kamaringizdan bo'lgan qiz – sizning haqiqiy farzandingiz ekanini o'zingiz ham bilasiz. Men o'lganimdan keyin oldingizga borib, shu xatni o'z qo'lingizga topshirishni buyurdim. Agar siz Nellidan yuz o'girmasangiz, ehtimol, men sizni u dunyoda kechirarman va mahshar

kuni o'zim Oллоhdan o'zidan gunohingizdan o'tishini so'rarman. Nelli maktubning mazmunini biladi: men unga o'qib berganman, unga hamma gapni tushuntirganman. U hamma, hammasini biladi...»

Ammo Nelli onasining vasiyatini bajo keltirmadi: u hamma narsani bilardi, ammo knyaz oldiga bormadi, u bilan yarashmasdan o'lib ketdi.

Nellini ko'mib qaytib kelganimizdan keyin biz Natasha bilan bog'ga chiqdik. Kun issiq, oftob charaqlab turar edi. Bir haftadan keyin ular jo'nashi kerak edi. Natasha menga uzoq va g'alati qilib tikildi.

– Vanya, – dedi u, – Vanya, axir, bu bir tush edi-ku!

– Qanaqa tush? – so'radim.

– Barchasi, barchasi, – javob berdi u, – mana shu o'tgan bir yil tush edi, Vanya. Nima uchun men sening baxtingni barbod etdim?

Men uning ko'zlarida:

«Ikkiniz birga abadiy baxtli bo'lishimiz mumkin edi-ku!» – degan ifodani o'qidim.

MUNDARIJA

BIRINCHI QISM	3
IKKINCHI QISM	106
UCHINCHI QISM	206
TO‘RTINCHI QISM	316
XOTIMA	399

JAHON ADABIYOTI DURDONALARI

Fyodor DOSTOYEVSKIY

XO‘RLANGANLAR VA HAQORATLANGANLAR
(roman)

Tarjimon:

Habiba ZIYOXONOVA

Nashrga tayyorlovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

Mas’ul muharrir:

Lolaxon **QO‘ZIBOYEVA**

Qo‘shimcha izoh va iqtiboslarni kirituvchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

Musahhih:

Lolaxon **QO‘ZIBOYEVA**

Komp’yuterda sahifalovchi:

Ergashboy **MATYOQUBOV**

Litsenziya raqami AI № 274. 15. 07. 2015. da berilgan.

Bosishga 2019.06.11. yilda ruxsat etildi. Bichimi – 84x108 1/32

Bosma tabog‘i –13.5. Garnitura – «Times New Roman».

Qog‘oz – ofset bosma. Adadi – 1200 nusxa. Buyurtma raqami –44.

Bahosi kelishilgan narxda.

“ADAD-PLYUS” MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent, “Bunyodkor” shoh ko‘chasi 28-uy. 100097

**FYODOR
DOSTOYEVSKIY**

**XO'RLANGANLAR VA
HAQORATLANGANLAR**

O'zbek kitobxonlariga taqdim etilayotgan bu roman ulug' rus yozuvchisi F. M. Dostoevskiyning eng yirik asarlaridan biridir. Adib rus podsholarining poytaxti bo'lgan Peterburg shahrining eng qashshoq, baxtsiz fuqarolari hayotini tasvirlaydi, ularning oliyjanobligini, zolim knyaz Valkovskiy kabi katta yer egalarining berahm, ochko'zligini chuqur badiiy vositalar bilan ko'rsatadi.

To'g'ri asar tili birmuncha qiyinroq, tushinilishi esa oson emas. Lekin adibning ham mahorati aynan shunda ko'rinadi: asarni oxirigacha o'qisangizgina, adibning nima demoqchi ekanligini tushunasiz. Chunki oldingi sahifalarda sizni nima kutayotganligini ayta olmaysiz, har bir sahifada, albatta, kutilmagan, holatga duch kelasiz...

ISBN 978-9943-5770-8-4



9 789943 577084